

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

**X.T. ODILQORIYEV
B.E. OCHILOV**

XALQARO OMMAVIY HUQUQ

Darslik

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining Oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy
birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan**

**Toshkent
«Adolat»
2007**

Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T.

Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik /
Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T.; O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. – Toshkent: Adolat, 2007.
– 487 b.

BEK 67.412.1:73

**Toshkent davlat yuridik institutining
Ilmiy kengashi qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan**

Taqrizchilar: **A.R. Raxmanov** – yuridik fanlari doktori, professor.
S.M. G'afurov – siyosiy fanlar doktori, professor.
O.Z. Muhamedjonov - yuridik fanlari doktori.

Darslikda hozirgi kunda kechayotgan xalqaro voqelik, yangi xalqaro tartibotning o'rnatilishi va uning xalqaro huquqqa ko'rsatayotgan ta'siri hamda hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqining asosiy soha va institutlari batafsil yoritib berilgan.

Darslikda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uning xalqaro munosabatlar va xalqaro huquqqa ko'rsatayotgan ta'siri, respublikaning xalqaro-huquqiy tashabbuslari va xalqaro sahnadagi o'ziga xos o'rni va nufuzi atroflicha yoritib berilgan.

Darslik yuridik, xalqaro munosabatlar, xalqaro iqtisodiyot va siyosatahumoslik yo'nalishlaridagi talabalar, aspirantlar, o'qituvchilar va olimlar uchun mo'ljallangan. Xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq bilan qiziquvchi barcha o'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli va muhim ma'lumotlarni olishlari mumkin.


1207000000 – 032

A _____ - 2007

(04) – 2007

10-35096
2

ISBN 978-9943-332-35-5



- © B.E. Ochilov, X.T. Odilqoriyev.
- © O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Adolat» nashriyoti, 2007-yil.

SO'Z BOSHI

Xalqaro huquq butun dunyo davlatlari e'tirof etadigan hamda rioya qiladigan nufuzli yuridik tizimdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida ham xalqaro huquq, uning umume'tirof etilgan prinsiplari ustuvorligi tan olinishi mustahkamlangan. Buning ma'nosi shuki, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq prinsiplari va qoidalarining mamlakat milliy huquqidan ustuvorligini qat'iy e'lon qiladi. Shu bois xalqaro huquqni mukammal o'rganish va bilish huquqshunoslar hamda barcha ijtimoiy fan sohasidagi mutaxassislarning birinchi darajali vazifasidir. Mustaqil davlatimizning xalqaro maydonga chiqishi va xalqaro munosabatlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylanishi tegishli xalqaro-huquqiy institutlar va mezonlarni puxta o'zlashtirib olinishini talab etadi.

So'nggi yillarda xalqaro huquqning butun dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarni adolatli tartibga solish vositasi sifatidagi roli ortib bormoqda. Xalqaro huquq g'oyalari va prinsiplari ta'sirida xalqaro hamjamiyatda yangicha tafakkur shakllandi: xususan, o'zaro munosabatlarda kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish mafkurasi o'rni niazlarni tinch yo'llar bilan xalqaro-huquqiy vositalar yordamida hal qilish mafkurasi egallamoqda.

Xalqaro huquqning mazmun-mohiyatini, ichki tuzilishini, asosiy prinsiplari va tarmoqlarini anglab yetish hamda puxta o'zlashtirish O'zbekistonning tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatini, diplomatik aloqalarini amalga oshiruvchi barcha mutasaddi xodimlar, mutaxassislar uchun ayni zaruriyatdir. Qolaversa, mazkur soha uchun tayyorlanayotgan yosh mutaxassis kadrlar xalqaro huquq asoslarini mukammal bilishlari lozim.

Mazkur darslikning mualliflari ana shu mas'uliyatli hamda o'ta dolzarb vazifalarni hal etish ishiga muayyan hissa qo'shishga intilib sa'y-harakat qildilar. Darslik xalqaro ommaviy huquq masalalariga bag'ishlanib unda ushbu o'quv kursining umumiy tafsifi, tizimi, manbalari, prinsiplari, tartibga solish predmeti (mavzulari), xalqaro-huquqiy normalarni amalga oshirish mexanizmi, mazkur fan sohasi va huquq tizimining rivojlanish yo'nalishlari bayon etiladi.

Xalqaro ommaviy huquqning zamindor nazariy masalalarini ilmiy tahlil va talqin etish orqali uning barcha muhim institutlari mazmunini tushunish xalqaro-huquqiy normalarni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirish garovidir. Darslik mazmuni aynan xalqaro huquq nazariyasi bilan amaliyotining uzviy va uyg'un aloqadorligi asosiga tayangan.

Darslikning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda klassik xalqaro ommaviy huquq ta'limoti emas balki hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqi bayon etilgan. Bunda xalqaro maydonda ro'y bergan eng so'nggi voqeliklar, davlatlar va xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq ijodkorligi sohasidagi faoliyati va xalqaro hayotning boshqa qator yangi yo'nalishlari yoritilgan.

Fikrimizcha, ushbu darslik O'zbekiston halqaro huquq ilmini yanada boyitadi.

M. X. RUSTAMBOYEV.
Yuridik fanlar doktori, professor.

KIRISH

*Omnium profecto artium jus
inter gentes nobilissima – Shaksiz,
barcha fanlar ichida xalqaro huquq
eng ulug'voridir*

O'quvchi xalqaro huquq kursi bilan birinchi tanishuvi bo'lgani bois, avval bir necha umumiy masalalarni ko'rib chiqish o'rinli bo'ladi.

Xo'sh, xalqaro huquqni oily o'quv yurtining qaysi kursida o'rganish zarur? Nazarimizda, qo'yilgan savolga aniq javob mavjud emas. Darhaqiqat, «Xalqaro huquq»ni boshlang'ich kurslarda o'qishda ijobiy holatlar ham bor, ammo bu ma'lum qiyinchiliklardan ham xoli emas.

Talabalar huquqni davlatning u yoki bu ichki faoliyati mahsuli sifatida idrok etishga hali ko'nikma hosil qilmaganlarini ijobiy holat deb hisoblash lozim. Shunday ekan, ular huquqning butunlay boshqa, ya'ni xalqaro huquq tizimini qabul qilishga yuqori kurs talabalariga nisbatan ko'proq moyil bo'ladilar. Shu bilan bir vaqtda, quyi kurslarda xalqaro huquqni o'rganish ma'lum qiyinchiliklar bilan ham bog'liq. Gap shundaki, «Xalqaro huquq» huquqshunoslikda umumiy qabul qilingan, ya'ni davlat ichki huquqi (milliy huquq)da ham qo'llaniladigan tushunchalardan foydalanadi. Davlat va huquqning umumiy nazariyasi kursi milliy huquqning turli sohalarini o'rganish jarayonida to'ldirib boriladigan tushunchalarning ma'lum minimumini beradi. Biroq, bu to'ldirish xalqaro huquqni o'rganish, ba'zan esa uni o'rganishdan keyingi davrda ham parallel ravishda boradi. Bundan tashqari, xalqaro huquqning o'ziga xosligi tufayli, uning ko'pgina tushunchalari milliy huquqning ularga o'xshash tushunchalarini aynan aks ettirmaydi.

Navbatdagi umumiy masala xalqaro huquqning keng ixtisosli mutaxassislar tayyorlash tizimidagi o'rniga taalluqlidir. Gap bu o'rinda oliy ta'lim tizimi haqida borayotir. Mutaxassislar tayyorlashda tor ixtisoslashish oliy ta'lim tizimi xususiyatiga ziddir. Darhaqiqat, bu holat bunday o'quv yurtlarining nomlarida o'z aksini topgan. Bu yer-

da gap asrlar mobaynida shakllangan an'analar va milliy maktablariga ega oliy ta'lim tizimi haqida bormoqda. Ko'rsatilgan o'quv yurtlarining ilmiy salohiyati va moddiy imkoniyatlari bizni qurshagan olam haqidagi bilimlarni saqlash, ularni kengaytirish va avloddan-avlodga o'tkazish imkonini beradi.

Xalqaro huquqni oliy o'quv yurtlarining fakultetlarida o'qitishni to'laqonli oliy ma'lumot olishning majburiy sharti deb hisoblash kerak. Xalqaro huquqqa oid bilimlarsiz bunday ma'lumot to'liq bo'lmaydi. Xalqaro huquqni o'rganish, birinchidan, umumiy bilim hajmiga xalqaro huquqdek murakkab ijtimoiy hodisa to'g'risidagi bilimlarni qo'shadi. Ikkinchidan, ko'p tomondan davlat ichki huquqiga o'xshamagan huquq tizimini o'rganish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, ham hayot, ham huquqda ishlab chiqilgan va qotib qolgan aqidalardan farq qiluvchi tushunchalarni anglab yetish va qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Xalqaro huquqni o'rganish faqat yuqorida zikr etilgan maqsadlarga xizmat qilib qolmay, o'sib boruvchi amaliy ahamiyatga ham egadir. Gap shundaki, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi milliy mahdudlik to'siqlarini yakson qiladi, davlatlarning o'zaro bog'liqligini oshirib, hatto milliy doirada ham umumiy axloq standartlariga amal qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa qisman har qanday amaliyotchi huquqshunos, ishining xususiyatidan qat'iy nazar, xalqaro huquq masalalariga u yoki bu darajada duch kelishini anglatadi. Kimki xalqaro huquqni malakali tarzda anglay olsa, u mutaxassis sifatida katta nufuzga ega bo'ladi. Zero, bu hugungi kun talabidir.

Nihoyat, oxirgi umumiy mulohaza. U xalqaro huquq hozirgi o'rganilayotgan kursda qanday ifodalanadi, bu xalqaro huquq fani bo'ladimi yoki ijobiy (pozitiv) huquq bo'ladimi, degan savollarga javob izlashdan iborat. Agar xalqaro huquqni fan sifatida oladigan bo'lsak, unda o'rganish predmetini ijtimoiy hodisa sifatidagi xalqaro huquq haqidagi bilimlar yig'indisi tashkil etadi. Bu bilimlar tizimi tadqiqotchilar bir necha avlodining uzoq davom etgan faoliyati natijasi bo'lib, u xalqaro huquqni o'rganishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqaro huquq fani talabalarni yurisprudenssiyaning bu soha prinsiplari va umumiy tushunchalari hamda rivojlanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Bir qarashda ular ancha mavhum, real hayotdan

uzilgan bo'lib ko'rinishi mumkin, biroq ularsiz tizimning o'zini butunligicha, uning ayrim elementlarini o'zaro bog'liqlik va o'zaro aloqada tushunib bo'lmaydi. Ma'lum ilmiy tayyorgarliksiz pozitiv huquq normalarini to'g'ri tushunish va qo'llash umuman mumkin emas.

Xalqaro huquq fanining ahamiyatini tan olish bilan birga, amaliyotchi huquqshunosning muvaffaqiyatli ishlashi uchun pozitiv huquqni bilish zarurligini ham yodda tutish kerak. Kurs doirasida xalqaro huquqning amaldagi normalarini o'rganishga ancha keng o'rin beriladi. Shu bois aytib o'tilgan normalar xalqaro shartnomalarda mavjudligini va ayni paytda o'rganilayotgan mavzuga tegishli bo'lgan shartnomalarning matnlarini alohida e'tibor bilan, puxta o'rganishni tavsiya qilar edik. Bunday shartnomalardan birini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Bu yerda gap BMT Ustavi haqida borayotir. Uni bemalol hozirgi zamon xalqaro hayotini tartibga solish va tashkil etishning huquqiy poydevori deb atash mumkin. Ustavning mazmuni shu qadar keng qamrovliki, uni bir yoki bir necha boblarda yoritib berishning iloji yo'q, zotan u darslikka kiritilgan barcha boblarga u yoki bu darajada taalluqlidir.

E'tiborga molik jihati shundaki, darslikda hozirgi zamon xalqaro huquqining quyidagi yangi institut va tarmoqlari – atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish huquqi, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro gumanitar huquq, xalqaro yadroviy huquq va boshqalar mushohada etilgan.

Ilmiy va o'quv-uslubiy jihatdan o'zlashtirishni osonlashtirish manfaatlaridan kelib chiqib, mualliflar darslikni umumiy va maxsus qismlarga ajratdilar. Shuningdek, darslikka xalqaro huquq bo'yicha iboralar va tushunchalarning ta'rifi ilova qilingan.

Darslikning umumiy qismida xalqaro huquqning barcha asosiy institutlari, ilmiy toifa va tushunchalari nazariy tahlil etilgan hamda izohlab berilgan. Maxsus qism esa xalqaro ommaviy huquqning alohida tarmoqlari va institutlarining mukammal bayoniga bag'ishlangan. Shu tariqa umumiy va maxsus qismlar birligida zamonaviy xalqaro ommaviy huquq haqida to'laqonli tasavvur hosil qilinadi.

Xalqaro ommaviy huquq ilmini chuqur o'rganish ushbu darslikda berilgan ma'lumotlar doirasi bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Shu tufayli mualliflar har bir bob yakunida talabalar o'qib chiqishi

uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari va ilmiy asarlar ro'yxatini tavsiya etadilar.

Mualliflar ushbu darslik sifatini uning keyingi nashrlarida ham yanada yaxshilashga yo'naltirilgan xolisona fikr-mulohazalarni minnatdorlik bilan qabul qiladilar.

UMUMIY QISM

1-bob. XALQARO HUQUQ TUSHUNCHASI

1. *Xalqaro huquq tushunchasi va mohiyati.*
2. *Hozirgi zamon xalqaro huquqi va klassik xalqaro huquq.*
3. *Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq.*
4. *Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqi.*
5. *Xalqaro huquq, xalqaro munosabatlar, diplomatiya va tashqi siyosat.*

1. Xalqaro huquq tushunchasi va mohiyati

Xalqaro huquq tushunchasi. Xalqaro huquq deganda davlatlararo ommaviy-huquqiy xarakterdagi siyosiy, harbiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, iqtisodiy, valuta-moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va gumanitar munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy (shartnomaviy va odat) normalar yig'indisi tushuniladi.

Berilgan ta'rifdan kelib chiqadiki, xalqaro huquqning subyektlari davlatlar bo'lib, uning tartibga solish obyekti esa davlatlararo munosabatlardir (uning konkret turlari – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, harbiy-texnik, moliyaviy va boshq.). Keltirilgan ta'rif xalqaro huquqning o'ziga xosligini aks ettiradi, shunday bo'lsa-da, aytish lozimki, bu ta'rifni to'liq deb hisoblay olmaymiz. Shunday qilib, davlatlar – hozirgi zamon xalqaro huquqining yagona subyektlari emas. Ular bu huquqning asosiy suveren subyektlaridir, shuning uchun ham qisqacha ta'rifda barcha subyektlarni sanab o'tmasa ham bo'ladi. Xalqaro huquq to'g'risidagi bilimlarning yig'ilib borishi davomida bu ta'rif kerakli tarzda aniqlashtiriladi.

Xalqaro huquqning obyektlari. Huquq obyekti deganda harakati yo'naltirilgan va tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlar tushuniladi. Xalqaro huquqning bunday obyekti – xalqaro, aniqroq aytganda, davlatlararo munosabatlardir. Obyektdan xalqaro munosabatlar predmetini farqlash zarur. Predmet bo'yicha tomonlar huquqiy munosabatga kirishadilar. Harakatlar va harakatlardan o'zini tiyish, hudud va boshqalar shunday predmet bo'lishi mumkin. Hudud to'g'risidagi shartnoma unga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. U davlat-

larning berilgan hududga nisbatan munosabatini belgilaydi. Xalqaro-huquqiy tartibga solish ijtimoiy boshqaruvning bir ko'rinishi bo'lgani holda narsalar emas, balki ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi.

Xalqaro huquqning funksiyalari – uning ijtimoiy vazifalari bilan belgilanuvchi, muhitga ta'sir etish yo'nalishlaridir.

Xalqaro huquqning asosiy ijtimoiy funksiyasi xalqaro munosabatlarning mavjud tizimini mustahkamlashdir. Uning asosiy yuridik funksiyasi esa davlatlararo munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan iboratdir. Har ikkala funksiya ham tizimdagi ma'lum tartibni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi uchun barqarorlashtiruvchi va muhofaza qiluvchi xususiyatga egadir.

Xalqaro huquq uning maqsad va prinsiplariga zid bo'lgan yangi munosabat va institutlarning paydo bo'lishi va mavjudligiga qarshilik ko'rsatish funksiyasini ham bajaradi.

Davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqani kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat bo'lgan baynalmillallashtirish funksiyasi ham muhimdir.

Axborot-tarbiyaviy funksiya davlatlarning to'g'ri axloqiy tajribalarini yetkazish, xalqaro huquqni qo'llash imkoniyatlarini yoritish, huquq va u muhofaza qiluvchi manfaat va qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalashni xalqaro huquq subyektlariga singdirishdan iboratdir.

Xalqaro huquqning yuridik majburiy kuchi. Yuridik majburiy kuch – xalqaro huquqning huquqqa xos uslublar bilan xalqaro munosabatlarni tartibga solish xususiyatidir. Davlatlar o'rtasidagi bitim faqat alohida olingan shartnoma yoki normaga emas, balki butun xalqaro huquqqa ham majburiy yuridik kuch beradi. Bu holat xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipining mazmunida o'z ifodasini topadi.

Xalqaro huquqning majburiy kuchi masalasi shu huquqning o'z tabiati bilan bog'liq muammolar jumlasiga kiradi. Shuning uchun ham bu sohadagi asosiy konsepsiyalar xalqaro-huquqiy doktrinadagi asosiy maktablarga to'g'ri keladi. Tabiiy huquq tarafdorlari xalqaro huquqning majburiy kuchi manbayini tabiat qonunlari, inson ongi va boshqalarda deb biladilar. Pozitivizm maktabi vakillari esa bu manba sifati davlatlarning totuvligi, kelishuvini ko'rsatadilar. Xalqaro huquqning majburiy kuchi to'g'risidagi doktrinadagi uchinchi asosiy yo'nalishni nigilistik yo'nalish deb atasak bo'ladi, chunki bu yo'nalishga taalluqli konsepsiyalar u yoki bu tarzda xalqaro huquqning majburiy yuridik kuchini inkor etadi.

Xalqaro huquqning amal qilish doirasi. Xalqaro huquqning amal qilish doirasi deganda tartibga solish obyektiga nisbatan xalqaro-huquqiy ta'sir ko'rsatish vositalarini qo'llash sohasi tushuniladi. Bu soha uch asosiy jihatga egadir, bular – subyekt, obyekt va makon.

Subyekt sohasi - xalqaro huquqning ta'siri joriy qilinadigan subyektlar doirasi bilan belgilanadi. Unga davlatlararo (xalqaro) tashkilotlarning qo'shilishi subyekt sohasidagi muhim o'zgarish bo'ldi.

Obyekt sohasi – xalqaro huquqning obyekt bo'lgan, u tomonidan tartibga solinuvchi munosabatlar doirasidir. Obyekt sohasi subyekt sohasi bilan uzviy bog'liqdir, chunki unga faqat xalqaro huquq subyektlari orasidagi munosabatlar kiradi.

Xalqaro huquq ta'sir doirasining bu barcha jihatlari amaliy tomondan muhimdir. Barcha shartnomalar uchun ta'siri joriy etiladigan subyekt sohasi birinchi darajali ahamiyatga ega. Obyekt sohasi shartnomaning mazmuni, ya'ni munosabatlarning qaysi ko'rinishlari qay darajada u tomonidan tartibga solinishi bilan belgilanadi.

Makon sohasi. Xalqaro huquqning makon (yoki hududiy) ta'sir doirasi amaliyotning asosiy e'tiborini o'ziga jalb etadi, shartnomalarning amal qilish doirasi to'g'risidagi qarorlar aynan unga bag'ishlangandir. Gap xalqaro huquq amal qiladigan quruqlik, suv, havo, kosmik kengliklar to'g'risida ketmoqda.

Xalqaro huquqning nomlanishi. Asrlar davomida xalqaro huquq *jus gentium* nomi bilan ma'lum bo'lgan. Bu Rim huquqidan olingan bo'lib, xalqaro huquqning davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi sifatidagi mazmunini ochib berolmas edi. Rim huquqida *jus gentium* Rim fuqarolari va Rim fuqarosi bo'lmaganlar, shuningdek, fuqaro bo'lmaganlar o'rtasidagi xususiy munosabatlarni tartibga solardi.

XVII asrning o'rtalariga kelib, ingliz olimi Zech «*jus gentium*» o'rniga yanada aniqroq nomlanish – «*jus inter gentes*» (xalqlar o'rtasidagi huquq) atamasini qo'llashni taklif qildi. Xalqaro huquq atamasi shundan kelib chiqqan.

O'zbekiston hududi doirasida «xalqaro huquq» atamasi XIX asrning o'rtalaridan boshlab umumiy foydalanishga kirdi. Ungacha «xalqlar huquqi» iborasi ishlatilar edi. Bu «*jus gentium*» – «umum-xalq huquqi»ning so'zma-so'z tarjimasi edi. Ayni vaqtda, «xalqaro huquq» atamasini unchalik muvaffaqiyatli ishlatilgan deb bo'lmaydi.

Chunki bunday huquq xalqlar o'rtasidagi emas, balki davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Taniqli xalqaro huquqshunos V.A. Nezabitovskiy (1824-1883) ta'kidlaganidek, bu huquqni davlatlararo huquq deb atash to'g'riroq bo'lar edi.

2. Hozirgi zamon xalqaro huquqi va klassik xalqaro huquq

Xalqaro ommaviy huquq uzoq rivojlanish yo'li davomida ancha o'zgarishlarga uchradi. Hozirgi kunda amalda bo'lgan xalqaro huquq bilan ikki yuz yil oldin amal qilgan xalqaro huquqning prinsiplari va normalarini solishtirsak, ular orasida katta farq borligini ko'ramiz. Ilgari amal qilgan normalar va prinsiplar tizimi klassik xalqaro huquq nomini olgan, zamonaviy normalar va prinsiplar tizimi esa hozirgi zamon xalqaro huquqi deb nomlanadi. Ta'kidlash lozimki, klassik xalqaro huquq va hozirgi zamon xalqaro huquqi o'rtasida aniq belgilangan chegara mavjud emas: hozirgi zamon xalqaro huquqida klassik xalqaro huquqda amalda bo'lgan ko'pgina normalar hanuz amal qiladi.

Ba'zi mualliflar hozirgi zamon xalqaro huquqining paydo bo'lishini 1648-yilgi Vestfal sulh bitimi tuzilishi bilan bog'lasalar, boshqalar uning kelib chiqishini XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga taqaydilar. Fikrimizcha, birinchi navbatda hozirgi zamon xalqaro huquqining klassik xalqaro huquqdan farqlarini ko'rib chiqish, bu farqlarning paydo bo'lish vaqtini aniqlab olish, so'ng esa hozirgi zamon xalqaro huquqining vujudga kelish vaqtini aniqlash zarur.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi va klassik xalqaro huquq o'rtasidagi sezilarli farq ularning urush va tinchlikka bo'lgan munosabatlaridadir. Klassik xalqaro huquq urushni davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishning huquqiy vositasi sifatida qabul qilar edi. Masalan, XX asrning boshlaridayoq F.F. Martens «urush hozirgacha xalqaro nizolarni hal qilishning odatiy vositasi bo'lib qolmoqda», deya fikr yuritgan edi. Klassik xalqaro huquqning bu qoidasi xalqaro huquq kursini, urush va tinchlik huquqidek sof tashqi ajratishda ham o'z aksini topgan. Hyugo Grotsiyning «Urush va tinchlik huquqi to'g'risida»gi mashhur kursi bunga o'ziga xos misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1928-yilgi Brian-Kellog paktiga asosan, milliy siyosat quroli sifatida urushdan foydalanish taqiqlab qo'yildi.

Urushga bo'lgan munosabat Birinchi jahon urushidan keyin uzil-kesil o'zgardi. BMT Ustavida kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish butunlay taqiqlab qo'yildi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi klassik xalqaro huquqdan hududiy ta'sir doirasi bilan ham farq qiladi. Qadimgi xalqaro huquq faqat kelib chiqishi bilangina emas, balki tarqalishi jihatidan ham Yevropa huquqi hisoblanadi. U asosan Yevropa davlatlari o'rtasida amal qilgan. Uning hududiy tarqalishining cheklanganligi hatto xalqaro huquq kurslarining nomlarida ham ta'kidlab o'tilgan. Masalan, F.F. Martensning eng mashhur asari «Madaniylashgan xalqlarning hozirgi zamon xalqaro huquqi» deb atalgan. Keng tarqalgan xalqaro huquq kursining muallifi, nemis millatiga mansub F. List xalqaro huquq faqat 43 ta davlat o'rtasidagi munosabatlardagina to'la hajmda amal qiladi, deb hisoblagan. Bu davlatlar qatoriga u 21 ta Yevropa davlatini, 21 ta Amerika davlati hamda Yaponiyani kiritgan va qolgan barcha Osiyo va Afrika davlatlarini xalqaro huquq ta'siri doirasidan chiqarib tashlagan.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi o'z ta'sir doirasiga barcha davlatlarni oladi. Bu jihatdan u tom ma'noda universaldir. Klassik xalqaro huquqda bir davlatning boshqa davlatga qaramligining turli darajalarini belgilab beruvchi (koloniyalar, protektoratlar va sh.k.) normalar mavjud edi.

Mashhur Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi 1960 yilgi Deklaratsiya kolonial xalqlarning qaramlikdan ozod bo'lish, o'z taraqqiyoti yo'lini o'zi erkin belgilash huquqini tan oldi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi klassik xalqaro huquqda mavjud bo'lgan kapitulatsiya rejimi va settelmentlar kabi kolonial huquq institutlarini inkor etadi.

Bu ikki xalqaro huquq yo'nalishi bir-biridan manbalari bilan ham farq qiladi. Klassik xalqaro huquq kelib chiqishiga ko'ra asosan odat huquqidir. Hozirgi zamon xalqaro huquqida ham xalqaro odat asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Lekin kodifikatsiyalashdagi yutuqlar va xalqaro huquqning progressiv rivoji hozirgi zamon xalqaro huquqini kelib chiqishiga ko'ra shartnoma huquqi sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Bu ikki yo'nalishni subyektlari bo'yicha ham farqlash mumkin. Klassik xalqaro huquqda yagona subyekt davlat edi. Hozirgi zamon xalqaro huquqida esa davlat asosiy subyekt bo'lib qolishi bilan birga, yangi hosila subyektlar – xalqaro tashkilotlar va davlatsifat tuzilmalar ham mavjud.

Xalqaro huquqning individga munosabati ham o'zgardi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi individga va xususan inson huquqlariga katta e'tibor bermoqda. Hozirgi zamon xalqaro huquqida davlatlarning inson huquqlarini himoya qilish borasidagi hamkorligini tartibga soluvchi tarmoq shakllangan.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida davlatlar bilan birga individlar ham xalqaro jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Jumladan, Nyurnberg va Tokio harbiy sud jarayonlarining qarorlari bunga misol bo'la oladi. Harbiy jinoyatchilar insoniyat va tinchlikka qarshi harakatlari uchun o'z davlatlari bilan birga xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortildilar.

Tabiiyki, hozirgi zamon xalqaro huquqida klassik xalqaro huquqda bo'lmagan yangi tarmoqlar vujudga keldi, masalan, xalqaro havo huquqi, xalqaro yadro huquqi, xalqaro fazo huquqi va shu kabilar.

«Zamonaviylik»ning o'zigina hodisasining vaqt omilini ko'rsatmaydi. Har bir davrda o'sha davrda yashagan odamlar uchun amalda bo'lgan huquq zamonaviy hisoblanadi. Masalan, F.F. Martens uchun uning «Madaniylashgan xalqlarning hozirgi zamon xalqaro huquqi» deb nomlangan birinchi kitobi chiqqan 1882-yil zamonaviy davr hisoblangan.

Bizning davrimizda «hozirgi zamon» iborasi xalqaro huquqqa nisbatan shuni anglatadiki, biz klassik xalqaro huquqqa nisbatan yangi tizimdagi xalqaro huquq bilan ish ko'ramiz.

Yangi xalqaro huquqqa olib kelgan sifat o'zgarishlarining boshlanishi XX asrda qayd etilgan bo'lsa, bu huquq shakllanish davrining nihoyasi BMT faoliyatining dastlabki yillari bilan belgilanadi.

3. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq

Xalqaro ommaviy va xususiy huquqning o'zaro mutanosibligi masalasi murakkab nazariy muammo bo'lib, uni ko'rib chiqish ham

xalqaro ommaviy huquq, ham xalqaro xususiy huquqni ancha yuqori saviyada bilishni talab etadi. Bu masalaga xalqaro xususiy huquq kursi o'qilganda qaytish mumkin. Hozircha esa ilmiy munozaralarga chuqur kirishmasdan, xalqaro ommaviy va xususiy huquq nimaligini aniqlashga urinib ko'ramiz.

ta'riflab o'tganimizdek, xalqaro ommaviy huquq – bu davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir. Ba'zan bunday munosabatlarning xususiyatini aniqlash maqsadida ularni hokimiyat munosabatlari deb ham atashadi.

Xalqaro xususiy huquq deganda xorijiy element bilan murakablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi tushuniladi.

Muayyan huquqiy munosabatlarda xorijiy element bo'lmasa, bu munosabat biror davlatning fuqarolik huquqi tomonidan hech bir qo'shimchasiz tartibga solingan bo'lar edi. Faqat bunday huquqiy munosabatga xorijiy element qo'shilgandagina muammo yuzaga keladi.

Xalqaro xususiy huquqning o'rni to'g'risidagi masala bahslidir. Ba'zi mualliflar xalqaro xususiy huquqni davlat milliy huquqining bir qismi deb hisoblasa, boshqalar uni xalqaro huquqqa tegishli deb hisoblaydilar.

Xalqaro xususiy huquq atamasidagi «xalqaro» so'zini shu ma'noda tushunish zarurki, xorijiy elementga ega aniq bir fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish – bir davlat huquq tartiboti doirasidan chiqishni talab etadi. Boshqacha aytganda, bu holda bir necha davlat huquq tartiboti o'zaro munosabatda bo'ladi, bir necha davlatlar bilan munosabatlar vujudga keladi, shuning uchun ham bunday fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish xalqaro tus oladi.

Xalqaro ommaviy va xususiy huquq ayniqsa iqtisodiy aloqalarni huquqiy tartibga solishda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Aytilganlarni quyidagi misol bilan tushuntirish mumkin. Ikki davlat o'zaro savdo shartnomasi tuzadi va unda bu davlatlarning savdo munosabatlarini tartibga solish prinsiplari belgilanadi. Mazkur shartnoma qoidalari bilan bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni savdo masalalari bo'yicha davlatlararo munosabatlar tartibga solinadi. Boshqacha aytganda, bunday davlatlar o'rtasidagi munosabatlar shu savdo shartnomasidagi xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi. Ko'rsatilgan shartnoma asosida bir davlatning yuridik va jismo-

niy shaxslari ikkinchi davlatning yuridik va jismoniy shaxslari bilan savdo bitimlari tuzadi hamda ularning bu bitimlar bo'yicha munosabatlari xalqaro xususiy huquq orqali tartibga solinadi.

4. Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqi

Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqi o'rtasida qator muhim farqlar bo'lishiga qaramay, bu ikki huquq tizimi o'zaro mutanosib bo'lib, biri ikkinchisiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunda o'zaro ta'sirning ko'rinishlari va xususiyati, xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqi o'rtasidagi munosabatlar masalasiga har xil yondashuvlar shakllangan. Ularni ikki yo'nalishda guruhlash mumkin.

XIX asr oxirida paydo bo'lgan dualistik nazariya (Tripsl, Ansilotti, Komarovskiy, Martens) xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqining o'ziga xosligiga asoslanadi hamda ularni tartibga solish obyektlari, huquqiy munosabatlar subyektlari tarkibi va yuridik normalari paydo bo'lishi manbalari har xilligi tufayli, ular bir-biriga tobe emasligini tasdiqlaydi. Dualizm tarafdorlari bu ikki huquq tizimi har xil huquqiy tartibotga xizmat qilganligi uchun hech qachon o'zaro bahslasha olmasligini ta'kidlaydilar.

Faqat vaqt o'tishi bilan ikki tizim o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudligi va usiz bu tizimlarning hech biri o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olmasligi haqida fikrlar ilgari surila boshlandi. Bunday qayta yo'nalish olish «dialektik dualizm¹» deb ta'riflandi. U xalqaro huquqning milliy huquqdan ustuvorligini tan olgan holda, xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqining uzviy bog'liqligini e'tirof etish bilan tavsiflanadi².

Dualistik nazariyadan farqli o'laroq, monistik konsepsiya (Lasson, Kaufman, Kelzen, Russo va boshq.) ko'rilayotgan ikki tizimning birligini asoslaydi, ammo ularning biri ikkinchisidan ustuvorligini tan oladi. Monistik yo'nalishlardan birining (bosiq monizm) qarashiga ko'ra, xalqaro huquq go'yo milliy huquqiy tizimlarning davomi yoki yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi yoxud normalari faqat davlatlar-

¹ Панов В.П. Международное право: Учебные материалы. – М.: ИНФРА, 1989. – С. 9.

² Muammoga bunday qarash, jumladan, quyidagi kitobda ifoda etilgan edi: Радойно П. Международно-правни проблеми на социалистическата интеграция. – София, 1984. – С. 29. Bu erda «realistik dualizm» tushunchasi ishlatilgan.

ning milliy huquqiga u yoki bu tarzda kiritilgandagina yuridik kuchga ega bo'ladigan «davlatning tashqi huquqi» davomi hisoblandi. Monistik nazariyaning boshqa yo'nalishi vakillari (radikal monizm) esa, aksincha, xalqaro huquqni faqat ichki huquqning harakat doirasinigina emas, balki uning butun normativ qoidalari mazmunini ham belgilovchi yuqori huquqiy tizim sifatida tan olish tarafdorlaridir.

Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqi tizimlari o'rtasidagi munosabatlar sohasidagi hodisalarning aniq holatini ko'rib chiqish xronologik nuqtayi nazardan milliy huquqning xalqaro huquqqa ta'siri birlamchi ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Bu keyinchalik xalqaro huquq tarkibiga kirgan yuridik normalarning aksariyat qismi avval davlatlarning milliy huquqi qoidalari sifatida shakllanganligi bilan izohlanadi. Xuddi shunday norma yaratish jarayonining amalga oshishi va huquqning ko'rib chiqilayotgan ikki tizimining o'zaro ta'siriga inson huquqlari va erkinliklarini tartibga solish sohasi misol bo'la oladi. Bu soha avvaldan turli mamlakatlarning qonunchiligida mustahkamlangandir.

Zamonaviy xalqaro huquqning ko'pgina asosiy prinsiplari ham shundan guvohlik beradi. Ular dastavval xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, davlat hududining yaxlitligi, chegaralarning buzilmasligi bo'yicha shartnoma majburiyatlarini va boshqa shartnomalarni sidqiddan bajarish prinsiplarini o'z ichiga olgan davlatlarning milliy huquqiy tizimlari doirasida shakllangan va samarali amal qilgan. Xalqaro huquq tomonidan milliy huquqiy tizimlar doirasida paydo bo'ladigan va davlatlar faoliyatining turli maxsus sohalarini tartibga solishga qaratilgan: milliy tabiiy resurslar va boyliklar ustidan davlat suverenitetining ajralmasligi, chegaralar o'rnatish va chegara tartibini qo'llab-quvvatlash, chegaraoldi hududlardan foydalanishni tartibga solish¹, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va boshqa ishlarda xalqaro hamkorlik kabi normativ mazmundagi qoidalarni qabul qilish asosli ravishda ta'kidlanadi.

Qariyb barcha fundamental huquqiy qoidalar – ba'zan huquqning umumiy prinsiplari (xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan farqli o'laroq), ya'ni «yuridik maksima» (qat'iy talab)lar xalqaro huquq to-

¹ Международное право: Учебник / Под ред. К.А. Бектеева. – М., 1998. – С. 80-81.

monidan qabul qilinishiga ham urg'u beriladi¹. Bu «yuridik maksimallar» – «qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas», «keyingi qonun oldingisini bekor qiladi», «teng huquqli teng huquqli ustidan hokimiyatga (yurisdiksiyaga) ega emas», «hech kim boshqaga o'zi ega bo'lganidan ko'proq huquq bera olmaydi», «shartnomalar uchinchi tomonga zarar ham, foyda ham keltirmaydi», «nimaiki arzimaydigan bo'lsa, hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi» – Rim huquqida shakllanib, keyinchalik milliy huquqiy tizimlar tomonidan to'la o'zlashtirilgan edi.

Ba'zi nazariyotchilarning fikricha, xalqaro huquqning davlatlarning milliy huquqiga ta'siri xalqaro huquq axloq qoidalarining davlatlarning milliy huquqi normativ hujjatlarida mustahkamlanishi orqali transformatsiya qilinishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash zarurki, so'nggi paytlarda bu konsepsiya tarafdorlari yuqorida keltirilgan iboraning asosiligi to'g'risida so'z yurita boshladilar. Gap shundaki, ular xalqaro-huquqiy normalarning milliy huquqqa o'tishi asl transformatsiyada sodir bo'ladiganidek, boshlang'ich normativ materialning yo'qolishi bilan birga kechmasligini tushunib yetdilar.

Endi ular bu yerda o'zgarishning formal yuridik-texnik usuli emas, balki davlat tomonidan milliy hudud ichida xalqaro-huquqiy majburiyatning bajarilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan barcha choralar yig'indisi nazarda tutilishini tasdiqlamoqdalar. Shunday bo'lsa-da, «transformizm»ning qat'iy tarafdorlari davlatlarning milliy huquqi tizimining xalqaro huquq normalarini anglashi to'g'risida faqat bunday normalarning milliy normalar sifatida qayta qabul qilinishini ko'rsatuvchi maxsus qonun chiqarilgandan so'nggina gapirish mumkin, degan fikrdalar.

Bu masalalarda davlatlarning real ichki amaliyoti bayon qilingan konsepsiyaga mos kelmasligi sababli, hozirda doktrinaga ko'proq aniqliklar kiritilmoqda. Ularga ko'ra, xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa qo'shilishi faqat odatda konstitutsiya yoki boshqa qonun hujjatlarida mavjud bo'lgan «asosiy havola» asosida amalga oshirilishi mumkin.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi amaliyotida xalqaro huquq tizimi qoidalarini davlatlarning milliy huquqida amalga oshirish jarayoni (yoki xalqaro huquq normalarini milliy huquq tizimlarida qo'llash)

¹ BMT Xalqaro Sudi Statutining 38-moddasi 1-(c)-bandi.

xalqaro huquq normalarining hayotga tatbiq etilishi yoki «huquqni amalga oshirishni» anglatuvchi «implementatsiya» atamasi bilan belgilash qabul qilingan. Bu maqsadda qadimdan bizgacha yetib kelgan inkorporatsiya mexanizmlari (ya'ni davlat ichki qonun chiqarish hujjatida xalqaro huquq normalarining aniq, ayni matn holida aks ettirilishi) yoki resepsiya (xalqaro shartnoma normasini umumiy shaklda milliy qonunda aks ettirilishi)dan foydalaniladi.

5. Xalqaro huquq, xalqaro munosabatlar, diplomatiya va tashqi siyosat

Xalqaro huquq hayotiy hodisa sifatida boshqa ijtimoiy hodisalar (siyosat, iqtisod va boshq.) tizimida mavjud bo'ladi va harakat qiladi. U o'zida bu hodisalarning ma'lum ta'sirini his qiladi va o'z navbatida ularga ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro huquqning xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat va diplomatiya kabi ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro aloqalari va o'zaro mutanosibligini ko'rib chiqish xalqaro huquqni to'liqroq tushunishga yordam beradi.

Xalqaro huquq eng avvalo xalqaro munosabatlar bilan o'zaro bog'liq. Ko'pincha ular orasida hech qanday farq topilmaydi va biri ikkinchisi sifatida qabul qilinadi. Holbuki, ular o'zaro bog'liq bo'lishiga qaramay, aslida har xil ijtimoiy hodisalaridir. Ularning o'zaro aloqasi masalasini aniqlashni xalqaro munosabatlar tushunchasining ta'rifidan boshlaymiz. Bunday ta'riflar ko'p va biz quyidagi ta'rifga to'xtalamiz: *xalqaro munosabatlar davlatlar orasida hozirgi paytda mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar bilan almashish borasidagi aniq aloqalardir.* Boshqacha aytganda, bu biz guvohi bo'lib turgan real xalqaro hayot demakdir.

Shunday qilib, bir tomondan, davlatlar orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar majmuasi – xalqaro huquq bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlatlar orasidagi kundalik aloqalar – xalqaro munosabatlar hisoblanadi. Ko'rib turibmizki, ushbu ijtimoiy hodisalarning subyektlari umumiydir. Bu subyektlar orasidagi ma'naviy va moddiy boyliklar almashinuvi ma'lum axloq qoidalari bilan tartibga solinadi. Ularning orasida asosiy o'rinni yuridik normalar, ya'ni xalqaro huquq normalari egallaydi. Shunday qilib, xalqaro huquq xalqaro munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro huquq normalari davlatlar orasida bitimlar tuzish yo'li bilan yaratiladi. Kelishuvga kamida ikkita davlat ma'lum o'zaro aloqaga kirishganda, ya'ni xalqaro munosabatlar vositasida erishiladi. Bu nimani anglatadi? Bu xalqaro munosabatlar xalqaro huquq normalari yaratiladigan muhit bo'lib xizmat qilishini bildiradi. Ularning qo'llanishi ham o'sha muhitda amalga oshadi. Bundan xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar o'zaro ta'sirda bo'ladi degan metodologik xulosa kelib chiqadi.

Ayni paytda xalqaro huquqning tashqi siyosat va diplomatiya bilan o'zaro ta'sirini ko'rib chiqamiz. ta'riflardan boshlaymiz. *Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari sohasidagi faoliyatining maqsad, vosita va usullari yig'indisi sifatida tushuniladi.* Har qanday davlat tashqi siyosatining asosiy maqsadi o'zining milliy manfaatlarini himoya qilishdir. *Diplomatiya esa tashqi siyosat vositalaridan biri bo'lib, tegishli davlat organlarining davlat tashqi siyosati maqsad va vazifalarini tinch yo'l bilan amalga oshirish borasidagi faoliyati sifatida ta'riflanadi.*

Ta'kidlab o'tilganidek, xalqaro huquq davlatlar tomonidan, ular o'rtasidagi munosabatlar jarayonida yaratiladi. Shu bilan birga, har bir davlat xalqaro huquq normalarini yaratish jarayonida o'zining shu maqsadlariga ko'proq javob beradigan, uning tashqi siyosatiga mos keladigan mazmundagi normalar yaratishga intiladi. Boshqacha aytganda, davlatning tashqi siyosati xalqaro huquq normalari mazmuniga, butun xalqaro huquqqa ta'sir ko'rsatadi. Davlatning tashqi siyosiy manfaatlarini yaratilayotgan xalqaro huquq normalarida qay darajada to'la mustahkamlanishi shu davlat diplomatiyasi, muzokara olib borayotgan shaxslarning mahorati va iste'dodiga ham bog'liq bo'ladi. Mana shu yerda diplomatiya tor ma'noda muzokaralar olib borish va xalqaro shartnomalar tuzish san'ati sifatida namoyon bo'ladi. Davlat o'z maqsadlarini belgilab, boshqa davlatlar bilan munosabatlardagi faoliyatining usul va vositalarini tanlar ekan, bu tanlovda cheklangan bo'ladi. Avvalo, aytib o'tilgan maqsad, vosita va usullar shu davlatning xalqaro majburiyatlariga zid kelmasligi, ya'ni ular shu davlat tan oladigan xalqaro huquq normalariga mos kelishi kerak. Yuqoridagi fikrlar xalqaro huquq davlatning tashqi siyosati va diplomatiyasiga ta'sir ko'rsatishini anglatadi. U davlat tashqi siyosiy faoliyatining o'z

normalariga mos yoki zidligini belgilab, ularning birinchisini huquqiy himoya qiladi va ikkinchisini huquqiy himoya qilishni rad etadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro huquqning umumiy huquq tizimida tutgan o'rni.*
2. *Xalqaro huquqning xalqaro munosabatlar bilan bog'liqligi nimadan iborat?*
3. *Xalqaro huquqning davlatlarning ichki (milliy) huquqi bilan mutanosibligi haqida so'zlab bering.*
4. *Hozirgi zamon xalqaro huquqining xususiyatlari.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бобокулов И. Халқаро ҳуқуқ ва миллий ҳуқуқ // Ҳаёт ва қонун. – Т., 1999. – № 7. – 42-44-бетлар.
2. Бобров Р.Л. Основные проблемы теории международного права. – М., 1968.
3. Георгиев Д. Политика или господство права: деструкция и легитимность в международном праве. – М., 1974.
4. Левин Д.Б. Международное право, внешняя политика и дипломатия. – М.: Междунар. отношения, 1981.
5. Лукашук И.И. Международно-правовое регулирование международных отношений. – М.: Междунар. отношения, 1975.
6. Лукашук И.И. Функционирование международного права. – М., 1992.
7. Лукашук И.И., Саидов А.Х. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи назарияси асослари: Дарслик. – Т.: Адолят, 2006.
8. Маткаримова Г.А. Халқаро ҳуқуқ ва Ўзбекистон ҳуқуқий тизими. – Т.: ТДЮИ, 2002.
9. Морозов Г.И. Международное право и международные отношения (проблемы взаимосвязи). – М., 1997.
10. Мюллерсон Р. А. Соотношение международного и национального права. – М., 1982.
11. Одиқориев Х., Маткаримова Г. Халқаро ва миллий ҳуқуқ: ўзаро муносабат ҳамда таъсир // Давлат ва ҳуқуқ. – Т., 2000. – № 1. – 62-65-бетлар.
12. Роль международного права в современной внешней политике. – М.: МГИМО, 1991.

13. Рубанов А.А. Теоретические основы международного взаимодействия национальных правовых систем. – М., 1984.
14. Тункин Г.И. Теория международного права. – М.: Междунар. отношения, 1970.
15. Черниченко С.В. Международное право: современные теоретические проблемы. – М., 1993.
16. Черниченко С.В. Теория международного права в двух томах. Т.1.: Современные теоретические проблемы; Т.2.: Старые и новые теоретические проблемы. – М.: Издательство «НИМП», 1999.
17. Шуршалов В.М. Международные правоотношения. – М., 1971.
18. Юлдашева Г. Халқаро ҳуқуқий нормаларнинг Ўзбекистон Республикаси суд тизими томонидан қўлланилиши. – Т.: ТДЮИ, 2004.
19. Conforty V. International Law and the Role of Domestic Legal Systems. – Dordrecht, 1993.
20. Morgenthau H.J. Politics Among Nations. The Struggle for Power and Peace. 2nd ed. – New York: Alfred A. Knopf, 1955.
21. Rusk D. The Role of International Law in World Affairs. – Washington, D.C., 1964.

2-bob. XALQARO HUQUQ TARIXI

1. *Xalqaro huquqning kelib chiqishi va uning tarixini davrlash.*
2. *Xalqaro huquq ilmi shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari.*
3. *Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro huquqning rivojlanishi.*

1. Xalqaro huquqning kelib chiqishi va uning tarixini davrlash

Xalqaro huquqning kelib chiqishi muammosi bu fanni qanday tushunishga bog'liq. Agar xalqaro huquqni tor ma'noda «xalqlar o'rtasidagi huquq» deb tushunsak, unda shuni tan olish kerakki, u hali davlatlar paydo bo'lmasidan oldinroq yuzaga kelgan edi. Agar unga «davlatlar o'rtasidagi huquq» deb yondashadigan bo'lsak, unda bu huquqning paydo bo'lishini ilk davlatlar paydo bo'lishi bilan bog'lashimiz lozim. Ayni paytda, zikr etilgan fikrga nisbatan ilmiy adabiyotlarda yagona to'xtamga kelinmagan. Ba'zi olimlar xalqaro huquqning paydo bo'lishini ilk quldorlik davlatlari paydo bo'lishi bilan bog'lasalar (masalan, sovet olimlari), boshqalar xristianlikning paydo bo'lishi bilan (Sharl de Visser) yoki bir toifa olimlar yirik markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi bilan bog'laydilar (L. Oppengeym).

G'arb fanida xalqaro huquq tarixining davriy bo'linishini aniqlashga urinishlar mavjud. Bu mafkura rivojlanishi yoki sof yuridik qarashlarga asoslangan. Masalan, quyidagicha davrlarga bo'lish taklif qilinadi:

- qadimgi davrlardan boshlab Birinchi jahon urushigacha;
- ikki jahon urushi oralig'i;
- Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro huquq fanida xalqaro huquq fanining rivojlanish jarayonini davrlarga bo'lishga asosan ikki xil yondashuv mavjud:

- birinchisi – «xronologik», ya'ni bu jarayonni (zamonda davomiyligining qisqa yoki uzoqliligiga qarab) yagona zanjirni tashkil etuvchi alohida bosqichlarga bo'lish;
- ikkinchisi – jarayonni mafkuraviy yoki sof siyosiy tartib ko'rsatmalaridan chiqariladigan va teologik, falsafiy yoki sinfiy qarash-

larga asoslanuvchi qonuniyatlarga bog'liqligini asoslashga urinishlarda ifodalanadi.

Uzoq yillar davomida sovet xalqaro huquq doktrinasi «xalqaro huquq tarixining davrlarga ilmiy bo'linishi ma'lum sinfiy ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga mos keluvchi davlatning tarixiy tiplari to'g'risidagi markscha-lenincha ta'limotga tayanadi»¹, degan bosidan oxirigacha xato bo'lgan yondoshuvda turdi. Bundan sivilizatsiya rivojlanishining konkret davrlarida quldorlik, feodal, burjuaziya, keyin esa sotsialistik xalqaro huquq mustaqil ravishda mavjud va harakatda bo'lganligi to'g'risida xulosa chiqarildi. Ta'kidlashlaricha, boshqalaridan prinsipial farqlarga ega bu huquqiy tizimlarning har biri tarixiy sahnada o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib berdi. Bu narsa o'tgan davrda paydo bo'lgan yuridik normalar, prinsiplar va institutlarning barchasining tugatilishi va o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra yangi bo'lgan xalqaro munosabatlar hamda «ularga mos keluvchi yangi prinsip va institutlarga ega xalqaro huquq»ning paydo bo'lishi bilan birga kechdi².

Xalqaro huquqshunos-nazariyotchilar tomonidan kishilik tarixi rivojlanishining turli bosqichlari va uning barcha tarkibiy qismlari, shu bilan birga xalqaro munosabatlarni tartibga solishning yuridik vositalari orasida uyg'un bog'lanish mavjudligini asta-sekin anglab yetish yuqorida bayon qilingan yondoshuvning o'zgarishiga olib keldi³. Bunday o'zgarish uning qanday paydo bo'lgani, o'z normativ salohiyatini qanday boyitgani, davlatlararo faoliyatning yangidan yangi sohalarini qamrab, turli ko'rinishdagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish usullarini takomillashtirgani to'g'risidagi bilimlarning zamonaviy darajasini hisobga olgan holda xalqaro huquqni davrlarga «xronologik» bo'lishda namoyon bo'ldi.

Ushbu mavzu davrlarga bo'lish asosi sifatida qabul qilingan qarashlar, agar bu masala juda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etishi va umumjahon-tarixiy jarayonini davrlarga bo'lish bilan bog'lanishini inobatga olsak, o'zini to'la oqlaydigan ko'rinadi. Chunki xal-

¹ Международное право: Учебник / Под ред. Н.Т. Блатовой. – М.: Юридическая литература, 1987. – С. 14.

² Там же. – С. 43-44.

³ «... ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga mos keladigan holda xalqaro huquq tarixini davrlarga bo'lish, nazariyada, bahalidir» // Международное право: Учебник / Под ред. Ю.М. Колосова и В.И. Кузнецова. – М.: Междунар. отношения, 1995. – С. 8.

qaro huquq tarixini davrlarga bo'lish xalqaro ommaviy huquq tarixini to'rt davrga bo'lishdan kelib chiqadi. Bular quyidagilardir:

- Qadimgi dunyo xalqaro huquqi;
- O'rta asrlar xalqaro huquqi;
- Yangi davr xalqaro huquqi yoki «klassik xalqaro huquq»;
- Eng yangi davr xalqaro huquqi yoki «hozirgi zamon xalqaro huquqi».

Xalqaro davrda rivojlanishi tarixining 1- va 2-davrlarini tavsiflab, o'sha paytda (miloddan avvalgi 4000-yil; milodiy 476-yil va 476-1648-yillar) paydo bo'lgan xalqaro yuridik normalar, prinsiplar va institutlarning «odatiy» xarakteri va mintaqaviylik kabi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu asosan davlatlarning doimiy va yaqin aloqaga kirishish imkoniyatlarini qiyinlashtiruvchi yoki butunlay istisno qiluvchi jug'rofiy tartibdagi omillarning xalqaro munosabatlarga ta'siri bilan izohlanadi. Shunga qaramay, o'sha davrlarda dunyoning turli burchaklari – Uzoq Sharq, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, O'rta Yer dengizida (Bolqon va Apennin yarim orollarida) shakllangan tashqi aloqalar, davlatlararo bitimlar tuzish, harbiy harakatlar olib borishning usul va vositalarini insoniyalashtirish, xalqaro nizolarni bartaraf etishning tinch vositalari, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlatlararo ittifoqlar tuzish, savdo munosabatlarini olib borish, urushning boshlanishi va tugashini rasmiylashtirish hamda boshqa umummajburiy qoidalar yig'indilarining juda o'xshashligiga e'tiborni qaratmay bo'lmaydi¹.

O'rta asrlarda xalqaro huquqning normativ asosi xalqaro shartnomalar tuzish tartibini yo'lga qo'yish, davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, elchilar va elchixonalar, konsullar va konsulliklar holatini tartibga solish uchun umummajburiy qoidalar bilan boyishda davom etdi; chet elliklar, harbiy harakatlarning qatnashchilari, tinch aholi, yaradorlar va kasallar, betaraf davlatlarning huquqiy maqomi aniqroq ifodalana boshlandi; ochiq dengiz erkinligi prinsipi bilan birga dengiz huquqi alohida institute sifatida shakllana boshladi; asta-sekin xalqaro huquq subyekti tushunchasi shakllandi. Bunday maqom faqat monarxlar va davlatlarga emas, balki cherkov idoralari va erkin fuqarolarga nisbatan ham joriy qilindi; davlat suvereniteti

¹ Batafsilroq qarang: Циммерман М.А. История международного права с древнейших времен. – Прага, 1924.

tushunchasining huquqiy mazmuni kengaydi va to'lib bordi, uning hajmi monarxlar suverenitetiga tenglashtirildi.

Xalqaro huquq xunrezlik va vayronalik keltirgan Yevropadagi o'ttiz yillik urushga nuqta qo'ygan Vestfal traktati (Osnabryuk va Myunster sulh bitimlari)ning imzolanishi bilan boshlangan uchinchi davr mobaynida (1648-1917-yillar) ancha sezilarli taraqqiyotga erishdi. Tarixda birinchi marta mintaqa davlatlari teng huquqli sherik sifatida tuzgan rasmiy hujjatlar siyosiy tenglik, dunyoviy hokimiyatning cherkov hokimiyatidan mustaqilligi, davlatlarning suveren tengligi prinsiplarini mustahkamladi; yangi paydo bo'lgan davlatlarni tan olishning deklarativ nazariyasi shakllandi, agressorga qarshi kollektiv sanksiyalarni qo'llash nazarda tutilgan. Traktat tuzilgan vaqtda Yevropa davlatlari o'rtasidagi chegaralar belgilandi. Vestfal kongressi chaqirilishining o'zi ham xalqaro munosabatlarning eng muhim masalalarini davlatlarning vakillik forumlari, kongresslari va konferensiyalarida ko'rib chiqish amaliyotini boshlab berdi, desak bo'ladi.

1814-1815-yillarda Yevropadagi yirik davlatlarning Napoleonga qarshi hamkorligini rasmiylashtirgan Vena kongressi xalqaro huquqning rivojlanish tarixidagi yana bir yangi voqea bo'ldi. Shuni aytish kerakki, uning qarorlari bilan urush tugagan vaqtda shakllangan davlat chegaralari tasdiqlandi, ayrim davlatlarning (Shveysariya) doimiy betaraflik maqomini belgilashga yordam ko'rsatildi, negrlar bilan qul savdosi taqiqlandi, savdo kemalarining erkin qatnovi belgilangan daryolarga (Reyn, Mozel, Shelda, Maas) xalqaro daryolar yuridik maqomi berildi, xalqaro tashkilotlar huquqining paydo bo'lishiga turtki berildi (Reyn komissiyasi, Pohiy ittifoq), diplomatik vakillarni darajalarga bo'lish amaliyoti kodifikatsiya qilindi, davlatlarning suveren tengligi prinsipini mustahkamlovchi xalqaro shartnomalarni imzolashning ketma-ketligi (alternat) qoidasi tasdiqlandi.

Xalqaro huquqning Yangi davrdagi rivojlanish yo'liga umumiy baho berib, bu jarayonga Parij (1856-yil) va Berlin (1878-yil) tinchlik kongresslari va Gaaga tinchlik konferensiyalarining (1899- va 1907-yillar) qo'shgan hissasini ham ta'kidlab o'tish zarur. Bu davr dengiz urushida kapyorlikning bekor qilinishi va dengiz urushida yutuqli huquqni (prizovoe pravo) tasdiqlash, Qora dengizni betaraflashtirilish, Dardanella va Bosfor bo'g'ozlarining xalqaro-huquqiy maqomini belgilash, Dunay daryosida erkin savdo kemachiligi prinsipini joriy etish,

shaxsning fuqarolik va siyosiy huquqlaridan foydalanish, diniy e'tiqodidagi farqlarga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik o'z izohini topdi; shuningdek, urush olib borishning noinsoniy vosita va usullaridan – zararli gazlardan, inson tanasida aylanuvchi yoki sachrovchi o'qlardan, uchish apparatlaridan bombardimon qilish uchun portlovchi moddalardan foydalanishni taqiqlashga (cheklashga) alohida e'tibor berildi; xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish qoidalarini konvension mustahkamlash (kodifikatsiyalash), shartnomaviy qarz majburiyatlarini undirishda kuch qo'llashni cheklash, harbiy harakatlarni boshlash tartibi, quruqlik va dengizda urush olib borishning boshqa jihatlarini hamda boshqa holatlarni tartibga solish o'ta muhim ahamiyat kasb etdi.

2. Xalqaro huquq ilmi shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari

Quldorlik jamiyati ham, ilk o'rta asrlar ham xalqaro huquq fanini ajratmagan edi. Xalqaro-huquqiy masalalar falsafiy va ijtimoiy-siyosiy muammolar qamrovida ko'rilar va ko'pincha axloqiy-diniy normalar (Konfutsiy va Lao Szi, Aflotun va Arastu, Seneka va Mark Avreliy) qobig'iga o'ralgan edi. Faqat XII asrning oxiridan boshlab xalqaro huquqning ilohiyotdan ajralishi sodir bo'la boshladi. G'arbiy Yevropada qattiq kurashlar natijasida qonun va ilohiy yo'nalishlar birlashdi. Bu XVI asrda boshlangan ispan xalqaro huquq maktabining gullab-yashnashiga imkon berdi. Shu maktab vakillari F. Vittoria va Jentellinini xalqaro huquq fanining yaratuvchilari desa bo'ladi. Hozirgi zamon xalqaro huquq fanida Hyugo Grotsiy xalqaro huquq fanining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Uning o'sha davrdagi xalqaro huquq fanining dastlabki tizimli bayoni bo'lgan «Urush va tinchlik huquqi to'g'risida»gi uch kitobida xalqaro huquq fani to'la mustaqil tusga ega bo'ldi.

Xalqaro-huquqiy bilimlarning boshqa mintaqalardagi rivoji ham qariyb shunday edi. XVIII-XIX asrlarda ko'pgina mashhur faylasuflar (Spinoza va Gobbs, Monteskye va Russo, Kant va Gegel) xalqaro huquqning mohiyati va tabiati, uning jamiyatdagi rolini aniqlashga intildilar. Avvaliga tarafdorlari ilg'or g'oyalarni himoya qilgan tabiiy huquq hukmron edi. Ularga bu fanning vazifasi amaldagi normalarni yig'ish, o'rganish va sharhlashdangina iborat deb hisoblagan pozitivizm maktabi (I.Ya. Mozer) qarshi chiqdi.

Shu bilan birga, grotsian yo'nalishi deb nomlanuvchi yo'nalish (E. de Vattel, F.F. Martens) ham rivojlanishda davom etdi. Uning tarafdorlari xalqaro huquq ham tabiat qonunlari, ham xalqlarning odat yoki yaqqol ifodalangan (shartnomaviy) kelishuviga asoslanadi, deb hisoblar edilar.

XVIII asrning oxirida xalqaro huquq tarixi fani ko'proq rol o'ynay boshladi. XIX asrning boshiga kelib xalqaro huquq yurisprudensiyaning asosiy sohalaridan biriga aylandi. Uning shakllanishida asarlari katta uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan Gegel muhim rol o'ynadi. U o'zining tarixiy taraqqiyot to'g'risidagi ta'limoti bilan tabiiy huquq maktabining mavhumlik xususiyatini bartaraf etdi. Pozitivizm (tarixiy-pozitivizm) yo'nalishi XIX asr davomida eng obro'li va keng tarqalgan yo'nalish edi. Boshqa yo'nalishlar orasida P. Manchini tomonidan asos solingan «milliy» maktab e'tiborga sazovordir. Bu maktab o'z urinishlarini millatlarning yagona til, hudud va boshqaruv birligi bo'lgan erkin kishilarni mustaqil davlat va xalqaro huquq subyektiga birlashtirishga bo'lgan huquqlarini asoslashga qaratdi.

3. Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro huquqning rivojlanishi

Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro huquq fani jadal rivojlanib kelmoqda. Bu yerda dunyoning boshqa mintaqalaridagiga o'xshash institutlar rivojlandi va rivojlanmoqda. Bu mintaqadagi xalqaro huquq tarixini Rossiya imperiyasiga to'liq qo'shilgunga qadar xalqaro huquq subyektlari bo'lgan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi bilan bog'laymiz. Shu bilan birgalikda ta'kidlash joizki, Movarounahr Markaziy Osiyo hududida xalqaro tan olingan ilk davlat bo'lgan. A. Temur esa tarixda gumanitar va sof ma'nodagi diplomatik huquqning asoschisi sifatida kirdi. Temur tuzuklarida o'z zamonasi uchun ilg'or bo'lgan diplomatik va gumanitar huquqqa xos bo'lgan normalar ushbu fan sohaları vujudga kelishidan qariyb 500 yil oldin o'z isbotini topdi. Mintaqaning asosiy xalqaro huquq institutlari elchilik, shartnoma, gumanitar huquq va urush huquqi edi. Aytish kerakki, bu institutlarning muhim o'ziga xosligi bor edi. Masalan, shartnoma huquqida shartnomaning og'zaki shakli keng tarqalgan bo'lib, shartnomalar odatda bir necha hujjatlarda rasmiylashtiriladi, elchilik huquqida – diplomatik vakolatxonalarining bir joyda to'planishi (kumulyatsiyasi),

urush huquqida – musulmon davlatlariga ko‘proq insoniy munosabat va boshqalar. 1917-yilgi Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng bu davlatlar o‘rnida paydo bo‘lgan davlatlar ma‘lum muddat xalqaro munosabatlar subyekti bo‘lib turdilar, biroq Sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan ular subyekt maqomini yo‘qotdilar va ularning keyingi rivoji Sovet davlati tarixi bilan bog‘landi.

Sobiq Ittifoqning tarqab ketishi va uning o‘rnida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi Markaziy Osiyo davlatlarini xalqaro siyosiy-huquqiy munosabatlarga ildam qadamlar bilan kirishlariga yo‘l ochib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishishi bilan xalqaro munosabatlarga ildam kirisha boshladi, buni biz respublika-mizning BMT, SHHT va boshqa bir qancha nufuzli xalqaro tashkilotlar va birlashmalar tizimlariga kirishi, xorijiy davlatlar bilan diplomatik va konsullik aloqalari o‘rnatilishi, davlatimizga xorijiy davlat boshliqlarining rasmiy tashriflari, yurtboshimiz I.A. Karimovning esa rivojlangan davlatlarga rasmiy safarlari misol bo‘la oladi.

Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasi 160 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik va konsullik aloqalarini o‘rnatdi, 200 dan ortiq ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalarning ishtirokchisiga aylandi va 60 dan ortiqroq xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning to‘la huquqli a‘zosi bo‘ldi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Sharq va G‘arbda xalqaro huquqning vujudga kelishining o‘ziga xosliklari haqida so‘zlab bering.*
2. *Xalqaro huquq tarixini davrlab bering.*
3. *Xalqaro huquq ilmining vujudga kelishiga kimlar sababchi bo‘lgan?*
4. *O‘zbekiston Respublikasida xalqaro huquq ilmining rivoj topishi qanday sharoitlarda kechgan?*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Баскин Ю.Я., Фельдман Д.И. История международного права. – М.: Междунар. отношения, 1990.
2. Гроций Г. О праве войны и мира. Кн. I-III. – М., 1956.

3. Гроций Г. О праве войны и мира. Три книги, в которых объясняются естественное право и право народов, а также принципы публичного права. – М., 1994.

4. Курс международного права. В 7-ми томах. Т.1 – М.: Междунар. отношения, 1989.

5. Левин Д.Б. История международного права. – М.: Изд-во междунар. отношений, 1962 г.

6. Сарсембаев М.А. Международно-правовые вопросы в истории Казахстана и Средней Азии (с XV века по настоящее время). – Алма-Ата, 1991.

7. Сарсембаев М.А. Международно-правовые отношения государств Центральной Азии. – Алматы, 1995.

8. Таубе М. История зарождения современного международного права. – СПб, 1894.

9. Тузмухамедов Р.А. Самоопределение народов Средней Азии и международное право. – М., 1969.

10. Циммерман М.А. История международного права с древнейших времен. – Прага, 1924.

11. Grotius H. Freedom of the Seas or the Right which belongs to the Dutch to take part in the East Indian trade. – N. Y., 1916.

12. Gubbing J. Hugo de Groot. – Amsterdam, 1947.

13. Evsinga van. W. J. Hugo Grotius. Eine biographische Skizze. – Basel, 1955.

14. Klee H. Hugo Grotius und Johannes Selden. – Bern, 1946.

3-bob. XALQARO HUQUQ NORMALARI

1. *Xalqaro huquq normasi tushunchasi.*
2. *Xalqaro huquq normalarining tasnifi.*
3. *Xalqaro huquq normalarini qo'llash.*
4. *Xalqaro huquq normalarini sharhlash.*

1. Xalqaro huquq normasi tushunchasi

Agar xalqaro huquq bu normalar tizimining yig'indisi ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsak, umuman huquq normasi va asosan «xalqaro huquq normasi» tushunchalari nimani anglatishini aniqlashimiz kerak bo'ladi.

Umumiy huquq nazariyasiga ko'ra, huquq normasi – u nazarda tutgan va xatti-harakatlarini tartibga soladigan hamda huquq subyektlari deb nomlanuvchi adresatlarning yuridik majburiy xulq-atvor qoidasidir. Huquq normasining yuridik majburiyligi shundaki, huquq subyektining bu norma ko'rsatgan xatti-harakati zarur bo'lganda majburlash yo'li bilan ta'minlanadi. Davlatlarning milliy huquqida huquq subyektlarining xulq-atvor normalari davlat tomonidan belgilanadi yoki sanksiyalanadi va lozim bo'lsa, ularga rioya qilish majburlash yo'li bilan ta'minlanadi.

Xalqaro huquq normalari, tegishlicha, shu normalarda nazarda tutilgan xalqaro munosabatlar subyektlarining yuridik majburiy xatti-harakat qoidalari hamdir. Zarur hollarda ularning ijrosi majburlash orqali ta'minlanadi.

Xalqaro-huquqiy tartibga solish uslubiga ko'ra, xalqaro huquq normalari xalqaro huquq subyektlarining o'zaro roziligi va kelishuvi asosida belgilanadi va ular tomonidan zarur bo'lganda majburlashni qo'llash yo'li bilan muhofaza qilinadi.

Umumiy huquq nazariyasiga ko'ra, huquq normalari milliy va xalqaro elementlarni o'z ichiga oladi va uch tarkibiy qismdan iborat tuzilishga ega bo'ladi: *gipoteza* – belgilangan xatti-harakat qoidasi ta'sirining shartini belgilaydi; bu qoidani bayon qiluvchi *dispozitsiya* va bu qoidani buzgan huquq subyektlari uchun bo'ladigan noxush yuridik oqibatlarni yuzaga keltiruvchi – *sanksiya*.

Subyekt uchun belgilangan axloq qoidalaridan kelib chiquvchi huquq va majburiyatlar uning *subyektiv* huquq va yuridik majburiyat-lari deb ataladi. Xalqaro huquq doktrinasi va xalqaro-huquqiy hujjat-larda «burch» iborasi o'rnida «majburiyat» iborasi qo'llaniladi, bu-ning boisi xalqaro huquqiy tartibga solish uslubidir.

Huquq normalari yig'indisi va ularning tizimi obyektiv ma'noda huquq yoki obyektiv huquq deb ataladi. Xalqaro huquq to'lig'icha shunday hisoblanadi.

Huquq normalarining uch tarkibiy qismdan iboratligi to'g'risida yuqorida bayon etilganlar so'zma-so'z emas, balki mantiqan tushu-nilishi kerak. Xalqaro huquqdagi alohida olingan normada odatda be-rilgan xatti-harakat qoidasini bayon qiluvchi dispozitsiya bo'ladi, bu normani harakatga keltiruvchi yuridik fakt esa (gipoteza) berilgan nor-malar tizimining boshqa normasida bayon qilinadi.

Xalqaro huquq sanksiyalariga kelsak, ular xalqaro munosabatlar subyektlarining xalqaro mas'uliyati, aniqrog'i, davlatlarning xalqaro huquqqa qarshi qilmishlari uchun xalqaro-huquqiy javobgarligi to'g'-risidagi maxsus normalar tizimida nazarda tutilgan.

Xalqaro huquq normalari o'z adresatlari o'rtasidagi munosabat-larni tartibga soladigan subyektlar bo'yicha ham farqlanadi. Shuning uchun ham ular tuzilishiga ko'ra, davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan belgilanuvchi va barcha subyektlar yoki xalqaro huquqning asosiy subyektlari – davlatlarga qaratilgan *umumiy xalqaro huquq* normalariga; davlatlar orasidagi kelishuvga ko'ra ikki yoki bir necha subyektlarga qaratilgan *lokal (mahalliy)* normalarga bo'linadi. Aniq-rog'i, bular – ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama xalqaro shart-nomalarning normalaridir.

Lokal normalar orasida subyektlarning alohida, konkret holdagi axloqini belgilovchi *individual normalarni* ham ajratish mumkin. Bunga xalqaro sud yoki arbitrajlarining faqat ko'rib chiqilgah ish bo'yicha nizolashdan tomonlar uchun majburiy bo'lgan qarorlari misol bo'ladi.

Umumiy xalqaro huquq normalari va lokal normalar o'rtasidagi o'zaro munosabat shundayki, oxirgisi umumiy xalqaro huquq norma-lari mohiyatiga zid kelmasligi, ya'ni o'z asosiga ko'ra ularga mos ke-lishi lozim. Shunday qilib, BMT Ustavining 103-moddasiga ko'ra (umumiy xalqaro huquqning asosiy hujjati), Tashkilot a'zolarining

Ustav bo'yicha majburiyatlari ularning boshqa bir xalqaro shartnoma bo'yicha majburiyatlariga zid kelsa, Ustav bo'yicha majburiyatlar ustuvor kuchga ega bo'ladi.

Umumiy xalqaro huquqning asosi uning norma-prinsiplaridir. Bu umumiy xalqaro huquqning davlatlar asosiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi va shu bilan zamonaviy xalqaro huquqning mohiyati va uning maqsadga yo'naltirilganligini belgilovchi dastlabki va o'zaro bog'liq normalari tizimidir.

Keyingi o'n yilliklarda, Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yili Vena konvensiyasi qabul qilinganidan so'ng, umumiy xalqaro huquq normalari yig'indisida jus cogens (umummajburiy huquq) xususiyatiga ega bo'lgan *imperativ normalar* farqlana boshlandi.

Biroq, umumiy xalqaro huquq normalarining ko'pchiligi *dispozitiv normalar* bo'lib, ulardan davlatlar va boshqa xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'z munosabatlarini yuritish davrida ma'lum darajada chetga chiqishlari mumkin. Bu yerda davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan imzolanadigan ikki va ko'p tomonlama shartnomalar, shuningdek, ushbu tashkilotlarning qarorlari nazarda tutilmoqda.

Afsuski, umumiy xalqaro huquqning dispozitiv normalari masalasi xalqaro huquq doktrinasida deyarli ko'rib chiqilmagan. Shunga qaramay, quyidagilarni aytib o'tish joizdir.

Birinchidan, agarda umumiy xalqaro huquqning dispozitiv normalaridan u yoki bu holda chekinuvchi lokal shartnoma tuzilmagan bo'lsa, albatta, xalqaro huquqning disporitiv normalari amalda bo'ladi.

Ikkinchidan, BMT Ustavi 103-moddasining yuqorida keltirilgan qoidasi davlatlarning umumiy xalqaro huquq bo'yicha jami majburiyatlariga taalluqlidir, zotan Ustavni qabul qilish paytida imperativ normalarning mavjudligi to'g'risidagi qarashlar mantiqan tugal ravshan bo'lmagan edi. Hozir esa bu qoidalar faqat dispozitiv normalargagina taalluqlidir, chunki bu yerda imperativ normalardan chetlashishga umuman yo'l qo'yilmaydi.

Uchinchidan, lokal normaning umumiy xalqaro huquqning dispozitiv normasidan chetga chiqishiga, chamasi, lokal norma universal normaning mohiyatiga va maqsadiga mos bo'lmaganida yo'l qo'yiladi.

Nihoyat, umumiy xalqaro huquq normalari orasida *tartibga solish* hamda boshlang'ich deb ham nomlanuvchi, ya'ni davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari, ularning «do'stona munosabat va hamkorligi» jarayonidagi xatti-harakatini tartibga soluvchi normalar ajratiladi.

Xalqaro ommaviy huquq doktrinasida va amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, «yumshoq huquq» («Soft Law») atamasi ikki xil hodisani nomlash uchun ishlatiladi. Birinchi holatda gap xalqaro-huquqiy normalarning alohida ko'inishi to'g'risida borsa, boshqasida esa o'zga – nohuquqiy xalqaro normalar to'g'risida boradi.

Birinchi holda, «qattiq huquq» («Hard Law»)dan farqli o'laroq, aniq huquq va majburiyatlar tug'dirmaydigan, faqat subyektlar rioya qilishi lozim bo'lgan umumiy ko'rsatmalar beruvchi normalar nazarda tutiladi. «Erishish», «intilish», «zarur choralar ko'rish» va sh.k. so'z va iboralar bunday normalarga xosdir.

«Yumshoq huquq» normalarining ikkinchi turiga nohuquqiy hujjatlar, ya'ni qo'shma bayonotlar va kommyunikelardagi normalar kiradi.

2. Xalqaro huquq normalarining tasnifi

Xalqaro huquq doktrinasida normalarni tasniflashga urinilgan ko'pgina hollar ma'lum, biroq ularning hech biri umumiy e'tirof etilmagan. Asos uchun faqat eng muhim mezonlarni olib, xalqaro-huquqiy normalarning quyidagi tasnifini taklif qilish mumkin:

- mazmuni va tizimdagi o'rniga ko'ra – maqsadlar, prinsiplar va normalar;

- amal qilish doirasi bo'yicha – universal, mintaqaviy, partikular;

- yuridik kuchiga ko'ra – imperativ, dispozitiv;

- tizimdagi funksiyalariga ko'ra – moddiy, protsessual;

- yaratilish usuli va mavjudlik shakliga, ya'ni manbayiga ko'ra – shartnomaviy normalar, odat normalari va qaror-normalar.

Xalqaro amaliyot *universal normalar* mavjudligining realligidan kelib chiqadi. Majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipiga ko'ra, «har bir davlat xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsip va normalaridan kelib chiqadigan o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishga maj-

burdir». BMT Xalqaro Sudining qarorlarida «xalqaro huquqning umumiy normalari»ga ko'plab havolalar keltirilgan. Universal normalarning asosiy o'ziga xos xususiyatlari – bunday normalar ta'sir doirasining globalligi, umumiy majburiy kuchi va to'laligicha xalqaro hamjamiyat tomonidan yaratilishi va bekor qilinishidir.

Mintaqaviy normalar integratsiya jarayonlari rivojlanishi bilan paydo bo'ladi. Ma'lum mintaqada davlatlarning o'zaro hamkorligi sezilarli darajada chuqurlashadi. Bu milliy miqyosda tartibga solishdan yuqoriroq darajadagi normativ tartibga solishga bo'lgan talabni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham mintaqada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan normalar kompleksi paydo bo'ladi, huquq ijodkorligi va huquqni amalga oshirishning yangi mexanizmlari yaratiladi. Bu o'rinda Yevropa Ittifoqi faoliyati ancha ibratlidir.

Local (mahalliy) normalar qatnashchilarining doirasi cheklangan bo'lib, ko'p hollarda ikki tomonlama munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ularning asosiy manbasi shartnomalardir. Biroq, bunga o'xshagan odat normalari ham mavjud. BMT Xalqaro Sudi ko'p marta mintaqaviy va mahalliy odat normalariga tayangan hollarni ko'rsatish mumkin.

Imperativ va dispozitiv normalar. Hozirgi zamon xalqaro huquqining o'ziga xos tomonlaridan biri unda yuridik kuchga ega bo'lgan imperativ normalar kompleksining mavjudligidir. Bu alohida davlatlarning o'zaro munosabatlarda hatto o'zaro kelishuv orqali ham normalardan chetga chiqishi mumkin emasligidir. Ularga zid odat yoki shartnomalar haqiqiy hisoblanmaydi. Yangi paydo bo'lgan imperativ norma unga zid bo'lgan amaldagi normalarni bekor qiladi.

Dispozitiv normalar – tomonlarning o'zaro munosabatlarida ulardan chekinishga yo'l qo'yadigan normalardir. Agar tomonlar boshqacha kelishib olgan bo'lmasalar, dispozitiv normaga rioya qilishlari kerak, u buzilgan hollarda esa javobgarlik kelib chiqadi. Normaning dispozitivligi uning cheklangan majburiy kuchida emas, balki u subyektlarning umumiy normada nazarda tutilganidan boshqacha tarzda o'z munosabatlarini yo'lga qo'yishini nazarda tutishidir.

Protsessual normalar. Bularga xalqaro huquqni yaratish va amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi normalar kiradi. Protsessual huquqning ikki tushunchasi mavjud: keng va tor. Birinchi holda gap ham qonun yaratish, ham qonunni amalga oshirish jarayonini tartibga

soluvchi normalar yig'indisi haqida boradi. Ikkinchi holda faqat qonunni amalga oshirish jarayonini tartibga solish to'g'risida gap boradi.

Protsessual normalar – xalqaro huquqning yangi sohasidir. Avval bunday turdagi alohida normalar mavjud emas edi. Xalqaro huquqning ta'sirchanligini oshirishga bo'lgan talab davlatlarni bu jarayonga ko'proq e'tibor berishga undadi. Protsessual huquqning shakllanishida Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ldi. Bu konvensiya qarorlarining ko'pchilik qismi protsessual xususiyatga ega.

Boshqa turdagi normalar. Tartibga solish usullariga ko'ra *taqiqlovchi, majburlovchi va vakolat beruvchi* normalar farqlanadi. Boshqa aktlardagi qoidalarga amal qilishga havola etuvchi *havola etish* normalari mavjud. Bir qancha turlarga ega bo'lgan *tashkiliy normalar* ham bo'lib, ularning vazifasi xalqaro organ va tashkilotlar faoliyatini tartibga solishdan iboratdir.

Fan-texnika inqilobi (FTI) texnik aloqalarning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Ularni tartibga solishga bo'lgan ehtiyoj *texnik normalarning* tarqalishiga sabab bo'ldi. Bularga tabiat qonunlari, fan va texnika qonuniyatlaridan kelib chiquvchi talablarga yuridik kuch beruvchi xalqaro huquq normalari kiradi.

Dasturiy normalarning mavjudligi borasida jonli munozara ketmoqda. Biroq, normalarning ko'pchiligida dasturiy unsurlar mavjudligini ta'kidlash zarur. Ular faqat bor narsani mustahkamlab qolmasdan, nima bo'lishi kerakligini ham belgilaydi, ko'p hollarda bo'lajak munosabatlarga bag'ishlanadi. Shartnomalarning katta qismi hamkorlikni rivojlantirish dasturini belgilaydi.

Dasturning ko'pgina qoidalari tavsiyaviy xususiyatga ega. Xalqaro organ va tashkilotlarning rezolutsiyalari tavsiyaviy normalarning eng muhim shaklidir.

3. Xalqaro huquq normalarini qo'llash

«Huquqni qo'llash» tushunchasi umumiy va maxsus ma'nolarda qo'llaniladi. Birinchi holda u huquqni amalga oshirishning barcha usullarini qamrab oladi, ikkinchisida esa – qonunni buzish yoki qonun to'g'risidagi nizoda huquqni qat'iy amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xalqaro huquq normalarini aniq holatlarga nisbatan qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi:

- fakt va holatlarni aniqlash;
- fakt va holatning huquqiy tasnifi, ya'ni ular xalqaro huquqning ta'siriga tegishlimi-yo'qmi, agar tegishli bo'lsa, aynan qanday ta'sir doirasiga tegishligini aniqlash;
- ishga taalluqli normalarning yuridik tavsifi, ularning ta'sir doirasini ayniqsa, subyektlarga nisbatan ta'sir doiralarini aniqlash;
- normalar mazmunini aniqlash, ya'ni umumiy sharhlash;
- normalarni berilgan fakt va holatlar bo'yicha qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish;
- qabul qilingan qarorni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan harakatlar.

Xalqaro huquq normalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslublari mavjud. Xalqaro uslub davlatlarning xalqaro maydondagi faoliyati hamda ular yaratadigan xalqaro organ va tashkilotlar faoliyatida amalga oshiriladi. Milliy uslub esa xalqaro huquq normalarining davlat ichki faoliyatida amalga oshirilishida, ya'ni bu normalarning implementatsiyasida o'z aksini topadi.

4. Xalqaro huquq normalarini sharhlash

Sharhlash – normaning mazmuni, berilgan holat bo'yicha maqsadlari, xalqaro huquqning boshqa normalari bilan aloqasi, yuridik tavsifini aniqlash jarayonidir.

Xalqaro huquqda sharhlash deyilganda, xalqaro huquq normalarini tushunish va tushuntirish jarayoni nazarda tutiladi.

Asosiy narsa nima ekanligidan kelib chiqqan holda sharhlashga turlicha yondashuvlar xalqaro huquq doktrinasida ma'lum. Asosiy yondashuvlar uchta: obyektivistik, subyektivistik va funksional yondashuvlar.

Obyektivistlar – ularni matnshunoslar ham deb atashadi, – matnning ahamiyatini belgilashda asosiy narsa uni tahlil qilish yo'li deb biladilar. Ular tomonlarning faqat matnda o'z aksini topgan xohish-irodasini asos deb biladilar.

Subyektivistlar tomonlarning niyatlarini aniqlashni asosiy masala deb biladilar, bu ko'pincha matnda to'la ifodalanmagan bo'ladi.

Funksionalistlar yoki teleologlar norma tomonlarning boshlang'ich xohish-irodasidan kelib chiqadi va mustaqil hayotni davom ettiradi, deb hisoblashadi. Asosiy vazifa – tayyorgarlik ko‘rish davridagi materiallarda, matnda yoki keyingi amaliyotda mujassamlashganligi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, normaning maqsadini belgilashdir.

Sharhlash oldida turgan vazifalar sharhlash obyekti, ya’ni xalqaro-huquqiy norma bilan belgilanadi. Agar norma matnda ko‘proq yoki kamroq to‘liqlikda o‘z aksini topsa, aynan matn sharhlashning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Sharhlash vositalari Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasida belgilangan. Bu Konvensiyada sharhlash vositalari asosiy va qo‘shimcha vositalarga bo‘lingan.

Birinчисiga keng ma’noda shartnoma matni kiritilgan.

Tayyorgarlik davridagi materiallar va shartnoma tuzish holatlari sharhlashning qo‘shimcha vositalariga kiritilgan. Qo‘shimcha vositalardan foydalanishga faqatgina asosiy vositalardan foydalanish, normaning mazmunini noaniq qilib qo‘yish yoki aql bovar qilmas natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi 1969 yilgi Vena konvensiyasi vijdoniylik prinsipini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Sharhlash vijdoniy bo‘lishi, ya’ni barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini inobatga olishi va normaning haqiqiy mazmunini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Sharhlashning birligi prinsipi normani barcha holatlarda bir xil tushunish va barcha subyektlarga nisbatan bir xil qo‘llashni talab etadi.

Samaradorlik prinsipi izohlashning natijalari normaning maqsadlariga, uning ta’sirchan bo‘lishiga erishishni talab etadi.

Maxsus qonun qoidasi sharhlashda umumiy normalarga nisbatan maxsus normalarning ustunligini tan olishni talab qiladi, chunki ular berilgan holga bevosita bog‘liq bo‘lib, umumiy normani aniqlashtiradi, ba’zan esa undan istisno qiladi.

Shunday qilib, quyidagi sharhlash usullari mavjud:

- grammatik usul – bu normaning ma’nosini etimologiya, leksika, sintaksis va hatto berilgan tilning stilistikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish yo‘li bilan aniqlashdir;

- mantiqiy usul – norma mazmunini mantiq qonun va qoidalarini qo‘llash yo‘li bilan sharhlash;

- maxsus-yuridik usul – xalqaro-huquqiy normaning yuridik xarakterini aniqlash. Bunda norma hali ham kuchga egami, uning ta'siri qo'llaniladigan subyektlar doirasi qandayligi kabi holatlar to'g'risida gap boradi;

- tizimli usul – normani xalqaro huquq tizimining unsuri sifatida, uning maqsad va prinsiplari hamda boshqa normalar bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qiladi;

- teleologik usul – normaning mazmunini uning oldida turgan maqsadiga qarab aniqlaydi (bu maqsadli sharhlashdir);

- tarixiy usul – bu normaning mazmunini uning qabul qilinishining tarixiy shart-sharoitlari nuqtayi nazaridan aniqlashni nazarda tutadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro huquq va umumiy huquq normalarining mutanosibligi nimada?*

2. *O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquq normalarini yaratishdagi ishtiroki haqida so'zlab bering.*

3. *Xalqaro huquq normalarini tasniflab bering.*

4. *Xalqaro huquq normalarini sharhlash nima uchun kerak?*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алексидзе Л.А. Некоторые вопросы теории международного права. Императивные нормы. – Тбилиси, 1982.

2. Иванов С.Н. Действие во времени международных договоров и международных договорных норм. – Свердловск, 1982.

3. Коробова М.А. Расширение сферы действия норм общего многостороннего договора. – М.: МГУ, 1983.

4. Лукашук И.И. Нормы международного права. – М., 1997.

5. Лукушук И.И., Лукашук О.И. Толкование норм международного права: Учебное пособие для вузов. – М.: Note bene, 2002.

6. Миронов Н.В. Международные право: нормы и их юридическая сила. – М., 1980.

7. Мовчан А.П. Кодификация и прогрессивное развитие международного права. – М., 1972.
8. Общепризнанные нормы в современном праве / Отв. ред. Н.Н. Ульянова. – Киев, 1984.
9. Соколов В.А. Сущность и объективация норм международного права. – М., 1991.
10. Суворова В.Я. Универсальные и локальные нормы в международном праве. – Свердловск, 1974
11. Шестаков Л.Н. Императивные нормы в системе современного международного права. – М., 1981.
12. Эффективность правовых норм. – М., 1980
13. Castren E. The Codification of International Law. – Helsinki, 1966
14. Koeck H. Vertragsinterpretation und Vertragsrechtskonvention. – Berlin, 1976.
15. Sapienza R. Dichiarazioni interpretative unilaterali e trattati internazionali. – Milan, 1996.
16. Sur S. L'Interpretation en droit international public. – Paris, 1974.

4-bob. XALQARO HUQUQ MANBALARI

1. *Xalqaro huquq manbalari tushunchasi.*
2. *Xalqaro shartnoma – xalqaro huquqning asosiy manbayi sifatida.*
3. *Odat – xalqaro huquqda dastlabki manba sifatida.*
4. *Xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarning majburiy aktlari.*
5. *BMT Xalqaro Sudining qarorlari.*
6. *Xalqaro huquq doktrinasining roli.*
7. *Davlatlarning bir tomonlama yuridik aktlari.*

1. Xalqaro huquq manbalari tushunchasi

Huquqning umumiy nazariyasiga muvofiq, «huquq manbayi» iborasi – o'zida yuridik majburiy xulq-atvor qoidasini namoyon etadigan va bu qoidaga huquqiy norma xususiyatini beradigan (masalan, konstitutsiya, qonun, farmon, vakolatli davlat organining qarori yoki farmoyishi va sh.k.) shakldir.

Tegishlicha, *xalqaro huquq manbalari* – o'zida xalqaro munosabatlar subyektlarining xatti-harakat qoidalarini namoyon etadigan va ushbu qoidalarga xalqaro-huquqiy normalar xususiyatini joriy qiladigan shakllaridir.

Yana bir ta'rif shundan iboratki, *xalqaro huquq manbalari* – ushbu soha subyektlari tomonidan tan olingan davlatlarning xohish-irodalarini muvofiqlashtirish natijalarini mujassamlashtirgan xalqaro-huquqiy normalarni qayd etish shakllaridir.

Xalqaro huquqning davlatlarning milliy huquqidan katta farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, xalqaro huquq normalari subyektlar tomonidan ular o'rtasida o'zaro kelishuvga va shu asosida umumiy xohish-irodani ifoda etuvchi bitimlarga binoan o'rnatiladi. Shuning uchun bunday bitimlar xalqaro-huquqiy normalarning manbayi hisoblanadi; ikkinchidan, aytib o'tilgandek, xalqaro huquqda nazarda tutilgan subyektlarning subyektiv huquqiga hamisha xalqaro huquqning boshqa subyektlarining yuridik majburiyatlari qarshi turadi.

Shu munosabat bilan xalqaro huquq manbalari to'g'risida subyektiv huquqlarning manbayi yoki xalqaro huquq huquqiy munosabatlar subyektlari majburiyatlarining manbayi sifatida gapirish to'g'riroq

bo'ladi. Ko'p hollarda yuridik majburiyatlar haqida gapirish ma'qulroq, chunki majburiyat olgan subyekt o'ziga xalqaro-huquqiy sanksiyalar ko'rinishidagi yuridik oqibatlarini orttirib olmay turib, ularga rioya qilmasligi mumkin emas. Vakolat berilgan subyekt subyektiv huquqdan o'z ixtiyoricha foydalanishi mumkin. Imperativ normalar mavjud bo'lgan hollar bundan mustasnodir.

Davlatlarning milliy huquqidan farqli ravishda, xalqaro huquqda uning manbalari ro'yxati ko'rsatilgan maxsus hujjat yoki norma mavjud emas. BMT Xalqaro Sudi Statutining 38-moddasini shunday norma sifatida qarab chiqishga urinishlar e'tibor qozonmaydi, chunki unda xalqaro-huquqiy normalar (shartnomalar va odatlar)ni mustahkamlab qo'yishning umum e'tirof etilgan shakllarigina emas, ularni izohlash va qo'llashga ko'maklashadigan yuridik kategoriyalar ham aytib o'tilgan. Xo'sh, xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi, ularning xalqaro majburiyatlari haqidagi kelishuv qanday shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni xalqaro huquqning manbalari qaysilar?

2. Xalqaro shartnoma – xalqaro huquqning asosiy manbayi sifatida

Avvalambor, bunday asosiy manbalardan biri *xalqaro shartnoma bo'lib, u xalqaro ommaviy huquqning tegishli normalari tomonidan tartibga solinadigan, xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi yozma bitim sifatida tushuniladi*. Bunday normalarning yig'indisi va tizimi xalqaro huquqning xalqaro shartnomalar huquqi deb nomlanadigan alohida, nisbatan mustaqil bo'lgan tuzilmasini (tarmog'ini) tashkil qiladi.

Xalqaro shartnoma – xalqaro huquqning asosiy manbayidir. xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasida va 1995-yilgi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonunda «xalqaro shartnoma» atamasi aniq vaziyatlarda turlicha nomlanishi mumkin bo'lgan (shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, xatlar yoki notalar almashish va sh.k.), tegishli shaklga ega barcha hujjatlarni umumiy nomlash sifatida ishlatilgan. Birinchi uchta nomlash eng ko'p tarqalgan. Ba'zan shartnoma shakliga ega hujjatlarga terminologik nom berilmaydi (masalan, 1972-yil 29-maydagi «SSRI va AQSH o'rtasidagi o'zaro aloqalarning asoslari»). Xalqaro shartnomalarning o'ziga xos turlaridan biri bu xalqaro

tashkilotlarning ta'sis aktlaridir (BMT Ustavi). O'z ichiga bir necha bosqichni oladigan, an'anaga aylangan va umum e'tirof etilgan tuzish protsedurasi xalqaro shartnomalarning aksariyat qismiga xosdir. Shu bilan birga, uning ko'plab unsurlari davlatlarning ichki qonunchiligi va boshqa omillardan kelib chiqadi.

Shartnomaviy tartibga solish sohasining muntazam kengayib borishi xalqaro munosabatlar rivojlanishining qonuniyati hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasi shartnomalarning tobora o'sib borayotgan ahamiyatini, xalqaro huquq manbayi va ijtimoiy tuzumidan qat'iy nazar, davlatlar hamda millatlar o'rtasidagi tinch hamkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida qayd etadi.

3. Odat – xalqaro huquqda dastlabki manba sifatida

Navbatdagi asosiy manba xalqaro odat bo'lib, BMT Xalqaro Sudi Statutining 38-moddasida «huquq normasi sifatida tan olingan umumiy amaliyotning isboti» deb ta'riflangan. Bu ta'rifda quyidagilar haqida:

- birinchidan, davlatlar amaliyoti to'g'risida;
- ikkinchidan, bir xil vaziyatlarda ularning muayyan xatti-harakati amaliyoti to'g'risida;
- uchinchidan, xalqaro hamjamiyatning bunday ko'p takrorlanuvchi xatti-harakatni yuridik majburiy deb tan olishi haqida, ya'ni ko'rsatilgan xatti-harakatga xalqaro-huquqiy norma xususiyatini berishga davlatlarning so'zsiz roziligi to'g'risida bormoqda.

Kelishilgan xalqaro harakat usullarini tan olishga va bu usullarga xalqaro huquq maqomini berishga muayyan tarzda o'z istagini bildirgan davlatlarning bir turdagi yoki aynan bir xil harakatlari natijasida odat yuridik mazmunga ega bo'ladi. Buning uchun, qoida tariqasida, bunday turdagi harakatlar uzoq vaqt davomida takrorlanishi, barqaror amal qilishi talab qilinadi. Lekin qisqa vaqt ichida odat xalqaro huquq manbayiga aylanishi mumkin (davlatning kosmik kenglikdan foydalanish erkinligini tan olishi bunga misol bo'la oladi, keyinchalik bu holat shartnomalarda mustahkamlab qo'yiladi).

Xalqaro odat haqida umumiy xalqaro huquq normasi sifatida gapiriladi. Bunga sabab shundaki, lokal odatni shakllantirish nazariy

jihatdan mumkin bo'lsa-da, amalda kamdan kam hollarda ro'y beradi. Ikki tomonlama odat esa umuman mantiqsizdir.

Huquqiy odatning o'ziga xosligi shundaki, u o'ziga tegishli qoidani aniq ifodalagan rasmiy hujjatda aks ettirmaydi, lekin bu aslo odatning «shartnomanamo» ekanligidan dalolat bermaydi. U davlatlarning tashqi siyosiy hujjatlarida, diplomatik yozishmalar (notalar va memorandumlar)da qayd etiladi va shu tariqa, garchi uning mazmunini sharhlash shartnomaning mazmunini sharhlashga qaraganda murakkabroq bo'lsa-da, ko'zga tashlana boradi.

Davlatlar tomonidan tan olingan tarixiy ko'rfazlardagi ichki dengiz suvlariga munosabatda bo'lish qoidasi odat normasiga misol bo'lishi mumkin. Xalqaro konferensiyalardagi delegatsiyalarning xizmat xonalari to'la daxlsizligi prinsipi diplomatik huquq harakati sohasidagi xalqaro odat huquqi normasi hisoblanadi.

Xalqaro odatdan *xalqaro ko'nikmani, ya'ni davlatlar yuridik majburiyat deb tan olmagan holda o'zaro munosabatlarida rioya qiladigan xatti-harakat qoidalarini* ajrata bilish lozim. Xalqaro ko'nikmalarga, masalan, *comitas gentium* (xalqaro xushmuomalalik) qoidasini, qisman diplomatik etiket va diplomatik protokol qoidasini, shuningdek, dengiz marosimi (portga xorijiy davlat harbiy kemasi kirib kelishi bilan ushbu davlatning bayrog'iga hurmat bildirish, ochiq dengizda harbiy kemalarning bir-birlarini mushak otish bilan qutlashlari)ni kiritish mumkin.

4. Xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarning majburiy aktlari

Xalqaro huquq normalarini yaratish, rivojlantirish va sharhlashda xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarning aktlari katta ahamiyatga ega. BMT Bosh Assambleyasining deklaratsiyalar deb nomlangan ba'zi rezolutsiyalari BMTga a'zo davlatlar tomonidan, ularning o'zaro munosabatlari qoidalarini o'z ichiga oladi. Bu qoidalar amal qilayotgan xalqaro-huquqiy normalar (shartnoma yoki odatdagi normalar) yanada muayyan ko'rinishda qayta ishlab chiqiladi yoki yangi imperativ ko'rsatmalarni o'zida namoyon etadi. Bunday ko'rsatmalarga Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi 1960-yilgi Deklaratsiyani kiritish mumkin. Unda kolonializmni to'la tugatish va butun hokimiyatni qaram hududlarning xalqlariga berish

choralarini qabul qilish nazarda tutiladi. Boshqa misol: BMT Ustavining 108-moddasi asosida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ustavning alohida moddalariga o'zgartirishlar (normativ xususiyatga ega bo'lgan bunday rezolutsiyalar 1963-, 1965- va 1971-yillarda qabul qilingan) kiritildi.

Xalqaro huquqning alohida tarmoqlariga taalluqli normativ ko'rsatmalar Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Atom energiyasi kafolatlari xalqaro agentligi kabi xalqaro tashkilotlarning ba'zi hujjatlaridan joy olgan.

O'z tarkibi va faoliyatining xususiyatiga ko'ra davlatlararo (hukumatlararo) bo'lgan xalqaro konferensiyalar, yig'ilishlar, kongresslar ko'pincha xalqaro shartnomalarni muhokama qilish va qabul qilish uchun chaqiriladi hamda ularning davlatlar vakillari tomonidan imzolinishi bilan yakunlanadi. Konferensiyalarning yakunlovchi aktlari bunday hollarda mustaqil normativ mazmunga ega bo'lmaydi. Lekin konferensiya ishtirokchilari bo'lgan davlatlarning xohish-irodasiga muvofiq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ qarorlarni o'z ichiga olgan yakunlovchi hujjatlar ham amaliyotda ma'lum.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining 1975-yil 1-avgustdagi Yakunlovchi akti ulkan siyosiy va yuridik ahamiyatga egadir. 35 ta ishtirokchi-davlatlar kelishuvining natijalarini o'zida mujassamlashtirgan bu Akt o'nta xalqaro-huquqiy prinsipni o'z ichiga oladi. Bu prinsiplar haqida hujjatning o'zida ishtirokchi-davlatlar «o'zaro munosabatlarda ularga asoslanadilar» deyilgan. Shuningdek, bu hujjat boshqa Ba'zi normativ qoidalarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, ularni bajarish zarurligi, xalqaro-huquqiy majburiyatlarni vijdonan bajarish (pacta sunt servanda) ruhida bo'lishi matnda aytib o'tilgan.

5. BMT Xalqaro Sudining qarorlari

Xalqaro arbitrajni amalga oshiruvchi xolis hakamlar sudi kabi BMT Xalqaro Sudining qarorlari ham, asosiy manba bo'lmasa-da, normativ xususiyatga egadir. Bu holat Sud Statutining 38-moddasida nazarda tutilgan.

BMT Ustavining 94-moddasiga muvofiq, Tashkilot a'zolari o'z-lari tomon sifatida ishtirok etuvchi ish bo'yicha Xalqaro Sudning qarorlarini bajarish majburiyatini olganlar. Bir tomon Sud qaroriga binoan o'ziga yuklatilgan majburiyatni bajarmasa, boshqa tomon

qarorni ijro etish uchun chora ko'rishga vakolatli bo'lgan BMT Xavfsizlik Kengashiga murojaat qilishi mumkin.

BMT Xalqaro Sudining qarorlari xalqaro huquqni qo'llash akti hisoblanadi, lekin shu bilan birga, ularning kuchi Sud ko'rib chiqqan aniq ish (nizo) bilan chegaralanib qolmaydi. Uning choralari xalqaro-huquqiy normalarni sharhlash shakli (konsultativ xulosa) singari ma'lum rol o'ynaydi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, BMT Xalqaro Sudining qarorlari so'nggi ikki o'n yillikda ko'pchilik xalqaro huquqshunoslar tomonidan xalqaro ommaviy huquqning manbayi sifatida tan olinmoqda, ya'ni BMT Xalqaro Sudining qarorlari manbalarni aniqlashda yordamchi vositadan manbaga aylanganligi haqida so'z yuritish mumkin.

6. Xalqaro huquq doktrinasining roli

Xalqaro huquqning shakllanishida huquqshunoslarning asarlari alohida o'rin tutadi. Diplomatlar va sud nazariyotchilarning asarlaridan u yoki bu normalarning mavjudligini isbotlashda keng foydalandi. Bunday holat doktrinaning huquq ijodkorligi jarayonida qatnashishiga sezilarli imkoniyat yaratdi.

Xalqaro huquqda taniqli xalqaro huquqshunos olimlarning tan olingan ishlari, ta'limotlari, nazariyalari va boshqa asarlari doktrina deb e'tirof etiladi. Doktrina xalqaro huquqning yordamchi manbayi sifatida yuritiladi.

Davlatlarning konstitutsiyalari, qonunlari, boshqa yuridik hujjatlari xalqaro huquqning manbayi sifatida baholanishi mumkin emas. Ular muayyan davlatning xohish-irodasi va manfaatlarini ifodalaydi hamda uning ichki vakolat doirasida amal qiladi. Lekin ularning mazmuni xalqaro-huquqiy tartibga solish uchun ahamiyatsiz emas.

Birinchidan, davlatlararo munosabatlarga mos keladigan milliy qonunchilik yangi xalqaro huquq normalarini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bir necha yoki ko'plab davlatlarda mazmunan yaqin bo'lgan qonunlarning mavjudligi huquq manbayi sifatida xalqaro odatning vujudga kelayotganligidan dalolat berishi mumkin.

Uchinchidan, o'zaro munosabatlar jarayonida davlatlar bir-birlarining bu munosabatlar sohasiga taalluqli bo'lgan va xalqaro hu-

quqning asosiy prinsiplariga zid kelmaydigan qonunlarini hurmat qilishga, o'z harakatlarini bunday qonunchilikka moslashtirib olib borishga majburlardir (zarur hollarda tegishli qoidalar xalqaro shartnomalarga kiritiladi).

7. Davlatlarning bir tomonlama yuridik aktlari

Xalqaro huquqning yordamchi manbalaridan biri, shuningdek, davlatlarning bir tomonlama yuridik aktlari, jumladan, majburiyat akti, tan olish akti va e'tiroz (protest) aktlaridir. Dastlabki ikkita akt, qoida tariqasida, uyg'unlikda amal qiladi.

Majburiyat akti – o'z vakolatli organi timsolida davlatning qabul qilgan bayonoti bo'lib, unda mazkur davlat bayonotda ifodalangan shartlarda xalqaro munosabatlarda o'z zimmasiga amaldagi xalqaro-huquqiy qoidalarda ko'rsatilgan yoki bunday qoidalarga ba'zi aniqliklar kiritadigan, boshqa barcha davlatlarga yoki ularning ba'zilariga yo'llangan va u yoki bu darajada ushbu davlatlar e'tiboriga etkazilgan (xususan, yozma shaklda) ma'lum xatti-harakatlarga amal qilish majburiyatini olganligini bildiradi.

Adresat-davlatlar tomonidan aktning tan olinishi ular uchun, tabiiyki, majburiyat aktida bayon qilingan shartlarga muvofiq (xususan, majburiyatlarning amal qilish muddati borasida) bu aktga havola qilinadigan subyektiv huquqlarni keltirib chiqaradi.

Majburiyat akti uni tan olish akti bilan birga uyg'unlashgan holda, davlatlararo bitim tuzish uchun vaziyatni vujudga keltiradi. Tabiiyki, bir tomonlama majburiyat va ularni tan olish yuridik akti manfaatdor davlatlarning irodasini aks ettiradi, shu orqali erishilgan o'zaro kelishuv esa yangi xalqaro-huquqiy normalarni belgilash yoki amaldagilarini aniqlashtirib olish yuzasidan bu davlatlarning kelishishi va shu bilan umumiy xohish-irodasini ifodalaydi.

Shuni qo'shimcha qilish joizki, o'zining amal qilish muddatlari doirasida va bir tomonlama xalqaro majburiyatda ko'rsatilgan boshqa shartlarga rioya qilinganda, bu majburiyat bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas, ya'ni uni tan olish bilan uyg'unlashganda majburiyat nisbatan barqaror xalqaro bitimni yuzaga keltiradi.

Tan olish akti – davlatning yuridik akti (harakat yoki harakatsizligi) bo'lib, uning vositasida davlat boshqa davlatning amaldagi xalqaro huquqqa muvofiq harakatlari natijasida yaratilgan holatning yuri-

dik ahamiyatini tan oladi, chunki bunday vaziyat mavjudligi haqida ushbu davlatga ma'lum bo'lgan yoki ma'lum bo'lishi lozim bo'ladi. Keltirilgan ta'rifning so'nggi qismi («chunki») so'zidan keyingi qismi) yuridik ahamiyatga ega vaziyatni yuzaga keltirgan davlatning ham, uni huquqiy deb tan olgan davlatning ham vijdonan harakat qilish majburiyatini ifodalaydi. Vijdoniylik to'g'risidagi ma'naviy-siyosiy prinsip ko'rsatilgan huquqiy munosabatda muhim rol o'ynaydi.

Yaratilgan yuridik ahamiyatli vaziyat umumiy xalqaro huquqning imperativ normasi bilan ziddiyatga kirishmasligi kerak. Aks holda yuzaga kelgan vaziyatni tan olishning yuridik ahamiyati yo'qqa chiqadi.

Tan olishning xususiyati shundaki, u boshqa davlatga murojaat qilgan vakolatli organning yaqqol ifodalangan akti (masalan, yangi paydo bo'lgan davlatga diplomatik munosabatlar o'rnatish taklifi bilan chiqish) vositasi bo'lishi yoki bu davlatning amaldagi ishlar yoki umumiy xalqaro huquqning oddiy huquq normalariga muvofiq o'z xalqaro majburiyatlarini bajarayotganligidan dalolat beruvchi sukutli tan olish xatti-harakatidan kelib chiqishi mumkin. Davlat tomonidan boshqa davlat yaratgan yuridik ahamiyatga ega vaziyatga belgilangan muddatda e'tiroz bildirmaslik uni so'zsiz tan olish deb qaraladi, davlatning xalqaro huquqning imperativ normalarini buzgan harakatlari haqida gap ketayotgan tan olishi yuridik jihatdan kam ahamiyatli bo'lgan hollar bundan mustasnodir.

Tan olish aktiga zid bo'lgan *protest akti* – davlatning boshqa davlat xatti-harakati natijasida vujudga kelgan yuridik ahamiyatga ega vaziyatni huquqiy deb tan olishni rad etish to'g'risidagi bayonoti, ya'ni bu vaziyatni amaldagi xalqaro-huquqiy ko'rsatmalarga muvofiq huquqqa zid deb tavsiflashidir. E'tiroz yaqqol ifodalanishi va u yoki bu darajada yo'naltirilgan davlat va boshqa manfaatdor davlatlar e'tiboriga havola qilingan bo'lishi shart.

Tabiiyki, e'tiroz yuridik *prima facie*, ya'ni yetarli darajada aniq, asoslangan bo'lishi zarur va mohiyat e'tibori bilan, u yo'llangan davlatning qarshiligiga uchrashi mumkin.

Davlatlarning bir tomonlama yuridik aktlari borasidagi umumiy ahvol ana shunday. Afsuski, bir tomonlama yuridik aktlar masalasi xalqaro huquq doktrinasida deyarli ishlab chiqilmagan. Shuningdek, yuridik akt va yuridik fakt tushunchasi, ya'ni xalqaro huquq normala-

rida nazarda tutilgan, yuzaga kelishi bilan tegishli huquqiy munosabatlarni tug'dirib, ushbu normalarni harakatga keltiradigan hodisa bo-rasida ham chalkashliklar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro huquq manbalari masalasiga qaytar ekanmiz, shuni takrorlash lozimki, davlatning majburiyat akti u yo'llangan davlat-larning tan olish akti bilan uyg'unlikda ularning o'zaro munosabatlari-da ma'lum majburiyatlarni o'rnatadi. Shu bois u hozirgi zamon xalqaro huquqining manbalaridan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro huquq manbalarining huquq osti tizimi sifatida o'ziga xosliklari nimada?*

2. *Odat va xalqaro odat normalari, ularning qadimgi va o'rta asr Sharq davlatlari xalqaro munosabatlarida tutgan o'rni haqida so'zlab bering.*

3. *Xalqaro huquqning shartnomaviy (konvension) normalari, ularning XXI asr xalqaro munosabatlari uchun ahamiyati va tutgan o'rni.*

4. *Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar rezolutsiyalarining yuridik kuchi. Xalqaro nohukumat tashkilotlar rezolutsiya va qarorlarining xalqaro norma ijodkorligida tutgan o'rnini ta'riflab bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Власов Д.С. Императивные нормы *ius cogens* и правовые позиции Международного Суда ООН // Российский юридический журнал. – М., 2006. – № 1. – С. 128-132.

2. Даниленко Г.М. Обычай в современном международном праве. – М., 1988.

3. Дмитриева Г.К. Мораль и международное право. – М., 1991.

4. Евинтов В.И. Многосторонние договоры в современном междуна-
родном праве. – Киев, 1979

5. Каламкарян Р.А. Международно-правовое значение односто-
ронних юридических актов государств. – М., 1984.

6. Коробова М.А. Расширение сферы действия норм общего мно-
гостороннего договора. – М.: МГУ, 1983.

7. Лукашук И.И. Источники международного права. – Киев, 1966.

8. Минасян Н.М. Источники современного международного права. –
Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского Университета, 1960.

9. Муравский В.А. Международный договор как источник наци-
онального права. – Екатеринбург, 1993.

10. Сивяцкина И.Е. Обычай и обычное право в современной Африке. – М., 1978.
11. Филимонова М.В. Источники современного международного права. – М., 1977.
12. D'Amato A. The Concept of Custom in International Customary Law and Codification. – Leyden, 1972.
13. Gihl T. The Legal Character and Sources of International Law. – Stockholm, 1957.
14. Parry C. The Sources and Evidences of International Law. – Cambridge, 1965.
15. Soronsen M. Les Sources de Droit de International. – Paris, 1946.
16. Wolfke K. Custom in Present International Law. – Wroclaw, 1964.

5-bob. XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI

1. *Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari tushunchasi*
2. *Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari izohi*
3. *Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi.*

1. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari tushunchasi

BMT Ustavi qabul qilinguncha xalqaro huquqning asosiy prinsiplari masalasi asosan xalqaro huquq doktrinasida ko'rib chiqilar edi. Hozirgi vaqtda esa xalqaro huquqning asosiy prinsiplari e'lon qilingan va deyarli jahonning barcha davlatlari imzolagan BMT Ustavidek muhim hujjatda mustahkamlab qo'yilgan. Bu prinsiplar BMT Ustavining 2-moddasida bayon qilingan.

Bundan tashqari, Xalqaro huquqning prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada zamonaviy xalqaro huquqning BMT Ustavidagi mujassamlashgan yettita asosiy prinsipining normativ mazmuni davlatlar xalqaro hamjamiyatning o'z autentik ifodasini topgan. Jumladan, Deklaratsiyada Ustavda mujassamlashgan prinsiplar «xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini» aks ettiradi va «yuqorida bayon etilgan prinsiplarni sharhlashda va qo'llashda bu prinsiplar o'zaro bog'langan va bir prinsip boshqa prinsiplar bilan aloqadorlikda qarab chiqilishi kerak» deyiladi. Bosh Assambleya barcha davlatlarni o'z xalqaro faoliyatida ushbu prinsiplarga amal qilishga va ularga qat'iy rioya qilish asosida o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga chaqirdi.

Qayd etib o'tilganidek, xalqaro huquqning asosiy prinsiplari so'zsiz, imperativ normalar hisoblanadi, aks holda ular o'zining asos sifatidagi xususiyatini yo'qotgan bo'lur edi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy prinsiplari – ommaviy xalqaro huquqning asos qoidalari va holatlari tizimi bo'lib, xalqaro munosabatlarning barcha sohalarida davlatlar va boshqa subyektlarning xatti-harakatlarini umumiy ko'rinishda tartibga soladi, imperativ xususiyatga ega bo'lib, xalqaro huquqning mazmuni va maqsadga yo'naltirilganligini belgilab beradi.

Yana shuni ham nazarda tutish lozimki, asosiy prinsiplar bilan birga xalqaro huquq boshqa norma-prinsiplarini ushbu yig'indilar va tizimlar (tizimchalar, subtizimlar) uchun asos bo'luvchi o'zaro bog'langan normalarni, shuningdek xalqaro huquq asosiy tarmoqlarining maxsus tarmoq prinsiplarini ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro huquqni hech kim bekor qilolmaydi, shuning uchun bir tomonlama tartibda bu haqiqat davlatlar tomonidan tan olinadi.

Xalqaro huquqning prinsiplari odat va shartnomaviy yo'li bilan tartibga solinadi. Ular bir vaqtning o'zida ikkita funksiyani bajaradi:

- xalqaro munosabatlarni ma'lum normativ doiralarda bilan cheklab qo'yar ekan, xalqaro munosabatlarni barqarorlashtirishga ko'maklashadi;

- xalqaro munosabatlar amaliyotida paydo bo'layotgan barcha yangi voqelikni mustahkamlaydi va shu yo'l bilan rivojlanishiga ko'maklashadi.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari BMT Ustavida qayd etilgan. Ular yuqori tartibdagi majburiyatlar hisoblanadi va davlatlar tomonidan na yakka tartibda, na o'zaro kelishuv bo'yicha o'zgartirilishi mumkin emas.

Quyidagilar xalqaro huquq prinsiplarining mazmunini ochib beruvchi eng nufuzli hujjatlar hisoblanadi:

- BMTning 1945-yil 24-oktabrda qabul qilingan Ustavi (2 modda);

- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1970-yil 24-oktabrda qabul qilingan, BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya;

- A'zo-davlatlar o'zaro munosabatlarida amal qiladigan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining 1975-yil 1-avgustdagi Yakunlovchi aktidan o'rin olgan Prinsiplar deklaratsiyasi.

Barcha prinsiplar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ularning har biri qolgan barcha prinsiplar kontekstida ko'rib chiqilishi kerak.

Shunday qilib, xalqaro huquq prinsiplari – subyektlar xatti-harakatining ijtimoiy amaliyoti natijasi sifatida yuzaga keladigan rahbariy qoidalari, xalqaro huquqning yuridik mustahkamlangan ibtido-asoslaridir.

Xalqaro huquq prinsipi – barcha subyektlar uchun majburiy xususiyatga ega bo‘lgan, xalqaro huquqning jus cogens yoki ergo omnes normasidir.

2. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari izohi

2.1. Davlatlarning suveren tengligi prinsipi. Har bir davlat xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari suverenitetini, ya'ni ularning o'z an'analari doirasida boshqa davlatlarning har qanday aralashuvidan xoli ravishda qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatini amalga oshirish, shuningdek o'z tashqi siyosatini mustaqil yuritish huquqini hurmat qilishga majburdir.

BMT Ustavi 2-moddasining 1-bandi shundan dalolat beradiki, «Tashkilot o'z a'zolarining suveren tengligi prinsiplariga asoslangan». Ushbu prinsipning rivojlanishi quyidagicha:

- BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli bo'lgan Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada to'la bayon qilingan;

- Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashiga ishtirokchi davlatlar vakillarining Vena uchrashuvi prinsiplari to'g'risidagi 1989-yilgi Deklaratsiyada rivojlantirilgan;

- 1990-yilgi Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida tasdiqlangan va h.k.

Suveren tenglik prinsipining asosiy ijtimoiy vazifasi – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yoki boshqa turdagi farqlardan qat'iy nazar, barcha davlatlarning xalqaro munosabatlarda teng ishtirok etishini yuridik ta'minlashdan iboratdir.

Xalqaro muloqotning teng huquqli ishtirokchilari sifatida davlatlar bir xil huquq va majburiyatlarga egadirlar.

1970-yilgi Deklaratsiyaga binoan, suveren tenglik tushunchasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- 1) davlatlar yuridik jihatdan tengdirlar;
- 2) har bir davlat to'liq suverenitet huquqidan foydalanadi;
- 3) har bir davlat boshqa davlatlarning huquq subyekti ekanligini hurmat qilishi shart;
- 4) davlatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi daxlsizdir;

5) har bir davlat o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlash va rivojlantirish huquqiga egadir;

6) har bir davlat o'zining xalqaro majburiyatlarini to'liq va vijdonan bajarishi hamda boshqa davlatlar bilan teng, tinch-totuv yashashi lozim.

YXHKning 1975-yilgi Yakunlovchi aktining tarkibiy qismi bo'lmish *Prinsiplar Deklaratsiyada*, davlatlar suveren tenglik prinsipiga faqat u BMT Ustavida va 1970-yilgi Deklaratsiyada bayon qilinganidek rioya qilishnigina emas, balki suverenitetga xos bo'lgan huquqlarni hurmat qilish majburiyatini ham o'z zimmalariga oldilar. Bu quyidagilarni anglatadi:

- davlatlar o'z munosabatlarida tarixiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishlaridagi farqlarni hurmat qilishlari shart;

- yo'nalishlar va qarashlarning xilma-xilligi, ichki qonunlar hamda ma'muriy qoidalar suverenitetga rioya qilish yo'lida g'ov bo'lmasligi shart;

- har bir davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatini o'z xohishicha va xalqaro huquqqa muvofiq belgilash va amalga oshirish huquqi;

- davlatning xalqaro tashkilotlarga kirish, ittifoqchilik shartnomalarini ham qo'shgan holda, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarga a'zo bo'lish huquqi hamda betaraflik (neytralitet) huquqi.

2.2. Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi. Aslida barcha prinsiplar o'zaro bog'liqdir. Masalan, suveren tenglik prinsipini davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi bilan bog'liq holda yoki aksincha ko'rib chiqish mumkin.

Aralashmaslik prinsipini zamonaviy tarzda tushunish umumiy shaklda BMT Ustavi 2-moddasining 7-bandida qayd etilgan va quyidagi e'tiborli xalqaro hujjatlarda aniqlashtirilgan:

• Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada;

• 1975-yilgi EXHKning Yakunlovchi aktida;

• BMTning davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo'l qo'ymaslik, ularning mustaqilligi va suverenitetini muhofaza qilish to'g'risidagi 1995-yil 21-dekabrda Deklaratsiyasida.

BMT Ustavi 7-moddasining 2-bandiga muvofiq Tashkilot «mazmunan har qanday davlatning ichki vakolatlariga kiradigan ishlarga aralashish» huquqiga ega emas. Ko'rsatilgan taqiq BMTning barcha ishtirokchilari harakatlariga joriy qilinadi. Bu qoidadan istisno ham mavjud. BMT Ustavining 7-bobiga muvofiq, majburiy choralarni qo'llash, ya'ni tinchlikka tahdid tug'ilganda, tinchlik buzilganda yoki agressiya akti mavjud bo'lganda ko'riladigan harakatlar shular jumlasidandir.

Shunday qilib, agar BMT Xavfsizlik Kengashi biror davlat hududida sodir bo'layotgan harakat xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solmoqda deb e'tirof etsa, bunday voqealar mazkur davlatning ichki ishi bo'lmay qoladi va BMTning ushbu voqealarga nisbatan harakatlari mazkur davlatning ichki ishlariga aralashish bo'lmaydi.

2.3. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik to'g'risidagi masala ilk bor Ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga keldi va xalqlarning urushdan keyin xalqaro munosabatlarni adolatli asosda qurishga bo'lgan intilishlari va umidlarini aks ettirdi. Bu obyektiv qonuniyat birinchi marta xalqaro huquq prinsipiga aylandi va BMT Ustavida mustahkamlab qo'yildi.

BMT Ustavi 2-moddasining 4-bandida shunday deyiladi: «BMTning barcha a'zolari o'z xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatish yoxud kuch ishlatish tahdididan, shuningdek Birlashgan Millatlarning maqsadlariga mos kelmaydigan boshqacha tarzda tahdid qilishdan o'zlarini tiyadilar».

Keyinchalik bu qoida aniqlashtirildi va BMT rezolutsiyalaridan birida, shuningdek quyidagi hujjatlarda o'z izohini topdi:

- Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada;

- 1974-yilgi Agressiya ta'rifida;

- Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kegashining 1975-yilgi Yakunlovchi aktida;

- Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish prinsipining samaradorligini oshirish to'g'risidagi 1977-yilgi Deklaratsiyada.

Prinsipning kuchi barcha davlatlarga – a'zo bo'lgan davlatlarga ham, a'zo bo'lmaganlarga ham joriy qilinadi. BMT Ustaviga binoan, faqat harbiy kuch ishlatishgina emas, balki g'ayrihuquqiy tusga ega harbiy bo'lmagan tazyiq ham man qilinadi (BMT Ustavi 2-moddasining 4-bandi harbiy kuch qo'llashni taqiqlashni nazarda tutadi).

YXHKning Yakunlovchi aktida (kelishilgan prinsiplarni hayotga tatbiq qilishga taalluqli bo'lim) a'zo davlatlar «boshqa a'zo davlatni majbur qilish maqsadida kuch ishlatishning barcha shakllaridan o'zlarini tiyadilar», «iqtisodiy tazyiq o'tkazishdan o'zlarini tiyadilar», deb ko'rsatib qo'yilgan.

Bu shundan dalolat beradiki, hozirgi zamon xalqaro huquqi har qanday ko'rinishda g'ayrihuquqiy kuch ishlatishni taqiqlaydi.

BMT Ustavining 42-47-moddalari harbiy kuch ishlatish holatlarini sharhlaydi. Ustavning 41- va 50-moddalari harbiy bo'lmagan kuchdan qonuniy foydalanishni nazarda tutadi. Bu moddalarda qonunbuzarlarga nisbatan qo'llaniladigan quyidagi choralar ko'rsatilgan:

- iqtisodiy munosabatlarni to'la yoki qisman uzish;
- temir yo'l, havo, pochta, telegraf, radio va boshqa aloqa vositalarini to'xtatib qo'yish;
- diplomatik aloqalarni uzish...

BMT Ustavi harbiy kuchni qonuniy ravishda qo'llashning faqat ikkita holatini nazarda tutadi:

- o'zini o'zi mudofaa qilish maqsadida (51-modda);
- BMT Xavfsizlik Kengashi qaroriga binoan, tinchlikka tahdid tug'ilganda, tinchlik buzilganida yoki agressiya akti mavjud bo'lgan hollarda (39- va 42-moddalar);
- BMT Ustavining 51-moddasi faqat biror davlatga qarshi qurolli hujum bo'lgandagina qo'llaniladi.

42-modda faqat tavsiya etilgan harbiy bo'lmagan tusdagi choralar yetarli bo'lmagan hollardagina qo'llaniladi, ya'ni «A'zo davlatlar bunday harakatlarni havo, dengiz yoki quruqlik kuchlaridan foydalanган holda amalga oshirishga vakolatlidirlar. Bunday choralar xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash va tiklash uchun zarurdir».

Mazkur choralar orasida quyidagilar ham bor:

- qurolli kuchlarni va harbiy salohiyatni namoyish qilish;
- dengiz qamali;
- BMT a'zolari qo'shinlarining havo, dengiz yoki quruqlik operatsiyalari.

Shunday qilib, kuch ishlatmaslik prinsipi agressiv urushlarini taqiqlab qo'yishni nazarda tutadi. 1974-yilda Agressiya ta'rifiga ko'ra, biror davlat tomonidan birinchi bo'lib qurolli kuch ishlatish xalqaro jinoyat hisoblanadigan va davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligini hamda aybdor individlarning xalqaro jinoyat javobgarligini keltirib chiqaradigan agressiv urush sifatida tan olinishi mumkin.

Nyurnberg va Tokio xalqaro harbiy tribunallarining ustavlarida agressiv harakatlarning xalqaro jinoyatlar sifatidagi yuridik kvalifikatsiyasi berilgan edi.

Keyingi yillarda prinsip mazmuniga davlatlarning agressiv urushlar tashviqotidan o'zlarini tiyishlari majburiyati ham kiritildi.

Olib borilgan faol tashqi siyosat natijasida 70-yillardan boshlab kuch ishlatmaslik prinsipining normativ mazmunida davlatlarning boshqa davlat chegaralarini buzish maqsadida yoki davlat chegaralariga taalluqli nizolar va masalalarni hal qilish vositasi sifatida kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatishdan tiyilib turish majburiyatiga alohida urg'u berildi.

Kuch ishlatmaslik prinsipining normativ mazmuni doirasiga quyidagilar kiradi:

- boshqa davlatning hududini bosib olishni xalqaro huquq normalarini buzish sifatida man qilish;
- kuch ishlatish bilan bog'liq repressiv aktlarni man etish;
- davlatlar o'z hududlarini uchinchi bir davlatga qarshi foydalanishi uchun boshqa davlatga berishini taqiqlash;
- fuqarolik urushi aktlarini tashkil qilish, bunday aktlarga undash, yordam berish yoki ishtirok etishni man qilish;
- muntazam bo'lmagan qurolli kuchlarni, jumladan, boshqa davlat hududiga bostirib kirish uchun yollanma kuchlarni tashkil qilish yoki rag'batlantirish.

Quyidagilar kuch ishlatmaslik prinsipini buzish deb qabul qilingan:

- 1) xalqaro deklaratsiya va sulh bitimlariga nisbatan zo'rlik ishlatib qilinadigan harakatlar;
- 2) shaharlarni yoki davlatning qirg'oqlarini qamal qilish;
- 3) xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqini amalga oshirishga to'siqlik qiladigan har qanday zo'ravonlik harakatlari va boshq.

2.4. Xalqaro nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish prinsipi. BMT Ustavi 2-moddasining 3-bandiga muvofiq, «BMTning barcha a'zolari o'z xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik, xavfsizlik hamda adolatga xavf solmaydigan holda tinch vositalar bilan hal qiladilar».

Bu prinsipning rivojlanishi quyidagicha: xalqaro shartnomalar va normalarni ishlab chiqq turib, davlatlar urushdan foydalanish huquqini cheklashdan asta-sekin xalqaro nizolarni hal qilishning tinch vositalarini rivojlantirish va davlatlarning bunday tinch vositalardan foydalanish majburiyatini belgilash tomon bordilar.

Ilgari, Xalqaro to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risidagi 1907-yilgi Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq, urushdan foydalanish man qilinmas («qurol qo'llashdan avval»), tinch vositalardan foydalanish majburiy emas («sharoit taqozo etgunicha bu vositalardan foydalanish mumkin»), tinch vositalarning juda tor doirasi (beminnat xizmatlar va vositachilik) tavsiya qilinar edi. BMT Ustavining 33-moddasi nizoda ishtirok etayotgan tomonlar «avvalambor, nizoni muzokaralar, tekshiruv, vositachilik, arbitrajni qo'llash, mintaqaviy organlar yoki bitimlarga murojaat qilish yoxud o'z tanloviga ko'ra boshqa tinch vositalar bilan hal etishga harakat qilishlari shart» deb belgilaydi.

BMT Ustavi 1-moddasining 1-bandida xalqaro nizolar «adolat va xalqaro huquq prinsiplariga muvofiq hal qilinishi zarur», deb yozib qo'yilgan. Ko'plab davlatlarning fikricha, adolatlilikka havolalar tinch vositalar yordamida har qanday xalqaro nizoni hal qilish uchun majburiylikni ta'kidlaydi.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipining tahlili (YXHTning 1970-yilgi Yakunlovchi akti va Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada qayd etilgan) shuni ko'rsatdiki, BMT Ustavini rivojlantiradigan va to'ldiradigan hamda bir qator davlatlar bekor qilishni xohlagan bir qator qoidalarni saqlab qolishga erishildi. Jumladan:

- davlatlarning «qisqa muddatda xalqaro huquqqa asoslangan adolatlari qarorga kelish uchun barcha choralarni ko'rishlari» majburiyatini;

- nizo hal qilinmayotgan hollarda «nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning o‘zaro kelishilgan yo‘llarini izlashni davom ettirish» majburiyatini;

- «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashga tahdid tug‘iladigan va shu bilan nizoni tinch hal qilishni yanada og‘irlashtiradigan har qanday harakatdan o‘zini tiyish»ni.

Nizoni tinch yo‘l bilan hal qilish prinsipi keyingi yillarda chuqur tahlil mavzuiga aylandi:

1. La-Valetta (Malta, 1997-yil)dagi nizolarni tinch yo‘llar bilan hal qilish bo‘yicha YXHT ekspertlarining yig‘ilishida, xalqaro nizolarni tinch hal qilishning jamoatchilik tizimi o‘lchamlari tavsiya qilindi.

2. YXHT majlisining yakuniy hujjatida Yevropada maxsus organ – «Nizolarni hal qilish bo‘yicha YXHT mexanizmi»ni yaratish nazarda tutilgan bo‘lib, u nizolashayotgan har qanday tomonning talabi bo‘yicha qo‘llanilishi mumkin va yarashtiruvchi organ sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Umuman olganda, quyidagilar ko‘rinib turibdi:

- xalqaro nizolarni hal qilishda tinch vositalar va usullarning salmog‘i ortib bormoqda;

- davlatlar ushbu prinsipning normativ mazmunini muntazam ravishda amaliyot va xalqaro hayot talablariga moslashtirib bormoqdalar.

2.5. Xalqlarning teng huquqligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi prinsipi. Mazkur prinsip haqida XIX asrdayoq so‘z yuritilganligiga qaramay, majburiy norma sifatida u BMT Ustavida qayd etilgan.

BMT Ustavi 1-moddasining 2-bandida BMTning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida «xalqlarning tengligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi prinsipini hurmat qilish asosida millatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirishdir» deyiladi.

BMT Ustavining 55-moddasida bu maqsad aniqlashtiriladi, turmush darajasini oshirish vazifasi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi, sog‘liqni saqlash, maorif, madaniyat, inson huquqlarini himoyalash va sh.k. xalqaro muammolarni hal qilish bilan bog‘lab ko‘rsatiladi.

Teng huquqlilik va o‘zaro hurmat, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi prinsipi quyidagilarda mustahkamlab qo‘yilgan va rivojlantirilmoqda:

• Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi 1960-yilgi Deklaratsiyada;

• Inson huquqlari to'g'risidagi 1966-yilgi xalqaro paktlarda;

• Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada;

• EXHK Yakunlovchi aktining tarkibiy qismi bo'lmish Prinsiplari Deklaratsiyasida. Unda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Kolonial qaramlik muammosi deyarli hal qilinganligi bilan, teng huquqlilik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqi o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q, zotan:

1) o'z taqdirini o'zi belgilashning subyekt davlat emas, xalqdir;

2) BMT hujjatlarida prinsipning normativ mazmuniga nisbatan asosiy holatlar bayon qilingan.

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada quyidagilar ta'kidlanadi: «Suveren va mustaqil davlat tuzish, ozod davlatga erkin qo'shilish yoki u bilan birlashish yoxud xalq tomonidan tanlangan har qanday boshqa siyosiy maqomni o'rnatish ushbu xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish shakli hisoblanadi»;

3) o'z taqdirini o'zi belgilash huquqining mazmunida iqtisodiy jihatlar tobora ko'proq ajratib ko'rsatilmoqda (o'z qazilma boyliklaridan foydalanish, madaniy rivojlanishni amalga oshirish);

4) o'z taqdirini o'zi belgilashning zamonaviy normativ mazmuni xalqlarning huquqlarini ham, davlatlarning tegishli majburiyatlarini ham qamrab oladi.

Xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipi ko'p variantli bo'lishi mumkin, ammo bu sohadagi majburiyat va uni amalga oshirish ko'p turli bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib, o'z taqdirini o'zi belgilash xalqlarning tarixiy, jug'rofiy, madaniy, diniy va boshqa an'analari hamda tasavvurlariga ko'proq darajada mos keladigan rivojlanish yo'lini tanlash huquqini anglatadi.

2.6. Davlatlarning hamkorlik qilish prinsipi. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumidan qat'iy nazar, davlatlarning xalqaro munosabatlarning turli sohalaridagi xalqaro hamkorligi g'oyasi BMT Ustavidagi normalar tizimining asosiy qoidalaridan hisoblanadi.

BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar mazmundagi xalqaro muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishlari» shart, shuningdek ular «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashlari va shu maqsadda samarali kollektiv choralar qabul qilish»ga majburlirlar.

Huquqiy kategoriya sifatida hamkorlik prinsipi Ustavning boshqa qoidalaridan, jumladan, 55- va 56-moddalardan kelib chiqadi.

BMT Ustavining 55-moddasi BMT a'zolarining ikki turdagi majburiyatlaridan dalolat beradi:

- davlatlarning BMT Ustavida nazarda tutilgan maqsadlarga erishish yo'lida bir-birlari bilan hamkorlik qilish majburiyati;

- ularning ushbu maqsadlarga erishish yo'lida BMT bilan hamkorlik qilish majburiyati.

Hamkorlikning aniq shakllari, ko'lami, ehtiyojlari va davlatning hududiy bo'lmagan resurslari, ichki qonunlari hamda o'z zimmasiga olgan majburiyatlaridan kelib chiqadi.

2.7. Inson huquqlarini umumiyalpi hurmat qilish prinsipi. Garchi inson huquqlarini hurmat qilish tushunchasining o'zi XIX asrga borib taqalsa-da, inson huquqlarini umumiyalpi hurmat qilish prinsip sifatida BMT Ustavi qabul qilinishi bilan vujudga kela boshladi.

BMT Ustavining muqaddimasida «insonning asosiy huquqlari ... erkaklar va ayollarning teng huquqliligiga ishonch»i mustahkamlab qo'yilgan.

BMT Ustavining 1-moddasida BMT a'zolarining maqsadi sifatida ular orasidagi hamkorlik to'g'risida, «irqi, jinsi, tili va dinidagi farqlardan qat'iy nazar, barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish rag'batlantirilishi» haqida gapiriladi.

BMT Ustavining 55-moddasida aytilishicha, «BMT quyidagilarga:

- turmush darajasini oshirish, aholining ish bilan to'la ta'minlanganligi va iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishiga;

- inson huquqlari va barcha uchun erkinliklarning asoslarini umumiy hurmat qilish va ularga rioya etilishiga ko'maklashadi.

56-modda «BMTning barcha a'zolari 55-moddada ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun birgalikda va mustaqil harakatlar qilish majburiyatini» o'z zimmalariga olishlarini nazarda tutadi.

BMT Ustavida majburiyatlar umumiy shaklda bayon qilingan. Ular quyidagi hujjatlarda aniqlashtirilgan:

- Inson huquqlari to'g'risidagi 1948-yilgi Umumjahon deklaratsiyasida;

- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1966-yilgi xalqaro paktida;

- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar quyidagi xususiyatlariga ega:

1) universal xususiyatga (ya'ni inson huquqlari va barcha asosiy erkinliklar hurmat qilinadi);

2) umumiy xususiyatga (ya'ni barcha mamlakatlarda ularga rioya qilinadi);

3) irqi, jinsi, e'tiqodi, tili va dinidan qat'iy nazar, barchaga nisbatan bir xil joriy etiladi;

4) ushbu masala yuzasidan qonunchilikning milliy modellarini ishlab chiqish uchun boshlang'ich asos hisoblanadi;

5) inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalar davlat doirasida amalda bo'lsa-da, davlatlar milliy qonun hujjatlarini qabul qilishga muhtojdir.

Inson huquqlarini umumiyalpi hurmat qilish prinsipini yanada rivojlantirar ekan:

* YXHTning Vena uchrashuvi Yakunlovchi hujjati davlatlarga «o'z fuqarolarining huquqlarini hurmat qilish, mustaqil yoki boshqalar bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rivojlantirish hamda muhofaza qilishga faol hissa qo'shish»ga ko'rsatma beradi, «unga hujjatlarining qoidalarini bajarish va amalga oshirishga ko'maklashishni nazorat qilish hamda boshqalarga shu maqsadda qo'shilish huquqi»ni nazarda tutadi.

* YXHTning Kopengagen yig'ilishining hujjati davlatlarga «alohida shaxslarga inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish hamda rivojlantirishga harakat qiladigan nodavlat tashkilotlariga, jumladan, kasaba uyushmalari va inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qiladigan guruhlar faoliyatida ishtirok etishga, shuningdek bunday tashkilotlarni tuzish, ularga qo'shilish va ularning faoliyatida faol ishtirok etishni ham qo'shgan holda assosiatsiyalar tuzish huquqini amalga oshirishiga ruxsat berishni ta'minlash» majburiyatini yuklaydi.

2.8. Davlatlarning hududiy yaxlitligi daxlsizligi prinsipi. Bu prinsip 1945-yilda BMT Ustavi qabul qilinishi bilan vujudga kelgan bo'lib, quyidagi ko'rinishlarga ega:

- hududiy yaxlitlik;
- hududiy daxlsizlik.

Prinsipning vazifasi – davlat hududini har qanday tajovuzlardan himoya qilish.

BMT Ustavi har qanday davlatning hududiy yaxlitligi (daxlsizligi) va siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilishni taqiqlab qo'ydi.

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyada BMT Ustavi 2-moddasining 4-bandini izohlashda, – garchi mazkur prinsip alohida qo'llanmagan bo'lsa-da, – ushbu prinsipning unsurlari aks ettirilgan. Masalan:

- davlat «har qanday davlatning birligi va hududiy yaxlitligini qisman yoxud to'la buzishga qaratilgan har qanday harakatlardan o'zini tiyib turishi shart»ligi belgilab qo'yildi;

- «davlatning hududi kuch ishlatish natijasida Ustav qoidalarini buzishga olib kelgan harbiy okkupatsiya obyekti bo'lishi mumkin emas»ligi qayd etildi;

- «davlat hududi kuch ishlatish yoki uni qo'llash natijasida boshqa davlat tomonidan egallab olish obyekti bo'lishi yoki yo'qotilishi mumkin emas»ligi belgilab qo'yildi;

- «kuch ishlatish yoki uni qo'llash natijasi bo'lgan yo'qotish va hududiy egallab olishlar qonuniy deb tan olinmasligi shart»ligi belgilab qo'yildi.

EXHK yakunlovchi aktining tarkibiy qismi bo'lmish 1975-yilgi Prinsiplar deklaratsiyasida ushbu prinsipga to'la izoh berildi: «Ishtirokchi-davlatlar boshqa har qanday ishtirokchi-davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qiladilar. Shunga muvofiq ular BMT Ustavi maqsadlari va prinsiplariga mos kelmaydigan, har qanday ishtirokchi-davlatning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligi yoki birligiga qarshi harakatlardan va, xususan, kuch ishlatish yoxud kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan iborat bo'lgan har qanday harakatdan o'zlarini tiyadilar.

Ishtirokchi-davlatlar, shuningdek, bir-birlarining hududini xalqaro huquqni buzgan holda bevosita yoxud bilvosita choralarni qo'llab

okkupatsiya obyektiga aylantirishdan yoki bunday choralar yordamida bu hududlarni egallab olish obyektiga aylantirishdan o'zlarini tiyadilar. Har qanday okkupatsiya yoki bunday ko'rinishdagi egallab olishlar qonuniy deb tan olinmaydi». Shunday qilib, mazkur prinsipning EXHK Yakuniy aktida bayon qilinishi davlatlarning quyidagi majburiyatlarni belgilab qo'ydi:

- bir-birining hududiy yaxlitligini hurmat qilish;
- BMT Ustavi maqsadlari va prinsiplariga mos kelmaydigan har qanday harakatdan o'zini tiyib turish.

Bundan, masalan, quyidagilar kelib chiqadi:

1) boshqa bir davlatning hududidan, har qanday transport vositalarining o'tishi faqat chegaralarning daxlsizligini emas, balki davlat hududi daxlsizligining huzilishi hisoblanadi;

2) har qanday davlatning barcha tabiiy resurslari daxlsiz bo'lib, ulardan ruxsatsiz foydalanish hududiy daxlsizlikni buzish hisoblanadi;

3) davlatning o'z hududidan foydalanishi boshqa davlat hududining tabiiy sharoitlariga zarar etkazmasligi kerak (masalan – Chernobil halokati).

2.9. Davlat chegaralarining buzilmasligi prinsipi. Bu g'oya 1970-yil 12-avgustdagi sobiq SSRIning GFR bilan shartnomasida, so'ngra esa PXR, CHSR va GDRning GFR bilan shartnomalarida huquqiy rasmiylashtirildi, ya'ni G'arbiy Yevropada urushdan keyingi chegaralar o'rnatilishini yuridik mustahkamlab qo'ydi. Shu vaqtdan boshlab chegaralarning buzilmasligi barcha davlatlar uchun yuridik majburiy bo'lgan xalqaro huquq normasiga aylandi.

Chegaralarning buzilmasligi prinsip sifatida 1975-yilgi EXHKning Yakunlovchi aktida ifodalandi. «Ishtirokchi-davlatlar bir-birlarining chegaralarini ham, butun Yevropadagi davlatlarning chegaralarini ham buzilmas deb qabul qiladilar va shuning uchun hozir va kelgusida ushbu chegaralarga har qanday tajovuzlardan o'zlarini tiyadilar».

Bu prinsipni tan olish har qanday hududiy da'volardan voz kechishni anglatadi, ya'ni davlatlar «har qanday ishtirokchi-davlat hududining bir qismini yoki butun hududini bosib olish yoki uzurpatsiya¹ qilishga qaratilgan har qanday talablar yoxud harakatlardan tegishli tarzda o'zlarini tiyadilar». Shundan kelib chiqib, chegaralar-

¹ Uzurpatsiya - hududni noqonuniy egallab olish.

ning buzilmasligi prinsipini quyidagi uch elementdan iborat deb qabul qilish mumkin:

1) amaldagi chegaralarni xalqaro huquqqa mos ravishda yuridik o'rnatilgan deb tan olish;

2) ayni paytda va kelajakda har qanday hududiy da'volardan voz kechish;

3) kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish prinsipini ham qo'shgan holda, ushbu chegaralarga har qanday tajovuz qilishdan voz kechish.

Nisbiy chegaralarning ikki tushunchasi mavjud:

1. Chegaralarning buzilmasligi – faqat EXHK Yakunlovchi aktining ishtirokchilariga nisbatan (ya'ni faqat YXHTning 55 ta a'zosiga nisbatan – 2007-yilgacha bo'lgan ma'lumot) amalda bo'ladi.

2. Chegaralarning daxlsizligi – xalqaro ommaviy huquq prinsipi bo'lib, ushbu masala bo'yicha maxsus bitim bor-yo'qligidan qat'iy nazar, barcha qit'alarda amal qiladi (xalqaro huquqning ergo omnes prinsipi bo'lganligi sababli).

2.10. Xalqaro shartnomalarni vijdonan bajarish (ado etish) prinsipi (pacta sunt servanda). Ushbu prinsipning paydo bo'lishi davlatchilik va shartnomalar tuzishning rivojlanishi bilan bog'liq, ya'ni u xalqaro-huquqiy odat shaklida yuzaga keldi.

Biroq, xalqaro huquq subyektlari xulq-atvorining umum e'tirof etilgan normasi sifatida ushbu prinsip BMT Ustavida mustahkamlah qo'yilgan. BMT Ustavining muqaddimasida BMT a'zolarining «adolat va shartnomalar hamda Xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan hurmat saqlanadigan sharoitlarni yaratish»ga qat'iy bel bog'laganliklari ta'kidlanadi.

BMT Ustavi 2-moddasining 2-bandiga muvofiq, «...BMTning barcha a'zolari Tashkilotga a'zolikka tegishlilikdan kelib chiqadigan, ularning barchasiga birgalikda xos bo'lgan huquqlar va imtiyozlarni ta'minlash uchun ushbu Ustav bo'yicha o'z zimmlariga olgan majburiyatlarini vijdonan bajaradilar...».

Ushbu prinsipning universalligi qiyidagilarda izohlanadi:

a) Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasiga muvofiq, «har bir amaldagi shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi va ular tomonidan vijdonan bajarilishi shart». Bundan tashqari, «ishtirokchi shartnomani bajarmaganligini oqlash uchun o'z ichki huquqi qoidalariga asoslanishi mumkin emas»;

b) Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyaga ko'ra, BMT Ustavi bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarini, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va prinsiplaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va prinsiplariga muvofiq amalda bo'lgan xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarini vijdonan bajarishga majburdirlar, ya'ni ushbu prinsipning harakat doirasi ancha kengaydi;

v) EXHK Yakunlovchi aktining tarkibiy qismi bo'lmish 1975-yilgi Prinsiplar deklaratsiyasida ishtirokchi davlatlar «Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham, EXHKning Yakunlovchi aktiga mos keladigan shartnomalar va o'zlari ishtirokchi bo'lgan boshqa bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham vijdonan bajarish»ga kelishib oldilar.

Vijdonan bajarishning yuridik mazmuni Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasining matnidan kelib chiqadi. Bu shartnoma qoidalarini qo'llash ko'p jihatdan uning izohlanishi bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, mazmuni vijdonan izohlangan shartnomaga vijdonan amal qilinadi. Xalqaro shartnomalarni vijdonan bajarish prinsipi faqat amaldagi bitimlarga joriy etiladi. Bu quyidagilarni anglatadi:

1) ushbu prinsip faqat vijdonan bajarishga va teng munosabatlarga asoslangan xalqaro shartnomalarga nisbatan qo'llanadi;

2) har qanday teng huquqli bo'lmagan shartnoma davlatning suvereniteti va BMT Ustavini buzishi tufayli bajarilmasligi va ixtiyoriy tugallanishi mumkin;

3) BMT Ustaviga zid keladigan har qanday shartnoma haqiqiy emas va hech qanday davlat unga asoslanishi yoki uning afzalliklaridan foydalanishi mumkin emas (BMT Ustavining 103-moddasi);

4) hech qanday shartnoma xalqaro huquqning imperativ normasiga zid kelishi mumkin emas (Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasining 53-moddasi).

Shunday qilib, biz xalqaro huquqning oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, asos vazifasini bajaruvchi umum e'tirof etilgan normalarini mujassamlashtirgan asosiy prinsiplarini ko'rib chiqdik. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, barcha xalqaro-huquqiy normalar va subyektlarning xalqaro ahamiyatga ega harakatlari BMT Ustavi, YXHT-

ning Yakunlovchi akti va Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada o'z izohini topgan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplariga mos kelishi shart.

3. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach milliy huquq tizimini shakllantirish jarayoni jadal amalga oshirilmoqda. Milliy huquq tizimi nafaqat milliy-huquqiy aktlarni, balki xalqaro-huquqiy hujjatlar – xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalari, hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida "xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda"¹ degan qoida mavjud. Shu bilan birgalikda, Konstitutsiyaning 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir"² degan qoida bilan birgalikda qator prinsiplar ko'rsatib o'tilgan. Xo'sh bu prinsiplar qanday prinsiplar, ularni xalqaro huquqning asosiy prinsiplari deb tan olish mumkinmi?

Konstitutsiyaning 17-moddasida faqatgina besh prinsip o'z izohini topgan. Agarda biz bu prinsiplarga O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining prinsiplari sifatida qaraydigan bo'lsak (negaki 17-modda IV-bobga taalluqli, ushbu bob "Tashqi siyosat" deb yuritilgan), unda muammo vujudga kelmaydi, agarda ushbu prinsiplarni xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini milliy huquq, jumladan Konstitutsiyaga singdirish sifatida qaraydigan bo'lsak, unda qator muammolar vujudga keladi.

Agarda ushbu prinsiplarni BMT Ustavining 2-moddasida nazarda tutilgan prinsiplar deb qaraydigan bo'lsak (negaki O'zbekiston 2 mart 1992-yili BMTga qo'shildi va uning Ustavini imzoladi), unda, 17-moddada BMT Ustavining 2-moddasida nazarda tutilmagan prinsip - Chegaralarning daxlsizligi prinsipi kiritilgan. Ushbu prinsip

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Matn o'zbek, rus va ingliz tillarida. – T.: "O'qituvchi" NMIU, 2005. – B. 3.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Matn o'zbek, rus va ingliz tillarida. – T.: "O'qituvchi" NMIU, 2005. – B. 7.

EXHT 1975-yilgi Yakunlovchi aktining tarkibiy qismi bo'lmish Prinsiplar deklaratsiyasi bilan xalqaro huquqqa kiritilgan.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Konstitutsiyaning 17-moddasida so'z yuritilgan prinsiplarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga singdirilgan va tashqi siyosatimizni prinsiplari sifatida idrok etilgan xalqaro huquqning asosiy prinsiplari sifatida qarash mumkin.

26-dekabr 1996-yili qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining¹ 1-moddasida (Tashqi siyosat va xalqaro faoliyat) aytilishicha, «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining norma va prinsiplari, "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonun, "Mudofa to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi", boshqa qonunchilik aktlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining maqsad va prinsiplari, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va bitimlaridan kelib chiquvchi majburiyatlariga asoslanadi».

Ko'rib turganimizdek, qonunda BMT va EXHTning maqsad va prinsiplari asos sifatida sanab o'tilgan. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, qonunda BMT Ustavi va EXHTning Yakunlovchi aktida nazarda tutilgan 10 prinsip o'z izohini topishi lozim edi. Biroq qonunning faqatgina uchinchi moddasida BMT Ustavidan o'rin olgan atigi ikki prinsip – davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va davlatlarning mustaqilligi va suverenitetini kamsitmaslik (davlatlarning suveren tengligi) prinsiplari o'rin olgan.

Demak, qonunda ham prinsiplar xalqaro huquqning asosiy prinsiplari sifatida o'z o'rnini topmagan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xalqaro huquqning asosiy prinsiplari bevosita shu sifatda o'rin olmagan. Ular xalqaro huquqning asosiy prinsiplari sifatida emas, balki ularni milliy huquqqa singdirish orqali O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati, tash-

¹ Закон Республики Узбекистан «Об основных принципах внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан» от 26 декабря 1996 г. // Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан. – Т., 1996. – № 5-6.

qi siyosiy faoliyati va xalqaro faoliyatining prinsiplari sifatida belgilangan.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Prinsip tushunchasini izohlab bering. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari qaysi xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan?*
2. *Xalqaro huquq prinsiplarini guruhlab bering.*
3. *Xalqaro huquq prinsiplari xalqaro huquqning qolgan manbalari bilan qanday mutanosiblikda bo'ladi?*
4. *Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va imperativ normalari o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бараташвили Д.И. Принцип суверенного равенства государств в международном праве. – М., 1978.
2. Волова Л.И. Принцип территориальной целостности и неприкосновенности в современном международном праве. – Ростов-на-Дону, 1981.
3. Каламкарян Р.А. Принцип добросовестности в современном международном праве. – М., 1991.
Касымов А., Миренский Б. Принципы международного права в нашем Основном законе // Народное слово. – Т., 1995. – 2 дек.
4. Клименко Б. М. и Ушаков Н.А. Нерушимость границ – условие международного мира. – М., 1975.
5. Клименко Б.М. Мирное решение территориальных споров. – М., 1982.
6. Кожевников Ф.И. Общепризнанные принципы и нормы международного права // Сов. государство и право. – М., 1959. – № 12. – С. 15-24.
7. Левин Д.Б. Принцип мирного разрешения международных споров. – М., 1977.
8. Манукян К.А. Принцип равноправия государств в международном праве. – Ереван, 1975.
9. Менжинский В.И. Устав ООН и принцип неприменения силы // Сов. ежегодник международного права. 1973. – М.: Наука, 1975. – С. 82-98.
10. Менжинский В.И. Неприменение силы в международных отношениях. – М., 1976.
11. Моджарян Л.А. Становление и прогрессивное развитие демократических принципов международного права // Сов. ежегодник международного права. 1968. – М.: Наука, 1969. – С. 74-87.

12. Пушмин Э.А. О юридической природе принципа мирного разрешения международных споров // Сов. ежегодник международного права. 1974. – М.: Наука, 1976. – С. 198-206.
13. Пушмин Э.А. О понятии основных принципов современного общего международного права // Сов. ежегодник международного права. 1978. – М.: Наука, 1980. – С. 72-84.
14. Талалаев А.Н. Хельсинки: принципы и реальность. – М., 1985.
15. Тиунов О.И. Принцип соблюдения договоров в международном праве. – Пермь: Изд-во Пермск. ун-та, 1976.
16. Тиунов О.И. Принцип соблюдения международных обязательств. – М., 1979.
17. Ушаков Н.А. Суверенитет в современном международном праве. – М.: Междунар. отношения, 1963.
18. Ушаков Н.А. Невмешательство во внутренние дела государств. – М.: Междунар. отношения, 1971.
19. Ballardore-Pallieri. Diritto internazionale pubblico. – Padova, 1962.

6-bob. XALQARO HUQUQ SUBYEKTLARI

1. *Xalqaro huquq subyektlari tushunchasi va ularning turlari.*
2. *Davlat xalqaro huquqning asosiy subyekti sifatida.*
3. *Ozodlik uchun kurash olib borayotgan millatlar va xalqlarning xalqaro-huquqiy subyektligi.*
4. *Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning huquqiy subyektligi.*
5. *Xalqaro huquqda davlatsifat tuzilmalar.*

1. Xalqaro huquq subyektlari tushunchasi va ularning turlari

«Xalqaro huquq subyektlari» deganda yuridik huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan va shu sababdan xalqaro-huquqiy munosabatlarda ishtirok etish layoqatiga ega kollektiv tuzilmalar tushuniladi. Bunda ular quyidagi asosiy belgilarga ega bo'ladilar: tashqi chegaralanganlik, yagona shaxs sifatida muomala layoqatiga egalik, mustaqil irodasini ifodalash va amalga oshirish, xalqaro huquq normalarini qabul qilishda ishtirok etish va h.k. Ta'kidlash joizki, bunda yuqoridagi barcha belgilar xalqaro huquq normalari asosida qo'lga kiritiladi.

«Xalqaro huquq subyekti» tushunchasidan «xalqaro huquqiy munosabatlar subyekti» tushunchasini ajrata bilish kerak. Agar birinchi tushuncha xalqaro-huquqiy munosabatlarda ishtirok etish layoqatiga ega bo'lgan shaxsni bildirsa, ikkinchi tushuncha mazkur munosabatlarning haqqoniy ishtirokchisini ifodalaydi. Xalqaro-huquqiy subyektlilikning real xalqaro-huquqiy munosabatlar ishtirokchisining huquq va majburiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi tegishli aktorlarning¹ yuridik maqomi yoki huquqiy mavqei tushunchasini vujudga keltiradi. Bu, o'z navbatida, xalqaro huquqning ko'p sonli subyektlarini cheklangan miqdordagi toifaga, ya'ni suveren davlatlar, xalqaro davlatlararo (hukumatlararo²) tashkilotlar, o'z mustaqilligi uchun kurashuvchi

¹ Xalqaro munosabatlarda «xalqaro huquq sub'ektlari» tushunchasining sinonimi sifatida «aktorlar» iborasi qo'llanadi (lotincha «actus» - qilmish, faoliyat).

² Davlatlararo (hukumatlararo) tashkilotlarni xalqaro-huquqiy sub'ektlikka ega bo'lmagan xalqaro nohukumat tashkilotlardan farqlash lozim.

xalqlar, davlatlarga o'xshash (davlatsifat) tuzilmalar¹, shuningdek xalqaro-huquqiy subyektlilik hajmi aktorlarning avvalgi toifalariga nisbatan sezilarli darajada cheklangan jismoniy va yuridik shaxslar.

Xalqaro huquq subyektlarining huquqiy subyektligi o'z xususiyatiga ko'ra umumiy, tarmoq va maxsus turlarga bo'linadi:

- umumiy huquqiy subyektlilik – aktorlarning umuman xalqaro subyekt xususiyatiga ega bo'lish qobiliyatidir (bunday huquqiy subyektlikka xalqaro huquqning birlamchi subyektlari – davlatlar o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar va millat ega bo'ladi);

- tarmoqli huquqiy subyektlilik – aktorlarning xalqaro munosabatlarning u yoki bu sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarda ishtirok etish qobiliyati (bunday huquqiy subyektlikka o'z faoliyatida ta'sis hujjatlarida chegaralangan doiradan chiqa olmaydigan davlatlararo tashkilotlar egadirlar);

- maxsus huquqiy subyektlilik – aktorlarning xalqaro huquqning u yoki bu alohida doirasida maxsus turdagi huquqiy munosabatlarning tomonlari bo'la olish qobiliyati (masalan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy subyektligi shundan iboratdir).

Yuqorida aytib o'tilganlar asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: *xalqaro huquq subyektlari – xalqaro huquqda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega xalqaro - huquqiy munosabatlari ishtirokchilaridir.*

Quyidagilar xalqaro huquq subyektlari hisoblanadilar:

1) davlatlar;

2) o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshiruvchi millat va xalqlar;

3) xalqaro (hukumatlararo) tashkilotlar;

4) davlatsifat tuzilmalar.

Xalqaro huquq subyektlari xalqaro huquq tomonidan tartibga solingan munosabatlarda mustaqil ravishda ishtirok etish, o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish, xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan bevosita aloqaga kirishish uchun yuridik layoqatga ega bo'lishlari lozim. Hech kimga huquqiy bo'ysunmasligi bilan bir

¹ Huquqiy adabiyotlarda «davlatsifat» iborasining boshqacha ifodalanishi ham uchraydi // *Международное право / Под ред. Ю.М. Колосова и В.И. Кузнецова. – М.: Междунар. отношения, 1998. – С. 57-62.*

qatorda, xalqaro huquq subyektlari o'z faoliyatida davlat ichki huquq tartibotiga emas, aksincha, xalqaro huquqqa bo'ysunadi.

Jamoat tuzilmasi sifatida xalqaro huquqning uzviy birligi xalqaro huquqning barcha subyektlariga xosdir. Chunonchi, huquq va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyati va xalqaro muomala layoqati, ya'ni o'z xatti-harakatlari bilan huquqqa ega bo'lish va o'zi uchun yuridik majburiyatlar yaratish, shuningdek sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgar bo'lish qobiliyatiga ega bo'lmagan subyektlar xalqaro huquqda umuman yo'q.

Shu bois, subyektning xalqaro-huquqiy maqomini belgilashda, odatda, huquqiy muomala layoqati iborasi qo'llanadi, bunda uning mazmunida subyektning mustaqil harakatlari ham nazarda tutiladi. Chunonchi, Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasida aytilishicha, «har qanday davlat shartnomalar tuzish bo'yicha huquqiy muomala layoqatiga egadir».

Yuqorida aytib o'tilganlar xalqaro huquq subyektlarida huquqiy layoqat (subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyati), faoliyat ko'rsatish layoqati (o'zida bo'lgan huquq va majburiyatlarni ongli ravishda ado etish layoqati), shuningdek delikt layoqati (sodir etilgan huquqbuzarlik, yetkazilgan har qanday zarar uchun qonun oldida javob berish qobiliyati) mavjudligidan dalolat beradi.

U yoki bu subyektning xalqaro-huquqiy layoqati mazmuni va hajmi xalqaro huquq tomonidan berilgan huquq va majburiyatlar majmui bilan belgilanadi. Mazkur huquq va majburiyatlar majmui umumiy xalqaro huquq normalaridan kelib chiqqan barcha turdagi subyektlarning umumiy huquq va majburiyatlari: ushbu subyektning ikki va ko'p tomonlama shartnomalarda ishtirok etish bo'yicha huquq va majburiyatlarida aks etadi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro huquqning barcha subyektlariga xos huquq va majburiyatlar xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga muvofiq ravishda belgilanadi. Mazkur «umumsubyektli» huquq va majburiyatlar u yoki bu turdagi subyektlar yoki xalqaro huquqning alohida subyektining xalqaro maqomi o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda aniqlashtiriladi.

2. Davlat xalqaro huquqning asosiy subyekti sifatida

Xalqaro huquq normalari asosan davlatlararo munosabatlar, ya'ni davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Zero, aynan davlatlar qator muhim xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar xalqaro huquqning boshqa subyektlarida uchramaydi.

Davlatning alohida siyosiy-huquqiy xususiyati uning suvereniteti hisoblanadi.

Davlat suvereniteti – davlatning o'z hududida to'la hukmronligi hamda xalqaro munosabatlar sohasidagi mustaqilligidir. Bular faqat davlatlarga xos bo'lib, davlatlarning xalqaro huquqning asosiy subyektlari sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Suverenitet mamlakat (jug'rofiy tushuncha)ga emas, balki davlatga tegishlidir. U ma'lum ijtimoiy mazmunga ham ega.

Xalqaro munosabatlar sohasida davlatlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro huquq normalari davlatlar tomonidan kelishuv (iroda bildirish) yo'li bilan tuziladi hamda xalqaro munosabatlarda davlat suverenitetiga qat'iy rioya qilishga qaratilgan bo'ladi. Har qanday davlat suverenitetini hurmat qilish, barcha davlatlarning suveren tengligini tan olish hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy prinsiplari jumlasiga kiradi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi xalqaro munosabatlarda davlat suverenitetini cheklash emas, aksincha, tasdiqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. U har bir davlatning boshqa davlatlar suverenitetini qat'iy hurmat qilish, xalqaro munosabatlarni davlatlarning suveren tengligi asosida qurish majburiyatini yuklaydi.

Chunonchi, davlatlarning suveren tengligi barcha davlatlar yuridik teng huquqli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlaridagi tafovutlardan qat'iy nazar, xalqaro hamjamiyat a'zolari sifatida bir xil huquq va majburiyatlarga ega ekanliklarini bildiradi. Barcha davlatlar xalqaro konferensiyalar va xalqaro tashkilotlarda qaror qabul qilishda teng ovozga ega bo'ladilar, xalqaro-huquqiy normalarni yaratishda teng asosda ishtirok etadilar.

Har qanday davlatga, u paydo bo'lgan vaqtdan e'tiboran, mustaqillik xosdir. Suveren davlatlar o'zining mavjudligi jihatidan xalqaro huquq subyektlari hisoblanadilar. Davlatning xalqaro-huquqiy subyektligi u yoki bu akt (hujjat) yoki xalqaro munosabatlar ishtirokchilari xohish-irodasining boshqa shakllariga bog'liq bo'lmaydi.

Davlat tuzilishiga ko'ra unitar yoki murakkab bo'lishi mumkin. U yoki bu tuzilish shaklini tanlash, davlat hududining hajmi, tarixiy va boshqa sabablardan kelib chiqadi va qaysi bir shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, barcha davlatlar xalqaro huquq subyektlari bo'lishi mumkin.

Unitar davlat xalqaro munosabatlarda xalqaro huquqning yagona subyekti sifatida qatnashadi. Shu bois, unitar davlatning tarkibiy qismlari (ma'muriy-hududiy birliklar)ning huquqiy subyektligi bilan bog'liq masala yuzaga kelmaydi.

Hozirgi vaqtda *federatsiyalar* murakkab (uyushmaviy) davlatlar bo'lib, ularning tarkibiga bir qator davlatlar va davlat tuzilmalari kiradi. Bunda federatsiya a'zolari (respublikalar, shtatlar, kantonlar, hududlar va h.k.) muayyan mustaqilligini saqlab qoladi, biroq tashqi munosabatlarda mustaqil ishtirok etish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqqa ega bo'lmaganliklari sababli xalqaro huquq subyektlari bo'lib hisoblanmaydi. Bunday hollarda federatsiya xalqaro huquqning yagona subyekti sifatida xalqaro munosabatlarda ishtirok etadi.

Federatsiya so'zi lotincha *foederatio* so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha ittifoq, birlashma ma'nolarini anglatadi.

Federatsiya – bu ikki yoki undan ortiq davlatning barqaror ittifoqidir.

Federatsiyadan tashqari tarixga davlatlarning murakkab birlashmasi bo'lgan *konfederatsiya* ma'lum bo'lib, u mustaqil davlatlarning umumiy maqsadlarni ko'zlab (masalan, o'zaro mudofaa, tashqi aloqalar va h.k.) tuzilgan uyushmasidan iboratdir.

Konfederatsiya so'zi lotincha *con* va *foederatio* so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbek tilida yuqori turuvchi ittifoq ma'nosini anglatadi. Yuqori turuvchi ittifoq deyilishiga sabab, konfederatsiya federatsiyaga nisbatan o'zining demokratik institutlari bo'yicha (eng avvalo konfederatsiyaga kirish va undan chiqish tartibi nazarda tutiladi) yuqori turadi.

Konfederatsiya – bu ikki yoki undan ortiq davlatning o'zaro manfaatlarini ko'zlab yoki biror-bir muddatga tuzgan ittifoqidir.

Konfederatsiya oldiga qo'yilgan maqsadlar uni ta'sis etish haqidagi bitimda belgilanadi. Konfederatsiya, agar unga a'zo davlatlar konfederatsiyaga xalqaro munosabatlar sohasida muayyan vazifalarni amalga oshirishni yuklagan bo'lsa, boshqa a'zo davlatlar qatorida xal-

qaro huquq subyeksi bo'lishi mumkin. O'tmishda, masalan, Shveysariya, AQSH, Germaniya konfederatsiya hisoblangan.

Shuningdek, murakkab davlatlarning yana bir turi – *uniya* to'g'risida ham aytib o'tish lozim. Uniya – bu federatsiya va konfederatsiyaning aralashmasidir. Uniya ikki turga bo'linadi – shaxsiy va real uniyalar.

Shaxsiy uniyada ikki davlat birlashmaydi, ammo ikki davlat uchun yagona davlat boshlig'i, asosan monarx bo'ladi. Shaxsiy uniyalar uzoq tarixda Yevropada keng qo'llanilgan. Bunga sabab – ayrim davlatlarda xotin-qizlar davlat boshliqlari bo'la olmagan, masalan, biror-bir davlatning boshida xotin kishi bo'lgan monarx turadi, u esa o'z navbatida boshqa davlat manarxiga turmushga chiqadi va natijada ikki davlatning ham monarxiga aylanadi.

Real uniyada esa ikki davlat butunlay birlashadi va yagona davlat boshlig'i saylanadi yoki tayinlanadi, ammo avvalgi davlat organi tizimlari saqlanib qoladi. Real uniyaga yaqqol misol qilib Birlashgan Arab Respublikasini keltirishimiz mumkin. BAR Misr va Suriyaning birlashishi natijasida vujudga kelgan va 1954-1962-yillar davomida xalqaro huquq subyeksi sifatida xalqaro munosabatlarda qatnashgan.

Xalqaro huquq subyeksi bo'lgan davlatlar orasida doimiy *betaraf (neytral)* davlatlar alohida ajralib turadi. Doimiy betaraflik (neytralitet) davlatning maxsus xalqaro-huquqiy maqomi bo'lib, unga muvofiq davlat hech qanday davlat tarafida urushga kirishmasligi hamda urush olib borayotgan taraflarga hech qanday harbiy yordam ko'rsatmasligi zarur. Doimiy betaraflik maqomi mazkur davlatga tinchlik vaqtida ham ma'lum majburiyatlarni yuklaydi. Masalan, bu kabi davlatlar boshqa davlatlar bilan hech qanday harbiy uyushmalarga qo'shilmaligi, o'z hududidan harbiy maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi zarur.

Hozirgi vaqtda Shveysariya, Avstriya, Laos, Malta va Turkmaniston doimiy betaraf davlat maqomiga ega. Shveysariyaning doimiy betarafliги Vena kongressi qarorlari (1814-1815-yillar) hamda 1815-yil 8(20)-noyabrdagi Shveysariyaning doimiy betarafliги hamda hududiy daxlsizligini tan olish va kafolatlash to'g'risidagi Parij aktiga binoan tasdiqlangan¹. Avstriya Mustaqil va demokratik Avstriyani tiklash to'g'risidagi 1955-yil 15-maydagi Davlat shartnomasi hamda

¹ Международное право в документах. – М., 1982. – С. 467-468.

Avstriya betarafliги to'g'risidagi 1955-yil 26-oktabrdagi Federal konstitutsiyaviy qonunga ko'ra doimiy betaraf davlat hisoblanadi. Mazkur qonunda aytilishicha, «Avstriya o'zining betarafliğini ixtiyoriy ravishda e'lon qiladi. Avstriya o'z betarafliğini qo'l ostidagi barcha qurol va vositalar bilan himoya qiladi. Shu maqsadda Avstriya keyinchalik hech qanday harbiy uyushmalarga qo'shilmaydi hamda begona davlat harbiy tayanch punktlarining yaratilishiga yo'l qo'ymaydi»¹. Shuningdek, Malta 1981 yildan boshlab doimiy betaraf davlat hisoblanadi.

Doimiy betaraflik maqomi bunday maqomga ega davlatni BMT Ustavining 51-moddasiga binoan o'zini o'zi mudofaa qilish bilan bog'liq ajralmas huquqdan mahrum etmaydi, shu bilan birga mazkur davlatning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zozligiga to'sqinlik qilmaydi. O'z betarafliğini e'lon qilgan davlatning suveren xohish-irodasi boshqa davlatlar tomonidan tan olinishi va qadrlanishi kerak.

3. Ozodlik uchun kurash olib borayotgan millatlar va xalqlarning xalqaro-huquqiy subyektligi

Hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy prinsiplaridan biri millat va xalqlarning xalqaro huquqda mustahkamlangan teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi hisoblanadi. Chunonchi, 1945-yil 26-iyunda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida BMT maqsadlaridan biri sifatida «millatlar teng huquqlilik va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipini hurmat qilish asosida» do'stona munosabatlarni rivojlantirishi e'tirof etilgan. Mazkur prinsip BMT Bosh Assambleyasining boshqa qator hujjatlarida e'tirof etildi va rivojlantirildi. Chunonchi, 1960-yil 14-dekabrda qabul qilingan Mustamlakadagi mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi tarixiy deklaratsiyaning qabul qilinishi hamda 1970-yil 24-oktyabrdagi BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar orasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish bilan bog'liq prinsiplarga tegishli xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya va hokazo.

Davlatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipi keng qamrovli xususiyatining tasdig'i sifatida, 1960-yildagi Deklaratsiyada «barcha millatlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega; mazkur huquqdan

¹ O'aha joyda. -- 469-bet.

kelib chiqqan holda, ular o'z siyosiy maqomlarini erkin ravishda o'rnatadilar hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotni amalga oshiradilar»¹, deyilgan. 1970-yildagi Deklaratsiya millatlar teng huquqligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipining normativ mazmunini bayon etadi. Unda ta'kidlanishicha, «erkinligi e'tirof etilgan millat tomonidan mustaqil suveren davlatning tashkil etilishi, mustaqil davlatga erkin tarzda birlashish yoki boshqa siyosiy maqomning o'rnatilishi mazkur millat tomonidan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish usullari hisoblanadi.» Mazkur Deklaratsiyaga muvofiq, dunyodagi har bir davlat o'zaro kelishilgan yoki mustaqil harakatlar yordamida millatlar teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipini amalga oshirishda ko'maklashishga majburdir; u shuningdek millatlarni o'z taqdirini o'zi belgilash, ozodligi va mustaqilligidan mahrum qiluvchi har qanday zo'ravonlik xatti-harakatlaridan o'zini tiyishi lozim².

Hozirgi kunda millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi 1966-yildagi Inson huquqlari to'g'risidagi paktlar – Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqidagi Xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktlarda e'tirof etilgan. Chunonchi, mazkur paktlar 1-moddasining 2-bandida barcha millatlar o'z maqsadlariga erishish uchun tabiiy boyluklari va resurslaridan erkin foydalanishlari hamda hech qaysi millat o'ziga tegishli bo'lgan hayot kechirish vositalaridan mahrum qilinmasligi ta'kidlanadi³.

Demak, har bir millat va elatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini tan olish va e'tirof etish orqali hozirgi zamon xalqaro huquqi haqiqiy milliy ozodlikka erishish uchun zarur xalqaro huquqlar majmuini belgilaydi. Shuningdek, xalqaro huquq boshqa davlatlarga millat va xalqlarning mazkur huquqini hurmat qilish, uni to'siqsiz amalga oshirishga ko'maklashish yuzasidan majburiyatlar yuklaydi. Binobarin, millatlar va xalqlar o'z taqdirini o'zlari belgilashlari bilan bog'liq ajralmas huquqlarini amalga oshirishlari jarayonida, ularning xalqaro-huquqiy subyektligi tan olinadi va tasdiqlanadi. Bundan tashqari, mazkur huquqiy subyektlarning mazmun-mohiyati kengayadi, zero u faqat alohida mustaqil davlatni yaratish vazifasi bilan cheklanmaydi,

¹ Международное право в документах. – М., 1982. – С. 19.

² O'sha joyda. – 10-bet.

³ O'sha joyda. – 309, 318-betlar.

aksincha millat va elatlar tomonidan o'z iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy turmushini erkin amalga oshirishni nazarda tutadi.

Millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi bilan bog'liq huquqining siyosiy-huquqiy asosi ularga tegishli milliy mustaqillikdan iborat bo'lib, u har bir millat tomonidan ham siyosiy, ham erkin va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida har taraflama rivojlanish nuqtayi nazaridan ozod va mustaqil hayot kechirish huquqining amalga oshirilishini bildiradi. Milliy mustaqillik daxlsiz va ajralmasdir. Shu bois, millat va elatlarning xalqaro-huquqiy subyektligi xalqaro munosabatlar ishtirokchilarining xohish-irodasiga bog'liq emas.

Millat va xalqlarning xalqaro-huquqiy subyektligi haqida gapirilganda, eng avvalo mustamlaka istibdodida bo'lgan, imperialistik metropoliya-davlatlar tomonidan zulm o'tkazilayotgan va, eng asosiysi, o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lmagan xalqlar nazarda tutiladi. Mazkur millat va xalqlar ularga siyosiy mustaqillik berilishini darhol talab qilish va o'zida mavjud barcha vositalar bilan ko'zlangan maqsadlariga erishish, hattoki qurollangan milliy-ozodlik kurashini olib borishga haqlidirlar. Mustamlakachi davlat qisqa muddat ichida mazlum millatlarning mazkur talablarini, u qanday shaklda bildirilgan bo'lmasin, qondirishi shart. Zo'rvonlik bilan mustamlaka hukmronligini saqlab turish, hozirgi zamon xalqaro huquqiga binoan, mustamlakachi davlatning xalqaro javobgarligini keltirib chiqaruvchi og'ir xalqaro jinoyat hisoblanadi.

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiyaga binoan, mamlakatning erkin iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish huquqi umum e'tirof etilgan norma hisoblanib, u millat va xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipining tarkibiga kiradi.

4. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning huquqiy subyektligi

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar XIX asrga kelib paydo bo'la boshladi. Hozirgi kunda ular xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda (ham butunjahon, ham mintaqaviy miqyosda), siyosiy, iqtisodiy va xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etmoqda.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (keyingi o'rinlarda – xalqaro tashkilotlar) boshqa davlatlar ularga tegishli huquq va majburiyat-

larning berilishiga rozilik berganliklari sababli hozirgi zamon xalqaro huquqi subyektlari hisoblanadilar. Ularning huquq va majburiyatlari esa, ta'sis hujjatlari (ustavlar, statutlar va boshqalar)da aks ettirilgan bo'lib, xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga to'liq mos keladi.

Shunday qilib, xalqaro tashkilotlarning huquqiy subyektligi yasama xususiyatga egadir, zero ular davlatlarning xohish-irodasiga binoan vujudga keladi.

Xalqaro tashkilotlar, ularning ta'sis hujjatlari tashkilotlar va a'zo davlatlar orasidagi munosabatlar, ya'ni o'z xususiyatiga ko'ra xalqaro munosabatlarni tartibga solganliklari sababli xalqaro huquq subyekti hisoblanadilar. Mazkur ta'sis hujjatlari eng avvalo tashkilotga a'zolikni tasdiqlaydi, biroq ular tashkilotning maqsad va vazifalari, organlarining vakolatlari, tashkilotning a'zo davlatlar bilan o'zaro aloqa qilish tartibini belgilovchi normalar, Ba'zi hollarda esa, mazkur tashkilotning a'zo bo'lmagan davlatlar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalariga tegishli normalarni o'z ichiga oladi. BMTning xalqaro huquq komissiyasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki turli xalqaro tashkilotlar o'rtasida xalqaro shartnomalar tuzish huquqi haqidagi moddalar loyihasini ishlab chiqdi. Mazkur loyiha asosida 1986-yilda davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasida shartnoma tuzish huquqi bo'yicha BMTning Vena konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjatga binoan, xalqaro tashkilotning huquqiy layoqati mazkur tashkilot tomonidan tartibga solinadi.

Biroq, u yoki bu xalqaro tashkilotning huquqiy layoqati qanchalik keng bo'lmasin, mazkur maxsus huquqiy layoqat xalqaro huquq subyektlari bo'lgan davlatlarning universal xalqaro-huquqiy layoqatidan tubdan farq qiladi.

5. Xalqaro huquqda davlatsifat tuzilmalar

Davlatlararo shartnomalarga muvofiq, o'tmishda va hozirgi vaqtda ham ba'zi nodavlat tuzilmalarning maxsus xalqaro-huquqiy maqomi nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra mazkur tuzilmalar xalqaro munosabatlarda ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar hamda xalqaro huquq subyektlariga aylanadilar. Biroq, mazkur siyosiy-hududiy birliklarning xalqaro-huquqiy layoqati tegishli shartnoma-

larning qoidalari bilan tartibga solinishi bois, u cheklangan hisoblanadi hamda davlatlarning universal huquqiy layoqatiga tenglashtirilmaydi.

O'tmishda maxsus xalqaro-huquqiy maqom o'ziga xos *erkin shaharlar*: Krakov, Dansig (Gdansk)ga tegishli bo'lgan. Hozirgi vaqtda erkin shaharlar yo'q.

Shuningdek, erkin shaharlarga yaqin bo'lgan maqom *erkin hududlarga* nisbatan o'rnatilgan. Bunga misol qilib Triest hududini keltirishimiz mumkin. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Triest hududi Italiya va Yugoslaviya o'rtasidagi sulh bitimiga binoan erkin hudud deb e'lon qilingan. Ammo bunday maqom ko'p davom etmagan, 1954-yili Triest hududi deyarli butunlay Italiya tarkibiga kiritilgan. Tarixda erkin hududlar boshqa uchramaydi.

Vatikan «shahar-davlati»ning maxsus xalqaro-huquqiy maqomi 1984-yili Italiya va «Muqaddas taxt» o'rtasidagi bitimga asosan belgilangan (Vatikan xalqaro hujjatlarda shunday deb ataladi). Vatikan ko'pgina davlatlar (asosan, katolitsizmning ta'siri kuchli bo'lgan davlatlar) bilan tashqi aloqalarni amalga oshiradi¹, u mazkur davlatlarda papa nunsiyalari va legatlari tomonidan boshqariladigan doimiy vakolatxonalarini ta'sis etadi. Vatikan delegatsiyasi ko'pgina xalqaro konferensiyalarda, shuningdek ko'p tomonlama kodifikatsiyalashgan konvensiyalarni tuzish bo'yicha BMT tashabbusi bilan chaqirilgan xalqaro konferensiyalarda qatnashadi. U shuningdek qator xalqaro tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi (Butunjahon pochta uyushmasi, AEKXA, Elektr aloqa xalqaro uyushmasi), Ba'zi tashkilotlarda doimiy vakolatxonalariga, ayrim tashkilot va konferensiyalarda esa kuza-tuvchi sifatida qatnashish huquqiga ega.

G'arb xalqaro huquq nazariyasida Malta ordenining huquqiy subyektligi ilgari suriladi.

Malta ordeni rasman 1889-yili Italiyaning Rim shahrida, insonparvarlik nohukumat tashkiloti sifatida tashkil etilgan. Ammo Malta ordenining tarixi olis XII asrga borib taqaladi.

¹ 1996-yili O'zbekiston Respublikasi va Shahar – davlat – Muqaddas taxt – Vatikan o'rtasida diplomatic aloqalar o'rnatilgan.

Malta ordeni tarixda Yevropaning ko'pchilik davlatlari boshida turganligi sababli, u xalqaro huquqning davlatsifat tuzilma guruhidagi subyekti hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Xalqaro huquq subyektlari davlatlarning ichki (milliy) huquqi subyektlaridan nimalar bilan farq qiladi.

2. Xalqaro huquq subyektlari guruhlarga ko'ra qanday huquqiy subyektlikka ega?

3. Davlat – hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy subyekti. Uning shu xususiyatdagi tavsifiy belgilari.

4. Xalqaro huquqning birlamchi va hosila subyektlari o'rtasidagi asosiy farqlar.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1 Ковалев А.А. Самоопределение и экономическая независимость народов. – М., 1988.

2. Куротоков Г.И. Государства в системе международно-правового регулирования. – Казань, 1979.

3. Моджорян Л.А. Субъекты международного права. – М.: Госюриздат, 1958.

4. Малинин С.А., Ковалева Т.М. Правосубъектность международных организаций // Правоведение. – М., 1992. – № 5. – С. 57-61.

5. Моджорян Л.А. Основные права и обязанности государств. – М., 1965.

6. Тузмухамедов Р.А. Национальной суверенитет. – М., 1963.

7. Тузмухамедов Р.А. Самоопределение народов Средней Азии и международное право. – М., 1969.

8. Тузмухамедов Р.А. Право национальных меньшинств. – Уфа, 1996.

9. Фельдман Д.И. и Курдюков Г.И. Основные тенденции развития международной правосубъектности. – Казань, 1974.

10. Шармазанашвили Г.В. Международные межправительственные организации. – М., 1986.

11. Crawford J. The Creation of Statehood in International Law. – Oxford, 1979.

7-bob. XALQARO HUQUQDA TAN OLISH

1. *Xalqaro huquqda tan olish tushunchasi.*
2. *Tan olish nazariyalari.*
3. *Tan olish shakllari.*
4. *Tan olishning turlari va usullari.*

1. Xalqaro huquqda tan olish tushunchasi

Xalqaro huquqda tan olish deganda davlatning (yoki boshqa xalqaro huquq subyekti, xususan, xalqaro tashkilotning) xalqaro munosabatdagi ma'lum yuridik muhim fakt yoki vaziyatning mavjudligini qayd etadigan bir tomonlama yuridik akti tushuniladi. Tan olish aniq ifodalangan bo'lishi (og'zaki yoki yozma bayonnoma bilan) yoki xatti-harakatdan (harakat yoki harakat qilishdan o'zini tiyib turishdan) kelib chiqadigan sukutli shaklda bo'lishi mumkin.

Tan olish majburiyati mavjud emas. Bu – davlatning huquqidir. Tabiiyki, oshkora siyosiy qarashlardan kelib chiqqan va xalqaro hayotning voqeliklarini inkor qiladigan uzoq muddatli tan olmaslik davlatlararo munosabatlarni jiddiy keskinlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin. Garchi tarixda bunday hollar uchragan bo'lsa-da, tan olishni ortga qaytarib olib bo'lmaydi. 1918-yilda Fransiya Finlyandiyaning tan olishini ortga qaytarib olgan. Bunga sabab – Finlandiya taxtiga Vilgelm II ning qarindoshini o'tqizish rejasi haqida Fransiyaning xabar topganligi bo'lgan. Keyinchalik Finlandiyada respublika o'rnatishga qaror qilingach, Fransiya uni takroran tan oldi.

Tan olishga zid akt «e'tiroz» deb nomlanadi. Uning mazmuni xalqaro-g'ayrihuquqiy qilmish sifatida tasnif etilgan holda, tegishli yuridik muhim fakt yoki hodisaning huquqiy ekanligiga rozi bo'lmaslikdan iborat. E'tiroz aniq ifodalangan bo'lishi va u tegishli davlat e'tiboriga u yoki bu darajada yetkazilgan bo'lishi kerak.

Tan olish va e'tiroz o'z-o'zidan davlatlararo munosabatlardagi siyosiy akt hisoblanadi, chunki ular tan olish yoki protestning obyekt bo'lgan hodisa mazmunini o'zgartira olmaydi. Lekin, ba'zi hollarda ular sezilarli xalqaro-huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Tan olish yoki tan olishni rad etish – odatiy holdir. Biroq xalqaro-huquqiy jihatdan bu aktlar belgilab berilmagan. Chunki tan olish yoki

protest obyektini bo'lish ehtimoli mavjud hodisalarni amalda oldindan ko'rib, boz ustiga ularning huquqiyligi shartlarini aniqlab bo'lmaydi. Xalqaro huquqda bu masala yuzasidan har xil qarashlar mavjud. Ular tan olish aktining yuridik ahamiyatini to'la inkor etishdan tortib, ko'rib chiqilayotgan hodisaning huquqiyligini qayd etish ishida unga hal qiluvchi ahamiyat berishga qadar bir-biridan farq qiladi.

Shunday qilib, *tan olish* – davlatning bir tomonlama ixtiyoriy akti bo'lib, unda davlat boshqa davlatga xalqaro huquqning subyekti sifatida qaraydi va u bilan rasmiy munosabatlarga kirishish niyati yoki davlatda yoxud uning hududining bir qismida konstitutsiyaga zid yo'l bilan o'rnatilgan hokimiyat ushbu davlat yoki tegishli hudud aholisining xalqaro munosabatlarda vakil sifatida yetarlicha samarali chiqishi haqida bevosita yoki bilvosita bayon qiladi.

2. Tan olish nazariyalari

Xalqaro huquq doktrinasida tan olishning ikkita asosiy nazariyasi mavjud: konstitutiv va deklarativ tan olish.

Konstitutiv nazariyaga muvofiq, faqat tan olish tan olish destinatoriga (adresatiga) tegishli sifatni beradi, ya'ni davlatga – xalqaro huquq subyekti bo'lish, hukumatga – davlatlararo munosabatlarda xalqaro huquqning subyekti bo'lish qobiliyatini beradi. Bu nazariyaning zaif joyi shundan iboratki, birinchidan, destinatorga eslatib o'tilgan sifatni berish uchun tan olishlarning qancha soni zarur bo'lishi noaniq, ikkinchidan, amaliyotning ko'rsatishicha, davlatlar rasman tan olishsiz ham mavjud bo'lishi va boshqa davlatlar bilan u yoki bu aloqalarga kirishishi, konstitutsiyaga zid yo'l bilan hokimiyatga kelgan hukumatlar esa samarali ravishda xalqaro huquqning subyekti bo'lishlari mumkin.

Deklarativ nazariyaga ko'ra, tan olish destinatorga tegishli sifatni xabar qilmaydi, balki uning paydo bo'lganligini qayd etadi va destinator bilan aloqalarni amalga oshirishni yengillashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Deklarativ nazariya xalqaro hayot voqeliklariga ko'proq javob beradi, degan fikr keng tarqalgan. Biroq, obyektiv jihatdan xalqaro huquqning subyekti bo'la olmaydigan tuzilmalar (masalan, Malta ordeni) xalqaro huquq subyekti deb tan olingan hollarda tan olish konstitutiv yoki, aniqroq aytganda, kvazi-

konstitutiv (yolg'on konstitutiv) tusga ega bo'ladi. Bunda tan oluvchi destinatorda ko'rishni orzu qilayotgan sifatlar bordek tasavvur qilinadi.

Shuningdek, yuqoridagi singari tez-tez ishlatib turilmasa-da, Lotin Amerikasida mavjud bo'lgan Estrada va Tobarro doktrinalari haqida ham aytib o'tish lozim.

Tobarro doktrinasi 1907-yili Ekvador tashqi ishlar vaziri K. Tobarro tomonidan ilgari surilgan edi. Bu doktrinaning mazmuni shundan iboratki, ichki davlat to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan hukumatlar o'z mamlakatlari aholisi tomonidan «tan olinmagunicha» boshqa davlatlar tomonidan hukumat sifatida tan olinmasligi lozim.

Estrada doktrinasi 1930-yil 27-sentabrda Meksika tashqi ishlar vaziri X. Estrada tomonidan yangi hukumatlarni tan olish masalasi yuzasidan kommunikeda bayon qilingan edi. Ushbu doktrinaga muvofiq, bu mamlakat hukumatini tan olishning alohida akti zarurligi inkor qilinadi, tan olishning faqat bir usuliga – diplomatik munosabatlarni saqlab qolish yoki o'rnatishga yo'l qo'yiladi.

3. Tan olish shakllari

Rasman tan olishning quyidagi shakllari mavjud: de-fakto (de facto), de-yure (de jure) va ad xok (ad hoc).

Yuqoridagi tan olish shakllari davlatlar va hukumatlarni tan olishda qo'llaniladi. Ular orasidagi farq tan oladigan va tan olinadigan taraflarning o'zaro munosabatlarida keltirib chiqaradigan oqibatlarining hajmida bilinadi: de-fakto tan olishda huquqiy oqibatlarining hajmi qisqaroq bo'ladi.

De-fakto tan olish – ma'lum davlat yoki hukumatning uzoq yashashi va hayotiy qobiliyatiga unchalik ishonmaslikni namoyon qilishdir. De-fakto tan olish konsullik munosabatlari o'rnatilishiga sabab bo'lishi mumkin, lekin bu majburiy tarzda bo'lmaydi. De-fakto tan olish keyinchalik de-yure tan olishga aylanib ketishi mumkin, bu holni diplomatik munosabatlarni o'rnatish va diplomatik vakolatxonalarini ochishda kuzatishimiz mumkin.

De-yure tan olish – to'la, uzil-kesil tan olishdir. U, qoida tariqasida, diplomatik munosabatlar o'rnatilishiga sabab bo'ladi. Har qanday holda ham diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi de-yure tan olishni bildiradi, deb hisoblanadi. De-yure tan olish davlat boshliqlari o'rtasida tabrik xatlari va tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida maxsus

notalar almashish hamda ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali bir-birini qutlash bilan izohlanadi.

Davlatlar, hukumatlar (yoki boshqa hokimiyatlar) o'zaro urush holati yoki ziddiyatda bo'lsalar-da, ma'lum masalalarni hal qilish uchun bir-birlari bilan majburiy aloqaga kirishadilar, ammo bunday aloqaga kirishish ular bir-birlarini tan olganliklarini anglatmaydi. Bunday holda *ad hoc tan olish* (ad hoc – ushbu vaziyatda, aniq holat bo'yicha) haqida gapiriladi, ya'ni urushayotgan yoki ziddiyatda bo'lgan davlatlar yoki hukumatlarning muzokara olib borish yoki bitimni imzolash uchun bir-birlari bilan aloqa yuritayotgan vaqtlarida, ular bir-birlarini xuddi shu vaziyat yoki voqea doirasida tan olishmoqda deb taxmin qilinadi. Masalan, Vyetnamdagi urushni to'xtatish muzokaralarining to'rt qatnashchisi (AQSH va Vyetnamga tarafdosh uch tomon) 1973-yilda mashhur Parij bitimini imzoladilar (garchi ulardan Ba'zilari bir-birlarini tan olmasalar-da). Tan olishning mavjud emasligi bunday hollarda shartnomaning yuridik tomoniga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

4. Tan olishning turlari

Tan olish turlari tan olishning destinatorlariga qarab farqlanadi. Tan olishning an'anaviy turlari (davlatlar va hukumatlarni) va oraliq tan olish (millatlarni tan olish, qo'zg'olon ko'targan yoki urushayotgan tomonlarni, qarshilik ko'rsatish tashkilotlari va quvg'indagi hukumatlarni tan olish)ni ajratib ko'rsatish mumkin. Oldindan tan olish yo yangi davlatning tashkil topishi (millatni tan olishda)ga yoki yangi hukumatning hokimiyati konstitutsiyaga zid yo'l bilan amalga oshirilgan mamlakatda holatning barqarorligiga olib kelishi mumkin bo'lgan voqealarning kelgusida rivojlanishini kutayotganda qo'llaniladi.

Tan olishning bu turlari o'rtasida aniq chegara o'tkazish ancha qiyin. Masalan, o'z ozodligi uchun kurashayotgan millat urushayotgan tomon sifatida tan olinishi mumkin; mamlakat hududining katta qismida o'rnatilgan va urushayotgan tomon sifatida tan olingan hokimiyat qurolli kuch yordamida o'zidan oldingi hukumatni ag'dargan an'anaviy tushunishdagi hukumatdan kam farq qiladi. Bu yerda ko'p narsa muayyan shart-sharoit, tan oluvchining siyosiy bashorat qila bilishi va boshqa holatlardan kelib chiqib belgilanadi.

Davlatni tan olish masalasi bir nechta davlatning birlashishi natijasida, bir davlatning tarkibidan boshqa davlat mustaqil bo'lib ajralib chiqishi natijasida yoki bir davlatning tarqalib ketishi natijasida uning o'rnida bir necha davlatlar paydo bo'lganda yuzaga kelishi mumkin.

Davlatni tan olish masalasi inqilob natijasida ham, davlat va ijtimoiy tuzumning tubdan o'zgarishi mavjud bo'lganda ham yuzaga kelishi mumkin. Biroq, amaliyotda bunday vaziyatlarda, agar inqilob jiddiy hududiy o'zgarishlarni keltirib chiqargan bo'lmasa, ko'pincha yangi hukumat tan olinadi. Masalan, 1949-yili Xitoy Xalq Respublikasi e'lon qilingach, SSRI XXRni emas, balki XXR hukumatini tan oldi.

Konstitutsiyaga zid yo'l bilan hokimiyat tepasiga kelgan hukumatni tan olish mezonlarini ishlab chiqishga urinish muvaffaqiyatli chiqmadi. Agar tan olinuvchi hukumat mamlakat hududi yoki uning katta qismida hokimiyatni samarali amalga oshirayotgan, mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilib turgan bo'lsa, bunday tan olishni asosli deb hisoblash qabul qilingan. Agar davlat to'ntarishi natijasida boshqarish shakli o'zgarsa, masalan, monarxiya boshqaruv shakli respublika boshqaruviga aylansa va tegishli ravishda davlatning nomi o'zgarsa, yangi hukumatni tan olish davlatni tan olish shaklida amalga oshiriladi. Hukumatni tan olish uni qo'llab-quvvatlash sifatida xato izohlanishi mumkinligi tufayli, ba'zi davlatlar hukumatlarni u yoki bu darajada rasman tan olishdan o'zini tiyib turish siyosatiga amal qila boshladilar. Bu siyosat Estrada doktrinasi deb (1930-yilda uni ifodalab bergan Meksika tashqi ishlar vaziri nomi bilan) atala boshlandi. Amaliyotning ko'rsatishicha, bunday hollarda, mazmunan sukutli yoki ichki e'tirof bilan tan olish haqida gap boradi, chunki bunday vaziyatlarda yangi hukumat bilan diplomatik munosabatlar yoki rasmiy munosabatlarning boshqa shakllari saqlanib qoladi.

Millatni (yoki xalqni) tan olish oraliq tan olishning bir turi sifatida Birinchi jahon urushi davrida yuzaga keldi. Unda Antanta davlatlari o'zlarining harbiy va siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib (Antanta qurolli kuchlari tarkibida chex, slovak, polyak va janubiy slavyan harbiy qismlarining qatnashishini oshkoralashtirish maqsadida), chexlar, slovaklar, polyaklar va sh.k. millatlarni «ittifoqchi» yoki «birgalikda jang qilayotgan»lar sifatida tan olgan edilar.

Kolonial tizimni tugatish davrida ham alohida davlatlar, ham davlatlararo tashkilotlar, avvalambor, ularga kuzatuvchi maqomini bergan BMT tomonidan *milliy ozodlik harakatlarini tan olish* amaliyoti keng tarqaldi. Bunday tan olishning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu tan olish millatlarga yoki xalqlarga emas, balki milliy-ozodlik harakatlariga berilardi. Bunda mazkur atama ushbu harakatlarning o'zini nomlash uchun emas, balki ularga rahbarlik qiladigan va kurash olib borayotgan tashkilotlarni nomlash uchun ishlatilardi (masalan, Janubi-G'arbiy Afrika xalq tashkiloti – SVAPO).

Qo'zg'olon ko'targan yoki urushayotgan tomon sifatida tan olish XIX asrda va qay darajadadir XX asrning birinchi yarmida qo'llangan. Qo'zg'olon ko'targan va urushayotgan tomon tushunchalarini aniq chegaralash mavjud emas. Bunday tan olishning asosiy maqsadlaridan biri – tan oluvchining qo'zg'olonchilar nazorat qilayotgan hududdagi manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini ta'minlashdir. 1823-yildayoq Buyuk Britaniya Turkiyaga qarshi o'z davlatini tuzish uchun kurashayotgan greklarni urushayotgan tomon sifatida tan olgan edi.

Shuningdek, ta'kidlash zarurki, xalqaro huquqda tan olishning ikki: *aniq ifodalangan va nazarda tutilayotgan tan olish usullari* mavjud. Birinchisiga ko'ra, tan olish faol harakatlar bilan amalga oshiriladi, ikkinchisiga ko'ra esa, bunday harakatlarning bo'lishi majburiy emas.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro huquqda tan olish – davlatlarning huquqiy subyektligining asosiy elementi sifatida.*
2. *Davlatlar va hukumatlarni tan olishning o'ziga xosliklari haqida so'zlab bering.*
3. *Tan olishda asosiy va qo'shimcha nazariyalar tushunchasi.*
4. *Tan olishning xalqaro munosabatlarga ko'rsatadigan ta'siri nimada?*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аэльдман Д.И. Признание в современном международном праве. – М., 1974.

2. Признание в современном международном праве / Отв. ред. Д.И. Фельдман Д.И. – М., 1975.
3. Фельдман Д.И. Признание правительств в международном праве. – Казань: Изд. Казанского ун-та, 1961.
4. Фельдман Д.И. Признание государства в современном международном праве. – Казань: Изд. Казанского ун-та, 1965.
5. Ушаков Н.А. Юрисдикционные иммунитеты государств и их собственности. – М., 1993.
6. Хахимов Р.Т. Международно-правовые вопросы признания и правопреемства Республики Узбекистан. – Т., 1996.

8-bob. XALQARO HUQUQDA HUQUQIY VORISLIK

- 1. Xalqaro huquqda huquqiy vorislik tushunchasi*
- 2. Xalqaro shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi*
- 3. Davlat mulkiga nisbatan huquqiy vorislik*
- 4. Davlat arxivlariga nisbatan huquqiy vorislik*
- 5. Davlat qarzlari borasida huquqiy vorislik*

1. Xalqaro huquqda huquqiy vorislik tushunchasi

Huquqiy vorislik – huquqda belgilangan tartib va qoidalarga muvofiq, bir subyektga tegishli huquq va majburiyatlarning boshqa subyektga o'tishidir.

Demak, huquqiy vorislik huquqda nazarda tutilgan huquqiy (yuridik) ahamiyatga ega bo'lgan yuridik hodisa, ya'ni yuridik faktidan kelib chiqadigan yuridik oqibatlarni ifodalaydigan tushunchadir, degan xulosa kelib chiqadi. Shubhasiz, bunda bir subyektga tegishli huquq va majburiyatlarning boshqa subyektga o'tishi bilan bog'liq tarkibiy o'zgarishlar haqida gap ketyapti. Bunday hol huquq subyektini o'z faoliyatini tugatishi, yangi subyektning vujudga kelishi munosabati bilan boshqa subyekt bilan birlashishi, ikki yoki undan ortiq huquq subyektlariga ajralishi natijasida sodir bo'ladi.

Huquq subyektining mazkur tarkibiy o'zgarishlaridan kelib chiqadigan yuridik oqibatlar unga tegishli huquq va majburiyatlarning (to'la yoki qisman) boshqa subyektga o'tishi huquqiy vorislikka sabab bo'ladi.

Xalqaro munosabatlar va xalqaro huquqqa nisbatan huquqiy vorislik deganda, xalqaro huquqda belgilangan holatlarda xalqaro huquq subyektiga tegishli huquq va majburiyatlarning boshqa subyektga o'tishini tushunish lozim.

Xalqaro huquqning asosiy subyektlari davlatlar hisoblanadi. Demak, xalqaro huquqda eng avvalo ularning huquqiy vorisligi haqida so'z yuritiladi. Bu haqda keng xalqaro amaliyot ham dalolat beradi.

Xalqaro huquqning boshqa umum e'tirof etilgan subyektlari xalqaro (davlatlararo) tashkilotlar hisoblanadi. Ularga nisbatan huquqiy vorislik muammosi, yuzaga keladimi degan o'rinli savol tug'iladi.

Umuman olganda, bunday muammo mazkur tashkilotlarning faoliyati tugaganida yuzaga keladi. Biroq, o'z faoliyatini tugatgan xalqaro tashkilotga u yoki bu darajada aloqador bo'lgan yangi xalqaro tashkilot bilan bunday muammo vujudga kelmaydi. Odatda, o'z faoliyatini tugatgan xalqaro tashkilotga tegishli mulkni tugatish, arxiv hujjatlarini saqlash bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. Ular tashkilotning a'zo davlatlari o'rtasida tuzilgan bitim asosida hal qilinadi va xalqaro huquqqa muvofiq, huquqiy vorislikka tegishli bo'lmaydi.

Pirovard natijada xalqaro huquqda huquqiy vorislik davlatlar o'rtasidagi huquqiy vorislikka tenglashtiriladi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga binoan, davlatlarning huquqiy vorisligi uch turdagi huquqiy hodisalar (yuridik faktlar)ni vujudga keltiradi: o'zaro kelishuvga ko'ra bir davlatga tegishli hududning bir qismini boshqa davlatga o'tkazish; sobiq mustamlaka hududda yangi mustaqil davlatning paydo bo'lishi; davlatlarning yagona davlatga birlashishi yoki bir butun davlatning bir nechta mustaqil davlatlarga bo'linishi va hokazo.

Bu kabi o'zgarishlar bilan bog'liq yirik hodisalar tarixda ko'p uchraydi. Masalan: 1990-yilda GDRning GFR tarkibiga kirishi, ya'ni Germaniyaning qayta birlashishi, 1991-yilda sobiq SSRI tarkibidan Latviya, Litva va Estoniya davlatlarining ajralib chiqishi, keyinchalik esa 12 ta mustaqil davlatlarning vujudga kelishi; 1992-yilda sobiq Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi hududida mustaqil Bosniya, Gersegovina, Makedoniya, Sloveniya, Xorvatiyaning vujudga kelishi, shuningdek Serbiya va Chernogoriyaning Yugoslaviya Ittifoq Respublikasiga birlashishi va oxir-oqibatda 2006-yildan boshlab bu ikki tuzilma ham mustaqil davlatga aylanishi 1993-yilda sobiq Chexoslovakiya o'rnida mustaqil Chexiya va Slovakiyaning vujudga kelishi va hokazo. Yuqoridagi barcha hollarda o'zgarishlarning xalqaro majburiyatlarga ta'siri, mulk taqdiri, boshqacha aytganda, huquqiy vorislik muammosi vujudga keladi.

Hodisa (yuridik fakt)ning mohiyatidan kelib chiqib, huquqiy vorislik turlar va toifalarga bo'linadi. O'z navbatida, bu 1978- va 1983-yilgi Vena konvensiyalaridagi huquqiy vorislik toifalarining differentsiatsiyalanishi (tabaqalanishi)ga asos bo'ldi.

BMT tashabbusi bilan huquqiy vorislik to'g'risida ikkita konvensiya qabul qilingan. Bular: Xalqaro shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi 1978-yilgi Vena konvensiyasi va

Davlat mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariга nisbatan huquqiy vorislik to'g'risidagi 1983-yilgi Vena konvensiyasi. Mazkur konvensiyalar «xalqaro munosabatlarning eng ishonchli huquqiy asosi» sifatida yaratilgan bo'lsa-da, zarur ratifikatsiyalar soniga (15 ta) ega bo'lmaganligi sababli kuchga kirmay qoldi. Shunday bo'lsa-da, mazkur konvensiyalar bu sohada eng nufuzli hujjatlar bo'lganligi bois, huquqiy vorislik bilan bog'liq masalalarni hal qilishda umumiy ko'rsatmalar mavqeiga egadir.

2. Xalqaro shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi

Shartnomalar masalasiga kelsak, huquqiy vorislik chegaralar va chegara tartibini belgilashga doir shartnomalar, shuningdek chet davlat foydasiga har qanday hududdan foydalanish bilan bog'liq majburiyatlarga tegishli emas. Chunonchi, Germaniyaning birlashishida 1950-yilda Polsha va GDR o'rtasida shartnoma bilan belgilangan Oder-Neysedan o'tadigan chegara shubha ostiga olinmagan.

Bir davlat hududining boshqa davlat hududiga o'tishida shartnoma bo'yicha chegaralarning siljish prinsipi amal qilib, unga muvofiq, shartnomaning amal qilish chegaralari davlat chegaralari bilan birga qisqaradi yoki kengayadi. Yoki, boshqacha aytganda, chegarani topshiruvchi davlat shartnomasi o'z kuchini yo'qotadi, qabul qilib oluvchi davlat shartnomasi esa kuchga kiradi. Davlatlarning birlashishida ularning barcha shartnomalari o'z kuchini saqlab qoladi, biroq huquqiy vorislik davrida ta'sir doirasidagi hududdagina amal qiladi. Suriya va Misr Birlashgan Arab Respublikasiga qo'shilganda mazkur qoida 1958-yilgi BARning Muvaqqat konstitutsiyasida mustahkamlangan bitim va shartnomalar, xalqaro huquq normalariga muvofiq, «ratifikasiya qilish paytida belgilangan mintaqaviy doirada amal qiladi»¹. Mazkur qarorning qonuniyligi boshqa davlatlar tomonidan tan olindi. Chunonchi, 1960-yili SSRI va BAR bilan iqtisodiy va texnik hamkorlik to'g'risidagi Sovet-Suriya bitimini amalga oshirish masalalari yuzasidan bayonot qabul qilindi. Unda mazkur masalalar faqat Suriya mintaqasida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

¹ ООН в документах. – М.: Междунар. отношения, 1995.

Mazkur misollar bir davlat boshqasiga qo'shilganda o'z huquqiy subyektligini saqlab qolishi hollariga ham tegishlidir. Masalan, GDR GFR tarkibiga kirganda, GDR o'z huquqiy subyektligini yo'qotgan, GFR esa saqlab qolgan. Masalaning murakkab tomoni mazkur davlatlarning turli ijtimoiy-siyosiy tizimga mansubligi bo'lgan. Shu bois, boshqa manfaatdor davlatlar bilan kelishilgan holda qoida qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, GDR tomonidan tuzilgan xalqaro-huquqiy shartnomalar sheriklar tomonidan o'zaro ishonchlilik, ishtirokchi davlatlar va GFRning shartnoma majburiyatlari nuqtayi nazaridan, shuningdek Yevropa kengashining vakolatini hisobga olgan holda hal qilinadi. Bundan tashqari, ularning erkin, demokratik va huquqiy davlat tuzilishi prinsiplariga muvofiqligi ham hisobga olinishi zarur. Mazkur qayta ko'rish natijasida GDR shartnomalarining ayrimlari saqlab qolingani, qayta ko'rib chiqilgan yoki bekor qilingan. GFR shartnomalariga kelsak, ular o'z kuchini saqlab qoldi va o'z ta'sirini sobiq GDR hududiga o'tkaza boshladi. Mazkur qoidalar 1990-yilgi Germaniyaning birlashishi to'g'risidagi shartnomada mustahkamlangan.

Basharti, davlat bo'linganida, ulardan biri avvalgi davlat holda qolsa, uning shartnomaviy munosabatlarida o'zgarishlar yuz bermaydi. Boshqa davlatga o'tib ketgan hududda amalda bo'lgan shartnomalar bundan mustasnodir. Aytilgan holat BMTga a'zolikka ham tegishli. Ajralib chiqqan hududda paydo bo'lgan davlatga kelsak, unga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi – bu an'anaviy yondashuv bo'lib, unga binoan yangi davlat avvalgi davlat shartnomalariga nisbatan majburiyatlarga ega bo'lmaydi.

1947-yili Hindistondan Pokiston ajralib chiqdi. Shu munosabat bilan BMT Kotibiyati quyidagi qarorni qabul qildi: «... Hindistonning xalqaro maqomida o'zgarishlar yo'q; u barcha shartnomalarga ko'ra barcha shartnomaviy huquq va majburiyatlarga, shuningdek BMT a'zosi majburiyatlariga ham ega. Ajralib chiqqan hudud – Pokiston yangi davlatga aylanadi; u avvalgi davlatning huquq va majburiyatlariga ega bo'lmaydi va shu sababli BMT a'zosi bo'lmaydi».

Shartnomalarga nisbatan huquqiy vorislik haqidagi konvensiyada boshqacha fikr ilgari surilgan. Avvalgi davlatning shartnomalari ajralib chiqqan davlatga ham ta'sir qiladi (1978-yilgi Konvensiyaning 34-moddasi, 1-bandi).

Yugoslaviya parchalanganidan so'ng, yangi paydo bo'lgan davlatlar BMT a'ziligiga qabul qilindi. «Yugoslaviya» nomini ikkita respublika – Serbiya va Chernogoriyaning federatsiyasi saqlab qoldi. Uning hududi va aholisining soni avvalgi Yugoslaviya hududi va aholisi sonining taxminan yarmini tashkil qiladi. Shu bois, Belgrad o'z navbatida BMTda Yugoslaviyaning o'rnini egallash huquqini izhor etdi. Buning uchun yetarlicha huquqiy asoslar hamda BMTning muvofiq amaliyoti mavjud edi. Hudud hamda aholiga nisbatan o'zgarishlar davlatning huquqiy subyektligiga ta'sir qilmaydi. Shunday bo'lsa-da, Serbiyani bosqinchilik va harbiy hujumlarni amalga oshirganlikda ayblagan qator mamlakatlar vakillarining talabi bilan Yugoslaviyaning bunday talabi rad etildi. BMT Xavfsizlik Kengashining 1992-yil 30-maydagi rezolyutsiyasida aytilishicha, «Yugoslaviya Federativ Respublikasi (Serbiya va Chernogoriya)ning BMTda sobiq Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi o'rnini egallash haqidagi talabi umum e'tirof etilgan deb hisoblanmaydi». Boshqa qarorda Kengash «avval Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi deb atalgan davlat o'z faoliyatini tugatgan» deb hisoblaydi. Bu huquqiy vorislik masalalarini hal qilishda siyosiy omillar rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Huquqiy vorislik shartnomada belgilangan chet davlat yoki davlatlar guruhining har qanday hududdan foydalanish yoki uni cheklash bilan bog'liq majburiyatlar, shuningdek, u yoki bu hudud, davlatlar guruhi, yoki barcha davlatlarning chet davlat hududidan foydalanish bilan bog'liq majburiyatlarga tegishli emas.

3. Davlat mulkiga nisbatan huquqiy vorislik

Davlat mulkiga nisbatan huquqiy vorislik masalasiga doir asosiy normalar Davlat mulki va davlat arxivlariga nisbatan huquqiy vorislik to'g'risidagi 1983-yilgi Vena konvensiyasida o'z aksini topgan. Mazkur normalar avvalgi davlatning mulkiga tegishlidir. Huquqiy vorislik tartibi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lmaydi. Huquqiy vorislikka ko'ra davlat mulki deganda «davlatga ichki huquqqa binoan davlatlarning huquqiy vorisligi davrida tegishli bo'lgan mol-

mulk, huquq va manfaatlar» nazarda tutiladi (1983-yilgi Vena konvensiyasining 8-moddasi).

Davlat mulkiga nisbatan huquqiy vorislikda qabul qilib oluvchi davlatga mulk uchun kompensatsiya to'lash muammosi mavjud. Konvensiyada nazarda tutilishicha, bunday qabul qilish, basharti u manfaatdor davlat bilan kelishilmagan yoki tegishli xalqaro organ tomonidan nazarda tutilmagan bo'lsa, kompensatsiyani to'lamadan amalga oshirilishi kerak (1983-yilgi Konvensiyaning 11-moddasi).

Huquqiy vorislik normalari tomonidan ko'char va ko'chmas mulkning bir shaxsdan boshqasiga o'tishi uchun bir xil bo'lmagan rejim o'rnatiladi. Davlatlar birlashganda bu juda oddiy bo'ladi – o'tmishdosh davlatning barcha mulki voris davlatga o'tadi. Davlatning bo'linishi natijasida uning hududida ikki yoki undan ortiq davlat vujudga keladigan bo'lsa, quyidagi holatlar sodir bo'ladi:

- o'tmishdosh davlatning ko'chmas mulki shu hududda joylashgan voris davlatlar ixtiyoriga o'tadi;

- o'tmishdosh davlatning hududidan tashqarida joylashgan ko'chmas mulki, Konvensiyada ko'rsatilganidek, «adolatli hissalarda» voris davlatlar ixtiyoriga o'tadi;

- o'tmishdosh davlatning hududga nisbatan faoliyati bilan bog'liq, huquqiy vorislik obyekti bo'lgan ko'char mulki tegishli voris davlatga o'tadi; boshqa ko'char mulklar vorislarga «teng hissa» asosida o'tadi.

Bir davlat hududining bir qismi boshqa davlat mulkiga o'tadigan bo'lsa, bu ushbu davlatlar o'rtasidagi bitimlar bilan tartibga solinadi. Yadro quroli ham shunday mulklardan hisoblanib, Davlat mulkining meros bo'lib o'tishi to'g'risidagi qoidalar ularga nisbatan qo'llanilmaydi. Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi 1968 yilgi shartnomaga muvofiq, yadro quroliga ega davlatlardan har biri (Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya yoki Xitoy – qat'iy nazar) hech kimga yadro qurolini yoki yadro portlatish qurilmalarini bermaslik majburiyatini oladi, yadro quroliga ega bo'lmagan davlatlar esa, o'z navbatida, hech kimdan yadro quroli yoki yadro portlatish qurilmalarini olmaslik majburiyatini oladi. Bu qoidalar yadro quroliga nisbatan huquqiy vorislikni istisno qiladi.

Sobiq SSRIning davlat mulkiga nisbatan MDH doirasidagi huquqiy vorislik masalalari yuzasidan qabul qilingan bitimlar va qarorlar-

dan, avvalambor, bu mulkning xorijda joylashgan qismi tartibga solish predmeti bo'lgani ko'rinadi. MDH davlatlari rahbarlarining 1991-yil 30-dekabrda bitimi va 1992-yil 30-dekabrda sobiq SSRI-ning butun mulkini taqsimlash to'g'risidagi bitimga binoan ularning qatnashchilari har bir tomonning o'ziga tegishli bo'lgan ulushga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishga doir huquq va manfaatlarini, shuningdek hududida ushbu ulush jumlasiga kiradigan mol-mulk joylashgan davlatlarning qonuniga rioya qilishni qayd etdilar.

4. Davlat arxivlariga nisbatan huquqiy vorislik

Davlat arxivlari masalasiga kelganda, shuni aytish mumkinki, o'tmishdosh davlatning davlat arxivlari deganda ushbu davlat tomonidan uning faoliyati davomida ishlab chiqilgan yoki qo'lga kiritilgan har qanday muddatli (huquqiy vorislik davriga kelib, uning ichki huquqiga muvofiq arxiv sifatida turli maqsadlarda uning nazorati ostida bo'lgan) hujjatlar tushuniladi.

Konvensiyada o'tmishdosh davlatning voris davlatga o'tayotgan arxivlariga zarar etishi yoki yo'qotilishining oldini olish yuzasidan chora ko'rish majburiyati nazarda tutiladi.

O'tmishdosh davlat hududida joylashgan, lekin o'tmishdosh davlatning ichki huquqiga binoan uchinchi davlatga tegishli bo'lgan arxivlarga nisbatan huquqiy vorislik joriy etilmaydi (1983-yilgi Konvensiyaning 24-moddasi).

Davlat o'rnida bir nechta voris davlatlar vujudga kelib, davlat bo'linib ketganida o'tmishdosh davlat hududida joylashishi zarur bo'lgan arxivlarning bir qismi ushbu hududni normal boshqarish maqsadida ushbu hududda arxivlar joylashadigan voris davlatga beriladi. Shuningdek, arxivlarning bu davlat hududiga bevosita taalluqli bo'lgan qismi ham unga o'tadi.

Davlat hududining bir qismi ajralib, unda yangi davlat tashkil topadigan bo'lsa, arxivlarning ajralib chiqayotgan davlat hududida joylashishi kerak bo'lgan qismi ajralib chiqayotgan davlatni normal boshqarish maqsadida voris davlatga o'tadi. Davlatning ajralib chiqayotgan qismi boshqa davlat bilan birlashadigan bo'lganda ham shunday qoidalar qo'llaniladi. O'tmishdosh davlat va voris davlat o'r-

tasidagi shartnomalar yuzasidan davlat arxivlarining huquqiy vorisligiga nisbatan boshqa qoidalar o'rnatilishi mumkin. Lekin bunda ushbu davlatlar xalqlarining o'z tarixi va madaniy merosini rivojlantirish hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish huquqi buzilmasligi kerak.

SSRI davlat arxivlarining taqdiri bu davlat tugatilishi munosabati bilan uning hududida paydo bo'lgan MDH davlatlari o'rtasida tartibga solindi. 1992-yil 6-iyulda ushbu davlatlar o'rtasida tuzilgan sobiq SSRI davlat arxivlarining huquqiy vorisligi to'g'risidagi bitim sobiq Rossiya imperiyasi va SSRI oliy davlat tuzilmalarining faoliyati natijasida tashkil qilingan va bitim ishtirokchilari bo'lgan davlatlarning hududidan tashqarida joylashgan fondlarning yaxlitligi va bo'linmasligi prinsiplaridan kelib chiqadi. Bu davlatlar ushbu hujjatlarga ega bo'lishga da'vogarlik qilmaydilar. Shu bilan birga, bitim ishtirokchilari o'zlarining qonunlariga muvofiq amalga oshirilgan davlat arxivlari va ittifoq miqyosidagi boshqa arxivlarning (jumladan, sobiq SSRIning tarmoq arxivlarining ham) o'z yurisdiksiyasiga o'tkazilishini o'zaro tan oladilar. Bu davlatlar MDHning boshqa davlatlaridagi arxiv muassasalaridan berilgan arxiv ma'lumotnomalarini tan oladilar.

5. Davlat qarzlari borasida huquqiy vorislik

1983-yilgi Vena konvensiyasi davlat qarzlari borasidagi huquqiy vorislik munosabatlarini ham tartibga soladi. Huquqiy vorislikni tartibga solish maqsadlari uchun davlat qarzlari o'tmishdosh davlatning har qanday moliyaviy majburiyati hisoblanadi. Bu moliyaviy majburiyat xalqaro huquqqa binoan yuzaga kelgan boshqa davlatga, xalqaro tashkilotga yoki xalqaro huquqning boshqa subyektiga nisbatan olingan bo'ladi. Davlat qarzlari borasidagi huquqiy vorislik kreditorlarning huquq va majburiyatlariga joriy etilmaydi (1983-yilgi Konvensiyaning 36-moddasi). Boshqacha aytganda, alohida holatlarni istisno etganda, huquqiy vorislik kredit bergan subyektlarning huquqlariga zarar etkazmaydi. Agar manfaatdor davlatlarning shartnomalarida yoki tegishli xalqaro organing qarorida boshqacha holat nazarda

utilgan bo'lmasa, voris davlatga qarzni o'tishi sanasi huquqiy vorislik yuzaga kelgan payt hisoblanadi.

Davlatlar birlashib, yagona voris davlat tashkil qilsalar, o'tmishdosh davlatlarning davlat qarzlari unga o'tadi.

Davlat bir necha qismlarga bo'linib ketsa va voris davlatlar boshqacha kelishib olgan bo'lmalar, davlat qarzi adolatli hissa holda voris davlatlarga o'tadi. Bunda Davlat qarzi munosabati bilan o'tayotgan mol-mulk, manfaatlar va huquqlar ham hisobga olinadi. Shunga o'xshash qoida quyidagi holda ham qo'llaniladi: davlat hududining bir qismi ajralib chiqayotganda va unda voris davlat tashkil topayotganda; hududning ajralib chiqqan qismi boshqa davlat bilan birlashayotganda; shuningdek hududning bir qismi bir davlat tomonidan boshqasiga berilayotganda.

Cobiq ittifoqdosh respublikalar o'rtasida SSRIning davlat qarzi borasidagi huquqiy vorsilikka oid bir qator ko'p tomonlama va ikki tomonlama bitimlar tuzildi. Ulardan asosiysi 1991-yilgi SSRI tashqi davlat qarzi va aktivlari borasidagi huquqiy vorislik to'g'risidagi ko'p tomonlama shartnoma bo'ldi. U davlat tashqi qarzi va aktivlari tushunchasini belgilab berdi. Lekin muammoni mutanosib taqsimlash bilan hal qilishning iloji bo'lmadi.

Muammoning yechilmaganligi xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan moliyaviy munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, 1993-yilda Rossiya maqbul qarorni ilgari surdi. Unda ikki tomonlama bitim tuzish uchun asos bo'ladigan prinsiplar taklif qilindi. 1993-yil 17-maydagi hukumat qarorida bu prinsiplar quyidagicha bayon qilindi. Sobiq ittifoqdosh respublikalarning hissasi 1991-yilgi Shartnomani imzolagan davlatlarning haqiqiy sonidan kelib chiqib belgilanadi. Demak, shartnomada qatnashmayotgan davlatlarning hissasi ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi. Respublikalar ushbu davlatlarning qarzini to'lash majburiyatini Rossiya Federatsiyasiga beradilar. Xarajatlarni qoplash (kompensatsiya) maqsadida respublikalar Rossiyaga sobiq SSRIning aktivlaridagi o'z ulushlarini beradilar. O'zbekiston Respublikasi xuddi shunday amaliyotni qo'lladi.

Vena konvensiyasida yangi mustaqil davlat uchun alohida rejim o'rnatilgan. O'tmishdosh davlatning hech qanday davlat qarzi unga

o'tmaydi. Boshqacha tartib faqat o'zaro kelishuv asosidagina o'rnatilishi mumkin.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, huquqiy vorislik bo'yicha jahon amaliyoti yaxshi yo'lga qo'yilgan. BMTning barcha uchun umumiy bo'lgan qoidalarni kiritishga bo'lgan urinishlari hozircha qo'llab-quvvatlanmadi. Shunga qaramay, huquqiy vorislikka oid Vena konvensiyalari deklarativ qog'oz bo'lib qolgani yo'q. Ular quyidagi prinsiplarga asoslanadi: Konvensiyalarning qoidalari tomonlar o'rtasida huquqiy vorislikka tegishli bitimlar bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Mohiyatan, ular zarur ratifikatsiyalar bo'lmaganda ham amalda bo'laveradi (shartnoma normalari emas, balki odat normalari sifatida).

Nazorat savollari va topshiriqlar:

- 1. Huquqiy vorislik qaysi holatlarda vujudga keladi?*
- 2. Nima sababdan huquqiy vorislik to'g'risidagi 1978- va 1983-yillardagi konvensiyalar kuchga kirmay kelmoqda?*
- 3. Sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida huquqiy vorislik qanday kechdi?*
- 4. Xalqaro shartnomalar, davlat mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariга nisbatan huquqiy vorislikning o'ziga xosliklarini ko'rsatib bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аваков М.М. Правопреемство освободившихся государств. – М.: Междунар. отношения, 1983.
2. Аваков М.М. Новые независимые государства и проблема правопреемства // Дипломатический Вестник 1984. – М., 1985.
3. Власова Л.В. Правопреемство государств в отношении договоров. – Минск: Изд-во БГУ, 1982.
4. Захарова Н.В. Правопреемство государств. – М., 1973.
5. О'Коннел Д. Правопреемство государств (перевод с англ.). – М., 1957.
6. Хакимов Р.Т. Международно-правовые вопросы признания и правопреемства Республики Узбекистан. – Т., 1996.

7. Цыбуков В. Проблемы правопреемства в Содружестве Независимых Государств. – М.: Изд-во МГИМО МИД РФ, 1994.

8. Собрание решений национальных судов, относящихся к правопреемству государств и правительств, подготовленное Секретариатом ООН // ЕКМП. Т. II. – М., 1963.

9-bob. XALQARO HUQUQDA HUDUD

1. *Xalqaro huquqda hudud tushunchasi va rejimi.*
2. *Davlat hududining tasnifi va yuridik tabiati.*
3. *Davlatlar suv havzalarining xalqaro-huquqiy rejimi.*
4. *Davlat chegarasi tushunchasi va uni o'rnatish tartibi.*
5. *Aralash rejimli hududlarning xalqaro-huquqiy rejimi.*
6. *Xalqaro rejimli hududlarning xalqaro-huquqiy rejimi.*

1. Xalqaro huquqda hudud tushunchasi va rejimi

Xalqaro huquqda keng ma'noda hudud deganda butun Yer shari, uning quruqlik va suv hududlari, yer osti boyliklari va kengliklari tushuniladi¹. Huquqiy rejimning asosiy ko'rinishlariga binoan butun Yer shari uchta toifaga bo'linadi: davlat hududi; xalqaro rejimli hudud; aralash rejimli hududlar.

Xalqaro munosabatlarda hududning ahamiyati juda katta, chunki u faqat kengliknigina emas, balki har bir davlatning va butun insoniyatning yashash muhiti va moddiy bazasini ham aks ettiradi. Shuning uchun hududiy muammolar eng muhim xalqaro muammolar jumlasiga kirgan va ko'pincha davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarga sabab bo'lib kelgan.

Davlat hududi. Davlat hududi – muayyan davlatning suvereniteti ostida, huquqiy, siyosiy va iqtisodiy tasarrufida bo'lgan hududdir. Uning chegaralari xalqaro munosabatlarga muvofiq o'rnatiladi va xalqaro shartnomalar bilan mustahkamlab qo'yiladi. Tegishlilik va ustuvorlik davlat hududining asosiy ikki belgisi hisoblanadi. Harbiy okkupatsiya, agressiya yoki hududni xalqaro-huquqiy ijaraga olish hollarida ba'zi istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin. O'z hududi doirasida har bir davlat to'la va mutlaq hokimiyatni amalga oshiradi. U bu hududdan xalqaro huquqning umum tan olingan prinsiplari va normalarini hisobga olgan holda, o'z qonunlariga muvofiq foydalanadi.

Xalqaro rejimli hududlar. Xalqaro rejimli hududlarga muayyan davlatning hududi chegaralaridan tashqaridagi, barcha davlatlarning umumiy fojlalanishida bo'lgan va huquqiy rejimi xalqaro huquq bilan belgilanadigan kengliklar kiradi.

¹ Международное право: Учебник / Под. ред. Н. Т. Блатовой. – М., 1987. – С. 355.

Bu, avvalambor, ochiq dengiz, uning ustidagi havo bo'shlig'i, ochiq kosmos, osmon jismlari va Oy, kontinental shelf doirasidan tashqaridagi dengiz tubidir.

Xalqaro shartnomalarga muvofiq, davlat hududining alohida qismlarida ham xalqaro rejim o'rnatilishi mumkin. Masalan, xalqaro daryolar rejimi (Reyn, Dunay Niger, Kongo va Amazonka), ko'rfazlar rejimi (Bosfor, La-Mansh, Magellan, Pa-de-Kale, Bab-el-Mandeb va Qora dengiz), kanallar rejimi (Suvaysh, Panama va Kil), demilitarizatsiyalashtirilgan va neytral zonalar.

Aralash rejimli hududlar. Aralash rejimli hududlarga kontinental shelf, iqtisodiy va tutash zonalar kiradi. Bu rayonlar davlatlar suvereniteti ostida emas va davlatlar hududi tarkibiga kirmaydi, lekin xalqaro huquqqa muvofiq, qirg'oqbo'yi davlati bu rayonlar tabiiy zahiralari tadqiq qilish, ishlab chiqish va saqlashga nisbatan suveren huquqlarini, shuningdek bu rayonlarning atrof muhitini muhofaza qilish huquqini amalga oshiradi. Biroq ushbu kengliklarning rejimi xalqaro huquq asosida, xususan xalqaro shartnomalar asosida o'rnatiladi.

2. Davlat hududi tasnifi va uning yuridik tabiati

Davlat hududi deganda xalqaro huquqda Yer sharining muayyan davlatga tegishli va ushbu davlat shu chegaralarda o'z hududiy ustunligini amalga oshiradigan qismi tushuniladi. Davlat hududi tarkibiga shu hududdagi quruqlik va suv ostidagi qazilma boyliklari bilan quruqlik hamda suv ustidagi havo kengligi kiradi.

Davlat hududi quyidagilardan tashkil topadi:

- a) quruqlik;
- b) yer osti;
- v) suv akvatoriyasi (daryolar, ko'llar, sun'iy suv omborlari, ichki dengiz suvlari, tarixiy suvlar, arxiplag suvlari va hududiy dengiz);
- g) havo bo'shlig'i (90-120 km. balandlikkacha);
- d) kvazi – (shartli) hududlar (telefon-telegraf kabellari, neft va gaz quvurlari, shuningdek harbiy havo va dengiz kemalari);
- e) davlatning chet ellardagi hududi (elchixonalar, konsulliklar va vakolatxonalar hududi).

Har bir davlat hududining tarkibi davlat chegaralari to'g'risidagi qonun bilan belgilanadi.

Davlatning quruqlikdagi hududi uning chegaralari doirasidagi jami quruqlikdir. Suv hududini ichki (milliy) suvlar va hududiy suvlar (hududiy dengiz) tashkil qiladi. Bu ikki suv kengligining farqi xorijiy fuqaro kemalari va harbiy kemalar suzishining turli rejimlaridan kelib chiqqan.

Davlatning hududiy ustunligi uning suverenitetining tarkibiy qismi hisoblanadi. U davlat hokimiyati uning hududida joylashgan barcha shaxslar va tashkilotlarga nisbatan oliy hokimiyat hisoblanishini bildiradi. Davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'z fuqarolari va tashkilotlariga ham, ushbu davlat hududi doirasida joylashgan xorijiy fuqarolar va tashkilotlarga ham, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham joriy qilinadi (xalqaro shartnomalar bilan o'rnatilgan ba'zi istisno holatlar bundan mustasno-dir).

Davlat ustuvorligining o'ziga xos jihati yana shundan iboratki, o'z hududi doirasida u, agar xalqaro shartnomada boshqa hol belgilab qo'yilgan bo'lmasa, o'z fuqarolariga ham, uning hududida joylashgan xorijiy shaxslarga ham bu davlat qonunlariga mos keladigan hokimiyatning barcha majburlov choralarini qo'llashi mumkin. Bir davlat qonunlari boshqa davlat hududida joylashgan o'z fuqarolariga nisbatan amal qilishi mumkin, lekin hokimiyat majburlov choralarini qo'llash faqat o'z hududi doirasida chegaralangandir.

Davlat hududi faqat ushbu davlatning oliy hokimiyati amalga oshiriladigan kengliknigina emas, balki tabiiy muhitni ham o'z ichiga oladi. Bu muhit o'z ichiga sanoat va qishloq xo'jaligida, insonning kundalik faoliyatida foydalaniladigan tabiiy zahiralarni oladi. Bularning hammasi davlat hududining moddiy mazmunini tashkil qiladi va xalqaro huquq nuqtayi nazaridan o'zlari joylashgan davlatga yuridik tegishlidir. Bunda xalqaro huquq subyekti sifatida davlat deganda hokimiyatning siyosiy tashkiloti va ushbu mamlakatning aholisi tushuniladi. Xalqaro huquqning aynan shu subyektiga uning hududi tegishli bo'lib, bunda hududning amaliy emas, balki yuridik tegishlili-gi to'g'risida gap boradi. Chegara masalalari yuzasidan chegaradosh davlatlarning bitimlari shundan kelib chiqadi. Hududga amalda egalik qilish emas, balki aynan hududning yuridik tegishlili-gi to'g'risida nizo ketganda yuridik tegishlilik muammosi ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Davlat hududi tegishlili-gining yuridik xususiyatini umuman

inkor etib bo'lmaydi, chunki aks holda bu huquqning o'zini inkor etishni anglatar va hududning tegishlilikini uni amalda bosib olish bilan, ya'ni xalqaro huquqda man qilingan va davlatlar hududi yaxlitligi hamda chegaralarining buzilmasligi prinsipining buzilishida namoyon bo'ladigan harakat bilan asoslashga olib kelgan bo'lur edi.

3. Davlatlar suv havzalarining xalqaro-huquqiy rejimi

Ichki dengiz suvlari tushunchasi. Dengiz qirg'og'iga ega har bir davlatning hududi tarkibiga ichki dengiz suvlari ham kiradi. *Hududiy dengizning boshlanish chizig'idan qirg'oqqacha bo'lgan suvlar ichki dengiz suvlaridir.* Xalqaro bitimlar va davlatlarning milliy qonunlari hududiy dengiz kengliklarini o'rnatish uchun qabul qilingan bo'lib, to'g'ri boshlang'ich chiziqlar va davlatlarning qirg'oqlari o'rtasida yotgan suvlarni o'sha davlatning ichki suvlariga kiritadi. Qirg'oqbo'yi davlatlarning ichki dengiz suvlariga shuningdek quyidagilar kiradi:

- portlar akvatoriyalari, chiziq bilan cheklangan, dengiz tomoniga ancha kirgan portlarning gidrotexnik va boshqa inshootlari;
- bir davlatning quruqliklari bilan to'liq o'rab olingan dengizlar (masalan, Orol dengizi), shuningdek butun qirg'oq va ikki qirg'oq boshqa dengiz (yoki okean) bilan qo'shilgan va faqat bir davlatga tegishli (masalan, Azov dengizi, Oq dengiz) bo'lgan dengizlar;
- qirg'og'i bir davlatga tegishli va kengligi 24 dengiz milidan oshmaydigan dengiz (ko'rfazi), buxtalar, qo'ltiqlar, limanlar.

Agar qo'ltiqqa kirish kengligi 24 dengiz milidan oshsa, qo'ltiqdagi ichki suvlarni hisoblash uchun qo'ltiqning ichidan qirg'oqqacha bo'lgan masofada 24 dengiz mili bo'yicha boshlang'ich liniya o'tkaziladi. Bunda chiziq keng suv makonini qamrab olishi kerak. Bu qoida dengiz buxtalari, tublari va limanlariga ham qo'llaniladi.

Bir qator dengiz davlatlarining davlat hududi tarkibiga shuningdek tarixiy suvlar ham kiradi. Jumladan, 1958-yilgi hududiy dengiz va unga tutash zona to'g'risidagi Konvensiya va 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyalari bir qator qo'ltiqlar, ularning kirish kengligidan qat'iy nazar, odat normalariga ko'ra qirg'oqbo'yi davlatlarining ichki suvlari hisoblanadi, degan xalqaro tajribani tan oldi. Bunday qo'ltiqlar «tarixiy» deb ataladi. Unga misol qilib Uzoq Sharqdagi Buyuk Pyotr ko'rfazini keltirishimiz mumkin (kirish kengligi 102

dengiz mili). Unga tarixiy ko'rfaz maqomi berilishi 1901-yili Rossiyaning dengizda baliq ovlash qoidalariga asosan va 1907-, 1928-, 1944-yillardagi Yaponiya bilan baliq ovlash masalalarida kelishilgan bitimda belgilangan. Barensgazidagi Chex ko'rfazi ham tarixiy hisoblanadi.

Kanada Gudzon qo'ltig'ini (kirish kengligi 50 dengiz mili atrofiga), Norvegiya Varangerf ord qo'ltig'ini (kirish kengligi 30 dengiz mili), Tunis Gabes qo'ltig'ini (kirish kengligi 50 dengiz mili) tarixiy suvlar deb hisoblashadi.

Xalqaro huquq doktrinasi davlatlarning bir qator qo'ltiqlarini tarixiy qo'ltiqlar deb nomlanishiga qarshilik qilmaydi. Masalan, D. Kolombos shunday yozadi: «Agar qirg'oq-bo'yi davlatlari ko'rfazlar ustidan uzoq vaqt o'z yurisdiksiyasini yuritgan va bu yurisdiksiya boshqa ko'pgina davlatlar tomonidan tan olingan bo'lsa, qirg'oqbo'yi davlatlari belgilangan ko'rfazdan, ko'proq ichki suvlar sifatida ega bo'lishga haqlidirlar». Shunday qilib, D. Kolombosning fikriga ko'ra, biror-bir davlat ko'rfazlarini tarixiy deb e'lon qilish uchun tarixiy asos yoki ko'rfazning o'ziga xosligidan kelib chiqadigan asosni ilgari surishi kerak. Bunday nuqtayi nazarni ko'pchilik xalqaro huquq mutaxassislari qo'llab-quvvatlaydilar.

Ammo xalqaro shartnomalar huquqi hozirgacha «tarixiy suvlar» va «tarixiy ko'rfaz» tushunchasini belgilovchi biror-bir moddaga ega emas va davlatlarga bunday suvlarni o'ziniki deb e'lon qilishga hech qanday huquq bermagan. BMT Bosh Assambleyasi 1959-yildayoq (1959-yilning 7-dekabridagi 1453 (XIV) Rezolutsiyasi) Xalqaro huquq komissiyasiga bu masalani o'rganib chiqib, olingan natijani BMTga a'zo-davlatlarga yuborish yuzasidan topshiriq bergan edi.

Ichki dengiz suvlarining huquqiy rejimi qirg'oqbo'yi davlatlarining xohishiga ko'ra o'rnatiladi. Jumladan, ichki dengiz suvlarida kemalar qatnovi, baliq ovlash, shuningdek ilmiy va qidiruv faoliyati qirg'oqbo'yi davlatlarining qonun-qoidalariga bilan tartibga solinadi. Bunday suvlarda chet elliklar maxsus ruxsatnomaga ega bo'lmay taqiqot ishlari va ovchilik bilan shug'ullanishlari taqiqlanadi. Qoidaga asosan har qanday chet el kemasi qirg'oqbo'yi davlatning ruxsati bilan kiradi.

Harbiy kemalar qirg'oqbo'yi davlatning ichki dengiz suvlariga ruxsatsiz faqat ikki holatda kirishi mumkin:

- agar bu kemaning bortida davlat yoki hukumat boshlig'i bo'lsa;

- agar kema yordamga muhtoj bo'lsa (ob-havo noqulayliklari yoki sozlash kerak bo'lsa). Agar kemalar qirg'oqbo'yi davlatlariga radiatsion xavf tug'diradigan bo'lsa, bu ikkinchi qoida ularga joriy qilinmaydi.

Qirg'oqbo'yi davlatlarining ruxsatiga ko'ra ularning ichki suvlarida turgan chet el harbiy kemalari qirg'oqbo'yi davlatlarining yurisdiksiyasidan xoli bo'ladilar. Ammo ular bu davlatlarning qonun-qoidalariga rioya qilishlari, shuningdek xalqaro huquqning norma va prinsiplariga ham amal qilishlari shart.

Chet el savdo va harbiy kemalari boshqa davlatlarning ichki suvlariga kirganda qirg'oqbo'yi davlatlarning sivilizatsion, radiotelegraf, port, bosmaxona va sanitariya qoidalariga rioya qilishga majburdirlar. Mahalliy hokimiyat «bayroq huquqini» hurmat qilib, kemaning ichki tartibiga aralashmaydi, ammo kema bortida qirg'oqbo'yi davlatlarning qoida va huquq-tartiboti buzilsa, unda qirg'oqbo'yi davlatning yurisdiksiyasi kuchga kiradi.

Arxipelagda joylashgan bir qator davlatlar, masalan, Filippin, Indoneziya, Fidji va boshqalar (hammasi bo'lib 30 dan ortiq davlatlar) uchun orol davlatlarini iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashishi uchun sharoit yaratish va bu davlatlarga o'z mustaqiligini mustahkamlash uchun arxipelag suvlarini ichki suvlar deb e'lon qilish masalasi muammo bo'lib qoldi.

1982-yilgi Konvensiya birinchi marta arxipelag suvlari tushunchasini kiritdi, xalqaro dengiz va havo navigatsiyasi zaruriyatidan kelib chiqqan holda arxipelag davlatlarning arxipelag suvlarining osti va tubi, shuningdek resurslari ustidan suverenitetini e'lon qildi. Shu bilan birga, 1982-yilgi Konvensiya arxipelag davlatlarning suvlaridan hech qanday to'siqsiz o'tish uchun chet el kemalari va uchuvchi apparatlari uchun dengiz va havo koridorlari yaratish huquqini belgiladi.

Hududiy dengizning xalqaro-huquqiy rejimi. Hududiy dengiz yoki hududiy suvlar deb qirg'oqbo'yi davlatning suvereniteti ostida

*bo'lgan qirg'oqqa tutashib ketgan ma'lum kenglikdagi dengiz chizig'i tushuniladi*¹.

Hududiy dengiz kengligi boshlang'ich chiziqdan hisoblanadi (bu chiziq qirg'oqdan suv tomonga cho'zilgan bo'ladi, agar qirg'oq no-tekis bo'lsa, shartli ravishda to'g'ri chiziq olinadi va u «bazis chizig'i» deb nomlanadi).

Hududiy dengiz – bu qirg'oqqa tutashib ketadigan suv ma- konining qismidir. Bu suvlar qirg'oqbo'yi davlatlarining suvereniteti ostida bo'lib, agar bu yerda chet el kemalari joylashadigan bo'lsa, bu davlatning qirg'oqlari boshqa kuchli dengiz davlatlarining iqtisodiy va harbiy ta'siri ostiga tushib qolishi mumkin. Bu dengiz qirg'oq suv- larining chizig'i qanday taqsimlanadi? XIII asrda davlatning hoki- miyati qirg'oqdan gorizontgacha bo'lgan masofa bilan, ya'ni qirg'oq- dan 12-20 mil` masofa bilan belgilanadi, deb hisoblangan. Boshqalar qirg'oqdan otilgan zambarak o'qining uzunligi bilan o'lchashni taklif qilgan. Chunki qayerda qurol kuchi tugasa, o'sha yerda davlat hoki- miyati tugaydi degan fikr mavjud bo'lgan².

Bu mezonlar aniq hisoblanmagan, chunki otilgan o'qning uzun- ligi qurolning takomillashuvi bilan o'zgarib borgan.

Shuning uchun ba'zi bir davlatlar hududiy dengiz kengligini o'z- lari uchun qulay bo'lgan kengliklar bilan o'lchashgan. Masalan, kuch- li flotga ega bo'lgan buyuk dengiz davlatlari – Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Yaponiya va boshqalar hududiy dengiz chizig'ini 3 mil qilib belgilagan, kichik flotga ega davlatlar – Kolumbiya, Ekva- dor, Gvatemala va boshqalar hududiy dengizni 9-12 mil qilib belgila- gan. Italiya, Yunoniston, Portugaliya, Yugoslaviya, Eron va boshqa bir qator mamlakatlarda hududiy dengiz 6 mil qilib belgilangan. Shun- day qilib, umum qabul qilingan hududiy dengiz kengligi 3 mildan 12 dengiz miligacha boradi.

1930-yili bu masalani hal qilish uchun Gaagada maxsus komi- siya tuzildi, ammo bu komissiya hech narsaga erishmadi. Bir qator davlatlar hududiy dengiz ustidan o'z nazoratlarini o'rnatish uchun yana bir maxsus hududiy dengizga ega bo'lish talabini qo'ydilar. Gaaga konferensiyasi bu masalani hal etishda erishgan yutuq shu bo'li-

¹ Ст. 1 Женевской конвенции о территориальном море и прилежащей зоне 1958 г., Ст.ст. 2-7 Конвенции ООН по морскому праву 1982 г.

² Кудрявцев Д.И. Основы международного права. – М., 1970. –С - 35.

diki, hududiy dengiz qirg'oqbo'yi davlatlarining suvereniteti ostida bo'ladi degan qoida to'liq tan olindi. Chunki ilgari ikki nuqtayi nazar mavjud edi: biri hududiy dengiz qirg'oqbo'yi davlatlarining nazorati ostida bo'lgan ochiq dengizning bir qismi deb hisoblasa, ikkinchisi, qirg'oqbo'yi davlatlari hududining davomi deb hisoblar edi. Gaaga konferensiyasida ikkinchi nuqtayi nazar tan olinib, konferensiya materiallariga har bir qirg'oqbo'yi davlati o'z hududiy dengizi ustidan to'liq suverenitetga ega, deb yozib qo'yildi. BMT Xalqaro Sudi Buyuk Britaniya va Norvegiya o'rtasidagi nizo bo'yicha 1951-yilda qaror qabul qilib, har bir davlat hududiy dengizning kengligi va rejimini belgilash huquqiga ega, degan hukmron doktrinani ilgari surdi. Xalqaro huquq Komissiyasi o'z ishi davomida «xalqaro huquq hududiy dengiz kengligini 12 dengiz milidan ortiq kengaytirishga yo'l qo'ymaydi», deb qayd etib o'tdi. Bu 1956-yilda bo'lgan edi. Dengiz huquqi bo'yicha BMTning I Konferensiyasi davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar sababli bu qoidani 1958-yilgi hududiy dengiz va unga tutash zona to'g'risida qabul qilingan Konvensiyaga kiritma olmas edi. Faqat 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasi birinchi marta shartnomaviy tartibda xalqaro huquqning universal normasi sifatida quyidagi qoidani: «Har bir davlat o'z hududiy dengizi kengligini 12 dengiz milidan oshirmagan holda o'rnatish huquqiga ega», deb bayon qildi.

Hozirgi paytga kelib 110 dan ortiq davlatlar hududiy dengiz kengligini 12 dengiz mili atrofida o'rnatdilar. Ammo 20 dan ortiq davlat xalqaro huquq tomonidan o'rnatilgan limitdan oshadigan kenglikka ega. Ulardan 10 dan ortig'i (Braziliya, Kosta-Rika, Panama, Peru, Salvador, Somali va boshqa davlatlar) 1982-yilgi dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasi qabul qilingunga qadar o'z qonunlari bilan hududiy dengiz kengliklarini 200 dengiz miligacha o'rnatganlar. Shunday qilib, paydo bo'lgan muammo 1982-yilgi dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasining kuchga kirishi va ko'pgina davlatlarning bu Konvensiya normalariga amal qilishi bilan hal etilmoqda.

Hududiy dengiz chegarasini aniqlash qarama-qarshi yoki aralash davlatlar o'rtasida bir bitimga kelishish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday bitimlar bo'lmagan holda qirg'oqbo'yi davlatlari huquqiy amaliyotda uchraganidek teng ravishda bo'ladilar.

Bu hududiy suvlar qanday yuridik va amaliy ahamiyatga ega? Davlat bu dengizda nima qila olishi mumkin. Navigatsiya (ichki portlar orasidagi kemalar qatnovi) huquqi qirg'oqbo'yi davlatlariga tegishlidir. Undan tashqari, qirg'oqbo'yi davlatlariga bojxona, fiskal, sanitar nazorati, chet el bayroqlari ostidagi savdo kemalarini nazorat qilish, o'z harbiy bazalarini qo'riqlash huquqi kiradi.

Sanitariya nazorati huquqi kemanding zaharlangan joydan kelganda karantindan o'tish majburiyatini nazarda tutadi.

Bojxona nazorati kemani ma'lum bojxona ko'rigidan o'tkazish huquqini nazarda tutadi. Chet el kemalari faqat bojxona ko'rigi bor portlarga kirishi mumkin.

Davlatlar harbiy xavfsizligini saqlash uchun chet el kemalaridan harbiy zonalarga yaqinlashmaslikni, u yerda harbiy mashqlarni o'tkazmaslikni talab qilish huquqiga ega.

Shuni qayd qilish kerakki, hududiy dengiz atamasiga nisbatan chalkashliklar mavjud. Bugungi kunga kelib uch atamadan foydalaniladi: «hududiy dengiz», «hududiy suvlar», «qirg'oq-bo'yi suvlari». «Hududiy dengiz» atamasi rasmiy tan olingan, chunki u 1958-yilgi hududiy dengiz va unga tutash zona to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi va 1982-yilgi dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasida qo'llaniladi. «Hududiy suvlar», «qirg'oqbo'yi suvlari» sobiq sovet adabiyotlarida qo'llanilgan. «Qirg'oqbo'yi suvlari» atamasi 60-yillargacha ishlatilgan bo'lsa, 70-yillardan boshlab «hududiy suvlar» atamasi qo'llanila boshlandi.

4. Davlat chegarasi tushunchasi va uni o'rnatish tartibi

Davlat chegarasi – davlat hududining, davlat suverenitetining kenglikdagi sarhadlarini belgilovchi chiziq bo'ylab o'tadigan vertikal sathidir. U davlatning quruqlikdagi, suvdagi va havodagi davlat chegaralari hamda yer osti boyliklarini ajratib ko'rsatadi.

Quruqlikdagi chegaralar va daryolar, ko'llar hamda boshqa suv havzalari bo'ylab o'tadigan chegaralar chegaradosh davlatlar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq o'rnatiladi. Davlatning hududiy suvlarini ochiq dengizdan ajratib turadigan dengiz chegaralari, qoida tariqasi-

da, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga muvofiq qirg'oqbo'yi davlatlarning qonunlari bilan o'rnatiladi.

Chegaradosh davlatlarning hududiy suvlari ular o'rtasidagi kelishuvlarga ko'ra bir-biridan ajratiladi.

Davlat hududining havo chegaralari uning havo kengligining yon va yuqori sarhadlaridan iboratdir. Havo kengligining yon chegarasi davlat chegarasining quruqlikdagi va suvdagi chiziqlari bo'ylab o'tadigan vertikal sathidan iborat bo'lib, havo chegarasi har doim ushbu chiziq'larga amal qilishi bois, havo yon chegaralari yuzasidan hech qanday bitim tuzilmaydi. Havo kengligini fazo kengligidan ajratib turuvchi havo hududining yuqori chegarasi xalqaro huquq tomonidan hali o'rnatilganicha yo'q. Ammo, odatiy tarzda, davlatlar 90-120 km. balandlikni tan oladilar. Davlat hududining yuqori chegarasi masalasi BMTning Fazodan tinch maqsadlarda foydalanish qo'mitasi hamda Kichik yuridik qo'mitasida ko'rib chiqilmoqda. Bu organlarning ko'pgina vakillari fazo okean sathidan 100-110 km. yuqoridan boshlanadi deb tan olish, aniq chegaralarni davlatlar o'rtasida kelishib olish va keyinchalik shartnoma bilan mustahkamlashni yoqlab chiqmoqdalar. Davlatlar o'rtasida quruqlik va suvdagi chegaralarni o'rnatish protsedurasidan oldin ikki bosqich – delimitatsiya va demarkatsiya mavjud.

Delimitatsiya – davlat chegarasi o'tishining umumiy yo'nalishlarini hamda uni jug'rofiy xaritaga tushirishni shartnoma asosida amalga oshirishdir. Shartnomalar odatda chegara chizig'ining umumiy tasvirini o'z ichiga oladi.

Demarkatsiya – mahalliy sharoitlarda davlat chegarasini o'rnatishdir. Demarkatsiyani tomonlarning aralash komissiyalari amalga oshiradi. Ular maxsus chegara belgilari barpo qilish yo'li bilan joylarda davlat chegarasining o'tishini belgilaydi. Demarkatsiya bo'yicha amalga oshirilgan barcha harakatlar yuzasidan chegara chizig'ining o'tishi va chegara belgilari batafsil tasvirlangan holda bayonnomalar tuziladi. Davlat chegaralari odatda relyefning eng xarakterli nuqtalari va chiziqlari: daryolar, tog' tizmalari va sh.k.lar bo'ylab o'rnatiladi. Chegara daryolarida chegaralar kema qatnamaydigan daryoning o'rtasidan yoki, chegaradosh davlatlarning bitimlarida boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa, kema qatnaydigan daryo farvateridan o'tadi.

Biroq parallellar yoki meridianlar bo'yicha o'rnatilgan chegaralar ham uchrab turadi (masalan, AQSH va Kanada o'rtasidagi chegara).

O'z chegaralarining daxlsizligini ta'minlash uchun davlatlar qonun hujjatlari chiqarish va tegishli xalqaro shartnomalar tuzish yo'li bilan ma'lum *chegara rejimini* o'rnatadilar.

Davlat chegarasi rejimi milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalar bilan o'rnatilib, quyidagi qoidalarni o'z ichiga oladi:

- chegarani saqlash;
- shaxslar va transport vositalarining chegaradan o'tishi;
- shaxslar va tovarlarni chegaradan o'tkazish;
- chegarada xo'jalik va boshqa faoliyat yuritish;
- chegaraga oid nizolarni hal qilish.

O'z chegaralarini qo'riqlashning zarur tartibini ta'minlash maqsadida davlatlar chegaraoldi hududlarida chegara hududi rejimini o'rnatadilar.

Davlat rejimidan chegaraoldi hududini farqlay bilish lozim. Chegara hududi rejimi – chegara mintaqasi, hududiy va ichki suvlar rejimidir. Chegara hududi rejimi chegarani qo'riqlash uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratiladi. Chegara hududi mintaqasining kengligi odatda besh kilometrdan oshmaydi.

Yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash va tinch hamkorlikni rivojlantirish uchun davlatlarning chegaradosh davlatlar bilan o'zaro munosabatlari amaliyotida *chegara vakillari* qo'llanadi va ular chegara komissarlari hamda chegara vakolatiga ega shaxslar deb nomlanadi.

Chegara vakillarining funksiyalariga chegarada tartib buzilishining oldini olish yuzasidan choralar ko'rish, chegara nizolarini tergov qilish va hal etish, shuningdek chegara rejimini buzish bilan bog'liq zararni undirish masalalarini hal qilish kiradi. Chegara vakillari tartibga sola olmagan masalalar diplomatik tartibda hal qilinadi.

Hozirgi kunda davlat hududining tegishliligini o'zgartirishning asosan ikki usuli qo'llaniladi:

- 1) xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipini amalga oshirish asosida;
- 2) tegishli davlatlar o'rtasidagi kelishuv bo'yicha.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi BMT Ustavi qoidalarini buzgan holda hududni kuch ishlatib egallashni taqiqlaydi. Bunday egallab

olish har qanday holda ham noqonuniy, davlatlar hududining yaxlitligi prinsipini buzish hisoblanadi.

Xalqaro huquqda xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi o'rnatilishi bilan barcha yirik va muhim hududiy o'zgarishlar ushbu prinsip asosida amalga oshirilmoqda yoki amalga oshirishi shart. Shu ma'noda *o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipini hududiy chegaralanishning asosiy prinsipi deb hisoblash lozim.*

Xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi ikki tomonga ega: tashqi tomoni – xalq (millat)ning u yoki bu davlat tarkibiga kirish yoxud mustaqil davlat tuzish huquqi; ichki tomoni – o'z ichki tuzilishini belgilash huquqi. Hududiy chegaralanish nuqtayi nazaridan tashqi tomon birlamchi ahamiyatga ega, chunki u yoki bu davlat tarkibiga kirish yoxud mustaqil davlat tuzish masalasini hal qiladi ekan, o'z taqdirini o'zi belgilayotgan xalq o'z hududining u yoki bu davlatga tegishligi masalasini hal qiladi yoki mustaqil davlat tuzadigan bo'lsa, o'z hududining alohida davlat hududiga aylanishi masalasini hal etadi.

Hududning alohida qismlari, nisbatan katta bo'lmagan va aholi yashamaydigan yoki kam aholi joylashgan qismlarining tegishligi manfaatdor davlatlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin. Odatda hududiy o'zgarishlarning bu turi *sessiya* deb ataladi. Hozirgi zamon xalqaro huquqiga muvofiq, sessiya xarajatni qoplash (kompensatsiya) asosida amalga oshirilishi kerak. Unchalik katta bo'lmagan chegaraoldi hududini berish boshqa asosda, lekin yetarlicha kompensatsiya qilinganida amalga oshirilishi mumkin. Xarajatlarni qoplashning bunday shakli kelishilgan pul summasini to'lash ko'rinishida bo'lishi ham mumkin. Masalan, 1947-yil 3-fevralda SSRI va Finlandiya o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra Finlandiya SSRIGA o'z hududining Yaniskoski gidroelektrostansiyasi rayonida joylashgan va Paatso-Yoki daryosidagi Niskakoski to'g'onini boshqarib turadigan 176 kv. km. qismini bu hududda joylashgan binolar va inshootlar bilan birga 700 mln. fin markasi evaziga berdi. Sessiya qaysi shaklda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, u tegishli davlatlar o'rtasida shartnoma bilan rasmiylashtirilishi shart. Xalqaro huquq doktrinasida ba'zan qonuniy kuch ishlatish, masalan, o'zini o'zi mudofaa qilish natijasida yuzaga keladigan ayrim hududiy o'zgarishlarni qonuniy deb tan olish masalasi qo'yilmoqda.

Sobiq sovet adabiyotlarida shu munosabat bilan agressiyachi davlat hududining bir qismini egallab olish u sodir etgan agressiya uchun javobgarlikning bir shakli ekanligi ta'kidlandi¹. Bunday hududiy o'zgarishlar ikkinchi jahon urushidan keyin o'tkazilgan edi. Ular asosan Germaniya va Yaponiyaga taalluqli bo'ldi.

O'tmishda ko'pincha hududni egallab olish usuli bosib olish va egalik qilish muddati hisoblanardi. Egallab olish (okkupatsiya) deganda biror-bir davlatning suvereniteti ostida bo'lmagan, ya'ni «hech kimniki – (terra nullius)» bo'lgan hududni egallab olish va boshqarish tushuniladi.

Egalik qilish muddati – ilgari boshqa davlatga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin uzoq vaqt davomida yangi hududiy suverenga qarshilik bildirmagan hududni uzoq, amalda va qonunni buzmay egallash hisoblanadi. Hududni egallab olishning bu ikki usuli har qanday yo'l bilan begona hududni qo'lga kiritish sifatida hanuz taqiqlanmagan, xalqaro huquqda esa hududiy yaxlitlik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsiplari mavjud bo'lmagan davrlarda shakllangan. Yuqorida aytib o'tilgan prinsiplarni hisobga olmagan holda bu usullarni qo'llash bugungi kunda huquqqa zid hisoblanadi.

5. Aralash rejimli hududlarning xalqaro-huquqiy rejimi

Bu rayonlar davlatlar suvereniteti ostida emas va davlatlar hududi tarkibiga kirmaydi, lekin xalqaro huquqqa muvofiq, qirg'oqbo'yi davlati bu rayonlar tabiiy zahiralari tadqiq qilish, ishlab chiqish va saqlashga nisbatan suveren huquqlarini, shuningdek bu rayonlarning atrof muhitini muhofaza qilish huquqini amalga oshiradi. Shu bilan birgalikda, ushbu hududlarning rejimi xalqaro huquqqa muvofiq o'rnatilgan.

Iqtisodiy zonaning xalqaro-huquqiy rejimi. Iqtisodiy zona – bu hududiy dengizdan tashqarida joylashgan va u bilan tutashib ketgan rayon bo'lib, o'ziga xos huquqiy rejim ostida bo'ladi, bu rejimga ko'ra qirg'oqbo'yi davlatlarining yurisdiksiyasi va huquqi hamda boshqa davlatlarning huquq va erkinliklari 1982-yilgi konvensiyasi qoidalariga asosan tartibga solinib turadi. Iqtisodiy zonalarning kengligi

¹ Тункин Г.И. Теория международного права. – М.: Междунар. отношения, 1970. – С. 469.

hududiy dengiz kengligi o'lchanadigan boshlang'ich chiziqdan hisoblanganda 200 dengiz milidan oshmasligi lozim.

1982-yilgi BMT konvensiyasiga ko'ra qirg'oqbo'yi davlatlari iqtisodiy zonada quyidagi huquq va erkinliklarga ega:

a) dengiz ostini qamrab olgan va suvdagi jonli va jonsiz tabiat resurslarini saqlash va ishlab chiqish, shuningdek bu resurslarni razvedka qilish va boshqarish maqsadida va ularga nisbatan boshqa faoliyatlarni olib borish, ya'ni suvlardan, oqimdan va shamoldan foydalanib energiya ishlab chiqish suveren huquqi;

b) 1982-yilgi BMT konvensiyasi qoidalarida nazarda tutilgan yurisdiksiyaga asosan:

* sun'iy orollar, qurilmalar va inshootlar yaratish va ulardan foydalanish;

* dengizda ilmiy tadqiqotlarni olib borish;

* dengiz muhitini saqlash va himoya qilish;

* Konvensiyada nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlar.

Qirg'oqbo'yi davlatlari iqtisodiy zonada 1982-yilgi BMT konvensiyasiga asosan o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda boshqa davlatlarning ham huquq va majburiyatlarini hisobga olishlari va Konvensiya qoidalariga muvofiq ravishda harakat qilishlari lozim.

1982-yilgi BMT konvensiyasining 58-moddasi boshqa davlatlarning iqtisodiy zonadagi huquq va majburiyatlarini nazarda tutadi. Iqtisodiy zonada barcha davlatlar, qirg'oqbo'yi davlatlari ham, dengizga chiqish yo'li bo'lmagan davlatlar ham Konvensiya qoidalariga rioya etgan holda kemalarining erkin harakat qilish va bu suvlarning ustidan uchib o'tishi, suv ostidan kabel va quvurlar o'tkazish va xalqaro huquq nuqtayi nazarini bo'yicha huquqiy deb hisoblangan dengizdan foydalanishning boshqa turlaridan foydalanish huquqiga ega. Ular – kemalar, uchuv apparatlarini ekspluatatsiya qilish va Konvensiya qoidalariga muvofiq boshqa harakatlardir. Iqtisodiy zonalarda baliq zahiralari tamom bo'lishining oldini olishga ko'maklashish va resurslardan chala foydalanishga yo'l qo'yilmaslik lozim.

Kontinental shelfning xalqaro-huquqiy rejimi. Kontinental shelf – bu dengiz qirg'og'ining suv ostidagi davomi bo'lib, kontinentning o'ziga xos «suv osti kemasini» tashkil etadigan materikga tutash

sayozlikdir. Bizga ma'lumki, 200 metr chuqurlikdan so'ng «suv osti polkasi» qiyalab, so'ng Dunyo okeanining eng chuqur joyiga «tushadi». Dengiz ostida va uning tubida ulkan tabiiy boyliklar: neft, gaz, oltin, kumush, qalay, qimmatbaho metallar va shu kabilar, shuningdek jonli resurslar: «o'tiradigan organizmlar», krablar, suv osti baliqlari va boshqa boyliklar mavjud. Hozirgi kunda dunyo neftining 20 % va gazning 10 % kontinental shelfdan qazib chiqarilmoqda va bu ko'rsatgichlar kundan-kun oshib bormoqda.

Kontinental shelf rejimini tartibga solib turuvchi birinchi xalqaro bitim 1958-yili Jeneva konferensiyasida qabul qilingan kontinental shelf to'g'risidagi Konvensiya hisoblanadi. Konvensiyaga ko'ra qirg'oqbo'yi davlatlari shelf ustidan suveren huquqlarini faqat «tabiiy boyliklarni razvedka qilish va ishlab chiqish maqsadlarida» amalga oshiradilar. Shelf ustidagi suv ochiq dengiz hisoblanib, barcha davlat va xalqlarning umumiy foydalanishida bo'ladi¹. 1982-yilgi konvensiyasiga ko'ra qirg'oqbo'yi davlatlarining kontinental shelfi hududiy dengiz kengligi o'lchanadigan boshlang'ich chiziqdan 200 dengiz miligacha cho'zilgan kenglikni o'ziga qamrab oladi².

Materikning suv osti chegarasi qirg'oqbo'yi davlatlarining suv ostidagi kontinental massivining davomi bo'lib, shelfning usti va ostidagi yon-bag'irlaridan va balandligidan iborat. Ularga katta okean osti chuqurliklari, jumladan, okean tizmalari va okean tubi kirmaydi.

Qirg'oqbo'yi davlatlari materikning suv osti chegarasining tashqi chegaralarini o'rnatadi, lekin bunda uning chegarasi hududiy dengiz kengligi o'lchamining boshlang'ich chizig'idan hisoblanadi. Kontinental shelf 350 dengiz milidan oshib ketmasligi kerak yoki 2500 metr izobatalarda (dengiz tubining bir xil chuqurlikdagi yeri) 100 dengiz milidan oshib ketmasligi kerak.

1982-yilgi BMT konvensiyasining 77-moddasi 1-bandi qirg'oqbo'yi davlatlarining kontinental shelfda tabiiy resurslarni razvedka qilish va ishlab chiqishdagi suveren huquqini ko'rsatib beradi. Bu huquq qirg'oqbo'yi davlatlarigagina tegishlidir, agar qirg'oqbo'yi davlatlari shelf resurslarini razvedka qilmasa yoki ishlab chiqmasa, ularning ruxsatisiz bu ishlarni olib borishga boshqa hech kimning haqqi yo'q.

¹ П. 1 ст. 2 Женевской конвенции о континентальном шельфе 1958 г.

² Ст. 76 Конвенции ООН по морскому праву 1982 г.

Shuni qayd etish kerakki, qirg'oqbo'yi davlatlarining suv osti mineral resurslariga nisbatan suveren huquqlarini belgilab beradigan iqtisodiy zonalar instituti kontinental shelf institutiga tegishli emas, chunki Osiyo, Amerika va Yevropadagi ko'pgina davlatlarning shelfi 200 dengiz milidan oshib ketadi.

Hududiy dengizga tutash zonaning xalqaro-huquqiy rejimi. Hududiy dengizga tutash zona – bu ochiq dengiz rayoni bo'lib, hududiy dengizning tashqi chegarasi bilan tutashib ketadi va qirg'oqbo'yi davlatlarining hududiy dengizi yoki uning hududi atrofida sodir etilgan huquqbuzarliklar yoki bojxona, fiskal, migratsiya va sanitariya qoidalari buzilganida bu davlatlarning yurisdiksiyasini amalga oshirish huquqi bilan xarakterlanadi¹.

Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi BMT konvensiyasi ham qirg'oqbo'yi davlatlarining hududiy dengizga tutash zona huquqini tan oladi va zarur bo'lganda quyidagi nazoratni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi:

Hududiy dengiz yoki hududi atrofida bojxona, fiskal, migratsiya yoki sanitariya qonun-qoidalari buzilishining oldini olish;

Hududiy dengiz yoki hududi atrofida yuqorida eslatib o'tilgan huquqbuzarliklar sodir etilganda ularni jazolash².

Hududiy dengiz va unga tutash zona to'g'risidagi 1958-yilgi Jeneva konvensiyasiga asosan, hududiy dengiz kengligi unga tutash zona kengligi bilan qo'shib hisoblanganda 24 dengiz milidan, dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi BMT konvensiyasiga ko'ra esa har biri 12 dengiz milidan oshmasligi kerak. Bu Konvensiyaga ko'ra hududiy dengizga tutash zona iqtisodiy zonalar rayonini ham tashkil etadi.

Shunday qilib, hududiy dengizga tutash zona, qirg'oqbo'yi davlatlarining shu zonada o'z huquq-tartibotini amalga oshirish huquqi bilan va ochiq dengiz erkinligidan foydalanadigan boshqa davlatlarning huquqiga tutashib ketishi bilan xarakterlanadi.

6. Xalqaro rejimli hududlarning xalqaro-huquqiy rejimi

Xalqaro rejimli hududlarga muayyan davlatning hududi chegaralaridan tashqaridagi, barcha davlatlarning umumiy foylalanishida bo'l-

¹ Ст. 14 Женевской конвенции о территориальном море и прилежащей зоне 1958 г.

² П. I ст. 33 Конвенции ООН по морскому праву 1982 г.

gan va huquqiy rejimi xalqaro huquq bilan belgilanadigan kengliklar kiradi.

Ochiq dengizning xalqaro-huquqiy rejimi. Ochiq dengiz Dunyo okeanining bir qismi sifatida barcha davlat va xalqlarning to'liq suveren tengligi asosida vujudga kelgan ochiq dengizda kemalarning erkin suzishi, baliq ovlashi, suv osti kabeli va quvurlarni o'tkazish, ochiq dengiz ustidan uchib o'tish huquqiga egadirlar. 1982-yilgi BMT konvensiyasi ochiq dengizdagi bu erkinliklarga nisbatan yana ikkita qo'shimcha kiritdi:

- dengizda ilmiy tadqiqotlar olib borish erkinligi;
- xalqaro huquq ruxsat etadigan sun'iy orollar va boshqa inshootlarni bunyod etish erkinligi.

Iqtisodiy zonalar doirasidagi ochiq dengizda ham kemalarning erkin harakati, suv osti kabeli va quvurlarini o'tkazish va ular ustidan uchib o'tish erkinligi saqlanib qoldi. Bu huquq har bir davlatga, hatto o'zining dengiz qirg'og'i bo'lmagan davlatlarga ham tegishlidir (ichki kontinental deb nomlanadigan davlatlar). Iqtisodiy zonalarda baliq ovlash faqat qirg'oqbo'yi davlatlariga tegishlidir.

Har qanday kema ochiq dengizda qanday bayroq ostida suzayotgan bo'lsa, o'sha bayroq-davlatning milliy mulki hisoblanadi va faqat o'sha davlatning yurisdiksiyasiga bo'ysunadi.

Bu qoidani istisno qiladigan holatlar mavjud. Masalan, harbiy kema quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lsa ochiq dengizdagi chet el savdo kemasini to'xtatishi va uni nazardan kechirishi mumkin:

- * agar kema qaroqchilik bilan shug'ullanayotgan bo'lsa;
- * agar kema qul savdosi bilan shug'ullanayotgan bo'lsa;
- * agar kema bayroq ko'tarmasa va bu kema o'sha harbiy kema tegishli davlatga qarashli bo'lsa;
- * qirg'oqbo'yi davlatlarining yurisdiksiyasi amal qilayotgan joydan ta'qib qilib kelingan bo'lsa.

1982-yilgi konvensiyasi davlat bayrog'i yurisdiksiyasi prinsiplardan quyidagilarni istisno qilishni nazarda tutadi:

- * bayroq-davlat iltimosiga ko'ra boshqa davlatlar giyohvand va psixotrop moddalar bilan noqonuniy savdo-sotiqning oldini olish uchun hamkorlik qilish;

* agar kema immunitetga va milliy davlatga ega bo'lsa, harbiy kema bu chet el kemasini nazardan kechirish huquqiga ega;

* har qanday kema ochiq dengizda ruxsat olmasdan radio va teleeshittirishlar olib borsa (yordam signalidan tashqari), u qamoqqa olinishi va uzatish apparatlari musodara qilinishi mumkin¹.

Urush davrida ochiq dengiz urush harakatlari maydoniga aylanishi mumkin. 1982-yilgi BMT konvensiyasi bu masala yuzasidan yangi qadam tashladi. Konvensiyada «Ochiq dengizdan tinchlik maqsadlarida foydalaniladi»², deb yozib qo'yilgan.

Ochiq dengizda harbiy kemalar o'z bayroq-davlatidan tashqari, har qanday davlatning yurisdiksiyasidan daxlsiz bo'ladi. Ochiq dengizda harbiy kemalarning xalqaro-huquqiy rejimi xalqaro huquq tizimi bilan tartibga solinadi va 1982-yilgi BMT konvensiyasi va Ochiq dengiz to'g'risidagi 1958-yilgi Jeneva Konvensiyasiga asosan kemalarning erkin harakati doirasida amalga oshiriladi, shuningdek qirg'oqbo'yi davlatlarining iqtisodiy zona va kontinental shelfga taalluqli qonun va qoidalarini hisobga olgan holda tartibga solinadi.

Ochiq dengizda baliqchilik va boshqa dengiz ovlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish baliq resurslaridan oqilona foydalanish va ularning biologik ko'payishiga ta'sir ko'rsatmaslik uchun o'rnatiladi. Jumladan, Dunyo okeanining jonli resurslarini saqlash va baliq ovlashga bag'ishlangan ko'plab konvensiyalarga egamiz. Ulardan Kit ovlashni tartibga solish to'g'risidagi 1946-yilgi Konvensiya va boshqalarni misol tariqasida sanab o'tishimiz mumkin.

Ochiq dengizdagi erkinlikning buzilishidan biri qaroqchilik hisoblanadi va davlatlar uni yo'q qilishga ko'maklashishlari kerak. Ochiq dengiz to'g'risidagi 1958-yilgi Jeneva konvensiyasi va 1982-yilgi BMT konvensiyaSI ochiq dengizda sodir etilgan qaroqchilik harakatlari uchun jazo tayinlashni nazarda tutadi.

Dunyo okeanlarida ilmiy tadqiqot o'tkazishning xalqaro-huquqiy rejimi 1982-yilgi BMT Konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Jug'rofiy o'rnidan qat'iy nazar, barcha davlatlar va vakolatli xalqaro tashkilotlar Dunyo okeanlarida ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish huquqiga egadirlar. Ilmiy tadqiqot ishlari faqat tinchlik maqsadlarida, xavfsizlik qoidalariga rioya etilgan holda tegishli ilmiy usullar asosida o'tkazilishi

¹ Международное право: Учебник / Под ред. Н.Т. Блатовой. – М., 1987. – С. 387.

² Ст. 88 Конвенции ООН по морскому праву 1982 г.

lozim. Dengizda ilmiy tadqiqotlar o'tkazishdan maqsad butun xalqlarning manfaatlarini ko'zlab Dunyo okeanining biologik va mineral resurslarini, uning atmosfera va kosmos bilan o'zaro ta'sirini o'rganish va Dunyo okeani to'g'risidagi bilimlardan barcha davlatlarning foydalanishiga ko'maklashishdan iboratdir (ob-havo ma'lumotiga ega bo'lish, halokatlarning oldini olish, hosildorlikni oshirish, dengiz ovi- ni rasionalizatsiya qilish va boshqalar).

Dengiz osti va dunyo okeani tubining xalqaro-huquqiy rejimi. 1971-yilning 11-fevralida Dengiz va okeanlar osti va uning qa'rida yadro va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini joylashtirishni taqiqlash to'g'risidagi Shartnoma imzolandi. Bu shartnoma qirg'oqbo'yi davlatlarining 12 mil zonadagi dengiz ostini yadrodan xoli etishga bag'ishlangan masalalarini ham to'liq tartibga solib turadi. BMTning dengiz huquqi bo'yicha III konferensiyasi 1982-yilgi BMT Konvensiyasi bo'yicha «Rayon» deb nomlangan dengiz osti xalqaro rayonida mineral resurslarni qazib olish rejimi muammolarini hal etdi. Unga ko'ra Rayonda o'zlashtirmaslik va umumfoydalanish prinsiplari amal qiladi. Bu, hech bir davlat, dengiz ostiga bo'lgan suverenitetga va suveren huquqqa da'vo qilolmaydi deganidir. BMT Rayon ostini «insoniyatning umumiy merosi» (1982-yilgi BMT Konvensiyasining 136-moddasi) deb e'lon qildi. Dunyo okeanini rayonidagi suv osti va uning qa'ri barcha davlatlarga tinchlik maqsadlarida foydalanish uchun ochiqdir. Bunda rivojlanayotgan davlatlarning nafaqat kamchiliklari, balki ehtiyoj va manfaatlari ham hisobga olinadi. Rayon qa'rini razvedka qilish va ishlab chiqish imkoniyati dengiz osti bo'yicha Xalqaro organning maxsus xo'jalik korxonasiga (170-modda) va Organ bilan kontrakt tuzgan alohida davlatlarga (156-191-moddalar) berilgan.

Konvensiyaning 148-moddasi rivojlanayotgan davlatlarning Rayon faoliyatida samarali ishtiroki taqdirlanadi, degan qoidani o'zida mujassam etgan. Bu moddada dengizga chiqish yo'liga ega bo'lgan, dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan yoki jug'rofiy jihatdan noqulay joylashgan davlatlarning muhim ehtiyoj va manfaatlari hisobga olinadi, deb ko'rsatilgan. Nizolar paydo bo'lganda ularni hal etish uchun Dengiz huquqi bo'yicha xalqaro tribunalning Maxsus kameralarini tuzish nazarda tutilgan (188-modda).

Arktikaning xalqaro-huquqiy rejimi. Arktikaning hududiy mansubligi – «Arktik sektorlar» konsepsiyasi. Arktika – bu Yer sha-

rining Shimoliy qutb atrofida joylashgan rayonidir. Uning tarkibiga Yevroosiyo va Shimoliy Amerika materiklarining chekkasi, Shimoliy dengiz okeani orolchalari bilan, Norvegiyaning qirg'og'bo'yi orollari, shuningdek Atlantika va Tinch okeanining tutash qismlari kiradi. Arktikaning maydoni, agar uning janubiy chegarasiga tundra zonasining janubiy chegarasini qo'shib hisoblaganda, qariyb 27 mln. kv. km.ni tashkil etadi.

Arktika havzasi Shimoliy muz okeani dengizlariga chiqish yo'liga ega besh davlatning hududlari bilan tutashib ketadi. Ular quyidagilar: Rossiya, Kanada, Norvegiya, Daniya va AQSH. Shvetsiya, Finlandiya va Islandiya ham Arktika davlatlari bo'lib hisoblanadi, chunki Shvetsiya va Finlandiyaning quruqlikdagi hududining ozgina qismi Shimoliy qutb doirasi chegarasida joylashgan; Islandiya esa Shimoliy qutb bilan chegaradosh. Shimoliy qutb bilan chegaradosh Shimoliy muz okeani qirg'oqlarida, ayniqsa, Rossiyaga tegishli rayonida, aholi yetarli darajada zich joylashgan iqtisodiy markazlar va dengiz portlari joylashgan.

Arktika yerlari va orollari Arktika bilan yondosh davlatlar tomonidan uzoq tarixiy davr davomida o'zlashtirib kelingan. Arktika davlatlari o'rtasidagi hududiy chegaralanish jarayoni ham uzoq kechdi. Bu jarayon XX asrning 30-yillari boshiga kelib tugallandi.

Masalan, Daniya bir necha yuz yil davomida ulkan Grenlandiya orolining faqat janubi-g'arbiy qismini egallab olish bilan kifoyalandi. Ammo 1916-va 1920-yillar orasida Daniyaning Grenlandiya oroliga nisbatan suvereniteti ko'pchilik davlatlar tomonidan tan olindi. Ammo Norvegiya 1922-yili Grenlandiya orolining shimoli-sharqida o'z stansiyasini qurdi va 1931-yili orolning bu qismini Norvegiyaga tegishli deb e'lon qildi. Norvegiya o'zining bunday harakatini Grenlandiyaning shimoliy-sharqiy qismini Daniya yetarli darajada, samarali zabt etmaganligi bilan oqladi. Grenlandiyaning shimoli-sharqiy qismi bo'yicha Daniya va Norvegiya o'rtasidagi nizoni ko'rib chiqqan Xalqaro odil sudlovning doimiy palatasi 1933-yilning 5-aprelida o'z qarorini chiqardi va bu qarorda Daniyaning Grenlandiya oroli ustidan suverenitetini tan oldi. Sud o'z qarorini shimoliy qutb oblastlari tabiatining alohida xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday obyektlar ustidan suverenitet huquqini tan olish uchun samarali zabt etish talabini qo'yish noto'g'ri ekanligi, bunday oblastlarga nisbatan ular kashf qilin-

ganidan so'ng ular ustidan oddiy nazoratni amalga oshirish va bu haqda nota yuborishning o'zi kifoya ekanligi bilan asosladi.

Shimoliy muz okeanidagi barcha yer va orollarning Sovet Ittifoqiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat 1926 yilning 15 aprelida qabul qilingan «Shimoliy muz okeanida joylashgan yer va orollar to'g'risida»gi SSRI Markaziy ijroiya qo'mitasi prezidiumining qarori hisoblanadi.

Bu qaror kashf qilingan orol va yerlar hamda kashf qilinadigan orol va erlarni Sovet Ittifoqining hududi deb e'lon qildi va SSRIning jug'rofiy makonini belgilab berdi. Boshqa davlatlar tomonidan kashf qilingan yerlar va orollar o'zga davlatlarning suvereniteti ostida bo'lishi SSRI hukumati tomonidan tan olindi. Shpitsbergen arxipelagi haqida quyida to'xtalib o'tamiz. Bu rayon SSRIning shimoliy rayoni qirg'oqlarini (hozirda Rossiya Federatsiyasini) qamrab oladi, yon chegaralari bo'lib $32^{\circ}04'35''$ m.d. meridian va $168^{\circ}49'30''$ q.d. meridiani tashkil etadi. 1926-yilning 15-aprelidagi qaror yuqoridagi ko'rsatmani chegaralardagi dengiz makonining huquqiy rejimi va huquqiy maqomi masalalariga taalluqli bo'lmadi.

Boshqa Arktika davlati 1867-yili Buyuk Britaniyadan ajralib chiqib mustaqillikka erishgan Kanada hisoblanadi va u o'zining Arktika rayonidagi chegaralarini belgilab chiqib, o'zini Arktika davlati deb e'lon qildi. 1904-yildayoq Kanadaning rasmiy xaritalarida bu rayon 141° va 60° q.d. meridianlarida Kanada hukumatining ruxsatisiz biror bir faoliyat bilan shug'ullanishni taqiqlab qo'ydi. Keyinchalik 1972-yilning 2-avgustida Kanada Arktikasining chegaralaridagi dengiz muhiti ifloslanishining oldini olishga bag'ishlangan, bu qoidalarga albatta rioya etishni nazarda tutadigan Kanada qonuni kuchga kirdi.

Kanada va Rossiya o'zining hududiy suvereniteti va yurisdiksiyasini o'rnatgan Arktikaning qutb rayonlari xalqaro huquq mutaxassislari tomonidan (R. Voltre, G. Smedal, J. Jirel, Ch. Chayd va boshq.) qutbiy yoki Arktik aktor nomini oldi, ammo manfaatdor davlatlarning o'zlari bunday deb rasmiy nom berganlari yo'q.

Arktika yerlarining boshqa o'zlashtiruvchilari bo'lib Norvegiya va AQSH hisoblanadi. Norvegiyaning Arktika davlati sifatidagi holati Shpitsbergen arxipelagi bilan bog'liqdir. Bir necha yuz yillar davomida bu arxipelagda ruslar, norveglar, shvedlar va boshqa yaqin mamlakatdagi aholilar kelib, baliqchilik va boshqa ishlar bilan

shug'ullanganlar. Uning ikkinchi kashf qilinishi 1596-yil bilan bog'liq bo'lib, o'sha yili golland tadqiqotchisi V. Barens bu arxipelagni kashf qildi. Shpitsbergen birinchi jahon urushi boshlangunga qadar terra nullius («hech kimning yeri emas») bo'lib hisoblangan.

1910-1912- va 1914-yillarda Xristianiya shahrida (Norvegiya) Rossiya, Shvetsiya, Norvegiya ishtirokida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ular Shpitsbergen to'g'risidagi bitim loyahasini muhokama etdilar. Konferensiya ishtirokchilari Shpitsbergen «hech kimning yeri bo'lmasligi», u biror-bir davlat tomonidan anneksiya qilinmasligi va biror-bir davlatning suvereniteti ostida bo'lmasligi, urushlar davrida neytral hudud bo'lishi haqida kelishib oldilar. Birinchi jahon urushi boshlangandan so'ng, konferensiya biror-bir oxirgi qarorga kelmasdan o'z ishini to'xtatdi. Shpitsbergenning hududiy holati keyinchalik AQSH, Buyuk Britaniya va uning dominionlari, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Niderlandiya, Daniya, Norvegiya va Shvetsiya ishtirok etgan 1920-yilgi Parij konferensiyasida belgilab olindi. Sovet Rossiyasi konferensiyaga taklif qilinmaganligi uchun uning ishida ishtirok etmadi. Shpitsbergen to'g'risidagi Shartnoma 1920-yilning 9-fevralida imzolandi. Sobiq Ittifoq bu Shartnomaga 1935-yili qo'shildi. Bundan tashqari turli vaqtlarda Yevropa, Lotin Amerikasi va Osiyo davlatlaridagi 20 dan ortiq davlat bu Shartnomaga qo'shildilar.

Shartnoma ishtirokchilari «bu Shartnomada o'rnatilgan shartlar asosida Shpitsbergen arxipelagi bilan Aiyq oroli ustidan Norvegiyaning to'liq va mutlaq suverenitetini tan olishga» rozi bo'ldilar (1-modda).

Norvegiya shartnoma bo'yicha Shpitsbergen ustidan suverenitet huquqini qo'lga kiritib, o'zining Arktik «sektorini» o'rnatmadi. Chunki Shimoliy muz okeanidagi Norvegiyaning qirg'oqbo'yi uzunligi kichkina bo'lganligi sababli Kanada va ayniqsa, rus «sektorlari» oldida ko'zga ko'rinmay qolar edi. Undan tashqari Norvegiyaning Shpitsbergen bilan Aiyq oroli ustidagi suvereniteti zonasi 1920-yilgi Shartnoma bilan aniq belgilab qo'yilgan edi. Bu Shartnomaga ko'ra uning chegaralari «Grinvichdan 10° va 35° sharqiy uzoqlikdagi hamda 74° va 81° o'rtasidagi shimoliy kenglikdagi barcha orollarni, jumladan, G'arbiy Shpitsbergen, Shimoli-Sharqiy Yer, Barens oroli, Edgi oroli, Uich oroli, Unid oroli yoki Xoken-Eyland va shahzoda Karl Yeridagi orol, orolchalar va qoyalarni» qamrab oladi.

Shimoliy qutb doirasida Norvegiya «sektor» yaratish uchun qulay bo'lmagan, unchalik katta bo'lmagan Yan-Mayen oroliga ham ega.

AQSH ham Arktikada o'zining Amerika «sektorini» yaratgan emas. AQSH 1867-yili Rossiyadan Alyaskani sotib olgandan so'ngina Arktika davlati qatoriga kirdi. Undan tashqari 1867-yilgi Alyaskani AQSHga sotish to'g'risidagi Shartnomaga ko'ra Rossiya va AQSH o'rtasidagi hududning Arktika bo'ylab o'tadigan chegarasini aniqlab berdi.

Yer sharining ko'pgina boshqa rayonlaridan farqli ravishda Shimoliy muz okeani havzasidagi hududiy bo'linish manfaatdor davlatlar tomonidan tinch shaklda amalga oshirildi. Bu hududiy bo'linishning natijasi bu mintaqadagi davlatlarning manfaatiga mos tushdi. Shuning uchun ham Xalqaro odil sudlov palatasi tomonidan 1933-yil 5-apreldagi Sharqiy Grenlandiya to'g'risidagi Norvegiya-Daniya nizosidan boshqa Arktika havzasining biror-bir davlatga tegishli masalalari bo'yicha davlatlararo mojaro kelib chiqmadi. Ammo xalqaro dengiz hududidagi yangi tushunchalar – kontinental shelf va iqtisodiy zonalar tushunchasi paydo bo'lishi bilan bu rayonda ham muammolar paydo bo'ldi.

Antarktikaning xalqaro-huquqiy rejimi. Antarktika – bu Janubiy qutb atrofida joylashgan Yer shari rayonidir. Antarktika hududiga aholisi bo'lmagan Antarktida materigi, uning atrofidagi orollar, shuningdek Atlantika, Tinch va Hind okeanlarining tegishli qismlari kiradi. Ular ba'zan Janubiy va Antarktika okeani deb ham nomlanadi. Antarktikaning umumiy maydoni 50 mln. kv. km. bo'lib, taxminan planetamizning 10 % ini tashkil etadi.

Antarktikaning fizik-jug'rofiy chegarasi bo'lib Antarktika sovuq suvi bilan subtropik issiq suvining qo'shilish (konvergensiya) chizig'i hisoblanadi. Antarktika konvergensiya chegarasi shuningdek fauna va florani qo'shgan holda Antarktikaga xos ekotizim chegarasini ham belgilab beradi.

Butun Antarktika materigi «tog'li cho'qqilardan» tashqari doimo muz bilan qoplangan. Muz qoplamasining o'rtacha qalinligi 1,7 km, maksimal qalinligi 4,4 km.ni tashkil etadi. Antarktikaning muz qoplamalari dengiz tomon harakat qilib, dengiz tubining shelf qismida shelf muzlari deb nom olgan muzliklarni tashkil etadi.

Antarktika hududiga da'volar XX asr boshidagina bir tomonlama rasmiylashtirila boshlandi. Bunda tashabbusni Buyuk Britaniya boshlab berdi. Buyuk Britaniya 1908-yildan boshlab va undan keyingi yillarda bir necha milliy aktlarni qabul qilib, Antraktika rayonlaridagi yer va orollar hamda ularga tutash dengiz suvlari ustidan o'z suverenitetini e'lon qildi. Keyinchalik bu orol va dengiz suvlarining bir qanchasi Yangi Zelandiya va Avstraliya mustaqillikka erishishi sababli, bu ikki mamlakat o'rtasida yuqoridagi masalalar bo'yicha mojaroga sabab bo'ldi.

Angliyaning tashabbusi 1924-yili Fransiya tomonidan davom ettirildi. Keyin Norvegiya 1930-yili F.F. Bellinsgauzen va M.P. Lazarev ekspeditsiyasi kashf qilgan Pyotr I orolini Norvegiya hududi deb e'lon qildi. Shundan so'ng SSRI hukumati 1939-yilning 24-yanvarida nota bilan Norvegiya hukumatiga murojaat etib, Norvegiyaning bu aksiyasini qonuniy xarakterga ega deb tan olmasligini bildirdi va rus dengizchilari tomonidan kashf qilingan yerlar SSRI davlatiga tegishli bo'lishi haqidagi o'z fikrini bayon qildi.

1939-1940-yillarda Argentina va Chili ham o'zlarining «Argentina» va «Chili» Antarktikasiga bo'lgan talabini qo'ydilar. Ularning talabi Folklend oroli ro'parasida joylashgan Antarktika makonlariga tegishli edi. Argentina Folklend orolini ham Argentinaga tegishli deb e'lon qildi. Bu paytda Folklend orolini Buyuk Britaniya egallagan edi. Argentina kartasida Folklend oroli Maldiv deb nomlangan edi. Bu voqea Buyuk Britaniyaning Argentina va Chili bilan munosabatlarini keskinlashtirdi. O'tgan asrning 40-yillari oxiri – 50-yillarining birinchi yarmida Buyuk Britaniya, Argentina va Chili tomonidan harbiy kuchlarning namoyishi va to'qnashuvga olib kelgan bir qancha mojaroli vaziyatlar vujudga keldi.

Ammo mojaroli vaziyatlar bilan birga, Antarktika muammosini o'zaro hamkorlik va bir-birini tushunish asosida hal etish imkoniyatini ko'rsatadigan qulay omillar ham paydo bo'ldi. Bunday omilga Antarktida va unga tutash rayonlarni o'rganish bo'yicha turli mamlakatlar olimlarining Xalqaro geofizika yili (1957-yil 1-iyul – 1958-yil 31-dekabr) davomida birgalikdagi Antarktikada xalqaro hamkorlik faoliyati natijalarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Antarktidaning tabiatini o'rgangan olimlar Yer sharini boshqa qismidagi hayot faoliyati va tabiiy jarayonlarga Antarktikaning ta'siri kattaligi haqidagi ma'lumot-

larni to'pladilar. Xalqaro geofizika yili davomida Antarktika boyligini tinch yo'l bilan o'zlashtirish va Antarktika muammolarini umumiy tinchlik manfaatlari asosida xalqaro tartibga solish va turli mamlakatlarni Antarktikaning tadqiq qilishda birgalikdagi hamkorliklari zarur ekanligi bilindi. Bu holat Antarktika muammosini xalqaro miqyosda hal etishni tezlashtirdi.

1959-yilning 15-oktyabridan 1-dekabrigacha Vashingtonda Antarktika bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda konferensiya chaqirilguncha Antarktidada ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan 12 davlatning vakillari qatnashdi. Ular tarkibiga Antarktika rayonlariga hududiy da'voni ilgari surgan davlatlar (Avstraliya, Argentina, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Fransiya va Chili) va bunday da'volarni tan olmagan davlatlar (Belgiya, SSRI, AQSH, Janubiy Afrika Ittifoqi va Yaponiya) ham kirgan edi. 1959-yilning 1-dekabrida konferensiya Antarktika to'g'risida Shartnomani qabul qildi va bu Shartnoma Antarktikaning xalqaro-huquqiy rejimini belgilab berib, xalqaro hayotda muhim voqea bo'lib qoldi.

Antarktika to'g'risidagi Shartnomaning I-moddasi 1-bandida quyidagilar yozib qo'yilgan: «Antraktikadan faqat tinchlik maqsadlarida foydalaniladi. Harbiy xarakterdagi har qanday tadbirlar, jumladan, harbiy baza va istehkomlar yaratish, harbiy mashqlar o'tkazish, shuningdek har qanday qurolni sinab ko'rish qat'ian taqiqlanadi».

Shunday qilib, yer sharining ulkan bir qismi – butun bir materik va unga tutash butun bir rayon – xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta tinchlik zonasiga aylantirildi. Bu hudud chegarasida har qanday harbiy faoliyat taqiqlanadi va faqat tinch maqsaddagi (harbiy bo'lmagan) faoliyatga ruxsat beriladi. Shartnoma bilan har qanday harbiy tadbirlarni taqiqlash, Antraktika urush davrida ham, tinchlik davrida ham militarizatsiya qilinmasligini bildiradi. Shuning bilan birga «harbiy xarakterdagi har qanday tadbirlarni» taqiqlash Antraktika harbiy harakatlar va qurolli mojarolar joyi bo'la olmasligidan guvohlik beradi, ya'ni bu hudud neytral hudud hisoblanadi.

Shu bilan bir vaqtda, Antarktika to'g'risidagi Shartnoma «ilmiy tadqiqotlarni jihozlashda yoki har qanday tinchlik maqsadlari uchun harbiy personaldan» foydalanishga to'sqinlik qilmaydi. Bu qoida bir qator konferensiya ishtirokchilarining takliflari bilan kiritilgan edi. Ular Antarktikaning bunday og'ir va qiyin sharoitlarida faqat harbiy

personal va harbiy jihozlarni ishlatish orqaligina tinchlik maqsadlarida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishi mumkin deb fikr bildirdilar. Bu masalada har qanday suiiste'molning oldini olish maqsadlarida Shartnoma unda ishtirok etayotgan davlatlarga «Antarktikaga jo'natish uchun har qanday harbiy personal yoki jihozlar to'g'risida shartnomaning 1-moddasi 2-bandida nazarda tutilgan shartlarga rioya etgan holda» bir-birlariga axborot berish majburiyatini yuklaydi.

Keyinchalik shartnoma ishtirokchilari bu axborot nimalardan iborat bo'lishi kerakligi haqida kelishib oldilar. Unga ko'ra axborotda dengiz kemalarining, samolyotlarning va shartnoma amal qiladigan rayonga kiritiladigan boshqa transport vositalarining turlari, tuzilishi va qurol turlari, ularning kelib-ketish vaqti, shuningdek ekspedit-siyaning yo'nalishi haqida kelishib olindi. Undan tashqari, Shartnoma ishtirokchilari unda nazarda tutilgan normalarning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat tizimini joriy qildilar.

Antarktika to'g'risidagi Shartnomaning eng ko'zga ko'ringan moddalaridan biri V-modda hisoblanadi. Unda shunday so'zlar mavjud: «Antarktikada har qanday yadroviy portlatishlarni amalga oshirish va radioaktiv moddalarni joylashtirish taqiqlanadi» (1-band). Antarktikada harbiy va tinchlik maqsadlarida yadro portlatishlarining taqiqlanishi Shartnomadagi Antarktikada harbiy tadbirlarni amalga oshirish mumkin emasligi haqidagi qoidani yanada to'ldiradi va uni mustahkamlaydi. Har qanday yadro portlatishlarini hamda radioaktiv moddalarni bu rayonga joylashtirishni taqiqlash Antarktikani yadrosiz zonaga aylantirish imkonini beradi. Ammo shartnoma Antarktikada yadro texnikasi va yadro jihozlaridan foydalanishni taqiqlaydi. Shartnoma Antarktikada ilmiy tadqiqotlar o'tkazish erkinligini e'lon qiladi. Shartnomaning II-moddasida quyidagilar yozib qo'yilgan: «Antarktikada ilmiy tadqiqotlar erkinligi va bu maqsadlarda hamkorlik qilish, Xalqaro geofizika yilida bo'lgani kabi, yanada davom ettiriladi». Xalqaro geofizika yili davomida Antarktikada tinchlik maqsadlarida ilmiy tadqiqotlar olib borish erkinligi biror-bir huquqiy hujjat bilan cheklanmagan edi. Har qanday davlat va uning fuqarolari, shuningdek xalqaro tashkilotlar Antarktika rayonida hech qanday to'siqlarsiz ilmiy tadqiqotlar olib borishi mumkin edi. Shartnomada bu muhim prinsip mustahkamlab qo'yildi. Antarktikadagi ilmiy tadqiqotlarda

xalqaro hamkorlikka yordam berish uchun shartnoma ishtirokchilari ilmiy ish rejaları, ilmiy kuzatishlar, shuningdek Antarktikadagi stansiyalar va ekspeditsiyaning ilmiy personallari bilan axborot almashishga kelishib oldilar. Antarktikada ilmiy va texnik ishlar olib borishdan manfaatdor bo'lgan BMTning maxsus tashkilotlari va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ishchan hamkorlik munosabatlarini har tomonlama rag'batlantirishga kelishib olindi.

Antarktika to'g'risidagi Shartnomaning muhim yutug'i shunda bo'ldiki, Shartnoma ishtirokchilari hududiy masalalar bo'yicha davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf qilishga erishdilar.

Murakkab hududiy muammolar bo'yicha murosaga kelingan qaror Antarktika to'g'risidagi Shartnomaning IV-moddasida yozib qo'yildi. Unga ko'ra, Shartnomaning biror-bir qoidasi «Antarktikada hududiy suverenitet da'vo qilgan yoki o'z hududi haqidagi bayonotlarini Kelishilgan tomonlar rad qiladi» deb, yoki ikkinchi tomondan «Antarktikada hududiy suverenitetga da'vo uchun u yoki bu asosni qisqartirish rad qilinadi», deb izohlanishi mumkin emas edi. Shunday qilib, Shartnoma ishtirokchilarining bir tomoni Antarktikada bo'lgan hududiy da'vosidan voz kechmadilar, ikkinchi tomoni esa ana shunday da'voni ilgari surish uchun o'z asoslaridan voz kechmadilar. Shuning bilan birga Shartnomadagi hech bir narsa «davlatlarning Antarktikada hududiy suverenitetga bo'lgan da'vo uchun moslarini yoki ularning huquq va da'volarini tan olish yoki tan olmaslikka nisbatan kelishilgan Tomonlarning pozitsiyasiga zarar keltiradigan holda» izohlanmasligi kerak (IV-modda, «s» bandi). Shunday qilib, davlatlarning Antarktikaga bo'lgan hududiy muammolarini hal etishdagi turli xil yondashuv bo'yicha pozitsiyalari, Shartnoma amalda bo'lgan davr uchun to'xtatilib turiladigan bo'ldi. Antarktika bo'yicha Shartnoma Antarktikaga hududiy da'vo masalalari mavjud turli pozitsiyalarni bir maromga keltirdi. Ammo Shartnoma ishtirokchilari hududiy masalar yuzasidan barqaror holat yaratishda yanada ilgarilab ketdilar. Shartnomada shunday so'zlar bor: «Shartnoma hozircha o'z kuchini yo'qotmas ekan, hech qanday harakat yoki faoliyat Antarktikadagi hududiy suverenitetga bo'lgan da'voni qo'llab-quvvatlash yoki rad etish uchun asos yaratmaydi va Antarktikaga bo'lgan suveren huquqni ham yaratmaydi. Shartnoma o'z kuchida bo'lgan davrda Antarktikaga hududiy

suverenitet da'vosini kengaytirish yoki hech qanday yangi da'volarni ilgari surishga hech kim haqli emas».

Yuqorida bayon qilingan, Shartnoma ishtirokchilarining barchasi uchun ma'qul bo'lgan Antarktikaga hududiy suverenitet yoki hududiy da'volar to'g'risidagi masalalarning hal etilishi, Antarktikadan faqat tinchlik maqsadlarida foydalanishni ta'minlash uchun va Shartnomada nazarda tutilgandek, u yerda butun insoniyatning manfaatlari uchun ilmiy tadqiqotlar erkinligini amalga oshirish uchun keng yo'l ochildi.

Hududiy da'volar to'g'risidagi masalalar bilan Antarktikaning turli rayonlarida ishlayotgan kishilarning yurisdiksiyasi to'g'risidagi masala bog'liqdir. Buyuk Britaniya Antarktika yerlariga da'vo qilgan bo'lsa-da, konferensiyada Shartnomaga quyidagi moddani kiritishni taklif qildi. Antarktikaning har qanday qismida bo'ladigan shaxs qaysi davlatning fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning yurisdiksiyasiga bo'ysunadi.

Bu masalani muhokama qilish chog'ida Shartnomaning VIII-moddasida qayd qilingan quyidagi murosaga keltiruvchi qaror qabul qilindi. «Har bir Shartnomaga imzo chekkan Tomonlarning pozitsiyasiga zarar keltirmagan holda, Antarktikadagi kuzatuvchilar VII-moddaga asosan tayinlanadigan ilmiy personal, shuningdek kuzatuvchi va ilmiy personalning oila a'zolari va ularni olib yuradigan boshqa shaxslar Antarktikada o'z funksiyalarini amalga oshirish jarayonida qaysi davlatning fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning yurisdiksiyasida bo'ladi».

Antarktika to'g'risidagi Shartnoma qoidalarini konkretlashtirish va takomillashtirish, unga rioya etilishini ta'minlash mexanizmiga sezilarli o'rin ajratadi. Bu mexanizmning eng muhim elementlaridan biri, maxsus sessiyalarni hisobga olmaganda, ikki yilda bir marta chaqiriladigan Shartnoma ishtirokchilarining maslahat yig'ilishi hisoblanadi. Maslahat yig'ilishi axborot almashish, Antarktika masalalari bo'yicha o'zaro maslahatlar, shuningdek Shartnomaning maqsad va prinsiplarini amalga oshirishga yordam beruvchi ishtirokchi davlatlar hukumatlarining tavsiyalari va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun chaqiriladi. Ular quyidagilar:

- * Antarktikadan faqat tinchlik maqsadlarida foydalanish;
- * Antarktikadagi ilmiy tadqiqotlarga ko'maklashish;
- * Antarktikadagi xalqaro ilmiy hamkorlikka ko'maklashish;

* Shartnomada nazarda tutilgan inspeksiya huquqini amalga oshirishga ko'maklashish;

* Antarktikadagi yurisdiksiyaga tegishli masalalar;

* Antarktikadagi resurslarni muhofaza qilish va saqlash.

Antarktika to'g'risidagi Shartnomaga rioya etilishini ta'minlash mexanizmining ikkinchi bir muhim elementi Shartnomaning VII-moddasida nazarda tutilgan inspeksiya tizimi hisoblanadi. Bu moddaga asosan, Maslahat yig'ilishi ishtirokchisi maqomiga ega davlatlar muhim va keng vakolatlarga ega bo'lgan kuzatuvchilarni o'z fuqarolari jumlasidan tayinlash huquqiga ega. VII-moddaga asosan tayinlangan har bir kuzatuvchi «Antarktikaning barcha rayonini yoki har qanday hududini har qanday vaqtda erkin ko'zdan kechirib chiqish huquqiga ega» bo'ladi. Antarktikaning barcha rayonlari, bu rayondagi stansiyalar, qurilma va jihozlar, shuningdek yuklarni ortish va tushirish punktlaridagi dengiz va havo kemalari yoki Antarktikadagi personal doimo kuzatuvchilar inspeksiyasi uchun ochiq bo'lishi kerak.

Havodan kuzatuvlar olib borish, kuzatuvchilar tayinlash huquqiga ega har bir Shartnoma ishtirokchilari tomonidan Antarktikaning barcha rayonlari yoki har qanday hududda har qanday vaqtda amalga oshirilishi mumkin. Inspeksiya nazoratiga ko'maklashish uchun Antarktikaning har tomonlama faoliyatiga tegishli axborotlarni oldindan almashishga kelishib olingan. Antarktikada inspeksiya o'tkazish huquqiga deyarli ko'pchilik davlatlar, jumladan Avstraliya, Argentina, Buyuk Britaniya, AQSH va boshqalar egadir. Inspeksiya Shartnoma amal qiladigan barcha rayonlarda amalga oshiriladi. Shartnomaning VI moddasida quyidagilar yozib qo'yilgan: «Bu Shartnomaning qoidalari 60-parallel janubiy kenglikning janubrog'idagi rayonlarga qo'llaniladi, ammo bu Shartnoma xalqaro huquq tomonidan tan olingan bu rayonlardagi ochiq dengizga nisbatan davlatlarning huquqlarini amalga oshirishga xalaqit bermaydi, ularning huquqlarini hech bir yo'l bilan kamsitmaydi». Bu qoida sharhlashga muhtoj. Antarktika to'g'risidagi Shartnoma qoidalari 60-parallel janubiy kengligining janubrog'ida joylashgan rayonlarga, ya'ni Antarktida materigi va bu rayonda joylashgan barcha orol va muz shelflarga qo'llanilishi shubhasizdir.

Ammo, bizga ma'lumki, Antarktikaning qirg'oqbo'yi shelflarida joylashgan muzliklar ikki kategoriyaga bo'linadi:

a) quruqlikning ustidan ko'chib tushgan muz (materik muzi), va

b) dengiz suvining muzlashi natijasida hosil bo'ladigan muz. Ular dengiz qirg'og'ini o'rab olgan muz bilan materik muzi orasida joylashgan katta muz bo'lagidir (siljimas muz).

Siljimas muzlardan aysberglar hosil bo'ladi. Siljimas muzlarning doimiy maydoni kemalar qatnovi uchun to'g'ri kelmaydi. Ammo ulardan baza va inshootlar qurishda foydalansa bo'ladi. Fikrimizcha, shu sababli Shartnoma bu ikki kategoriya muzliklar o'rtasidagi farqni ajratmay, ularni bir butun «shelf muzlari» deb nomladi. VI-moddada quyidagi ko'rsatma mavjud: «Antarktika to'g'risidagi Shartnoma amalda bo'lgan hududda ochiq dengiz qismi ham mavjud bo'lib, ochiq dengizning bu qismida Shartnoma xalqaro huquqda nazarda tutilganidek har qanday davlatning huquqlariga hech qanday daxl qilmaydi va ularning huquqlarini kamaytirmaydi. Antarktika to'g'risidagi Shartnoma qabul qilingan va kuchga kirgan paytgacha bunday huquqlarga quyidagilar kirar edi; kemalar qatnovi erkinligi, baliq ovlash erkinligi, ochiq dengiz ustidan parvozlar erkinligi va ochiq dengiz tubidan suv osti telegraf kabellari va trubalarini yotqizish erkinligi. Ammo bu erkinliklar Shartnoma amal qiladigan rayonlarda, o'z navbatida, Shartnoma qoidalariga rioya etish orqali amalga oshiriladi, jumladan, Shartnomaning I-moddasiga ko'ra, Antarktikadan faqat tinchlik maqsadlarida foydalaniladi.

Shartnoma amal qiladigan rayon hududida, jumladan, ochiq dengiz qismida ham yadro portlatishlarini (hatto tinchlik maqsadlarida ham) amalga oshirish mumkin emas, shuningdek radioaktiv chiqindilarni shartnoma amal qiladigan rayon hududiga chiqarib tashlash mumkin. Bunday faoliyat Shartnomaning V-moddasi bilan tasdiqlangan. Shartnomaning X-moddasi Shartnoma ishtirokchilariga BMT Ustavini asosida Antarktikada Shartnomaning maqsad va prinsiplariga to'g'ri kelmaydigan biror-bir faoliyatni amalga oshirmaslik uchun o'zining butun kuchini ishga solish majburiyatini yuklaydi. Bu modda Shartnomada ishtirok qilmaydigan davlatlarning faoliyatiga ham tegishli hisoblanadi.

Shartnomaning XI-moddasiga asosan ikki yoki bir necha tomonlarning Shartnomani qo'llash va sharhlashga nisbatan fikrlari har xil chiqsa, nizoda ishtirok etayotgan tomonlarning kelishuviga asosan tinch vositalar bilan hal etiladi. Har qanday nizo tinch yo'l bilan hal etilmas ekan, nizoda ishtirok etayotgan har bir tomonning roziligi asosida, bu nizo hal etilishi uchun BMTning Xalqaro Sudiga topshirish

haqidagi ahdlashuvga erishilmagan taqdirda, tomonlar BMT Ustavida tan olgan nizo, nizolarni tinch vositalar bilan hal etish majburiyatidan ozod etilmaydi.

Antarktika to'g'risidagi Shartnoma BMTga a'zo bo'lgan har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiqdir, yoki boshqa har bir davlat, Shartnoma ishtirokchilari bo'lgan davlatlarning Maslahat yig'ilishida ishtirok etuvchi vakillarning roziligi bilan, Shartnomaga qo'shilishga taklif qilinishi mumkin. Hozirgi paytga kelib Shartnomaning 12 ta boshlang'ich a'zosidan tashqari yana 14 ta davlat Shartnomaning Konsultativ yig'ilishida o'z vakiliga ega, yana 12 ta davlat Shartnoma ishtirokchilari hisoblansa-da, Konsultativ yig'ilishda o'z vakiliga ega emas. Bu 38 davlatning ko'pchiligi rivojlangan davlatlardir.

Antarktika to'g'risidagi Shartnoma muddatsizdir. Shartnomaga Shartnomaning Konsultativ yig'ilishiga a'zo bo'lgan barcha vakillarning roziligi bilan tuzatishlar, o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Antarktika to'g'risidagi Shartnoma 1961-yilning 23-iyunida kuchga kirdi.

Shartnomaning kuchga kurishi, yer sharining oltinchi qit'asida yangi xalqaro-huquqiy maqom, qurollardan va harbiy kuchlardan holi hudud maqomini mustahkamladi. Bunday xalqaro-huquqiy maqomning mustahkamlanishi, birinchidan, ayrim davlatlarning Antarktikaga bo'lgan hududiy e'tirozlaridan voz kechishga, ikkinchidan, Antarktikadan tinch maqsadlarda, insoniyat manfaatleri yo'lida foydalanish va uchinchidan, uning hududini harbiy operatsiyalar va urush sahnasidan butunlay chiqarib tashlashga yordam berdi. Antarktika to'g'risidagi Shartnomaga qo'shimcha ravishda qabul qilingan Protokol va Konsultativ kengash rezolutsiyalari Shartnoma tizimini yanada to'ldirdi.

Ochiq osmon, osmon jismlari va Oying xalqaro-huquqiy rejimi. Kosmik kenglik yer hududi chegarasidan tashqarida bo'lib, uning huquqiy rejimi xalqaro koinot huquqi prinsiplari va normalari, xususan, fazo kengligi, shu jumladan oy va boshqa fazo jismlari kengligini tadqiq qilish va undan foydalanish yuzasidan davlatlarning faoliyati prinsiplari to'g'risidagi 1967-yil 27-yanvardagi Shartnoma bilan belgilanadi.

Ochiq kosmos va barcha fazoviy jismlar (Quyosh, Oy, sayyoralar va boshqa) biror-bir yo'l bilan milliy o'zlashtirilishi mumkin emas va barcha davlatlarga tenglik asosida tadqiq qilish va foydalanish uchun ochiqdir.

Hozirgi kunda ushbu shartnoma bilan bog'liq yangi muammo vujudga keldi. Shartnomada aytilishicha, ochiq fazo va barcha fazoviy jismlarning milliy o'zlashtirilishi, ya'ni davlatlar tomonidan o'zlashtirilishi taqiqlanadi. Jismoniy va yuridik shaxslar haqida esa so'z yuritilmagan. Bu holatdan foydalangan AQSH va boshqa G'arb davlatlarining ayrim fuqarolari oy va boshqa fazoviy jismlarda yer uchastkalarini keng miqyosda sotishga tushishgan. Bu holat xalqaro-huquqiy oqibatlariga olib kelmasa-da, shartnomaning, shu bilan birga xalqaro fazo huquqi hamda fazoviy jismlarning xalqaro-huquqiy maqomiga u yoki bu darajada putur etkazmoqda.

Sof xalqaro rejimli hududlardan ayrim davlatlar hududida o'zaro kelishuv asosida o'rnatiladigan xalqaro rejimni farqlash lozim. Bunday hududlarga xalqaro daryolar, xalqaro kanallar, xalqaro bo'g'ozlar va qo'ltiqlar kiradi.

Xalqaro (transchegaraviy) daryolar. Ikki yoki undan ortiq davlatlar hududidan oqib o'tadigan va shubhasiz, qirg'oqbo'yi davlatlar o'rtasidagi xalqaro-huquqiy munosabatlarning predmeti bo'lgan daryolarni xalqaro daryolar deb hisoblash lozim.

Xalqaro daryolardan farqli ravishda, milliy daryolar butunlay bir davlat chegarasida joylashgan bo'ladi va boshqa mamlakatlarning manfaatlariga bevosita daxldor bo'lmaydi.

Xalqaro kema qatnovlari hozirgi paytda xalqaro daryolarning yagona mezonini hisoblanmaydi, chunki bu daryolarning suvlaridan sanoat va qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish rivojlangan. Xalqaro daryolarning bir necha davlat hududini kesib o'tishi yoki ajratib turishi qirg'oqbo'yi davlatlar manfaatlarining o'zaro bog'liqligini, bu esa ularning mazkur daryoga nisbatan o'zaro huquqlari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Bu yerda asosiysi har qanday qirg'oqbo'yi davlati xalqaro daryoning suvidan shunday foydalanishi kerakki, bu holat shu daryoning suvlaridan boshqa biror qirg'oqbo'yi davlatining foydalanish huquqiga sezilarli zarar yetkazmasligi kerak. Umuman olganda, barcha qirg'oqbo'yi davlatlari xalqaro daryoning suvidan foydalanishda teng huquqlarga egadir. Yuqorida ko'rsatilgan maq-

sadlarda xalqaro daryoning suvidan foydalanish barcha qirg'oqbo'yi davlatlari o'rtasida tegishli shartnoma tuzilishi zarurligiga olib keladi.

Xalqaro daryolar odatda bir necha davlatlarning hududini kesib o'tadigan, xalqaro kema qatnovi uchun ochiq bo'lgan daryolarga va odatda bir nechta davlatning hududini ajratib turadigan chegara daryolariga bo'linadi. Biroq bu tasnif shartlidir. Chunki bir daryoning o'zi bir uchastkada bir nechta davlatlarning hududini kesib o'tishi, boshqa uchastkada esa – ularni ajratishi mumkin. Shuningdek, xalqaro kema qatnovi rejimi ham chegara daryosida mavjud bo'lishi va bir nechta davlatning hududini kesib o'tadigan daryoda mavjud bo'lmasligi mumkin. Lekin barcha hollarda ham bular xalqaro daryolar hisoblanadi, chunki hatto xalqaro shartnoma bo'lmaganda ham qirg'oqbo'yi davlatlari bu daryolardan har qanday tarzda foydalanishga nisbatan ma'lum huquqlar va majburiyatlar bilan bog'langan.

Xalqaro daryolardagi kema qatnovi. Xalqaro daryolardagi kema qatnovi rejimi qirg'oqbo'yi davlatlarning o'zlari tomonidan belgilanishi kerak. Faqat qirg'oqbo'yi davlatigina boshqa davlat hududi tarkibiga kiradigan daryolardan o'z kemalarini olib o'tish huquqiga ega va ushbu holat ham qirg'oqbo'yi davlatlari o'rtasidagi shartnoma asosida va uning shartlariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi mumkin. Ayni paytda, o'z savdosi manfaatlari yo'lida qirg'oqbo'yi davlatlari barcha davlatlarning savdo kemalari uchun kema qatnovi erkinligini beradi. Lekin bu ularning majburiyati emas, huquqi hisoblanadi. Shuning uchun, agar xalqaro shartnomada boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa, qirg'oqbo'yi davlati bo'lmagan davlatning kemalari xalqaro daryolardan o'tish huquqiga ega emas.

Xalqaro ahamiyatga molik navigatsiya suv yo'llari rejimi to'g'risidagi 1921-yilgi Barselona konvensiyasi va Statuti xalqaro daryolar haqidagi bir qator qoidalarni o'z ichiga oladi. Biroq bu qoidalar keng tarqalmadi. Ularni qayta ko'rib chiqish masalasi Xalqaro huquq assotsiatsiyasida ko'tarildi. Bu Assotsiatsiya o'zining 1966-yilgi Xelsinki konferensiyasida xalqaro daryolar suvlaridan foydalanishning turli shakllari bo'yicha moddalar loyihalarini ishlab chiqdi va qabul qildi. Ushbu hujjatga muvofiq har bir qirg'oqbo'yi davlati xalqaro daryoning butun yo'nalishi bo'ylab erkin kema qatnovi huquqiga ega. Qirg'oqbo'yi davlatlari bunday huquqni qirg'oqbo'yida joylashmagan davlatlarga ham berishlari mumkin. Xelsinki qoidalari rasmiy konven-

siya hisoblanmaydi. Lekin uning ko'plab qoidalari xalqaro huquqning rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi.

Hozirgi kunda xalqaro daryolar bo'ylab xorijiy kemalarning o'tishi shartlari va qoidalari har bir konkret holatda qirg'oqbo'yi davlatlarining tegishli kelishuvlari bilan belgilanadi. Bunday bitimlar odatda qirg'oqbo'yi davlatlari uchun, ba'zan esa barcha mamlakatlar uchun kema qatnovi erkinligini nazarda tutadi. Bu bitimlarning bajarilishiga ko'maklashish maqsadida qirg'oqbo'yi davlatlarining vakillaridan iborat tarkibda daryo komissiyalari tuzilgan. *Dunay, Reyn, Niger, Kongo, Mekong, Amazonka va shu kabilar xalqaro daryolar hisoblanadi.*

Amudaryo va Sirdaryo, ularning xalqaro maqomini o'rnatuvchi xalqaro shartnoma qabul qilinmaganligi uchun trans chegaraviy daryolar deb yuritiladi.

Dunay bo'ylab xalqaro kema qatnovi Dunay bo'ylab kemalar qatnovi rejimi to'g'risidagi 1948-yilgi Konvensiyaga muvofiq tartibga solinadi. Konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, port va navigasiya yig'implari hamda savdo kemalari qatnovi ushbu modda shartlari asosida barcha davlatlarning savdo kemalari va tovarlari uchun Dunay bo'ylab navigatsiya, erkin va ochiq deb e'lon qilingan. Dunay bo'yida joylashmagan barcha mamlakatlarning harbiy, politsiya va bojxona kemalarining Dunay bo'ylab suzishi man qilinadi. Dunaybo'yi mamlakatlarning vakillaridan tashkil topgan komissiya konvensiyaning bajarilishini nazorat qiladi, qirg'oqbo'yi mamlakatlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi, bu sohada ularning hamkorligiga ko'maklashadi, konsultatsiyalar o'tkazadi, tavsiyalar ishlab chiqadi va h.k.

Xalqaro bo'g'ozlarning xalqaro-huquqiy rejimi. Xalqaro bo'g'ozlar – bu xalqaro shartnomalar, odat va milliy qonunlar bilan tartibga solinuvchi dengiz va okeanlarning (yoki ularning qismini) birlashtirib turuvchi nisbatan tor suvl makonidir¹.

Xalqaro bo'g'ozlar davlatlarning to'liq tengligi asosida va bu bo'g'ozlar bo'g'ozoldi davlatlarining hududiy suvlari bo'lishidan qat'iy nazar, barcha davlatlarning harbiy va savdo kemalari o'tishi uchun ochiqdir. Hozirda xalqaro kemalar qatnovi uchun foydalaniladigan 300 dan ortiq bo'g'ozlar mavjud.

¹ Лопатин М.И. Международные проливы и каналы: правовые вопросы. – М., 1985. – С. 46.

Gibraltar, La-Mansh, Pa-de-Kale, Bab-al-Mandab, Singapur, Mallak, Magellan bo'g'ozlari muhim xalqaro bo'g'ozlar hisoblanadi. Tinchlik sharoitlarida ham, harbiy vaqtlarda ham bo'g'ozlar orqali suzish harbiy va savdo kemalari uchun erkin hisoblanadi. 1982-yilgi BMT konvensiyasi xalqaro bo'g'ozlardan o'tishda «tranzit» va «tinchlik» yo'laklarini o'rnatadi.

*Tranzit yo'lagi – kemalar va uchuvchi apparatlarning bo'g'ozlar orqali ochiq dengiz yoki iqtisodiy zonalarining bir qismidan ikkinchi bir qismiga tez va to'xtovsiz tranzitni amalga oshirishini bildiradi*¹.

Tranzit o'tish davridagi kemalar va uchish apparatlarining majburiyatlari Konvensiyaning 39-moddasida nazarda tutilgan (bo'g'ozdan tezlikda o'tish, har qanday kuch ishlatishdan o'zini tiyish, umum e'tirof etilgan xalqaro qoidalarga rioya qilish, dengiz xavfsizligiga rioya etish va shu kabilar). Ammo tez va to'xtovsiz o'tish to'g'risidagi talab, bo'g'ozlar bilan chegarada bo'lgan davlatlarga kirish, chiqish va u davlatlarga qaytib kelishlar uchun qo'llanilmaydi. Bu davlatlarning ichki suvlari va portlariga kirish uchun u bo'g'ozoldi davlatlarning talablariga rioya qilish kerak.

Tinchlik yo'lagi ochiq dengiz rayoni va chet el davlati hududiy dengizi bilan bo'g'oz o'rtasida qo'llaniladi.

Boltiq va Magellan bo'g'ozlariga nisbatan harbiy kemalar suzishining maxsus rejimi tarixan tarkib topgan va shartnoma asosida mustahkamlangan.

Qora dengiz bo'g'ozlari (Bosfor, Marmar dengizi va Dardanel-la). Qora dengizni O'rta yer dengizi bilan birlashtiradigan birdan-bir suv yo'li bo'lib hisoblanadi.

Qora dengiz orqali suzish 1936-yil 20-iyulda Montryoda bo'g'ozoldi davlati sifatida Turkiya va Qora dengiz bo'g'ozida kemalari qatnaydigan davlatlar bilan tuzilgan. Qora dengiz bo'g'ozining rejimi, xuddi shunday nomlanuvchi Konvensiya bilan tartibga solinadi. Konvensiya sanitariya nazorati, losmanni o'tkazish va bir qator yig'implarni to'lashdan boshqa hech qanday rasmiyatchiliklarsiz savdo kemalarining bo'g'ozdan o'tishiga to'la erkinlik o'rnatadi.

Boltiq bo'g'ozini (Katta va Kichik Bolta, Zund). Boltiq dengizini Shimoliy dengiz va Atlantika okeani bilan birlashtiradigan birdan-bir

¹ Ст. 38 Конвенция ООН по морскому праву 1982 г.

suv yo'li hisoblanadi. Boltiq bo'g'ozini orqali suzish Bo'g'ozoldi davlati sifatida Daniya va Boltiq bo'g'ozidan o'z kemalari uchun doimo foydalanadigan davlatlar o'rtasida imzolangan 1857-yilgi Traktat bilan tartibga solinadi.

Magellan bo'g'ozini. Janubiy Amerika materigi bilan Olovli Yer o'rtasidagi Atlantika va Tinch okeanini birlashtirib turadi. Bo'g'ozining ikkala qirg'og'i ham Chiliga tegishli. Bo'g'oz kengligi 2 mildan 21,7 milgacha yetadi.

Bo'g'ozdagi rejim 1881-yili 23-iyulda Chili va Argentina o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida o'rnatilgan. Bo'g'oz neytral va qurolsizlantirish holatiga keltirgan hamda davlatlarning savdo va harbiy kemalari erkin suzishi uchun ochiqdir. Ammo Ikkinchi jahon urushi davrida, 1941-yilning 10-dekabrida Chili va Argentina yangi shartnoma tuzib, bo'g'ozning neytral va qurolsizlantirish holatini bekor qildi, harbiy istehkomlarni qurdi va kemalar qatnovi ustidan nazorat o'rnatdi. 1947-yilning 2-sentabrida Rio-de-Janeyroda imzolangan o'zaro yordam to'g'risidagi Amerikalalararo shartnomaga ko'ra Magellan bo'g'ozining hozirgi maqomi o'rnatildi¹.

Xalqaro kanallarning xalqaro-huquqiy rejimi. Xalqaro kanallar – bu ma'lum bir davlat yoki davlatlar hududida joylashgan va uning suvereniteti ostida bo'lgan, xalqaro normalar asosida barcha davlatlarning harbiy va savdo kemalari suzishi uchun ochiq bo'lgan, xalqaro ahamiyatga ega, inson tomonidan sun'iy ravishda yaratilgan suv yo'lidir.

Xalqaro kanallar sirasiga Suvaysh, Panama va Kil kanallari kiradi.

Suvaysh kanali O'rta yer dengizini Qizil dengiz bilan birlashtirib turadi hamda xalqaro savdo va harbiy kemalar qatnovi uchun juda katta ahamiyatga ega. Suvaysh kanali 1869-yildan ishga tushgan, uning rejimi 1888-yilning 29-oktyabrida Suvaysh kanalida erkin suzishni ta'minlashga bag'ishlangan Konstantinopol konvensiyasi bilan tartibga solinib turiladi. Suvaysh kanali 1956-yilgacha, tepasida ingliz-fransuz kapitalining vakillari turgan umumjahon kompaniyasining mulki hisoblangan. Misr Arab Respublikasi prezidentining 1956-yil 26-

¹ Международное право: Учебник / Под. ред. Н.Т. Блатовой. – М., 1987. – С. 388-391.

iyuldagi Dekreti bilan kompaniya milliylashtirilib, uning asoratga soluvchi konsession shartnomalari bekor qilindi.

Kanal tinchlik va urush davrida ham barcha davlatlarning savdo va harbiy kemalari uchun ochiqdir. Kanaldan chet el harbiy kemalari o'tishi uchun MAR hukumatiga o'n kun oldin xabar jo'natish zarur. Kanaldan o'tish, to'lov asosida kanal ma'muriyatidan o'tish guvohnomasini olgandan so'ng kanalning rulchi va signalchilaridan foydalan-gan holda amalga oshiriladi.

Agar MAR davlati biror-bir davlat bilan urush holatida bo'lsa, u davlat kanaldan erkin o'tishga da'vo qila olmaydi. Kanal ikki marta izdan chiqarilgan: birinchi marta 1956-yili Angliya, Fransiya va Isroilning Misrga qarshi agressiyasi paytida va ikkinchi marta Isroilning 1967-1974-yillardagi Misrga qilgan agressiyasi davrida.

Panama kanali Panama davlati hududida joylashgan bo'lib, Atlantika va Tinch okeanlarini birlashtirib turadi. Kanal 1903-yil 18-noyabrda AQSH va Panama o'rtasidagi Shartnoma asosida qurilgan.

1977-yili AQSH va Panama o'rtasida tuzilgan Panama kanali to'g'risidagi yangi Shartnoma ilgarigi shartnomani bekor qildi, Amerika anklavi – «kanal zona»sini tugatdi, zonani boshqarish va kanalni ekspluatatsiya qilish bilan shug'ullangan AQSHning ilgarigi ma'muriy-yuridik organlari ham tugatildi.

1991-yilning 31-dekabridan so'ng kanal va uning yordamchi inshootlari to'liq Panamaga o'tdi.

1977-yilda imzolangan AQSH va Panama o'rtasidagi kanalning betarafli va foydalanishga bag'ishlangan shartnoma barcha davlatlarning kemalari uchun va tinchlik davrlarida teng asosda, bir-birini kamsitmagan holda foydalanish imkonini beradi (III-modda). Ammo shartnoma AQSH harbiy kemalariga kanaldan tez o'tish huquqini beradi (IV-modda), neytralitet BMT tomonidan emas, balki AQSH va Panama tomonidan kafolatlanadi.

Kil kanali Boltiq dengizini Shimoliy dengiz bilan birlashtiradi va GFR hududidan o'tib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. U barcha Boltiqbo'yi davlatlari uchun katta iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo'lib, Boltiq bo'g'oziga nisbatan yo'li qisqadir. Kil 1895-yildan ishga tushgan. Hozirgi paytda Kil kanalidagi kemalar qatnovi GFR qonunlari va uning boshqa davlatlar bilan tuzgan bitimlari bilan tartibga solinib turadi.

Kil kanalida suzish qoidalari chet el savdo kemalariga kunning istalgan vaqtida ruxsat olingandan va yig'im to'lagandan so'ng kanal-dan o'tishga ruxsat beriladi. Chet el harbiy kemalarining o'tishi uchun oldindan so'rash orqali ruxsat berish tartibi o'rnatilgan. Bunda albatta losman o'tkazishi va boshqa bir qancha talablarni bajarish nazarda tutilgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Hudud tushunchasini ta'riflab bering va uning tarkibiga nimalar kiradi?*

2. *Davlat hududi, xalqaro va aralash rejimli hududlarning o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib bering.*

3. *Davlat hududi tarkibidagi kvazi-hududlarni tavsiflab bering.*

4. *Davlat chegarasi tushunchasi, uni o'rnatish va o'zgartirish tartibi.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бабурин С.Н. Территория государства: правовые и геополитические проблемы. – М., 1997.

2. Вопросы международного морского и воздушного права / Отв. ред. М.И. Лазарев. – М., 1989.

3. Голицын В.В. Антарктика: тенденции и перспективы развития. – М., 1989.

4. Гуреев С.А., Тарасова И.М. Международное речное право. – М., 1993.

5. Карташкин В.А. Территориальные проблемы развивающихся стран. – М., 1965

6. Клименко Б.М. Государственные границы – проблема мира. – М.: Междунар. отношения, 1964.

7. Клименко Б.М. Международные реки. – М., 1969.

8. Клименко Б.М. Государственная территория: вопросы теории и практики международного права. – М., 1974.

9. Клименко Б.М. Мирное решение территориальных споров. – М., 1982.

10. Клименко Б.М. Общее наследие человечества. Международно-правовые вопросы. – М., 1989.

11. Колодкин А.Л. Мировой океан. – М., 1973.

12. Корбут Л.В., Баскин Ю.Я. Международно-правовой режим рек: история и современность. – М., 1987.

13. Корзун В.А. Морские трансграничные ресурсы: экономика, экология, право. – М., 1996.

14. Лазарев М.И. Теоретические вопросы современного морского права. – М., 1983.
15. Лопатин М.Л. Международные проливы и каналы: правовые вопросы. – М., 1985.
16. Международные водотоки: Расширение сотрудничества и урегулирование конфликтов / Научн. ред. С.М. Салман и Л.Б. Шазурн. – Нью-Йорк; Женева: ООН, 2000.
17. Назиров А.А. Виды организаций по сотрудничеству на трансграничных водах в мировой практике. – Т.: НИЦ МКВК, 2001.
18. Николаев А. Проблема территориальных вод в международном праве. – М., 1975.
19. Очиллов Б.Э. Территория и другие пространства в международном праве. – Т.: ВШСАиП, 2005.
20. Трофимов В.Н. Правовой статус Антарктики. – М., 1990.
21. Colombo's C.J. The Legal Regime of Warships in Foreign Waters. – P., 1981.
22. McDougal M.S., Burke W.T. The Public Order of the Ocean. – New Haven; London, 1962.

10-bob. XALQARO HUQUQDA AHOLI

1. «Aholi» atamasining umumiy tavsifi.
2. Fuqarolikning xalqaro-huquqiy jihatlari.
3. Chet elliklarning huquqiy holati.
4. Xalqaro huquqda qochoqlar huquqi.
5. Xalqaro huquqda boshpana huquqi.

1. «Aholi» atamasining umumiy tavsifi

«Aholi» atamasi milliy va xalqaro huquqda turli ma'nolarda qo'llaniladi.

Xalqaro huquqda aholi deganda ayni vaqtda davlatning hududini egallovchi, ya'ni davlat hududida yashovchi jismoniy shaxslar, individlar yig'indisi tushuniladi.

Davlat hududida uning to'liq va mustaqil suvereniteti joriy etilishiga qarab, unda yashovchi shaxslar ham shu davlatning to'liq va mutlaq yurisdiksiyasi (hokimiyat vakolatlari yig'indisi) ostida bo'ladi. U esa o'zining milliy huquqida ularning zarur yuridik maqomi va huquqiy tartibini o'rnatadi.

Har qanday davlatning aholisi tushunchasiga quyidagilar kiradi:

- a) shu davlatning fuqarolari (aholining asosiy tarkibi);
- b) chet ellik fuqarolar;
- v) ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega shaxslar (bipatridlar);
- g) fuqaroligi yo'q shaxslar (apatridlar).

Davlat o'z aholisiga nisbatan vakolatlarning uch turini amalga oshiradi, bular: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi (ma'muriy) va sud yurisdiksiyalari. Qonun chiqarish yurisdiksiyasiga qarab davlat uning aholisini tashkil etuvchi shaxslarning yuridik maqomini belgilaydi, ya'ni ularni o'z fuqarolari, chet el fuqarolari, ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega shaxslar yoki fuqaroligi yo'q shaxslar toifasiga ajratadi.

Shunday qilib, davlat hududida joylashgan va uning aholisini tashkil etuvchi jismoniy shaxslarning huquqiy holatini tartibga solish faqat shu davlatning vakolati doirasiga kiradi.

O'z asosiga ko'ra davlatlararo huquq sifatida xalqaro huquq davlat ichki munosabatlari, masalan davlat aholisini tashkil etuvchi shaxslarning yuridik maqomi bilan bog'liq masalalarni bevosita tartibga solma olmaydi.

Biroq xalqaro huquq bunga butunlay e'tiborsiz ham bo'la olmaydi. Uning mazkur holatdagi roli asosan quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, davlatlar xalqaro huquqning oddiy-huquqiy normalariga ko'ra ularning aholisini tashkil qiluvchi shaxslarning yuridik maqomini tartibga solishda davlatlarning to'liq yurisdiksiyasini o'zaro tan oladilar;

ikkinchidan, ular xorijiy hududda yashovchi o'z fuqarolariga chet elliklar uchun nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishlarida yordam ko'rsatish huquqini tan olishga kelishganlar;

uchinchidan, odatda davlatlar o'zaro shartnoma asosida ularning fuqarolari toifasiga kiruvchi shaxslarning maqomini belgilash to'g'risidagi davlat ichki normalarining bir-biriga zidligi (*kolliziyasi*) bilan bog'liq masalalarni yo'lga soladilar;

to'rtinchidan, umumiy xalqaro huquq normalari darajasida tashqi aloqalar organlari tarkibiga kiruvchi shaxslarning huquqiy holatini tartibga soladilar.

Boshqacha aytganda, davlatlarda ularning aholisiga taalluqli bo'lgan milliy tartibi yoki milliy huquq tartibotida amalga oshirilishi kerak bo'lgan xalqaro majburiyatlari mavjuddir. Bunda ushbu majburiyatlar davlatlarning milliy huquqi normalarida aks etishi zarur bo'ladi. Odatda, bunday aks etish «transformatsiya» atamasi bilan ifodalanadi.

Davlatlar xalqaro majburiyatlarining aholini tashkil etuvchi shaxslarning yuridik maqomi va huquqiy rejimiga taalluqli transformatsiyasi ular davlatlararo o'zaro munosabatlarda majburiyatlarga ega bo'lganligi uchun zarurdir. Bunday majburiyatlar davlatlar hududidagi shaxslarning tegishli huquq va majburiyatlari bo'lishi uchun ham davlat ichki huquqi qoidalarida o'zining mutanosib aksini topishi kerak. *Shunday qilib, transformatsiya – davlatning o'z milliy huquq tartibotiga ushbu davlatning zarur xalqaro majburiyatlarini tatbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlari majmuidir.*

2. Fuqarolikning xalqaro-huquqiy jihatlari

Fuqarolik tushunchasi. Fuqarolik deganda jismoniy shaxsning ma'lum bir davlat bilan o'zaro huquq va majburiyatlariga ega bo'lishda ifodalovchi mustahkam huquqiy aloqasi tushuniladi.

Fuqarolik insonning davlat bilan o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilovchi huquqiy aloqasidir¹. Demokratik davlatda u davlatni boshqarishda qatnashish huquqini beruvchi va fuqaroga davlat tomonidan himoya qilinish huquqini beruvchi teng huquqli a'zolikni ta'minlaydi. Fuqarolikni bunday tushunish tobora keng tarqalmoqda². U avval mavjud bo'lgan fuqarolikni insonning davlatga tegishliligi sifatida tushunishga mos kelmaydi³.

«Fuqarolik» atamasi «shahar» va «shaharlik» so'zlaridan kelib chiqqan. Ingliz tilida – «city» – «citizenship». Nemis tilida «Burger» – faqat fuqaro emas, balki shaharda yashovchi hamdir. Buning izohi ilk respublikalar o'zini o'zi boshqaruvchi shaharlarning tajribalarini o'zlashtirib olganlarida bo'lsa kerak. Hozirgi paytda hujjatlarda fuqarolikni ifodalash uchun boshqa atama – «nationality» (ingl.), «nationalite» (frans.), «nazionalita» (ital.) ishlatiladi. U davlatga tegishlilik sifatida tushuniladi. Gap shundaki, «nation» atamasi chet tillarda (ingliz, fransuz va boshq.) rus tilidagidek etnik ma'nodagi «millat» ma'nosini bermay, ijtimoiy-siyosiy ma'noda «millat», «xalq», «davlat» ma'nosini beradi. Fuqarolikdan tashqari «tegishlilik» (*poddanstvo* – nationality, citizenship) atamasi ham ishlatiladi. Avval u monarxga tegishlilikni bildirar edi. Hozirgi paytda tegishlilik atamasi ishlatilsa ham, odatda u «fuqarolik» atamasi bilan tengdir. Bunda bir qator monarxiyalarda (masalan, Belgiya, Ispaniya, Niderlandiyada) bu atama konstitutsiya va qonunchilikda umuman qo'llanilmaydi va «fuqarolik» atamasi bilan almashtirilgan.

O'zining mavqeyiga ko'ra fuqaro qonunda nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi va kerakli majburiyatlarni oladi. Davlat fuqaroning huquqlarini ta'minlaydi va ularning majburiyatlari bajarilishini nazorat qiladi. Chet elda bo'lganda fuqaro o'z davlatining ma'lum qonunlariga rioya qiladi, davlat esa uni diplomatik himoya bilan

¹ BMT Xalqaro Sudining Nottebom ishi bo'yicha qarorida fuqarolikni «ijtimoiy faktga asoslangan real aloqaning o'zaro huquq va majburiyatlar bilan birga manfaatlar va hissiyotlarning mavjudligi» tarzida tushunish mavjud // ICJ Reports. 1955. – P. 4.

² Черниченко С.В. Население в международном праве // Курс международного права. В 7-ми томах. Т. 3. – М.: Международное, 1982. – С. 69.

³ Bunday tushuncha zamonaviy adabiyotlar va amaliyotda uchrab turadi. Ikki frantsuz olimining yozishicha, yuridik ma'noda fuqarolik «shaxning biror davlatda yashab turgan aholiga taalluqliligidir. Bu taalluqlilik fuqaroni tegishli bo'lgan davlatning xususiy yurisdiksiyasiga bo'ysundiradi...» // Batifoll H., Lagorde P. Droit international private. T. 1. – P., 1981. – P. 60.

ta'minlaydi. Ko'pgina shartnomalar ishtirokchi davlatlarning fuqarolariga ma'lum huquq va imtiyozlar berilishini nazarda tutadi.

Ba'zi mamlakatlarda fuqarolikning har xil turlari mavjud. Niderlandiyada «Gollandiya yerlarida» (ya'ni koloniyalarida) tug'ilgan shaxslar teng huquqli fuqarolar «niderlandlar»dan farqli ravishda «Gollandiyaga tegishli» shaxslar mavqeiga ega bo'ladilar. Xuddi shunday holat Buyuk Britaniyada ham mavjud. Ba'zi federatsiyalar, masalan, AQSHda federal fuqarolikdan tashqari subyektlar fuqaroligi ham mavjud. Shveysariyada esa, federal fuqarolikdan tashqari, kanton va jamoa fuqaroligi mavjud.

Yevropa Ittifoqini tuzish to'g'risidagi 1992-yilgi Maastrixt shartnomasida belgilangan fuqarolik ancha murakkab hodisadir, unga ko'ra, «a'zo davlatlarning fuqaroligiga ega bo'lgan har bir shaxs Ittifoqning ham fuqarosi hisoblanadi» (8-modda).

Fuqarolik institutidan avval shaxsning monarxga tobeligini bildiruvchi fuqarolik instituti mavjud edi. «Fuqaro» atamasi 1789-yilgi Fransiyaning inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasida e'lon qilingan va yuridik mustahkamlangan edi. Natijada bu institut xalqaro-huquqiy ahamiyatga ega bo'ldi va shaxsning davlatga tegishlilik yuridik maqomini ifodaladi.

Huquqiy tushuncha sifatida fuqarolik individ va davlat o'rtasidagi huquqiy aloqalarni va bunda shaxsning ma'lum davlatga tegishligini bildiradi. Shaxsning davlat bilan eng tipik va mustahkam aloqasining ko'rinishi uning davlat hududida yashashidir. Fuqarolikda shaxs va davlat orasida mavjud ham siyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy, axloqiy-ma'naviy munosabatlar jam bo'lgan. Boshqacha aytganda, fuqarolik faqat shaxs bilan davlat o'rtasidagi huquqiy aloqani belgilovchi yuridik ma'nomigina emas, balki shaxsning jamiyatga tegishliliigi va uning hayotidagi ishtirokini belgilovchi ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

Fuqarolikni davlat aholisi bilan bog'liq bo'lgan huquqiy kategoriya sifatida ko'rib chiqish zarur. Yuqorida aytilganidek, haqiqiy aholi va davlat-huquqiy ma'nodagi aholini farqlash zarur. Oxirgisiga davlatning faqat uning hududida yashovchi aholisi emas, balki xorijda yashaydigan aholisi ham kiradi.

Fuqarolik shaxsning ham davlat ichidagi, ham uning tashqarisidagi xalqaro munosabatlardagi huquqiy holatini belgilaydi.

Fuqarolik instituti ikki tomonlama ijtimoiy-huquqiy vazifani bajaradi. Bir tomondan, fuqarolik o'z davlati tomonidan himoya olish huquqi uchun asos bo'lsa, boshqa tomondan, u davlat huquq va manfaatlarining himoya quroli sifatida maydonga chiqadi. Fuqarolik ham, shaxsning huquqiy maqomi ham davlatning shaxs, shaxsning davlat oldidagi mas'uliyatini nazarda tutuvchi yurisdiksiya bilan bog'liq.

Fuqarolik – milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari o'zaro munosabatda bo'lgan institutidir. Fuqarolik masalalari bo'yicha milliy qonunchilikdan tashqari davlatlarning fuqarolik masalalarini tartibga soluvchi ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlari ham mavjud.

Fuqarolikka shaxsning subyektiv huquqi sifatida qarash mumkin va shu ma'noda individning fuqarolikka bo'lgan huquqi to'g'risida gapirish zarur. 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1966-yilgi Xalqaro paktning 24-moddasi 3-paragrafi bunday izohga asos bo'ladi. Gap shaxsning aniq bir davlatga nisbatan qonun tomonidan tan olingan munosabati tarzidagi fuqarolik to'g'risida boradi. Fuqarolik individda har bir aniq davlat tomonidan belgilangan konstitutsiyaviy huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarning mavjudligini bildiradi

Fuqarolikni olish va yo'qotish usullari. Har bir davlat o'z suverenitetiga qarab, mustaqil ravishda fuqarolikni olish va yo'qotish masalalarini tartibga soladi.

Fuqarolik tug'ilish natijasida (kelib chiqishiga ko'ra), naturalizatsiya yo'li bilan (fuqarolikka qabul qilish), xalqaro shartnoma asosida va Ba'zi hollarda reintegratsiya (qayta tiklash) va taqdim etish yo'li bilan olinishi mumkin. Reintegratsiya fuqarolikdan mahrum qilish to'g'risidagi noqonuniy qarorlarni bekor qilish hollarida bo'lishi mumkin, taqdim etish esa davlat oldidagi maxsus xizmatlar uchun fuqarolik berish holatidir.

Fuqarolikni olishning asosiy usuli shaxs tug'ilishi bilan fuqarolikka ega bo'lishidir. Boshqa usullar ancha kam uchraydi. Buni tushunish mumkin: odamlarning aksariyati fuqarolikni tug'ilganda olib, o'z hayotlari davomida almashtirmaydilar.

Tug'ilishi bilan fuqarolikka ega bo'lish. Fuqarolikka ega bo'lishning eng keng tarqalgan usuli filiatsiya yoki fuqarolikni tug'ilish

orqali olishdir. Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan norma va prinsiplaridan kelib chiqsak, har bir bola fuqarolikni olish huquqiga egadir. Bola huquqlari to'g'risidagi 1959-yilgi Deklaratsiyaning 3-prinsipi mazmuniga, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1966-yilgi Xalqaro paktning 24-moddasi 3-paragrafi, Bola huquqlari to'g'risidagi 1989-yilgi Konvensiyaning 7-moddasi 1-paragrafiga ko'ra, bola hech bir holda apatrid, ya'ni fuqaroligi yo'q shaxs bo'lib qolmasligi kerak.

Filiatsiya ikki prinsip asosida: «qon huquqi» (jus sanguinis) va «tuproq huquqi» (jus soli) asosida olinishi mumkin, Ba'zi hollarda esa davlatlar qonunchiligi aralash tizimni nazarda tutadi. «Qon huquqi» prinsipi (milliy prinsip)ga ko'ra, bolaning fuqaroligi uning ota-onasining fuqaroligi bilan belgilanadi va tug'ilgan joyiga bog'liq bo'lmaydi. Yevropaning ko'pgina mamlakatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi ham shu prinsipga rioya qiladi.

«Tuproq huquqi» prinsipi (hududiy prinsip)ga ko'ra, fuqarolik bolaning tug'ilgan joyiga qarab belgilanadi va uning ota-onasining fuqaroligiga bog'liq bo'lmaydi. Lotin Amerikasining ko'pgina davlatlari shu prinsipga ko'ra fuqarolikni belgilaydi.

«Tuproq huquqi» prinsipi xorijiy diplomatlar va konsullarning bolalariga nisbatan kuchga ega emas. Bu Diplomatik aloqalar to'g'risidagi 1961-yilgi Vena konvensiyasiga va Konsullik aloqalari to'g'risidagi 1963-yilgi Vena konvensiyasiga oid nizolarni majburiy hal qilish to'g'risidagi Fakul'tativ protokolda nazarda tutiladi.

Ko'pgina huquqiy tizimlarda aralash nikohda bolaning fuqaroligini uning ota-onasi fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlariga birga ariza berish bilan belgilaydi.

Naturalizatsiya asosida fuqarolik olish. Fuqarolik olishning boshqa yo'li o'nashib qolish deb nomlanuvchi yoki fuqarolikni naturalizatsiya tartibida olishdir. Individual naturalizatsiya (arizaga ko'ra) va davlatlarning huquqiy vorisligiga ko'ra naturalizatsiya qilish ma'lum.

Individual naturalizatsiya qator davlatlar amaliyotida ba'zan qonunchilik tartibida ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan milliy, diniy va siyosiy belgilariga ko'ra kamsitish tusidagi turli shartlar bilan cheklanadi. Bu narsa ma'lum millatga mansublik va kelib chiqishga oid shaxslarning naturalizatsiyasini asoslash yoki afzal ko'rishda ko'zga tashlanadi.

Naturalizatsiya tartibida fuqarolik olish naturalizatsiya qilinayotgan shaxs tomonidan ixtiyoriy xohish-irodani bayon etish aktidir. Bu narsa o'z xohishi bilan naturalizatsiya to'g'risida ariza berishda hamda hududiy o'zgarishlardagi sukutli rozilikda ifoda etiladi. Biroq davlatning roziligisiz naturalizatsiyaning imkoni yo'q. Davlatning o'z fuqaroligini boshqa davlat fuqarosiga zo'rlik bilan berish yoki apatridga yo'naltirilgan bir tomonlama harakatlari xalqaro huquq nuqtayi nazaridan noqonuniy (qonunga zid) hisoblanadi. Majburiy naturalizatsiya avval-boshdan oq kam ahamiyatlidir.

Qariyb barcha davlatlarda qonun chiqarish tartibida naturalizatsiyaning ma'lum shartlari mustahkamlangan. Ularning asosiysi doimiy yoki ma'lum muddatli o'troqlik senzidir (Fransiya va O'zbekistonda – 5 yil, Buyuk Britaniya va Norvegiyada – 7 yil, Ispaniyada – 10 yil va h.k.). Davlat bilan haqiqiy aloqa yoki o'troqlik to'g'risidagi shart qator xalqaro-huquqiy aktlarda, qisman Versal tizimining ba'zi shartnomalari (1919-yildagi Neyi shartnomasining 91-moddasi, Amerika davlatlari o'rtasidagi fuqarolik masalalari bo'yicha 1923-yilgi Vashington bitimining VI-moddasi)da belgilangan. BMTning Fuqarosizlikni qisqartirish to'g'risidagi 1961-yilgi Konvensiyasida besh yildan o'n yilgacha muddatga o'troq bo'lishning afzalligi ham mustahkamlangan. Yetti yil muddatli o'troqlik cheklovi Skandinaviya mamlakatlarining 1969-yilgi Bitimida belgilangan. Bundan tashqari, muayyan davlat tilini bilish, ma'lum yoshga kirish, yaxshi axloq kabi qator qo'shimcha shartlar kiritilishi mumkin.

Ko'pgina davlatlar qonunchiligi va amaliyotida «xotin erning fuqaroligini oladi» degan holat paydo bo'ldi. Turmushga chiqqan ayolning fuqaroligi to'g'risidagi 1997-yildagi Konvensiya (3-modda) va Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlarini yo'qotish to'g'risidagi Konvensiya (9-modda)da ayol chet ellikka turmushga chiqayotib o'z fuqaroligini saqlash yoki erkin naturalizatsiya tartibida erining fuqaroligini qabul qilish huquqiga ega ekanligi aytilgan.

Ko'pgina davlatlarda naturalizatsiyaning sharti sifatida qonunchilik tartibida davlatga sodiqlik to'g'risida qasamyod qilish nazarda tutiladi.

Shaxsning ixtiyoriy tanloviga asoslanmagan, qonun asosidagi naturalizatsiyani ham ta'kidlash zarur. Ko'rsatilgan asosdagi naturalizatsiya farzandlikka olish, vasiylik belgilash, otalikni tan olish, harbiy

yoki davlat xizmatiga kirishning huquqiy oqibatlari sifatida bo'lishi mumkin.

Ba'zi davlatlarda oddiy naturalizatsiyadan tashqari xalqaro huquq tomonidan tartibga solinmaydigan qayd etish tartibidagi fuqarolik olish ham ayrim davlatlarning qonunchiligida nazarda tutilgan.

Asosan oddiy qoidalaridan iborat bo'lgan fuqarolik to'g'risidagi xalqaro huquq normalarining masalasi, aytib o'tilganidek, davlatning suveren azmi-ixtiyori sohasi hisoblanadi. Ichki yurisdiksiyani saqlash hukumatning aholining qonunga rioya qilishiga tayanish zaruratiga mos keladi: davlatlar ularning fuqarolari bo'lgan yoki qanday bo'lishini xohlovchi shaxslar bilan siyosiy-huquqiy aloqalar mavjudligini ta'minlashda erkin bo'lishlari kerak. Bunda fuqarolik sohasidagi xalqaro-huquqiy andozalar davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi bilan birgalikda rivojlanishi lozim. Biroq, fuqarolik kabi masalalar davlatning boshqa davlatlarga nisbatan olgan majburiyatining predmeti bo'lishi mumkin va shuning uchun ham bu davlatning qat'iy o'z ishi bo'lmay qoladi. Bunday hollarda davlatning belgilangan tarzda harakat qilish huquqiga ega yoki ega emasligi xalqaro xarakterga ega bo'ladi. Bundan tashqari, fuqarolik olishning juda cheklangan ichki tartibga solinishi xalqaro huquqqa zid keladi deb baholanishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar asosida fuqarolik olish va almashtirish. Ba'zi hollarda ular tinchlik shartnomalari, hududiy masalalar bo'yicha maxsus kelishuvlar chog'ida sodir bo'ladi: ikki yoki bir necha davlatlarning bir davlatga birlashishi natijasida yangi davlat paydo bo'lishi (masalan, GDR va GFRning birlashishi) yoki bir davlatning bo'linishi va bir qancha yangi davlatlarning paydo bo'lishi (masalan, SSRIning tarqab ketishi).

Shunday qilib, huquq vorisligi tufayli fuqarolikni olish xalqaro huquqning yangi subyekti paydo bo'lishi natijasida vujudga kelishi mumkin. U kollektiv naturalizatsiyaning ko'rinishi emas. Bunday hollarda u yoki bu shaxsning o'zini ma'lum yo'sinda tutishi shunda izohlanadiki, u xalqaro huquqning yangi subyekti hududida bo'lishini davom ettiradi va o'zining yangidan paydo bo'lgan fuqaroligidan chiqish niyati to'g'risidagi masalani o'rta tashlamaydi.

Fuqarolikni olish: repatriatsiya to'g'risida bitimlar tuzish; hududning bir qismi bir davlatdan boshqa davlatga o'tishida (sessiya)

hamda hududning ma'lum uchastkalarini chegaradosh davlatlar o'rtasida almashish chog'ida; fuqarolikni erkin tanlash (optatsiya) va uning avtomatik o'zgarishi (transfert) chog'ida; hududiy o'zgarishlar chog'ida bo'lishi mumkin. Optatsiya vaqtida aholi individual tartibda fuqarolik tanlashi mumkin. Bunda optant o'zi tanlagan davlat hududida yashashni nazarda tutishi zarur. Amaliyot optasiya, odatda, nikoh, ikki fuqarolikni bekor qilish chog'ida sodir bo'lishidan guvohlik beradi.

Nisbatan kam uchraydigan transfertda bir davlatdan boshqasiga o'tayotgan hudud aholisi shunga muvofiq tarzda, uning roziligiga qaramay, bir fuqarolikdan boshqasiga o'tadi.

Fuqarolikni yo'qotish quyidagi hollarda sodir bo'ladi:

a) fuqarolikdan o'z xohishi bilan chiqish natijasida (ekspatriatsiyada);

b) denaturalizatsiya, ya'ni davlat naturalizatsiya qilgan fuqarolar-dan fuqarolikni majburiy olib qo'yganda;

v) xalqaro shartnoma shartlari asosida;

g) nikohdan o'tish, farzandlikka olish va boshqalar bilan bog'liq holdagi naturalizatsiya holatida fuqarolik almashish chog'ida.

Ekspatriatsiya, ya'ni o'z xohishi bilan fuqarolikdan chiqish erkin va ruxsatli bo'ladi. Hozirgi vaqtda jahonning ko'pgina davlatlarida u taqiqlanmagan. Shunda ham xalqaro huquq va davlat huquqida fuqaroning o'z davlatiga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishini oldindan belgilovchi prinsip o'rnatilgan bo'lsa-da, fuqarolikdan chiqish-dagi qat'iy cheklashlar faqat urush davrida kiritiladi. Shaxsning ekspatriatsiyaga bo'lgan huquqi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1966-yilgi xalqaro Paktning 12-moddasidan kelib chiqadi. Fuqarolikdan o'z xohishiga ko'ra chiqish erkinligi optatsiya tartibini belgilovchi bir qator shartnomalarda mustahkamlangan.

Fuqarolikdan chiqishga ruxsat berish tizimi davlat vakolatli organining manfaatdor shaxs arizasiga ko'ra qabul qilgan qarori asosida fuqarolikning to'xtatilishidir. U dunyoning ko'pgina davlatlarida belgilangan. Bunda ba'zi davlatlar shaxsning yangi fuqarolik olishini talab qiladi.

Bipatridlarning fuqarolikdan chiqish erkinligi 1930-yilgi Gaaga konvensiyasining 6- va 7-moddalari va Ko'p fuqarolikka ega bo'lish

hollarini kamaytirish to'g'risidagi 1963-yilgi Yevropa konvensiyasi-ning 2-moddasida mustahkamlangan.

Denaturalizatsiya ko'pgina davlatlarda asosida naturalizatsiya qilingan shaxs bilan unga fuqarolik bergan davlat o'rtasidagi aloqaning yo'qolishi prinsipi yotadigan maxsus davlat ichki huquqiy aktlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Qonun yo'li bilan majburiy tarzda fuqarolikdan mahrum qilish, ishi yuzasidan hech qanday tayyorgarliksiz ko'pincha chet elda nomal'um muddatda uzoq vaqt bo'lish, ayniqsa, avvalgi fuqaroligi bo'lgan davlatda bo'lishi sababli amalga oshirilishi mumkin. Naturalizatsiya chog'ida noto'g'ri ma'lumotlar berish, fuqarolik majburiyatlarini qo'pol ravishda buzish va boshqalar denaturalizatsiyaga sabab bo'lishi mumkin. Denaturalizatsiya Kanada, Irlandiya, Sudan, Venesuela, Bolgariya qonunchiligida mavjudligi ma'lum.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida fuqarolikdan mahrum etish masalalari nisbatan kam ishlangan. Fuqarosizlikni kamaytirish to'g'risidagi 1961-yildagi Konvensiyaning 8-moddasida, agar mahrum etish ularni apatrid qilib qo'yadigan bo'lsa, davlatlarning shaxslarni fuqarolikdan mahrum etmaslik majburiyati mavjud. Shu bilan birga, bu norma umum e'tirof etilmagan.

Fuqarolikdan mahrum etish davlatdagi oliy mansabdor shaxsning (masalan, prezident), davlat hokimiyati oliy organining qarori yoki sud hukmiga ko'ra sodir bo'lishi mumkin.

Ko'pfuqarolik (ikki fuqarolik) va fuqarosizlik. Ikki fuqarolik (bipatrizm) – shaxsning ikki yoki undan ortiq davlatning qonunlari asosida ushbu davlatlarning fuqarosi ekanligidan dalolat beruvchi huquqiy holatidir. Boshqacha aytganda, ko'pfuqarolikka ega bo'llish faqatgina turli davlatlarning milliy qonunchiligi normalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Ko'pfuqarolik qo'yidagi hollarda paydo bo'ladi:

- a) hududiy o'zgarishlarda;
- b) aholi migratsiyasida;
- v) fuqarolik olish to'g'risidagi qonunlarni qo'llashda ziddiyat (kolliziya) mavjud bo'lgan hollarda;
- g) aralash nikoh va farzandlikka olish natijasida;
- d) naturalizatsiya chog'ida, agar boshqa mamlakat fuqaroligini olayotgan shaxs o'zining avvalgi fuqaroligini yo'qotmasa va boshqalar.

Ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa sabablarga ko'ra ikki fuqarolik instituti dunyoning qator davlatlari, masalan, Angliya, Armaniston, Bangladesh, Belorusiya, Germaniya, Isroil, Rossiya, Fransiya va Lotin Amerikasining Ba'zi mamlakatlari tan olinadi. Ko'p fuqarolik, bir tomondan, davlat uchun ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy afzalliklar yaratsa, ikkinchi tomondan, individning huquqiy maqomini tartibga solishning qulayligini buzadi va jamiyatdagi boshqa shaxslarning bipatridlar bilan munosabatlarida salbiy aks etishi mumkin. Bipatrid o'zi fuqarolikka ega bo'lgan davlatlarning qonunlariga asosan huquqlardan foydalanishga haqlidir. Bir vaqtning o'zida, u ikki tomonlama majburiyatlarga ham ega bo'ladi. Bunday huquqiy munosabatlar doirasida kolliziyalar paydo bo'lishi mumkin. Bu esa huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi davlatlararo muammolarga olib keladi. Ko'pincha bipatrid unga fuqarolik bergan davlatlarning har ikkalasiga nisbatan o'z majburiyatlarini teng ravishda bajara olmaydi. Bu bilan u majburiyatlarini kamroq bajargan davlatni kamsitadi. O'z navbatida, bu davlatlardan biri bipatridning o'zini kamsitishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda ko'p fuqarolikka nisbatan mana bunday yondashuvlarni ko'rish mumkin: ikki fuqarolikni taqiqlash; ikki fuqarolikni tan olish; ikki fuqarolikka ruxsat berish. Shunga ko'ra, xalqaro amaliyotda ikki fuqarolikka oid shartnomalarning uch xili farqlanadi.

Birinchi – ikki fuqarolik masalalarini tartibga solishga qaratilgan shartnomalar.

Ikkinchi – ikki fuqarolikni tugatishga qaratilgan shartnomalar.

Uchinchi – ikki fuqarolikning oqibatlarini bartaraf qilish (diplomatik himoya yoki harbiy xizmat munosabati bilan)ga qaratilgan shartnomalar. Ular 1930-yildan fuqarolik to'g'risidagi qonunlar kolliziasiyasiga tegishli ba'zi masalalar to'g'risidagi ko'p tomonlama Gaaga konvensiyasi, Fuqarolikning ko'pligini kamaytirish to'g'risidagi 1963 yilgi Yevropa konvensiyasining qator qoidalarini o'z ichiga oladi.

Xalqaro hamjamiyat xalqaro huquqning quyidagi huquqiy mexanizmlarini qo'llash yo'li bilan ko'p fuqarolikni bartaraf etish masalalarini yecha oladi va yechmoqda: yangi fuqarolik olish vaqtida birinchisini yo'qotish; «jus soli» prinsipi harakatining istisnolari; notatsiya-

lar; individda bo'lgan fuqarolikning biridan o'z xohishiga ko'ra voz kechish va boshqalar.

Milliy huquqiy normalar ham xalqaro-huquqiy vositalarning ahamiyatini istisno qilmasdan bipatrizmni bartaraf etishning Ba'zi yo'l-larini nazarda tutadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: optatsiya; «qon huquqi» bo'yicha vatan bilan haqiqiy aloqani uzgan migrantlarning bolalariga ota-onasining fuqaroligini berish; aralash nikohda otaning fuqaroligini olish va bo'lak yashash yoki ajralishda onaning fuqaroligini olish va boshqalar.

Ko'pgina davlatlarning qonunchiligida ko'pfuqarolikni tan olmaslik prinsipi bekorga mustahkamlanmagan. Albatta, bu faqat uning huquqiy oqibatlarini bildiradi, shunga qaramasdan bu prinsip bevosita 1930-yilgi Gaaga konvensiyasining 3-moddasidan kelib chiqadi. Shu bilan bir vaqtda, davlat tomonidan ko'pfuqarolikni tan olmaslik prinsipini taqiqlovchi yoki hech bo'lmasa cheklovchi umum e'tirof etilgan xalqaro norma mavjud emas.

Fuqaroligi bo'lmagan (apatrid) shaxsning shunday huquqiy holati namoyon bo'ladiki, unda shaxs hech bir davlatning fuqaroligida bo'lmaydi.

Turli huquq tizimlarida «fuqaroligi bo'lmagan shaxs» atamasi turlicha talqin etiladi.

Fuqarosizlik ta'rifi 1994-yil 28-sentabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan Apatridlar maqomi to'g'risidagi Konvensiyaning 1-moddasida berilgan. Unda: «Shu Konvensiyada «apatrid» deganda biror-bir davlatning qonuniga ko'ra ushbu davlatning fuqarosi bo'lmagan shaxs nazarda tutiladi», deyiladi. Bu ta'rifda «fuqaro» atamasi davlat tomonidan fuqarolik berilgan shaxslarga tegishlidir.

1961-yilda BMT doirasida Fuqarosizlikni qisqartirish to'g'risidagi Konvensiya qabul qilindi. U apatridlarning davlat fuqaroligi, doimiy yashash joyi olishlari uchun qulay sharoit yaratish va shaxsning ekspatriatsiya paytida apatrid maqomini olish imkoniyatini istisno qilishga qaratilgan edi (1975-yil 31-dekabrda kuchga kirgan). Konvensiya mazmuniga ko'ra, apatridlarning bolalari tug'ilgan joylari bo'yicha, ya'ni «zamin huquqi» bo'yicha fuqarolik olishlari zarur. Konvensiya davlatlarga hududiy o'zgarishlar chog'ida shartnomalarda fuqarosizlik paydo bo'lmasligi uchun kafolatlarni nazarda tutishni tavsiya etadi.

Fuqarosizlik quyidagi hollarda paydo bo'lishi mumkin:

a) biror davlat shaxsni o'z fuqaroligidan mahrum etsa va unga tezda boshqa davlat fuqaroligini olish imkoni berilmasa;

b) fuqarolikni yo'qotishda, agar bu shaxs o'z xohishi bilan o'z davlati fuqaroligidan chiqsa va boshqa davlatda fuqarolik olmasa;

v) ayol kishining nikohga kirishi sababli fuqaroligi o'zgarsa va fuqarosi bo'lgan davlat qonunchiligida uning chet ellik bilan nikohdan o'tishi bilan o'z-o'zidan avvalgi fuqaroligini yo'qotishi nazarda tutilgan bo'lsa;

g) territorial o'zgarishlar oqibatidagi ma'lum hollarda.

Fuqaroligi yo'q shaxslarga ular yashab turgan davlatning yurisdiksiyasi to'liq joriy qilinadi.

Apatrizm, o'z-o'zidan ma'lumki, fuqaroligi yo'q shaxs bilan davlat o'rtasidagi mustahkam siyosiy-huquqiy aloqa mavjudligini istisno qiladi va shaxs uchun ham, davlat uchun ham salbiy holatni bildiradi. Apatridlar, avvalo, siyosiy huquqlarda cheklanadilar. Bundan tashqari, ular biror-bir davlatning diplomatik himoyasiga da'vo qila olmaydilar.

3. Chet elliklarning huquqiy holati

Chet ellik – o'zi yashab turgan davlatning fuqaroligiga ega bo'lmagan va boshqa davlatning fuqaroligida bo'lgan shaxsdir.

Ba'zan xalqaro-huquqiy va davlat ichki hujjatlarida «chet elliklar» va «ajnabiy fuqarolar» atamaları qo'llaniladi.

U yoki bu tarzda chet elliklarning huquqiy holatiga ta'sir qiluvchi xalqaro-huquqiy hujjatlarda «chet ellik» tushunchasining ta'rifi yo'q. 70-yillarning boshida istiqomat etuvchi davlatning fuqarolari bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risidagi deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish jarayonida «fuqaro bo'lmagan» tushunchasi paydo bo'ldi va u keyinchalik «chet ellik» tushunchasi bilan almashtirildi.

Bundan «chet ellik» tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llanilishi mumkin, degan ma'no kelib chiqadi. Birinchi holda «chet elliklar»ga o'zlari yashab turgan davlatning fuqarosi bo'lmagan shaxslar, ikkinchisida esa – davlat hududida yashab turgan, biroq boshqa davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslar kiradi.

Chet elliklarning huquqiy maqomi deganda ularning o'zlari yashab turgan davlatdagi shu davlatning inson huquqlari sohasidagi

xalqaro huquq normalarini inobatga olgan holda kafolatlangan huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari yig'indisi kiradi. Chet ellik va u yashab turgan davlat o'rtasida chet ellikning o'zi yoki shu mamlakat organlari tomonidan istalgan payt uzilishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik aloqa o'rnatiladi.

Chet elliklarning huquqiy holati qator maxsus xalqaro prinsiplar bilan belgilanadi.

Chet elliklarga ular yashab turgan davlatning yurisdiksiyasini joriy qilish prinsipi shundan iboratki, davlat o'z hududida suveren huquqlarni amalga oshirar ekan, uning hududida bo'lgan barcha jismoniy shaxslar rioya qilishlari lozim bo'lgan ma'lum huquqiy tartibotni joriy qiladi. Shunday qilib, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1966 yilgi xalqaro Paktning 13-moddasiga ko'ra, «mazkur paktga a'zo davlatlarning birortasining hududida qonuniy ravishda bo'lib turgan chet ellik qonunga ko'ra qaror ijro etilishi uchun chiqarib yuborilishi mumkin».

Kamsitmaslik prinsipi avvalo an'anaviy tushunishdagi irqiy belgilar, millati, terisining rangi, diniy qarashlari, tili, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi va shu kabilarga ko'ra kamsitmaslikka asoslanadi.

Davlatlarning konstitutsiyalari va boshqa huquqiy hujjatlarida kamsitmaslik prinsipi turli shakllarda aks etadi. O'zaro kelishuv asosida davlat boshqa davlatlarning fuqarolariga qo'shimcha huquqlar berishi mumkin.

Yashab turgan davlatiga nisbatan majburiyatlarning mavjudligi prinsipi chet ellikning biror davlat yurisdiksiyasi ostida bo'lishi uni shu davlatga nisbatan majburiyatlaridan ozod qilmasligidan kelib chiqadi. Bu prinsip Qochoqlarning maqomi to'g'risidagi Konvensiyaning 2-moddasi va Apatridlar maqomi to'g'risidagi Konvensiyaning 2-moddasida ko'rsatilgan.

Chet ellikni u fuqarosi bo'lgan davlat tomonidan himoya qilish yoki domitsiliya prinsipi – biror-bir davlat hududida bo'lgan chet ellik zarur bo'lganda o'zi fuqarosi bo'lgan davlatning himoyasidan foydalanish imkoniga egaligini yoki domitsiliyani bildiradi. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida barcha shaxslar har qanday kamsitishdan himoya uchun teng huquqlarga ega ekanliklari ta'kidlangan (7-modda).

Shaxsning o'z davlati chegarasidan tashqaridagi diplomatik himoyasini amalga oshirish u fuqarosi bo'lgan davlatning huquqi yoki domisiliyadir. Diplomatik himoya – bu davlatning tashqi munosabatlari organi orqali chet elda bo'lgan o'z fuqarosiga uning huquqlari poymol bo'lgan yoki poymol qilishga urinish bo'lganda ko'rsatiladigan himoyadir. Boshqa davlat himoyasining uning chet elliklarga nisbatan bo'lgan majburiyatlariga xilof ravishda poymol qilingan barcha inson huquqlari diplomatik himoya predmetidir.

Chet ellikning huquq va manfaatlari u yashab turgan davlat tomonidan himoya qilinishi prinsipi – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1966 yilgi xalqaro paktida nazarda tutilgan. U har bir davlatni uning hududida bo'lib turgan va uning yurisdiksiyasi ostida bo'lgan shaxslarning shu hujjatda ko'rsatilgan barcha huquqlarini nafaqat hurmat qilish, balki ta'minlashga majbur qiladi (21-moddaning 1-paragrafi). «Barcha shaxslar» deganda albatta chet elliklar ham tushuniladi.

Bir qator davlatlarning qonunlarida davlat o'z hududida istiqomat qiladigan chet elliklarni himoya qilish majburiyatini olishi yuzasidan ixtiloflar mavjud.

Chet elliklar huquqiy tartibining quyidagi uch ko'rinishi eng ko'p tarqalgan: milliy, eng qulay va maxsus tartiblar.

Milliy tartib chet elliklarga davlatning fuqarolari bilan teng huquq va erkinliklar berilishini nazarda tutadi.

Eng qulay tartib – chet elliklarga har qanday uchinchi davlat fuqarolari foydalanayotgan yoki foydalanadigan huquq va erkinliklarning berilishidir. Bu tartibning tabiati faqat shartnomaviydir.

Chet elliklar milliy qonunchilik yoki xalqaro shartnoma asosida maxsus huquqlarni berishni nazarda tutuvchi maxsus tartib kabi chet elliklarning huquqiy tartibi ko'rinishi ham an'anaviy hisoblanadi. Bu tartib ma'lum imtiyoz va ustunliklarni berishni nazarda tutishi bilan ajralib turadi va qoidaga ko'ra qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlarda, masalan, aholining chegaraoldi aloqalari sohasida mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar hududida joylashtirilgan harbiy qismlar va bo'linmalarining harbiy xizmatchilari maxsus imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

4. Xalqaro huquqda qochoqlar huquqi

Qochoqlar masalasi qadimdan mavjud, biroq XX asrda u shunday ommaviy tus ola boshladiki, xalqaro hamjamiyat uning yechimini topishga kirishishga majbur bo'ldi. Qochoqlar muammosiga bag'ishlangan ilk xalqaro-huquqiy hujjat asrimizning 20-yillarida tuzildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng BMT doirasida qochoqlar muammosini hal etish uchun BMT Bosh Assambleyasining yordamchi organi sifatida Qochoqlar ishlari bo'yicha Bosh komissarning boshqarmasi (BMT QIBKB) tashkil etildi. Uning vazifasi qochoqlarning xalqaro himoyasini ta'minlash va ixtiyoriy repatriatsiya yoki boshqa davlatlarga assimilatsiya qilish yo'li bilan ularning muammolarining to'liq yoki uzoq muddatli yechimini topishdan iborat.

Irqiy belgisi, diniy e'tiqodi, fuqaroligi yoki siyosiy qarashlariga ko'ra ta'qib qurboni bo'lishning asosli tahdidiga ko'ra o'zi fuqarosi bo'lgan davlat tashqarisida bo'lgan va bu mamlakat himoyasidan foydalana olmaydigan yoki shaxsiy qulaylik mulohazalari bilan bog'liq sabablarga ko'ra foydalanishni xohlamagan har qanday shaxs BMT QIBKB mandati yoki himoyasi ostidadir.

Keyinchalik BMT QIBKB mandatini qochoqlar oqimining kuchayishining o'zgarayotgan xarakteriga moslash maqsadida bu ta'rifga qo'shimcha mezonlar kiritiladi.

Bu, masalan, faqat ta'qiblar emas, balki qurolli mojarolar va inson huquqlarini cheklashning qurbonlari bo'lgan qochoqlarga taalluqlidir. Shuning uchun ham amaliyotda «xalqaro yordamga muhtoj shaxslar» atamasi paydo bo'ldi.

Hozirgi paytda qochoqlarning bir necha kategoriyasi mavjud. QIBKBning xizmat doirasiga kiruvchi qochoqlar toifasi «mandat» qochoqlari nomini olgan. Bunday atama BMT QIBKB tomonidan shu tashkilotning Nizomiga ko'ra qochoqlar sifatida qaraladigan shaxslarga qo'llaniladi. «Mandat» qochoqlari BMT QIBKB tomonidan u o'tkaziladigan yordam ko'rsatish dasturi o'tkazilganda bevosita yordam oladilar. «Konvension» qochoqlar 1951-yilgi Konvensiyaga va 1967-yilgi Protokolga ko'ra beriladigan huquq va imtiyozlardan foydalanadilar.

Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi Konvensiya (1994-yil 22-aprelda kuchga kirgan) – bu BMT QIBKBning tuzilishi bilan

bir vaqtda tuzilgan xalqaro shartnomadir. U davlatlar o'rtasidagi qochoqlar masalasi to'g'risidagi asosiy universal bitim hamda qochoqlarni himoya qilish xalqaro tizimining asosidir. Konvensiya «qochoq» tushunchasining ma'lum milliy guruhlar bilan bog'lanmagan umumiy ta'rifini o'z ichiga oladi. Konvensiyaning 1-moddasiga ko'ra, qochoq – bu irqiy belgisi, diniy qarashlari, fuqaroligi, ma'lum ijtimoiy guruhga tegishliligi yoki siyosiy qarashlariga ko'ra ta'qib qurboni bo'lishdan qo'rqib fuqaroni davlatdan tashqarida bo'lgan va davlat himoyasidan foydalana olmaydigan yoki foydalanishni xohlamaydigan yoki ta'qib qurboni bo'lishdan qo'rqib qaytishni xohlamaydigan; yoki ma'lum fuqarolikka ega bo'lmagan va o'zining avvalgi doimiy yashab turgan joyidan tashqarida bo'lib shunday qo'rquvlar tufayli u yerga qayta olmaydigan yoki qaytishni xohlamaydigan shaxsdir.

1967-yilda Qochoqlarning maqomi to'g'risidagi Protokol kuchga kirdi. U 1951-yilgi Konvensiyaning zamon va makonda amal qilishiga oid cheklashlarni bekor qildi. Konvensiya universal xarakterga ega bo'ldi.

Qochoqning shaxsiy maqomi uning yashayotgan mamlakati qonunlari bilan, u bo'lmaganda esa, u yashab turgan mamlakat qonunlari bilan belgilanadi. Qochoqlar huquqi to'g'risidagi 1951-yilgi Konvensiya quyidagi masalalarni batafsil tartibga soladi: qochoqning mulkka nisbatan huquqi, mualiflik va sanoat huquqlari, ishga joylash, ijtimoiy va tibbiy ta'minot masalalari va boshqalar. Ba'zi huquqlarga nisbatan qochoqlar milliy tartibdan foydalanadilar (sudga murojaat etish huquqi, mualliflik huquqlari, ilm olish va boshqalar), boshqa huquqlarga nisbatan esa (mulkchilik huquqi, uyushmalarga kirish huquqi, yollanib ishlash va boshqalar), odatda, chet elliklar qulay bo'lmagan tartibdan foydalanadilar.

Qochoqlarning maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi Konvensiya ishtirokchi-davlatlar «imkoni boricha qochoqlarning assimilyatsiya va naturalizatsiyasini yengillashtirishlari» to'g'risidagi Nizomni o'z ichiga oladi. Buning yo'llaridan biri ularga boshpana berishdir. Vaqtincha va doimiy xarakterdagi xalqaro organlarning qochoqlar muammosi bo'yicha tuzilgan bir qator mintaqaviy xarakterdagi xalqaro shartnomalari ham mavjud, masalan, Afrikadagi qochoqlar muammolarining aniq tomonlari bo'yicha 1969-yilgi Konvensiya va boshqalar. Shuni ta'kidlash muhimki, bu hujjatlardagi «qochoq» tushunchasiga ko'pin-

cha 1951-yilgi Konvensiya, 1967-yilgi Protokol va BMT QIBKB Nizomidan kengroq ta'rif beriladi.

Qochoqlar va majburiy ko'chganlar muammosi sobiq SSRI hududini qamrab olganligi uchun uning yechimida MDHga a'zo davlatlarning hamkorligi muhim o'rin egallaydi. Bu sohadagi harakatlarni muvofiqlashtirish uchun 1993-yilning 24-sentabrida Moskvada Qochoqlar va ko'chgan shaxslarga yordam ko'rsatish to'g'risidagi Bitim, 1995-yil 10-fevralda To'ldirilgan Bitim imzolandi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng huquqiy himoyadan foydalangan fuqarolar toifalaridan biri majburan ko'chirilgan shaxslar bo'ldi.

Majburan ko'chirilgan shaxslar – bu Ikkinchi jahon urushi davrida nemis bosqinchilari va ularning ittifoqchi qo'shinlari tomonidan, ular ishg'ol qilgan hududlardan ishchi kuchi sifatida majburan olib ketilgan shaxslardir. Urush tugaganidan so'ng majburan ko'chirilgan shaxslarni ularning doimiy yashash joylariga qaytarish masalasi bilan 1946-yilda tuzilgan Qochoqlar ishlari bo'yicha xalqaro tashkilot shug'ullandi. Sobiq Ittifoq o'zining urush vaqtida majburan ko'chirib ketilgan fuqarolarini repatriatsiya qilish (o'z vataniga qaytarish) to'g'risida qator bitimlar tuzdi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi hujjatlarida «ko'chirilgan shaxslar» atamasi qo'llanmasa-da, BMT QIBKB va boshqa migratsiya masalasi bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar amaliyotida «mamlakat tashqarisiga ko'chgan shaxslar» va «mamlakat ichida ko'chgan shaxslar» atamaları uchrab turadi.

Keyingi o'n yilliklarda xalqaro hamjamiyat, ma'lum holatlarga ko'ra, bir davlat hududidan ikkinchi davlat hududiga ko'chishi bilan xarakterlanuvchi aholining «ommaviy chiqib ketishi» yoki «ommaviy kirib kelishi» nomini olgan faktlarga duch kelmoqda.

5. Xalqaro huquqda boshpana huquqi

Boshpana huquqi institutining tashkil topishi inson huquqi bo'yicha bir qator boshqa institutlar singari murakkab va uzoq kechdi.

Boshpana normalarini unifikatsiya qilishga ilk urinish 1950-yilda Xalqaro ommaviy huquqda boshpana rezolutsiyasini qabul qilgan Xalqaro huquq instituti tomonidan amalga oshirilgan edi. Unda bosh-

pana huquqi shunday ta'riflanadi: «Boshpana – davlatning o'z hududida yoki joylarda uning ma'lum organlari nazorati ostida bo'lgan va boshpana izlayotgan shaxsga ko'rsatadigan homiyligidir». Ta'rif boshpananing mavjud ko'rinishlaridan kelib chiqadi:

a) hududiy – chet el fuqarosiga boshqa bir davlat tomonidan o'z hududidan boshpana berilishi;

b) diplomatik – xorijiy davlatning diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi hududidan ayrim shaxslarga boshpana berilishi, ko'p hollarda – elchixona yoki konsulliklar joylashgan davlatlar fuqarolariga.

Boshpana huquqi masalalarining keyingi muhokamasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida o'tdi. Bu institut to'g'risidagi tortishuvlar 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Hududiy boshpana to'g'risidagi 1967-yilgi Deklaratsiyalarga kiritilmagan. Bu hujjatlarda aytilishicha, BMT maqsadlariga zid keluvchi jinoyatlar sodir etganligi uchun ta'qib qilinayotgan chet elliklardan tashqari har qanday shaxs boshqa mamlakatlarda boshpana izlash va boshpana olish huquqiga egadir (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 14-moddasi). Boshpana huquqi mustamlakachilikka qarshi kurashchilar uchun ham yozib qo'yilgan edi (1967-yilgi Deklaratsiyaning 1-moddasi).

Shunga qaramay, bu hujjatlarning ko'rsatilgan moddalarida o'z xalqi manfaatlariga xiyonat qilgan, o'zining g'arazli niyatlarini ko'zlovchi, BMT Ustavining prinsiplarini buzuvchi shaxslarga boshpana berishning asosli emasligini tan olish to'g'risida gap boradi.

Boshpana huquqi davlat suverenitetiga asoslangan institutligi va butunlay siyosiy xarakterga egaligi umumiy tan olingan. Bundan tashqari, har bir muayyan holda manfaatdor shaxs tomonidan siyosiy boshpana berish to'g'risidagi arizaning (iltimosnoma, arznoma) mavjudligi boshpana huquqining o'ziga xos belgisidir.

Bu huquqiy institutning asosiy masalalaridan biri – bu boshpana berilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi to'g'risidagi masaladir.

Paydo bo'lgan davlat ichki amaliyotiga ko'ra boshpana huquqi to'g'risidagi Nizomlar qoidalari davlatlarning konstitutsiyaviy hujjatlari kiritiladi va ularda ko'rsatilgan huquqni olishga da'vogar bo'la oladigan shaxslar kategoriyasi ko'rsatiladi. Shaxsga o'z hududidan boshpana bergan davlat bu shaxsning xavfsizligi kafolatini ta'minlash, uni u ta'qib qilinishi mumkin bo'lgan mamlakatga topshirmaslik va

surgun qilmaslik hamda unga asosiy huquq va erkinliklarni berish majburiyatini oladi.

Topshirish va surgun qilish o'rtasidagi farqlar quyidagilardir:

1) surgun – ma'muriy-huquqiy harakat bo'lsa, topshirish – huquqiy yordam harakatidir;

2) surgun davlat ichki instituti bo'lganida, topshirish – xalqaro-huquqiy institutdir;

3) surgun shaxs joylashib turgan davlat tashabbusi bilan amalga oshirilsa, topshirish – faqatgina topshirish to'g'risidagi talabnoma mavjud bo'lgan holda bajariladi.

Shuni ta'kidlash joizki, boshpana huquqi xalqaro-huquqiy institut sifatida u yoki bu jismoniy shaxsning emas, balki davlatning huquqidir. Bundan tashqari, xalqaro huquq normalaridan kelib chiqsak, davlatlarning ma'lum toifa shaxslarga so'zsiz ravishda boshpana berish majburiyati mavjud emas. Shuningdek, hech bir davlatning ichki huquqiy normalarida, u yoki bu davlatning fuqarolari, boshqa davlatdan boshpana so'rash huquqiga egaligi to'g'risidagi qoida mavjud emas. Xorijiy davlatga boshpana so'rab iltimos qilgan individ o'z davlatining ichki qonunchiligiga ko'ra noqonuniy harakat sodir etadi. Bunday iltimos o'z davlati yurisdiksiyasidan noqonuniy yo'l bilan chiqishga urinish hisoblanadi.

Turli davlatlarning boshpana to'g'risidagi qonunchiligiga ko'ra, shaxsning o'z vatanida siyosiy sabablarga ko'ra ta'qib qilinishi unga boshpana berilishiga umumiy asos bo'ladi.

Quyidagi hollarda boshpana berilmasligi umum e'tirof etilgan hisoblanadi:

1) xalqaro jinoyatlar sodir etgan shaxslarga (harbiy jinoyatlar va boshqa);

2) ko'p tomonlama xalqaro-huquqiy hujjatlarga ko'ra topshirishi kerak bo'lgan, xalqaro miqyosda jinoyat sodir etgan jinoyatchilarga (masalan, samolyotlarni olib qochish, narkotik va psixotrop moddalar va boshqalarni noqonuniy tarzda tarqatish);

3) davlatlarning topshirish to'g'risidagi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarida topshirish nazarda tutilgan jinoyatchilarga;

4) BMT maqsad va prinsiplariga zid keluvchi qilmishlar sodir etgan shaxslarga.

Noqonuniy tarzda boshpana berilganda davlat uni olgan shaxsni berishni talab etish huquqiga ega, boshpana davlat esa uni topshirishga majburdir.

Ko'pgina mamlakatlar diplomatik boshpana institutini nomaqbul va noqonuniy deb hisoblaydi (u faqat Lotin Amerikasi mamlakatlarida tan olinadi). Biroq davlatlar amaliyotida boshpananing nafaqat davlat hududida, balki diplomatik vakolatxonalar va konsulliklar binolarida, harbiy kema va havo kemalari bortida, harbiy bazalar hududida boshpana berilishi hollari uchraydi. Xuddi shunday holatlar diplomatik boshpana deb nomlanadi. Uning berilishining qonuniyligi asosan diplomatik rezidensiyalardagi immunitet bilan izohlanadi. Biroq bu Diplomatik aloqalar to'g'risidagi 1961-yilgi Vena konvensiyasining 41-moddasi 3-paragrafiga zid keladi. Unga ko'ra, «vakolatxonalarning binolaridan shu Konvensiya yoki umumiy xalqaro huquq normalari yoki akkreditatsiya qiluvchi davlat va istiqomat qilish davlati o'rtasida amalda bo'lgan maxsus bitimlarda nazarda tutilgan vakolatxonalarning vazifalariga mos kelmaydigan maqsadlarda foydalanmasliklari zarur». Agarda diplomatik vakolatxonalar yuqoridagi normalarda ko'rsatilgan taqiqni buzsalar, u holda diplomatik immunitetni suiiste'mol qilish, istiqomat qiluvchi davlatning ichki ishlariga aralashish to'g'risida so'z ketadi.

Milliy qonunchilik va davlatlar tomonidan boshpana berish amaliyoti turlichadir. Bu har bir davlatning siyosati, uning xalqaro-huquqiy mavqeyi, boshqa mamlakatlar bilan munosabatlari bilan belgilanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. «Aholi» iborasining umumiy tavsifi, uning tarkibiga kiruvchi subyektlar.

2. Fuqarolik, ko'p fuqarolik (bipatrizm) va fuqarosizlik (apatrizm) o'rtasidagi mutanosiblik nimada?

3. Chet elliklarning O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy holatini ta'riflab bering.

4. Xalqaro huquqda boshpana huquqi tushunchasi. Diplomatik va hududiy boshpana haqida so'zlab bering.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бакаева Ф.Х. Международное право беженцев: Учебное пособие. – Т.: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана им. А. Навои, 2004.
2. Бояре Ю.Р. Вопросы гражданства в международном праве. – М., 1986.
3. Галенская Л.Н. Право убежища (международно-правовые вопросы). – М., 1968.
4. Потапов В.И. Беженцы и международное право. – М., 1986.
5. Черниченко С.В. Международно-правовые вопросы гражданства. – М., 1968.
6. Coles. Solutions to the Problem of Refugees and the Protection of Refugees. – Geneva, 1989.
7. Goodwin-Gill G. The Refugee in International Law. – Oxford, 1983.
8. Hathaway J. The Evolution of Refugee Status in International Law. – London, 1984.
9. Melander G. The Refugee Problem on Universal, Regional and National Level. – Thessalonica, 1987.
10. Neale R.C. Diplomatic Asylum. – The Hague, 1965.
11. Ronning C.N. Diplomatic Asylum. – New York, 1965.

11-bob. XALQARO SHARTNOMALAR HUQUQI

1. *Xalqaro shartnomalar huquqi tushunchasi, uning kodifikatsiyasi va manbalari.*
2. *Xalqaro shartnoma tushunchasi, obykti va maqsadlari.*
3. *Xalqaro shartnomaning tomonlari.*
4. *Xalqaro shartnomalarning tasnifi.*
5. *Xalqaro shartnomalarning shakli, tuzilishi va nomlanishi. Shartnomaning tili.*
6. *Xalqaro shartnomani tuzish.*

1. Xalqaro shartnomalar huquqi tushunchasi, uning kodifikatsiyasi va manbalari

Xalqaro shartnomalar huquqi – davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlarining xalqaro shartnomalar tuzish, ularning amal qilishi va ularni tugatish borasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy normalarining yig'indisini ifodalaydigan xalqaro huquq tarmog'idir.

Xalqaro shartnoma – xalqaro huquqning asosiy manbayi va davlatlarning tashqi funksiyasini amalga oshirishning muhim vositasidir. Xalqaro shartnomalar huquqida sodir bo'layotgan o'zgarishlar muqarrar ravishda xalqaro huquqning qolgan sohalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xalqaro shartnomalar huquqi xalqaro huquq tizimining yetakchi sohalaridan biri bo'lib, bu tizimda alohida o'ringa egallaydi¹. Hozirgi vaqtda dunyoda 30 mingdan ortiq xalqaro shartnomalar mavjud.

Xalqaro shartnomalar huquqining obykti xalqaro shartnomalarning o'zidir.

«Xalqaro shartnomalar – xalqaro huquqning ikki yoki bir qancha subyektlari o'rtasida ularning munosabatlarini siyosiy, iqtisodiy, fan-texnika, madaniyat va boshqa sohalaridagi o'zaro huquq va majburiyatlarini yaratish yo'li bilan tuzgan aniq ifodalangan bitimlardir»².

¹ To'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Talalalov A.H. *Pravo mezhdunarodnykh dogovorov.* – M., 1980.

² *Дипломатический словарь. Т. I.* – М., 1996. – С. 343.

Xalqaro shartnomalar huquqini kodifikatsiya qilish ko'p sonli normalarni xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari asosida kelishilgan tizimga keltirishdir.

Shartnoma normalarini kodifikatsiyalashtirishga ilk urinishlar Millatlar Ligasi tomonidan qilingan edi. Biroq faqat BMT tashkil etilganidan so'nggina xalqaro shartnomalar huquqining asosiy manbalari bo'lgan qator muhim universal shartnomalarni ishlab chiqish va qabul qilish mumkin bo'ldi. BMTning Xalqaro huquq komissiyasi o'z faoliyatini boshlagandan buyon xalqaro shartnomalar huquqining kodifikatsiyasi va ilg'or rivojlanishi bilan ancha faol va muvaffaqiyatli shug'ullanib kelmoqda. U xalqaro shartnomalar huquqining asosini tashkil etuvchi bir qator xalqaro hujjatlarni ishlab chiqqan. 1969-yil 23-maydagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi shular jumlasidandir¹.

U xalqaro shartnomalarning, davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari o'rtasidagi farqlaridan qat'iy nazar, ular o'rtasidagi tinch hamkorlik vositasi sifatidagi muhim rolini ta'kidlaydi, xalqaro shartnoma tuzish tartibi, xalqaro shartnomaning uchinchi tomon uchun ahamiyati, shartnomalarni bekor qilish uchun asoslar, eslatma berish huquqi kabi shartnoma huquqining turli masalalarini ko'rib chiqadi, bir-birini tan olmaydigan davlatlarning shartnomada qatnashuvi, davlatning universal shartnomalarda qatnashish huquqi, shartnomalarni qo'llash oqibatida kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi, depozitariyning vazifalari kabi yangi holatlarlar va xalqaro shartnomalar huquqining boshqa muhim masalalarini ta'kidlaydi.

1969-yilgi Konvensiya xalqaro shartnomalar huquqining asosiy manbayidir.

1978-yil 23-avgustdagi *Davlatlarning shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi*². Bu Konvensiyada davlatlarning shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligiga tegishli normalar ham kodifikatsiyalashtirilgan va rivojlantirilgan edi. U asosan huquqiy vorislikning ko'p tomonli shartnomalar, shuningdek xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlari va xalqaro tashkilotlar doirasida qabul qilingan shartnomalarga nisbatan turli xil jihatlarni tartibga soladi. Konvensiyada huquqiy vorislik institutlarining xalqaro munosa-

¹ Международное право в документах. – М., 1996. – С. 69-99.

² O'sha joyda. – 32-43-betlar.

batlarni huquqiy mustahkamlash vositasi sifatidagi ahamiyati ta'kidlanadi.

1986-yil 21-martdagi BMTning davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi. Konvensiya davlatlar (bir yoki bir necha) va xalqaro tashkilotlar (bir yoki bir necha) o'rtasidagi hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalarga nisbatan qo'llaniladi. U xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlari shaklidagi hujjatlar bo'lgan shartnomalar va xalqaro tashkilot doirasida qabul qilingan har qanday shartnomalarga ham qo'llaniladi. Konvensiya bu shartnomalarga tegishli bo'lgan, ularning tuzilishi va kuchga kirishi, shartnomalar qabul qilinishi tartibi, ko'rsatilgan shartnomalarga rioya qilish, ularni izohlash kabi masalalarni tartibga soladi. Bu konvensiya Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasini to'ldiradi deyish mumkin.

2. Xalqaro shartnoma tushunchasi, obyeksi va maqsadlari

Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasining 2-moddasi hamda Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi 1986 yilgi Vena konvensiyasiga ko'ra, *xalqaro shartnoma – davlatlar va xalqaro huquq subyektlari tomonidan bir, ikki yoki bir necha o'zaro bog'liq hujjatlarda bo'lishidan hamda uning aniq nomidan qat'iy nazar, yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan bitimidir.*

ta'rifda og'zaki shakldagi shartnomalar to'g'risida aytilmasa-da, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'zaro kelishuvga ko'ra 1969- va 1986-yillardagi Vena konvensiyalarining qoidalarini og'zaki shartnomalarga ham joriy etishlari mumkin.

Xalqaro amaliyotda xalqaro munosabatlarning turli masalalari bo'yicha davlatlarning kelishilgan nuqtayi nazarlarini aks ettiruvchi boshqa yozma hujjatlar ham qo'llaniladi. Misol uchun, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Yakunlovchi akti va 1989-yilgi Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi kabi yozma hujjatlar amaldardir. Bu hujjatlar tashqaridan shartnomalarni eslatlsa-da, EXHKga a'zo davlatlar ularga shartnomalar shaklini berishni xohlamadilar. Bu

narsa, ayniqsa, hujjatlar BMT Kotibiyatida qayd etilmaganligi bilan ham tasdiqlanadi. Shunga qaramay, BMT Ustavining 102-moddasida bunday talab mavjud.

Xalqaro huquq subyektlarining moddiy va nomoddiy manfaat-lari, harakatlari va harakatlardan o'zini tiyishlari borasidagi munosabatlari xalqaro huquqning obyektidir. Xalqaro huquqning har qanday obyektini xalqaro shartnoma obyektini bo'lishi mumkin.

Davlatlarning o'zlari nima xalqaro shartnoma obyektini bo'lishini belgilashlari kerak. Xalqaro amaliyotga ko'ra, xalqaro ishlarga taalluqli bo'lgan, shuningdek davlatning ichki ishlariga kiruvchi har qanday masala xalqaro shartnoma obyektini bo'lishi mumkin.

Biroq davlatlar davlatning ichki huquqi doirasiga kiruvchi masalalarni shartnoma obyektini qilishdan o'zlarini tiyadilar.

Odatda, shartnomaning obyektini shartnoma nomida aks etadi.

Xalqaro shartnomaning maqsadi deganda xalqaro huquq subyektlari shartnoma tuzish bilan amalga oshirishga yoki erishishga intilgan narsalar tushuniladi. Shartnoma davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlarining o'zlari oldiga qo'ygan maqsadiga erishish vo-sitasidir.

Odatda maqsad shartnoma muqaddimasi yoki uning birinchi moddalarida belgilanadi. Misol uchun, BMT Ustavining muqaddimasi va 1-moddasida Ustavni qabul qilish va BMTni tuzish maqsadlari ay-tib o'tilgan.

3. Xalqaro shartnomaning tomonlari

Faqat xalqaro huquq subyektlarigina xalqaro shartnomalarning tomonlari yoki subyektlari bo'lishlari mumkin.

1969-yilgi Vena konvensiyasining 6-moddasiga ko'ra, «har bir davlat shartnomalar tuzish huquqiga egadir». O'z navbatida, xalqaro tashkilotning shartnomalar tuza olish huquqi «shu tashkilotning qoida-lari bilan tartibga solinadi» (1986-yilgi Vena konvensiyasining 6-moddasi).

Qoidalar deganda xususan «tashkilotning ta'sis hujjatlari, ularga asoslanib qabul qilingan qaror va rezolutsiyalar, shuningdek shu tashkilotning qaror topgan amaliyoti tushuniladi» (1986-yilgi Vena kon-

vensiyasi 1-moddasining 1-paragrafi). Boshqacha aytganda, davlatlarning shartnomalarga nisbatan huquqiy layoqati hech narsa bilan cheklanmagan bo'lsa va ular har qanday masala yuzasidan shartnomalar tuza olsalar, xalqaro tashkilotlarning shartnomalar tuzish huquqi eng avvalo ularning ta'sis hujjatlari bilan cheklangandir.

1969- va 1986-yilgi Vena konvensiyalarining 1-moddalarida amaliyotdan kelib chiqqan holda «muzokaralarda qatnashuvchi davlat», «muzokaralarda qatnashuvchi tashkilot», «kelishib olayotgan davlat», «kelishib olayotgan tashkilot», «qatnashchi», «uchinchi davlat», «uchinchi tashkilot» kabi tushunchalar qo'llaniladi.

Muzokaralarda qatnashuvchi davlat – shartnomani tuzish va shartnoma matnini qabul qilishda qatnashgan davlatdir; shartnoma kuchga kirgan yoki kirmaganligidan qat'iy nazar, shartnoma u uchun majburiylikiga rozi bo'lgan davlat kelishib olayotgan davlatdir. Shartnoma ular uchun majburiy ekanligiga rozi bo'lgan va ular uchun shartnoma kuchga ega bo'lgan davlatlar shartnoma qatnashchilaridir. Shartnoma qatnashchilari bo'lmagan davlatlar uchinchi davlatlar deb ataladi. Davlatlarga nisbatan aytib o'tilgan barcha holatlar xalqaro tashkilotlarga ham taalluqlidir.

4. Xalqaro shartnomalarning tasnifi

Shartnomalar turli asoslarga ko'ra tasniflanishi mumkin. Qatnashchilar doirasiga ko'ra, shartnomalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga bo'linadi.

Ikki davlat ishtirok etayotgan shartnoma ikki tomonlama shartnomadir. Bir tomondan bir davlat, ikkinchi tomondan esa bir necha davlatlar qatnashayotgan shartnomalar ham (masalan, 1947-yilgi Tinchlik shartnomalari) ikki tomonlama bo'lishi mumkin.

Barcha davlatlarning qatnashuvi mo'ljallangan universal (umumiy) shartnomalar va qatnashchilar soni cheklangan shartnomalar ko'p tomonlama shartnomalarga kiradi. Shartnomalarning birinchi turiga 1969- va 1986-yilgi Vena konvensiyalarini, ikkinchi turiga esa YIHni tuzish to'g'risidagi 1957-yilgi Rim shartnomasini misol qilib keltirish mumkin.

Shartnomalar ochiq va yopiq bo'lishi mumkin. Har qanday davlat, shartnomada qatnashuvchi davlatlarning roziligi yoki rozi emas-

ligidan qat'iy nazar, shartnoma qatnashchisi bo'la oladigan shartnomalar ochiq shartnomalarga kiradi. Shartnomalarda qatnashish uning boshqa qatnashchilarining roziligiga bog'liq bo'lgan shartnoma yopiq shartnomadir. 1986-yilgi Vena konvensiyasi ochiq shartnomaga, yuqorida aytib o'tilgan 1957-yilgi Rim shartnomasi esa yopiq shartnomaga misol bo'la oladi.

Tartibga solish obyektlariga ko'ra shartnomalar siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqalarga bo'linadi. Biroq, bunday guruhlariga ajratish shartli xarakterga ega, chunki davlatlar siyosiy tuzilmalardir. Shu bilan bir vaqtda, shartnomalarni obyektlar bo'yicha tasniflash shartnomalarni hisobga olish va tizimlashni engillashtiradi.

5. Xalqaro shartnomalarning shakli, tuzilishi va nomlanishi. Shartnomaning tili

Shartnoma yozma yoki og'zaki shaklda tuzilishi mumkin (masalan, «jentelmenlik kelishuvi» deb nomlanuvchi shartnoma). Og'zaki shakldagi shartnomalar kam tuziladi, shuning uchun ham eng ko'p tarqalgan shakl yozma shakldir, chunki faqat yozma shakldagi shartnomagina tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq va ravshan belgilaydi.

Shartnomaning tuzilishiga shartnomaning nomi, muqaddima, asosiy va yakunlovchi qismlari kabi tarkibiy qismlari kiradi.

Muqaddima, ko'pincha unda shartnomaning maqsadi ifodalanganini uchun shartnomaning muhim qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, muqaddima shartnomani izohlashda qo'llaniladi.

Shartnomaning asosiy qismi moddalarga bo'linishi, moddalar esa bo'limlar (BMTning Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi Konvensiyasi), boblar (BMT Ustavi) yoki qismlarga (Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi 1944-yilgi Chikago konvensiyasi) bo'linishi mumkin. Ba'zi shartnomalarda moddalar va bo'limlar (boblar, qismlar)ga nomlar beriladi.

Yakunlovchi qismda shartnomalarning kuchga kirish va tugatish shartlari, shartnoma matni tuzilgan tilga doir qoidalar va boshqalar bayon etiladi.

Xalqaro shartnomalar ko'pincha protokollar, qo'shimcha protokollar, qoidalar, almashuv xatlari va boshqalar ko'rinishidagi ilova-

larga ega bo'ladi. Agar bu haqda shartnoma matnida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, ilovalar shartnomaning ajralmas qismi bo'lishi mumkin.

Shartnomalar turli nomlarga ega bo'lishlari (masalan, konvensiya, shartnoma, protokol, deklaratsiya, nizom, ustav, xartiya, akt, pakt, memorandum, bitim va boshqalar) yoki ularning nomlari bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham «shartnoma» tushunchasiga umumiy tushuncha sifatida qaraladi.

Shartnoma matni tuziladigan tilni ahdlashayotgan tomonlar belgilaydilar. Ikki tomonlama shartnoma qoidaga ko'ra shartnoma tuzuvchi tomonlarning tillarida tuzilsa-da, ular biror boshqa tilni tanlashlari ham mumkin. Ba'zan kelishuvchi tomonlarning ikki tilidan tashqari, ular matnni uchinchi (neytral) tilda tuzadilar. Ko'p tomonlama shartnomalar shartnoma tuzuvchi tomonlar belgilagan tilda tuziladi. Hozirda BMT, uning ixtisoslashgan muassasalari yoki boshqa xalqaro tashkilotlar rahbarligida imzolanadigan shartnomalarni shu tashkilotlarning rasmiy tilida tuzish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda.

Shartnomaning turli tillardagi matnlari haqiqiy bo'lib, bir xil yuridik kuchga egadir.

6. Xalqaro shartnomani tuzish

Shartnoma tuzish bosqichlari. 1969- va 1986-yilgi Vena konvensiyalari «shartnoma tuzish» deganda nima tushunilishini ta'riflamaydi. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, tuzish so'zi davlatning muzokaralar boshlashdan shartnomaning kuchga kirishgacha bo'lgan barcha harakatlarini bildiradi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Xalqaro shartnomalar tuzish jarayoni bosqichlarga bo'linishi mumkin. Bularga shartnoma matnini tuzish va uni qabul qilish, shartnomalarning haqiqiylikini aniqlash va shartnomaning majburiylikiga rozilik bildirishlarni kiritish mumkin.

Qoidaga ko'ra, shartnoma tuzishdan oldin shartnoma tashabbusi, ya'ni bir davlat yoki davlatlar guruhining shartnoma matni loyhasini taqdim etib, ma'lum bir shartnoma tuzish taklifi keladi. Bunday harakatlar shartnoma tuzish jarayonini, ayniqsa, matn ustida ishlashni osonlashtiradi.

Qoidaga ko'ra, shartnomalarni bunga maxsus vakil qilingan shaxslar tuzishadi, ularga vakolatlar deyiladigan maxsus hujjat beriladi. Bunda vakolatlar shartnomani imzolashning barcha bosqichlari yoki faqat ma'lum bir bosqich uchun berilishi mumkin. 1969-yilgi Vena konvensiyasining 7-moddasiga ko'ra, davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari yoki tashqi ishlar vazirlariga vakolatlar kerak emas va ular shartnoma tuzish bilan bog'liq barcha harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Xalqaro tashkilotlar va xalqaro konvensiyalardagi diplomatik vakolatxonalar va davlat boshliqlariga ham vakolatlar zarur emas, biroq ular faqat shartnoma matnini qabul qilishga tegishli harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Vakolatlar berish davlatning ichki qonunchiligiga ko'ra amalga oshiriladi. U qaysi davlat organida bunday huquq borligini belgilaydi.

Xalqaro tashkilotni maxsus vakolatlarga ega bo'lgan yoki xalqaro tashkilotlar qoidalariga asosan bunday vakolatlarni taqdim etmay turib ham vakil bo'la oladigan shaxs namoyon qilishi mumkin (1986-yilgi Vena konvensiyasining 7-moddasi).

Shartnoma matnini tayyorlash va uni qabul qilish. Shartnoma matnini tayyorlash xalqaro konvensiyalar va xalqaro tashkilotlarda oddiy diplomatik yo'llar orqali muzokaralar olib borish usuli bilan amalga oshiriladi. Qoidaga ko'ra, diplomatik muzokaralar yo'li bilan ikki tomonlama shartnomalar matnlari tayyorlanadi. Xalqaro tashkilotlarda shartnomalar matni loyihalari ularning asosiy organlari yoki shu maqsadlar uchun maxsus tuzilgan yordamchi organlar tomonidan ishlab chiqiladi. Amaliyotda xalqaro konferensiyaning o'zi shartnoma matni loyihagini ishlab chiqish hollari ham mavjud. BMTning Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi Konvensiyasi bunga misoldir, uning matnini 1974-1982 yillardagi BMTning Dengiz huquqi bo'yicha konferensiyalari ishlab chiqqan.

Shartnoma matni qabul qilinishi bilan, mohiyatan, davlatlar o'rtasidagi bu matnni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan muzokaralar tugaydi. 1969-yilgi Vena konvensiyasining 9-moddasi 1-bandiga ko'ra, «shartnoma matni uni tuzishda qatnashgan barcha davlatlarning roziligi bilan qabul qilinadi». Shartnoma matni imzolash yoki tasdiqlash ko'rinishida qabul qilinishi mumkin. Xalqaro konvensiyalarda shartnoma matni ularning ish tartibi qoidalariga ko'ra qabul qilinadi. Biroq, unda qabul qilish tartibi belgilangan bo'lmasa, matn 1969-yilgi

Vena konvensiyasining 9-moddasi 2-bandida nazarda tutilganidek, ya'ni «hozir bo'lgan va ovoz berishda qatnashayotgan davlatlar vakillarining uchdan ikki qismining ovoz berishi yo'li bilan» qabul qilindi. Xuddi shunday holat 1986-yilgi Vena konvensiyasining 9-moddasida ham mavjud.

Xalqaro tashkilotlar, masalan, BMTda shartnoma matnlari bu tashkilotlarda mavjud bo'lgan qoidalarga ko'ra qabul qilinadi. Qoidaga ko'ra, shartnoma matni tegishli rezolutsiya qabul qilish yo'li bilan qabul qilinadi.

Xalqaro amaliyot xalqaro konferensiya va xalqaro tashkilotlarda shartnoma matnini qabul qilishning yangi shakli – qatnashchilar nuqtayi nazarlarini muvofiqlashtirish yo'li va hech bir qatnashchi tomonidan rasmiy qarshilik bo'lmaganda shartnoma matnini ovoz berishsiz qabul qilish shaklini ishlab chiqdi. Shartnoma matnini qabul qilishning bunday ko'rinishi konsensus nomini oldi.

Shartnoma matnining autentikligini aniqlash. Shartnoma matnining autentikligi berilgan matn haqiqiy va ishonchliligini bildiradi.

1969-yilgi Vena konvensiyasining 10-moddasida ko'rsatilishicha, autentik imzolash, ad referendum imzolash, yoki shartnoma matnining o'zini yoki konferensiyaning shu matnni o'z ichiga olgan yakuniy hujjatini tasdiqlash yo'li bilan belgilanadi. Bunda kelishuvchi davlatlarning o'zlari qanday qilib matnning autentikligini aniqlashni belgilashlarini hisobga olish zarur.

Ad referendum imzolash (shartli imzolash) – shartnoma kerakli davlat yoki xalqaro tashkilot tomonidan tasdiqlanishi zarurligini bildiradi.

Tasdiqlash deganda, qoidaga ko'ra, shartnoma matnining har bir varag'i davlat yoki xalqaro tashkilot vakillarining ism-shariflari bilan imzolanishi tushuniladi.

Shartnomaning majburiyligiga rozilik bildirish usullari. Shartnomaning majburiyligiga davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlarining rozilik bildirishlari shartnoma tuzishning oxirgi bosqichidir. 1969- va 1986-yilgi Vena konvensiyalarining 11-moddalari shartnomaning majburiyligiga rozilik bildirishning quyidagi usullarini belgiladi: shartnomani imzolash, shartnomani tashkil etuvchi hujjatlarni almashish, shartnomani ratifikatsiya qilish, uni qabul qilish, tasdiqlash, unga qo'shilish yoki tomonlar kelishgan boshqa biror usul.

Shartnomaning majburiyligiga rozilik bildirishning eng keng tarqalgan usuli uni imzolashdir.

Xalqaro amaliyot shartnomalar imzolashning ma'lum qoidalarini ishlab chiqdi. Misol uchun, ikki tomonlama shartnoma ostidagi davlatlar vakillarining imzolari bir-biriga qarama-qarshi yoki biri ikkinchisining ostida joylashadi. Har ikkala tillardagi matnlarda birinchi o'rinni (chap yoki yuqori qismda) shartnomaning shu nusxasi saqlanadigan davlat vakilining imzosi egallaydi. Shartnomaning nomida ham birinchi o'rinda shartnoma asl nusxasining shu nusxasi saqlanadigan davlatning nomi turadi. Shartnoma matni o'ngdan chapga qarab yoziladigan tillarda o'ng tomondagi imzo birinchi o'rin hisoblanadi. Bunday o'rin almashish *alternat prinsipi* deb ataladi.

Ko'p tomonlama shartnoma ostidagi davlat vakillarining imzolari qatnashchilar kelishgan tildagi alifbo tartibida birin-ketin joylashadi. Bunda davlatlar vakillarining imzolash tartibi birinchi o'ringan emas, balki qur'a tashlash yo'li bilan har qanday joydan boshlanishi mumkin.

1969- va 1986-yilgi Vena konvensiyalarida imzolashning yana bir xususiyati to'g'risida gapiriladi. Bu konvensiyalarning 18-moddalariga ko'ra, shartnomani ratifikasiya qilgan, qabul qilgan yoki tasdiqlagan davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar shartnomani obyekt va maqsaddan mahrum etuvchi harakatlardan tiyilishlari zarur. Davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar bunday shartnomaning qatnashchilari bo'lish niyatlarini bildirmas ekanlar, hali kuchga kirmagan va shu vaqtda amalda bo'lgan shartnomalarga nisbatan ham ko'rsatilgan harakatlardan o'zlarini tiyishlari zarur.

Shartnomaning majburiyligiga rozilik berishning keyingi usuli *ratifikasiyadir*.

Vena konvensiyalariga ko'ra, ratifikasiya xalqaro hujjatdir. Biroq, shu bilan birga, ratifikasiya ichki huquq instituti hamdir, chunki faqat ichki huquqqina davlatning qaysi organlari shartnomalarni ratifikasiya qilish uchun vakil qilinganini belgilaydi. Odatda, davlatlarning boshliqlari va parlamentlar shunday organlar bo'ladi. Ratifikasiya mohiyatan xalqaro hujjat sifatida, shartnomalarning majburiy bo'lishi uchun zarur bo'lgan jarayonni bildiradi. Bu holat ikki tomonlama shartnomalar tuzilgan hollarda ratifikasiya yorliqlari almashish va ko'p tomonlama shartnomalar bo'lgan hollarda ularni saqlash uchun depozitariyga topshirishni nazarda tutadi.

Xalqaro tashkilot tomonidan shartnomaning majburiyligiga rozilik bildirish maqsadida amalga oshiriladigan *rasmiy tasdiqlash* hujjati ratifikasiyaga tenglashtiriladi.

Vena konvensiyalaridan kelib chiqsak, ratifikasiya u shartnomaning o'zida nazarda tutilgan bo'lsa yoki davlat vakili shartnomani ratifikasiya qilish sharti bilan imzolagan bo'lsagina talab qilinadi. Ko'pgina davlatlarning qonunchiligi qaysi shartnomalar ratifikasiya qilinishi lozimligini belgilaydi.

Barcha aytilganlar qabul qilish va tasdiqlash hujjatlariga ham taalluqlidir. Shartnomaning majburiyligiga rozilik hujjatlar almashuvi, masalan, notalar yoki shunday mazmundagi xatlar bilan bildiriladi. Bu jarayonni shartnoma predmetining o'zidan iborat bo'lgan xatlar yoki notalar almashuvi orqali tuzishdan farqlash lozim.

Shartnomaning majburiyligiga rozilik shartnomaga qo'shilish yo'li bilan ham ifodalanishi mumkin (Vena konvensiyalarining 13-moddasi). Vena konvensiyalarining hech biri qo'shilish tushunchasini ochib bermaydi. Shunga qaramay, xalqaro amaliyot shu munosabat bilan ma'lum qoidalar ishlab chiqqan. Qo'shilish odatda kuchga kirib bo'lgan shartnomaga nisbatan amalga oshiriladi. Shartnoma matnini tayyorlash va uni qabul qilish va hatto shartnomani imzolagan, lekin u kuchga kirmaguncha uning majburiyligiga rozilik bildirmagan davlat ham qo'shilishi mumkin. Qo'shilish, masalan, qo'shilish to'g'risidagi protokolni ratifikasiya qilish yoki imzolash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro hujjatlar sifatida ratifikasiya, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish yorliqlari e'tirof etiladi. Ularni almashish, ularni saqlashga topshirish yoki bunday hujjatlar qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomalar zaruriy holatdir. Bunda ratifikasiya – ratifikasiya yorlig'ini qabul qilish, tasdiqlash va qo'shilishda esa – notalar, xatlar va boshqa hujjatlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Depozitariyning funksiyalari. Ko'p tomonlama shartnomaning tuzilishi shartnomaning asli va u bilan bog'liq hujjatlarni saqlash uchun saqlovchi (depozitariy) tayinlash zaruratini keltirib chiqaradi. 1969-yilgi Vena konvensiyasining 76-moddasi va 1986-yilgi Vena konvensiyasining 77-moddasiga ko'ra, saqlovchi (depozitariy) sifatida bir yoki bir necha davlatlar, xalqaro tashkilot yoki bunday tashkilotning ijroiya organi yoki mansabdor shaxsi tayinlanishi mumkin.

Masalan, 1969- va 1986-yilgi Vena konvensiyalarining saqlovchisi BMTning Bosh kotibidir.

1969-yilgi Vena konvensiyasining 77-moddasi va 1986-yilgi Vena konvensiyasining 78-moddasiga ko'ra, saqlovchi (depozitariy)ning vazifalariga: vakolatlar, ratifikasiya yorliqlari, qo'shilish to'g'risidagi hujjatlarni saqlash; shartnoma aslidan olingan, tasdiqlangan nusxalarini uning qatnashchilari hamda shartnoma qatnashchilari bo'lish huquqiga ega bo'lgan davlatlar va xalqaro tashkilotlarga jo'natish; shartnomaga taalluqli bo'lgan hujjatlar, xabarnomalar va xabarlar to'g'risida axborot berish; shartnomaga tegishli bo'lgan imzolar, hujjatlar, xabarnomalar va xabarlarni to'liq tartibda va kerakli ko'rinishda o'rganish; shartnoma qatnashchilari bo'lish huquqiga ega bo'lgan davlatlar va xalqaro tashkilotlarga shartnomaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan imzolar, ratifikasiya yorliqlari yoki rasmiy tasdiqlash hujjatiga tegishli hujjatlar to'g'risida ma'lumotlarni berish, shartnomaga qarshiliklar va eslatmalarni olib tashlash to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilib olish, shartnoma ishtirokchilariga jo'natish, shartnomani BMT kotibiyatida qayd etish va h.k. kiradi.

Saqlovchining (depozitariyning) vazifalari o'z xarakteriga ko'ra xalqaro bo'lib, ularni bajarishda u xolis harakat qilishi zarur.

Shartnomalarni ro'yxatga olish va e'lon qilish. XX asr shartnomalar ro'yxatga olini boshlangani bilan tavsiflanadi. Ikkinchi jahon urushiga qadar shartnomalarni ro'yxatga olish bilan Millatlar Ligasi kotibiyati shug'ullanar edi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilishi bilan uning a'zolari bo'lgan davlatlar Ustavning 102-moddasiga ko'ra, o'z shartnomalarini BMT Kotibiyatida ro'yxatdan o'tkazishlari zarur. Agar shartnoma ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa, davlatlar uni BMTning hech bir organida dalil qilib keltira olmaydilar. BMT Kotibiyati, o'z navbatida, imkoniyat tug'ilishi bilan ro'yxatga olingan shartnomalarni maxsus to'plamda bosib chiqaradi. Bu moddaning BMT Ustaviga kiritilishi, yashirin diplomatiyani cheklash va xalqaro hamjamiyatga shartnomalar mazmunini yetkazish maqsadlarini ko'zlaydi.

BMT Kotibiyatidan tashqari boshqa tashkilotlar, masalan, Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti, Atom energiyasi xalqaro agentligi va Xalqaro mehnat tashkilotlari ham shartnomalarni ro'yxatga olish bilan shug'ullanadi. Shartnoma xalqaro tashkilotlarda ro'yxatga olingan bo'lsa ham, Vena konvensiyalariga ko'ra, BMT Kotibiyatida ro'yxatga olinishi zarur.

Ko'pgina davlatlar ularning ishtirokida tuzilgan shartnomalarni e'lon qilishni nazarda tutadi. Davlat ichki nashri *promulgasiya* (*nashretish*) deb ataladi.

Istisnolar. Vena konvensiyalarida ta'rif berilishicha, istisno biror davlat yoki xalqaro tashkilotning, har qanday nomda, imzolash, ratifikasiya, rasmiy tasdiq akti, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish paytida qilingan bir tomonlama bayonotnomasi bo'lib, uning vositasida zikr etilgan subyektlar shartnomaning ma'lum qoidalari yuridik kuchini o'zlariga nisbatan o'zgartirish yoki istisno qilishdir.

Biroq Vena konvensiyalari istisnolar qilish huquqini cheklaydi. Misol uchun davlat, agar bunday holat shartnomaning o'zi bilan taqiqlangan bo'lsa, shartnomaning obyekt va maqsadlariga mos kelmasa yoki shartnoma tomonidan ruxsat etilganlar qatoriga kirmasa, istisno qilish huquqiga ega bo'lmaydi.

Agar u yoki bu moddaga nisbatan istisno mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, u kelishilayotgan tomonlardan biror-bir maxsus qabul qilishni talab etmaydi. Boshqa holatlar uchun Vena konvensiyalari istisnolarga qarshi norozilik bildirishning o'n ikki oylik muddatini belgilaydi. Agar bunday norozilik bildirilmasa, istisno qabul qilingan hisoblanadi.

Istisno va uni boshqa qatnashchi tomonidan qabul qilinishining yuridik oqibatlarini shundaki, istisno, uni qilgan qatnashchi uchun, shartnomaning boshqa qatnashchilari bilan, shartnomaning istisno bilan bog'liq holatlari bo'yicha munosabatlarini o'zgartiradi. Agarda biror-bir qatnashchi boshqa qatnashchining istisnosiga norozilik bildirsa, ular o'rtasidagi shartnoma, uning istisno qilingan holatlaridan tashqari, amalda bo'ladi.

Istisnolar, istisnolarga rozilik yoki noroziliklar yozma shaklda bo'lishi va kelishuvchi tomonlar e'tiboriga havola etilishi zarur. Istisnoga rozilik nazarda tutilishi ham mumkin. Agarda istisno ratifikasiya qilinishi zarur bo'lgan shartnomani imzolashda, rasmiy tasdiq aktida, qabul qilish yoki tasdiqlashga qadar qilinsa, u qatnashchi tomonidan, uni shartnomaning o'zi uchun majburiylikiga rozilik bildirishda tasdiqlanishi zarur.

Istisno qilgan qatnashchi uni har qanday paytda olib tashlashi mumkin. Bunday holda istisnoni tan olgan qatnashchilarning roziligi zarur bo'lmaydi. Istisnoga norozilik ham har qanday vaqtda olib tash-

lanishi mumkin. Istisnolarni olib tashlash va ularga noroziliklar yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim. Ba'zan davlatlar imzolash, ratifikatsiya, qabul qilish, tasdiqlash yoki shartnomaga qo'shilishda shartnomaning ba'zi holatlari bo'yicha o'z nuqtayi nazarlarini ochib beruvchi bayonotlar qiladilar. Bunday bayonotlarni istisnolardan farqlash lozim, chunki ular bir tomonlama hujjat bo'lib, shartnoma holatlarini o'zgartirishga qaratilmagandir va yuridik oqibatlarga olib kelmaydi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro shartnomalar huquqini kodifikatsiyalash haqida so'zlab bering.*

2. *Xalqaro shartnomalarning tizimini ta'riflab bering.*

3. *Xalqaro shartnomalarni nomlashning o'ziga xos xususiyatlari qanday?*

4. *O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarni tuzish va ularni bajarishga doir qonunchiligi nimalardan iborat?*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дружков М.П. Заключение многосторонних договоров в рамках и под эгидой международных организаций. – Киев, 1986.

2. Евинтов В.И. Многосторонние договоры в современном международном праве. – Киев, 1979.

8. Евинтов В.И. Многоязычные договоры в современном международном праве. – Киев, 1981.

3. Захарова Н.В. Выполнение обязательств, вытекающих из международного договора. – М., 1987.

4. Каламкарян Р.А. Фактор времени в праве международных договоров. – М., Наука, 1989.

2. Лукашук И.И. Структура и форма международных договоров. – Саратов, 1960.

5. Лукашук И.И. Стороны в международных договорах. – М.: Юрид. лит-ра., 1966.

6. Собакин В.К. Правовые аспекты внесения на ратификацию многосторонних международных договоров // Московский журнал международного права. – М., 1997. – № 3. – С. 7-20.

7. Талалаев А.Н. Юридическая природа международного договора. – М.: Междунар. отношения, 1963

8. Талалаев А.Н. Право международных договоров: общие вопросы. – М.: Междунар. отношения, 1980.

9. Талалаев А.Н. Право международных договоров: действие и применение договоров. – М., 1985.

10. Талалаев А.Н. Право международных договоров: договоры с участием международных организаций. – М., 1989.
11. Талалаев А.Н. Венская конвенция о праве международных договоров. Комментарий. – М., 1997.
12. Ульянова Н.Н. Общие многосторонние договоры в современных международных отношениях: некоторые вопросы теории. – Киев, 1991.
13. Умарухонов И.М. Республика Узбекистан и международное договорное право. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998.
14. Умарухонов И.М. Международная договорно-правовая практика Республики Узбекистан. – Т.: Академия, 2003.
15. Шатров В.П., Шилтах В.Х. Неправомерные договоры и международное право. – М., 1986.
16. McNair A. The Law of Treaties. – Oxford. – 1961.

12-bob. XALQARO TASHKILOTLAR HUQUQI

1. *Xalqaro tashkilotlarning yaratilish tarixi.*
2. *Xalqaro tashkilotlarning huquq subyektligi.*
3. *Xalqaro tashkilotlar funksiyalari.*
4. *Xalqaro tashkilotlarga a'zolik.*
5. *Xalqaro tashkilotlarning organlari.*
6. *Xalqaro tashkilotlarning turlari va tasnifi.*

1. Xalqaro tashkilotlarning yaratilish tarixi

Xalqaro tashkilotlar qadim zamonlardayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyatning taraqqiy etishi bilan birga takomillashib borgan.

Qadimgi Gretsiyada miloddan avvalgi VI asrda shahar (polislar) va yig'inlar uyushmasi (masalan, Lakedim va Delos Simmaxiyasi) yoki diniy-siyosiy qabilalar va shaharlar (masalan, Delfiya-Fermopil amfiktioni) ko'rinishida ilk doimiy xalqaro birlashmalar yuzaga keldi. Mazkur birlashmalar zamonaviy xalqaro tashkilotlarning timsoli bo'ldi. Ko'pgina olimlar ushbu tarixiy bosqichda mazkur uyushmalar grek davlatlarini birlashtirgan hamda ularning bir-biridan ajralib qo'lishining oldini olgan deb haqqoniy xulosa chiqarganlar.

Xalqaro tashkilotlar taraqqiyotining keyingi bosqichi xalqaro iqtisodiy va bojxona birlashmalarining yaratilishi bo'ldi. Bu kabi uyushmalarning eng birinchisi Ganzey savdo ittifoqi bo'lib, u butun Shimoliy Germaniyani o'rta asr vahshiylikidan qutqardi. Mazkur ittifoq XVI asrga kelib uzil-kesil shakllanib, uning boshida Lyubek shahri turdi.

XIX asr boshlarida Germaniya Bojxona ittifoqi yaratildi. Mazkur Ittifoqqa kirgan barcha davlatlar mahsulot olib kirish, olib chiqish va tranzit bo'yicha yagona qonunlarga bo'ysunishlari kerak edi.

Xalqaro tashkilotlar tarixini o'rganuvchi mutaxassislar ilk hukumatlararo tashkilot, klassik nuqtayi nazardan, 1831-yilda tuzilgan Reynda kemalar qatnovi bo'yicha markaziy komissiya bo'lgan, deb hisoblaydilar. XIX asrning ikkinchi yarmidayoq, Erni o'lchash bo'yicha xalqaro ittifoq (1864-yil), Xalqaro telegraf ittifoqi (1865-yil), Xalqaro pochta ittifoqi (1874-yil), Xalqaro o'lchov va tarozilar byurosi (1875-y.), San'at mulkini himoya qilish xalqaro ittifoqi kabilar vujud-

ga keldi. Bu davrda davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik kengayib, hayot faoliyatining barcha sohalarini qamrab ola boshladi. Mazkur davrdagi barcha tashkilotlar doimiy organlar, turg'un a'zolar, qarorgohlarga ega bo'lganlar. Ularning vakolati maxsus muammolarni muhokama qilish bilan cheklangan.

Xalqaro tashkilotlarning taraqqiy topishida keyingi muhim bosqich Birinchi jahon urushidan keyingi davr bo'lib, bunda davlatlar tinchlik va xalqaro xavfsizlikni saqlash bo'yicha xalqaro tashkilot tuzishga kirishdilar. Chunonchi, 1919-yilda Millatlar Ligasi tashkil topdi. Millatlar Ligasining asosiy organlari Ligadagi barcha a'zolarning yig'ini, kengash va doimiy kotibiyat hisoblanadi.

Uning asosiy vazifasi tinchlikni saqlash va yangi urush kelib chiqishining oldini olish bo'lgan. Millatlar Ligasi tinchlikni saqlash uchun barcha choralarni ko'rishi kerak edi. Basharti, Liganing u yoki bu a'zosi o'ziga olgan majburiyatlarga xilof ravishda urush ochsa, Liganing asosiy a'zolari u bilan har qanday savdo va moliyaviy munosabatlarni uzishi, Kengash esa, turli manfaatdor davlatlarga u yoki bu qo'shinlar tarkibini olib chiqish haqida taklif bilan chiqishi shart edi.

Millatlar Ligasi Nizomida tinchlikni saqlash bo'yicha turli samarali choralar nazarda tutilgan. Unda davlatlar qurollanganligini millat xavfsizligini ta'minlash uchun kerak bo'lgan miqdorgacha cheklash zarurati tan olingan. Liga kengashiga har bir davlat uchun qurollarni cheklash rejasini tanlash hamda ularni manfaatdor hukumatlarga muhokama qilish uchun taqdim etish tavsiya etilgan.

Biroq, Millatlar Ligasi tinchlikni saqlash hamda xalqaro mojrolarni tinch yo'l bilan hal etish bilan bog'liq o'zining asosiy vazifasini hajara olmadi. Liga a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkoniyatini yo'qqa chiqardi. Chunonchi, Millatlar Ligasi Ikkinchi jahon urushi, shuningdek Yaponiyaning Xitoyga, Italiyaning Efiopiyaga (Italiya-Abissiniya mojarosi), Germaniyaning Avstriya va Chexoslovakiyaga hujumining oldini olishga muvaffaq bo'la olmadi. Nihoyat, Millatlar Ligasi o'z majburiyatlarini mazkur tarixiy bosqichda ado eta olmaganligi bois, 1946-yil 18-aprelda rasman tugatildi, aslini olganda esa, 1936-yildan boshlab Millatlar Ligasi deyarli faoliyat yuritmay qo'ygan edi. Shunday qilib, xalqaro tashkilotlarning yaratilishi va rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan.

Bora-bora davlatlar turmushning turli sohalarida xalqaro hamkorlik qilish zaruratini tushunib yetdilar. Bu, o'z navbatida, fan, harbiy texnika va san'atda tadqiqotlar almashishga olib keldi. Avvalgi xalqaro tashkilotlar hozirgi zamon xalqaro tashkilotlarining timsoliga aylangan bo'lib, ularning ahamiyati beqiyosdir.

2. Xalqaro tashkilotlarning huquq subyektligi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida ta'kidlanganidek, tashkilot o'z a'zolarining hududida, o'z funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'ladigan huquqiy layoqatga ega bo'ladi (104-modda). Biroq bu tashkilotning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur xalqaro-huquqiy layoqat hamda faoliyat layoqatini inkor etish degan ma'noni bildirmaydi.

1949-yili, o'zining BMTda xizmat qilish vaqtida etkazilgan zararni qoplash bo'yicha Konsultativ xulosasida Xalqaro Sud Birlashgan Millatlar Tashkiloti shunday vazifa va huquqlardan foydalanadiki, ular ancha miqdordagi xalqaro-huquqiy layoqatga ega bo'lishi bilan tushuntirilishi mumkin,¹ deb izohlab o'tgan. Hozirgi davrda barcha xalqaro tashkilotlar maxsus huquq subyektligiga ega bo'lib, ular ta'sis hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi.² Bu, shubhasiz, davlatlar xalqaro-huquqiy subyektlikka ega bo'lmagan tashkilotni ta'sis eta olmaydi, degan ma'noni bildirmaydi.

Ichki huquqqa ko'ra, huquqiy subyektlilik albatta yo'q bo'lishi mumkin emas. Tashkilot davlat hududida huquqiy munosabatlarga kirishadi (tovar va xizmatlarga ega bo'lish, ijara, xususiy mulkchilik, mehnat munosabatlari va h.k.) Davlatlarning sud amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tashkilotning huquqiy subyektliligi unda a'zo bo'lmagan davlatlar hududida ham tan olinadi. Bitim tuzishda

¹ ICJ. Reports. 1949. – P. 179.

² 1991 yildagi Yo'ldosh aloqasi xalqaro tashkiloti (INTELSAT) to'risidagi ko'p tomonlama xalqaro bitimda aytilishicha:

a) INTELSAT huquq sub'ektliligiga ega. U o'z vazifalarini ado etish hamda maqsadiga erishish uchun zarur huquqiy layoqatga hamda quyidagilarga ega: 1) davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan bitimlar tuzish; 2) shartnomalar tuzish; 3) mol-mulkka egalik qilish hamda ularni tasarruf etish; 4) sud jarayonida taraflardan biri bo'lish.

b) har bir ishtirokchi o'z yurisdiksiyasi doirasida shunday choralarini ko'radiki, ular o'z qonunchiligiga muvofiq ravishda mazkur modda holatlari qonuniy kuchga kirishini ta'minlashi kerak bo'ladi // БМД. – М., 1993. – № 5. – С. 6

tashkilot oddiy yuridik shaxs kabi fuqarolik-huquqiy javobgarlikka ega bo'ladi. Bitim tuzishdan tashqari bo'lgan majburiyatlar bo'yicha ham javobgarlikka ega bo'ladi, masalan: yo'l harakati qoidasini buzishda. Biroq mazkur javobgarlikni amalga oshirish tashkilot alohida immunitetga egaligi sababli qiyinlashishi mumkin. Bunday hollarda u o'z vazifalarini amalga oshirish maqsadida immunitetdan voz kechishi mumkin. Tashkilot odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilmasligi kerak. Biroq bunday rad etish bo'lmagan taqdirda ish diplomatik darajada hal qilinishi kerak. Tashkilotga, xalqaro huquq normalariga muvofiq, xalqaro darajada da'vo bilan murojaat etiladi.

Tashkilotning xalqaro-huquqiy subyektiligi maxsus xususiyatga ega bo'lib, uning vazifalari bilan belgilanadi. Boshqa subyektlar kabi, tashkilot xalqaro huquq normalarini bajarishi majburiy bo'lib, ularni buzganlik uchun javobgarlikka tortiladi. Tashkilotning huquqiy subyektiligi davlatlar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro bitimlar tuzish huquqini o'z ichiga oladi. Masalan, mazkur bitimlar kishilar turar joyining maqomi, immunitetlari, turdosh tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari haqida bo'lishi mumkin. 1986-yilgi Tashkilotlar ishtirokidagi shartnomalar huquqi bo'yicha Vena konvensiyasida: «Xalqaro tashkilotning shartnomalar tuzish bo'yicha huquqiy layoqatlilik mazkur tashkilot tomonidan tartibga solinadi», deyilgan (6-modda). Tashkilotlar mazkur konvensiyaning ishtirokchilari hisoblanadi. Boshqa ko'p tomonlama konvensiyalarga kelsak, ularda aksariyat davlatlar ishtirok etib, ular tashkilot uchun ham majburiy bo'lgan normalarni yaratadilar.

Tashkilotlar o'z vakolati doirasida diplomatik munosabatlarda ham ishtirok etadi. Bir qator tashkilotlarda davlatlarning doimiy vakolatxonalari mavjud. Tashkilotlar o'z missiyalarini davlatlarga yuboradilar va ular qoshida o'zlarining shu davlat qoshidagi vakolatxonalarni (Representative office) ta'sis etadilar.

Tashkilotlar davlatlar va vakolatxonalarni e'tirof etishda ishtirok etadilar. Huquqiy jihatdan bu davlatlarning imtiyozi hisoblanadi. Biroq tashkilotga qabul qilish tan olinishga to'g'ridan-to'g'ri yo'l bo'lib, gohida alohida davlatlar tomonidan tan olinishga qaraganda ko'proq ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, tashkilotlar, odatda, xalqaro tashkilotlar, Ba'zida esa boshqa tashkilotlar qarori bilan yaratiladi. Bunday shartnomani tuzgan

davlatlar boshlang'ich ishtirokchilar deb nomlanadi. Umuman olganda, ularning huquqiy maqomi yangi a'zolarining huquqiy maqomidan farq qilmaydi. Shuningdek, tashkilotlar a'zolarining roziligi bilan tugatiladi. Yangi tashkilotlarni yaratish jarayoni doimo sodir bo'ladi. Ularni tugatish esa kamdan-kam uchraydigan hodisadir. Chunonchi, 1991-yilgi Varshava shartnomasi tashkilotlarining a'zo davlatlar roziligi bilan tugatilishini misol qilish mumkin.

3. Xalqaro tashkilotlarning funksiyalari

Tashkilotlar oldida turgan vazifalarning asosiy mohiyati a'zo davlatlar manfaatlarini aniqlash, ularni tasdiqlash, shuning asosida masalaga umumiy yondashish, qarorni ishlab chiqish hamda ish bo'yicha aniq vazifalar belgilash, shuningdek, ularni hal etishning uslub va vositalarini belgilashdan iborat. Bu, o'z navbatida, mazkur vazifalar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarining xususiyatini belgilaydi.

Tashkilotlar faoliyatining asosiy bosqichlariga masalani muhokama qilish, qaror qabul qilish hamda uning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish kiradi. Professor V. Moravetskiy xalqaro tashkilotlar vazifalarining uchta asosiy turini ajratadi: bular tartibga solish, nazorat qilish va operativ vazifalar¹.

Hozirgi kunda tashkilotning tartibga soluvchi vazifasi eng muhim vazifa hisoblanadi. U a'zo davlatlarning maqsadlari, prinsiplari, axloq qoidalarini belgilovchi qarorlarni qabul qilishdan iborat. Bu kabi qarorlar faqat axloqiy-siyosiy majburiy kuchga ega. Shunday bo'lsa-da, ularning davlatlararo munosabatlar va xalqaro huquqqa bo'lgan ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Har qanday davlatning xalqaro tashkilot qabul qilgan qarorga qarshi chiqishi oson emas².

Tashkilotlarning rezolutsiyalari bevosita xalqaro-huquqiy normalarni yaratmaydi, biroq ham huquq ijodkorligi, ham huquqni qo'llash jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro huquqning ko'pgina prinsip va normalari avvalo rezolutsiyalarda aks ettirilgan. Hamkor-

¹ Моравецкий В. Функции международных организаций. – М., 1976. – С. 90.

² Yapon professori Uotaro Xigashi xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari haqida shunday deb yozadi: «Garchi ular huquqiy ma'noga ega bo'lmasalar-da, ularning huquqiy va axloqiy kuchini inkor etib bo'lmaydi» // Japan International Law Journal. Tokio, 1982. – № 25. – P. 16.

likning maxsus sohalari (moliya, aloqa, transport va boshqalar) xalqaro huquq normalari yordamida yaratilgan.

Ushbu qarorlar (rezolutsiyalar) muhim vazifaga ega bo'lib, u xalqaro-huquqiy normalarni tasdiqlash, xalqaro hayot voqeligiga muvofiq ravishda konkretlashtirish orqali ularning dolzarbligini oshirishdan iborat. Chunonchi, tashkilot normalarni muayyan hodisalarga qo'llash orqali ularning mazmunini ochib beradi. Bunda nafaqat qarorlarda, balki nizo-munozara davomida huquqqa kiritilishi kerak bo'lgan qo'shimchalar aniqlanadi. Shuningdek, *legitimatsiya* va *delegitimatsiya* vazifalari ahamiyatlidir.

Legitimatsiya – norma ahamiyatini tasdiqlashdan iborat bo'lib, bu uning samaradorligini yanada oshiradi.

Delegitimatsiya – turmush talablariga javob bermaydigan normani tan olishdan iborat.

Tashkilotning nazorat vazifalari davlatlar axloqining xalqaro huquq normalari hamda qarorlariga mosligini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Shu maqsadda tashkilotlar tegishli axborotni yig'ish va tahlil qilish, uni muhokama qilish hamda qarorlarda o'z fikrini bildirish huquqiga ega. Ko'p hollarda davlatlar tegishli sohada xalqaro huquq normalari va tashkilot aktlarining bajarilishi haqida doimiy ravishda bildirgi berib borishlari shart.

Tashkilotning operativ vazifalari tashkilotning o'z vositalari yordamida maqsadlarga erishishdan iborat. Ko'pgina hollarda tashkilot suveren a'zo davlatlar yordamida voqelikka ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bora-bora tashkilotning ahamiyati va bevosita faoliyati doirasi o'sib boradi. Shuningdek, tashkilotlar iqtisodiy, ilmiy-texnik hamda boshqa turdagi yordam ko'rsatadilar, maslahat berish xizmatini yo'lga qo'yadilar.

4. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik

Xalqaro tashkilotlarning alohida xususiyati shundan iboratki, ularning a'zolari faqat suveren davlatlar, ularning organlari emas, aynan davlatlar hisoblanadi. Mazkur tashkilotlar ko'pincha hukumatlararo tashkilotlar deb ataladi. Davlatning bir qismi ham xalqaro tashkilot a'zosi bo'la olmaydi. Barcha a'zolar tashkilot organlari ishida teng huquqli ishtirok etadi hamda uning faoliyati uchun majburiyatga ega bo'ladi. Ular tashkilot budjetiga badal to'laydilar.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng kolonial davlatlar xalqaro tashkilotlar a'zolariga qo'yiladigan talablarga javob bermas edilar hamda tashkilotlar faoliyatidan manfaatdor emasdilar. Muammoni hal etish uchun assosiatsiyali a'zolik qo'llangan edi. To'liq a'zolikdan u ovoz berishda ishtirok etib, ijroiya organlariga saylanish tartibining yo'qligi bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda assosiatsiyali a'zolik to'liq a'zolik u yoki bu sabablarga ko'ra vaqtincha yoki doimiy bo'lmagan hollarda qo'llanadi. Chunonchi, Sharqiy Yevropa mamlakatlari Yevropa Kengashiga assosiatsiyali a'zolik bosqichidan o'tdilar.

Tashkilotda *kuzatuvchi maqomi* mavjud. U tashkilot organi tarkibiga kirmagan a'zo davlatlar hamda a'zo bo'lmagan davlatlarga beriladi. Shveysariya BMT Bosh Assambleyasining ko'pgina sessiyalarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan. BMTning ko'pgina a'zolari Xavfsizlik Kengashi majlislariga kuzatuvchilarini yo'llaydilar.

Ko'pincha nohukumat tashkilotlarga *konsultativ maqom* berilib, u kuzatuvchi maqomiga tengdir. Mazkur amaliyot ko'pincha, BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi uchun xosdir.

A'zolik tashkilot yoki a'zo davlatlarning tugatilishi sababli tugallanadi.

Shuningdek, a'zolik tashkilotdan chiqish natijasida tugallanishi mumkin, bu ko'pgina tashkilotlarning nizomlarida nazarda tutilgan.

Ko'pgina tashkilotlar holatlari a'zolar ro'yxatidan o'chirish imkoniyatini nazarda tutadi. Aks holda ro'yxatdan o'chirish amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda tashkilotdan uning huquqlarini buzuvchi davlat a'zolarini chetlashtirish hamda vakillarining vakolatlarini bekor qilish orqali erishish mumkin. Bu, albatta, vaqtincha bo'lsa-da, a'zolikni to'xtatish bilan teng.

5. Xalqaro tashkilotlar organlari

Tashkilotlar o'z vazifalarini bajarish uchun muvofiq mexanizmlarga egadirlar. Uning asosini tashkilot organlari tashkil etadi. Tashkilotlar yuqori organga ega bo'lib, unda barcha a'zolarining vakillari qatnashadi. U turlicha ataladi: assambleya, konferensiya, kongress va hokazo. «Bosh assambleya» to'g'ridan-to'g'ri «umumiy majlis»ni bildiradi. Universal tashkilotlarda mazkur organlar ko'p sonli bo'lib, faqat asosiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladilar. Ular davriy yig'ilishlar o'tkazib turadilar. BMTning Bosh Assambleyasi har yili (sen-

tabr-dekabr) ishlaydi, shuningdek favqulodda sessiyalarga chaqirilishi mumkin. Boshqa tashkilotlarda plenar organ har ikki yilda chaqiriladi (YUNESKO), hattoki ba'zilar har besh yilda ham chaqirilishi mumkin (Xalqaro elektr-aloqa uyushmasi).

Plenar tashkilot rezolutsiyalarni tayyorlash uchun umumiy tarkibdagi komissiya va komitet tuzilib, ular oliy organ sessiyasi vaqtida ishlaydi.

Plenar tashkilot cheklangan tarkibli organlarni saylaydi, ular ichida ijroiya organi hamda tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishlaydigan organlar farqlanadi. Mazkur organlarni tashkil etishda ma'lum mezonlar, eng avvalo, asosiy mintaqalar va davlatlar guruhlarining vakilligi hisobga olinadi.

Ko'pgina tashkilotlarda organlar davlatlarning vakillaridan iborat bo'ladi. Ba'zi hollarda daxlsizlikni kafolatlash maqsadida davlat vakillari emas, aksincha, alohida mutaxassislar tanlab olinadi. Bunga, asosan, sud organlari kiradi.

Ba'zi tashkilotlarda parlamentar organlar mavjud. Parlamentlik organlari kompensatsiya, shuningdek demokratik vakillik maqsadida yaratiladi. Ular bevosita a'zo davlatlarning ovoz berishi natijasida saylanadilar (Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi) yoki milliy parlament tomonidan tayinlanadilar (YXHT). Ko'p hollarda mazkur organlar tavsiyalarni muhokama qilish hamda tinglash bilan cheklanadilar. Faqat Yevropa parlamenti Yevropa Ittifoqi doirasida Ba'zi huquqlarga egadir. U ijroiya qo'mitasi Yevropa Ittifoqi komissiyasini tarqatib yuborishi hamda budjet qabul qilinishida ishtirok etishi mumkin.

Sud organlari alohida o'ringa ega. Ular turli-tuman bo'lib, davlatlararo nizolarni hal qilishi, tashkilot qarorlarining qonuniyligini tekshirishi hamda xodimlarga nisbatan ma'muriy yurisdiksiyani amalga oshirishi mumkin. Ko'p tashkilotlar o'z sud organlarini yaratmaydilar hamda o'z qarorlarining qonuniyligi bo'yicha sud nazoratini amalga oshirishga zarurat yo'q deb hisoblaydilar. Xodimlarga bog'liq ishlar bo'yicha universal tashkilotlar BMTning ma'muriy sudidan foydalanadilar.

Barcha tashkilotlar kotibiyatga ega bo'lib, u tashkilotga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Kotibiyat bosh ma'mur (bosh kotib yoki bosh direktor) tomonidan boshqarilib, yuqori organ tomonidan ma'lum muddatga saylanadi. Kotibiyatning asosiy vazifasi doimiy

ravishda ishlovchi xodimlar tomonidan bajariladi. Ular turli mintaqalarning vakilligini hisobga olgan holda tanlab olinadi. Ularning mustaqilligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy ta'minlash hamda nafaqa tizimi yaratilgan. Ularga soliq solish hamda mahalliy qonunlardan himoyalaniş uchun immunitet beriladi. Zarur hollarda tashkilot o'z xodimiga berilgan immunitetni bekor qilishi kerak.

Tashkilotlarni moliyaviy ta'minlash a'zolar imkoniyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Umumiy qoidaga ko'ra, bir davlatning ulushi budjetning 25 % dan oshmasligi hamda 0.01 % dan kam bo'lmasligi zarur. Ko'pgina moliyaviy tashkilotlar o'z budjetini umumiy daromadlaridan kelib chiqqan holda tashkil etadilar.

Doimiy budjet oddiy chiqimlarni qoplaydi. Qo'shimcha chiqimlar, masalan, tinchlikparvarlik operatsiyalari yoki iqtisodiy yordam ko'rsatish ixtiyoriy kiritilgan ulushlar hisobiga qoplanadi.

6. Xalqaro tashkilotlarning turlari va tasnifi

Hozirgi davrda xalqaro tashkilotlar davlatlararo muloqotning asosiy tashkilotchisi hisoblanadi.

Xalqaro tashkilot xalqaro huquqqa muvofiq, xalqaro shartnomaga asoslangan holda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalarda hamkorlikni amalga oshirish va bu maqsadda zarur organlar tizimi, huquq va majburiyatlar, shuningdek davlatlarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadigan avtonom irodaga ega bo'lgan davlatlar birlashmasidir.

Hozirgi zamon xalqaro tashkilotlari 2 ta asosiy turga bo'linadi: xalqaro hukumatlararo tashkilotlar hamda xalqaro nohukumat tashkilotlar. Har ikkalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, kundalik turmushning turli jabhalarida davlatlarning o'zaro muloqotiga ko'maklashadi. Biroq, mazkur ikki turdagi tashkilotlar o'zlarining alohida xususiyatlariga egadir.

Birinchidan, ular xalqaro huquqqa muvofiq ravishda yaratiladi. Bu eng zaruriy belgi bo'lib, hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Har qanday hukumat tashkiloti qonuniy tarzda yaratilgan bo'lishi zarur. Xususan, tashkilot alohida davlat va umuman xalqaro hamjamiyat manfaatlarini cheklamasligi lozim.

Ikkinchidan, har qanday xalqaro tashkilot xalqaro shartnoma (konvensiya, traktat, bayonot) asosida tuziladi. Bunday shartnomaning taraflari hozirgi zamon suveren davlatlari oxirgi vaqtda xalqaro tashkilotlar, shuningdek, hukumatlararo tashkilotlar va suveren davlatlar, oxirgi vaqtda esa, xalqaro tashkilotlarning ishtirokchilari, shuningdek hukumatlararo tashkilotlar bo'ldi. Masalan, Yevropa Ittifoqi (EI) ko'pgina baliqchilik xalqaro tashkilotlarining a'zosi hisoblanadi.

Har qanday xalqaro tashkilotning maqsadi davlatlarning u yoki bu sohadagi sa'y-harakatlarini birlashtirish hisoblanadi: chunonchi, siyosiy (YXHT – Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti. EXHKning Budapesht sammiti natijalariga ko'ra 1-yanvar 1994-yildan boshlab EXHK – YXHT deb nomlandi, ya'ni kengash tashkilotiga aylantirildi), harbiy (NATO – Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti), iqtisodiy (NAFTA – Shimoliy Amerika erkin savdo assosiyatsiyasi, ASEAN – Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assosiyatsiyasi, MERKOSUR – Argentina, Braziliya, Chili davlatlarining savdo shartnomasi – Janubiy konus davlatlari), huquqiy (Yevropa Kengashi), valuta-moliya (XVF – Xalqaro valuta fondi, TTXB – Tiklanish va taraqqiyot xalqaro banki, XRA – Xalqaro rivojlanish assosiyatsiyasi, XMK – Xalqaro moliya korporatsiyasi) va boshqa sohalar. Biroq, BMT kabi tashkilot barcha sohalarda davlatlarning faoliyatini tartibga solishi lozim. Bunda xalqaro tashkilot a'zo davlatlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Ba'zida davlatlar xalqaro tashkilotlarning eng murakkab masalalarini tashkilotlarga muhokama qilish va hal qilish uchun beradilar.

Har bir xalqaro tashkilot uchun muvofiq tashkil etuvchi tuzilma ega bo'lish muhimdir. Mazkur alomat tashkilotning doimiylik xususiyatini tasdiqlaydi hamda uni xalqaro hamkorlikning boshqa ko'p sonli shakllaridan ajratib turadi. Hukumatlararo tashkilotlar shtabkvartira, suveren davlatlar bo'lgan a'zolar hamda yordamchi organlarga egadir.

Xalqaro tashkilotning keyingi muhim alomatlaridan biri unda huquq va majburiyatlarning mavjudligi bo'lib, ular umumiy shaklda ta'xis hujjatlarida mustahkamlanadi. Xalqaro tashkilot o'z vakolatlaridan tashqariga chiqa olmaydi.

Xalqaro tashkilot shuningdek mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi, ya'ni u a'zo davlatlar irodasidan avtonom bo'lgan irodaga

egadir. Mazkur alomat har qanday tashkilot o'z faoliyat doirasida unga a'zo davlatlar tomonidan yuklatilgan huquq va majburiyatlarni bajarishning mustaqil vositalarini tanlash huquqiga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan alomatlariga ega bo'lgan xalqaro tashkilot xalqaro hukumatlararo tashkilot deb tan olinadi.

Biroq, aytib o'tilganidek, hozirgi davrda xalqaro tashkilotlarning boshqacha turi ham mavjud bo'lib, ular hukumatlararo bitim asosida ta'sis etilmagan har qanday xalqaro tashkilot hisoblanadi. Bunday tashkilotlar juda bo'lmasa bitta davlat tomonidan tan olinadi, biroq o'z faoliyatini ikkita davlatda amalga oshiradi. Bunday tashkilotlar ta'sis akti asosida yaratiladi. Bunday tashkilotlar XX asr boshida vujudga kelgan. Hozirgi vaqtda 8000 taga yaqin shunday tashkilot mavjud. Xalqaro nohukumat tashkilotlar (XNT) hozirgi zamon xalqaro munosabatlarining barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ba'zi sohalarda ular hatto yetakchi hisoblanadi, masalan, bu Qizil xoch qo'mitasi bo'lib, faoliyatining asosiy prinsiplari insonparvarlik, daxlsizlik, mustaqillik va ko'ngillilik hisoblanadi. U turli sohalarda davlatlarning o'zaro munosabatlariga katta hissa qo'shdi.

Biroq xalqaro hukumatlararo tashkilotlar hamda xalqaro nohukumat tashkilotlar o'rtasida birmuncha farq bo'lsa-da, ular faol hamkorlik qilmoqdalar. Mazkur hamkorlikning asosiy shakli konsultativ maqom hisoblanadi. Har bir hukumatlararo tashkilot XNT konsultativ maqomini taqdim etish tartibiga egadir.

Har qanday xalqaro tashkilotning shakllanishi davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan u yoki bu muammolarni hal qilishning muhimligiga tayanadi. Muammoning muhimligi bevosita mustaqil davlatlar tomonidan belgilangan bo'lib, bundan ularning tasnifi aniqlangan. Xususan, mazkur muammolarni hal etishga yo'naltirilgan tashkilotlar xalqaro hukumatlararo yoki nohukumat tashkiloti maqomiga ega bo'lgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

- 1. Xalqaro tashkilotlar tushunchasi va tasnifi. Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar o'rtasidagi asosiy farqlar nimada?*
- 2. Xalqaro tashkilotlarning huquqiy subyektligi nima?*
- 3. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik turlarini tavsiflang.*
- 4. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki haqida so'zlab bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Актуальные проблемы деятельности международных организаций: Теория и практика / Отв. ред. Г.И. Морозов. – М.: Междунар. Отношения, 1982.
2. Блищенко И.П., Абашидзе А.Х., Барчукова Н.С. и др. Международные организации: Учебник для вузов по направлению "Юриспруденция" и спец. "Юриспруденция" и "Международное право" – М.: Изд-во Рос. ун-та дружбы народов, 1994.
3. Зайцева О. Г. Международные межправительственные организации. – М., 1989.
4. Каримова А. Международные организации – инструмент многостороннего сотрудничества (Теория и практика). – Т.: УМЭД, 2001.
5. Ковалева Т. М. Правотворчество межгосударственных организаций. – Калининград, 1999.
6. Кривчикова Э.С. Основы теории права международных организаций: Учебное пособие. – М.: МГИМО, 1979.
7. Крылов Н.Б. Правотворческая деятельность международных организаций. – М.: Наука, 1988.
8. Кузнецов С.А. Представители государств в международных организациях. – М.: Междунар. отношения, 1980.
9. Маргиев В.И. Внутреннее право международных организаций. – Владикавказ, 1995.
10. Маргиев В.И. Правотворчество международных организаций. – Майкоп: Изд-во АГУ, 1998.
11. Международные межправительственные организации: Учебное пособие. – М.: УДК, 1979.
12. Митрофанов М. В. Служащие международных организаций: Персонал организаций системы ООН. – М.: Междунар. отношения, 1981.
13. Моравецкий. В. Функции международных организаций. – М., 1976.
14. Морозов Г.И. Международные организации: Некоторые вопросы теории. – М., 1974.
15. Муравьев В.И. Международные организации – специфические субъекты международного права: Учебное пособие для спец. 06.01. – Киев: Киевский гос. ун-т им. Т. Г. Шевченко, 1990.
16. Нешатаева Т.Н. Международные организации и право. Новые тенденции в международно-правовом регулировании. – М.: Дело, 1999.
17. Шармазанашвили Г.В. Международные межправительственные организации: Учебное пособие. – М.: Изд-во Ун-та дружбы народов, 1986.

18. Шибаева Е.А. Правовой статус межправительственных организаций. – М.: Юридическая литература, 1972
19. Шибаева Е.А. Право международных организаций. – М.: Междунар. отношения, 1986.
20. Шибаева Е.А., Поточный М. Правовые вопросы структуры и деятельности международных организаций: Учебное пособие для вузов по спец. "Правоведение". 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во МГУ, 1988.
21. Bennett A.LeRoy. International organizations: principles and issues. 6th ed. – New Jersey: Prentice Hall, 1995.
22. Bowett D.W. Law of International Institutions. 5th ed. – London: Sweet & Maxwell, 2001.
23. Diehl P.F. The politics of international organizations: patterns and insights. – Chicago, IL: Dorsey Press, 1989.
24. Jordan R.S. International administration: its evolution and contemporary applications. – New York: Oxford University Press, 1971.
25. Jutte R., Annemarie Grosse-Jutte. The Future of International Organization. – New York: St. Martin's Press, 1981.
26. Farley L.T. Change processes in International Organizations. – Cambridge: Center for International Affairs, Harvard University, 1982.
27. Pittman P. An introduction to the study of International Organization. – N.Y., 1948.
28. Schermers H. International Institutional Law. – Leiden, 1972.
29. Taylor P., A. J. R. Groom. International institutions at work. – London: Pinter Publishers Ltd., 1988.
30. Zemanek K. Das Vertragsrecht der Internationalen Organisationen. – Wien, 1957.

13-bob. BMT VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

1. *BMT tashkil etilishi va shakllanishining qisqacha tarixi.*
2. *BMTning bosh organlari va ularning vakolatlari.*
3. *BMTning ixtisoslashgan muassasalari.*
4. *O'zbekiston va BMTning o'zaro aloqalari.*

1. BMT tashkil etilishi va shakllanishining qisqacha tarixi

BMTning tarixi, ayniqsa, uning 90-yillargacha bo'lgan faoliyati davri ko'plab olim va amaliyotchilar tomonidan yoritilgan va tahlil qilingan.

Uning o'sha davrda olib borgan faoliyatidagi muhim holatlarga berilgan asosiy baholar munozara va e'tirozlarga o'rin qoldirmaydi. Shu bilan bir qatorda, mazkur tarixdagi muhim voqealarning asosiy tavsiflarini eslatib o'tish maqsadga muvofiq. Chunki ularsiz BMTning keyingi rivoji va unda kechayotgan o'zgarishlar manzarasini aniq tasavvur qilish mumkin emas.

Sanoatning o'sishi, ishlab chiqarishning jadallashuvi va milliy-lashishi, dunyodagi siyosiy vaziyat va sharoit kun tartibiga ko'p qirrali xalqaro hamkorlik tashkilotini tuzish masalasini qo'ydi. Keyinchalik BMTning ixtisoslashgan muassasalariga aylangan birinchi xalqaro tashkilotlar XIX asrdayoq tuzilgan edi. Bular: Butunjahon meteorologiya tashkiloti (1837), Butunjahon pochta ittifoqi (1847) va keyinchalik Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi tarzida nomi o'zgartirilgan Xalqaro telegraf ittifoqi (1865) kabi tashkilotlar. Ko'rinib turibdiki, ularning faoliyat doirasi tor va maxsus yo'nalishga ega bo'lgan. Biroq XX asrning boshidayoq – 1903-yili Monakoda knyaz Albertning tashabbusi bilan Xalqaro tinchlik instituti ta'sis etilgan edi. Ba'zan uni Millatlar Ligasining o'tmishdoshi deb ataydilar.

Birinchi jahon urushining boshlanishiga kelib dunyoda 20 ga yaqin xalqaro tashkilotlar tuzildi.

Keyingi bosqichda Millatlar Ligasi tashkil etildi. Xuddi o'zining o'tmishdoshi singari, Millatlar Ligasining paydo bo'lishiga ham xususiy tashabbus sababchi bo'ldi. 1915-yilda Angliyada Brays raisligi ostida bir guruh mutaxassislar Urushni tugatish to'g'risidagi liga loyihasini ishlab chiqdilar.

Brays rahbarligida boshlangan harakat «Millatlar Ligasi Jamiyati»ning tuzilishiga olib keldi. Xuddi shunday harakat AQSHda sobiq prezident Vilyam Taft raisligida boshlandi. Buning natijasida Tinchlikni mustahkamlash ligasi paydo bo'ldi. Ushbu xususiy tashabbuslar 1919-yilning 28-aprelida Millatlar Ligasi Nizomining qabul qilinishiga – 1946-yilgacha yashab, so'ngra tarqatib yuborilgan birinchi ko'pqirrali xalqaro tashkilotning tuzilishiga zamin yaratdi.

BMT tashkil etilishining asosiy bosqichlari 1941-1945-yillarga to'g'ri keladi.

Qator ishlarda birinchi bosqich sifatida 1941-yil 14-avgustda qabul qilingan «Atlantika xartiyasi» e'tirof etiladi. U. Cherchill xotiralarida eslanishicha, uning prezident F. Ruzvel't bilan suhbatlaridan birida ular davlatlar siyosatidagi yo'nalishlar prinsiplari aks ettirilgan qo'shma bayonot qabul qilishga kelishganlar. Xartiyaning birinchi loyihasi U. Cherchill tomonidan tayyorlangan bo'lib, F. Ruzvelt unga tuzatishlar kiritgan. U «Atlantika xartiyasi» deb yuritila boshlangan.

Hujjat o'z mazmuni va ruhiga ko'ra ingliz asari bo'lib, «yanada kengroq va ishonchliroq umumiy xavfsizlik tizimini o'rnatish» holatlarini aks ettirgan¹.

BMTni tashkil etish yo'lida tashlangan keyingi qadam 1942-yilning 1-yanvarida 26 davlat tomonidan imzolangan va ko'proq Birlashgan Millatlar deklaratsiyasi nomi bilan mashhur Vashington deklaratsiyasi bo'ldi. «Birlashgan Millatlar» deb nomlash F.D. Ruzvelt tomonidan taklif etilgan edi. Bu davlatlar vakillari o'z hukumatlari nomidan ... mamlakatlari nisbatan xavfqa qarshi birgalikda kurashish majburiyatini olganlar.

Buyuk davlatlarning xalqaro xavfsizlik tashkilotini tuzish yo'lidagi birinchi birgalikdagi harakatlari SSRI, AQSH, Buyuk Britaniya va Xitoy ishtirokida 1942-yil 30-oktyabrda Moskvada o'tkazilib, To'rtlik deklaratsiyasi qabul qilingan konferensiya bo'ldi. Deklaratsiyada «imkon qadar tez fursatda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun umumjahon xalqaro tashkilotini ta'sis etish zarurligi» qayd etildi.

Keyinchalik Moskva konferensiyasining qarorlari «katta uchlik» ishtirokida o'tkazilgan 1943-yil 30-oktabrdagi Tehron konferensiyasi-

¹ Хакимов Р.Т. Узбекистан и Организация Объединенных Наций. – Т.: Узбекистон, 1995. – 24-26-бетлар.

da o'z aksini topdi. O'shanda uch davlat imzolagan Deklaratsiyada (1943-yil 1-dekabr) ularning Birlashgan Millatlarning ko'magida tinchlik va hamkorlikni ta'minlovchi xalqaro xavfsizlik tashkiloti tuzish tarafdori ekanliklari ham qayd etilgan. «Katta uchlik» rahbarlari ishtirokidagi Qrim (Yalta) konferensiyasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tinchliksevar kuchlar bilan hamkorlikda universal xalqaro tashkilot yaratish masalasi ham qizg'in muhokama qilingan.

Uch buyuk davlat – SSRI, AQSH, Buyuk Britaniya rahbarlari 1945-yil 13-fevralda e'lon qilgan qo'shma kommunikellarida avvalgi kelishuvlarga muvofiq tashkilot Ustavini tayyorlash uchun 1945-yil 25-aprelda San-Fransisko shahrida Birlashgan Millatlar konferensiyasini chaqirish zarurligi qayd qilindi. Tinchlikni ta'minlashning tub masalalarida ushbu tashkilotning faoliyati buyuk davlatlarning hamfikrliligi prinsipi asosida bo'lishi belgilab qo'yildi. Konferensiyada BMTga Belorussiya SSR va Ukraina SSRni birlamchi a'zolar sifatida kiritish haqidagi SSRIning taklifi qo'llab-quvvatlandi. Boshqa ittifoqdosh respublikalarga bunday huquq berilmadi.

BMT Ustavining birlamchi loyihasi 1944-yilning avgust-oktyabr oylarida Dumbarton-Oksda (AQSH) bo'lib o'tgan konferensiyada SSRI, AQSH, Buyuk Britaniya va Xitoy vakillari tomonidan ishlab chiqildi. Ustavning yakuniy matni 1945-yil 25-apreldan 26-iyungacha qadar San-Fransiskoda (AQSH) o'tkazilgan Birlashgan Millatlar konferensiyasida 50 davlat vakillari tomonidan ko'rib chiqildi va imzolandi. Keyinroq Polsha ham ushbu hujjatga imzo chekdi.

BMT Ustavi 24-oktabrda to'la kuchga kirdi. Shu munosabat bilan 1948-yildan boshlab, BMT Bosh Assambleyasining 1947-yil 31-oktabrda qabul qilgan rezolutsiyasiga asosan 24-oktyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Mohiyatiga ko'ra BMT Ustavi zamonaviy xalqaro huquq yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan benazir hujjatdir. BMT Ustavi «Biz, Birlashgan Millatlar xalqlari, qat'iat bilan ...» so'zlari bilan boshlanuvchi muqaddima va 111 moddadan iborat 19 bobni o'z ichiga oladi.

BMT tizimini olti bosh organ tashkil etadi: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi, Xalqaro Sud va Kotibiyat.

Bundan tashqari, BMT Ustavining tarkibiga Xalqaro Sud Statuti ham kiradi.

BMT Ustavining XVIII bobi 108-110-moddalari Ustavga tuzatishlar kiritish va uni qayta ko'rib chiqish tartibini nazarda tutgan va bu amaliyotda qo'llanilgan. Birinchi tuzatishlar 23-, 27- va 61-moddalarga kiritilgan bo'lib, 1963-yil 17-dekabrda Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan va ular 1961-yil 31-avgustdan kuchga kirgan. 109-moddaga kiritilgan tuzatishlar Bosh Assambleya tomonidan 1965-yil 20-dekabrda qabul qilinib, 1968-yil 12-iyundan kuchga kirgan. Keyinchalik 61-moddaga qo'shimcha tuzatish kiritilib, unga ko'ra Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash a'zolarining soni 54 taga etgan. Mazkur tuzatish 1973-yil 24-sentabrda kuchga kirgan.

Umuman, BMT faoliyatida BMT Ustavining u yoki bu qoidalarini qayta ko'rish masalalari doimo diqqat markazida turadi, chunki davlatlar uni qayta ko'rib chiqish yuzasidan turli takliflar bildirilarki¹, bu haqda keyingi bo'limlarda to'xtalib o'tamiz.

Shu munosabat bilan 1974-yilda BMT tizimida BMT Ustavi bo'yicha maxsus qo'mita tashkil etildi. Qo'mitaning asosiy vazifasi BMTga a'zo davlatlardan tushgan va tashkilot faoliyatini yaxshilashga qaratilgan taklif va mulohazalarni muhokama qilish va ko'rib chiqishdir.

2. BMTning bosh organlari va ularning vakolatlari

O'zining butun hayoti davomida BMT uzoq yo'l bosib o'tdi va faoliyatining turli sohalarini bo'yicha katta tajriba to'pladi. Biroq bu tajribaning qiymati turli yo'nalishlarda turlichadir, zero, uning turli bosqichlarda tashkilot to'qnash kelgan va kelayotgan turli xalqaro muammolarni hal etishdagi roli turlichadir. Uning bosh organlari o'rtasida daxldorlikni nizo bo'yicha taqsimlash va ularning o'z vakolatlarini amalga oshirish tajribalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu umuman BMT ishining samaradorligi va bundan yarim asr ilgari uning ta'sis etilishida unga yuklatilgan muammolarni hal etishga qodir yoki qodir emasligi masalasi bilan bog'liq. Bu masalalarga oydinlik kiritish tarix nuqtayi nazaridan emas, balki BMTning kelajagi nuqtayi nazaridan ko'proq qiziqish uyg'otadi.

¹ Тюрина Н.Е. Международный порядок. – Казань, 1991. – С. 35.

BMT va undan oldingi xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi bir qator farqlardan asosiysi, ya'ni prinsipial farqi shundaki, u yuqorida qayd qilinganidek, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ega davlatlar o'rtasidagi hamkorlik natijasida yuzaga kelgan.

BMT eski tizimlarning (shu jumladan, Millatlar Ligasining ham) moslashuvi ko'rinishida emas, tinchlik va xavfsizlikni saqlashning yangi quroli, dunyo taraqqiyotidagi yangi bosqichning o'ziga xos xususiyatlari va xalqaro maydondagi kuchlar nisbatining tubdan o'zgariganligini aks ettiruvchi tashkilot sifatida paydo bo'ldi. Xalqaro tashkilot yordamida tinchlikni saqlashning yangi konsepsiyasi BMTning maqsadlari va prinsiplarining ifodalanishi, ushbu maqsadlarga erishish usullarining belgilanishi va BMTning bosh organlari o'rtasida vakolatlarning taqsimlanishida o'z ifodasini topdi.

BMT Ustavining 7-moddasi 1-bandida BMTning bosh organlari sifatida Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi, Xalqaro Sud va Kotibiyat belgilab qo'yilgan.

Mazkur organlarning har biri bosh organlar tizimiga bejiz kiritilmagan. Aksincha, tashkilotning prinsipial sxemasi BMTning barpo bo'lishiga qadar o'tkazilgan xalqaro muzokaralar va konferensiyalarda atroflicha va uzoq muhokama etilgan¹. Bu masalaning yakuniy yechimi, ma'lumki, 1945 yildagi San-Fransisko konferensiyasida, BMT ta'sis etilishining oxirgi bosqichida o'z ifodasini topdi.

Biroq Ustavning 7-moddasi 1-bandi unda ko'rsatilgan barcha organlarning BMTning maqsad va vazifalarini amalga oshirishdagi o'rniga ko'ra teng huquqlarga ega ekanligini ko'rsatadimi yoki yo'qmi, hattoki ushbu organlarning huquq va vakolatlari bilan birinchi bor tanishishning o'ziyoy shuni ko'rsatadiki, nafaqat keng xalqaro hamkorlik ularga berilgan imkoniyatlar, balki BMT bosh organlari tizimidagi ularning huquqiy maqomlari ham turlichadir.

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash hamda teng huquqli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun keng qamrovli xalqaro muammolarni muhokama qilish uchun eng vakolatli forum sifatida Bosh Assambleya, BMTning Ustaviga asosan xalqaro tinchlik va xavfsizlikning saqlanishiga mas'ul etib qo'yilgan va o'z majburiyatlarini

¹ Крылов Н.В. История создания Организации Объединенных Наций. – М., 1973. – С. 35.

bajarishda 24-moddaning 1-bandiga asosan barcha a'zo davlatlar nomidan harakat qiluvchi Xavfsizlik Kengashi muhim ahamiyatga egaligi umumiy tan olingan.

Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi o'z vazifalarini bajarishda boshqalarga qaraganda qo'proq erkinlikka ega. Kotibiyatning vazifasiga boshqa organlarga xizmat ko'rsatish, shu jumladan, boshqa bosh organlar tomonidan topshirilgan vazifalarni bajarish kiradi (Ustavning 98-moddasi). Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash va Vasiylik Kengashiga kelsak, Ustavning qator qoidalarida ularning faoliyati BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi tomonidan boshqarilishi va nazorat qilinishi nazarda tutilgan (masalan, 41-, 60-63-, 65-66, 83-85, 87-moddalar).

BMT bosh organlari huquqiy maqomlari o'rtasidagi mavjud farqlarga asoslanib, Ba'zi xorijiy mutaxassislar Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash va Vasiylik Kengashini umuman bosh organ deb hisoblamaydilar. Bu fikr tarfdorlari mazkur organlar o'z faoliyatini Bosh Assambleya rahbarligida amalga oshirishlarini e'tiborga olib, ularga Assambleyaning yordamchi organlari deb qarash lozimligini uqtiradilar. Masalan, avstriyalik xalqaro huququqshunos A. Ferdrossning xalqaro huquq kursida Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash aslida Bosh Assambleyaning ma'lum doiradagi ishlari bo'yicha yordamchi organi ekanligi qayd etilgan¹. A. Ferdross Vasiylik Kengashi haqida ham shunday fikrni bildirib, uni yordamchi organ deb qo'ya qolgan. G. Kelzen o'zining BMT haqidagi katta bir ishida «Birlashgan Millatlarning oliy organlarini faqat Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi va Xalqaro Sud tashkil etadi», deb ta'kidlagan.

Bunday nuqtayi nazar tarafdorlari BMTning har bir bosh organi maksimal (yoki mutlaq) darajada boshqa organlardan mustaqil va erkin bo'lishlari, ya'ni faoliyatlari sohasida «ustuvor» bo'lishlari kerak, degan tezisdan kelib chiqadilar. Biroq BMT organlari maqomini bunday mezon bilan belgilash ancha asossiz ko'rinadi.

Avvalo, har qanday xalqaro tashkilot organlari bir butunning bo'lagi sifatida o'zaro to'la mustaqil bo'la olmaydilar. Aksincha, xalqaro tashkilot normal faoliyat ko'rsatishi uchun uning alohida organ-

¹ Фердросс А. Международное право. — М., 1959. — С. 523.

lari yaqindan aloqada bo'lishlari kerak, shu jumladan, BMTning bosh organlari ham.

Bosh Assambleyadan eng mustaqili hisoblangan Xavfsizlik Kengashi ham Ustavning 24-moddasi 3-bandiga asosan Bosh Assambleya e'tiboriga yillik hisobotlar va zarur bo'lganda maxsus axborotlarni havola qiladi. Bundan tashqari, Assambleya Kengashning o'zgaruvchi a'zolarini tanlaydi. Ustavning 12-moddasida nazarda tutilgan holatlardagi Bosh Assambleya vakolatlarining cheklanishi BMT bosh organlari o'rtasidagi bog'liqlik tabiatining umumiyligidan dalolat beradi.

1954 yildagi San-Fransisko konferensiyasi materiallariga murojaat qilsak, ulardan ko'rilayotgan masalaga taalluqli ma'lumotlarni topish mumkin. Masalan, 11/3 qo'mitasining BMT doirasida iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik haqidagi hisobotida quyidagi qaror o'z ifodasini topgan: «Qo'mita Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashni Tashkilotning bosh organlari safiga kiritishni 1/2 qo'mitaga tavsiya etish bir ovozdan ma'qullandi. Bu qaror qo'mitaning oliy darajadagi iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik Tashkilot faoliyati yutuqlari uchun muhim va bahsli bu maqsadlarning Tashkilotning boshqa bosh organlari maqsadlariga bo'yusinishini nazarda tutgan bo'lishi mumkin emas degan fikrini ifodalagan».

11/3 qo'mitasining mazkur hisoboti Ustav mualliflarining BMT bosh organlari tizimini ishlab chiqayotganlarida qaysi yo'ldan borganliklari haqida guvohlik beradi. Shu bois xorijiy mutaxassislarining u yoki bu organni bosh organ deb tan olinishi mezoni sifatida uning mustaqilligi darajasini birinchi o'ringa qo'yishlarini asossiz deb baholash mumkin.

Sobiq ittifoq davlatlari xalqaro huquqshunoslari BMT bosh organlari tizimiga butunlay boshqa nuqtayi nazardan baho beradilar. Ular BMTning alohida organlarining ahamiyatini pasaytirishdan yiroqlar. BMT Ustavi va unga aloqador hujjatlar tahlili shunday xulosaga olib keladiki, Ustavdagi «bosh» atamasi BMT maqsadlarini amalga oshirish uchun eng zarur bo'lgan asosiy organlariga nisbatan ishlatilgan. Har bir bosh organ maqomi o'rtasidagi farqlarga kelsak, ular Ustavda ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarning tabiatidan kelib chiqadi.

Ustavda har birining daxldorlik doiralari, shakllanish tartibi va faoliyat usullari aniq belgilab qo'yilgan BMT bosh organlari tizimi tinchlik va xavfsizlikni xalqaro tashkilot vositasida saqlab turish kabi yangi konsepsiya (yo'nalish)ni aks ettirdi. Bu yangi konsepsiyaning e'tiborga molik xususiyati shundaki, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash choralarini davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirish va barcha davlatlarga aloqador keng ko'lamli muammolar bo'yicha xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish bilan uyg'unlashtirishni tan oladi. BMT bosh organlari tizimi maqsadi BMT oldiga qo'yilgan muhim vazifalarni mumkin qadar samarali amalga oshirishni ta'minlashdan iborat.

Endi BMT bosh organlari, ularning daxldorlik doiralari, tarkibi va hozirgi dunyoda ular egallagan mavqeyi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

BMT Ustaviga ko'ra Bosh Assambleya BMTning barcha a'zolarini birlashtiruvchi asosiy organ hisoblanadi («bir davlat – bir ovoz» prinsipi asosida). U BMT Ustavining kuchi doirasidagi siyosiy va moddiy sohalarga (xalqaro xavfsizlik va tinchlik, xalqaro huquq va inson huquqlari, asosiy erkinliklarini rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalardagi xalqaro hamkorlik) taalluqli muammolarni ko'rib chiqadi va ularga oid tavsiyalarini beradi.

Bosh Assambleya (BA) BMT siyosati va dasturini belgilaydi, budgetini tasdiqlaydi, Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolarini saylaydi, Bosh Kotibni tayinlaydi, konferensiyalar tashkil etadi. Bosh Assambleya o'z vazifalarini uning o'zi istagan vaqtida ishlatishi mumkin bo'lgan yordamchi organlar vositasida amalga oshiradi. Ular orasida bosh qo'mitalar (yettita), Protседuralar (protседura) qo'mitalari, ixtisoslashgan muassasalar bor. Eng muhim va Ustavda nazarda tutilgan masalalar yuzasidan qarorlar (rezolutsiyalar, masalan, xalqaro tinchlikni saqlashga oid tavsiyalar, Xavfsizlik Kengashining o'zgaruvchi a'zolarini saylash, yangi a'zolari qabul qilish va boshq.) ovozlarning uchdan ikki qismi bilan qabul qilinadi. Boshqa masalalar yuzasidan chiqariladigan qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz asosida qabul qilinadi. Oddiy deb konsensus prinsipiga asosan ovoz berishga aytiladi. Bosh Assambleyaning rezolutsiyalari tavsiya qilish tabiatiga ega bo'lgani va yuridik nuqtayi nazardan BMT a'zolari uchun majburiy emas, biroq Birlashgan Millalarning obro'si va yuksak maqomi ularni

mustahkam qiladi. Bosh Assambleyaning navbatdagi sessiyalari har yili sentyabrning uchinchi sheshanbasidan «rojdestvo» bayramlarigacha o'tkaziladi. Navbatdan tashqari sessiyalar ham chaqirilishi mumkin.

Xavfsizlik Kengashi (XK) BMTning barcha a'zolari uchun bajarish shart bo'lgan qarorlarni chiqara oladigan yagona organdir. Inqiroz va qurolli to'qnashuvlar keskin tus olgan holatlarda Xavfsizlik Kengashi nizolarni tinch yo'l bilan tartibga solish choralari (tavsiya berish, maxsus vakolatli shaxsni tayinlash, Bosh kotibga vakolatlar berish, tinch yo'l bilan tartibga solish prinsiplarini belgilash, o't ochishni to'xtatish takliflari kabilarni) qo'llaydi. Agar qarama-qarshi taraflar tinchlik muzokarasida qatnashishga tayyor bo'lmasalar, Xavfsizlik Kengashi harbiy kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lmagan majburlov choralari ko'radi (masalan, iqtisodiy sanksiyalar, embargo, blokadalar, sanksiyalarni qo'llashni tavsiya qilish kabilar).

Xavfsizlik Kengashi 15 ta a'zodan iborat. Xavfsizlik Kengashining raisi har oyda o'zgaradi. O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Xavfsizlik Kengashi yordamchi organlar (doimiy yoki muvaqqat qo'mitalar) tuzishi mumkin. Xavfsizlik Kengashining qarorlari, protseduraga oid masalalardan tashqari, kamida to'qqizta ko'pchilik ovoz, shu jumladan, veto huquqiga ega bo'lgan doimiy a'zolarining ovozi bilan qabul qilinadi.

*Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (IJK)*ga uch yil muddatga 54 a'zo teng jug'rofiy vakillik asosida saylanadi. Har yili 18 a'zosi qayta saylanadi. U Birlashgan Millatlarning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida faoliyati uchun javobgar bo'lib, Bosh Assambleya tavsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarni bajaradi (tadqiqotlar olib borish, hisobot va tavsiyalar berish). IJK ixtisoslashgan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtiradi. O'z vazifalarini bajarish uchun IJK ixtiyorida to'rt guruhdan iborat yordamchi organlar: oltita funksional komissiya, beshta hududiy iqtisodiy komissiya, oltita doimiy qo'mita va qator ekspert qo'mitalar, muvaqqat qo'mitalarning ishchi guruhlari bor. IJK yilda ikki marta Nyu-York va Jeneva shaharlarida yig'iladi.

Vasiylik Kengashi (VK). 60-yillarda jadal kechgan dekolonizatsiya (mustamlakadan chiqarish) jarayonlari avvaliga 11 ta bo'lgan vasiylik hududlari sonining 1996-yilga kelib 1 taga tushishiga (AQSHga qarashli Tinch okeanidagi Palau orollari) va VK a'zolari sonining qisqarishiga, vasiylikdagi hududning boshqaruvchisi bo'lgan AQSHning

o'zi va XKning boshqa to'rt doimiy a'zosidan iborat bo'lib qolishiga olib keldi. 1996-yildan keyin vasiylik hududlari qolmadi va VK o'z faoliyatini to'xtatdi.

BMT Ustaviga muvofiq 1945-yilda tashkil etilgan *Xalqaro Sud* (Gaaga, Niderlandiya) Birlashgan Millatlarning bosh yuridik organi hisoblanadi. Uning maqomi BMT Ustavining ajratmas qismidir.

Sud barcha davlatlar va jismoniy shaxslar: BMT a'zolari; ma'lum shartlar asosida Xalqaro Sud Statuti qatnashchilari bo'lgan, lekin BMT Ustaviga imzo chekmagan davlatlar, BMT a'zosi yoki Xalqaro Sud Statuti ishtirokchisi bo'lmagan boshqa har qanday davlat uchun ochiq. Sudga Xavfsizlik Kengashi qo'ygan talablarga javob beruvchi arizani taqdim etish yo'li bilan murojaat qilinadi

XS qarorlar qabul qiladi, buyurtma bilan xulosa va maslahatlar tayyorlaydi, o'z qarorlarini sharhlaydi. Faoliyatining huquqiy asoslari BMT Ustavi, Xalqaro Sud Statuti va Xalqaro Sud Reglamentida o'z ifodasini topgan.

Sudning 15 ta to'qqiz yillik vakolatlari va qayta saylanish imkoniyatiga ega (har uch yilda a'zolarining uchdan biri uchun qayta ovoz beriladi) 15 ta a'zosi BMT a'zolari va Xalqaro Sud Statuti qatnashchilari tomonidan saylanadi.

Kotibiyat (25 mingdan ortiq xizmatchisi bor) Bosh kotib rahbarligida faoliyat ko'rsatadi. Kotibiyat kundalik ishning bajarilishiga javob beradi, turli organlar ixtiyorida bo'ladi va ular ishlab chiqqan dasturlar va siyosatni amalga oshiradi. Tadqiqotlar olib boradi, muzokara va konferensiyalar tayyorlaydi va jamoat fikri uchun ma'lumotlar beradi. 1992-yilda Kotibiyat isloh etildi (vakolatlar yanada aniqroq taqsimlandi, tizim soddalashtirildi, xizmatchilar soni qisqartirildi). Kotibiyatning Jeneva, Vena va Nayrobi shaharlaridagi bo'limlari uning tarkibiy qismidir.

Bosh kotib BMTning oliy ma'muriy mansabdor shaxsi bo'lib, Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik Kengashining tavsiyasi bilan tayinlanadi. O'ziga berilgan vakolatlar doirasida u Xavfsizlik Kengashi diqqatini xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga xavf solayotgan har qanday holatga qaratishi mumkin. Bosh kotib Bosh Assambleyaga BMTning ishi yuzasidan yillik hisobotlarni taqdim etadi, Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, IIK va Vasiylik Kengashi majlislarida ishtirok etadi, shu organlar topshirgan boshqa vazifalarni

bajaradi. Bosh Assambleya ma'qullagach, Bosh kotib tomonidan tayinlanuvchi inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar (lavozim 1993-yilda ta'sis etilgan) BMTning Inson huquqlari sohasidagi faoliyati uchun javob beradi.

Shu kunga qadar Bosh kotib lavozimiga quyidagilar ega bo'lganlar:

1. Tryugve Li (Norvegiya) – 1946-1953.
2. Dag Xammarsheld (Shvetsiya) – 1953-1961.
3. U Tan (Birma) – 1961-1971.
4. Kurt Valdxaym (Avstriya) – 1971-1981.
5. Xav`yer Peres De Kuelyar (Peru) – 1981-1991.
6. Butros Butros G'oli (Misr) – 1991-1996.
7. Kofi Adda Annan (Gana) – 1996 – 2006.
8. Pan Ge Mun (Janubiy Koreya) – 2006.

Ko'plab mamlakatlarda axborot markazlari va xizmatlari ish olib boradi. Boshqa mamlakatlarda bu vazifalarni BMT Rivojlanish Dasturi (BMTRD) vakillari amalga oshiradilar¹.

3. BMTning ixtisoslashgan muassasalari

BMT Ustavining 57-moddasida davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda o'z ta'sis aktlarida belgilab qo'yilgan keng xalqaro majburiyatlarga ega ixtisoslashgan muassasalarning BMT bilan aloqalari 63-moddaga binoan o'rnatilishi nazarda tutilgan.

O'z navbatida, 63-modda shuni ko'rsatadiki, IIK bu kabi har qanday ixtisoslashgan muassasa bilan ularning qay tarzda BMT bilan aloqaga kirishuvi sharoitlarini belgilab beruvchi shartnomaga kirishishlari mumkin. Bunday shartnomalar Bosh Assambleya tomonidan tasdiqlanishi shart.

IIK ixtisoslashgan muassasalar faoliyatini ular bilan maslahatlashish va shu muassasalar hamda Bosh Assambleya va BMT a'zolariga tavsiyalar berish orqali muvofiqlashtirib boradi. IIKga ixtisoslashgan muassasalardan muntazam ravishda hisobot olib turish, BMT a'zolari

¹ Сакдудлаев Д.С., Кузьмина Е.М. и др. Республика Узбекистан в международных организациях. (Историко-справочные материалы). – Т., 1996. – С. 10-13.

va ixtisoslashgan muassasalar bilan Bosh Assambleyaning tavsiyalariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy huquqqa oid tadbirlar haqidagi hisobotlar olib turish haqida shartnomalar tuzish vazifalari yuklatilgan.

Ustavga muvofiq, BMT ixtisoslashgan muassasalar siyosati va faoliyatini muvofiqlashtirish haqida tavsiyalar beradi. Bu ham IIK va Bosh Assambleyaning vazifalariga kiradi (58-modda).

Ustavning 70-moddasiga asosan, ixtisoslashgan muassasalar vakillarini masalalarni Kengashda yoki uning komissiyalarida muhokama qilishda ishtirok etish uchun chaqirishi hamda o'z vakillarini masalalarni ixtisoslashgan muassasalarda muhokama qilish uchun yuborishi mumkin.

BMT Ustavining 17-moddasiga binoan Bosh Assambleya ixtisoslashgan muassasalar bilan bo'ladigan har qanday moliyaviy va budjet shartnomalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, manfaatdor muassasalarga tavsiyalar berish uchun ularning ma'muriy budjetini tekshiradi.

Shunday qilib, BMTning ixtisoslashgan muassasalari – bu universal xarakterga ega bo'lgan, har qanday davlat uchun ochiq, davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish uchun maxsus shartnomalar vositasida BMT tomonidan aloqaga kiritilgan xalqaro (davlatlararo) tashkilotdir.

Ayni paytda ixtisoslashgan muassasalar o'z maqsad va vazifalari, tashkiliy tizimlari va organlari vakolatlarini belgilab beruvchi o'z ta'sis aktlari (davlatlararo shartnoma) asosida tuzilgan va amal qilayotgan mustaqil xalqaro tashkilot degan maqomini to'la saqlab qoldilar.

Hozirgi kunda BMTning 16 ta ixtisoslashgan muassasalari ishlayapti. Ularning ayrimlari BMTning tuzilishiga qadar paydo bo'lgan va ishlagan.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) 1919-yilda Parij tinchlik konferensiyasining qarori bilan tashkil etilgan. Uning nizomi 1919-yilgi Versal' sulh bitimining XIII qismini tashkil etadi. 1946-yilda XMT BMTning birinchi ixtisoslashgan muassasasi bo'ldi. XMTning asosiy maqsadlariga ijtimoiy adolatni rag'batlantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirish kiradi. Shu maqsadlarga erishish uchun XMT har xil turdagi mehnatkashlarning ish sharoitlari, maoshi, ish kunining davomiyligini, ishga olinadigan minimal yosh,

maxsus sug'urta, haq to'lanadigan ta'tillarga aloqador xalqaro konvensiyalarni ishlab chiqadi. Ular davlatlar tomonidan o'z konstitutsiyaviy Protседuralari asosida ratifikasiya qilingach, a'zo davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi. XMT a'zo davlatlar uchun ham tavsiyalar chiqaradi.

A'zo davlatlar XMT bilan tarkibiga ikki hukumat vakili va bitta tadbirkorlardan, bitta kasaba uyushmalaridan vakil kiruvchi maxsus delegatsiyalar yordamida bog'langan bo'ladilar.

XMTning oliy organi – har yilda chaqiriladigan Umumiy konferensiya, ijro etuvchi organi – 56 a'zodan iborat, ulardan 28 tasi hukumat, 14 tasi tadbirkorlar, 14 tasi kasaba uyushmalari vakillari bo'lgan Ma'muriy kengashdir.

Butunjahon pochta ittifoqi (BJPI) – 1874-yilda turli hududlar o'rtasidagi pochta aloqalarini amalga oshirishga ko'mak berish maqsadida tuzilgan (o'sha sharoitlarda ma'muriy ittifoq deb atalgan). 1947-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi hisoblanadi. O'z nizomi, BJPIning umumiy reglamenti va Butundunyo pochta konvensiyasi (Konvensiya 1971-yilda kuchga kirgan) asosida harakat qiladi. Dunyoning barcha davlatlari unga a'zo. Ularning hududlariga yagona pochta hududi sifatida qaraladi. BJPIning maqsadlari pochta xizmatini tashkil etish va kamol toptirish, rivojlanayotgan davlatlar aholisiga pochta xizmatini tashkil etish uchun texnikaviy yordam ko'rsatish kabilardir.

BJPIning oliy organi – odatda besh yilda chaqiriladigan Butundunyo pochta konvensiyasi; boshqaruv organi – tashkilotning qirq yoki undan ko'proq a'zolari vakillaridan iborat bo'lgan Ijro etuvchi kengash. BJPI doirasida yana pochta xizmatining texnik, ekspluatatsion va iqtisodiy asoslari yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiquvchi Pochta aloqalariga oid tadqiqotlar bo'yicha maslahat kengashi faoliyat ko'rsatadi. BJPI Kotubiyati uning BJPI xalqaro byurosi deb ataluvchi organidir.

Xalqaro elektr aloqa ittifoqi (XEAI) 1932-yilda Butunjahon elektr aloqa konferensiyasida Xalqaro telegraf ittifoqi (1865-yilda asos solingan) va Xalqaro radio-telegraf ittifoqini (1906-yildan ishga tushgan) XEAIga birlashtirish asosida tashkil topgan. 1947-yildan beri BMTning ixtisoslashgan tashkiloti. U xalqaro elektr aloqa konvensiyasi va uni to'ldiruvchi reglamentlar (tartib-qoidalar) asosida ish

ko'radi. XEAIning maqsadlari xalqaro elektr aloqaning barcha turlarini, shu jumladan, kosmik aloqa turini muvofiqlashtirish, radioaloqa xizmatidan unumli foydalanish, uni radiochastotali spektrni taqsimlashga yordam berishdan iborat. XEAI radioaloqaning hududiy tarmoqlarining rivojlanishi va butundunyo tizimiga kirishi uchun texnikaviy yordam ko'rsatadi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun radioaloqa xizmatini tashkil qilishda texnik va boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatadi.

XEAI oliy organi – odatda besh yilda bir marta uning a'zolari (dunyoning barcha davlatlari) ishtirokida o'tkaziladigan Vakolatli konferensiyadir. Elektr aloqa reglamentlarini (tartib-qoidalarini) qayta ko'rib chiqish uchun XEAI butundunyo ma'muriy konferensiyalari o'tkazilib turadi.

XEAIning ma'muriy ishlarini Ma'muriy kengash olib boradi, uning a'zolari Vakolatli konferensiya tomonidan saylanadi. U har yilda yig'ilish o'tkazadi.

XEAIning doimiy oganlari: Bosh kotibiyat, Xalqaro chastotalarni ro'yxatga olish qo'mitasi, Xalqaro radio bo'yicha maslahat qo'mitasi va Xalqaro telefon va telegraf bo'yicha maslahat qo'mitasi

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) – 1946-yilda tuzilgan, 1948-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi sifatida ish olib boradi. Dunyoning ko'pchilik davlatlarini birlashtiradi. JSST nizomiga ko'ra, uning maqsadi barcha xalqlar sog'lig'ini faqat tibbiyot yordamida emas, balki tegishli ijtimoiy-iqtisodiy choralar ko'magida yanada yuqoriroq darajaga ko'tarishdir. JSST o'z faoliyatini mamlakatlarga tibbiy xizmat ko'rsatish, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli yordam turlarini ko'rsatish, tibbiyotga oid tadqiqotlarni tashkillashtirish va rag'batlantirish orqali amalga oshiradi. So'nggi faoliyat kasallik tarqatuvchi organizmlarni tadqiq etuvchi, ma'lum vaksinalarni tayyorlovchi va kerakli xizmatchilarni tarbiyalovchi xalqaro laboratoriyalar tarmog'ini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

JSSTning boshqaruv organi – har yilda chaqiriladigan Jahon sog'liqni saqlash assambleyasi; ijro etuvchi organ – Jahon assambleyasi tomonidan saylanadigan Ijroiya qo'mita; ma'muriy organi – JSSTning Bosh direktori rahbarligidagi Kotibiyat.

Jahon meteorologiya (ob-havoni kuzatish) tashkiloti (JMT) – 1873-yildan mavjud bo'lgan tegishli nodavlat tashkiloti asosida 1947-

yilda tuzilgan. 1951-yildan dunyoning deyarli barcha davlatlarini birlashtirgan holda BMTning ixtisoslashgan muassasasi sifatida ish olib bomoqda. Uning maqsadlari ob-havoni kuzatish ishlarida dunyo bilan hamkorlik qilish, meteoxabarlarining tezkor almashinuvini ta'minlash, meteokuzatuv va statistika ma'lumotlarining mos kelishini ta'minlash, ob-havoni kuzatishga oid tadqiqotlarni tashkillashtirish va meteorolog kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Uning organlari: BJMK – Butunjahon meteorologiya kongressi, odatda har to'rt yilda chaqiriladi; har yilda sessiya o'tkazib turuvchi Ijroiyy qo'mita; Bosh kotib rahbarligidagi Kotibiyat.

BJMK o'zi ishlab chiqqan Butunjahon iqlim dasturi va Dunyo atmosfera tadqiqotlari dasturiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi

Xalqaro dengiz tashkiloti (XDT) – 1982-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi sifatida ish olib boradi. U 1959-yildan beri mavjud bo'lgan Hukumatlararo dengiz konsultativ tashkilotining o'rnini egalladi.

XDTning rahbar organi – har ikki yilda yig'iladigan Assambleya. U Assambleya sessiyalari orasidagi muddat ichida XDT faoliyatiga rahbarlik qiluvchi va odatda yilda ikki marta yig'iluvchi Kengashni saylaydi. XDT o'zining doimiy Kotibiyatiga ham ega.

XDT doirasida beshta ixtisoslashgan qo'mitalar faoliyat ko'rsatadi:

Dengizdagi xavfsizlik qo'mitasi, Yuridik qo'mita, Dengiz muhitini saqlash qo'mitasi, Texnik hamkorlik qo'mitasi va Rasmiyatchilikni kamaytirish qo'mitasi. Ular XDTning rahbar organlariga taqdim etish uchun dengizda yurish va uni muhofaza qilish bo'yicha tegishli qoidalarni ishlab chiqadilar.

XDT bayrog'i ostida ko'plab xalqaro konferensiyalar o'tkazilgan, dengizda inson hayotini himoyalash, kemalarning yuk tashish markalari va sig'implari, kemalarning to'qnashuvi va dengiz ifloslanishining oldini olish, baliqchi kemalar xavfsizligi, halokatga uchragan kemalarni qidirish va qutqarish muammolariga bag'ishlangan konferensiyalar shular jumlasidandir. Bunday anjumanlarda xalqaro konvensiyalarning matnlari qabul qilinadi, ya'ni hozirgi dengiz huquqining kodifikatsiyasi ustida ishlanadi. XDT organlari dengiz haydovchilari, dengiz kemalari konstruktorlari va quruvchilari uchun tav-

siya, qomus, yo'riqnoma va shu kabilarni ishlab chiqadilar. Bularning barchasi XDT faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.

Maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (YUNESKO) – 1946-yilda tuzilib, shu yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatadi, deyarli barcha mavjud davlatlarni birlashtirgan.

YUNESKOning maqsadi maorif, fan va madaniyat sohalaridagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan mustahkam tinchlik, xavfsizlik va xalqlar farovonligiga erishishga ko'maklashishdan iborat. Bu tashkilot irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar, dunyoning barcha xalqlarining adolat, huquqiy tartibot, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga doimo amal qilishlarini rag'batlantirish uchun safarbar etilgan. Faoliyatining asosiy dasturiga aholi savodsizligini yo'qotish, majburiy ma'lumot berish va uning darajasini ko'tarishga yordam berish, fan va maorif sohalaridan ekspertlar tayyorlab, manfaatdor davlatlarga yuborish kabilar kiradi. YUNESKO o'z vakolatlari doirasida hozirgi zamonning butundunyo termoyadroviy halokati xavfini bartaraf qilish, qurollanish poygasini to'xtatish, yangi iqtisodiy va axborot tartibotini o'rnatish, atrof muhitni muhofaza qilish, butun insoniyat farovonligi yo'lida dunyo okeani va kosmik kenglikni o'zlashtirish kabi global muammolarni ko'rib chiqadi.

YUNESKOning oliy organi – ikki yilda bir bor yig'iluvchi Umumiy konferensiya; ijro etuvchi organ – Umumiy konferensiya tomonidan saylanadigan Ijroiya kengashi, yilda uch marta yig'iladi, Umumiy konferensiya chiqargan dasturlarning bajarilishiga mas'ul; ma'muriy organi – Bosh direktor rahbarligidagi Kotibiyat.

Birlashgan Millatlarning sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YUNIDO) – 1967-yilda BMT Bosh Assambleyasining tegishli rezolutsiyasiga muvofiq tashkil etilgan va 1985-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi hisoblanadi.

YUNIDOning maqsadlari rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatining rivojlanishi va industriallasuviga, tegishli loyihalarni moliyaviy ta'minlash, milliy kadrlarni tayyorlashga yordam berish hamda davlatlarning shu sohada xalqaro va hududiy hamkorlik qilishlariga ko'maklashish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish kabilardan iborat.

YUNIDOning Bosh organi – to‘rt yilda bir chaqiriladigan Umumiy konferensiya. U uch yil muddatga asosiy boshqaruv organi – odatda yilda bir marta yig‘iladigan Sanoatni rivojlantirish kengashini saylaydi. Kengash kelgusi ishlar dasturini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, BMT tizimidagi muassasalarning sanoatni rivojlantirish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish masalalarini muhokama qiladi, har yili IIK va Bosh Assambleyaga o‘z hisobotlarini taqdim etadi. Kengash sessiyalari oralig‘ida odatda yilda ikki marta aynan Kengash tarkibida yig‘iladigan Doimiy qo‘mita ish olib boradi. YUNIDOning ma‘muriy organi – BMT Bosh kotibi tomonidan tayinlanib, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlanadigan Ijro etuvchi direktor boshchiligidagi Kotibiyat.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti – 1970 yilda o‘zining ta‘sis akti – 1967-yilda tuzilgan Konvensiyaga muvofiq tashkil etilgan. 1974-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi.

Ancha o‘ziga xos bo‘lgan bu xalqaro tashkilotning asosiy maqsadlari BJIMTning a‘zosi bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’iy nazar, butun dunyo davlatlari, shu jumladan, har qanday xalqaro uyushmalar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish yo‘li bilan intellektual ijodiy faoliyat va intellektual mulkni himoyalashga ko‘maklashish va rivojlanayotgan mamlakatlarga ularning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yuksalishiga qarab, texnologiya yetkazib berishda yordamlashishdan iborat.

Davlatlar intellektual mulkni himoya qilish ishini 1883-yilda Parijda chiqarilgan sanoat mulkini himoya qilish konvensiyasidan boshlaganlar. 1886-yilda adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish konvensiyasi tuzildi (Bern). Shundan beri bu sohada ko‘plab har tomonlama xalqaro shartnomalar paydo bo‘ldi. BJIMTning asosiy vazifalaridan biri shu xalqaro birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat.

BJIMTning ta‘sis aktiga muvofiq adabiy, badiiy va ilmiy asarlarga oid huquqlar, artistlar, ovoz yozish, radio va teleko‘rsatuvlar ijrosiga oid huquqlar, inson faoliyatining barcha sohalaridagi kashfiyotlar, ilmiy kashfiyotlar, sanoat namunalari, tovar va xizmat belgilari, xo‘jalik nomi va tijorat ishorasiga oid huquqlar hamda noqonuniy raqobatga qarshi himoyalaniş va sanoat, fan, adabiyot va san`at sohalaridagi

intellektual faoliyatga oid boshqa barcha huquqlar intellektual mulk deb tushuniladi.

BJIMTning organlari: A'zo davlatlar konferensiyasi, BJIMTning Parij va Bern konvensiyalari ishtirokchilari bo'lgan a'zolaridan iborat Bosh assambleya va Muvofiqlashtiruvchi qo'mita. Ma'muriy organi – BJIMTning Bosh direktori qo'li ostidagi Xalqaro byuro.

Birlashgan Millatlarning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi (mahsulotlari) tashkiloti (FAO – Food and Agriculture Organisation) – 1945-yilda BMTning ixtisoslashgan muassasasi shaklida tuzilgan.

FAOning maqsadlari ovqatlanishni yaxshilash, aholi turmush darajasini ko'tarish, mehnat samaradorligini oshirish va oziq-ovqat taqsimotini yaxshilash, qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik xo'jaliklari mahsuldorligini oshirish, qishloq aholisi turmush sharoitlarini yaxshilash, dunyo iqtisodiyotining rivojiga ko'maklashish hamda qishloq xo'jaligi va aholining oziqlanishiga oid ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va olib borish kabilar kiradi.

FAOning oliy organi – ikki yilda bir yig'iladigan a'zo davlatlar Konferensiyasi; ijro etuvchi organi – Konferensiya saylaydigan Kengash; ma'muriy organi – FAOning Konferensiya saylaydigan Bosh direktori qo'li ostidagi Kotibiyat.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (XFAT) – BMTning xalqaro fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga tegishli xalqaro hamkorlikni tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi ixtisoslashgan muassasasi. XFATning nizomi 1944 yilda Chikagoda tuzilgan xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi konvensiyaning ajralmas qismini tashkil etadi.

XFATning maqsadlari xalqaro avianavigatsiya prinsiplari va usullarini o'rnatish, xalqaro havo transportini rejalashtirish va rivojlantirishga ko'maklashish, uchish va fazoviy qoidalarni mukammallashtirish, xalqaro parvozlar xavfsizligini ta'minlash kabilardan iborat. Uning vazifalariga Xalqaro aeronavigatsiya qoidalarini unifikatsiya qilishni nazarda tutuvchi va yuqorida qayd etilgan Konvensiyaning ilovasini tashkil etuvchi hamda zaruratga qarab o'zgartirilishi mumkin bo'lgan xalqaro andozalar va tavsiyalarni amaliyot talabini hisobga olgan holda ishlab chiqish va qabul qilish kabilar kiradi.

XFAT faoliyatini majburiy yurisdiksiyaga ega yoki yordamchi ishlarni bajaradigan tarmoqlardan iborat organlar tizimi vositasida amalga oshiradi.

XFATning bosh organi odatda uch yilda bir chaqiriladigan Assambleyadir. U tashkilot faoliyatining yaqin yoki uzoq kelajakka mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari va vazifalarini belgilaydi. Assambleya havo transporti ko'proq rivojlangan davlatlar vakillari tarkibidagi doimiy Kengashni saylaydi. Kengashga Assambleya tomonidan saylanadigan Prezident rahbarlik qiladi.

Kengash Aeronavigatsiya qo'mitasini tashkil etadi (ANQ), uning vazifalariga xalqaro havo transportiga oid andozalar va tavsiyalarga o'zgartirishlar kiritish yoki yangilarini ishlab chiqish va Aeronavigatsiya komissiyasini ta'sis etish kiradi. Kengash XFAT faoliyatiga tegishli barcha masalalar bo'yicha maslahatlar berib turuvchi Yuridik qo'mitani tashkil etgan. Kengashning Fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashishni cheklash qo'mitasi va boshqa qator yordamchi organlari ham bor.

XFAT organlari ishini uning Bosh kotib rahbarligidagi va tarkibida bir nechta ixtisoslashgan boshqarmalari bo'lgan Kotibiyati ta'minlaydi.

Xalqaro ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar sohasidagi o'ziga xos o'rin faoliyati va qaror qabul qilish shartlarining tabiati bilan ajralib turuvchi xalqaro valuta va moliya tashkilotlariga tegishli. Bu tashkilotlar quyidagilardir:

Xalqaro valuta fondi (XVF) – 1945-yilda Bretton-Vudsdoyi valuta va moliya konferensiyasida (1944) ishtirokchi-davlatlar tomonidan kelishilgan bitim asosida tuzilgan. Bu davlatlar jamg'armaga to'lagan badallari umumiy hisobda 80 %ni tashkil etadi. 1947-yilda BMTning ixtisoslashgan muassasasiga aylandi va valuta operatsiyalarini bajarishga kirishdi.

XVFning vazifalariga a'zo davlatlar o'rtasidagi bitimlar bo'yicha moliyaviy hisob-kitoblarga oid xalqaro hamkorlikka va dunyo savdosi rivojiga to'sqinlik qiluvchi valuta almashinuvidagi cheklashlarni bartaraf qilishga ko'maklashish kabilar kiradi.

Biroq fond qarorlari a'zolar ovozining o'lchanishi sharti bilan, ya'ni ularning fondga qo'shgan hissalarini hisobga olgan holda qabul qilinishi va ovozlarning ko'pchiligini AQSH yetakchiligidagi 10 ta yuqori darajada rivojlangan davlatlar tashkil etgani uchun jamg'armaning valuta va moliya siyosatini va boshqa davlatlarga kredit berish shartlarini shu davlatlarning o'zi belgilaydi.

Tiklanish va taraqqiyot xalqaro banki (TTXB) – 1944-yilda Bretton-Vuds konferensiyasi ishtirokchilari tomonidan tashkil etilgan. 1945-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi.

TTXBga faqat Xalqaro valuta fondiga a'zo mamlakatlar kirishi mumkin.

TTXBning maqsadlari a'zo davlatlar iqtisodini buning uchun ularga qarz berish yo'li bilan qayta qurishga ko'maklashish. Tegishli qarorlarni chiqarish shartlari Xalqaro valuta fondidagidek.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) – 1956-yili tuzilgan, 1957-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi.

XMKning maqsadi a'zo davlatlar iqtisodini ularning xususiy ishlab chiqaruvchi korxonalari faoliyatini rag'batlantirish yo'li bilan rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat.

XMK XTTB bilan o'zaro bog'langan bo'lib, uning bo'limi hisoblanadi. Uning faoliyatiga XTTB ishlarini boshqaruvchi shaxslar va bir vaqtning o'zida unga a'zo bo'lgan davlatlar vakillaridan iborat boshqaruvchilar Kengashi va direktorlar Kengashi rahbarlik qiladi.

Xalqaro rivojlanish assosiativasi (XRA) 1960-yilda tuzilgan va 1961-yildan BMTning ixtisoslashgan muassasasi. TTXBga a'zo davlatlar uning ham a'zolari hisoblanadi.

XRAning maqsadlari kam rivojlangan mamlakatlar aholisi mehnati samaradorligi va turmush darajasini ularga foizsiz va uzoq muddatga imtiyozli zayom berish yo'li bilan oshirish va iqtisodiy yuksalishiga ko'maklashish. XRA ishlarini boshqarish TTXB zimmasiga yuklatilgan. TTXBning mansabdor shaxslari va xodimlari ayni paytda XRA ishlarini boshqarish vazifasini ham xolisona bajaradilar. Zayomlarni berish haqidagi qarorlarni qabul qilish tartibi TTXBda qanday bo'lsa, shunday.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro fondi (IFAD – International Fund of Agricultural Development) – 1977-yilda tuzilgan va BMTning ixtisoslashgan muassasasi sifatida ish olib boradi.

IFADning maqsadi rivojlanayotgan davlatlar xalq xo'jaligini qishloq xo'jaligi aholisining eng kambag'al qatlamlariga yordam ko'rsatish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan rivojlantirish uchun qo'shimcha mablag'larni safarbar qilishdir.

Fond sarmoyasi asosan rivojlangan davlatlar (50 %dan ortiq) va rivojlanayotgan davlatlar (40 % dan ortiq) badallari evaziga bunyod bo'ladi. Uning taqsimlanishi badal to'lovchi asosiy davlatlar o'rtasidagi kelishuvga ham bog'liq.

4. O'zbekiston va BMTning o'zaro aloqalari

Har bir davlatning suvereniteti faqat ichki siyosatni mustaqil yuritishida emas, balki faol va mustaqil tashqi siyosatni yuritishida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati ikki yo'nalishda olib borildi:

Birinchisi – dunyo hamjamiyatining boshqa davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish. Bugunga kelib O'zbekiston aloqalarini tan olgan davlatlar soni 160 dan oshdi, ulardan 90 dan ortig'i bilan diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risida shartnoma imzolangan. O'zbekiston Respublikasi AQSH, Rossiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, GFR, Isroil, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar bilan diplomatik va konsullik aloqalarini amalga oshiradi.

Ikkinchisi – xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar bilan do'stona va o'zaro mafaaddorlik munosabatlarini o'rnatish va rivojlantirish. Bunday tashkilotlar orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti – faoliyati yerda tinchlikni o'rnatish va xavfsizlikni saqlashga qaratilgan universal tashkilot – alohida o'rin tutadi.

1992-yilning 2-martida O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasining BMT tizimiga kirib borish jarayoni boshlandi. O'zbekiston BMTning XVF, XTTB, XRA, XMT, BSST, YUNESKO va boshqa ixtisoslashgan muassasalariga a'zo bo'ldi. 1993-yil yanvarida Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. BMTning O'zbekistondagi birinchi doimiy vakili pokistonlik Xolid Bashir Malik bo'ldi. Toshkentdagi vakolatxonada BMTning barcha bo'limlari (YUNISEF, YUNESKO, YUNISTAR va boshq.) ishga tushirilgan.

O'zbekiston Respublikasining faol xalqaro siyosat yuritayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning nutqlarida

aks etgan. Masalan, BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida (1993-yil 28-sentabr) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov birinchi marta BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib, o'z nutqida quyidagi xalqaro-huquqiy tashabbuslarni ilgari surdi:

- Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari yuzasidan BMT seminarini chaqirish;

- BMT Xavfsizlik Kengashi qoshida paydo bo'layotgan xalqaro nizomlarni tahlil va bashorat qiluvchi maxsus guruh tuzish;

- Markaziy Osiyoni yadroviy quroldan xoli hudud deb e'lon qilish;

- Markaziy Osiyo hududida kimyoviy va bakteriologik qurollar joylashuvini xalqaro nazorat qilish;

- yadroviy qurolni butunlay yo'q qilish;

- Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurash olib borish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish;

- BMTning Orol bo'yicha maxsus Komissiyasini tashkil etish;

- Xavfsizlik Kengashi tizimini qayta ko'rish va unda hozirgi dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, milliy-madaniy, ruhiy va ma'naviy xilma-xilligini to'g'ri tasavvur etish qobiliyatini shakllantirish¹.

1994-yilga kelib Toshkentdagi vakolatxonada BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan: BMTning Rivojlanish Dasturi (BMTRD), BMTning Qochoqlar ishi bo'yicha Oliy komissarining boshqarmasi (QIOKB), BMTning bolalar jamg'armasi, Sanoatni rivojlantirish (YUNIDO), narkotiklarni nazorat qilish (YUNDKP) Dasturlari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, BMTning xalqlar aholishunoslik fondi kabilarni birlashtirdi.

Ommaviy axborot vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda BMTning O'zbekistondagi Vakolatxonasi rahbari Xolid Malik quyidagilarni ta'kidlagan edi: «BMT Toshkentda tajriba sifatida bir nechta dasturlarni – Narkotik moddalarni nazorat qilish, Rivojlanish dasturi, Texnikaviy yordam dasturini birlashtirishga harakat qildi». Xolid Malik yana Toshkentda BMTning o'nta dasturi ishlayotganligini ham qayd etgan edi. Bular, qayd etilganlardan tashqari, YUNESKO, YUNISEF (Bolalar fondi), Xalqlar aholishunoslik fondi va BMTning boshqa zarur bo'linmalari. Ularning ko'pchiligi Markaziy Osiyo

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasida so'zlagan nutqi. - Nyu-York. 1993-yil 28-sentabr.

maqomiga ega. BMT Toshkentni o'zining bu hududdagi bosh idorasi (forposti) deb hisoblaydi¹.

BMT bilan hamkorlik qilish rivojlanmoqda bu hamkorlik iqtisod va moliya, ijtimoiy muhit, sog'liqni saqlash, madaniyatni tiklash, atrof muhitni muhofaza qilish, xavfsizlik kabi sohalarni qamrab oldi.

1995-yilning martida Daniya poytaxti Kopengagenda BMT tug'ii ostida insoniyatning ijtimoiy rivojiga bag'ishlangan xalqaro sammit bo'lib o'tdi. O'zbekiston respublikasi mamlakatda amal qilayotgan ijtimoiy rivojlanish muammolarini hal etishning o'z modelini tanishtirdi.

1995-yil oktabrda BMTning 50 yillik yubileyi nishonlandi. BMT Bosh Assambleyasining tantanali yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov tantana ishtirokchilari diqqatini Markaziy Osiyo muammolariga yana bir bor qaratdi. Afg'onistondagi birodarkushlik urushiga yakun yasash uchun Islom Karimov BMT Xavfsizlik Kengashini mamlakatga qurol olib kirishni nazorat qilishga chaqirdi va BMT Bosh kotibining vakolatlarini shu va shu kabi sayyoraviy muammolarni hal etish maqsadida kengaytirish zarurligini qayd etdi.

BMTning tinchlik o'rnatuvchi kuchlari hududiy nizolarni tinch yo'l bilan tartibga solishda, hududlardagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etmoqdalar. Shu munosabat bilan O'zbekiston, tashqi siyosat tamoyillaridan kelib chiqib, BMTning zahiradagi bitimlari tizimiga qo'shilishga qaror qildi.

1996-yil 15-dekabrda Qozog'istonning Jambul shahrida Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi rahbarlarining navbatdagi oliy darajali uchrashuvi bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvda uch respublika prezidentlari hamkorlikda BMTning Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash bo'yicha zahiradagi kuchlari sifatida tinchlik o'rnatuvchi batalon tuzish to'g'risidagi bitimni imzoladilar. BMT Bosh kotibi Butros Butros G'oli prezidentlar tashabbusini qo'llab-quvvatladi¹.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

¹ Халид Маллик. Я тот человек который носит несколько шляп... // Бизнес Вестник Востока. – Т., 1996. – 21-27 окт.

¹ Саъдуллаев Д.С., Кузьмина Е.М. и др. Республика Узбекистан в международных организациях (Историко-справочные материалы). – Т., 1996. – С. 15.

1. *BMT tashkil topishining tarixiy sabablari nimada?*
2. *BMT shakllanishining asosiy bosqichlarinu ta'riflang?*
3. *BMTninz hozirgi zamon arxitekturasi qanday?*
4. *BMT oldida turgan asosiy muammolar. BMT strukturasi isloh qilish muammolari va unda O'zbekiston Respublikasining ishtiroki haqida so'zlab bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. Асосий омиллар. – Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2001.
2. Бобров Р.Л., Малинин С.А. Организация Объединенных Наций: международно-правовой очерк. 3-изд. – Л., 1979.
3. Богданов О.В. Правовые вопросы пребывания ООН в США (привилегии и иммунитеты ООН). – Издательство Института международных отношений, 1962.
4. Богданов О.В. Штаб-квартира ООН в Нью-Йорке. – М.: Междунар. отношения, 1976.
5. Герчикова И.Н. Международные экономические организации: регулирование мирохозяйственных связей и предпринимательской деятельности. – М., 2000.
6. Кожевников Ф.И. Международный Суд ООН. – М., 1971.
6. Кофи А. Аннан. Партнерство во имя всемирного сообщества. Годовой доклад о работе Организации 1998 год. Нью-Йорк. 1999.
7. Кривчикова Э.С. Главные органы ООН. – М., 1989.
8. Крылов С.Б. История создания Организации Объединенных Наций. – М., 1973.
10. Крылов Н.Б. Принципы участия государств в системе ООН. – М., 1986.
11. Международные организации системы ООН: Справочник / Сост. Титаренко А.А. – М., 1990.
12. Митрофанов М.В. Служащие международных организаций. Персонал организаций системы ООН. – М.: Междунар. отношения, 1981.
13. Морозов Г.И. Организация Объединенных Наций: Основные международно-правовые аспекты структуры и деятельности. – М.: Изд-во. ИМО, 1962.
14. Мўминов А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари: Ўқув қўлланмаси. – Т.: ЖИДУ, 2003.

15. ООН и поддержание международного мира / Отв. ред. Р.М. Тимурбаев. – М., 1973.
16. Организация Объединенных Наций. Основные факты. Справочник. Пер. с англ. – М.: Изд-во «Весь Мир», 2000.
17. Пчелинцев Е.С. Возможность и роль ООН в обеспечении международного мира. – М., 1983.
18. “Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истикболлари” мавзусидаги конференция материаллари, 2007 й. 16 март. – Т.: ТДЮИ, 2007.
19. Федоров В.Н. ООН и проблемы войны и мира. – М.: Междунар. отношения, 1988.
20. Хакимов Р.Т. Узбекистан и Организация Объединенных Наций. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
21. Хакимов Р.Т. Узбекистан и Организация Объединенных Наций. – 3-е изд., доп. – Т.: Zar Qalam, 2006.
22. Чекурова М.В. Международные экономические организации. – М., 1987.
23. Шкунаев В.Г. Организация Объединенных Наций в современном мире. – М., 1986.
24. Goodrich L.M., Hambro E., Simons A. Charter of the United Nations. Commentary and documents. – New York, 1969.
25. Multilateral Diplomacy and the United Nations Today / Ed. by J.P. Muldoon, J.P. Aviel, R. Reitano, E. Sullivan. – Colorado: Boulder, 1999.
26. The Adaptation of Structures and Methods the United Nations. – Boston, 1986.

14-bob. XALQARO KONFERENSIYALAR HUQUQI

1. *Xalqaro konferensiya tushunchasi va tasnifi.*
2. *Xalqaro konferensiyalarni tayyorlash va chaqirish tartibi.*
3. *Xalqaro konferensiyalarning protsedura qoidalari.*
4. *Davlat delegatsiyalari va konferensiya organlari.*
5. *Xalqaro konferensiyalar aktlarining turlari va ularning yuridik kuchi.*

1. Xalqaro konferensiya tushunchasi va tasnifi

Hozirgi kunda *hukumatlararo konferensiya* – bu qatnashchi suveren davlatlar o'rtasida o'zaro maqsadlarni amalga oshirish uchun tuzilgan muvaqqat jamoa organidir. Har qanday hukumatlararo konferensiyaning maqsadi va faoliyati xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplariga mos kelishi lozim.

Ishtirokchi subyektlarga qarab xalqaro konferensiyalar hukumatlararo va nohukumat konferensiyalariga bo'linadi. Hukumatlararo konferensiyalar ko'ptomonlama diplomatiya shakli va xalqaro muzokaralar olib borishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro konferensiyalarning nomlanishidagi farqlar (s'yezd, kongress, konferensiya, majlis) yuridik ahamiyatga ega emas.

1648-yilgi Vestfal kongressini birinchi xalqaro konferensiya deb e'tirof etish mumkin.

Hukumatlararo konferensiya ishida dunyoning istalgan davlati qatnashish huquqiga ega bo'lsa, u universal konferensiya bo'ladi. Agar unda muayyan mintaqa davlatlar ishtirok etsa, bu konferensiya mintaqaviy hisoblanadi.

Ko'pchilik, ayniqsa, BMT chaqiradigan konferensiyalarga kuzatuvchi sifatida manfaatdor hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar hamda konferensiyada ishtirok etmayotgan davlatlar vakillari qatnashishadi. Bundan tashqari, ayrim hukumatlararo konferensiyalarga kuzatuvchi sifatida milliy ozodlik harakatlari vakillari ham taklif etiladi.

Konferensiya masalalarning ahamiyati yoki ularning muhokama qilinish va tartibga solinishga tayyorligi darajasiga qarab, hukumat-

lararo konferensiya delegatsiyalari davlat va hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari yoki boshqa rasmiy shaxslar tomonidan boshqariladi. Muhimi – delegatsiya boshlig'i har qanday sharoitda ham davlat yoki hukumat nomidan ish yuritish vakolatiga ega bo'lishi lozim.

Hukumatlararo konferensiyalar xalqaro tashkilotlar yoki tashabbuskor davlatlar tomonidan chaqiriladi. Konferensiyani xalqaro tashkilotlar doirasida yoki ularning bayrori ostida chaqirish uning mustaqil xalqaro organ (ad hoc) degan nomini o'zgartirmaydi. Ba'zi konferensiyalar davriy bo'lib, uzoq yillarga cho'ziladi (masalan, BMTning dengiz huquqi bo'yicha 1973-1982-yillarda o'tkazilgan konferensiyalari).

Chaqirilish maqsadiga ko'ra hukumatlararo konferensiyalar tinchlik, siyosiy, iqtisodiy, diplomatik va maxsus turlarga bo'linadi. Konferensiyalar xalqaro shartnomalar, shu jumladan, hukumatlararo tashkilotlar nizomlarini tayyorlash va qabul qilish, muayyan xalqaro muammolarni muhokama qilish, fikr va ma'lumotlar almashish hamda deklaratsiya, harakat dasturi va rejasi shakllaridagi tavsiyalarni ishlab chiqish uchun chaqiriladi.

2. Xalqaro konferensiyalarni tayyorlash va chaqirish tartibi

Konferensiya chaqirish tashabbusi bilan bir yoki bir necha davlat yoxud xalqaro tashkilot chiqishi mumkin. Tashabbus boshqa subyektlardan ham chiqishi mumkin, xususan, milliy yoki xalqaro nodavlat tashkilotlarining faoliyati konferensiya chaqirilishga sabab bo'la oladi. Va nihoyat, bir konferensiya boshqa konferensiyani chaqirish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Konferensiyaga tayyorgarlik uning chaqirilish maqsadini belgilash va bundan kelib chiqqan holda kun tartibini belgilashdan boshlanadi. Ko'pincha davlatlar konferensiyaning kun tartibini oldindan kelishib oladilar. Ishtirokchi vakillar darajasi, o'tkazilish vaqti va joyi, ish yuritish qoidalari ham oldindan kelishib olinadi. Davlatlarning konferensiya chaqirish haqidagi kelishuvi diplomatik yo'llar yoki maxsus maslahatlar doirasida amalga oshadi.

Davlatlar konferensiya ishtirokchilarining ko'lami va undagi vakillarning darajasini konferensiyaning maqsadi va xarakteridan kelib chiqib belgilaydilar. Bunda barcha manfaatdor davlatlarning kon-

ferensiyada qatnashishiga qat'iy rioya qilinishi kerak.

Bevosita manfaatdor davlatning konferensiyaning boshlangich ishida qatnashmaganligi uning keyingi bosqich ishida qatnashishini rad etish uchun asos bo'la olmaydi.

Qatnashchilar ko'lami masalasi konferensiyaga kuzatuvchilarni kiritish muammosi bilan uzviy bog'liq. Kuzatuvchilar instituti 90-yillarda keng rivojlandi. U konferensiya qarorlariga aloqador bo'lishni xohlamagan, lekin muhokama qilinuvchi muammolar va konferensiya voqealari bilan qiziquvchi davlatlarga qulay imkoniyat yaratib beradi.

Kuzatuvchi maqomi tegishli davlatni konferensiyaning rasmiy ishtirokchisiga aylantira olmaydi. Kuzatuvchilar yig'ilishlarda konferensiya ishtirokchilarining roziligi bilan so'zga chiqish huquqiga egadirlar.

Hukumatlararo tashkilotlar doirasida yoki ular bayrog'i ostida chaqiriladigan konferensiyalarni o'tkazish vaqti va joyi o'sha tashkilotlarning tegishli rezolutsiyalarida qayd etiladi. Konferensiya hukumatlararo tashkilot tomonidan chaqirilganda, u shu tashkilotning qarorgohi yoki biror a'zo- davlatning taklifi bilan uning hududida o'tkaziladi.

Konferensiyani o'tkazish tartibi va bo'lg'usi protsedura qoidalari haqida, odatda, tayyorgarlik uchrashuvlarida kelishib olinadi.

Joylar va yordamchi xizmatlar bilan ta'minlashni o'z ichiga oluvchi umumiy tayyorgarlik ham katta ahamiyatga ega.

Har bir davlat konferensiyada qatnashishga tayyorgarlik yuzasidan katta va ko'p tomonlama diplomatik ish olib boradi. U tashqi aloqa organlari orqali ikki va ko'p tomonlama maslahat, yozishma va boshqalar vositasida amalga oshiriladi.

Konferensiya vakillari darajasi muhokamaga qo'yilgan muammolarning xarakteri va ahamiyati bilan belgilanadi. U konferensiya davomida o'zgarishi mumkin.

3. Xalqaro konferensiyalarning protsedura qoidalari

Protsedura qoidalari konferensiyada qatnashgan delegatsiyalar nomidan qabul qilinadi va xalqaro tashkilot va konferensiyalarning ichki huquqiga oid yuridik hujjat hisoblanadi. Konferensiya o'z

protsedura qoidalarini tasdiqlab olmaguncha uni o'tkazish amalda mumkin emas.

Xalqaro konferensiyalar protsedura qoidalarining tabiatini tushunish uchun ularni qabul qilish va qo'llash tartibi bilan bog'liq masalalarni bilib olish lozim.

Konferensiya BMT tomonidan chaqirilsa, protsedura qoidalari loyahasini BMT Kotibiyati ishlab chiqadi. Xalqaro konferensiya protsedura qoidalari normalarini uch mustaqil guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga BMT Bosh Assambleyasi protsedura qoidalaridan verbatim ko'chirilgan normalar kiradi. Ikkinchi guruhga BMT Bosh Assambleyasi protsedura qoidalarining alohida holatlariga asoslangan normalar va uchinchisiga BMT Kotibiyati yoki konferensiyaning o'zi ishlab chiqqan va BMT Bosh Assambleyasi protsedura qoidalariga aloqador holatlari bo'lmagan normalar kiradi.

Protsedura qoidalari konferensiya tomonidan to'la tasdiqlangach u majburiy kuchga ega bo'ladi va konferensiya qatnashchilari rioya qilishlari shart bo'ladi.

Konferensiyalar o'tkazishning yagona qoidalari ishlab chiqilmagan, lekin tajriba shuni ko'rsatadiki bu sohada shartli ravishda odat normalari mavjudligi to'g'risida gapirish mumkin.

Protsedura qoidalari konferensiya ishining quyidagi tomonlarini tartibga soladi:

- ish tartibini tasdiqlash;
- konferensiyaning rahbariy organlarini saylash tartibi;
- yordamchi organlarni, qo'mita va ishchi guruhlarni tashkil etish hamda ularning rais va mas'ullarini saylash tartibi;
- konferensiya kotibiyatining tuzilishi va majburiyatlari; ish boshlash uchun zarur kворumni belgilash; rais vakolatlari;
- so'zga chiquvchilar navbati;
- protseduraga oid takliflarni ovozga qo'yish tartibi;
- taklif va tuzatishlarni kiritish va ularni bekor qilish tartibi;
- ovoz berish tartibi;
- kuzatuvchilar uchun ishtirok etish shartlari; protsedura qoidalarini o'zgartirish tartibi.

Ovozga qo'yish masalasiga doir chiqishlar ovoz berishdan oldin ham, keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Ovoz berish protsedurasi, istisnosiz, shu protsedurani o'tkazish tartibiga oid arzlarnigina eshitish uchun to'xtatilishi mumkin.

Ovoz berishda delegatsiya o'z davlatining nomi yozilgan taxtachani ko'taradi yoki elektron apparat tugmasini bosadi. Har qanday delegatsiya taklifiga ko'ra ovoz berish nomma-nom bo'lishi va protokollarda har bir delegatsiyaning ovoz berish xarakteri alohida aks ettirilishi mumkin.

Ba'zi protsedura qoidalariga ko'ra, mohiyat yuzasidan qaror qabul qilish uchun kvalifikatsiyalashgan ko'pchilik ovoz talab qilinishi mumkin (odatda ovoz berishda qatnashayotganlarning uchdan ikki qismi ovozi bilan), biroq protseduraga oid qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Shu sababdan qabul qilinishi kerak bo'lgan qaror mohiyatiga oid muammoning yechimi bo'ladimi yoki protseduraga oidmi, shu masala yuzasidan tez-tez bahslashuvlar yuzaga keladi. Amalda ko'proq *konsensus qoidasidan* foydalaniladi.

Ovozga qo'yiluvchi hujjatga tuzatish kiritish muayyan tartibda olib boriladi. Avval tuzatish, so'ng taklif ovozga qo'yiladi. Tuzatishlar bir nechta bo'lganda ovoz berish taklifi mazmunidan ancha uzoq bo'lgan tuzatishlardan boshlanadi. Tuzatish deganda birinchi havola etilgan taklifga biror qo'shimcha kirituvchi, uning biror qismini tushirib qoldiruvchi yoki o'zgartiruvchi taklif tushuniladi. Agar tuzatish taklifni mohiyatan o'zgartirib yuborsa, u tan olinmaydi, biroq qarshi taklif sifatida ovozga qo'yilishi mumkin.

Istalgan delegatsiya iltimosiga ko'ra taklif yoki tuzatishni qismlarga bo'lib ovozga qo'yish mumkin. Agar ovoz berish bilan hujjatning bir necha qismlari qabul qilinsa, u albatta yana bir bor umumiy ovozga qo'yiladi.

Protsedura qoidalaridan ko'pincha delegatsiyalar hujjatni ko'pchilik ovoz bilan qabul qilish yoki qaytarish uchun taktik kurash olib borishda foydalanadilar.

Konferensiyalar ishlarini olib borishda qo'llanadigan tillar chiqishlar qilinadigan va barcha rasmiy hujjatlar chop etiladigan rasmiy hamda bayonnomalarni tuzishda qo'llanadigan ishchi tillarga bo'lindi. Odatda ishchi tillar rasmiy tillarning bir nechtasidangina iborat bo'ladiki, bu hujjatlarni nashr etish sarf-harajatlarini kamaytiradi.

Ko'pchilik xalqaro hukumatlararo konferensiyalar xalqaro shartnomalar tuzish maqsadida o'tkaziladi va shu sababdan ularni diplomatik deb yuritish keng e'tirof etilgan.

Ko'plab konferensiyalar nomi va maqsadi, ishtirokchilari, o'tkazilish vaqti va joyi ko'rsatilgan va konferensiya natijalari va yutuqlari haqida ma'lumotlar berilgan yakunlovchi aktlarni ham qabul qiladilar. Masalan, EXHKning 1975-yilgi Yakunlovchi akti.

4. Davlat delegatsiyalari va konferensiya organlari

Delegatsiyaning tuzilishiga ko'ra tarkibi konferensiya protsedura qoidalariga ko'ra belgilanadi. Har bir davlat delegatsiyasi odatda akkreditatsiya qilingan vakillar, ularning tegishli o'rinbosarlari, maslahatchilar, ekspertlar va texnik xodimlardan iborat bo'ladi. Hukumatlararo tashkilotlar tomonidan yoki ularning taklifiga ko'ra chaqiriladigan konferensiyalar delegatlariga taalluqli umumiy qoidalar Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar bilan davlat vakilligining munosabatlari to'rtinchi 1975 yilgi Vena konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Mazkur Konvensiyaning 45-moddasida shunday deyiladi: «Delegatsiya boshchilik qiluvchidan tashqari delegatlarni, diplomatik personalni, ma'muriy-texnik hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni o'z ichiga olishi mumkin».

Har bir delegatsiya odatda muayyan davlat nomidan ish yuritadi va bir ovozga ega bo'ladi. Uzoq vaqtgacha konferensiya delegatlariga berilishi kerak bo'lgan imtiyoz va daxlsizliklar ko'lami to'g'risidagi masala munozaralarga sabab bo'lgan. Hozirgi kunda konferensiyaning tabiatidan qat'iy nazar (u siyosiy bo'ladimi yoki texnikaga oid), unda qatnashuvchi delegatsiya yoki uni tashkil etuvchi delegatlar ularni yo'llagan suveren davlatlar manfaatlarini ifodalaydilar va tabiiyki, o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarga ega bo'lishlari lozim (1975-yilgi Vena konvensiyasi, 51-modda).

Konferensiyaning oliy mansabdor shaxslari delegatsiya tarkibidan saylanadi. Odatda rais, rais o'rinbosarlari, bosh ma'ruzachi; qo'mita raisi, rais o'rinbosarlari va har bir qo'mita ma'ruzachisi; tahririyat qo'mitasi raisi va konferensiya ishini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa mansabdor shaxslar. Bu mansabdor shaxslarning barchasi vakillikni ta'minlaydigan darajada saylanadi.

Konferensiya raisi oliy mansabdor shaxslar ichida markaziy o'ringni egallaydi. Shuning uchun delegatsiyalar uning nomzodiga katta ahamiyat beradilar. Rais etib konferensiya bo'layotgan davlat yoki tashabbuschi davlat vakilini saylash odati bor. Shu bilan birga rotatsiya prinsipi ham qo'llanadi, bunda raislik vazifasini barcha qatnashuvchi davlat delegatsiyalari vakillari navbat bilan bajaradi.

Raisning majburiyatlariga konferensiya rayosati yig'ilishlarida raislik qilish, ularni ochish va yopish, so'zga chiqish, so'z berish, masalalarni ovozga qo'yish va qarorlarni e'lon qilish kiradi. Rais konferensiyada notiq-larga beriladigan vaqtni qisqartirish, har qanday masala bo'yicha vakillarning so'zga chiqishlari sonini kamaytirish, notiq-larni ro'yxatga olishni to'xtatish, so'zga chiqishni to'xtatish yoki tugatish va majlisni to'xtatish yoki yopishni taklif etishi mumkin.

Bosh ma'ruzachi konferensiyaga nisbatan ham, bosh qo'mitaga nisbatan ham bir xil mavqega ega bo'ladi. Bosh ma'ruzachining vazifalari odatda xalqaro konferensiyalar protsedura qoidalarida ko'rsatilmaydi. Kodifikatsion konferensiyalarda bosh ma'ruzachi vazifasini BMT xalqaro huquq Komissiyasining maxsus ma'ruzachisi bajaradi.

Qo'mita, kichik qo'mita va komissiyalarning oliy mansabdor shaxslariga kelsak, ko'pchilik xalqaro konferensiyalarning protsedura qoidalarida ular maqomiga doir normalar belgilab qo'yilgan. Ularni tahlil qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, konferensiyaning oliy mansabdor shaxslariga tegishli normalar qo'mita, kichik qo'mita va ishchi guruhlarining mansabdor shaxslariga nisbatan qo'llanadi. Bundan tashqari, bosh qo'mita, tahririyat qo'mitasi, vakolatlarni tekshirish qo'mitasi, kichik qo'mitalar va ishchi guruh raislari, konferensiya raisidan farqli o'laroq, ovoz berishda qatnashishlari mumkin. Tarkibidan konferensiya raisi saylab olingan delegatsiya ham ovoz berishda ishtirok eta oladi.

Deyarli barcha zamonaviy hukumatlararo konferensiyalarda *bosh qo'mita* tuziladi. Odatda uning tarkibi konferensiya raisi, rais o'rinbosarlari, bosh ma'ruzachi va bosh qo'mitalarning mansabdor shaxslari (raislar, ba'zan ularning o'rinbosarlari va ma'ruzachilari)dan iborat bo'ladi. Tahririyat qo'mitasi raisi ham bosh qo'mita ishida ishtirok etishi mumkin. Bosh qo'mitaning vazifasi raisga konferensiya ishiga umumiy rahbarlik qilishda yordam ko'rsatishdir. Bosh qo'mita konferensiya ishining samaradorligini oshirish uchun tashkil etiladi.

Kotibiyat odatda Bosh kotib (Ijrochi kotib) va konferensiyaga xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan iborat bo'ladi. Davlatlar tomonidan chaqiriladigan konferensiyalarda Bosh kotib vazifasini odatda qabul qiluvchi va konferensiya ishtirokchisi bo'lgan davlatning biror mansabdor shaxsi bajaradi. Bu kabi konferensiyalarda kotibiyat xodimlari ko'pincha qabul qiluvchi davlat havola etgan shaxslardan, ba'zan esa ishtirokchi-davlatlar delegatsiyalarining ma'muriy-texnik xodimlari tarkibidan tuziladi. Hukumatlararo tashkilotlar va ular bayrog'i ostida o'tkaziladigan konferensiyalarda kotibiyat vazifalarini o'sha hukumatlararo tashkilotning kotibiyati o'z Bosh kotibi yoki Raisi rahbarligida amalga oshiradi.

Bosh kotib (yoki uning vakili – Ijrochi kotib) konferensiyaning oliy ma'muriy mansabdor shaxsi hisoblanadi. U maqomiga ko'ra ma'muriy-ijroiya ishlarini bajaradi. Uning asosiy vazifasi kotibiyat xodimlarining konferensiya ishiga xizmat ko'rsatishlariga rahbarlik qilishdir. Bosh kotib yoki kotibiyat xodimlaridan biri ko'rilayotgan har qanday masala bo'yicha og'zaki yoki yozma bayonot berishi, Rais yoki delegatsiyalarning iltimosiga ko'ra ma'lumotlar berishi mumkin. Boshqacha aytganda, Bosh kotib yoki uning vakili konferensiyada ko'rilayotgan masalalar mohiyatiga aloqador ba'zi ishlarni ham amalga oshiradi. Biroq bu vazifalar Protsedura qoidalari bilan qat'iy cheklangan va ma'muriy-ijroiya vazifalariga nisbatan yordamchi ishlar sifatida namoyon bo'ladi. Kotibiyatning vazifalariga konferensiya yig'ilishlarining rasmiy bayonnomalarini tuzish va barcha joriy texnik ishlarni bajarish (konferensiya hujjatlarini ko'paytirish va tarqatish, yig'ilishda so'zlanadigan nutqlarni og'zaki tarjima qilish, hujjatlarni arxivda saqlash va boshq.) kiradi.

Asosiy munozaralar konferensiyaning oliy organi bo'lgan plenar yig'ilishlarda va kun tartibiga oid masalalar yuzasidan tashkil etiluvchi qo'mitalarda bo'lib o'tadi. Qo'mitalar o'z yordamchi organlarini tuzish huquqiga egadirlar. Komissiya va boshqa ishchi organlarni shakllantirish va ayniqsa, ularning vakolatlarini belgilash ko'pincha keskin siyosiy-diplomatik kurashlar ostida kechadi. Komissiya va boshqa ishchi organlarning tarkibi masalasi ham juda murakkab.

Plenar yig'ilishlar va komissiyalarda hujjatlar loyihalari, rezolutsiyalar va boshqalar muhokamaga qo'yiladi hamda ularga tuzatish va qo'shimchalar kiritiladi. Munozara protsedurada diplomatik ku-

rashning muhim vositasi sifatida qatnashchilarning umumiy xarakterdagi bayonotlaridan tashqari, u yoki bu delegatsiya uchun zarur muhozara olib borish yo'nalishini berish uchun loyihalarning alohida holatlari bo'yicha, olib borish tartibi, ma'lumot berish uchun, ovoz berish yuzasidan chiqishlari sifatida ham namoyon bo'ladi. Yakuniy hujjatlarning matnini tayyorlash uchun odatda tarkibiga konferensiyaning barcha ishchi tillarini namoyon qiluvchi ekspertlardan iborat tahririyat komissiyasi tuziladi.

Yig'ilish xarakteriga oid masala ham protsedura qoidalari bilan tartibga solinadi. Dastlabki yig'ilish yoki konferensiyaning boshida majlislarni ochiq yoki yopiq holda (konferensiya qatnashchilari biror masala yuzasidan muhokamalarning oshkora bo'lishini xohlamagan taqdirda) o'tkazish masalasi hal etiladi. Yopiq majlislarda faqat konferensiya qatnashchilari ishtirok etadi, ochiq yig'ilishlarga ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik vakillari kiritiladi. Plenar yig'ilishlar odatda ochiq, qo'mita va komissiya yig'ilishlari esa ko'pincha yopiq holda o'tkaziladi.

Hukumatlararo konferensiyalarda rasmiy yig'ilishlardan tashqari hujjatlar ustida ish olib borish yuzasidan norasmiy yig'ilishlar ham o'tkaziladi. Ular ba'zan to'liq tarkibda, ba'zan faqatgina manfaatdor tomonlarning ishtirokida o'tkaziladi.

4. Xalqaro konferensiyalar aktlarining turlari va ularning yuridik kuchi

Konferensiya o'z ishini tugatishi uchun u yoki bu shartnomani tuzish orqali maqsadga erishishi zarur yoki ishtirokchi davlatlar fikrlarining o'zaro mos kela olmaganligi uchun bitim tuzish mumkin emas, degan xulosaga kelishlari kerak. Ko'pincha moliyaviy maqsadlarda konferensiya muddati kunlar bilan qat'iy chegaralab qo'yiladi. Konferensiyaning tugaganligi barcha qatnashchilar imzolagan yakunlovchi akt yoki bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Shuningdek, deklaratsiya va bayonot shakllari ham bor. Matbuotda e'lon qilish uchun kommyunike qabul qilinishi mumkin.

Konferensiya natijalari bo'yicha ikki xil akt (hujjat) qabul qilinadi: joriy ishlarni aks ettiruvchi va uning ishiga yakun yasaydigan materiallardan iborat hujjatlar. Birinchi xiliga yig'ilish bayonnomalari, ikkinchisiga xalqaro-huquqiy tabiatga ega bo'lgan hujjatlar (shartno-

malar, konvensiyalar va boshq.) kiradi. Shu bilan birga, Protседuraga aloqador aktlarni mohiyat yuzasidan qabul qilinadigan hujjatlardan farqlash lozim.

Muvaffaqiyatli yakunlangan hukumatlararo konferensiya ishi-ning natijalari turli-tuman nomdagi har xil huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan aktlarda o'z ifodasini topadi. Bu nomlanishlarning yagona tasnifi yo'q. Nomlanishni tanlanishi ko'pincha siyosat bilan bog'liq yoki tasodifiy bo'lib, yuridik mazmunga ega emas.

Xalqaro huquqda hukumatlararo konferensiya hujjatlarining maj-buriy shaklini (yoki uning zarur unsuri nomlanishini) nazarda tutuvchi normalar mavjud emas. *Ayrim* nomlanishlar amalda uzoq ishlatilishi tufayli hukumatlararo konferensiyalarda qabul qilinadigan hujjat tur-larini belgilash uchun qo'llanadigan bo'lib qolgan. Yakunlovchi akt deb, ko'pincha, konferensiyaning tavsiflovchi asosiy faktlarni aks etti-ruvchi hujjatlar ataladi. Xalqaro huquq normalarini yaratishga mo'ljal-langan konferensiya hujjatlari odatda konvensiya deb, davlatlar yoki hukumatlararo tashkilotlarga tavsiyalardan iboratlar esa rezolutsiya va deklaratsiya deb yuritiladi.

Diplomatik konferensiyalar huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, gumani-tar va boshqa sohalarida xalqaro hamkorlik qilish masalalari bo'yicha ko'p tomonlama konvensiyalar va shartnomalarni qabul qilish uchun chaqiriladi.

Zamonaviy xalqaro konferensiyalar o'z faoliyatlari natijasida davlatlar (odatda ular konferensiya ishtirokchisi bo'lishi yoki bo'l-masligidan qat'iy nazar) va xalqaro tashkilotlarga qaratilgan chaqiriq, iltimos, taklif va tavsiyalardan iborat turli rezolutsiyalarni qabul qiladilar. Bunga BMT boshchiligida chaqiriluvchi konferensiyalar tomonidan qabul qilinadigan rezolutsiyalar yorqin misol bo'la oladi. Xususan, 1975-yilda Venada bo'lib o'tgan BMT konferensiyasi davlat vakillarining xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari masalasi bo'yi-cha qator rezolutsiyalar qabul qildi. Ulardan eng muhimlari ABT/AI (Afrika Birligi Tashkiloti/Afrika Ittifoqi) va ADL (Arab Davlatlari Ligasi) tomonidan tan olinuvchi milliy ozodlik harakatlarining kuza-tuvchisi maqomiga oid va xalqaro tashkilotlarning kelgusi faoliyati bo'yicha konferensiyada qabul qilingan konvensiyani qo'llashga aloqador rezolutsiyalardir. Xalqaro konferensiyalar tomonidan qabul qilinadigan rezolutsiyalar kimga yo'llanishidan qat'iy nazar tavsiya mazmunida bo'ladi. U yoki bu konferensiyada qatnashuvchi davlatlar

rezolutsiyalarga bo'lgan munosabatlarini yakka tartibda belgilaydilar. Bu rezolutsiyalarda ko'zlangan tadbirlar ham tavsiyaviy mazmunda bo'lib, tomonlarga yuridik majburiyat yuklamaydi.

Tavsiya mazmunidagi rezolutsiyalar bevosita yakunlovchi aktga kiritilishi yoki matn so'ngida ilova tarzida berilishi mumkin (bunday holda yakuniy akt matnining o'zida ularning nomlari sanab o'tilgan bo'ladi).

Ko'pchilik xalqaro konferensiyalar o'z ishini tavsiflovchi asosiy faktlarni bayon qiluvchi yakunlovchi aktni qabul qilish bilan yakunlanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro konferensiya tushunchasini bering, uning xalqaro tashkilotlardan asosiy farqlari nimada?*
2. *Xalqaro konferensiyalarning asosiy turlarini ta'riflab bering.*
3. *Xalqaro konferensiyalar xalqaro-huquqiy subyektlikka egami?*
4. *O'zbekiston Respublikasining xalqaro konferensiyalardagi ishtiroki haqida so'zlab bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аппавский Б.М. Межправительственные конференции: международно-правовые вопросы – М., 1980.
2. *Международная правосубъектность (некоторые вопросы теории) / Отв. ред. Фельдман Д.И. – М., 1972.*
3. Курс международного права в 7-ми томах. Т. 4. – М.: Международ. отношения, 1992.
4. Морские конференции: история, право и дипломатия. – М., 1989.

15-bob. XALQARO HUQUQDA JAVOBGARLIK

1. *Xalqaro-huquqiy javobgarlik tushunchasi.*
2. *Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi asoslari.*
3. *Davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi turlari va shakllari.*
4. *Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi.*
5. *Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyat javobgarligi.*

1. Xalqaro-huquqiy javobgarlik tushunchasi

*Xalqaro-huquqiy javobgarlik – bu xalqaro huquq normalarini va o‘z xalqaro majburiyatlarini buzgan xalqaro huquq subyekti uchun kelib chiqadigan yuridik oqibatdir. Ayni paytda, bu mazkur normalar va keltirilgan zararni qoplashni ta‘minlashning yuridik vositalaridan biridir*¹.

Xalqaro huquqning shartnomaviy yoki odat normalarini buzishning yuridik oqibatlari huquqbuzar davlatga, zarar ko‘rgan davlat yoki davlatlar guruhiga hamda boshqa davlat va xalqaro tashkilotlarga ta‘sir qilishi mumkin. Bu oqibatlar hamda javobgarlik shakllari har xil bo‘lishi mumkin. Ular huquqbuzarlikning tabiati va xavflilik darajasiga bog‘liq bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

a) agressiya, genotsid, irqiy kamsitish, mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berishdan bosh tortish, urush qonunlari va odatlarini buzganlik uchun javobgarlik;

b) huquqbuzar davlatning xalqaro huquqning boshqa subyektlariga, alohida holatlarda ularning yuridik va jismoniy shaxslariga yetkazgan zararini qoplash javobgarligi;

v) xalqaro huquqqa asosan huquqbuzar davlatga nisbatan uning huquqbuzarligiga javoban BMT qo‘shinlarini ishga solishgacha bo‘lgan majburlov choralarini qo‘llash (masalan, BMT Ustavining 42-moddasi bo‘yicha) va boshq.

¹ Batafsil ma‘lumot olish uchun qarang: Колосов Ю.М. Ответственность в международном праве. – М., 1975; Ушаков Н.А. Основания международной ответственности государств. – М., 1970.

Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi instituti ancha vaqtdan beri ma'lum. Shu bilan birga klassik xalqaro huquq fanida, davlatning o'ziga yetkazilgan zararni qoplash normalarining mavjudligiga qaramasdan, javobgarlik faqat shaxsga va chet elliklarning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bilan chegaralib qolgan edi (masalan, Xalqaro to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan hal etish to'rtinchi 1907-yilgi Gaaga konvensiyasi). Biroq XX asrgacha mavjud bo'lgan xalqaro huquqda agressiya tushunchasi bo'lmay, «urush uchun javobgarlik»ni bilmas va urushning yuridik oqibatlarini uning paydo bo'lish sabablari bilan bog'lay olmas edi.

Mustamlakachilikning yo'qotilishi va ko'plab rivojlanayotgan davlatlarning paydo bo'lishi xalqaro-huquqiy javobgarlik institutida sifat o'zgarishlarga olib keldi. Ahamiyatiga ko'ra agressiya, genotsid, aparteid, irqiy kamsitish uchun, mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berishdan bosh tortish va kolonial tartibni majburan joriy qilish uchun javobgarlik birinchi o'ringa chiqarildi. Urush qonunlari va odatlarini buzganlik uchun javobgarlik sezilarli darajada qat'iy tus oldi. «Urush ochish huquqi» va «g'olib huquqi» kabilar tarixda qoldi, huquqbuzar davlatlarga nisbatan qo'llanadigan majburlov choralarining tabiati o'zgardi, yangi xalqaro-huquqiy javobgarlik subyektlari – hukumatlararo tashkilotlar paydo bo'ldi¹.

Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi masalalari BMT Ustavida, genotsid, irqiy kam sitishni taqiqlovchi Konvensiyalarda, Urush qurbonlarini himoyalash to'g'risidagi 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va ularning 1977-yilgi protokollarida, BMTning dengiz huquqi to'g'risidagi 1982-yilgi Konvensiya va boshqa hujjatlarda mustahkamlandi.

Tinchlik va insoniyatga qarshi, harbiy hamda boshqa xalqaro jinoyatlar uchun jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligi xalqaro miqyosda e'tirof etildi va yuridik jihatdan mustahkamlandi.

Javobgarlik alohida shaxslarning xatti-harakatlari davlatning jinoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan taqdirda kuchga kiradi. Bunday javobgarlik 1945- va 1946-yillardagi Nyurnberg va Tokio Xalqaro harbiy tribunal qarorlarida va xalqaro xarakterdagi jinoiy harakatlarga taaluqli xalqaro konvensiyalarda o'z aksini topdi.

¹ Тункин Г.И. Теория международного права. – М.: Междунар. отношения, 1970. – С. 430-432.

2. Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi asoslari

Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi paydo bo'lishiga u tomonidan xalqaro huquqbuzarlik sodir etilishi asos bo'ladi.

Xalqaro huquqbuzarlik – bu xalqaro huquq subyektlarining xalqaro huquq normalari va o'zining xalqaro majburiyatlarini buzuvchi va xalqaro huquqning boshqa subyekti yoki subyektlari guruhiga yoxud butun xalqaro hamjamiyatga moddiy va nomoddiy zarar yetkazuvchi harakati yoki harakatsizligidir (masalan, agressiya akti, suverenitetni noqonuniy cheklash, hududiy yaxlitlik va siyosiy mustaqillikka tajovuz qilish, shartnomalardagi majburiyatlarni buzish va boshq.). Bunda majburiyatlar qachonki xalqaro huquq subyektlarining huquqqa zid harakati va yetkazilgan zarar o'rtasida sababli bog'lanish mavjud bo'lganda kuchga kiradi.

Shunday qilib, xalqaro huquqbuzarlikning xalqaro-huquqiy javobgarlikka olib keluvchi tarkibiy unsurlari quyidagilardan iborat: subyektlarning xalqaro huquq normalarini buzuvchi harakati yoki harakatsizligi; huquqbuzarlikni subyekt bo'yniga qo'yilganligi; xalqaro huquqning boshqa subyekti yoki subyektlar guruhiga zarar yetkazilganligi.

Davlatlar xalqaro huquq normalarining buzilishiga va zarar etishiga olib kelgan o'z harakatlarini oqlash uchun hech qanday milliy qonun va qoidalarga murojaat eta olmaydilar. Shuningdek xalqaro huquq normalarini bilmaslik yoki ularni tushunmay noto'g'ri qo'llaganlik vaj bo'la olmaydi. Deyarli barcha xalqaro huquqbuzarliklar ongli ravishda, biror maqsad yo'lida, aybli ravishda sodir etiladi.

Xalqaro huquq subyekti xalqaro-huquqiy javobgarligining paydo bo'lishiga olib keluvchi huquqqa zid harakat yoki harakatsizlik davlat organlari (davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimidagi o'rnidan qat'iy nazar), davlatning topshirig'i bilan yoki uning nomidan ish ko'ruvchi hokimiyat vakolatlari berilgan mansabdor shaxslar va davlat nomidan ish ko'ruvchi maxsus davlat organlari tomonidan sodir etilishi mumkin. Davlat javobgarligi o'zi ishtirok etgan xalqaro shartnoma normalariga zid keluvchi biror qonun yoki boshqa normativ hujjatni qabul qilishi yoki aksincha, o'z xalqaro majburiyatlariga ko'ra

qabul qilishi shart bo'lgan va sodir bo'lgan xalqaro huquqqa zid harakat yoki hodisaning oldini olishi mumkin bo'lgan qonunni qabul qilmasligi bilan kuchga kiradi.

Davlat javobgarligi hokimiyat organlarining o'z vaqtidagi aralashuvi bilan xalqaro huquqqa zid harakatning oldini olib qolish mumkin bo'lgan holatlardagi harakatsizligi oqibatida ham kelib chiqadi.

Davlat javobgarligi xorijiy davlat yoki uning organlari tomonidan boshqa bir davlat hududida yoki uning hududi orqali sodir etilgan xalqaro huquqqa zid harakatlar natijasida ham yuzaga keladi. Bunda xorijiy davlatning harakatlari o'sha davlatning ko'z o'ngida va roziligi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davlat ham xorijiy davlatning xalqaro huquqqa zid harakatlari ishtirokchisiga aylanadi. Lekin bunday harakatlar o'sha davlatga bildirilmasdan va uning rozilgisiz amalga oshirilgan bo'lsa, u faqat o'z organlarining ziyraklikni yo'qotishi natijasida xorijiy davlat amalga oshirgan huquqbuzarlikning oldini ololmaganligi uchun javobgar bo'lishi mumkin. O'z hududidan xorijiy harbiy bazalar yaratish yoki qurollar o'rnatish uchun joy bergan davlatlar masalasi boshqacha hal etiladi: ularning sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha xatarli oqibatlar uchun javobgarlik birgina yuridik fakt – harbiy baza tashkil etish yoki qurol joylashtirishga ruxsat bilan kuchga kiradi.

Davlatning xalqaro-huquqiy javobgarligi o'shbu davlat organi yoki mansabdor shaxslarining o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishi natijasida xorijiy davlat yoki uning yuridik va jismoniy shaxslariga zarar yetkazilganida ham paydo bo'ladi. Masalan, davlat ochiq dengizdagi neft tankerining halokatiga aloqador bo'lsa va uning ko'rgan choralardan ortiq bo'lib qirroqning neft bilan ifloslanish xavfini oldini olish, kamaytirish yoki yo'qotish uchun zarur choralardan ortib ketgan taqdirda zararni qoplashi shart¹.

Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi 1949-yilgi Jeneva konvensiyasi va boshqa konvensiyalarning urush olib borish vositalari va usullarini tartibga soluvchi normalarining buzilishiga olib kelgan harakatlari uchun javobgarlik davlat organi, harbiy qism yoki bo'linma mansub bo'lgan davlatga yuklatiladi. Davlat amaldagi konvensiya va bitimlarda mustahkamlangan urush qonunlari va odatlarini

¹ Ст. ст. I, VI Международной конвенции относительно вмешательства в открытом море в случаях аварии, приводящих к загрязнению нефтью 1969 г.

o'zining barcha davlat organlari, harbiy qo'shilmalari va harbiylari tomonidan aniq bajarilishini ta'minlash uchun barcha qonun chiqaruvchi, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rishi shart.

Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligina faqat xalqaro huquq normalari yoki shartnomaviy majburiyatlarini buzganlik uchun, balki xalqaro huquqqa zid bo'lmagan harakati zararli oqibatlariga olib kelishi natijasida ham yuzaga keladi. Bunday holat qo'llanishi xalqaro huquq bilan taqiqlanmagan o'ta xavfli manba vositasida moddiy zarar yetkazilganda vujudga kelishi mumkin.

Xavf yuqori darajada bo'lgan manbalarga yadroviy energetik qurilmalar (YAEQ)ga ega kemalar, koinotga uchirilgan fazoviy obyektlar kiradi. YAEQga ega kemalar o'z faoliyatini ochiq dengizda kemalar qatnashi erkinligi doirasida olib boradilar, fazoviy obyektlar esa Davlatlarning koinotni, shu jumladan, Oy va boshqa osmon jismlarini tadqiq qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi 1967-yilgi Shartnomaga muvofiq uchiriladi.

Yuqori darajali xavf-xatar tug'diruvchi manbalardan foydalanish masalasida davlatlar shartnoma tartibida moddiy zararni qoplash majburiyatini uning huquqbuzarlik natijasida paydo bo'luvchi omil sifatida emas, balki o'sha zararining yetkazilganligi fakti asosida tan olishga kelishib olganlar (aybsiz javobgarlik).

Fazoviy obyektlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi 1972-yilgi Konvensiyaning 2-moddasida aytilishicha, uchiruvchi davlat «o'zining fazoviy obyekti tomonidan Yer yuzasiga yoki parvozdagi havo kemasiga yetkazgan moddiy zararni qoplash uchun mutlaq javobgardir».

3. Davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi turlari va shakllari

Davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi turlari ikkita: siyosiy va moddiy.

Siyosiy javobgarlik uchun odatda huquqbuzar davlatga nisbatan majburlov choralari qo'llanadi va moddiy javobgarlik bilan uyg'unlashib ketadi. Siyosiy javobgarlikning eng keng tarqalgan shakli sanksiyalardir.

Sanksiyalar – bu huquqbuzar davlatga nisbatan ko‘riladigan choralardir. Ular xalqaro tashkilotlar (universal va mintaqaviy), bir guruh davlatlar yoki alohida davlat tomonidan qo‘llanishi mumkin. Sanksiyalarning hajmi va turlari jinoyatning og‘irligi darajasiga bog‘liq. Masalan, agressor davlatga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo‘llash mumkin: suverenitetini vaqtincha cheklab qo‘yish; hududining bir qismini ajratib olish; urushdan keyingi okkupatsiya; (harbiy kuchlardan mahrum qilish) va qurolli kuchlar tarkibini qisqartirish yoki ularga ega bo‘lishni taqiqlash; agressor davlatning tinchlik va insoniyatga qarshi harbiy jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor jismoniy shaxslarni odil sudlovga tortish bo‘yicha yurisdiksiyasini cheklab qo‘yish va boshq.

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solganlik uchun sanksiyalar va ularni qo‘llash tartibi BMT Ustavining 39-, 41- va 42-moddalarida nazarda tutilgan.

Sanksiyalar majburlashning shakli sifatida faqatgina og‘ir xalqaro jinoyat sodir etilgan holda qo‘llaniladi. Ularni boshqa holatlarda qo‘llash to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki aslida sanksiyalar xalqaro huquqqa zid harakatlarni qasddan sodir etganlik yoki qasddan zarar yetkazganlikka qarshi javobdir. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng agressor davlatlarga nisbatan siyosiy va moddiy javobgarlikning alohida turlari qo‘llangan. Masalan, Germaniya butunlay taslim bo‘lganidan keyin, 1945-yil 5-iyun Deklaratsiyasiga muvofiq, ittifoqdosh davlatlar oliy hokimiyat vazifasini o‘z zimmalariga olib, uni qurolsizlantirdilar va vaqtinchalik qurolli kuchlarga ega bo‘lishni taqiqladilar, natsist tashkilotlarini tugatdilar va kelajakda faoliyat yuritishini taqiqladilar. Germaniyada okkupatsion tartib o‘rnatildi.

Moddiy (iqtisodiy) javobgarlik davlat tomonidan moddiy zarar yetkazishga olib keluvchi xalqaro majburiyatning buzilishi bilan vujudga keladi. U reparatsiya, restitutsiya va substitutsiya shakllarida ifodalanishi mumkin.

Reparatsiya – bu moddiy zararni pul ifodasida, tovar va xizmat ko‘rinishlarida qoplashdir. Reparatsiyalarning hajmi va turi odatda xalqaro shartnomalar asosida belgilanadi. Reparatsiya summasi odatda urush tufayli yetkazilgan zarar hajmidan ancha kam bo‘ladi. 1945-yilgi Yalta (Qrim) konferensiyasining qaroriga ko‘ra Germaniyadan olinadigan reparatsiya 20 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Restitutsiya – bu urushayotgan davlat tomonidan xalqaro huquqqa zid ravishda tortib olingan va raqib hududidan olib chiqib ketilgan mulkni o'z aslida qaytarish. Masalan, 1947-yil 10-fevraldagi Ittifoqdosh davlatlar va Italiya o'rtasidagi Sulh bitimining 75-moddasiga ko'ra, Italiya «mumkin qadar qisqa muddatda Birlashgan Millatlarning har qanday hududidan olib ketilgan mulkni» qaytarish majburiyatini o'z bo'yniga olgan.

Urush harakatlari bilan bog'liq bo'lmagan holda, tinchlik davrida xalqaro huquqqa zid ravishda olib qo'yilgan yoki ushlab turilgan mulkni qaytarish ham restitutsiya obyekti bo'lishi mumkin.

Restitutsiyaning bir ko'rinishi substitutsiyadir. U xalqaro huquqqa zid ravishda yo'q qilingan yoki zarar yetkazilgan mulk, bino, transport vositasi, san'at asarlari, xususiy mulk va shu kabilarni almash-tirish yoki o'rnini qoplashdan iborat.

Siyosiy javobgarlik turlariga xalqaro tashkilotga a'zolikidan kelib chiqadigan huquq va imtiyozlarini to'xtatib qo'yish (ovoz berish, asosiy organlarda vakilga ega bo'lish, yordam va xizmatdan foydalanish huquqlaridan mahrum qilish) va so'nggi chora sifatida – tashkilotga a'zolikdan chiqarish kabilar kiradi.

Xalqaro deliktlar (masalan, diplomatik odobni buzish, nosamimiy akt, xorijliklar tartibini buzish kabilar) uchun davlatga nisbatan retortsiya, repressaliya, satisfaksiya, restorasiya kabi siyosiy javobgarlik shakllari qo'llanishi mumkin.

Retorsiya deb bir davlat tomonidan boshqa bir davlatga nisbatan uning manfaatlariga ziyon yetkazgani uchun xalqaro huquqqa mos majburlov choralarini qo'llashga aytiladi. Retorsiya o'zga davlatning muayyan nodo'stona harakatlariga qarshi buzilgan huquqlarni tiklashga yo'naltirilgan aniq bir davlatning javobi bo'lishi ham mumkin.

Retorsiyaga nodo'stona akti sodir etgan davlatdan elchini chaqirib olish, mamlakatga kirishni taqiqlash yoki delegatlar tashrifini bekor qilish kabilar kiradi.

Repressaliya (harbiy bo'lmagan) – bu bir davlatning ikkinchi davlatga nisbatan qo'llashga haqli majburlov harakatlari. Repressaliya bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatning huquqqa zid harakatlariga qarshi buzilgan huquqlarni tiklash maqsadida qo'llanadi. U yetkazilgan zarar bilan mos kelishi va majburlov qoniqtiradigan darajada bo'lishi lozim.

Repressaliyalar iqtisodiy munosabatlar, temir yo'l, dengiz, havo, pochta, radio va boshqa aloqa turlarining to'liq yoki qisman uzilishi hamda diplomatik, savdo va boshqa aloqalarning uzilishi, tovar va xom ashyoni huquqbuzar davlat hududidan olib chiqishga embargo qo'yish shakllarida ifodalanishi mumkin.

Qoniqish hosil qilingach repressaliyalar tugatilishi kerak. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nizo va kelishmovchiliklarni hal etish uchun qurolli repressaliyalar qo'llashni man qiladi (BMT Ustavi 2-modda 3-bandi).

Satisfaksiya (qoniqish) – bu huquqbuzar davlat tomonidan jabrlanuvchi davlatga uning sha'ni va g'ururiga yetkazgan zarari uchun qoniqish hosil qildirishdir. Satisfaksiya rasmiy tarzda afsuslanish yoki ta'ziya bildirish; kechirim so'rash; kelgusida bu kabi xalqaro huquqqa zid harakatlarning sodir etilmasligiga ishontirish; tegishli tantanali vaziyatda jabrlanuvchi davlat bayrog'iga izzat-hurmat ko'rsatish yoki uning madhiyasini ijro etish va boshqa yo'llar bilan ifodalanishi mumkin.

Amaliyotda restoratsiya deb nomlanuvchi javobgarlik shakli ham uchraydi. U huquqbuzar davlat tomonidan biror-bir moddiy obyektning avvalgi holatining tiklanishini nazarda tutadi (masalan, uning aybi bilan ifloslangan suvning avvalgi sifatini tiklash kabi).

4. Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi

Xalqaro tashkilotlar javobgarligi ularning huquqiy subyektligiga asoslanadi va bevosita undan kelib chiqadi. Xalqaro tashkilotlar javobgarligi ko'lami va chegaralari ulardagi huquqiy subyektlilik qobiliyatining ko'lami va uning tabiatiga bog'liq.

Hozirgi kunda qator shartnomalarda xalqaro tashkilotlarning javobgarligi to'g'risidagi holatlar o'z ifodasini topgan. Masalan, BMT Ustavining 57-moddasi 1-bandi ixtisoslashgan muassasalarning tegishli sohalaridagi (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa) javobgarligini nazarda tutadi. Koinot to'g'risidagi 1967-yilgi Shartnomaga muvofiq, xalqaro tashkilot fazoda tegishli faoliyatni amalga oshirayotgan bo'lsa, u mazkur shartnoma qoidalarini bajarishga majburdir (VI-modda). Fazoviy obyektlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi 1972-yilgi Konvensiyaning V- va XII-moddalariga asosan, fazoviy obyektни uchiruvchi yoki uchirishni tashkil-

lashtiruvchi tashkilot o'sha obyekt tomonidan yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar bo'ladi. Uni tashkillashtirishda ishtirok etgan davlatlar ham javobgar bo'ladilar.

Xalqaro tashkilot yoki uning organi tomonidan xalqaro huquq normalari yoki tashkilotning ichki yuridik normalari yoxud davlatning ichki huquqi buzilishidan qat'iy nazar, tashkilot javobgarligi huquqbu-zarlik sodir etilishi bilan paydo bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro ommaviy va xalqaro xususiy huquq bo'yicha javobgarlik subyektiga aylanishlari mumkin. Xalqaro tashkilotga javobgarlikni yuklash uchun uning aybi bo'lishi va xalqaro-huquqiy normalarda nazarda tutilgan majburiyatni buzganlik holati bo'lishi kerak.

Xalqaro tashkilotlarga ham siyosiy, ham moddiy javobgarlikni yuklash mumkin. Masalan, siyosiy javobgarlik tashkilot biror davlatning suveren huquqlarini kamsituvchi yoki uning suverenitetini buzuvchi qaror qabul qilganda; davlat bilan tashkilot qarorgohi maqomi to'rrisidagi shartnoma yoki xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarni buzganda paydo bo'ladi.

Xalqaro tashkilotning moddiy javobgarligi biror faoliyat, masalan, fazodagi faoliyat natijasida zarar yetkazilganda, xalqaro majburiyatlar bajarilmaganda; xavfi yuqori bo'lgan manbalar (masalan, avtomobil, kema kabilar) orqali zarar keltirilganda; kontraktlar buzilganda; sanitariya normalariga rioya qilinmaganda kelib chiqishi mumkin. Lekin bunda davlatlarga nisbatan qo'llanuvchi javobgarlik shakllarini xalqaro tashkilotlarga shunchaki ko'chirib qo'yish mumkin emas¹; ular o'ziga xos xususiyatlarga ega: siyosiy va moddiy javobgarlikning muayyan shakllari rivojlanmagan; moddiy javobgarlik paydo bo'lganda xalqaro tashkilot bilan bir qatorda, o'sha tashkilotga a'zo-davlatlar ham javobgar bo'ladilar.

Xalqaro tashkilot o'z qarorgohi joylashgan davlat qonunchiligini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Ko'pchilik davlatlar hukumatlari xalqaro tashkilotlar va ularning xizmatchilari maqomi to'g'risidagi qonun hujjatlarini qabul qilganlar va ularni buzgan tashkilotlar moddiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

¹ Шармазанапвили Г.В. Международные межправительственные организации: Учебное пособие. – М., 1986. – С. 87-88.

Xalqaro tashkilot o'z ijroiya organlari va xodimlarining huquqqa zid harakatlari uchun javobgar bo'ladi. Masalan, 1965-1967-yillarda BMT Belgiya, Gretsiya, Italiya, Luksemburg va Shveysariya bilan BMTning Kongodagi harbiy kuchlari operatsiyalari natijasida ushbu davlat fuqarolari va ularning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida bitim tuzildi.

5. Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyat javobgarligi

Xalqaro jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslar (davlat fuqarolari, xalqaro tashkilotlar vakillari va boshq.) shu jinoyatlari uchun beriladigan jazoni nazarda tutuvchi amaldagi xalqaro bitimlarga muvofiq xalqaro jinoyat javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyat (agressiya, kolonializm, irqchilik, genotsid va boshq.) uchun javobgarligi shaxsning jinoyat xatti-harakatlari davlatning jinoyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan taqdirda paydo bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning jinoyat javobgarligi xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarga (qarochilik, pul belgilarini qalbakilashtirish, samolyotlarni olib qochish va boshq.) nisbatan ham joriy etiladi. Mazkur jinoyatlar uchun jismoniy shaxslar, ko'pincha jinoyat guruhlari, davlatdan mustaqil ravishda javobgar bo'ladilar. Mansabdor shaxslar yoki organlarning bunday jinoyatlardagi ishtiroki og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Xalqaro jinoyat subyekti bo'lgan jismoniy shaxslar orasida bosh jinoyatchilar alohida o'rin tutadi. Ularning qatoriga davlat va hukumat rahbarlari, vazirlik va muassasa rahbarlari, oliy harbiy qo'mondonlik kabilari kirishi mumkin. Bu kabi jinoyatchilarning ro'yxati sodir etilgan jinoyatning og'irligi yoki ko'lamini e'tiborga olgan holda belgilanadi.

Bosh jinoyatchilardan tashqari, xalqaro jinoyat javobgarlikka jinoyat buyruqlarni bergan yoki ijro etgan shaxslar va shu bilan bir qatorda o'z tashabbusi bilan jinoyatni sodir etgan shaxslar ham tortilishi mumkin¹.

Nyurnberg xalqaro harbiy tribunali Nizomida va mazkur tribunalning hukmida bayon qilingan xalqaro huquq prinsiplari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1946-yil 11-dekabrda rezolutsiya bilan

¹ Ст. 8 Устава Нюрнбергского международного военного трибунала 1945 г.

tasdiqlangan hamda tinchlik va Insoniyatga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihagini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Xalqaro jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslarni jazolash huquqi va majburiyati odatda jinoyat qaysi davlat hududida sodir etilgan bo'lsa, o'sha davlatga tegishli bo'ladi. Bu haqda Gitlerchilarning sodir etgan yovuzliklari uchun javobgarligi to'g'risidagi 1943-yilgi Deklaratsiyada, Bosh harbiy jinoyatchilarni sud tartibida ta'qib etish va jazolash to'g'risidagi 1945-yilgi Yevropa mamlakatlari bitimi, Genotsid jinoyatini oldini olish va jazolash to'g'risidagi 1948-yilgi Konvensiyaning VI-moddasida qayd etilgan.

Bir qator xalqaro hujjatlar xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni har qanday davlat tomonidan o'z ichki huquqiga asosan jazolay olishini nazarda tutadi.

Ba'zan hududida jinoyat sodir etilgan davlat yurisdiksiyasi maxsus tashkil etilgan xalqaro jinoyat sudi yurisdiksiyasi bilan to'ldiriladi. Genotsidni sodir etishda ayblanuvchi shaxslar, deyiladi Genotsid jinoyatini oldini va olish va jazolash to'g'risidagi 1946-yilgi Konvensiyaning VI-moddasida, agar ushbu Konvensiya qatnashchilari mazkur sudning yurisdiksiyasini tan olsalar, xalqaro jinoyat sudi tomonidan sudlanishlari mumkin. Aynan shunday holat Apparteid jinoyatini oldini olish va jazolash to'g'risidagi 1973-yilgi Konvensiyaning V-moddasida ham mustahkamlangan.

Manfaatdor davlatlar tomonidan jinoiy yoki boshqa turdagi javobgarlikka tortiluvchi shaxslarni topshirish (ekstraditsiya) bevosita maxsus bitimni imzolash yoki avval tuzilgan bitimlar, shu jumladan, huquq yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim doirasida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyat sodir etganligi uchun xalqaro jinoiy javobgarligi xalqaro huquqning eng muhim normalarini (agressiv urushlarni ta'qiqlash va harbiy jinoyatchilarni jazolash, xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarga qarshi kurashish va shu jinoyatlarni sodir etishda aybdorlarni jazolash va boshq.) samarali ta'minlashga ko'mak beruvchi hozirgi zamon xalqaro huquqining instituti sifatida umum e'tirof etilgan.

Hozirgi kunda jiddiy xalqaro huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun javobgar shaxslarni ta'qib qiluvchi ikki turdagi xalqaro jinoiy sud faoliyat ko'rsatmoqda. Bular 1993-1994-yillarda tashkil etilgan

sobiq Yugoslaviya va Ruanda uchun xalqaro tribunallardir. Bundan tashqari, 1998-yilda Italiya (Rim)da Xalqaro jinoyat sudi Statuti qabul qilingan bo'lib, u 2002-yilning iyulida 62 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingach kuchga kirdi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro huquqda javobgarlik tushunchasi va uning subyektlari haqida so'zlab bering.*

2. *Xalqaro-huquqiy javobgarlikning turlari va shakllari.*

3. *Davlatlar va xalqaro tashkilotlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi farqlari nimada?*

4. *Individlar (mansabdor shaxslar)ning xalqaro jinoyat javobgarligi asoslari. Xalqaro jinoyat sudlari va tribunallar.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Василенко В.А. Ответственность государств за международные правонарушения. – Киев, 1976.

2. Василенко В.А. Международно-правовые санкции. – Киев, 1983.

3. Колосов Ю.М. Ответственность в международном праве. – М.: Юридическая литература., 1975.

4. Курис П. Международные правонарушения и ответственность государств. – Вильнюс, 1973.

5. Левин Д.Б. Ответственность государств в международном праве. – М.: Междунар. отношения, 1966.

6. Мазов В.А. Ответственность в международном праве. – М.: Юридическая литература., 1979.

7. Менийчук Ю.В. Последствия международного правонарушения. – Киев, 1987.

8. Раскалей С.Б. Объективная ответственность государств в международном праве. – Киев, 1985.

10. Ушаков Н.А. Основания международной ответственности государств. – М.: Междунар. отношения, 1983.

11. Фарушкин М.Х. Международно-правовая ответственность: (Сущность и основание). – М.: Юридическая литература., 1971.

12. Шуршалов В.М. Международные правонарушения. – М., Междунар. отношения, 1971.

MAXSUS QISM

16-bob. XALQARO XAVFSIZLIK HUQUQI

1. *Xalqaro xavfsizlik huquqi tushunchasi va vujudga kelishi.*
2. *Xalqaro xavfsizlik huquqining maqsadi va prinsiplari.*
3. *Yalpi xavfsizlik tushunchasi va ta'minlanishi.*
4. *Mintaqaviy xavfsizlik, tushunchasi va hozirgi kundagi holati.*
5. *Qurolsizlanish va qurollanishni cheklash.*

1. Xalqaro xavfsizlik huquqi tushunchasi va vujudga kelishi

Insoniyat tarixida bir davlat ikkinchi bir davlatning xavfsizligi va manfaatlariga zarar keltirgan holda o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida qirg'inbarot urushlar va qurolli to'qnashuvlarning uzluksiz zanjirini keltirib chiqargan. Ammo urush va qon to'kilishi vaziyatida ham hayotning dunyoning tinch rivojlanish yo'llarini qidirib topish jarayoni rivojlanib bordi.

Urush va tinchlik masalalarini hal qilishga O'rta asrlar va Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zlarining muhim hissalarini qo'shganlar. XV asrdayoq Chex qiroli Irji Podebrad Yevropa monarxlarining ittifoqini tuzish loyihasini taklif qilgan bo'lib, bu loyiha xalqaro munosabatlarda Rim Papasi hokimiyatini cheklashi, Turkiya tajovuziga qarshi Yevropa davlatlarining kuchini birlashtirishi va Yevropada tinchlikni ta'minlashi kerak edi.

Yalpi tinchlik konsepsiyasi XVII-XIX asr mutafakkirlarining asarlarida rivojlantirildi va keng tarqaldi. Ular urush va tinchlik muammolarini tadqiq qilishda tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma g'oyalari tayandilar. Ular urushni jamiyatning muqarrar yo'ldoshi deb emas, balki jamiyatning ijtimoiy tartibga solinmaganligi oqibati deb tushungan edilar. Shuning uchun urushlarni davlatlarning ichki va tashqi munosabatlarini tartibga keltirish yo'li bilan, bunda xalqaro-huquqiy xarakterga ega choralarni qo'llab tinchlikni saqlash mumkin degan xulosaga kelgan edilar.

1713-yili fransuz abbatı Sen-Pyer «Yevropada abadiy tinchlik o'rnatish loyihasi»ni ishlab chiqdi. Bunda u Yevropa davlatlariga «buyuk ittifoq» tuzishni, o'zaro hududiy da'volardan voz kechishni,

barcha nizoga sabab bo'luvchi masalalarni xalqaro hakamlik sudiga topshirishni taklif qilib chiqdi. Ijtimoiy shartnoma g'oyasining xalqlar o'rtasidagi munosabatlarga ham yoyilishi haqidagi Sen-Pyer fikrini yuqori baholab, J.J. Russo shunday yozgan edi: «*Faqat bir kunga Yevropa Respublikasini yarating – shuning o'zi bu Respublikaning abadiy yashashi uchun kifoyadir: har bir kishi o'z tajribasida bu narsaning umumiy farovonlikda o'z manfaati uchun yordam berishini his qila oladi*».

I.Kant tinchlik uchun harakat qilishni tarixiy zarurat deb bilib, xalqaro munosabatlarda urushni bir chora sifatida ko'rib o'tgan. U xalqaro shartnomalar orqali urushning oldini olib bo'lmasa, unda bizning sivilizatsiyada abadiy tinchlik, qirg'inbarot urushlardan so'ng faqat «insoniyatning katta qabristonlardagina» mavjud bo'ladi deb hisoblagan.

Urush va tinchlik muammolarini hal qilishda 1899-yili bo'lib o'tgan Gaaga tinchlik konferensiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu konferensiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u avvalambor qurollanish poygasini cheklash konferensiyasi edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida xavfsizlikni ta'minlashga doir bir qancha loyihalar ishlab chiqilib, ular urushni taqiqlash va qurollanish poygasini cheklash uchun xizmat qildi.

Yadro qurolining paydo bo'lishi, buning natijasida Yer yuzida umuman hayotning yo'q bo'lib ketish tahdidi, urush va tinchlik masalalarini hal qilishning yangi yo'llarini izlab topishga majbur qildi. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash umumiy g'oyasining ishlab chiqilishi bu talabga bo'lgan javob edi. Insoniyat xavfsizlikning yangi mezonlarini qidirib topishi lozimligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

Hozirgi zamon sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlash deganda davlatning o'zini tashqi tahdidlardan jismoniy va axloqiy-siyosiy jihatdan himoya qila olishigina tushunilmasligi kerak. Chunki milliy xavfsizlikni ta'minlash xalqaro xavfsizlik bilan uzviy aloqador bo'lib, yalpi tinchlikni mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashga ham bog'liqdir. Harbiy harakatlar olib borishning hozirgi zamon usul va vositalarini tahlil qilish milliy xavfsizlikni faqat qudratli mudofaani tashkil etish va harbiy-texnik vositalar bilan ta'minlab bo'lmasligini ko'rsatadi.

Xavfsizlikning yangi konsepsiyasini shakllantirishga Rim klubi, Palme, Brandt, Brundtland komissiyalari, shuningdek boshqa huquqshunos va siyosatchilar katta hissa qo'shdilar.

Shvetsiyaning sobiq Bosh vaziri U. Palme tashabbusi bilan tuzilgan qurolsizlanish va xavfsizlik masalalari bo'yicha mustaqil Komissiya BMT Ustavida ko'rsatib o'tilgan kollektiv xavfsizlik tizimi yetarli darajada samara bermaganligini tahlil qilar ekan, Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arb va Sharq o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshilik BMT Ustavining 39-51 moddalarida ko'rsatib o'tilgan BMT qurolli kuchlarini tuzish va unga kollektiv xavfsizlik organi maqomini berish (BMT Xavfsizlik Kengashi) hamda shu orqali jahon hamjamiyati va alohida davlatlarga ta'sir qilish vositalari, o'zini oqlamaganligini ko'rsatib o'tdi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, BMT Ustavi jahon hamjamiyati a'zolariga «qurolli kuchlarni umumiy manfaatlarni hisobga olib qo'llash» majburiyatini yuklar ekan, qurolli kuchlardan foydalanishni markazlashtirish prinsipini ishlab chiqdi. Alohida hollarda davlatlarning yakka va kollektiv tartibda mudofaadan foydalanish huquqini ham saqlab qoldi. Ammo siyosiy voqelikka nazar tashlaydigan bo'lsak, urushdan keyingi holat bu prinsipni puchga chiqarganini ko'ramiz.

Yuridik jihatdan oladigan bo'lsak xavfsizlikning yangi konsepsiyasi xalqaro-huquqiy tartibotda shunday tizimni rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadiki, bunda hozirgi dunyoda umuminsoniy qadriyat va manfaatlarni tor milliy va sinfiy manfaatlardan ustun qo'yib, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishni erkin tanlash va shu orqali siyosatda huquqning ustunligini ta'minlashga xizmat qilishi kerakligiga asoslanadi.

Xalqaro huquq samaradorligi hamda davlatlarning insoniyat oldidagi kollektiv mas'uliyati ikkita asosiy vazifani xalqaro hamkorlikda hal etishga qaratilgan. Birinchi vazifa, xalqaro miqyosda amalda bo'lgan tinchlikni saqlab turish mexanizmini saqlab qolish bo'lsa, ikkinchi vazifa yangi huquqiy normalarni yaratishdir.

BMT Bosh Asambleyasi tomonidan 1987-yilda qabul qilingan Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish va kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan bosh tortish prinsipining samaradorligini oshirish to'g'risidagi Deklaratsiya va 1988-yilgi Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka

tahdid soladigan vaziyat va nizolarning oldini olish hamda ularni tugatish va bunda BMTning rolini oshirish to'g'risidagi Deklaratsiya umumiy xavfsizlikning xalqaro-huquqiy kafolatlarini yaratishga qaratilgan muhim qadamlardan hisoblanadi.

2. Xalqaro xavfsizlik huquqining maqsadi va prinsiplari

Xalqaro xavfsizlik huquqining asosiy maqsad va prinsiplari xalqaro ommaviy huquqning maqsad va prinsiplari bilan mushtarakdir, bu esa xalqaro xavfsizlik huquqining xalqaro ommaviy huquq tizimidagi o'rnini belgilab beradi. Xalqaro xavfsizlik huquqining asosiy hujjati, xalqaro huquqning singari, BMT Ustavidir. Ustavda bosh maqsad quyidagicha ifodalangan: «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash». Bu maqsadga erishish yo'li ham ko'rsatilgan: «tinchlikka bo'lgan tahdidning oldini olish va tugatish, agressiya aktlarini va tinchlikning buzilishining boshqacha ko'rinishlarini bostirish uchun kollektiv choralarini samarali qo'llash». Tinchlikning buzilishiga olib keladigan xalqaro nizolar va vaziyatlarni hal etishni tinch vositalar bilan olib borish. Bunda ikki vazifani: keng xalqaro hamkorlik orqali samarali kollektiv choralar, hamda tahdidning oldini olish va tinch yo'l bilan hal etishda asosiy e'tiborni ehtiyotkorlikka qaratish zarurligini qayd etib o'tish joiz.

BMT Ustavi xalqaro xavfsizlikning asosiy prinsiplarini ham belgilab bergan. Bu prinsiplardan birinchisi nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish va kuch ishlatmaslik hamda kuch ishlatish bilan tahdid solmaslik prinsipidir. Bu prinsiplarni amalga oshirish uchun ustav davlatlarni BMTga uning harakatlarida har tomonlama yordam berishga chorlaydi va BMT biror davlatga nisbatan olib borayotgan oldini olish va majburlov xarakteriga ega bo'lgan har qanday chorani qo'llashda boshqa davlatlar shu davlatga yordam berishdan o'zini tiyishlariga chaqiradi.

Bundan tashqari, Ustav BMTga shunday huquq berganki, bunga ko'ra BMTga a'zo bo'lmagan davlatlar ham aytib o'tilgan prinsip bo'yicha xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashlari zarurdir (2-modda 6-band).

Faqatgina aytib o'tilgan prinsiplargina emas, balki xalqaro huquqning boshqa prinsiplari ham xalqaro xavfsizlik huquqining asosini

tashkil qiladi. Bu qoida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan maxsus qayd etib o'tilgan. Samarali kollektiv choralar suveren tenglik, ichki ishlarga aralashmaslik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsiplarini hurmat qilish asosida amalga oshirilishi mumkin. Inson huquqlarini hurmat qilish, demokratiya, tinchlikka yo'naltirilgan xavfning oldini olishda birinchi darajali ahamiyatga egadir. Har bir inson yashash huquqiga ega, davlat va xalqaro hamjamiyat esa insonning ana shu huquqi amalga oshishi uchun xalqaro tartibni ta'minlashi lozimdir (1948-yilgi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 3-va 28-moddalari). Bundan insonning tinchlikka bo'lgan huquqi ajralib chiqadi, bu esa xalqlar va davlatlarning tinchlikka bo'lgan huquqi bilan bog'liqdir. Xalqlarning tinchlikka bo'lgan huquqi to'g'risidagi 1984-yilgi Deklaratsiyada Bosh Assambleya «xalqlarning muqaddas tinchlik huquqi» iborasini ishlatdi, buni ta'minlash esa davlatlarning eng muhim majburiyati bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro xavfsizlik huquqi xalqaro huquqdagi tub o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Urush endi unda ishtirok etuvchi davlatlarning ishigina bo'lib hisoblanmaydi. Agressiya «tinchlikka qarshi jinoyat» hisoblanadi. Umumiy tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash – xalqaro huquqning bosh vazifasidir. Davlatlarning urushga bo'lgan huquqi yuridik jihatdan tan olinmaydi. Urush, kuch ishlatish endi faqat bir davlatning vakolati hisoblanmaydi. Bu xalqaro hamjamiyatning ishidir.

3. Yalpi xavfsizlik, tushunchasi va ta'minlanishi

BMT Ustavi bo'yicha tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash tizimi. BMT davlatlarning birgalikdagi harakati asosida xalqaro xavfsizlik va tinchlikni saqlash va mustahkamlash quroli sifatida tuzilgan edi. BMT Ustavining muqaddimasi xalqaro tinchlikning quyidagi asoslarini ko'rsatib berdi: urushga barham berish; asosiy inson huquqlarini ishonchli mustahkamlash; xalqaro huquqning ahamiyatini oshirish; ijtimoiy taraqqiyotga yordam berish va erkin hayot shart-sharoitlarini yaxshilash hamda bu maqsadda uchta asosiy shartni bajarish: birgalikda, yaxshi ko'shnichilik munosabatlarida tinch-totuv yashash; xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun kuchlarni birlashtirish; qabul qilingan prinsiplar va prinsiplarni qabul qilish va

usullarni o'ratish orqali qurolli kuchlardan umumiy manfaatlarda foydalanish.

BMT Ustaviga ko'ra, *xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash xalqaro huquq normalari va umum e'tirof etilgan prinsiplari asosida tashkil etilishi, bu sohada vakolatlari aniq belgilangan Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan amalga oshirilishi lozim.*

Bosh Assambleya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga bag'ishlangan har qanday ish yoki masalani muhokama qilishi, jumladan, bu sohadagi hamkorlikning umumiy prinsiplarini ko'rib chiqishi va shu asosda davlatlarga va Kengashga muhokamagacha yoki muhokamadan keyin ham o'z tavsiyalarini berishi mumkin.

Xavfsizlik Kengashiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun asosiy mas'uliyat yuklatilgan (24-modda). U BMT nomidan oldini olish va majburlov harakatlarini qo'llash huquqiga ega bo'lgan, jumladan, BMTga a'zo davlatlarning birlashgan qurolli kuchlarini ishlatish huquqiga ega BMTning yagona organi hisoblanadi.

BMT Ustavida ko'rsatib o'tilganidek, bunday kuchlarni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni tiklash yoki saqlash uchun, agressiya akti bo'lganda, tinchlik buzilganda, tinchlikka tahdid solinganida «faqat umumiy manfaatlar uchun», alohida hollarda, boshqa choralarni qo'llash samara bermaganida va Ustavga zid maqsadlarda foydalanilmagan holdagina qo'llash mumkin va lozim bo'ladi.

Ustavning 43-moddasi BMT a'zolari tomonidan Xavfsizlik Kengashi ixtiyoriga zarur qurolli kuchlar, yordam va xizmat ko'rsatish vositalarini berish tartibini belgilab bergan. Bunday aloqa BMTga a'zo-davlatlar bilan Kengash o'rtasida tuziladigan maxsus Bitim va Bitimlar ratifikatsiya asosida qilish orqali; Xavfsizlik Kengashining talabiga ko'ra, ya'ni uning qarorlari asosida amalga oshiriladi.

Xavfsizlik Kengashi Harbiy-Shtabli Qo'mita (XSHQ) yordamiga tayanib, qurolli kuchlarni tuzish va qo'llash bilan bog'liq barcha masalalarni hal qiladi. XSHQ Kengashning doimiy a'zolarining Shtab boshliqlari yoki ularning vakillaridan iborat bo'ladi (47-modda). Ammo 43-modda ham, 47-modda ham Kengashning doimiy a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lgani uchun amalda qo'llanilmadi. Buning natijasida 1947-yildan boshlab XSHQ o'z faoliyatini amalga oshirmadi va BMT qurolli kuchlarini tuzish va yaratish sohasida o'z holicha ish ko'rdi. BMTda uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga

qaratilgan va tinchlikni saqlashda BMT mexanizmining samaradorligini oshirish uchun bir qancha rezolutsiya va deklaratsiyalar qabul qilindi. Ulardan quyidagilarni sanab o'tamiz: Xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiya, Agressiya ta'rifi berilgan 1974-yil 14-dekabrda Bosh Assambleyaning 3314 (XXIX) Rezolutsiyasi, Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi nizolar va vaziyatlarning oldini olish va tugatish hamda bu sohada BMTning roli to'g'risidagi 1988-yilgi Deklaratsiya, Xalqaro tinchlik, xavfsizlikni mustahkamlash va BMT Ustaviga asosan barcha sohada xalqaro hamkorlik qilish to'g'risidagi Bosh Assambleyaning 1989-yil 15-noyabrda 44/21 Rezolutsiyasi. Yuqorida sanab o'tilgan aktlar orasida 1974-yilgi Agressiyaga ta'rifi asosiy o'rinni egallaydi.

1974-yilgi Agressiya ta'rifi aralash akt hisoblanadi. Unda agressiyaga umumiy ta'rif berilgan va agressiyaga qarshi aktlar sanab o'tilgan. Bu Rezolutsiya agressiyani «bir davlatning ikkinchi bir davlatning suvereniteti, hududiy daxlsizligi va siyosiy mustaqilligiga qarshi qurolli kuch ishlatish yoki BMT Ustaviga mos kelmaydigan boshqacha tarzda ta'sir o'tkazish», deb tavsiflaydi.

3-modda agressiya ta'rifini aniq agressiv aktlar orqali belgilab beradi. Agressiya ta'rifida sanab o'tilgan agressiv aktlar ro'yxati to'liq deb hisoblanmaydi. «Xavfsizlik Kengashi, – deyiladi 4-moddada, – Ustav qoidalariga ko'ra boshqa agressiv aktlar mavjudligi haqida xulosa chiqaradi».

Xavfsizlik Kengashi agressiv aktlarni belgilash bo'yicha o'z vakolatlaridan kelib chiqib, birinchilik prinsipidan tashqari boshqa mezonlardan foydalanadi. Bu haqda Agressiya ta'rifining 2-moddasida quyidagicha yozib qo'yilgan: «Xavfsizlik Kengashi Ustavga muvofiq quyidagicha xulosa chiqarishi mumkin: agressiya akti amalga oshganda, uning oqibatidan qat'iy nazar, u hech qanday holatlarda oqlanmaydi».

Qurolli kuchlarni noqonuniy qo'llash aktining jiddiylik omili Xavfsizlik Kengashiga agressiya akti bilan qurolli kuchlarning cheklangan yoki tasodifiy holda qo'llanganligi o'rtasidagi chegarani belgilab beradi, bu esa tinchlikka tahdid yoki tinchlikning buzilishi deb baholanishi mumkin.

2-moddadan agressiv maqsadning mezonini hisobga olish zarurligi kelib chiqadi. Ma'lum bir vaziyatlarni ko'rib chiqishda Xavfsizlik

Kengashi birinchilik prinsipidan foydalanib qolmay, tomonlarning agressiv maqsadlarini ham hisobga oladi. Bu yo'nalishda muhim ko'mak bo'lib Agressiya ta'rifining 5-moddasi hisoblanadi, bu modda agressiyani, u siyosiy, iqtisodiy, harbiy yoki boshqa xususiyatga egaligidan qat'iy nazar, oqlamaydi.

Agressiya ta'rifi agressiyani xalqaro javobgarlikka olib keluvchi xalqaro tinchlikka qarshi jinoyat sifatida tasniflaydi. Bu modda agressiya natijasida egallangan hudud yoki boshqa muhim manfaatlar qo'muniy bo'lmaydi deb hisoblaydi.

Agressiya ta'rifining 7-moddasida muhim qoida belgilangan bo'lib, unga ko'ra ta'rifning hech bir unsuri xalqlarning mustaqilligi va ozodligi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi, mustamlakachilik va irqiy rejim ostida bo'lgan xalqlarni bu rejimga qarshi kurashda qo'llab-quvvatlaydi. Bu modda mustamlaka va mazlum xalqlarning o'z ozodligi uchun kurashini tan oladi.

Agressiya ta'rifi 1974-yili BMTga a'zo 138 davlat ishtirokida qabul qilingan edi. Ana shu holatni hisobga olgan holda, shuningdek u BMT Ustavining bir qancha qoidalariga oydinlik kiritgani va ishonchli bo'lgani uchun, bu ta'rifga barcha davlatlar uchun ham, Xavfsizlik Kengashi uchun ham majburiy yuridik kuchga ega, deb qarashimiz mumkin.

1991-yilning 9-dekabrida Bosh Assambleya Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash sohasida BMTning o'rni to'g'risidagi Deklaratsiyani ma'qulladi. Deklaratsiya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash bilan bog'liq funksiyalarni bajarishda Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleya har qanday nizo va vaziyatga nisbatan to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerakligini bayon etadi.

Deklaratsiya faktlarni aniqlash uchun missiya tuzish masalalarini ham tartibga soladi. Bunday missiyalarni tuzish va jo'natish to'g'risidagi qarorni Kengash yoki Assambleya qabul qiladi. Bunday missiyani biron-bir davlat hududiga yuborish uchun o'sha davlatning oldindan roziligini olish kerak bo'ladi. Deklaratsiya missiyani tashkil etish va amalga oshirish uchun Bosh kotib xizmatidan foydalanishni tavsiya qiladi. Bosh kotib missiyaga jalb qilingan ekspertlar ro'yxatini tuzib chiqadi yoki yangilaydi. Shu bilan birga, Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyaning maxsus yordamchi organlari xizmatidan ham foydalanishi mumkin.

BMT doirasidagi tinchlikni saqlashning hozirgi zamon konsepsiyasi Xavfsizlik Kengashining dasturida ma'qullangan BMT Bosh kotibining «Tinchlik uchun kun tartibi» ma'ruzasida bayon qilingan. Dastur preventiv diplomatiya, tinchlikni ta'minlash, tinchlikni saqlash va tinch qurilish sohalorida BMTning kompleks rolidan kelib chiqadi.

Preventiv diplomatiya tomonlar o'rtasida paydo bo'ladigan kelishmovchiliklarning oldini olishga, mavjud nizolarni mojarolarga aylanib ketmasligiga qaratilgan va mojarolar paydo bo'lganida, ularning ko'lamini cheklashga qaratilgan harakat deb tushuniladi. Uning doirasida ishonchni mustahkamlash choralaridan keng foydalanishni, tinchlikka xavf tug'ilganida uning oldini olish tizimi va faktlarni yig'ish bo'yicha missiya tuzishni, BMT qurolli kuchlarini preventiv ishga solish, qurolli kuchlar va qurol-aslahalardan holi zonalaridan preventiv (ehtiyot, oldini olish) choralar sifatida foydalanishni taqozo qiladi.

Tinchlikni ta'minlash – bu BMT Ustavining VI bobida ko'rsatib o'tilgan muzokaralar va boshqa tinch vositalar yordamida bir-biriga dushman tomonlarni murosaga chaqirishga yo'naltirilgan harakatdir.

Tinchlikni saqlash mojarolarning oldini olish va tinchlikni o'rnatish uchun harbiy personal yordamida operatsiyalar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mojarolardan keyingi tinchlikni ta'minlash – bu mojarolardan so'ng tegishli tuzilmalarni yaratish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan harakatlar bo'lib, ular mojarolarni keltirib chiqargan kuchlarni tugatish orqali tinchlikni saqlash va mustahkamlashga yordam beradi.

Tinchlikni saqlash hozirgi zamon konsepsiyasining eng muhim unsurlaridan biri sifatida, BMT Ustavidagi qoidalarni rivojlantirishda BMTning mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro yaqin hamkorligi va aloqasi hisoblanadi. BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1994-yilning 9-dekabrda qabul qilingan BMT bilan mintaqaviy organlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish to'g'risidagi Deklaratsiya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash sohasida ana shunday hamkorlikning turli shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi: o'zaro axborot almashish va maslahatlashuvlar, BMT organlari faoliyatida ishtirok etish, moddiy, personalga oid va boshqa tusda yordam berish, tinch-

likni saqlashni kuchaytirish borasida BMT tomonidan mintaqaviy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash.

4. Mintaqaviy xavfsizlik tushunchasi va hozirgi kundagi holati

BMT Ustavi xalqaro xavfsizlikning umumiy tizimidan tashqari, xalqaro tinchlikni saqlashning mintaqaviy tizimini yaratish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Ustavning 52-moddasida belgilab qo'yilganidek, mintaqaviy organlarning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash borasidagi faoliyati BMT Ustavining prinsiplari va maqsadlariga muvofiq bo'lsa, Ustav bunday mintaqaviy bitim va organlarning mavjud bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi.

Yuqoridagi fikrdan shunday xulosa kelib chiqadiki, xavfsizlikning mintaqaviy tizimlari yalpi xavfsizlik tizimining bir qismi hisoblanadi. BMT Ustavi mintaqaviy bitim va organlar bilan Xavfsizlik Kengashi o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatdi. Bunday bitim va organlar doirasida davlatlar mintaqaviy nizolarni Xavfsizlik Kengashi ko'rib chiqqunga qadar tinch yo'llar bilan hal etish uchun o'zlarining butun kuchlarini ishga solishlari lozim. O'z navbatida, Xavfsizlik Kengashi mintaqaviy nizolarni mintaqaviy bitim va organlar yoki manfaatdor davlatlarning tashabbusi yoxud o'z tashabbusi bilan tinch hal etilishini qo'llab-quvvatlashi darkor. Albatta, bu holat Xavfsizlik Kengashi tomonidan nizoning har qanday bosqichida, bu nizo xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solayotgani yuzasidan tekshiruv o'tkazilishiga to'sqinlik qila olmaydi.

Xavfsizlik Kengashi o'z rahbarligi ostida majburiy harakatlar olib borishi uchun mintaqaviy organ va bitimlardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Ammo mintaqaviy organlarning Xavfsizlik Kengashidan vakolat olmasdan turib majburiy harakatlarni olib borishga haqqi yo'q. Ikkinchi jahon urushi davrida Gitlerchi Germaniyaga qarshi koalitsiya davlatlariga qarshi urush olib borgan davlatlar bundan mustasnodir.

Mintaqaviy tashkilotlar – ADL (Arab Davlatlari Ligasi), ABT (Afrika Birligi Tashkiloti), ADT (Amerika Davlatlari Tashkiloti) ta'sis aktlarida ularning a'zolariga qarshi qurolli hujum bo'lganda kollektiv choralar ko'rish to'g'risidagi qoidalar mavjud. Masalan,

O'zaro yordam to'g'risidagi 1947-yilgi Amerikalararo shartnomaning (Rio-de-Janeyro Pakti) muqaddimasida umumiy mudofaa va o'zaro yordam majburiyati ko'rsatib o'tilgan va Shartnoma «har qanday Amerika davlatlariga qarshi qurolli hujumda o'zaro samarali yordam va bu davlatlarga qarshi agressiya tahdidining oldini olish» uchun tuziladi. Shartnomada Amerika davlatlarining birortasiga qarshi qaratilgan qurolli hujum barcha Amerika davlatlariga qarshi qaratilgan qurolli hujum deb qaraladi, shu sababli barcha ishtirokchi-davlatlar qarshi kurash uchun yordam berishga majburdirlar.

Shu davrga qadar mintaqaviy tashkilotlarning amaliy faoliyatida kollektiv mudofaa tartibida biror-bir qurolli kuchlar birlashmalari tuzilgani yo'q. Buning o'rniga ular tinchlikni saqlash uchun kuch tuzishga kirishdilar. Masalan, 1971-yili Arab Davlatlari Ligasi Li-viyadagi turli diniy guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlarga barham berish uchun Arab kuchlarini tuzdilar. 1981-yili ABT Chad guruhlari o'rtasidagi bitimlarning bajarilishini kuzatishga mo'ljallangan, Tinchlikni saqlash uchun Afrika kuchlarini tuzdilar. Bu ikki operatsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

MDH Nizomida Tinchlikni saqlash kollektiv kuchlari va harbiy kuzatuvchilar guruhi to'g'risidagi 1992-yilning 20-martidagi Bitim hamda Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi 1992-yil 15-maydagi Shartnomadan kelib chiqib nizolarni hal etish va mojarolarning oldini olish to'g'risida hamda kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topgan. MDH Nizomining 12-moddasi BMT Ustavining 51-moddasidagi kollektiv va individual tarzda o'zini o'zi mudofaa qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur hollarda Birlashgan qurolli kuchlardan foydalanish huquqini, shuningdek tinchlik operatsiyalarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) doirasida umumiy xavfsizlik muammolari bo'yicha ish olib borish bilan birga (qurol-aslahalarni nazorat qilish bo'yicha muzokaralar o'tkazish, qurolsizlanish va xavfsizlikka bo'lgan ishonchni mustahkamlash, nizolar kelib chiqish xavfini kamaytirish va boshqalar), mahalliy va mintaqaviy mojarolarni tartibga solish va oldini olish bo'yicha ham ma'lum ishlar qilinmoqda. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining (YXHK) 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan Xelsinkidagi YXHKga a'zo davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining uchrashuvida YXHK

doirasida tanglikdan chiqarish tizimini yaratish, jumladan, tinchlikni saqlash uchun operatsiyalar o'tkazish uchun bir qancha qarorlar qabul qilingan edi.

Tang vaziyatlarni tartibga solishning birinchi bosqichida faktlarni o'rganish bo'yicha missiya, maxsus ma'ruzachilar missiyasi va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishning yangi mexanizmidan foydalanish belgilab olindi. Mojarolar kuchayib ketganda tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalar o'tkazish haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Bunday qaror Vazirlar Kengashining yig'ilishida yoki uning agenti sifatida harakat qiladigan Rahbariy kengashda qabul qilinadi. Operatsiyani o'tkazishda manfaatdor tomonlarning roziligi kerak bo'ladi. Operatsiya harbiy kuzatuvchilar guruhi yoki tinchlikni saqlash uchun kuchlar yuborishni nazarda tutadi. Bu operatsiyada ishtirok etuvchi shaxsiy tarkibni YXHTga a'zo davlatlar taqdim etadi.

Operatsiyalar ikki davlat o'rtasida chiqqan nizolarda ham, bir davlatning ichki nizolarida ham amalga oshirilishi mumkin. Bu operatsiyalarning asosiy vazifasi – o't ochishni tugatishni razorat qilish, qo'shinlarning olib chiqib ketilishini kuzatish, qonuniylik va tartibni saqlashga yordam berish, gumanitar yordamlar berish va boshqalar. Bu operatsiyalar majburlov harakatlarini nazarda tutmaydi va beg'araz amalga oshiriladi. Rahbariy kengash tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalar ustidan umumiy siyosiy nazoratni olib boradi va rahbarlik qiladi. MDH singari YXHT ham operatsiyalarni BMTning rolini hisobga olgan holda olib boradi. Jumladan, Xelsinki qarorlarida YXHK raisi YXHKning operatsiyalari haqida BMT Xavfsizlik Kengashini to'liq axborot bilan ta'minlaydi, deyilgan.

Tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalar o'tkazishda YXHT mavjud tashkilotlar – YI, NATO, MDH, GEI kabilarning tajribasi va resurslaridan foydalanishi mumkin. Har bir holatda YXHT bunday tashkilotlarning yordamidan foydalanish to'g'risida qaror qabul qiladi.

1994-yilgi davlat va hukumat boshliqlarining Budapesht sammitida Xavfsizlikning harbiy-siyosiy jihatlari bo'yicha axloq Kodeksi qabul qilindi va u 1995-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi. Bu hujjatda asosiy e'tibor YXHT mintaqasi va undan tashqarida xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash asosida milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratildi. Unda xavfsizlik bir butun ekanligi, har bir ishtirokchi-davlatning xavfsizligi boshqa ishtirokchi-davlatlarning

xavfsizligi bilan chambarchas bog'liqligi qayd qilindi. Davlatlar o'z xavfsizliklarini boshqa davlatlarning xavfsizliklari hisobiga mustahkamlamasdan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish majburiyatini oldilar. Bu yo'nalishda YXHT o'rni alohida ekanligi qayd etib o'tildi. Hujjatda xavfsizlikni ta'minlashning birgalikdagi va milliy choralarning quyidagi yo'nalishlari: qurolsizlanish, terrorizmga qarshi kurash, individual va kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi, ishonchni mustahkamlash, sog'lom iqtisodiy va ekologik muhitni yaratish kabilar ko'rsatib o'tilgan.

YXHT doirasida kuzatuvchilar guruhi Dnestrbo'yi, Tog'li Qorabog', Checheniston, Abxaziya va Gurjistonda, tinchlikni saqlash kuchlari Albaniyada tinchlikni saqlash operatsiyalarini o'tkazdi.

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turishga da'vogar yana bir tashkilot bu *Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)*dir. Bu tashkilot 1949-yilning 4-aprelida tashkil topgan bo'lib, davlatlararo Shimoliy Atlantika shartnomasi hisoblanadi va shu yilning 24-avgustidan kuchga kirgan.

Shimoliy Atlantika shartnomasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning matni BMT Ustavi qoidolari asosida tuzilgan bo'lib, shartnomadagi atamalar BMT Ustavidagi atamalarga o'xshashdir. NATOning maqsadi tinchlik va xavfsizlikni saqlash va kollektiv mudofaani tashkil qilish uchun uning a'zolari kuchlarini birlashtirish hisoblanadi. Ularning o'zaro yordam ko'rsatish va qurolli kuchlarni qo'llash bo'yicha majburiyati Shartnoma asosida o'rnatiladi. Bu tashkilotning Yevropadagi yoki Shimoliy Amerikadagi bir yoki bir necha a'zolariga uyushtirilgan qurolli hujum shartnomaga a'zo barcha davlatlarga qarshi qaratilgan hujum deb hisoblanadi (shartnomaning 5-moddasi). Bunda ular BMT Ustavining 51-moddasiga asosan individual yoki kollektiv mudofaani amalga oshirish huquqidan foydalanib harakat qiladilar.

Shimoliy Atlantika shartnomasi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari BMT Ustavidagi huquq va majburiyatlariga zid emas yoki Xavfsizlik Kengashining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagi bosh ma'suliyatiga zarar keltirmaydi.

Shartnoma ishtirokchilari xalqaro munosabatlarda BMT maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan tarzda kuch ishlatish yoki kuch

bilan tahdid qilishdan o'zini tiyib turish majburiyatini olganlar, barcha nizolarni tinch vositalar bilan hal qilish, xalqaro munosabatlarning tinch va do'stona rivojlanishiga yordamlashishga kelishib olishgan.

Shimoliy Atlantika shartnomasi o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun murakkab siyosiy va harbiy tuzilmani yaratgan. NATOning oliy organi Shimoliy Atlantika Kengashi (SHAK) hisoblanadi, u turli darajada: davlat va hukumat boshliqlari, tashqi ishlar vazirlari, doimiy vakil qilingan elchilar darajasida amal qiladi. So'nggi holatda u Doimiy kengash sifatida ish ko'radi. Kengash doirasida tashqi aloqalar masalalari bo'yicha keng siyosiy maslahatlar olib boriladi, xavfsizlikni ta'minlash, harbiy hamkorlik, xalqaro tinchlikni saqlash masalalari ko'rib chiqiladi. Qarorlar bir ovozdan qabul qilinadi. Doimiy ishchi organ – Kotibiyat tuzilgan bo'lib, u NATO Bosh kotibi boshchiligida faoliyat yuritadi.

Siyosiy va ijtimoiy sohalarida NATOga a'zo mamlakatlarning hamkorligini tashkil etish uchun Siyosiy va Iqtisodiy qo'mitalar tuzilgan.

Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti bilan NATOga a'zo bo'lmagan davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash uchun 1991-yili «Tinchlik yo'lida hamkorlik» (TYH) dasturi va bu dasturga rahbarlikni amalga oshirishga qaratilgan Shimoliy Atlantika hamkorligi Kengashi (ShAHK) tuzilgan edi.

Hozirgi vaqtda NATOda bo'lgan o'zgarishlar tufayli TYH dasturida ham yangi o'zgarishlar bo'ldi. Bu NATOga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar bilan mudofaa va harbiy sohada hamkorlikning yanada faolroq bo'lishini ta'minlaydi, buni biz Deyton bitimini (IFOR) bajarishni ta'minlash bo'yicha tashkil qilingan kuchlar hamda Bosniya va Gersegovinadagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha tashkil qilingan kuchlar (SFOR) misolida ko'rishimiz mumkin. Bu doirada NATOga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar ishtirokida inqirozlarning oldini olish uchun operatsiyalar o'tkazishda ko'pmillatli operativ kuchlar (KOK) va hamkorlarning shtab unsurlarini (HShU) tuzish nazarda tutilgan.

1997-yilning 30-mayida NATO Kengashi sessiyasida 44 ta davlatni o'z ichiga olgan Evro-Atlantika hamkorlik Kengashi (EAHK) tuzildi, unga NATOga a'zo-davlatlardan 16 tasi, sobiq Ittifoq respublikalarining barchasi, sobiq Varshava shartnomasi ishtirokchilarining

barchasi, shuningdek Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya va Shveysariya davlatlari kirdi. EAHK maqsadi tinchlikni saqlash uchun operatsiyalar o'tkazish, inqirozlarning oldini olish, xavfsizlik siyosati va boshqa ko'plab o'xshash masalalarni hal etish bo'yicha ko'p tomonlama maslahatlashuvlar o'tkazish hisoblanadi.

5. Quolsizlanish va quollarni cheklash

Quolsizlanish deganda urush olib boruvchi vositalarni cheklash, qisqartirish va batamom tugatishga qaratilgan kompleks choralar tushuniladi. Quolsizlanishning umumiy huquqiy asosi bo'lib BMT Ustavi hisoblanadi. 11-modda «Tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish borasidagi hamkorlikning umumiy prinsiplari» bo'lib, uning birinchi bandiga «Quolsizlanish va quol-aslahalarni tartibga solishni belgilovchi prinsiplar» kiradi. Bu prinsiplarni ko'rib chiqish Bosh Assambleya vakolatiga kiradi va u bu masalalar bo'yicha Xavfsizlik Kengashi va BMTga a'zo davlatlarga tavsiyalar beradi. Xavfsizlik Kengashi «Quol-aslahalarni tartibga solish tizimini tuzish rejaları»ni shakllantirish uchun (26-modda) javob beradi; bu vazifani bajarishda Xavfsizlik Kengashiga Harbiy shtabli Qo'mita o'zining maslahatlari bilan yordam beradi va «Quol-aslahalarni tartibga solish va quolsizlanish imkoniyatlari» (47-modda, 1-band) masalalari bo'yicha ham o'z maslahatlari va yordamini beradi.

«Quolsizlanish» va «Quol-aslahalarni tartibga solish» atamaları BMT Ustavini tuzuvchilar tomonidan kiritilgan. «Quol-aslahalarni tartibga solish» atamasi o'z mazmuniga ko'ra keng ishlatiladigan «Quol-aslahalar ustidan nazorat» atamasiga yaqin turadi.

Xalqaro huquqda umumiy tan olingan quolsizlanish prinsipidan quyidagi majburiyatlar kelib chiqadi: quolsizlanish bo'yicha amalda bo'lgan shartnomalarga to'liq va og'ishmay amal qilish; shartnomalarda ko'rsatilgan, quolsizlanish va quollanish poygasini cheklashga yo'naltirilgan tadbirlarda ishtirok etish; quolsizlanishga qaratilgan, xalqaro nazorat ostida to'liq va umumiy quolsizlanish bo'yicha yangi shartnomalar, yangi normalar yaratishga erishish.

Ko'rib chiqilayotgan sohada asosiy normalarning manbayi quyidagi xalqaro shartnomalar hisoblanadi: universal (Yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi 1968-yilgi Shartnoma), mintaqaviy (Lotin

Amerikasida yadro qurolini taqiqlash to'g'risidagi 1967-yilgi Shartnoma), ikki tomonlama (Raketaga qarshi mudofaa tizimini cheklash to'g'risidagi 1972-yilgi Shartnoma). Bu sohadagi shartnomalarni maqsadi va obyektiga qarab ham tasniflash mumkin (qurollanishni cheklash yoki cheklash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar; ommaviy qirg'in qurollari yoki oddiy qurollar bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar).

Universal xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini kuchayishi, ularning qurolsizlanish sohasida qabul qilgan rezolutsiyalarini xalqaro huquqning qo'shimcha manbayi sifatidagi ahamiyatini oshib borishiga xizmat qiladi. Qurolsizlanish masalalari bo'yicha qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining bir qancha rezolutsiyalariga, shakllanayotgan xalqaro huquq normalari sifatida qarashimiz mumkin. Bir qancha hollarda BMT Bosh Assambleyasining rezolutsiyalarini shartnoma normalarining qo'shimcha implementatsiya vositasi deb hisoblashimiz mumkin. Ular qatoriga Tinch okeanining janubiy qismida yadrosiz zona to'g'risidagi 1985-yilgi Shartnomani to'liq amalga kiritishini ta'minlashga qaratilgan Rezolutsiyani qo'shishimiz mumkin. 1989-yili Bosh Assambleya tomonidan shartnoma normalariga rioya etilishini tekshirish mexanizmining yaratilishi (1925-yilgi urushda bo'g'uvchi, zaharlovchi va boshqa gazli va bakteriologik vositalarni qo'llashni taqiqlash to'g'risidagi Jeneva protokoli) ayniqsa diqqatga sazovordir. Bunga ko'ra BMT Bosh kotibining vakillari kimyoviy qurollarning qo'llangani to'g'risidagi xabarlarini maxsus tartibda tekshiradilar.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi davlatlarni to'g'ridan-to'g'ri qurolsizlanishga majbur etuvchi normalarga ega emas. Bu sohadagi asosiy majburiyatlarning mohiyati quyidagicha: «erkin muzokaralar olib borish; xalqaro nazorat ostida to'liq va samarali qurolsizlanishga erishish to'g'risida shartnomalar tuzish va ularni bajarish». Bunday maqsadlar hozirgi kundagi barcha shartnomalarning muqaddimasida ko'rsatib o'tilgan.

Hozirgi kunga kelib qurolsizlanish choralari qisman belgilaydigan normalar majmui vujudga keldi va amal qilmoqda. Qisman choralarning mohiyati – qurollarning alohida turlarini taqiqlash va tugatish, ularni ishlab chiqarish, to'plash va qo'llashni taqiqlash, ayrim qurollarni sifat va son jihatidan cheklash, qurollarni sifat jihatidan ta-

komillashtirish imkoniyatini qisqartirish hamda turli xil qurollarni joylashtirish rayonlari va sohalarini qisqartirishdan iboratdir.

Ommaviy qirg'in qurollariga taalluqli kompleks normalar ancha rivojlangan. 1948-yilda BMT tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifga asosan, bunday qurollar «shunday tartibda belgilanishi lozimki, bunday qurollarga atom, radioaktiv moddalar yordamida ishlaydigan, kimyoviy va biologik (bakteriologik) qurollar, shuningdek kelajakda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan, o'zining tavsifiga ko'ra yuqorida eslatib o'tilgan qurollarning kuchiga teng bo'lgan qurollarni kiritish mumkin».

Hozirgi zamon xalqaro huquqi yadro qurollarining atmosferada, koinotda va surv ostida sinovlarini taqiqlaydi .

SSRI parchalanib ketganidan so'ng yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi normalarga rioya qilishda bir qancha qiyinchiliklar tug'ildi. Chunki SSRI o'rnida tashkil topgan yangi mustaqil davlatlarning to'rttasida (Belarus, Qozog'iston, Rossiya va Ukraina) yadro qurollari qoldi. Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi doirasida erishilgan shartnomaga asosan 1996-yili yadro zaryadiga ega bo'lgan barcha qurollar Rossiya Federatsiyasi hududiga olib chiqib ketildi, lekin yadro zaryadiga ega bir qancha qurollar Ukraina hududida qoldi. Bir qancha urinishlardan so'ng Ukraina bu qurollarni Rossiya Federatsiyasiga topshirishga rozilik berdi.

Strategik qurollarni tartibga solish oxirgi vaqtgacha faqat Sovet-Amerika munosabatlari doirasida amalga oshirilgan edi (Strategik hujum qurollarini cheklash sohasidagi bir qancha choralar to'g'risidagi 1972-yilgi Muvaqqat bitim, Strategik hujum qurollarini cheklash to'g'risidagi 1979-yilgi Shartnoma kuchga kirmagan bo'lsa-da, bir necha yillar qo'llanib kelindi, Strategik hujum qurollarini cheklash va qisqartirish to'g'risidagi 1991-yilgi Shartnoma). SSRI parchalanib ketganidan so'ng bu sohadagi ma'lum majburiyatlar yuqorida nomi qayd qilib o'tilgan sobiq Ittifoq respublikalariga ham yuklatildi, ammo muzokaralarda to'liq ishtirok etish Rossiyani huquqiga aylandi. Qolgan respublikalarga o'z hududida qolgan qurollarni tezroq tugatish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Ommaviy qirg'in qurollariga, yadro qurollaridan tashqari, kimyoviy va biologik (bakteriologik) qurollar ham kiradi. Biologik qurollar butunlay taqiqlangan, uni nafaqat urushda qo'llash, balki ya-

ratish, ishlab chiqish va to'plash ham mumkin emas, zahiradagilari esa yo'q qilinishi yoki tinchlik maqsadida ishlatilishi kerak (bakteriologik (biologik) va zaharli qurollarni yaratishni, ishlab chiqish va zahiraga to'plashni taqiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risidagi 1972-yilgi Konvensiya).

1925-yildan boshlab urush olib borishda kimyoviy qurollarni ishlatish noqonuniy deb hisoblanadi (Urushda bo'g'uvchi, zaharlovchi va boshqa shunga o'xshash gazlar va bakteriologik vositalarni qo'llashni taqiqlash to'g'risidagi 1925-yilgi Protokol).

1997-yilning 29-apreldan kimyoviy qurollarni ham butunlay taqiqlash amal qila boshladi. Bu 1993-yili imzolangan Kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqish, zaxiraga to'plashni va qo'llashni taqiqlash hamda uni yo'q qilish to'g'risidagi Konvensiya kuchga kirgani-dan so'ng sodir bo'ldi.

Universal norma ommaviy qirg'in qurollariga teng keluvchi, vayrongarchiliklarni keltirib chiqaradigan, tabiatga ta'sir qiluvchi va har qanday harbiy yoki boshqa zararli vositalardan foydalanishni taqiqlaydi (Tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi har qanday harbiy yoki boshqa zararli vositalardan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi 1977-yilgi Konvensiya).

Yevropa davlatlari Yevropa hududida ma'lum kelishuvlar asosida keng miqyosda hujum harakatlarini boshlash va qo'qqisdan hujum uyushtirishga imkon bermaydigan darajada o'zlarini oddiy qurol va harbiy texnikalarni qisqartirish majburiyatini olganlar (Yevropada oddiy qurolli kuchlar to'g'risidagi 1990-yilgi Shartnoma). Bundan tashqari, qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibini cheklash choralari ham mavjud (Yevropadagi oddiy qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibining soni to'g'risidagi 1992-yilgi Vena muzokaralarining yakunlovchi akti), shuningdek 1999-yili YXHTning Istanbul sammitida Yevropada qanotlar bo'yicha cheklash to'g'risida Shartnoma qabul qilindi. Ushbu sammitda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov YXHTning yuqori minbaridan turib nutq so'zladi. O'z nutqida Prezidentimiz Yevropa xavfsizligi, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligining yangi modeli to'g'risida fikr bildirdi.

Qurolli kuchlarni va qurol-aslahalarni cheklash va qisqartirish bilan birga, qurolsizlanish maqsadlariga hududlarni neytrallashtirish va demilitarizatsiyalash yo'li bilan ham erishish mumkin.

Qurolsizlantirish (demilitarizatsiya) – bu ma'lum hudud yoki makonda o'rnatilgan xalqaro-huquqiy tartib bo'lib, bu joydan tinchlik davrida harbiy maqsadlar uchun foydalanish shartnomaga ko'ra taqiqlanadi. Bunday chora o'sha joydagi harbiy istehkom va inshootlarni yo'q qilishni nazarda tutadi va u erda qurolli kuchlarning joylashishini taqiqlaydi.

Neytrallashtirish deganda ma'lum hudud va makonda harbiy harakatlar olib borilishi va bu joydan harbiy operatsiyalarda baza sifatida foydalanilishi shartnoma asosida taqiqlanishi tushiniladi. Neytrallashtirishdan maqsad – neytrallashtirilgan hududda urush boshlanib ketishining oldini olish yoki o'sha hududga yaqin joyda urush harakatlarining oldini olish yoki neytrallashtirilgan hududda harbiy harakatlar boshlanib ketishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Qurolsizlantirilgan va neytrallashtirish amalga oshirilgan hududlarga misol tariqasida Yer sharining Antarktika qismini ko'rsatishimiz mumkin. Ommaviy qirg'in qurollarining barcha turlariga nisbatan qisman demilitarizatsiyaga misol qilib shunday qurollarni dengiz tubiga joylashtirish va o'rnatishning taqiqlanganini ko'rsatishimiz mumkin. To'liq yoki qisman yadroviy demilitarizatsiya va neytralizatsiyaning aniq shartnomaviy-huquqiy choralari Lotin Amerikasi, Tinch okeanining janubiy qismi, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikada o'rnatilgan, boshqacha aytganda, u yerlarda yadrosiz zona barpo qilingan. Ular tomonidan o'rnatilgan rejimning samarali amal qilishi Yerning janubiy yarim sharida yadrosiz zonalar paydo bo'lishiga olib keldi. Markaziy Osiyoda ham Prezidentimiz I.A. Karimovning sa'y-harakatlari bilan yadroviy quroldan holi zonani barpo etish davom etmoqda.

Qurolsizlanish va qurollanishni cheklash choralariga xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash choralari tutashib ketadi. Xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash choralari maxsus, shartnomaviy yoki boshqa shakllarda bo'lishi mumkin va bunda bir tomonning harakati ikkinchi tomonga hech qanday ziyon yetkazmasligiga ishonch tug'ilishi kerak.

Xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash choralari qurolsizlanish choralari bo'lmasa-da, bu choralar qurolsizlanish uchun sharoit tug'dirib berishi mumkin, bunday choralar ochiq muzokaralar olib borish uchun qulay sharoit yaratib beradi va boshlangan muzokaralarning

muvaffaqiyatli tugashiga ko‘maklashadi. Vujudga kelishida xavfsizlik va ishonch choralari tomonlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash, dengizda suzish xavfsizligini ta‘minlash uchun xizmat qilgan bo‘lsa, hozirga kelib harbiy faoliyat haqida axborot olish, harbiy faoliyat o‘tkaziladigan joylarga kuzatuvchilar guruhini jo‘natish, havodan kuzatish olib borish imkoniyatini yaratib bermoqda. Qurol-aslahalarni qisqartirish va cheklash choralari to‘g‘risidagi shartnomalar asosida tuziladigan organlar ishonchni mustahkamlash funksiyalarini ham bajaradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro xavfsizlik huquqi tushunchasi va uning tarixiy shakllanishini ta‘riflab bering.*
2. *Xalqaro xavfsizlikning darajalari qanday?*
3. *Xalqaro xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy mexanizmlari nimadan iborat?*
4. *O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi sa‘y-harakatlari to‘g‘risida so‘zlab bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. – Т.: Шарк, 2005.
2. Всеобъемлющая международная безопасность. Международно-правовые принципы и нормы / Отв. ред. Б.М. Клименко. – М., 1990.
3. Гафуров С.М. Национальная, региональная и глобальная безопасность: роль и место государств Персидского залива и Республики Узбекистан. – Т.: Изд-во «Zarqalam», 2005.
4. Гафуров С. М. Хавфсизлик стратегияси: Марказий Осиё ва Форс кўрфази давлатлари амалиёти: Монография. – Т.: Алишер Навоий номли Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти, 2007.
5. Денисов В.Н. Правовые аспекты разоружения в ракетно-ядерную эру. – Киев, 1990.
6. Ермошин В.В. Проблемы войны и мира в политико-правовых учениях нового времени – М., 1989.
7. Касенов У.Т. Безопасность Центральной Азии: глобальные, региональные и национальные проблемы. – Алматы: Университет «Кайнар», 1998.
8. Кортунув А., Смоук Р. и др. Взаимная безопасность. – М.: Международные отношения, 1991.

9. *Материалы международной конференции «ShOC и проблемы безопасности в Центральной Азии».* – Алматы, 2005.
10. *Мир и разоружение. Научные исследования.* 1984 / Глав. ред. акад. П.Н. Федосеев. – М.: Наука, 1984.
11. Осипов Г.А. *Международно-правовые вопросы контроля за ограничением вооружений и разоружения.* – М.: Наука, 1990
12. Петровский В. Ф. *Безопасность в ядерно-космическую эру.* – М., 1985.
13. Рахманов А.Р. *Проблемы безопасности на национальном, региональном и глобальном уровнях (международно-правовые аспекты).* – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
14. Рахманов А.Р. *Право международной безопасности.* – Т.: ТГЮИ, 2005.
15. Рошиц А.А. *Международная безопасность и ядерное оружие.* – М., 1980.
16. Скакунов Э.И. *Международно-правовые гарантии безопасности государств.* – М., 1983.
17. Собакин В.К. *Равная безопасность.* – М., 1984.
18. Тимербаев Р.М. *Контроль за ограничением вооружений и разоружением.* – М., 1983.
19. Тузмухамедов Р.А. *Зоны мира* – М., 1986.
20. «Ўзбекистон Республикаси миллий хавфсизлик муаммолари ва баъқарор ривожланиш шартлари» мавзусидаги тўртинчи илмий-амалий конференцияси материаллари / Масъул муҳаррир А. Файзуллаев. – Т.: ЖНДУ. 2004.

17-bob. XALQARO GUMANITAR HUQUQ

1. *Gumanitar huquq institutining vujudga kelishi va rivojlanishi.*
2. *Xalqaro gumanitar huquqning manbalari.*
3. *Qurolli mojarolar davrida qo'llaniladigan gumanitar huquqning asosiy normalari.*
4. *Xalqaro qurolli mojarolar va xalqaro bo'lmagan (ichki) mojarolar.*
5. *Betaraflikning xalqaro-huquqiy jihatlari.*
6. *Urush olib borish qoidalariga rioya qilish.*
7. *Urushni olib borishda umumiy xarakterdagi cheklashlar.*
8. *Urush olib borish usullari va vositalarini tanlashdagi cheklashlar.*
9. *Noharbiy obyektlar va aholini himoya qilish.*

1. Gumanitar huquq institutining vujudga kelishi va rivojlanishi

Dastlabki gumanitar normalar qachon va qayerda paydo bo'lganligi to'g'risida hujjatli ma'lumotlarni topishning deyarli iloji yo'q. Shu jumladan, «gumanitar huquq» tushunchasining muallifi kimligini ham hech kim ayto olmaydi. Davlatlar paydo bo'lishiga qadar qabilalar, urug'lar, u yoki bu sardorlarning tarafdorlari o'rtasidagi urushlar mobaynida ham dushmani to'liq tor-mor qilish nazarda tutilmagan, qisman bo'lsa-da, zo'ravonlikni kamaytirish maqsadidagi qoidalar mavjud bo'lgan. Bunday qoidalarni hozirgi zamon xalqaro gumanitar huquqining barcha sohalarida uchratish mumkin. Ko'pgina hollarda, ularni asosiy adabiy yodgorliklarda (masalan, hind eposi «Mahabhorat»da), diniy bitiklarda (Qur'on, Injil) yoki harbiy san'at bo'yicha tavsianomalarda (qadimgi hind bitiklarining to'plamlari Manu qonunlari va O'rta asrlardagi yapon samuraylarining kodeksi Bushidoda) topish mumkin. O'rta asrlarda Yevropada ritsarlar jang olib borishning qat'iy qoidalarini o'rnatdilar, bu ular uchun foydadan holi bo'lmadi. Ritsarlik qoidalari bizning kunlarimizgacha yetib kelgan. Asirga tushganlar taqdirini hal qilish bo'yicha kelishuvlar tomonlar tarafidan qadimdan olib borilgan bo'lib, bugungi kundagi bitimlarga asos bo'ldi. Shunday qilib, butun dunyoda hokimiyatga ega bo'lgan hukmron-

lar, diniy ulamolar, olim-u fozillar va harbiy sarkardalar urushlarning og'ir oqibatlarini barcha uchun majburiy bo'lgan normalarni kiritish yo'li bilan kamaytirishga harakat qilganlar.

XIX asrda Yevropada nimaga erishilgan bo'lsa, bunday boy tarixiy tajribani hisobga olgan holda, uni baholash lozim. Bugungi kundagi universal, asosan yozilgan xalqaro gumanitar huquq ikki inson nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular A. Dyunan va F. Liberlardir¹. Ular jang maydonida ko'rganlaridan juda chuqur ta'sirlanganlar.

Taxminan bir vaqtning o'zida, bir-birining mavjudligidan xabarsiz holda, Dyunan va Liber xalqaro gumanitar huquqning mazmuni va konsepsiyasiga hal qiluvchi ulush qo'shganlar. Bu ikkala mutafakkir tomonidan amalga oshirilgan ishning muhimligini ta'kidlar ekanmiz, urush qurbonlarini himoya qilish zarurligi to'g'risidagi fikrlar ulargacha mavjud bo'lganligini ham qayd etib o'tishimiz lozim. Ular buni yangi zamonga mos shaklda izohladilar. Dyunan va Liberning ikkalasi ham bu fikrga 1862-yili Jan Jak Russo tomonidan chop etilgan «Ijtimoiy shartnoma to'g'risida»gi: «Urush – bu odamlar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, bunda odamlar tasodifan bir-biriga insoniy mavjudot yoki fuqaro sifatida dushman bo'lib qoldilar...» traktatini asos qilib olganlar. Russo xulosa qilib shunday deydi: «Askarlar bilan ular urushayotganlarida jang qilish mumkin. Agar ular qurollarini tashlasalar, yana oddiy insonlarga aylanadilar». Ularni avf etish zarur².

Russo xalqaro gumanitar huquqni tashkil etuvchi asosiy prinsipni shakllantirdi: harbiy yurishdan maqsad dushmanni jismonan butunlay yo'q qilish emas. Bu bilan u farqlash mezonini o'rnatdi, ya'ni bir tomondan – harakatdagi armiya harbiy xizmatchilarining nima qilish kerakligi bo'lsa, boshqa tomondan – harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan dushman davlatning qolgan fuqarolari to'g'risida. Kuchni faqat askarlarga nisbatan qo'llash mumkin, chunki urushning maqsadi dushmanning qurolli kuchlari ustidan g'alaba qozonish bo'lib, uning xalqini qirmaslik lozim. Lekin dushman askarlariga nisbatan ular qarshilik ko'rsatgunlariga qadar kuch ishlatish mumkin. Qurolni tashlagan yoki yaradorligi tufayli buni bajarishga iloji yo'q bo'lgan har qanday askar dushman hisoblanmaydi, ya'ni hozirgi zamon gumanitar huquqi tilida aytadigan bo'lsak, harbiy hujum obyekti bo'lmaydi. Har

¹ Hartigan R. Sh. *Liebers Code and the laws of War.* – Chicago, 1983. – P. 112.

² Russo Ж. Ж.. *Об общественном договоре.* Книга I, глава IV.

qanday holatda oddiy askardan qasos olish mantiqsizdir, chunki mojarolarning kelib chiqishiga u shaxsan javobgar emas.

Shunday qilib, XIX asrda xalqaro gumanitar huquq vujudga kelishi uchun asos solingan. Anri Dyunan shunga tayangan. U o'zining «Solferino to'g'risidagi eslashlar» nomli kitobida yaradorlarga nisbatan yomon munosabatda bo'lish yoki himoyasiz odamlarni o'ldirish holatlarini tasvirlagan. Uni chuqur hayajonga solgan narsa yaradorlar va o'layotganlarga hech qanday yordam berilmasligi bo'ldi. Shuning uchun u aniq harakatlarni talab etiladigan ikkita amaliy taklif bilan chiqdi: jang maydonida tibbiyot xodimlariga maqomi statusi berilishi va urush vaqtida yaradorlarga amaliy yordam berishni doimiy tashkil etish to'g'risida xalqaro bitimni tuzish. Birinchi taklif 1864-yilgi I Jeneva konvensiyasining qabul qilinishiga, ikkinchisi esa – Qizil xochning tashkil topishiga olib keldi.

2. Xalqaro gumanitar huquqning manbalari

1949-yil 12-avgustda Shveysariya Konfederatsiyasi – Jenevaga taklif qilingan 48 davlat vakillari (Jeneva konvensiyalari depozitariysi) bir ovozdan urush qurbonlarini himoyalash to'g'risidagi to'rtta Konvensiyani qabul qildilar¹. Bu konvensiyalar urush davrida to'planagan o'z malakasiga tayangan Xalqaro qizil xoch Qo'mitasi (XQXQ) tashkil qilgan maslahatlashuvlarning davomiy natijasi bo'ldi. Konvensiyalarni ishlab chiqishda nafaqat huquqshunoslar va harbiy mutaxassislar, balki Qizil Yarim oy harakati vakillari ham ishtirok etdilar. 1949-yil 12-avgustdagi to'rtta Jeneva konvensiyalari 1929-yilgi va qisman IV Gaaga konvensiyalarining o'rmini egalladi². Ushbu Konvensiyalardan uchtasi juda yaxshi ma'lum bo'lgan masalalar – yaradorlar va bemorlar, dengiz halokatiga uchragan jabrlanuvchilar va harbiy asirlarga bag'ishlangan.

Lekin IV Konvensiya dushman hukmronligida qolgan shaxslarni zo'rvonliklardan himoya qilishni ta'minlashga bag'ishlangan. Uning eng asosiy bo'limi bosib olingan hududlarga tegishli. Ikkinchi jahon urushi davrida, hammamizga ma'lumki, bosib olingan hududlarda fu-

¹ Boissier P. History of the International Committee of the Red Cross: from Solferino to Tsushima. – Geneva, 1985. – P. 209.

² Final Record of the Diplomatic Conference of Geneva, 3 vols.

qarolar, aholiga nisbatan juda ham dahshatli jinoyatlar sodir etilgan. IV Jeneva konvensiyasi esa xalqaro hamjamiyat bundan to'g'ri saboq olganligidan dalolat beradi. 1949-yilgi konvensiyalar katta ahamiyatga ega, chunki shundan so'ng fuqarolik urushlari qurbonlarining gumanitar huquqlarini himoya qilish keng tarqala boshladi.

Keyingi yillarda Jeneva konvensiyalari keng e'tirof etilgan xalqaro kelishuvlarga aylandi. Hozirgi kunda 187 davlat – deyarli butun xalqaro hamjamiyat – ularga rioya qilish majburiyatlarini olgan (1999-yil 31-dekabr gacha bo'lgan ma'lumot).

Shunday bo'lsa-da, 1949-yildan keyingi yillar tinchlik olib kelmadi. Bu davr mobaynida son-sanoqsiz mojarolar sodir bo'ldi.

Masalan, Afrika va Osiyoda kechgan mustamlakachilikdan ozod bo'lish jarayoni ko'pincha to'qnashuvlar bilan o'tdi. Kuchsizlar (moddiy tomondan) va kuchlilar (harbiy tomondan) o'rtasidagi kurashda an'anaviy usullarda urush olib borishdan boshqacha (partizanlar urushi) bo'lgan usullardan foydalanildi. Shu bilan birga, qurollanish orqasidan to'xtovsiz quvish yangi texnologiyalarga asoslangan arsenalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday qurollarni qo'llash, birinchi navbatda, yadro qurolini qo'llash xalqaro gumanitar huquqi prinsiplarining barchasini shubhasiz chippakka chiqaradi.

Lekin XX asrning ikkinchi yarmi inson huquqlari tantanasi sifatida xarakterlanadi. Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risidagi Konvensiya, Qochoqlar to'g'risidagi Konvensiya, Inson huquqlari to'g'risidagi BMTning xalqaro paktlari – bularning barchasi insonlarning xalqaro-huquqiy himoyalanihini mustahkamladi. Xalqaro gumanitar huquq, tabiiyki, ushbu o'zgarishlarga e'tiborsiz qolmadi.

Agar 1949-yilda qabul qilingan Konvensiyada eng muhim masala, noharbiy aholini urush ta'sirlaridan bevosita himoya qilish to'g'risida amaliy hech nima aytilmaganligini esga olsak, nima uchun YXHK 70-yillarga kelib hukumatlar e'tiboriga ikkita yangi shartnomani ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritganligi tushunarli bo'ladi. 1974-yildan 1977-yilgacha Jenevada o'tkazilgan qurolli mojarolar davrida qo'llaniladigan xalqaro gumanitar huquqni rivojlantirish va tasdiqlash masalasi bo'yicha Diplomatik konferensiyada, 1977-yil 8-iyunda Jeneva konvensiyalariga ikkita Qo'shimcha prokoto'l qabul

qilindi¹. I Protokol yangi normalardan iborat bo'lib, ular gumanitar huquqning, xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli mojarolariga tegishlidir. 1949-yilgi to'rtta Jeneva konvensiyalari o'zgarishsiz qoldi, lekin Qo'shimcha protokollar bilan to'ldirildi.

Diplomatik konferensiyada 102 ta davlatning vakillari va bir necha milliy-ozodlik harakatlari ishtirok etdi. Konferensiya ishtirokchilarining munosabatlaridagi o'zaro qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar barcha xalqlarni birlashtiruvchi jahon hamjamiyatidagi holatni yaxshi namoyon qilar edi. Agar 1949-yilgi Konvensiyani qabul qilgunga qadar xalqaro gumanitar huquq, shubhasiz, Yevropa falsafiy yo'nalishlariga asoslangan bo'lsa, 1977-yilda Qo'shimcha protokollarni qabul qilishda bunday deb bo'lmasdi.

Ushbu Qo'shimcha protokollarning matni, umum qabul qilingan gumanistik maqsadlarga sodiq qolingan holda, Yevropacha bo'lmagan yondashuv ta'sirida belgilangan. Qo'shimcha protokollar «uchinchi dunyoda» gumanitar huquqning tasdiqlanishi imkoniyatini beradi².

Ikkala Protokol ham eng kam himoyalangan shaxslarni himoyalash samaradorligini oshirishga imkon beradi. I Protokol 119 davlat tomonidan, II Protokol esa 109 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Xulosa qilish mumkinki, ushbu Qo'shimcha protokollar, xuddi Jeneva konvensiyalari singari, universal xalqaro-huquqiy hujjatlarga aylanadi. Protokollar birinchi shartlashgan ikki davlat uchun 1978-yil 7-dekabrda, boshqa barcha ishtirokchilar uchun esa – ratifikatsiya qilingan yoki ularga qo'shilgandan olti oydan keyingina kuchga kiradi.

I Protokol Jeneva va Gaaga huquqini kengroq bayon qiladi. Oxir-oqibatda harbiy harakat qurbonlariga yordam berishning o'zigina yetarli emasligi haqidagi qarashlar yutib chiqdi. Fuqaroviy aholini himoya qilish to'g'risidagi IV Jeneva konvensiyasi va I Protokolning qabul qilinishi bilan Jeneva huquqi urush oqibatlari borasida katta qadam qo'ydi.

1949-yildan keyingi davr mobaynida, Qo'shimcha protokollardan tashqari, boshqa yangiliklar ham paydo bo'ldi. Ular urush vaqtida tinchlik obyektlari va shaxslarni xalqaro huquqqa mos ravishda himoya qilish borasidadir. Ulardan biri 1954-yil 14-mayda qabul qi-

¹ Aldrich G. New life for the laws of war // American Journal of International Law. – New York, 1981. – № 75. – P. 764-783.

² The New Humanitarian Law of Armed Conflict. – Naples, 1983. – P. 29.

lingan Qurolli mojaro sodir bo'lganda madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya hisoblanadi.

Ushbu Konvensiya asosida va Jeneva konvensiyalarining kuchli ta'siri ostida, o'ziga xos «Madaniy qadriyatlar Qizil xochi» tashkil etildi. Uning bajarilishi ustidan nazorat YUNESKOga yuklatildi.

Yana shuni ko'rsatib o'tish lozimki, 1972-yilning 10-aprelida Bakteriologik (biologik) va toksin qurollarni yaratish, ishlab chiqish, zahiralashni taqiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risida Konvensiya qabul qilindi. Bu Konvensiya Bakteriologik qurollarni taqiqlash nazarda tutilgan 1925-yilgi Jeneva protokolidagi taqiqlarni kuchaytirdi. Kimyoviy qurollar to'g'risidagi 1993-yilgi Konvensiya nafaqat undan foydalanish, balki uni ishlab chiqarish va unga egalik qilishni taqiqlaydi.

Tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi har qanday harbiy yoki boshqa zararli vositalardan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi Konvensiyaning (1976-yil 10-dekabrda) asl mohiyati tabiiy atrof-muhitga nisbatan yangi usuldagi harbiy harakatlar ta'sirining oldini olishdir. Ushbu konvensiyalarning barchasi BMT doirasida qabul qilingan.

Va nihoyat, 1980-yil 10-oktabrdagi uchta Protokolli, O'ta og'ir talofat ko'rsatadigan yoki tanlovsiz harakatga ega oddiy qurollarning aniq turlarini qo'llashni cheklash yoki taqiqlash to'g'risidagi Konvensiyani esga olmasdan o'ta olmaymiz. Ushbu Konvensiyaning qabul qilinishi o'ta dahshatli qurol turlaridan foydalanishni chekladi. Shunday qilib, Gaaga huquqining umumiy holatlari va I Qo'shimcha Protokolning 35-moddasi konvensiyada qo'llaniladigan taqiqlarning aniq shakllari orqali bayon qilingan. Uchta Protokol yondiruvchi qurollar, minalar va topib bo'lmaz oskolkalarga taalluqli bo'lib, Konvensiyaning shartlashgan tomonlari talablariga ko'ra har qanday vaqtda yangi Protokollar bilan to'ldirilishi mumkin.

Gumanitar huquq konvensiyalarining bunday ro'yxatini ko'ra turib, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, urush qurbonlarini himoyalash normalari faqat shartnomalar, ya'ni yozma matnlar bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Davlatlar o'rtasidagi shartnomalar hozirgi kunda xalqaro huquq va majburiyatlarning umum qabul qilingan manbalari bo'lsa-da, lekin yozilmagan qonunlar, ya'ni muhim tamoyil va normalardan tashkil topgan odat huquqining o'rnini bosa olmaydi. 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarining butun bir bo'limlari odat huquq-

qiga asoslanadi¹. Shartnomaviy huquq va odat huquqi shuning uchun parallel rivojlanishi mumkin. Agar davlatlar, masalan, qaysidir bir shartnoma normasi bo'yicha kelisha olmaganlarida, ayrim hollarda odat huquqi ishga tushadi.

3. Qurolli mojarolar davrida qo'llaniladigan gumanitar huquqning asosiy normalari

Hozirgi kunda qurolli mojarolar davrida qo'llaniladigan gumanitar huquqning umumiy normalari ishlab chiqilgan. Ushbu normalar yoki prinsiplar qurolli mojarodagi barcha tomonlar uchun majburiy hisoblanadi. Agar bu normalar shunchaki qayd qilib o'tilsa, ular quyidagilarga olib keladi:²

1. Safdan chiqqan shaxslar, shuningdek, harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmayotgan shaxslar, asosan, fuqaroviy aholi, ularning yashash huquqi hurmat qilinishiga, bundan tashqari, jismoniy va ruhiy daxlsizlikka egadir. Barcha hollarda ular himoya va insoniy munosabatdan foydalanishlari shart.

2. Harbiy harakatlarda ishtirok etishni to'xtatgan yoki asirga tushayotgan dushmani tor-mor qilish yoki o'ldirish taqiqlanadi.

3. Qaysi tomonda bo'lishidan qat'iy nazar, yaradorlar va kasallar qutqarilishi hamda ularga yordam berilishi shart. Tibbiyot personalisi, tibbiyot muassasalari, transport vositalari va anjomlari himoya ostiga olinadi. Qizil xoch emblemasi (Qizil yarim oy yoki Qizil arslon va quyosh) shunday himoya belgisi hisoblanadi va hurmat qilinishi shart.

4. Jangovar harakat ishtirokchilari (kombatantlar) va fuqaroviy shaxslar asir olinganida va dushman qo'l ostida bo'lganida, ular yashash huquqiga, qadr-qimmatga, shaxsiy huquqlarga egadirlar. Ular har qanday zo'ravonlik va qirg'inbarot harakatlardan himoyalangan bo'lishi shart. Ular yordam olish va o'z oilalari bilan aloqa qilish uchun xat yozishib turish huquqiga ega bo'lishlari shart.

5. Har kim asosiy sud kafolatlari huquqiga ega. Hech kim sodir etmagan harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

¹ Meron Th. The Geneva Conventions as Customary Law // American Journal of International Law. – New York, 1987. – № 81. – P. 48.

² International Review of Red Cross, 1978. – P. 28.

Hech kim jismoniy yoki ruhiy qiynoqlarga, tan jazosiga, zulmli va kamsituvchi munosabatda bo'lishga loyiq emasdir.

6. Mojaralarda tomonlarning va ularning qurolli kuchlari huquqlari, urush olib borish vositalari va uslublarini tanlashda chegarasiz emasdir. Juda ham katta talofat va o'ta og'ir azob-uqubatlar keltiradigan urush harakatlarini olib borish uslublari va qurollarini qo'llash taqiqlanadi.

7. Fuqaroviy aholini va noharbiy obyektlarni himoya qilish uchun mojarodagi tomonlar har doim fuqaroviy aholi bilan harbiylar o'rtasida farq o'tkazishlari lozim. Hech bir fuqaroviy aholi, hech bir fuqaroviy shaxs bosqinchilikka uchramasligi shart. Hujumlar faqat harbiy obyektlarga qarshi olib borilishi lozim.

Ko'rib turibmizki, ushbu prinsiplar Jeneva va Gaaga huquqining asosiy qoidalarini o'z ichiga oladi. Bular qurolli mojarolar huquqining asosi hisoblanadi va jangovar harakatlarni olib borish mexanizmini belgilab beradi¹.

4. Xalqaro qurolli mojarolar va xalqaro bo'lmagan (ichki) mojarolar

Xalqaro gumanitar huquq ikki toifadagi qurolli mojarolarni tan oladi. Farq qiluvchi belgi sifatida bu yerda davlat chegarasi xizmat qiladi: *ikki yoki undan ortiq davlat o'rtasidagi urush xalqaro qurolli mojaro hisoblanadi, bitta davlat miqyosida sodir bo'ladigan qurolli to'qnashuv esa xalqaro bo'lmagan (ichki) qurolli mojaro deb ataladi.*

Jeneva konvensiyasining 2 umumiy moddasida shunday deyiladi: «Ushbu Konvensiya ikkita yoki bir nechta shartlashgan Yuqori Tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan har qanday qurolli to'qnashuvlar yoki urush e'lon qilinganda, tomonlardan biri urush holatini tan olmagan taqdirda ham qo'llanadi». Agar ikki yoki bir nechta davlat o'rtasida qurolli mojaro yuzaga kelsa, u holda urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligi va mojaralarda qatnashayotgan tomonlar urush holatini tan oladimi yoki yo'qmi – qat'iy nazar, xalqaro gumanitar huquq zudlik bilan harakatga tushadi. Gumanitar huquqni qo'llash uchun yagona shart bu qurolli mojaroning yuzaga kelishi hisoblanadi.

¹ Picket J. The Principles of International Humanitarian Law. – Geneva, 1997. – P. 54.

«Qurolli mojaro» yuzaga kelishining mezonlari nima? Bunda bizga konvensiyalar yordam bermaydi, chunki ularda bu tushuncha berilmagan. Shuning uchun bu borada davlatlarning boshidan kechgan amaliyotga murojaat qilishimiz mumkin, ya'ni bir davlatning boshqa davlat hududiga nisbatan har qanday kuch ishlatishi bu ikkala davlat orasidagi munosabatlarga Jeneva konvensiyasini qo'llash zaruratini vujudga keltiradi. Shu bois qurol qo'llanganligi aniqmi, u qonunchilik va tartibni tiklash uchun yo'naltirilganmi yoki ochiq agressiya uchun foydalanilganmi – bu ahamiyatli emas. Bosqinchilikda qolgan tomonning qarshilik ko'rsatish-ko'rsatmasligining ham ahamiyati yo'q. Xalqaro gumanitar huquq nuqtayi nazariga ko'ra, Konvensiyani qo'llash masalasi amalda juda oddiy hal etiladi: biror davlatning harbiy kuchlari qo'lga boshqa davlatning harbiy asirlari, yaradorlari yoki fuqarolari tushgan vaqtdan boshlab yoki dushman davlat hududining bosib olingan qismi ustidan nazorat o'rnatilgan vaqtdan boshlab, shu zahoti Konvensiya normalariga rioya qilish lozim. Yaradorlar va harbiy asirlar soni hamda bosib olingan hudud maydoni ahamiyat kasb etmaydi, chunki himoya qilish zarurati sanoqli mezonlarga bog'liq emas. Amaliyotda gohida ichki mojarolarda xalqaro gumanitar huquqni qo'llash borasida turli fikrlar (qarashlar) mavjud. Bunda yagona mezon sifatida zo'ravonlik darajasi va uning qurbonlarining himoyaga muhtojligi hisoblanadi. Lekin ko'pincha davlatlar bunday holatlarga o'zlarining ichki muammosi deb qaraydilar va muhokamaga qo'yishni istashmaydi.

Gohida janglar bo'lishiga qaramay, tomonlardan biri mojaroda xalqaro gumanitar huquqni qo'llashdan bosh tortsa, qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bunga Isroil davlati G'azo sektori va Irexon hududini bosib olib, Jeneva huquqini qo'llamasdan shu vaziyatni vujudga keltirgani misol bo'ladi. Boshqa bir hollarda, qo'shinlar boshqa davlat hududiga olib kirilganida, uning hokimiyati yangi hokimiyat bilan almashish holati ham sodir bo'ladi. Yangi hukumat bundan keyin xalqqa qarata chet el qo'shinlari do'stlik yordamini berishayotgani va shuning uchun ular bilan kelishgan holda harakat qilayotganini uqtiradi, masalan, sobiq SSRIning baynalminal kuchlari Afg'onistonga kiritilishi iltimosga ko'ra aralashuvmi yoki bosib olish (okkupatsiya)mi degan o'rinli savol tug'iladi.

Har bir aniq holatda mojaroda ishtirok etayotgan tomonlarga qanday qilib xalqaro gumanitar huquqni qo'llash lozimligini tan ol-
dirish mumkin? Avvalambor, bunday qaror BMT Xavfsizlik kengashi
tomonidan kiritilishi kerak. Amaliyotda gumanitar huquqning qo'l-
lanilishini QXXT tasdiqlaydi va uning fikri e'tiborga olinadi. Ma'lum
bir davlatga uchinchi davlatlar ham ta'sir ko'rsata olishlari mumkin.
Xalqaro hamjamiyatning bunday tashabbusi zarur, shunda kon-
vensiyalar harakatda bo'ladi. Xalqaro nizolarni hal etish uchun xal-
qaro sudlarni tuzish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro gumanitar huquqni qo'llash mojarolar tugashi bilan
to'xtatiladi¹, boshqacha aytganda, har bir konvensiyaning qo'llanishi
unga taalluqli bo'lgan barcha gumanitar muammolar hal qilinganidan
so'ng yakunlanadi. Amaliyotda bu barcha harbiy asirlarni o'z vataniga
qaytarish (repatriatsiya qilish), barcha fuqarolarni va bosib olingan hu-
dudlarni ozod etishni anglatadi.

*Xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli mojarosi deb, davlat
hududi miqyosida sodir bo'lgan, bir tomonda davlat va boshqa
tomonda bosh ko'targan qurolli guruhlarining qurolli to'qnashuviga
aytiladi.* Ushbu guruhlariga kiruvchi shaxslarni – qo'zg'olonchilarni,
inqilobchilarni, ozodlik uchun kurashuvchilarni, terroristlarni –
qaysi nom bilan atamaylik, ular hokimiyatni egallash yoki davlat
miqyosida keng avtonomiyaga ega bo'lish maqsadida urushadilar.
Bunday mojarolarning yuzaga kelish sabablari har xil, lekin mam-
lakatda tinchlikning buzilishiga ko'pincha milliy kamchilikning hu-
quqlari buzilishi yoki diktatorlik rejimi tomonidan boshqalarning hu-
quqlari poymol qilinishi sabab bo'ladi. Boshqa hollarda turli guruh-
larning hokimiyat uchun kurashlari natijasida boshqaruv hokimiyati
to'la bartaraf etiladi. Ushbu ma'noda odatda davlat ichidagi kuchlar
ziddiyati to'g'risida so'z boradi, qaysiki xalqaro mojarolar va natijasi
ham bo'lishi mumkin.

Davlat miqyosida kechayotgan voqealarga xalqaro e'tibor juda
zudlik bilan hukumatlarning kuchli qarama-qarshiliklariga duch kela-
di, chunki ular ichki muammolar boshqalarning aralashuvizisiz hal qi-
linishi lozim deb hisoblaydilar. Bunda masala davlat suverenitetining

¹ I, II va III Jeneva konvensiyalarining 5-moddasi va IV Jeneva konvensiyasining 6-mod-
dasi.

xalqaro hamjamiyatdagi ahamiyatiga bog'liq. Hukumat qarashlariga ko'ra, ichki muammolarni hal qilish huquqi suverenitetning asosiy belgisi hisoblanadi. Shuning uchun xalqaro gumanitar huquqni davlatning ichki to'qnashuvlari holatiga joriy etish bir qarashda juda qiyin ko'rinadi. Buning oldini olish uchun juda keskin sabablar kerak bo'ladi.

O'z hududida qonun va tartibni o'rnatish uchun davlatga kuch ishlatish huquqi beriladi. Xalqaro huquqda ichki mojarolarga nisbatan davlat suvereniteti cheklanmagan. Bu degani, davlatning vosita va uslublarni tanlash huquqi hozirgi kunda chegaralanmagan degani emas. Ushbu holatda quyidagi xalqaro gumanitar huquq normalari yuzaga keldi:

- 1949-yil 12-avgustdagi to'rtta Jeneva konvensiyasining 3-umumiy moddasi. Ko'pincha tilga olinadigan 3-modda 1949-yilgi olg'a siljishning muhim natijasi hisoblanadi. U AQSH va Nikaragua o'rtasidagi nizo bo'yicha 1986-yil 27-iyunda chiqarilgan BMT Xalqaro sudining qarorida ko'rsatilgan insoniylik prinsiplarining majmuasidan iborat. Shuning uchun 3-modda faqatgina xalqaro shartnomaviy huquq normalari sifatida emas, balki odat huquqining prinsiplari sifatida ham majburiy xarakterga ega. Bu so'zsiz *jus cogens* hisoblanadi. 3-moddaning normativ mazmuni chegaralangan: u harbiy harakatlarning bevosita oqibatlaridan insonlarni himoya qilish masalasiga tegishli bir nechta qoidadan iborat;

- 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalariga II Qo'shimcha protokol ushbu 28 moddadan tashkil topgan qisqacha hujjat 3-modda mazmunini kengaytirib beradi, fuqarolar urushi vaqtida gumanitar himoyani kengaytiradi. 3-modda Jeneva konvensiyalari ishtirokchilari uchun qo'llanadi va asosan II Protokolni ratifikatsiya qilmagan davlatlar uchun majburiy xarakterga ega.

O'z suvereniteti to'g'risida qayg'urish har bir davlatning gumanizm o'ylaridan ustun turishi ma'lum, shuning uchun ko'pchilik, bir qator qoidalar Protokol loyihasida yo'qligidan taajjub bo'lgan. Shunga qaramay, tasdiqlangan matnning e'tiborli tomoni shundaki, qaqshatqich siyosiy to'qnashuvlar va qizg'in tortishuvlardan so'ng bosh tortayotgan davlatlar tomonidan ham loyiha qabul qilindi. II Protokol normativ mazmunida orqaga chekindi, lekin «uchinchi dunyo» davlatlari uchun qulaylik tomoni bilan yutdi, chunki ularda inqiroz ro'y berish ehtimoli yuqoriroqdir;

- Odat huquqi. Hajmi bo'yicha xalqaro shartnoma huquqi bilan bir qatorda odat huquqi ham qo'llanilib, u ichki mojarolardagi zo'rliklarni cheklash uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugungi kunda 3-moddaning normativ mazmuniga odat huquqining bir qismi sifatida qarash lozim. Bundan tashqari, gumanitar huquqning bir qator normalarini 3-modda tomonidan qamrab olinmagan sohalar va qisman II Protokolning aniq qoidalari uchun ajratish bilan qo'llash mumkin.

Birinchi navbatda, bunga urush harakatlarini olib borish uslublari va vositalarining tanlovini cheklaydigan prinsiplar kiradi. Lekin odat huquqi normalari bilan ko'pincha uchraydigan holat, ya'ni ushbu prinsiplarni qo'llashni hujjat bilan asoslash oson emas, chunki mojaroda ishtirok etayotgan tomonlarning harakatlarini mukammal o'rganish va hisobga olish lozim;¹

- Mojaroda bo'lgan tomonlar o'rtasidagi maxsus bitimlar. Jeneva konvensiyalarining 3-moddasi fuqarolar urushida ishtirok etayotgan tomonlarni maxsus bitimlar tuzishga da'vat etadi. Bunda fuqarolar urushida xalqaro mojarolar uchun mos bo'lgan qoidalarni to'la yoki qisman qo'llash borasida gap boradi.

Yakunlashdan oldin shuni ta'kidlab o'tamizki, xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli mojarolar huquqining muhim xususiyati mavjud bo'lib, bu mojaroda hukumat va «kurashuvchi tomon»ning borligidir. Lekin xalqaro huquq davlat deb ataluvchi birlamchi subyekt uchun majburiy kuchga ega. Shuning uchun, kurashuvchi tomon xalqaro huquqqa mos huquq va majburiyatlar bilan ta'minlangan huquqiy maqomga ega bo'lishlari mumkin, basharti ular shu yo'sinda tan olingan bo'lsalar. Ammo bu holat ko'p yillar davomida sodir bo'lmagan. Biroq ham nazariy, ham amaliy nuqtayi nazardan, xalqaro gumanitar huquq kurashuvchi tomon majburiyat yuklatishi hech shubha uyg'otmaydi. Bu esa ularni tan olish masalasidan qochish imkonini beradi. Shuning uchun 3-moddada aniq aytilganki, uning qoidalarini qo'llash mojaroda bo'lgan tomonlarning yuridik maqomiga ta'sir etmaydi.

¹ Hans-Peter Gasser. *Armed Conflict within the Territory of a State: Some Reflections on the State of the Law Relative to the Conduct of Military Operations in Non-International Armed Conflicts*. Im Dienste an der Gemeinschaft (Festschrift Dietrich Schindler). – Basel, 1989. – P. 225.

5. Betaraflikning xalqaro-huquqiy jihatlari

Hozirgi zamon xalqaro huquqida betaraflikning (neytralitet) bir necha turlari mavjud. *To'liq betaraflik, ya'ni davlat betarafligi – uning harakatlari qurolli betaraflikdek alohida voqealar yoki faktlar bilan bog'lanmagan.* Shveysariya, Avstriya, Malta, Laos va Turkmaniston hozirgi kunda to'liq betaraf hisoblanadi.

Bu betaraflikning xususiyati shundaki, boshqa davlatlar ushbu davlatlarning betarafligini kafolatlashlari lozim.

Harbiy betaraflik, odatda ma'lum bir hududda harbiy harakatlar o'rin egallaganda vujudga kelishi mumkin. Bu holda ushbu mintaqadagi davlat harbiy betaraflikni e'lon qilishi mumkin, ya'ni bu betaraflikning harakati yuzaga kelgan mojaro davom etish vaqti bilan cheklangan bo'ladi. Urushda ishtirok etayotgan qolgan ishtirokchilar ushbu davlatning harbiy betarafligini hurmat qilishlari lozim. Harbiy betaraflikning doimiy betaraflikdan farqi shundaki, harbiy betaraflikka ega bo'lgan davlat harbiy harakatlarning har qanday bosqichida har qanday davlat tomonida turib harbiy harakatlarga qo'shilishi mumkin, doimiy betaraflikka ega bo'lgan davlatlar bunday harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega emaslar. Shuningdek, harbiy betaraf va harbiy harakatlarda ishtirok etmaydigan davlatlar tushunchalarini farq qilish kerak. Bular orasidagi farq shundaki, harbiy betaraflikka ega bo'lgan davlatlar alohida majburiyatlarga hamda qurolli mojaroda ishtirok etayotgan davlatlarga nisbatan bir qator huquqlarga ega. Qurolli mojaroda ishtirok etmayotgan davlatlar qurolli mojaroda qatnashayotgan hech bir davlatga nisbatan hech qanday majburiyatga ega emas. Ularning maqomi noaniq, ya'ni ular har qanday vaqtda o'z maqomini o'zgartirishlari mumkin.

Agar davlat o'z betarafligini e'lon qilsa, bu uning boshqa davlatlar o'rtasidagi mojaroda ishtirok etmasligini bildiradi. Betaraflik huquqi qoidalari o'ziga xos huquq va majburiyatlardan tashkil topadi, bu jang qilayotgan davlat va betaraf davlat o'rtasidagi munosabatlar bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda «harbiy mojaroda qatnashmaydigan davlatlar» haqida ham gap boradi, ular barcha shartlarga javob bermaydi va bu maqomga da'vogar bo'lmaydi. Lekin gumanitar huquq maqsadlari uchun ushbu farq ahamiyatli emas.

Shuningdek, gumanitar yordam bilan bog'liq shartnomalarda betaraf davlatlar yodga olingan. Masalan, yarador harbiy asirlar beta-

raf davlatning kasalxonalariga yuborilishi mumkin¹. Harbiy harakatlar hududidan evakuatsiya qilingan ota-onasiz bolalar betaraf davlat tomonidan qabul qilinishi mumkin².

Betaraflikka taaluqli Konvensiyalarda, shuningdek himoya ostiga olingan shaxslarning evakuatsiyasi yoki repatriatsiyasi bilan bog'liqliklar qayd etilgan. Yordamga muhtoj aholiga betaraf davlatlar o'z hududidan turib yordam ko'rsatishiga ruxsat beriladi. Bu turdagi operatsiyalar betaraflikning buzilishi sifatida qaralmaydi.

Va nihoyat, barcha betaraf davlatlar yoki mojaroda ishtirok etmaydigan davlatlar homiy davlat vazifasini bajarishi mumkin, shuningdek, ular qurolli mojaro davrida gumanitar huquqni saqlash borasida muhim o'rin egallaydi.

6. Urush olib borish qoidalariga rioya qilish

Har qanday huquqiy normaning mohiyati insonlar holatiga ta'sir qilishdir. Bunday instruksiyalar yoki cheklashlar, boshqacha so'z bilan aytganda – o'zini tutish normalari hayotga singib borishi kerak. Gumanitar huquq normalari uchun bu xuddi milliy qonunchilikdagi-dek, masalan, jinoyat kodeksi uchun yoki yo'l harakati qoidasi uchun bo'lganidek, to'g'ri keladi. Xalqaro gumanitar huquqqa nisbatan ushbu qoida, birinchi navbatda, suveren davlatlarga tegishli bo'lib, masalaning mohiyatini o'zgartirmaydi: norma majburiyatni keltirib chiqaradi.

Ichki qonunchilik va xalqaro huquq o'rtasidagi asosiy farq unga rioya qilish darajasida namoyon bo'ladi. Davlatlar o'zining hududida qonunlarni hayotga tatbiq qilish uchun mexanizmga ega bo'lsa (hukumat, sudlar, politsiya va hokazolar), ko'p sonli alohida davlatlardan tashkil topgan xalqaro hamjamiyat bir tomonda tursa, ikkinchi tomonda xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT turadi. Ularning barchasi xalqaro gumanitar huquqqa amal qilish uchun javobgardirlar. Lekin ularning ixtiyorida o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun cheklangan miqdorda vositalar mavjuddir.

Gumanitar huquqning o'ziga amal qilinadimi? Ro'znomalarga ishonadigan bo'lsak, huquqni hurmat qilish bilan bog'liq ishlarining

¹ III Jeneva konvensiyasining 109-moddasi, 2-band.

² IV Jeneva konvensiyasining 24-moddasi, I Qo'shimcha protokolning 78-moddasi.

ahvoli ayanchli. Ammo xulosa qilishga shoshmaylik: bizga doimo huquqning buzilishi haqida xabar berishadi, lekin huquq qoidalarining bajarilayotganligi haqida hech aytishmaydi. Axir, dushman yaradoriga kimdir yordam ko'rsatadi, harbiy asirlar bilan muvofiq ravishda munosabatda bo'linadi yoki harbiy harakatlar vaqtida fuqarolarga, aholiga shafqat ko'rsatiladi, gumanitar huquq normalari bajariladi. Qonunni bunday tusda hurmat qilish odatdagi hol bo'lib bormoqda va shunday bo'lishi ham kerak.

Gumanitar huquq faqatgina davlatlar o'rtasidagi shartnomalar, ichki jinoyat huquqi va harbiy buyruqlar talabi uchun bajarilibgina qolmay, huquqqa to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmagan boshqa omillar ta'sirida ham bajariladi. Huquqiy cheklashlardan tashqari, harbiy kuchlar harakatida, politsiya xizmati va davlat hokimiyatining boshqa organlariga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ham so'zsiz mavjud. Bunday omillarga siyosiy xarakterdagi voqelikni hisobga olish kiradi. Masalan, mojaralarda ishtirok etayotgan tomonlar shuni tushunadilarki, agar ularning qurolli kuchlari gumanitar huquqni buzishsa, unda boshqa tomon ham xuddi shu tarzda ish tutadi, shu sababli ular o'z fuqarolarini zo'ravonlikdan qutqarish uchun, o'z manfaatlari yo'lida qonunchilikka rioya etishadi. Gumanitar huquqqa rioya etish amaliyotda ko'proq darajada o'zarolikka asoslanadi. Siyosat tilida bu shuni anglatadiki, qurolli mojaralarda ishtirok etayotgan har qaysi tomon o'zining majburiyatlarini bajaradi, chunki boshqa tomon ham shunday harakat qiladi deb hisoblaydi. Gumanitar huquqqa nisbatan hurmat majburiy xarakterga ega bo'lishiga qaramay, uning buzilishiga o'zarolik yo'qligi o'zini oqlamaydi, chunki ikkala tomon o'zaro munosabatda bo'lishi gumanitar huquqning bajarilishiga katta turtki bo'ladi.

Gumanitar huquqning amal qilishiga xayrixoh bo'lgan yana bir omil bu jamoatchilik fikri hisoblanadi. Hech bir davlat hukumatiga ommaviy axborot vositalari orqali tanqid yoqmaydi, shuning uchun jamoatchilik fikri ham o'z davlatida, ham xalqaro darajada hukumatga ta'sir qila oladi.

Lekin, umuman boshqa sohaga tegishli bo'lgan yana bir masala bor. Harbiy nuqtayi nazardan qaraganda, bosqinchilik va o'g'irlik bilan shug'ullangan armiya nimaga loyiq ekanligini harbiy boshliqlar juda ham yaxshi biladilar. Boshqacha aytganda, gumanitar huquqni

hurmat qilish harbiy qismning jangovar tayyorgarligini tashkil etuvchi eng muhim tarkibiy unsurlardan biridir. Oddiy qilib aytganda, xalqaro gumanitar huquqqa rioya qilish oddiy majburiyat emas, u so'zsiz ravishda qurolli kuchlar qo'mondonligining manfaatlariga to'liq javob berishadi.

Gumanitar huquq amaliy sinovdan o'tishi shart, bo'lmasa uning keragi yo'q. Xalqaro gumanitar huquq urush bo'lmasligi uchun emas, balki uni ma'lum bir tartibga solish uchun xizmat qiladi. Huquq hozirgi kunda Jeneva konvensiyasi va ikkita Qo'shimcha protokol, harbiy qarashlarni e'tiborga oladi. Ko'pgina davlatlar tomonidan Jeneva huquqining qabul qilinishi buning isbotidir.

«Yuqori Shartlashgan Tomonlar har qanday sharoitda ushbu Konvensiya\Protokol shartlarini bajarish va ularga rioya qilish majburiyatini oladilar». To'rtta Jeneva konvensiyasi va I Protokolning umumiy 1-moddasida xuddi shunday deyiladi¹. Bundan kelib chiqadigan majburiyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

- mojaroli holatlar bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar, bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlar;

- qurolli mojarolar sodir bo'lganda mojarodagi tomonlar bajarishlari lozim bo'lgan majburiyatlar;

- gumanitar huquq bo'yicha majburiyatlar buzilgan hollardagi sanksiyalar;

- mojarolarga aloqasi bo'lmagan uchinchi davlatlarning roli: xalqaro gumanitar huquqqa rioya qilinmaganda kollektiv javobgarlik tushunchasi.

7. Urushni olib borishda umumiy xarakterdagi cheklashlar

Urush olib borish xalqaro huquq bilan mos tushmaydi. Lekin BMT Ustaviga ko'ra, davlatga qarshilik ko'rsatishga ruxsat beriladi, u har qanday vaqtda xalqaro gumanitar huquqning umumiy prinsiplariga bo'ysunishi lozim. Bu odat huquqi, shuningdek xalqaro shartnomaviy huquqda o'z aksini topgan. Shu bilan birga, 1868-yilgi Sankt-Peterburg deklaratsiyasini esga olish foydali, uning muqaddimasida huquqning harbiy harakatlarni olib borishga bag'ishlangan kengaytirilgan konsepsiyasi keltirilgan. Unda shunday deyiladi: «Sivilizatsiya muvaf-

¹ Jeneva konvensiyasi va I Qo'shimcha protokolning 1-umumiy moddasi

faqiyatlarining natijalari urushlar tufayli keltiriladigan talofatlarning kamayishiga olib kelishini e'tiborga olib;

Urush vaqtida davlatlarning yagona qonuniy maqsadi dushman tomonning harbiy kuchlarini harakatdan chiqarishdir;

Ushbu maqsadga erishish uchun imkoni boricha ko'proq odamlar sonini safdan chiqarish; dushmanlarga nisbatan shunday qurollardan foydalanish, buning natijasida yaradorlarning ahvoli og'irlashmasdan safdan chiqadi yoki o'limga maqsum bo'ladi, tan olish kerakki, bu yodga olingan maqsadga to'g'ri kelmaydi.

Bunday qurollardan foydalanish insoniyat qonunlariga zid keladi. Sankt-Peterburg deklaratsiyasi Liber kodeksi qatorida urush olib borishda cheklashlar kodifikatsiyasining birinchi qadami bo'ldi, bulardan keyin bir qator boshqa hujjatlar qabul qilindi. Bulardan eng muhimlari 1899- va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalari va eng asosiysi 1907-yilning 18-oktabrida qabul qilingan 4-Konvensiya hisoblanadi. 4-Konvensiya ushbu mazmunda eng muhim hisoblangan Quruqlikdagi urush odatlari va qonunlari haqida bo'lib, unga nizom ham birlashtirilgan. Ushbu Nizomning 22-moddasida shunday deyiladi: «Urush qilayotganlar qarama-qarshi tomonga zarar yetkazish vositalarini tanlashda cheklanmagan huquqlardan foydalanmaydilar».

Bir necha bor qayd etilganki, ikkala jahon urushi davridagi jangovar harakatlarning borishini baholashda asosiy huquqiy mezon sifatida Gaaga huquqi bo'lgan. Nyurnberg tribunali ta'kidlaganki, ushbu Nizom xalqaro odat huquqining tarkibiy qismi hisoblanadi va shuning uchun urush olib borayotgan davlatlar tomonidan bajarilishi majburiydir¹.

Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro gumanitar huquqni to'liq qayta ko'rib chiqish natijasi bo'lgan 1944-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalarida urushni olib borishga bevosita taalluqli bo'lgan bir nechta holatlar kiritilgan. «Urushning bir qator oqibatlaridan aholini himoya qilish to'g'risida»gi umumiy xarakterdagi holatlar IV Jeneva konvensiyasining II bo'limidan joy olgan va unda, masalan, fuqarolik kasalxonalari himoyasini va xavfsizlik zonalarini tashkil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Urush vaqtida aholiga tahdid soladigan xavflarni cheklash qoidalari Loyihasi 1956-yilda QXXT tomonidan chiqarildi, bunda

¹ Гассер Х.П. Международное гуманитарное право. – М., 1995. – С. 75.

QXXT urushlarni olib borishni cheklaydigan qoidalarning muhimligiga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi, lekin yangi konvensiyani tuzishga QXXTning harakatlari barvaqtlik qildi va buyuk davlatlarda hech qanday qiziqish uyg'otmadi, QXXT barcha kuchni harakatlar jaryonining boshlanishiga qaratdi va buninig birinchi natijasi BMTning Bosh Assambleyasi qabul qilgan rezolutsiya bo'ldi. «Qurolli mojarolar davrida inson huquqlarini hurmat qilish» nomli 1968-yil 19-dekabrda 2444 (XXIII) Rezolutsiya gumanitar huquqning kelgusi rivojlanishida hal qiluvchi o'rin egalladi.

1965-yili Venada Qizil Xochning 20-xalqaro konferensiyasida qabul qilingan Rezolutsiyadan keyingi BMT Rezolutsiyasi xalqaro gumanitar huquqning uchta asosiy prinsipini tasdiqladi. Rezolutsiya matnida ko'rsatilganki, qurolli mojaralarda qatnashayotgan hukumatlar va boshqa guruhlar ushbu rezolutsiyaga rioya qilishlari shart. Ushbu prinsiplarni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- mojaroda bo'lgan tomonlarning dushmanga talofat etkazish vositalarining tanlash huquqlari cheklanmagan hisoblanmaydi;
- fuqaroviy aholi ustiga bostirib borish taqiqlanadi;
- jangovor harakatlarda ishtirok etayotganlar va fuqaroviy shaxslar o'rtasida farq o'tkazish lozim, bu holat aholiga xavf tug'dirishning imkoni boricha oldini olishga qaratilgan bo'lishi lozim.

1974-1977-yillardagi Diplomatik konferensiyada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ushbu prinsiplarning bir ovozdan tasdiqlanishi xalqaro gumanitar huquqning kelajakdagi rivoji uchun poydevor bo'ldi. Xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli mojarolarga taalluqli bo'lgan I Qo'shimcha protokolda shunday mojarolarga nisbatan aynan shu uchta prinsip batafsil ko'rsatmalar va taqiqlar tarzida berilgan. Lekin ushbu prinsiplarni umumiy xalqaro huquqning odat normalari sifatida hisoblash mumkin, xususan, Qo'shimcha protokollarni ratifikatsiya qilmagan davlatlarga nisbatan.

Xalqaro gumanitar huquqning rivojlanishi natijasida uchta asosiy qoida bilan bir qatarga qo'yish mumkin bo'lgan №2444 Rezolutsiyada talqin etilgan yana bir prinsip shakllantirildi. Gap juda ham o'rinli bo'lgan «Martens istisnosi» haqida bormoqda. Ilk bor Quruqlikdagi urush qonunlari va odatlari to'g'risidagi IV Gaaga konvensiyasi muqaddimasida paydo bo'lgan va 1977-yilda I Qo'shimcha protokolning 1-moddasi 2-bandida yana bir bor tasdiqlandi. Unda shunday deyiladi:

«Ushbu Protokol yoki boshqa xalqaro bitimlar bilan nazarda tutilmagan hollarda, jamoatchilik fikri talablaridan va insonparvarlik prinsiplaridan, o'ratilgan odatlardan kelib chiqqan holda, fuqaroviy shaxslar va kombatantlar xalqaro huquq prinsiplari harakati himoyasida qoladi».

Ushbu holat gumanitar himoyaning to'liqligidan dalolat beradi: ushbu harakatga tegishli bo'lgan bevosita qoida bo'lmasa, ushbu harakatga ruxsat beriladi, deb xulosa chiqarish mumkin emas; shunday qaror qabul qilish kerakki, xuddi gumanitar huquq singari insonparvarlik talablariga javob berishi lozim.

Ushbu cheklashlarning ayrimlarini quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

8. Urush olib borish usullari va vositalarini tanlashdagi cheklashlar

Yuqorida esga olingan qurolli mojarolar huquqi prinsiplarini tasdiqlovchi I Qo'shimcha protokolning 35-moddasida shunday deyiladi:

«Mojaroda bo'lgan tomonlarning huquqi har qanday qurolli mojaro holatida urush olib borish uslublari yoki vositalarini tanlashda chegaralanmagan deb hisoblanmaydi».

Bu huquq quyidagi ko'rsatmalar bilan to'ldirilgan:

«Haddan tashqari ko'p talofatlar yoki ko'p azob-uqubatlar yetkazadigan qurollarni, snaryadlarni, moddalarni va harbiy harakatlar uslublarini qo'llash taqiqlanadi».

Urush olib borishda umumiy cheklashlarni belgilash maqsadida 35-modda yangi cheklashni qo'shimcha qiladi:

«Tabiiy muhitga juda yomon, keng miqyosda va uzoq vaqt talofat ko'rsatish yoki ko'rsatilishi mumkin bo'lgan uslub va vositalarni qo'llagan holda harbiy harakatlar olib borish taqiqlanadi».

Bu uchta cheklash umumiy ko'rinishga ega bo'lib, o'z-o'zidan kombatantlar uchun majburiy qoida sifatida xizmat qilishi mumkin emas.

Jang olib borishning taqiqlangan uslublari. Urush huquqining rasmiy ravishda o'rnatiladigan cheklashlari haqida gapira turib, avvalambor, ritsarlikni esga olsak. Unda dushman tomonidan jang qilayotgan jangchiga, avvalambor, inson sifatida hurmat talab qilinardi. Jumladan, qarshi tomonda turgan shaxsga inson sifatida qaralganda,

jang olib borish uslub va qurollari unga haddan ortiq uqubat keltirmas edi. Ya'ni haddan ortiq azob-uqubat yetkazish oqibatida ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmashligini ritsarlar juda yaxshi tushunar edilar. Shunday qilib aytish mumkinki ritsarlik axloq qoidalari urush talablariga to'liq mos kelgan.

Taqiqlangan urush olib borish uslublariga, eng avvalo xiyonatkorona qilingan harakat (verolomstvo, perfidy, threachery) kiradi. Xiyonatkorona harakat qilishi qurolli mojaro davrida qo'llaniladigan xalqaro huquq normalariga binoan, dushmanga u himoya huquqiga egaligini ishontirish va ishonishga majbur qilish, nihoyasida esa bildirilgan ishonchga xiyonat qilish¹.

Xiyonat qilishga, masalan, safdan chiqqanligini, yordam bermoqchi bo'lganligi niqobi ostida dushmanni qirib tashlash misol bo'la oladi. Boshqa tomondan qaraganda, odatdagi harbiy ayyorliklar, masalan, niqoblanish, dushmanni chalg'itish maqsadidagi yolg'on operatsiyalar va yolg'on ma'lumotlar, tabiiyki, taqiqlanmagan.

I Qo'shimcha protokolda maxsus qoida, ya'ni, «Qizil Xoch» va «Qizil Yarim oy»ga tegishli bo'lgan maxsus emblemalardan harbiy harakatlarda foydalanish taqiqlanganligi ko'rsatilgan².

Emblemalardan o'z maqsadida foydalanmaslik nafaqat noto'g'ri, balki dushman askarlari uchun og'ir vaziyat keltirib chiqaradi va kelgusida emblemalarga ishonchni yo'qotadi. Bundan keyin emblema qonuniy ishlatilganda ham hurmatga loyiq bo'lmay qoladi. Shuning uchun emblemalardan xiyonatkorona foydalanish alohida vaziyatlarda, harbiy jinoyat singari I Qo'shimcha protokolni qo'pol buzish hisoblanadi. Ushbu qoidada ko'rsatilganidek, BMT emblemasidan suiiste'mol qilib foydalanish taqiqlanadi va undan xiyonatkorona foydalanish jazoga loyiqdir.

Shuningdek, har qanday sharoitda «hech kim tirik qolmasin» degan bo'yruqni berish yoki «hech kimga shafqat qilinmasin» degan asosda harbiy harakatlarni olib borish taqiqlanadi. Safdan chiqqanlarga hujum qilish taqiqlanadi. Ularga shafqat qilish haqida I Qo'shimcha protokolning urush olib borish usullari va vositalari bo'limida to'g'ridan-to'g'ri aytilgan. Qurolini tashlagan askarni o'ldirish qotillik hisoblanadi. Xuddi shu singari, I Qo'shimcha protokol

¹ I Qo'shimcha protokolning 37-moddasi.

² I O'shajoyda.

halokatga uchragan samolyotni parashyutlarda tark etayotgan ekipaj a'zolariga hujum uyushtirish taqiqlaydi, chunki ular bunday sharoitda o'zlarini himoya qila olmaydilar. Lekin bu qoida parashyutda tushayotgan havo desanti qo'shinlariga taalluqli emas, ular havoda ekanligida hujum uyushtirishlari mumkin.

Ushbu qoidalardan kelib chiqadiki, ayrim harakatlar shunchalik noto'g'riki, ularni dushman askarlariga qo'llash mumkin emas. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarga, himoyadagi shaxslarga, masalan, fuqaroviy shaxslarga yoki asirlarga hamda himoya ostida bo'lgan obyektlarga (masalan, kasalxona, shifoxona yoki boshqa tibbiyot muassasalariga) hujum qilish taqiqlanadi.

Taqiqlangan qurol turlari. Urush huquqi, shuningdek bir qator qurol, o'q-dori turlarini qo'llashni taqiqlaydi, ularni qo'llashda me'yordan oshmaslikni ta'kidlaydi.

Masalan, I Qo'shimcha protokolda «tanlov» xarakteriga ega bo'lgan qurol va o'q-dorilarni qo'llagan holda hujum qilish taqiqlanadi» deyiladi. Bu harbiy obyektga aniq yetib bormasdan, bir vaqtning o'zida ham harbiy obyektlarni, ham noharbiy obyektlarni tor-mor qiladigan qurollardan foydalanish taqiqlanadi, deganidir (masalan, aniq yetib bormaydigan raketalar).

Har qanday holda «haddan ortiq talofatlar yoki haddan ortiq azob-uqubatlar keltiradigan snaryadlar yoki qurollarni qo'llash taqiqlanadi».

1907-yilgi ikkinchi Gaaga tinchlik konferensiyasi dengiz urushlariga, xususan, minalarni o'rnatish bo'yicha bir qator cheklashlarni qabul qildi. Bu cheklashlar, boshqaruvi yo'qolgan holda bir soat ichida o'zini o'zi bartaraf qila olmaydigan erkin suzib yuruvchi minalarni qo'llashni taqiqlaydi.

I Qo'shimcha protokol qabul qilinganidan ancha keyin, juda qaqshatqich qurol turlaridan foydalanishni taqiqlash bo'yicha kelishuvga erishildi.

Haddan ortiq zarar yetkazuvchi yoki tanlov xarakteriga ega bo'lmagan deb hisoblanuvchi alohida turdagi oddiy qurollardan foydalanishni cheklash yoki taqiqlash to'g'risidagi 1980-yil 10-oktabrdagi Konvensiyaga quyidagi qurol va o'q-dorilarni qamrab oluvchi uchta Protokol ilova qilindi, bular: ko'zga ilg'anmas oskolkalar, minalar va tuzoq-minalar, yondiruvchi qurollar. Tanada ko'zga ilg'anmas

oskolkalar qoldiruvchi snaryadlardan foydalanish umuman taqiqlanadi, qolgan ikki turdagi qurollardan foydalanishda cheklashlar lozimligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, konvensiya boshqa taqiqlar va cheklashlarga ega bo'lgan yangi Protokollarni ilova qilish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Asosan, ushbu munosabat bilan yalpi qirg'in qurollari (yaqq)ni taqiqlash muhim hisoblanadi. 1925-yilgi Jeneva protokolida ko'rsatilganidek, zaharlovchi gazlarni qo'llash taqiqlanadi. Juda yaxshi ma'lumki, Birinchi jahon urushi davrida zaharlovchi gazlar juda yomon oqibatlar keltirib chiqargan. Shuning uchun Millatlar Ligasiga kiruvchi davlatlar 1925-yilgi Protokolda zaharlovchi gazlardan foydalanishni taqiqlashga ovoz berdilar. Bu taqiqlar Ikkinchi jahon urushi davrida buzildi va odat huquqi normasiga aylandi. Bu masala Kimyoviy qurollar to'g'risidagi 1993-yilgi Shartnomaga imzo chekish bilan bajarildi. Lekin zaharlovchi gazlarni urush davrida qo'llash xalqaro odat huquqi taqiqi ostida qolmoqda.

Shuningdek, 1925-yilgi Jeneva protokoli yordamida bakteriologik qurollarni qo'llash taqiqlanadi. Zaharlovchi gazlardan farqli ravishda ularni qo'llash umuman taqiqlandi. 1972-yil 10-apreldagi konvensiya bakteriologik (biologik) va zaharli qurollarni yaratish, ishlab chiqarish va zahiralarni to'plashni taqiqlash to'g'risida bo'lib, bu noinsoniy qurollarni bartaraf qilish va samarali taqiqlash, ularning ustidan nazorat o'rnatishga qaratilgandir.

Yadro quroli. Bugungi kunda yadro qurolini yaratish, ishlab chiqish va zahiralarni to'plash borasida maxsus taqiqlar yo'qligi isbot talab etmaydigan holatdir. Lekin yadroviy qurollar bilan bog'liq faoliyatni tartibga soluvchi bir qator kelishuvlar, shartnomalar mavjud¹. Ko'pincha savol tug'iladiki, xalqaro huquqning bunday normalari, masalan, ommaviy qirg'in qurollari turlarini yoki tanlovsiz xarakterdagi hujumlarni taqiqlash o'z ma'nosiga ko'ra yadro qurollarini taqiqlash yoki uni oz miqdorda qo'llashga turtki bo'lib qolmaydimi? Ushbu savolga javob berish uchun ko'p harakatlar qilindi, umuman

¹ Masalan: Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi 1968-yil 1-iyuldagi Shartnoma; Yadroviy qurollar sinovlarini yalpi (keng qamrovli) taqiqlash to'g'risidagi 1996-yilgi Shartnoma va boshq.

(to'liq) taqiqlash nazariyasini yoqlovchi tomonlar ham, qarshi tomonlar ham o'zlarining fikrlarini aniq ayta olmadilar¹.

1974-yilda boshlangan Diplomatik konferensiyaning ikki Protokol loyihasi ustida olib borgan ishi ushbu ikki tortishuv asosida o'tdi.

I Qo'shimcha protokolda yadro quroli to'g'risida eslatilmagan, lekin misol uchun 51- va 35-moddalar tanlovsiz xarakterida hujum qilish va haddan ziyod azob-uqubatlar keltiradigan qurollarni huquqiy jihatdan taqiqlashni o'z ichiga oladi.

I Qo'shimcha protokolni yaratish tarixi shundan dalolat beradiki, Diplomatik konferensiya yadroviy qurollarni qo'llash imkoniyatlariga taalluqli bo'lgan huquqiy masalalarga yondashishni xohlamagan ham edi. Boshqacha aytganda, I Qo'shimcha protokol ushbu masala bo'yicha huquqiy holatga o'zgartirishlar kiritmadi. Lekin bu yadro qurolini qo'llash xalqaro huquq normalari bilan cheklanmagan degan ma'noni bildirmaydi. Hech qanday shubha yo'qki, umumiy xalqaro huquq faoliyat ko'rsatishini davom ettirmoqda. Shartnomaviy xalqaro huquq (Jeneva konvensiyalari) bilan bir qatorda odat huquqi prinsiplari ham harakatda. Diplomatik konferensiyada uchta G'arbiy yadroviy davlat vakillari tomonidan qilingan bayonotda, ushbu qurollarni qo'llashni cheklaydigan xalqaro gumanitar huquqning umumiy normalariga bo'ysunish kerakligi so'zsiz tasdiqlandi.

9. Noharbiy obyektlar va aholini himoya qilish

1974-1977-yillardagi diplomatik anjumanlarning eng yuqori ko'rsatkichlaridan biri shu bo'ldiki, jang qilayotgan tomonlar kelishuvga ko'ra harbiy obyektlar bilan noharbiy aholi va noharbiy obyektlar o'rtasidagi farqni ajratishlari lozim. Bu haqda I Protokolda shunday deyilgan: «Mojaroda bo'lgan tomonlar obyektlarini himoyalash va hurmatini ta'minlash uchun har doim noharbiy aholi va kombatanlar o'rtasidagi, shuningdek noharbiy obyektlar bilan farqni bilish lozim va o'z harakatlarini faqat harbiy obyektlarga qarshi olib borish kerak»².

¹ Judge Nagendra Singh, Edward McWhinney. Nuclear Weapons and Contemporary International Law. 2nd ed. – Dordrecht, Boston, London, 1989. – P. 231.

² I Qo'shimcha protokolning 37-moddasi.

Dushman hukmronligi ostida bo'lgan noharbiy aholi hukumat zulmlaridan himoya qilingan bo'lishi lozim, shuningdek harbiy operatsiyalar olib borilayotganda noharbiy aholiga shafqat qilish kerak. Ushbu holda yuzaga keladigan muammolar turli xil. Agar birinchi holda urushning maxsus sharoitlarida hokimiyat zulmlaridan inson huquqlarini himoya qilish to'g'risida gap borsa, ikkinchi holda harbiy operatsiyalarni rejalashtirish va olib borishda rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy cheklashlar o'rnatiladi.

XX asrga qadar urush deb odatda tortishuvni hal qilish uchun ikkita armiyaning jang maydonidagi olishuvi tushunilgan.

Shunga mos ravishda, harbiy operatsiyalar asosan qarshi turgan armiyaga tegishli bo'lgan va chegaralangan hududda olib borilgan. Talofatlar o'sha vaqtdagi qurollar, ya'ni o'q otar qurollar va artilleriyaning ta'sir radiusi bilan chegaralangan. «Jang maydoni» tushunchasi jug'rofiy chegaraga egaligini bildiradi. Atrofda yashovchilar bu joyni odatda tark etishi mumkin bo'lgan (ayrim hollarda tepaliklar ortidan jang borishini kuzatib turganlar). Ularga xavf askarlar tomonidan talash, bosqinchilik qilish va o't qo'yish, onda-sonda to'p o'qidan, ya'ni harbiy operatsiyalarning o'zidan kelib chiqqan.

Samolyotlarning paydo bo'lishi harbiy harakatlar xarakterini tubdan o'zgartirib yubordi va noharbiy aholi uchun juda katta xavf tug'dirdi. Uzoq masofaga uchuvchi raketalar bu holatni yanada og'irlashtirdi. Strategik nishonlarga bomba va raketa hujumlari front chizig'idan o'tib talofatlar keltirdi, shaharlar, qishloqlar, avtomobil va temir yo'llari, ekin maydonlarini vayron qildi, birinchi navbatda jangda qatnashmaydigan aholiga xavf tug'dirdi. 1977-yildagina I Protokolda noharbiy aholini himoya qilish prinsiplari birinchi marta Gaaga quruqlikdagi urush to'g'risidagi qoidalarida va odatdagi huquqda o'zining aniq shakliga ega bo'ldi va bugungi kun talablariga javob bera oladi.

Himoyada bo'lgan noharbiy aholi bilan hujum qilish mumkin bo'lgan obyektlar o'rtasidagi farqni bilish majburiyati, boshqa tomondan faqat harbiy obyektlarga hujum uyushtirish kerakligini aniq talab etadi.

Harbiy obyekt nima, ya'ni hujum qilish ruxsat etilgan obyekt nima? I Protokol qabul qilinganidan keyin ushbu savolga aniq javob berish mumkin bo'ldi. Birinchidan, dushman qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi shaxslar bilan jang qilishga ruxsat etiladi. Ikkinchidan, harbiy

obyektlarga, harbiy harakatlarda o'zining samarali hissalarini qo'shadigan, foydalaniladigan, belgilangan, joylashgan kuch xarakteriga ega bo'lgan obyektlar tushuniladi. Bu umumiy izohda aniq harbiy qiziqish uyg'otadigan obyektlar sanab o'tilmagan. I Protokol noharbiy shaxslarni qurolli kuchlar tarkibiga kirmaydigan shaxslar sifatida ko'rsatadi. Noharbiy obyektlar deb harbiy obyektlarga aloqasi bo'lmagan barcha obyektlarga aytiladi.

Shunday qilib, urush yoki har qanday qurolli mojarolar urush qilayotgan tomonlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni hal qilish bilan bir qatorda, urushayotgan va mojaroda qatnashmayotganlar o'rtasida ma'lum munosabatlar tug'diradi. Uzoq vaqt davomida shakllangan urush odatlari va qonunlari endilikda xalqaro huquqning mustaqil sohasini tashkil etadi – qurolli mojarolar davridagi huquq, ya'ni qurolli mojarolar ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi konventiv va odatdagi yuridik normalari majmuidir.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi agressiyaga qarshi bo'lib, agressiya urushlari olib borishni taqiqlasada, ularni yuridik taqiqlash urushni keltirib chiqaruvchi manbalar yo'qoldi, degani emas. BMT Ustavi shuni nazarda tutadiki, tinchlikka xavf solinganda, tinchlik buzilganda, agressiya aktlari sodir etilganda Xavfsizlik kengashi BMTning qurolli kuchlarini barpo qilishga haqlidir. BMT Ustavining 51-moddasi qurolli agressiyaga nisbatan davlatlarga o'zlarini mustaqil yoki hamjihatlikda himoya qilish huquqini beradi. Bu mojarolarda qatnashayotgan barcha tomonlar qurolli mojarolar davridagi xalqaro huquq norma va prinsiplarini hurmat qilishga va qat'iy rioya qilishga majburdirlar.

Urushni keltirib chiqaruvchi manbalarning mavjudligi hozirgi zamon xalqaro huquqining maxsus huquqiy normalari mavjud bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Ular davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni qurolli mojarolar paytida tartibga solish uchun tan olingan va qurolli harakatlarni olib borishda imkon qadar insoniylik tarafdoridir. Ular quyidagilarni nazarda tutadi:

- harbiy harakatlarni olib borish vositalari va usullarini tanlashni cheklash;
- insoniyatga qarshi qaratilgan vositalar bilan urush olib borishni taqiqlash yoki cheklash;

- neytral davlatlar holatini, shuningdek qurolli mojarolarda ishtirok etmayotgan davlatlar holatini tartibga solish;
- tinchlik va xavfsizlik uchun xizmat qilish, agressiv reaksiya davlat tartiblarini fosh qilishga ko'maklashish;
- bosib olingan hududda yoki asirlikda bo'lgan kasallar, yaradorlar va tinch aholini himoya qilish.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro gumanitar huquqning shakllanishi. Xalqaro gumanitar huquqning asoschilari haqida so'zlab bering.*
2. *Xalqaro gumanitar huquqning strukturasi. Gaaga huquqi va Jeneva huquqi deganda nima nazarda tutiladi?*
3. *Inson huquqlari institutining xalqaro gumanitar huquqqa ko'rsatayotgan ta'siri qanday?*
4. *Xalqaro gumanitar huquq normalari va talablarini amalga oshirishda vujudga kelayotgan asosiy kamchiliklar va nuqsonlarni sanab bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бакаева Ф.Х. Международное гуманитарное право. – Т., 2002.
2. Гассер Х.П. Международное гуманитарное право. – М.: МККК, 1995.
3. Григорьев А.Г. Международное право в период вооруженных конфликтов. – М., 1992.
4. Женевские конвенции от 12 августа 1949 г. и дополнительные протоколы к ним. – М.: МККК, 1994.
5. Международное право: ведение боевых действий. Сборник Гаагских конвенций и иных соглашений. – М.: МККК, 1995.
6. Мелков Г.М. Международное право в период вооруженных конфликтов. – М., 1988.
7. Насиновский С.Е. Вооруженные конфликты: поиск решений. – М., 1996.
8. Свинарски К. Основные понятия и институты международного гуманитарного права как система защиты человека. – М.: МККК, 1997.
9. Тиунов О.И. Международное гуманитарное право: Учебник для ВУЗов. – М.: Норма, 1999.
10. Фриц К. Ограничение методов и средств ведения войны. – М.: МККК, 1994.
11. Хакимов Р.Т. Международное гуманитарное право: Учебное пособие. – Т.: Мир экономики и права, 1998.

12. Boissier P. History of the International Committee of the Red Cross: from Solferino to Tsushima. – Geneva, 1985.
13. Hartigan H.Sh. Lieber's Code and the Laws of War. – Chicago, 1983.
14. The New Humanitarian Law of Armed Conflict. – Naples, 1993.
15. Picket J. The Principles of International Humanitarian Law. – Geneva, 1997.

18-bob. XALQARO NIZOLARNI TINCH HAL ETISH XALQARO HUQUQI

1. *Xalqaro nizo tushunchasi*
2. *Xalqaro nizolarni tinch hal etish prinsipi*
3. *Xalqaro nizolarni tinch hal etish vositalari*
4. *Xalqaro tashkilotlar doirasida nizolarni tinch hal etish mexanizmi*

1. Xalqaro nizo tushunchasi

«Xalqaro nizo» tushunchasi odatda davlatlar o'rtasidagi o'zaro da'volarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Xalqaro nizolarning zahirida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, harbiy, xalqaro-huquqiy tusdagi bir qator omillar yotadi. Eng umumiy ko'rinishda xalqaro nizoni xalqaro huquqning ikki yoki undan ortiq subyekti o'rtasida vujudga keladigan va shu munosabat doirasida mavjud ziddiyatni aks ettiradigan o'ziga xos siyosiy-huquqiy voqelik sifatida ko'rish mumkin.

Nizo vujudga kelgan paytdan boshlab va uning rivojlanishi hamda mavjud bo'lishi davomida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsipi xalqaro nizolarni tinch hal etish prinsipi amal qilishi shart. BMT Ustavida nizoli munosabatlarni kvalifikatsiya qilish uchun «nizo» va «vaziyat» tushunchalari ishlatiladi (BMT Ustavi VI bobi).

Davlatlar o'rtasida kelishmovchilik yoki nizo keltirib chiqaradigan «xalqaro vaziyat» tushunchasiga, xuddi «nizo» tushunchasi kabi BMT Ustavida ta'rif berilmagan.

Xalqaro huquq doktrinasi va BMT Xavfsizlik Kengashining, shuningdek, BMT Xalqaro sudining amaliyotiga muvofiq, davlatlar aynan bir predmet sababli bir-birlariga da'vo taqdim qilgandagina nizo paydo bo'ladi. Vaziyat esa, garchi davlatlar o'rtasida kelishmovchilik keltirib chiqarsa-da, manfaatlarning to'qnashuvi bir-birlariga o'zaro da'vo qilmagan hollarda vujudga keladi. «Vaziyat» «nizo»ga qaraganda kengroq tushuncha. Nizoni ham, vaziyatni ham tavsiflaydigan umumiy belgi davlatlar manfaatining to'qnashuvidir.

Nizolar va vaziyatlarning ikki turi farqlanadi: birinchisining davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladi, boshqasining

davom etishi esa bunday xavfdan holi. BMT maqsadlaridan kelib chiqilsa, birinchi turdagi nizolar va vaziyatlarni tinchitish muhimroq. Shu bilan birga, aynan shu maqsadlardan kelib chiqib, har qanday nizolar va vaziyatlarga chek qo'yilishi shart. Chunki ulardan ba'zilar xalqaro tinchlikka xavf tug'dirmasa-da, baribir xalqaro kelishmovchilik keltirib chiqaradi. Bu esa davlatlar o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlikka rahna soladi.

BMT Ustavining 34-moddasida shunday deyiladi: «Xavfsizlik Kengashi nizo yoki vaziyatning davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga xavf solish-solmasligini aniqlash uchun xalqaro kelishmovchilikka olib keladigan yoki nizo keltirib chiqaradigan har qanday nizo va vaziyatni tergov qilish vakolatiga ega».

BMT Ustavida nizolar va vaziyatlarni yuqorida ko'rsatilgan ikki toifaga ajratish nazarda tutilmagan bo'lsa-da, nizolarni tinch hal etish prinsipi, xalqaro xavfsizlik va tinchlikka tahdid solish-solmasligidan qat'iy nazar, barcha xalqaro nizolar va vaziyatlarga taalluqlidir.

BMT Xavfsizlik Kengashining vaziyatni «nizo» yoki «vaziyat» sifatida ta'riflashida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar bir xil emas. BMT Ustavi 27-moddasining 3-bandiga muvofiq, nizoda tomonlardan biri hisoblangan BMTning doimiy a'zosi qaror qabul qilishda ovoz berishdan o'zini tiyishi lozim. Bu qoida vaziyatlarga taalluqli emas. BMT Ustavi 36-moddasining 1-bandiga muvofiq, Xavfsizlik Kengashi nizoni ham, vaziyatni ham hal etishning proseduralari va uslublarini tavsiya qilishi mumkin. Ishni BMT Xalqaro sudiga o'tkazish faqat nizo yuzasidan amalga oshirilishi mumkin, aslo vaziyat yuzasidan emas.

Xalqaro nizolar turli asoslarga ko'ra: obyekt yoki predmetiga ko'ra, xalqaro tinchlikka xavf tug'dirish darajasiga ko'ra, tarqalish geografiyasiga ko'ra, subyektlarining soniga ko'ra tasniflanadi.

BMT Ustavi xalqaro nizolarning bir necha turlarini hal qilish proseduralarini nazarda tutadi. Ular orasida «davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladigan nizo»; «xalqaro nizolar»; «har qanday nizo», ya'ni bevosita xalqaro tinchlikni ta'minlashga xavf solmasligi mumkin bo'lgan nizo; «mahalliy nizolar»; «yuridik xarakterga ega bo'lgan nizolar» mavjud.

BMT Ustavida yuridik (huquqiy) va siyosiy xarakterga ega bo'lgan nizolar o'rtasida biror aniq farqlash yo'q. Shu bilan birga, BMT

Xalqaro sudi Statutining 36-moddasi 2-bandida yuridik xarakterga ega bo'lgan nizolar deganda nimani tushunish lozimligi to'g'risida tushuncha beruvchi mezonlar ro'yxati mavjud.

BMT Xalqaro sudining yurisdiksiyasiga shartnomani sharhlash, xalqaro huquqning har qanday masalasiga taalluqli bo'lgan masala, xalqaro majburiyatning buzilish faktiga ega masala, shuningdek majburiyatning buzilganligi uchun haq to'lash turi va hajmiga taalluqli masala, yuzasidan vujudga keladigan nizolar kiradi.

Turli xil xalqaro nizolar orasida huquqiy xarakterga ega bo'lgan nizolar, ya'ni hududining ma'lum qismi kimga tegishliligi to'g'risidagi nizolar alohida o'rin tutadi. Ko'pincha bu nizolar xavfli siyosiy qarama-qarshiliklarni va qurolli to'qnashuvlarni keltirib chiqaradi.

2. Xalqaro nizolarni tinch hal etish prinsipi

Hozirgi zamon xalqaro huquqida nizolarni tinch hal etish prinsipi umum e'tirof etilgan prinsip sifatida shakllangan. Unga ko'ra xalqaro nizolar istisnosiz tarzda tinch vositalar bilan hal etilishi lozim.

1899-va 1907-yillardagi Gaaga tinchlik konferensiyalarida Xalqaro to'qnashuvlarni tinch hal etish to'g'risidagi Konvensiya ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unda ezgu xizmatlar va vositachilikni qo'llash, xalqaro arbitraj va tergov komissiyalarini tashkil qilish va faoliyat ko'rsatishining qoidalari ma'lum ma'noda umumlashtirildi va unifikatsiya qilindi. Biroq, bu davrda xalqaro munosabatlarda qurolli kuch ishlatishga yo'l qo'yilishi ham tan olinar edi. Ana shunday sharoitda ezgu xizmatlar va vositachilik, shuningdek, nizolarni tinch hal etishning Konvensiyada nazarda tutilgan boshqa vositalaridan foydalanish ishtirokchilar uchun yuridik majburiy emas edi. Masalan, mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq muhim kelishmovchilik va to'qnashuv mavjud bo'lganda shartlashayotgan davlatlar «qurol ishlatishdan oldin, sharoit imkon bergunicha ezgu xizmatlar yoki bir yoxud bir necha davlatlarning vositachiligidan foydalanish»-ga kelishib oldilar. «Sharoit imkon bergunicha» degan izoh bunday vositalardan foydalanishni nizolashayotgan tomonlardan har biri o'zicha hal qilishini anglatadi. Tabiiyki, bu nizoni hal qilishning majburiy bosqichi bo'la olmas edi.

Arbitraj va tergov komissiyalariga murojaat qilish ham shunday izohlangan edi.

1928-yilda Millatlar Ligasi qabul qilgan «Xalqaro nizolarni tinch hal etish» to'g'risidagi Umumiy akt ayrim hollarda majburiy tarzda tinchlik vositalarini qo'llashni nazarda tutdi (arbitraj va sudda ko'rib chiqish, Liga Kengashi yoki Majlisiga murojaat qilish), biroq bu prinsip aniq ifodalanmagan bo'lib, urushga nizolarni hal qilishning qonuniy vositasi sifatida qarar edi.

1928-yilda qabul qilingan «Urushdan milliy siyosat quroli sifatida foydalanishdan voz kechish to'g'risida»gi Parij shartnomasi (Brian-Kellog Pakti) mazkur prinsipni tan olish yo'lida tashlangan navbatdagi qadam bo'ldi. Paktning 1-moddasida «Shartlashayotgan Oliy martabali tomonlar o'zaro yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va vaziyatlar, qanday xususiyatda va kelib chiqishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, faqat tinch yo'l bilan bartaraf etilishi yoki hal qilinishi shartligini tan oladilar».

BMT Ustavida xalqaro nizolarni tinch hal etish prinsipi hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy prinsiplaridan biri sifatida yuqoriroq bosqichga ko'tarildi. BMT Ustavi 2-moddasining 3-bandiga muvofiq, «BMTning barcha a'zolari o'zlarining nizolarini xalqaro tinchlik va xavfsizlik, adolatlilikka xavf tug'dirmagan holda tinch vositalar bilan hal etadilar». Bu prinsipning mazmuni 1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada, hamda 1975-yilgi YXHKning Yakunlovchi aktida rivojlantirildi.

Xalqaro nizolarni tinch hal etish prinsipining xalqaro munosabatlarda qaror topishi borasida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1982-yilda qabul qilingan Xalqaro nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi Manila deklaratsiyasi hamda 1988-yilgi Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka xavf soladigan nizolar va vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish to'g'risidagi Deklaratsiya katta ahamiyat kasb etdi. Ikkala hujjatda ham BMTning nizolarni hal qilishdagi muhim o'rni ta'kidlanadi.

Xalqaro nizolarni tinch hal etish prinsipining yuridik mazmuni nizo ishtirokchilari bo'lgan davlatlar huquq va majburiyatlarining yig'indisidan iborat.

1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada shunday deyiladi: «Har bir davlat xalqaro nizolarni, jumladan hududiy

nizolarni va davlat chegaralariga taalluqli masalalarni hal qilishda kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki ishlatishdan o'zini tiyib turishi lozim...».

Davlatlar o'zlarining xalqaro nizolarini hal etmay qoldirishga haqli emaslar. Bu, birinchidan, xalqaro nizoni tezroq hal etish to'g'risidagi talabni, ikkinchidan, nizolashayotgan tomonlar o'zaro kelishib olgan hal etish usuli ijobiy natija bermasa, hal etishning boshqa usullarini izlashni davom ettirish zarurligini bildiradi.

Davlatlar ular o'rtasidagi nizoni keskinlashtiruvchi harakatlardan o'zlarini tiyib turishlari shart. Bu yerda, avvalambor, nizoni hal etishni qiyinlashtiradigan, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun xavf tug'diradigan, shuningdek yuzaga kelgan holatni tomonlardan birining foydasiga o'zgartiradigan va shu bilan nizalashayotgan boshqa tomonning manfaatlariga zarar yetkazadigan harakatlar to'g'risida gap bormoqda.

Davlatlar o'z nizolarini xalqaro huquq va adolatlilik asosida hal qilishlari lozim. Bu talab shartnomaviy va odat huquqi normalariga mos keladigan xalqaro huquq prinsiplarini qo'llashni nazarda tutadi.

BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasiga muvofiq, nizolarni xalqaro huquq asosida hal qilish quyidagilarni qo'llashni nazarda tutadi:

a) nizolashayotgan davlatlar tomonidan tan olingan qoidalarni o'rnatuvchi ham umumiy, ham maxsus xalqaro konvensiyalarni;

b) huquqiy norma sifatida tan olingan xalqaro odatni davlatlar umumiy amaliyotining isboti sifatida;

v) umum e'tirof etilgan xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini;

g) huquqiy normalarni aniqlash uchun yordamchi vosita sifatida ommaviy huquq bo'yicha eng malakali mutaxassislarning doktrinalarini va sud qarorlarini.

38-moddaga muvofiq, shuningdek, Sudning nizolar bo'yicha qaror qabul qilish majburiyati agar tomonlar rozi bo'lsalar, uning ishlarni ex aequo et bono (adolat va chin vijdon) bo'yicha hal qilish huquqining cheklanganligini anglatmaydi.

Davlatlar ikki tomonlama kelishuv asosida o'z o'rtasida yuzaga keladigan nizolari va vaziyatlarni hal qilishning tinch vositalarini erkin tanlab olish huquqiga egadirlar. Bu huquq davlatlarning suveren tengligi va ularning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipidan kelib

chiqadi. Masalan, Xalqaro Sud Statutining 36-moddasiga muvofiq Statut qatnashchilari har qanday vaziyatda Xalqaro Sud yurisdiksiyasining majburiylikini tan olishlari to'g'risida Bayonot berishlari mumkin. Bu shuni anglatadiki, nizo Xalqaro sud tomonidan, tomonlardan birining talabiga ko'ra ko'rib chiqiladi, boshqa tomon esa Sudning ushbu vakolatini tan olishi lozim. Bu qoida faqatgina shunday Bayonot bergan davlatlarga nisbatan amal qiladi.

BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi 1982-yilgi Konvensiya nizolarni tinch hal qilishning to'rtta majburiy prosedurasini nazarda tutgan. Ulardan har birini ishtirokchi-davlatlar yozma ariza yoki Konvensiyani imzolash yoxud ratifikatsiya qilish prosedurasini orqali tanlab olishlari mumkin. Bular quyidagilardir: Dengiz huquqi bo'yicha Xalqaro tribunal, BMTning Xalqaro sudi, Konvensiyaning 7-ilovasiga muvofiq tuziladigan Arbitraj, Konvensiyaning 8-ilovasiga muvofiq tuziladigan maxsus Arbitraj.

Fazo obyektlari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi 1972-yilgi Konvensiyada zararni qoplash to'g'risidagi masalalarni tartibga solish prosedurasini nazarda tutiladi: agar tomonlarning muzokaralari bir yil ichida nizoni hal qila olmasa, har qanday tomonning iltimosiga binoan nizo tergov, kelishtiruv va arbitraj organi tusidagi Komissiyaga beriladi. Komissiyaning qarori tavsiyaviy xususiyatga egadir.

Xalqaro nizolarni tinch hal qilish prinsipini kelgusida ham universal, ham mintaqaviy darajalarda davlatlarning tegishli huquq va majburiyatlari kompleksini aniqlashtiruvchi yuridik normalarni ishlab chiqish va qabul qilishga muhtojdir, chunki bu prinsipga oxirgi o'n yillikda rioya qilinmayapti.

3. Xalqaro nizolarni tinch hal etish vositalari

Xalqaro nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi birinchi universal akt Xalqaro to'qnashuvlarni tinch hal etish to'g'risidagi Konvensiya bo'ldi. U 1899-yili Gaaga tinchlik konferensiyasida qabul qilingan va 1907-yilda Ikkinchi Gaaga tinchlik konferensiyasida to'ldirilgan edi.

1928-yil 26-sentyabrda Millatlar Ligasi tomonidan Xalqaro nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi Umumiy akt qabul qilindi. U 1949-

yil 28-aprelda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan maxsus Rezolutsiyada ayrim tuzatishlar bilan tasdiqlandi.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal eishga nisbatan bir qator muhim qoidalarni mustahkamlab qo'ygan BMT Ustavi alohida ahamiyatga ega. Bu qoidalarni rivojlantirish uchun BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir qator rezolutsiyalar va deklaratsiyalar qabul qilindi. 1982-yilgi Nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi Manila deklaratsiyasi shular jumlasidandir. Mintaqaviy bitimlar orasida 1948-yilgi Nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi Amerika davlatlararo Shartnomasi (Bogota pakti), Nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1957-yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan), YXHT doirasida yarashtirish va arbitraj bo'yicha Konvensiyani, shuningdek mintaqaviy tashkilotlarning nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi qoidalarini o'z ichiga olgan Ustavlarini (ADL, ADT, ABT, MDH) sanab o'tish mumkin. Xalqaro nizolarni tinch hal etishning mexanizmlari ko'p tomonlama konvensiyalarda, masalan, 1972-yilgi Fazo obyektlari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi Konvensiyada, 1982-yilgi BMTning Dengiz huquqi bo'yicha Konvensiyada va boshqa ko'plab ikki tomonlama shartnomalar hamda bitimlarda nazarda tutilgan.

Nizolarni tinch hal etish vositalari deganda xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi nizolarni biror shaklda majburlov ishlatmay turib, xalqaro huquq prinsiplariga mos ravishda hal etish tartibi tushuniladi.

Nizolarni tinch hal qilishning ba'zi usullari va proseduralari xalqaro huquqda avvaldan ma'lum, boshqalari esa yaqinda paydo bo'ldi. Lekin nizolarni faqat tinch yo'l bilan hal etish majburiyatining tan olinishi bilangina bunday vositalar tizimi tashkil topdi. Bu tizim BMT Ustavining 33-moddasida mustahkamlab qo'yildi. Unda muzokaralar, tekshiruv o'tkazish, vositachilik, yarashish (yarashtirish), arbitraj, sudda ko'rib chiqish, mintaqaviy organlar yoki bitimlarga murojaat qilish va boshqa tinch vositalar sanab o'tilgan. Boshqa tinch vositalarga ezgu xizmatlar, BMT organlari tomonidan nizolarni hal etish mexanizmlari, maxsus bitimlarda nazarda tutilgan hal etish mexanizmlarini kiritish mumkin. Xalqaro munosabatlarda boshqa proseduralar ham paydo bo'lishi mumkin.

BMT Ustavi yuridik xarakterga bo'lgan ega va boshqa turdagi barcha nizolarni farqlaydi. Nizolarni tinch hal qilish to'g'risidagi 1957-yilgi Yevropa Konvensiyasi ham shunday farqlardan kelib chiqadi.

Muzokaralar va maslahatlashuvlar. Bevosita muzokaralar nizolarni tinch hal etish vositalari tizimida alohida o'rin tutadi. Mazmunan olganda, muzokaralarsiz xalqaro nizolarni hal etishning umuman iloji yo'q, chunki barcha tinch vositalarni qo'llash u yoki bu darajada muzokaralar bilan bog'liq. Deyarli barcha bitimlarda – 1899-va 1907-yilgi Xalqaro to'qnashuvlarni tinch hal qilish to'g'risidagi Gaaga konvensiyalarida, BMT Ustavida (33-modda), Xalqaro nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi 1928-yilgi Umumiy aktda, Xalqaro nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi 1982-yilgi Manila deklaratsiyasida muzokaralar maqsadga erishishning birinchi qadami deb tan olinadi. Xalqaro odil sudlov doimiy palatasining 1924-yil 30-avgustdagi Mavrommatis ishi bo'yicha Qarorida, shuningdek Xalqaro sudning Hindiston hududi orqali o'tish huquqi to'g'risidagi nizo bo'yicha 1960-yil 12-apreldagi Qarorida nizo sudda ko'rib chiqish obyektiga aylanishdan oldin uni muzokara yo'li bilan hal etishga urinib ko'rish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Muzokaralarning ishtirokchilar doirasiga ko'ra quyidagi turlari farqlanadi: davlat boshliqlarining, hukumat boshliqlarining, tashqi ishlar vazirlarining, diplomatik vakolatxonalar boshliqlarining muzokaralari, shuningdek maxsus vakolatli shaxslar ishtirokidagi muzokaralar. Muzokaralar rasmiy va norasmiy tarzda o'tkazilishi mumkin.

Shuningdek, muzokaralar shakli bo'yicha ham farqlanadi: og'zaki muzokaralar – bevosita aloqalar orqali; yozma muzokaralar – notalar, xatlar va sh.k.lar almashish orqali. Muzokaralar ishtirokchilarning soni bo'yicha ham farqlanishi mumkin: ikki tomonlama va ko'p tomonlama (jumladan, xalqaro konferensiyalar doirasida).

Xalqaro huquq muzokaralarning davomiyligi muddatini belgilab qo'ymagan. Agar xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi nizolar haqida gap borsa, tomonlar uni eng qisqa muddatlarda hal etish uchun butun kuch-g'ayratlarini safarbar qilishlari zarur.

Muzokaralar ma'lum shartlarga rioya qilganda ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Avvalambor, ular teng huquqli bo'lishi va tomonlarning suveren tengligi tan olingan holda olib borilishi kerak.

Ular avvaldan tayyorlangan ultimatumlar, shartlar va majburlovlarisiz o'tkazilishi kerak. Muzokaralarning yaxshi natijalar bilan tugashi o'zaro yon berishlar yoki tomonlardan birining o'z da'volaridan voz kechishi asosida bo'lishi mumkin. Agar muzokaralar kelishuvga olib kelmasa, tomonlar boshqa tinch vositalarga murojaat qilishga majburdirlar.

Maslahat – mazmunan muzokara turlaridan biridir. Bu nizolarni tinch hal etishning nisbatan yangi usuli bo'lib, XX asrda paydo bo'lgan.

Xalqaro huquqda fakultativ va majburiy maslahatlar farqlanadi. *Tomonlar har bir aniq holatda o'zaro kelishuv asosida foydalana-digan maslahatlar fakultativ maslahat deyiladi. Ishtirokchilar o'rtasida qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda, maslahatlar o'tkazish bitimlarda avvaldan kelishib olingan bo'lsa, unda majburiy maslahatlar deyiladi.* Bir qator konvensiyalarda maqsad borasida yoki konvensiya qoidalarini amalga oshirish munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday masala bo'yicha maslahatlar o'tkazish majburiyati nazarda tutiladi. Masalan, Bakteriologik (biologik) qurol-yarog'lar va toksinlarni yaratish, ishlab chiqarishni hamda zahiralarni to'plashni man qilish va ularni yo'q qilish to'g'risidagi 1972-yilgi Konvensiyada (V-modda), Kimyoviy qurollarni yaratish, to'plash va qo'llashni man etish hamda ularni yo'q qilish to'g'risidagi 1993-yilgi Konvensiyada (IX-modda) shunday holatlar nazarda tutilgan.

Bunday maslahatlarni ziddiyatlar va nizolarni oldini olishning dastlabki vositasi sifatida qarash mumkin. Dengizlar va okeanlar tubida va ostida yadro qurollari va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini joylashtirishni man etish to'g'risidagi 1971-yilgi Shartnomada maslahatlar haqida aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqib gapiriladi. Shartnomaning 3-moddasida shu narsa nazarda tutilganki, agar shartnomaga a'zo-davlatda boshqa a'zo-davlatning o'z majburiyatlarini bajarishiga nisbatan asosli shubha mavjud bo'lsa, mazkur davlat shubha qilinayotgan davlat bilan o'z shubhalarini bartaraf etish borasida maslahat o'tkazishi mumkin.

Bir qator shartnomalarda muzokaralar nizolarni tinch hal etishning vositasi sifatida bevosita ko'rsatilgan (masalan, BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi 1982-yilgi Konvensiyasi 283-moddasi).

Davlatlarning universal tushdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlaridagi vakilliklari to'g'risidagi 1975-yilgi Vena konvensiyasining 84-moddasida shunday deyiladi: «agar ushbu Konvensiyaga a'zo ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida uni qo'llash yoki sharhlash yuzasidan nizo vujudga keladigan bo'lsa, ulardan har qandayining iltimosiga ko'ra ular o'rtasida maslahatlar o'tkaziladi. Nizodagi tomonlardan har qandayining iltimosiga binoan maslahatlarda ishtirok etish uchun tashkilot yoki konferensiya taklif qilinadi».

Ezgu xizmatlar va vositachilik. Ezgu xizmatlar va vositachilik – uchinchi tomon yordamida xalqaro nizolarni tinch hal etish vositalaridir. Ular o'rtasida ko'plab o'xshashliklar, shuningdek farqlar ham mavjud.

1899-yili qabul qilingan va 1907-yili to'ldirilgan Xalqaro to'qnashuvlarni tinch hal etish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasida nizolarni tinch hal qilishning vositalari sifatida ezgu xizmatlar va vositachilik ham nazarda tutiladi. Bu Konvensiyada nizo (to'qnashuv)ga aloqador bo'lmagan davlatlar ezgu xizmatlar ko'rsatishi va vositachilik qilishi zarurligi ko'rsatilgan. Uchinchi tomon ezgu xizmatlar va vositachilikni o'z tashabbusiga ko'ra yoki nizodagi bir yoxud bir necha tomonlarning iltimosiga binoan amalga oshirishi mumkin. Bunda ezgu xizmatlar va vositachilikni taklif qilish ham, ulardan voz kechish ham, do'stona bo'lmagan xatti-harakat deb hisoblanmaydi (3-modda). Ezgu xizmatlar yoki vositachilik «faqat maslahat mazmuniga ega va majburiy deb hisoblanishi mumkin emas» (6-modda).

Bu ikkala tinchlik vositalari o'rtasidagi farq quyidagicha. Ezgu xizmatning maqsadi nizodagi tomonlar o'rtasidagi aloqalarni tomonlar muzokaralarga kirishishini ko'z-lagan holda yo'lga qo'yishdan iborat. Ezgu xizmat ko'rsatayotgan tomon muzokaralarda qatnashmasligi va ularning borishiga ta'sir o'tkazmasligi kerak. Vositachilik esa uchinchi tomonning faolroq ishtirok etishini nazarda tutadi. Uning maqsadi nafaqat nizolashayotgan tomonlar o'rtasida aloqalarni tiklash, balki ularning yarashishiga erishish hamdir.

1899- va 1907-yillardagi Konvensiyaning 4-moddasida ta'kidlanishicha: «vositachining vazifasi qarama-qarshi da'volarni kelishtirish va nizodagi davlatlar o'rtasida adovat paydo bo'lsa, uni hal qilishdir». Vositachi muzokaralarda ishtirok etib nizoning mohiyatiga ko'ra takliflar kiritishi, uning borishiga faol ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuning uchun ham vositachilikni amalga oshirish uchun har ikki nizolashuvchi tomonning roziligi zarur bo'ladi.

Ezgu xizmat va vositachilik individual va jamoaviy bo'lishi mumkin. Ularni davlat, xalqaro tashkilot, ularning mansabdor shaxslari, xususiyl shaxslar, qoidaga ko'ra mashhur jamoat arboblari ko'rsatishi mumkin.

Davlatlar bu tinchlik vositalarini o'z xalqaro munosabatlarida faol qo'llaydilar. BMT amaliyotida ko'pincha BMT Bosh kotibi yoki uning BMT Xavfsizlik Kengashi yoki Bosh Assambleyasi Rezolutsiyalari asosida harakat qiluvchi maxsus vakillari ezgu xizmatlar va vositachilik qiladilar.

1899- va 1907-yilgi Konvensiyaning 8-moddasida vositachilikning alohida holati nazarda tutilgan. Nizolashayotgan davlatlarning har biri o'z tomonidan vositachi davlatni tanlaydi. Bu vositachi davlatlar bir-biri bilan bevosita aloqaga kirishadi va munozara predmeti yuzasidan muzokaralar olib boradi. Bu vaqtda nizolashuvchi tomonlar nizodan o'zlarini tiyib turishi talab etiladi.

Tergov va kelishtirish proseduralari. Xalqaro tergov va kelishtirish organlari nizolashayotgan subyektlar tomonidan baravarlik (paritet) asosida, ba'zan uchinchi tomonni jalb etish yo'li bilan yaratilgan organlardir. BMT Ustavining 33-moddasida bu tinchlik vositalari «tekshirish» va «kelishtirish» atamaları bilan belgilanadi.

Tergov komissiyalarining vazifasi nizo bilan bog'liq faktlarni aniq belgilashdir. Kelishtiruv komissiyalari ishning amaliy jihatlarini aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, nizoni bartaraf qilish uchun harakat qiladi va shu maqsadlarda takliflar kiritadi. Tergov va kelishtirish komissiyalarining xulosalari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, tomonlar uchun majburiy emas. Ular xulosalarga rozi bo'lishlari yoki ularni qabul qilishdan bosh tortishlari mumkin. Biroq bir qator bitimlar borki, ularda bunday komissiyalar xulosalarining majburiyligi tan olinadi, masalan, Dunayda kema qatnovi tartibi to'g'risidagi 1948-yilgi Konvensiya (45-modda).

Xalqaro tergov komissiyalarining shakllanishi va ish tartibi 1899- va 1907-yilgi Xalqaro to'qnashuvlarni tinch hal etish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasida joriy etildi. Konvensiyaga ko'ra bunday komissiyalarning maqsadi «masalalarni xolis va vijdonan tekshirish orqali faktlar masalasini aniqlashdir». (9-modda).

Tergov komissiyasi nizolashuvchi tomonlar o'rtasidagi maxsus kelishuv asosida tuziladi, unda tergov qilinishi kerak bo'lgan faktlar aniq belgilab olinishi, komissiyani tuzishning tartib va muddatlari, komissarlar vakolatlarining hajmi belgilanishi zarur. Bitimda komissiyaning ish yuritish joyi, uning ko'chish huquqi, u foydalanadigan til va boshqalar belgilanishi ham mumkin (10-modda). Agar tomonlar boshqa narsaga kelishmasalar, 12- va 49-moddalarga ko'ra har bir tomon komissiyaga Hakamlar sudi doimiy palatasi a'zolarining ro'y-xatidan ikki komissarni tayinlaydi, ularning faqat bittasi uning fuqarosi bo'lishi mumkin.

1899- va 1907-yilgi Konvensiyada tergov olib borish tartibi belgilangan: tergov tortishuv tartibida olib boriladi; qoidaga ko'ra komissiya majlislari yopiq bo'ladi; qarorlar komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Komissiya uning barcha a'zolari tomonidan imzolanadigan va tomonlarga beriladigan ma'ruza tuzadi. Tomonlarda bu xulosalardan o'z ixtiyorlariga ko'ra ish ko'rishning to'liq erkinligi saqlanib qoladi.

Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi 1949-yilgi Jeneva Konvensiyalarida tergov prosedurasi bir tomonning boshqa tomonni konvensiya holatlarini buzish faktlari bo'yicha arizalarini tekshirishini nazarda tutadi.

BMT Ustavining 39-moddasida faktlarni aniqlash ishiga katta ahamiyat beriladi. Faktlarni aniqlash usullari masalasi bo'yicha bir qator rezolutsiyalarda, masalan, 1963-yil 16-dekabrda Rezolutsiyada Bosh Assambleya nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda tergov tadbirining ahamiyatini ta'kidladi.

1991-yil 9-dekabrda Bosh Assambleya tomonidan BMTning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faktlarni aniqlashi to'g'risidagi Deklaratsiya tasdiqlandi. Deklaratsiya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq funksiyalarni bajarish uchun Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleya har qanday nizo va vaziyat bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lmog'i lozim deyilgan. Deklaratsiya shuningdek faktlarni aniqlash bo'yicha missiyalar tuzilishini tartibga soladi. Bunday missiyalarni jo'natish to'g'risidagi qarorlarni Kengash yoki Assambleya qabul qila oladi. Bunday missiyalarni har qanday davlat hududiga jo'natish uchun shu davlatning oldindan roziligi zarur. Deklaratsiya missiyalarni tashkil etish va olib

borish uchun avvalo Bosh kotibning xizmatlaridan foydalanishni tavsiya qilinadi. U missiyalarda qatnashishga jalb qilinuvchi ekspertlar ro'yxatini tuzishi va kerak bo'lganda yangilashi zarur. Biroq Xavfsizlik Kengashi yoki Bosh Assambleyaning biror maxsus yordamchi organidan ham foydalanish mumkin.

Kelishtirish (yarashtirish) komissiyalari xalqaro munosabatlarda tergov komissiyalaridan birmuncha kechroq paydo bo'ldi. Kelishtirish komissiyasi birinchi marta AQSH va Buyuk Britaniya o'rtasida 1909-yilgi AQSH va Kanada o'rtasidagi chegara oldi suvlari to'g'risidagi Shartnoma doirasida tuzilgan edi.

Kelishtirish komissiyalarini tuzish va ularning ish tartibi Xalqaro nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi 1928-yilgi Umumiy aktda batafsil tarzda ishlab chiqilgan.

Umumiy akt, akt qatnashchilari o'rtasidagi nizolar nizolashayotgan taraflar tomonidan tuziladigan doimiy yoki vaqtinchalik komissiyalar tomonidan ko'rilishini nazarda tutadi. Besh kishidan iborat komissiya tarkibida nizolashayotgan taraflarning faqat bittadan fuqarosi bo'lishi mumkin. Kelishtirish komissiyasining ishi munozaralar asosida olib boriladi, qarorlar komissiya qatnashchilarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Kelishtirish komissiyalarining nizomi ko'pgina ikki va ko'p tomonlama shartnomalarda nazarda tutilgan.

Kelishtirish (yarashtirish) tadbirlarining alohida turlari Davlatlarning universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlardagi vakilligi to'g'risidagi 1975-yilgi Vena konvensiyasi, BMTning dengiz huquqi to'g'risidagi 1982-yilgi Konvensiya va boshqalarda nazarda tutilgan. 1995-yilda BMT doirasida davlatlar o'rtasidagi nizolarni kelishtirish bo'yicha Namunaviy qoidalar ishlab chiqilgan¹. Namunaviy qoidalar faqat davlatlar ularni qo'llash to'g'risida yozma shaklda kelishsalargina qo'llanishi mumkin. Namunaviy qoidalar asosida tuzilgan kelishtirish komissiyasining ish natijalari tavsiyaviy xarakterga egadir. Kelishishning turli bosqichlarida tomonlar BMT Bosh Kotibidan kelishish tadbirlarini qo'llashda yordam so'rashlari mumkin.

¹ BMT Bosh Assamb. Rez. 90/30. – 1993. – 11 dek.

Xalqaro hakamlilik (arbitraj). Xalqaro hakamlilik (ishning uchinchi tomonlar tarafidan ko'rib chiqilishi) – bu nizolashuvchi tomonlar uchun majburiy bo'lgan uchinchi subyekt tomonidan qaror qabul qilinishidir.

Arbitraj xalqaro nizolarni tinch hal etish vositasi sifatida quldorlik davlatlari davridan ma'lum.

Xalqaro arbitraj tadbirlarining rivojlanishiga 1899- va 1907-yilgi Xalqaro to'qnashuvlarni tinch hal etish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi va Xalqaro nizolarni tinch hal etish to'g'risidagi 1928-yilgi Umumiy Akt muhim hissa qo'shdi. 1958-yilda Bosh Assambleya arbitraj tartibida ish olib borishning Namunaviy qoidalarini ma'qulladi. U tavsiyaviy xarakterga egadir.

Hozirgi zamon xalqaro amaliyotida arbitraj organlarining ikki turi: ad hoc va doimiy (institusional) arbitrajlar ma'lum.

Ad hoc arbitraj tomonlar roziligi bilan biror aniq nizoga nisbatan tuziladi. Bunday bitim kelishuv (kompromiss) yoki hakamlar yozuvi deyiladi. Bunda tomonlar hakamlar sudi hal etishi kerak bo'lgan nizo predmeti, sudning vakolatlari doirasi, hakamlilik prosedurasi va prinsiplari, sudning tarkibi, hakamlar yozuvi, hakamlar qarorini qabul qilish va bajarish yuzasidan o'zlarning majburiyatlarini belgilashadi.

Doimiy (institusional) arbitraj – tomonlar o'rtasida paydo bo'ladigan nizolarni hal etish uchun doimiy, biror-bir tashkilot qoshida tuzilgan yoki alohida faoliyat yuritadigan arbitraj organidir. Doimiy arbitrajlar yurisdiksiyasining ikki turi – ixtiyoriy va majburiy yurisdiksiya mavjud. Ixtiyoriy yurisdiksiyada har ikkala tomonning sudga murojaat uchun roziligi zarur, majburiyda esa nizodagi tomonlardan birining talabi kifoya. Majburiy arbitraj, arbitraj istisnosini u yoki bu xalqaro shartnomaga kiritilishi bilan rasmiylashtiradi.

Arbitraj qarorining bajarilishi majburiydir.

1899- va 1907-yilgi Gaaga konvensiyasiga ko'ra, agar qaror chiqarilganidan so'ng ishning borishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yangi muhim holatlar topilsa, arbitraj qarori qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Hakamlar sudi bir shaxs (uchinchi davlat fuqarosi bo'lishi shart) yoki shaxslar guruhidan (uchinchi davlatlar fuqarolari yoki nizolashuvchi tomon va uchinchi davlatlar fuqarolari) iborat bo'lishi mumkin. Masalan, Xalqaro nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish to'g'ri-

sidagi 1928-yilgi Umumiy Aktning 22-moddasiga ko'ra hakamlar sudi besh kishidan iborat bo'ladi: har bir tomon bittadan a'zo belgilaydi, ikkita boshqa arbit va superarbitr nizolashuvchi tomonlarning roziligiga ko'ra uchinchi davlatlar fuqarolaridan saylanadi.

1901-yili 1899-1907-yilgi Gaaga konvensiyasi asosida Gaagada joylashgan hakamlar sudining doimiy palatasi tuzildi. Palata ikki doimiy organdan iborat edi: Xalqaro byuro va Ma'muriy kengash. Byuro devonxona vazifasini bajargan: tomonlar unga hakamlar sudiga murojaat qilish to'g'risidagi qarorlarini bildiradi. Byuro Palataga ko'rish uchun berilgan nizodagi tomonlar o'rtasida aloqani amalga oshiradi. Gaagada joylashgan Gaaga konvensiyasiga ishtirokchi davlatlarning diplomatik vakillaridan iborat bo'lgan Ma'muriy kengash Xalqaro byuroning ishini nazorat qiladi. Hakamlar sudining o'ziga kelsak, u nizolashuvchi davlatlar hakam tanlab olishi mumkin bo'lgan shaxslar ro'yxati ko'rinishida mavjuddir. Hakamlar sudining ro'yxati quyidagicha tuziladi: har bir Gaaga konvensiyasiga (ular hozir 80dan ortiq) ishtirokchi-davlatlar 6 yillik muddatga o'rttagacha bo'lgan shaxsni tayinlaydi. 44-moddaga ko'ra ular «xalqaro huquq masalalarida o'z bilimlari bilan mashhur, shaxsiy hurmatga ega bo'lgan va o'zlariga hakam majburiyatini olishga tayyorligini bildirishlari kerak».

Palata Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari o'rtasidagi, ular va Konvensiya qatnashchisi bo'lmagan davlatlar o'rtasidagi hamda davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi har qanday nizoni ko'rib chiqish huquqiga egadir.

O'zining mavjudlik davri mobaynida Palata davlatlar o'rtasidagi 30 dan ortiq nizolarni ko'rib chiqdi. Hakamlar sudiga murojaat qilishni istagan nizolashuvchi davlatlar o'zaro murosa (kompromiss) yoki hakamlar yozuvi tuzadilar.

Umumiy qoidaga ko'ra, hakamlar muhokamasi ikki qism: yozma tergov va muzokaralardan iboratdir. Nizo arbitraj tadbirlari predmeti bo'lgan vaqtda tomonlar nizoning ko'rilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi har qanday harakatdan o'zlarini tiyishlari shart. Qaror ko'pchilik ovoz bilan chiqariladi va asoslangan bo'lishi zarur.

Xalqaro Sud mexanizmlari. Xalqaro sud muhokamalarining nazariy asoslari XIX asrdayoq ishlab chiqilgan bo'lsa ham nizolarni tinch yo'l bilan hal etishning nisbatan yangi vositasidir. Birinchi marta xalqaro sud 1921-yilda Millatlar Ligasi doirasida tuzilgan edi. U

1946-yil 18-aprelda o'z faoliyatini to'xtatgan hakamlar sudining doimiy palatasi edi. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro sudlar yaratish amaliyoti ancha kengaydi. Universal (BMT Xalqaro Sudi, Dengiz huquqi bo'yicha Xalqaro tribunal) va mintaqaviy (Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Kengashi Sudi, Yevropa Ittifoqi Sudi, MDH Iqtisodiy Sudi, Amerika davlatlari tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Sudi va boshq.) darajadagi sudlar tizimi hozirgi kunda joriy etildi.

Xalqaro sud muhokamasining xalqaro arbitraj bilan o'xshash tomonlari ko'p. Ularni yaqinlashtiruvchi asosiy holat – qarorlarining majburiyligidir. Bunda xalqaro huquq nuqtayi nazaridan xalqaro sud qarorlari va hakamlar sudi qarorlari bir xil kuchga egadir. Ular o'rtasidagi farq asosan tashkiliy xarakterga ega: arbitraj tarkibi nizolashuvchi tomonlar xohishiga bog'liq bo'lsa, xalqaro sud tarkibi oldindan belgilangan; hakamlar sudi unga manfaatdor tomonlar murojaat qilganda tuzilsa, xalqaro sud doimiy asosda ish olib boradi va sudyalar doim uning ixtiyorida bo'ladilar. BMT Xalqaro sudidan boshqa xalqaro sudlar arbitrajlar kabi xalqaro tashkilotlar va alohida shaxslar qatnashuvidagi nizolarni hal qilishlari mumkin.

BMT Xalqaro Sudi (Gaagada joylashgan) – hakamlar sudining doimiy palatasi vorisi bo'ldi. U BMTning xalqaro adolatni amalga oshiruvchi asosiy organidir. Uning tarkibi va huquq doirasi BMT Ustavi va Xalqaro Sud Statuti bilan belgilangan.

Statutning 34-moddasi 1-bandiga ko'ra, Sud tomonidan ko'rilayotgan ishlarda faqat davlatlar – taraflar bo'lishi mumkin. BMT Ustavi va amaldagi shartnoma va konvensiyalarda maxsus nazarda tutilgan har qanday ishlar sudda ko'rilishi mumkin (36-modda 1-band). Bunda Sudning yurisdiksiyasi tavsiyaviy xarakterga ega bo'ladi. Bu holat nizo faqat barcha nizolashuvchi tomonlarning roziligi bilanlangina sudda ko'rish obyekti bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Bunday rozilik ishni sudda ko'rishga berish to'g'risidagi tomonlarning maxsus kelishuvida beriladi.

Statutga a'zo-davlatlar xohlagan vaqtda sudning yurisdiksiyasini 36-moddaning 2-bandida sanab o'tilgan kategoriyadagi huquqiy xarakterga ega bo'lgan nizolar bo'yicha ariza yozib tan olishi mumkin: shartnomalarni sharhlash; xalqaro huquqning har qanday masalasi; agarda xalqaro majburiyatni buzishi aniqlansa faktning mavjudligi; xalqaro majburiyatni buzganligi uchun to'lanadigan haqning xa-

rakteri va qiymatlari. Hozirgi paytda majburiy yurisdiksiyani 60 ga yaqin davlat, Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolaridan esa faqat Buyuk Britaniya tan oladi.

Bir qator universal shartnomalar BMT Xalqaro Sudining shu shartnomalarni qo'llanishi va sharhlanishiga nisbatan yurisdiksiyasining majburiylikini tan olish to'g'risidagi qoidani o'z ichiga oladi. Bunday shartnomalar 300 ga yaqin.

Sud jarayonini boshlash uchun to'qqiz sudyadan iborat kvorum yetarlidir. Biroq, qoidaga ko'ra, ishlar to'liq tarkibda muhokama qilinadi. Shu bilan birga, ma'lum toifaga mansub ishlar, masalan, tranzit va aloqa bilan bog'liq ishlarni ko'rishda sud uch va undan ortiq sudyadan iborat bir necha kameralarni tashkil etishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Sud shuningdek zarur bo'lganda alohida ishlarni ko'rish uchun bir yoki bir necha kamera tashkil etishi mumkin (Statutning 26-moddasi). Sud amaliyotida bunday kamera birinchi marta 1982-1984-yillarda Men qo'ltig'idagi dengiz hududlarini cheklash borasida AQSH va Kanada o'rtasidagi nizo yuzasidan tashkil etildi. Bundan tashqari, Sud ishlarning ko'rilishini tezlashtirish maqsadida har yili besh sudya tarkibida kamera tashkil qiladi. U esa, tomonlar iltimosiga ko'ra, ishlarni osonlashtirilgan tartibda ko'rish va hal qilishi mumkin (Statutning 29-moddasi).

Ishni Sudda ko'rish fransuz yoki ingliz tilida olib boriladi. Har qaysi tomonning iltimosiga ko'ra, sud unga boshqa tildan foydalanish huquqini berishi mumkin. Sudda ishlar ikki yo'l: nizolashgan tomonlar o'rtasida tuzilgan maxsus bitimni qayd etish yoki Sud kotibiga bir tomonlama yozma ariza berish yo'li bilan qo'zg'atiladi. Har ikki holda ham nizo predmeti va taraflari ko'rsatilishi zarur (Statutning 40-moddasi 1-bandi).

Sudda ishni ko'rish tartibi 1946-yilda qabul qilingan va 1978 yilda qayta ko'rib chiqilgan Sud Reglamentida bayon qilingan.

Sudda ishni ko'rish ikki qism: yozma va og'zaki qismga bo'linadi. Sud tomonlar memorandumlar, kontrmemorandumlar, ularga javob hamda ularni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish muddatlarini belgilaydi.

Ishni og'zaki ko'rish sud tomonidan guvohlar, ekspertlar, vakillar, ishonchli vakillar va advokatlarni tinglashdan iborat. Agar Sud

boshqacha qaror chiqarmasa yoki tomonlar omma ishtirok etmasligini talab qilmasalar ish ochiq olib boriladi.

Sud ishni eshitishni tugatgach, qarorni muhokama qilish uchun kirib ketadi. Sudning majlislari yopiq kengashda o'tadi va sir saqlanadi. Barcha masalalar qatnashuvchi sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganda Raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Qaror asoslangan va unda uni qabul qilishda qatnashgan sudyalarning nomlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Har bir sudya yozma ko'rinishdagi alohida fikr (qarorga asosli norozilik), individual fikr (asoslarga norozilik) yoki deklaratsiya (norozilikning qisqa tasdig'i) bildirish huquqiga ega.

Qaror sudning ochiq majlisida o'qib eshittiriladi va faqat joriy ish va ishda qatnashuvchi tomonlar uchungina majburiy kuchga ega bo'ladi. Qaror qat'iy va shikoyatga o'rin yo'q. O'z xarakteriga ko'ra ishning natijasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsata oladigan va qaror chiqarish vaqtida sudga ham, qayta ko'rishni so'rovchi tomonga ham ma'lum bo'lmagan yangi ochilgan holatlar asosida ishni qayta ko'rish to'g'risida ariza berilishi mumkin. Qaror chiqarilganidan keyin o'n yil o'tmaguncha ishni qayta ko'rish to'g'risida hech qanday iltimosnoma berilmaydi.

BMT Xalqaro Sudi Statutining 38-moddasida ko'rsatilishicha, sud nizolashuvchi taraflar aniq e'tirof etgan quyidagi manbalarni qo'llab, xalqaro huquq asosida nizolarni hal etadi: xalqaro shartnomalar; xalqaro odat; xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari, buyuk xalqaro huquqshunos olimlarning doktrinalari va sud qarorlari asosida.

Agar ishdagi bir tomon unga sud tomonidan yuklangan majburiyatni bajarmasa, boshqa tomon BMT Xavfsizlik Kengashiga murojaat qilishi mumkin. U esa qarorni ijro etish uchun qanday choralar ko'rish mumkinligini tavsiya qilishi yoki hal qilishi mumkin. Xalqaro sud BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi talabiga ko'ra har qanday yuridik masala bo'yicha konsultativ xulosa berish huquqiga ega. BMTning boshqa organlari va ixtisoslashgan muassasalari Bosh Assambleyaning ruxsati bilan yuridik masalalar bo'yicha konsultativ xulosa so'rashlari mumkin.

Konsultativ xulosa Xalqaro Sud sudyalarning u yoki bu huquqiy masala bo'yicha fikrlarini ifodalashlarini bildiradi va asosan tav-

siyaviy xarakterga egadir. Biroq, BMT Ustavi va Sud Statutining hech bir holati talab bilan murojaat qilgan organ va tashkilotlarga o'z'lari uchun Xalqaro Sudning konsultativ xulosalarini majburiy deb tan olishlarini taqiqlamaydi. Misol uchun, FAO, YUNESKO, XMTning Ma'muriy tribunallari va boshqalar shunday ish tutadi.

Dengiz huquqi bo'yicha xalqaro tribunal 1996-yilda BMTning Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi Konvensiyasi asosida tuzilgan bo'lib, hamkorlikning maxsus sohasi – dengiz huquqidagi nizolarni hal etishga mo'ljallangan.

Statutning 2-moddasiga binoan (BMTning Dengiz huquqi bo'yicha Konvensiyasiga VI ilova) Xalqaro tribunal xolislik va adolatligi bilan katta obro'ga ega bo'lgan va dengiz huquqi sohasidagi bilimi uchun tan olingan shaxslar orasidan tanlab olingan 21 ta sudyadan iborat bo'ladi. Tribunal a'zolari to'qqiz yilga saylanadi va qayta saylanishlari mumkin (bunda birinchi saylovda qur'a bilan qaysi yetti sudya uch yilga, yana yetti sudya olti yilga va yana yetti sudya to'qqiz yilga saylangani aniqlab olinadi).

Tribunal tarkibida dunyoning asosiy huquqiy tizimlarining vakilligi va adolatli jug'rofiy taqsimot ta'minlanishi zarur. Shu maqsadlarda uning tarkibida bir davlatning ikki fuqarosi bo'lmasligi nazarda tutilgan va BMT Bosh Assambleyasi belgilagan har bir jug'rofiy guruhdan kamida uchtdan a'zo bo'lishi zarur (Statutning 3-moddasi).

1982-yilgi Konvensiyaning har bir ishtirokchi-davlati ikkidan ortiq bo'lmagan nomzod ko'rsatishi mumkin. Saylovlar a'zo-davlatlarning uchdan ikki qismi ishtirok etgan yig'ilishda o'tkaziladi. Qatnashchi va ovoz berishda ishtirok etuvchi davlatlarning uchdan ikki qismining ovozi olgan nomzodlar Tribunalga saylangan hisoblanadi.

Statutga ko'ra, Tribunal 1982-yilgi Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari o'rtasidagi shu Konvensiyaning qo'llanishi yoki sharhlanishi bilan bog'liq nizolarini hal qilishi kerak. Bundan tashqari u, agar shunday bitimlar Tribunalning vakolat doirasini nazarda tutsa, dengiz huquqi sohasidagi har qanday xalqaro bitimlarni qo'llash va sharhlash bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal etish huquqiga egadir.

Tribunalni faqat davlatlar o'rtasidagi emas, balki davlatlar va Dengiz tubi bo'yicha organ (ya'ni xalqaro tashkilot) o'rtasidagi, hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni ko'rishga vakil qilinganligi uning o'ziga xosligidir. To'g'ri, bu faqat chuqur dengiz

tubidan foydalanish va uning tartibi bilan bog'liq nizolar uchungina nazarda tutilgan.

Statutda dengiz tubiga taalluqli nizolarni hal etish uchun sudyalardan iborat kameralar tuzilishi nazarda tutilgan. Bu kameralar doirasida har qanday aniq nizoni ko'rish uchun uch a'zodan iborat ad hoc kameralar tuzilishi mumkin.

BMT Xalqaro Sudidagidek, nizolar Tribunalga nizolashayotgan tomonlar o'rtasidagi maxsus bitim asosida yoki tomonlardan birining yozma arizasi asosida, tomonlar Tribunalning majburiy yurisdiksiyasini tan olish bilan bog'langanligi sharti bilan taqdim etiladi.

Ishlarni ko'rishda Tribunal 1982-yilgi Konvensiya va shu Konvensiya bilan mos keladigan xalqaro huquqning boshqa normalarini qo'llaydi hamda agar tomonlar rozi bo'lsalar, ishni ex aequo et bono (adolat va chin vijdon) bo'yicha hal qilishi mumkin (Konvensiyaning 293-moddasi).

Tribunal qarori qat'iy va nizodagi barcha tomonlar uchun majburiydir, buning ustiga u faqat nizodagi tomonlar uchun va faqat shu ish bo'yicha majburiydir (Statutning 33-moddasi). Tribunal Gamburg (GFR) shahrida joylashgan.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Kengashi Sudi (Strasburg, Fransiya) 1959-yilda, 1950-yilgi inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi asosida ta'sis etildi. Bu konvensiyaga 1994-yilda qabul qilingan va 1998-yil noyabrida kuchga kirgan №11 Protokolga ko'ra Sud qayta tashkil etildi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasining vazifalari unga o'tdi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudi 1950-yilgi Konvensiyaning a'zo-davlatlari soniga teng sonli sudyalardan iboratdir. Sudyalar Yevropa Kengashining Parlament Assambleyasi tomonidan ularga berilgan ko'pchilik ovozlar bilan olti yil muddatga (avval to'qqiz yil bo'lgan) saylanadi.

Har bir davlat saylovda qatnashishi uchun uch nomzod ko'rsatadi (Konvensiyaning 22-moddasi).

Sudyalar yuqori axloqiy sifatlarga ega bo'lishlari va yuqori sud mansablariga tayinlashda qo'yiladigan talablarga javob berishlari yoki taniqli huquqshunos bo'lishlari kerak. Sud a'zolari davlatlarning vakillari bo'lmay, Sud ishida xususiy shaxs sifatida qatnashadilar (21-

modda). Ular qayta saylanishlari mumkin, biroq ular 70 yoshga kirganlarida ularning vakolat muddati tugaydi.

Sudning doimiy asosda ishlashi nazarda tutilgan (sudning ish olib borishiga bu o'zgarish №11 Protokol bilan kiritilgan).

Sudning yurisdiksiyasi majburiy xarakterga ega bo'lib, 1950-yilgi Konvensiya va qo'shimcha Protokollarning qo'llanishi va sharhlanishiga taalluqli barcha masalalarga joriy qilinadi.

1950-yilgi Konvensiyaning har bir ishtirokchi-davlati sudga Konvensiya holatlari va unga qo'shimcha Protokollarning boshqa ishtirokchi-davlati tomonidan taxmin qilingan buzilish to'g'risidagi masalani taqdim etishi mumkin (Konvensiyaning 33-moddasi). Sud Konvensiyaning biror qatnashchi-davlati tomonidan buzilishi qurboni bo'lganligini ta'kidlovchi har qanday jismoniy shaxs, nodavlat tashkilot yoki guruhidan shikoyat olishi mumkin (34-modda). Sud Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining iltimosiga ko'ra Konvensiya va Protokollarga taalluqli bo'lgan huquqiy masalalar bo'yicha konsultativ xulosalar berishi mumkin.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudining nafaqat davlatlar o'rtasidagi nizolarni, balki jismoniy shaxslar va nodavlat tashkilotlar tomonidan davlatlar ustidan individual shikoyatlarini ham ko'rishi uning o'ziga xos xususiyatidir. Davlatlararo nizolar sudga bir tomonlama murojaat asosida taqdim etiladi.

Ishlarni hal qilishda Sud Qo'mitalarda, Palatalarda va Yuqori palatada kengashadi. Qo'mitalar uch sudyadan, Palatalar – yetti va Katta palata – 17 sudyadan iborat bo'ladi.

Qo'mitalar – individual shikoyatlar uchun birinchi instansiyadir. Bir ovozdan qabul qilingan qaror bilan Qo'mita shikoyatni nomaqbul deb e'lon qilish mumkin. Bunday qaror qat'iy hisoblanadi. Agar Qo'mita shikoyatni nomaqbul deb hisoblamasa, u Palataga tushadi va Palata ish mohiyatiga ko'ra maqbulligi to'g'risida Qaror chiqaradi.

Davlatlararo nizolarning nomaqbulligi masalasi faqat Palata tomonidan hal qilinadi. Katta palata ishlarni mohiyatiga ko'ra istisno hollarda ko'radi. Agar Konvensiyani sharhlashga taalluqli muhim masalalar to'g'risida gap borsa yoki Qaror sudning oldin chiqargan Qaroriga zid kelishi mumkin bo'lsa, shunday bo'lishi mumkin. Bu holda o'z Qarorini chiqarguncha Palata o'z vakolatlarini Katta palataga bo'shatib beradi (30-modda). Bu nizodagi tomonlardan biri Katta pa-

lataga ishni qayta ko'rish iltimosi bilan murojaat qilganda sodir bo'lishi mumkin (47-modda).

Xalqaro sud organlarining amaliyotida birinchi marta sud tomonidan oldin qabul qilingan qarorni qayta ko'rish imkoniyati nazarda tutildi. Palata Qarori chiqarilganidan so'ng tomonlardan birortasi ishni Katta palatada qayta ko'rilishini so'rashi mumkin bo'lgan uch oylik muddat belgilandi. Katta palataning Qarorlari qat'iy va yakuniydir. Agar tomonlar ishni Katta palataga berilishini talab qilmasliklarini bildirsalar yoki ular Katta palataga murojaat qilishlari mumkin bo'lgan uch oylik muddat tugasa yoxud Katta palata bunday murojaatni qaytarsa, har bir palataning Qarorlari yakuniy bo'ladi.

Sud Qarori Vazirlar Qo'mitasiga jo'natiladi, u esa uning bajarilishini nazorat qiladi.

4. Xalqaro tashkilotlar doirasida nizolarni tinch hal etish mexanizmi

Xalqaro tashkilotlarning Nizomlari nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish bo'yicha mexanizmlarning mavjudligini nazarda tutadi. Xalqaro nizolarni xalqaro tashkilotlar organlari tomonidan ko'rib chiqilishi qoidasi siyosiy vositalar bilan olib boriladi. Qarorlar tavsiyaviy xarakterga ega bo'ladi.

Nizolarni BMT doirasida tinch yo'llar bilan hal qilish. BMT Ustaviga ko'ra Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleya nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vakolati berilgan organlardir. BMT Ustavining VI «Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish» bobiga ko'ra gap birinchi navbatda davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga xavf solishi mumkin bo'lgan nizolar to'g'risida boradi.

Xavfsizlik Kengashi bunday nizolarni hal etishda markaziy o'rinni egallaydi. Ustavning 34-moddasiga muvofiq, Xavfsizlik Kengashi xalqaro nizolarga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki shu nizoning yoki vaziyatning davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga xavf tug'dirishi to'g'risida har qanday nizo yoki vaziyatning tekshiruvini o'tkazishga vakil qilingan. Aynan shu moddaga asoslanib Xavfsizlik Kengashi xalqaro tergov tadbirlarini amalga oshiradi. Tekshiruvni Kengashning o'zi yoki shu maqsadlarda maxsus tuzilgan, joylarga boruvchi Komissiyalar amalga oshirishi mumkin.

Tekshiruv davomida Kengash nizo yoki vaziyatning faktik tomonini aniqlab qolmasdan, ularning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun xavflilik darajasini ham belgilaydi. Kengash tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv an'anaviy tekshiruv tadbirlaridan shu bilan farq qiladi.

Nizo yoki vaziyatning xarakterini aniqlagach, Xavfsizlik Kengashi qator qarorlar qabul qilish huquqiga egadir. U davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikning ta'minlanishiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan nizoning hal etilishi uchun zarur deb hisoblasa, tomonlardan BMT Ustavining 33-moddasida sanab o'tilgan tinchlik vositalari qo'llanishini talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, ko'rsatilgan toifadagi nizo va vaziyatlar uchun Kengash tomonlarga nizoni hal etish uchun, tomonlar oldin qabul qilgan tadbirni inobatga olib, hal qilishning zarur tadbir yoki usullarini tavsiya qilishi mumkin (BMT Ustavining 36-moddasi). Kengash yuridik xarakterga ega bo'lgan nizolar umumiy qoidaga Xalqaro sudga berilishi kerakligini inobatga oladi.

Agar Xavfsizlik Kengashi nizoning davom etishi chindan ham xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solishini aniqlasa, u faqat kerakli tadbir va hal qilish usullarinigina emas, balki o'zi maqbul deb topgan nizoni hal etish vositalarini ham tavsiya qilishi mumkin (BMT Ustavining 37-moddasi).

Bosh Assambleya ham davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga tahdid soladigan nizolarni hal etishi va vaziyatlarni ko'rib chiqishi mumkin.

Bunda Bosh Assambleya nizo yoki ish yuzasidan, agar ularni Xavfsizlik Kengashi ko'rayotgan bo'lsa yoki Kengash buni talab qilmasa, hech qanday tavsiya bera olmaydi (BMT Ustavining 12-moddasi 1-bandi).

Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyaning nizolarni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha vakolatlari BMTga a'zo-davlatlarga ham, agar nizolarni tinch hal etishning BMT Ustavida ko'rsatilgan majburiyatlarni qabul qilsalar, a'zo bo'lmagan davlatlarga ham joriy qilinadi.

BMT tizimidagi maxsus muassasalar va boshqa tashkilotlar o'zlarining ta'sis hujjatlarida nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tadbirlarini, shuningdek nizoni Tashkilotning bosh organlarida ko'rishni nazar-

da tutadilar. Bunday nizolar ta'sis hujjatlari yoki bosh organlarning qarorlarini qo'llash yoki sharhlashga taalluqlidir.

Mintaqaviy tashkilotlar ham o'zlarining ta'sis hujjatlarida nizolarni tinch yo'l bilan hal etish mexanizmlarini nazarda tutadi.

BMT Ustavining 52-53-moddalarida boshqa choralar bilan birga, tomonlarning mintaqaviy tashkilotlar yoki bitimlarga murojaati ham nazarda tutilgan. Bunday bitimlar tuzgan yoki bunday organlarga kiruvchi davlatlar mahalliy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun bor kuchini sarflashlari zarur (BMT Ustavining 52-moddasi 2-bandi). Manfaatdor davlatlar yoki Xavfsizlik Kengashi tashabbusi bilan mintaqaviy bitim yoki organlarga murojaat qilish mumkin. Bunda Kengash mahalliy nizolarni shunday mintaqaviy bitim yoki organlar yordamida tinch yo'llar bilan hal qilinishini rag'batlantirish kerak (BMT Ustavining 52-moddasi 3-bandi).

YXHT doirasida nizolarni tinch hal etish. YXHT doirasida quyidagi to'rt unsurdan tashkil topgan nizolarni tinch hal etish tizimi ishlab chiqilgan: Nizolarni hal etish bo'yicha YXHT Mexanizmi (La Valetta mexanizmi), Yarashtirish bo'yicha YXHT Komissiyasi, Yarashtirish va arbitraj bo'yicha Sud va Direktivali yarashtirish bo'yicha tadbirlar.

Nizolarni hal etish bo'yicha YXHT mexanizmining asosida 1991 yil fevralida Valettada qabul qilingan va Kengashning 1992-yil dekabr-dagi Stokgolm yig'ilishida o'zgarishlar bilan tasdiqlangan Nizolarni tinch hal etish bo'yicha YXHT Proseduralari va Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish Prinsiplari yotadi.

Valetta mexanizmi Kelishtiruv va yarashtirish organi vazifasini bajaradi. Nizodagi tomonlardan birining bir tomonlama murojaatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatishi, uning ajralib turuvchi belgisidir. Nizomning IV bo'limida ta'kidlanishicha, tomonlardan har qaysisi nizodagi boshqa tomon yoki tomonlarni xabardor qilish yo'li bilan nizoni hal etish bo'yicha YXHT Mexanizmini tuzish to'g'risida murojaat qilishi mumkin. Bunday Mexanizm nizodagi tomonlarning umumiy roziligi bilan belgilanuvchi malakali nomzodlar ro'yxatidan tanlab olingan bir yoki bir necha a'zolardan tuziladi. Uning vazifalari to'qnashuvlarning oldini olish bo'yicha Vena Markaziga topshirilgan edi. Ro'yxatga buni xohlagan qatnashchi-davlat tomonidan tayinlanadigan to'rttagacha

shaxs kiritiladi. Mexanizmni tashkil etishda, uning tarkibiga nizodagi taraf-davlatlarning fuqarolari kiritilishi mumkin emas.

Nizolarni hal qilish Mexanizmining vazifasi taraflarga nizoni hal etishning munosib tadbirlarini belgilashda yordam berishdir. Shu maqsadlarda Mexanizm umumiy yoki aniq mulohazalar yoxud tavsiyaviy xarakterdagi maslahatlar taklif qilishi mumkin. Shunday mulohaza va maslahatlarni, nizodagi har qanday tomonning talabiga ko'ra, nizo mohiyati bo'yicha ham berishi mumkin.

Agar tomonlardan biri nizo, hududiy yaxlitlik yoki milliy mudofaa, quruqlik hududi ustidan suverenitet huquqi yoki boshqa rayonlar ustidan yurisdiksiya masalalari bir vaqtda da'voga taalluqli deb hisoblasa, nazarda tutilgan mexanizm qo'llanilmaydi.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha YXHT tizimining ikkinchi unsuri – 1992-yil dekabrda Stokgolmda La Valletta Mexanizmiga qo'shimcha qilib tasdiqlangan, u to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan Yarashtirish bo'yicha YXHT Komissiyasidir. YXHT a'zo-davlatlari o'rtasidagi nizolar, agar nizodagi taraflar kelishsalar, Komissiyaga topshirilishi mumkin. Biroq Nizomning II bobiga ko'ra a'zo-davlat istagan vaqtda o'zaro kelishuv asosida ular va boshqa a'zo davlatlar o'rtasidagi nizoga nisbatan Komissiyaning tadbirlariga rozi bo'lishi mumkin. Bu holda Komissiyaga bir tomonlama tartibda murojaat qilish mumkin bo'ladi.

Nizodagi har bir tomon Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha La Valetta Mexanizmi maqsadlari uchun olib boriluvchi La Valetta ro'yxatidan yo'q deganda bitta vositachini tayinlashi kerak. Ko'rsatilgan vositachilar Komissiya raisi bo'ladigan uchinchi vositachini tayinlashlari zarur.

Komissiyaning qarorlari tavsiyaviy xarakterga egadir. Biroq Nizomning XIV bobiga ko'ra a'zo davlat, umumiy tartibda yoki ma'lum bir nizoga nisbatan Komissiya tomonidan taklif etilgan hal etishning har qanday shartini o'zaro kelishuv sharti bilan majburiy deb Baynot berishi mumkin.

Tizimning uchinchi elementi Yarashtirish va arbitraj bo'yicha Suddir. Uning tashkil etilishi 1992-yil 15-dekabrda Stokgolmda qabul qilingan YXHK doirasidagi yarashish va arbitraj bo'yicha Konvensiyada nazarda tutilgan. Konvensiya 1997-yilda kuchga kirdi. Uning

qatnashchilari – 20 ta davlat. Sud qarorgohi – Jeneva shahri (Shvey-sariya).

Arbitraj tribunali nizolashuvchi tomonlarning ikki tomonlama murojaatiga ko'ra yoki YXHT Vazirlar Kengashining Yarashtiruv Komissiyasiga ma'ruza taqdim etilgandan so'ng 30 kun o'tgach tomonlardan birining bir tomonlama arizasiga ko'ra tashkil etilishi mumkin. Konvensiyaga a'zo davlatlar kerakli bayonot berib, Arbitraj tribunali-niing majburiy yurisdiksiyasini tan olishlari mumkin.

Ma'lum nizoni ko'rish uchun Arbitraj tribunali nizolashuvchi tomonlarning sud tarkibiga tayinlangan arbitrlari va Sud Rayosatining arbitrlar ro'yxatidan tayinlagan arbitrlaridan tuziladi. Tribunal nizolar-ni xalqaro huquqqa muvofiq hal qiladi. Nizolardagi tomonlar rozilik bildirsalar, ishni ex aequo et bono (adolat va chin vijdon) bo'yicha hal qilish mumkin. Qaror yakuniy bo'lib, shikoyat qilinmaydi.

YXHT doirasida nizolarni tinch yo'l bilan bilan hal etish tizimining oxirgi to'rtinchi elementi – direktivali yarashish to'g'risi-dagi Nizomda nazarda tutilgan Direktivali yarashtirish Prosedurasidir. U to'g'risidagi Nizom ham 1992-yil dekabrda Stokgolmda qabul qilingan.

Boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlar ham nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tadbirlarini nazarda tutadi.

Arab Davlatlari Ligasi Paktiga ko'ra Kengashga arbitraj va ya-rashtirish vazifalari berilgan, uning doirasida qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Paktning 9-moddasiga ko'ra ADL Kengashi to-monidan hal qilinadigan nizolar ikki turga bo'linadi. Mustaqillik, suverenitet va hududiy yaxlitlikka taalluqli nizolar birinchi turga kira-di. Agar har ikkala tomon Kengashga shunday nizolarni hal etish uchun murojaat qilsalar, uning qarorlari majburiy va yakuniy bo'ladi. Bunda nizolashuvchi tomonlar (davlatlar) Kengashning muhokama va qarorlarida ishtirok etmaydilar. Nizolarning ikkinchi turga ADL ikki a'zo-davlatlari o'rtasidagi yoki Ligaga a'zo davlat bilan uchinchi to-mon o'rtasidagi urushga olib kelishi mumkin bo'lgan nizolar kiradi. Bunday holda Kengashning o'zi tashabbus ko'rsatishi va bunday nizo-ni hal etishda o'z xizmatlarini taklif etish huquqiga egadir.

ADL amaliyotida nizolar va nizoli holatlar Davlat va hukumat boshliqlarining davriy chaqiriladigan Konferensiyasi tomonidan ham ko'riladi. Nizolarni hal etishda Liganing Bosh Kotibi, Kengash Raisi

hamda bir qator ADLga a'zo davlatlarning vakillari kiradigan vositachilik va yarashtirish bo'yicha komissiyalarni tashkil etish amaliyoti ham yordam bergan.

Afrika Birligi Tashkiloti/Afrika Ittifoqi Xartiyasi 3-moddasi nizoli masalalarni muzokaralar, vositachilik, yarashtirish va arbitraj yo'li bilan hal etilishini nazarda tutadi. Vositachilik, yarashtirish va arbitraj bo'yicha Komissiyaga tinch yo'llar bilan hal etishning muhim organi roli berilgan. Biroq amaliyotda uning faoliyati muhim bo'lmay qoldi. Davlatlararo hamda hududiy nizo va vaziyatlarni hal etishda asosiy rolni ABT/AIning rahbar organlari – Davlat va hukumat boshliqlari Assambleyasi va Vazirlar Kengashi o'ynaydi. Ko'pincha ABT/AI doirasidagi nizolarni hal etish amaliyotida Tergov va kelishtiruv Komissiyalarini hamda arbitraj organlarini tuzishdan foydalaniladi.

Amerika davlatlari o'rtasidagi nizolarni tinch hal etish tizimi *Amerika Davlatlari Tashkiloti Nizomida mustahkamlangan.*

1948-yili qabul qilingan Nizolarni tinch hal qilish to'g'risidagi Amerika shartnomasi (Bogota pakti) amalda biror marta ham qo'llanilmagan. Unda barcha Amerika davlatlari qatnashmaydi, ko'pgina qatnashchilar esa shunday shartlar qo'yganki, ular Paktning qo'llanish doirasini cheklaydi. 1985-yilgi Kartaxen Protokoli bilan ADT Nizomida nazarda tutilgan nizolarni tinch hal qilish tizimi isloh qilindi. Qisman unda nizolarni tinch hal etish bo'yicha Amerikalalararo komissiya tugatilgan va Doimiy Kengash vakolatlari kuchaytirilgan. Doimiy Kengash ADT ishtirokchi davlatlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni ta'minlashni nazorat qilish, shuningdek ular o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga yordam ko'rsatishga vakil qilingan (ADT Nizomini 83-moddasi). Nizodagi har qaysi tomon Doimiy Kengashdan nizoni hal etish uchun yordam ko'rsatishni so'rashi mumkin. Kengash tomonlarga yordam berib, nizoni tinch yo'l bilan hal etish uchun to'g'ri deb hisoblagan tadbirlarni tavsiya qiladi (84-modda). Bundan tashqari, u tomonlarning roziligi bilan ad hoc Komissiya tuzishi mumkin. Bunday Komissiyalar Doimiy Kengash bilan kelishgan holda har bir aniq ish bo'yicha nizolashuvchi tomonlarni kelishtirish vakolatiga egadir (83-modda).

Doimiy Kengash nizolashuvchi tomonlarning roziligiga ko'ra nizolashuvchi tomonlarning hududida faktlarni tekshirish uchun tekshiruv o'tkazishi ham mumkin (86-modda). Agar tavsiya qilingan

tadbirni tomonlar qabul qilmasalar yoki ulardan biri nizo tavsiya qilingan usul bilan hal qilina olmasligini bildirsa Doimiy Kengash bu to'g'rida Bosh Assambleyani xabardor qiladi.

Amerika davlatlari o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi bitimlar orasida Amerikalalararo inson huquqlari bo'yicha sudning ta'sis etilishini nazarda tutuvchi Amerika davlatlari Tashkilotining Nizomi ham muhimdir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kelsak, uning Nizomining 18-moddasida Davlat boshliqlari Kengashi davom etishi hamdo'stlikdagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga tahdid soluvchi nizoni hal etish uchun kerakli tadbir va usullarni tavsiya etish huquqiga egaligi nazarda tutilgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro nizo, nizo va vaziyat o'rtasidagi mutanosiblikni ko'rsatib bering.*
2. *Xalqaro nizolarni tinch hal etishning xalqaro-huquqiy asoslari qanday?*
3. *Xalqaro nizolarni tinch hal etishning xalqaro-huquqiy mexanizmlari haqida so'zlab bering.*
4. *Xalqaro nizolarni hal etishning tinchlik vositalari va ularni hozirgi kun xalqaro mojarolari va nizolarini hal eta olishda tutgan o'rni va muammolarini izohlab bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анисимов Л.Н. Международно-правовые средства разрешения международных споров (конфликтов). – Л., 1975.
2. Блищенко И.П. Мирные средства разрешения споров между государствами. – М., 1962.
3. Клименко В.М. Мирное решение территориальных споров. – М., 1982.
4. Ладьженский А.М., Блищенко И.П. Мирные средства разрешения споров между государствами. – М.: Госюриздат, 1962.
5. Левин Д.Б. Принцип мирного разрешения международных споров. – М., 1977.
6. Мовчан А.П. Мирные средства разрешения международных споров. – М., 1957

7. Пушмин Э.А. Посредничество в международном праве. – М., 1970
8. Пушмин Э.А. Согласительная процедура – средство разрешения международных споров. – Калининград, 1973.
9. Пушмин Э.А. Мирное разрешение международных споров (международно-правовые вопросы). – М., 1974.
10. Самарцева Н.Т. Мирные средства разрешения споров. – М., 1957.
11. Яновский М.В. Мирные средства разрешения международных споров. – Т., 1957.
12. Azud J. The Peaceful Settlement of Disputes and United Nations. – Bratislava, 1970
13. International Disputes: The Legal Aspects. – London, 1972.
14. Raman K.V. Dispute Settlement through the UN. – London: Dobbs Ferry, 1977.
15. Stone J. Legal Controls of International Conflict. – Sidney, 1954.

19-bob. XALQARO JINOYAT HUQUQI

1. *Xalqaro jinoyat va jinoiy aktlar tushunchasi va tasnifi.*
2. *Xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari.*
3. *Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning alohida turlari.*
4. *Jinoiy ishlar bo'yicha davlatlararo huquqiy yordam.*
5. *Xalqaro jinoyat sudlari.*
6. *Jinoyatchilikka qarshi xalqaro institutsional kurash.*

1. Xalqaro jinoyat va jinoiy aktlar tushunchasi va tasnifi

Xalqaro huquqbuzarlik – bu xalqaro huquq subyekting harakati va harakatsizligi bo'lib, buning natijasida xalqaro huquq normalarini va subyekt o'zining xalqaro majburiyatini buzadi, xalqaro huquqning boshqa subyektlari yoki butun xalqaro hamjamiyatga moddiy yoki nomoddiy xarakterga ega ziyon keltiradi. Bunda javobgarlik xalqaro huquqqa subyektlar keltirgan zarar oqibatida kelib chiqadi¹.

Shunday qilib, xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradigan xalqaro huquqbuzarlikning tarkibiy elementlari quyidagilar hisoblanadi: subyekting xalqaro huquq normalarini buzadigan harakati va harakatsizligi; xalqaro xalqaro huquq subyekting huquqbuzarlikni sodir eta olishi; xalqaro huquq subyekting boshqa xalqaro huquq subyekti va subyektlar guruhiga zarar yoki ziyon etkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Xalqaro huquq normalarini bilmaslik yoki uni noto'g'ri qo'llaganlik yoxud talqin qilganlikni ro'kach qilishga ham yo'l qo'yilmaydi. Deyarli barcha huquqbuzarliklar ongli ravishda, o'ylangan reja asosida va aybli ravishda amalga oshiriladi.

Xalqaro huquqda barcha xalqaro huquqbuzarliklarni ularning xavflilik darajasi miqyosi va oqibatidan kelib chiqqan holda uchta katta guruhga ajratish mumkin:

- a) xalqaro jinoyatlar;
- b) xalqaro xarakterga ega jinoyatlar;
- v) boshqa xalqaro huquqbuzarliklar (xalqaro deliktlar)

Xalqaro jinoyatlar – bu xalqaro xavfli huquqbuzarlik bo'lib, davlatlar va millatlarning muhim hayotiy manfaatlariga, hayotiy

¹ Международное право: Учебник / Под. ред. Н.Т. Блатовой. – М., 1987. – С. 169.

asoslariga putur yetkazadi, xalqaro huquqning muhim prinsiplari va normalarini qo'pol ravishda buzadi, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladi va zarar yetkazadi.

BMT xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan tayyorlangan davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi moddalar loyihasida xalqaro hamjamiyatning hayotiy manfaatlarini ta'minlashga asos bo'ladigan, xalqaro majburiyatning davlatlar tomonidan buzilishi natijasida vujudga keladigan, xalqaro-huquqiy qilmishga xalqaro hamjamiyat oldidagi jinoyat deb qaraldi va xalqaro jinoyatni tashkil etadi, deb qayd qilindi¹.

Bunday xalqaro jinoyatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- agressiya, genotsid, aparteid, kolonializm, harbiy jinoyatlar, insoniyatga qarshi jinoyatlar va boshqalar.

Bunday jinoyatlar xalqaro hamjamiyatga aloqador bo'lgani uchun, davlatlar BMT Ustaviga asosan ularning oldini olish uchun kollektiv choralar ko'rish huquqiga egadir².

Xalqaro xarakterga ega jinoyatlar bir necha yoki barcha davlatlarning manfaatlariga tajovuz qiladigan, xalqaro umumiy xavf-xatar keltirib chiqaradigan qilmishlardir.

Xalqaro xarakterga ega jinoyatlar qatoriga quyidagilar kiradi: qulchilik va qullar bilan savdo qilish, giyohvandlik moddalar va psixotrop vositalarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish, havo kemalarini noqonuniy egallab olish, xalqaro terrorizm va boshqalar.

Boshqa xalqaro huquqbuzarliklar (xalqaro deliktlar):

- alohida davlatga yoki xalqaro subyektning cheklangan doirasiga zarar yetkazuvchi huquqiy xatti-harakatlaridir. Bunday hollarda javobgarlik munosabati huquqbuzar davlat bilan huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan davlatlar o'rtasida paydo bo'ladi, huquqbuzarlik davlatlar va millatlarning mavjud bo'lagi va asoslariga daxl qilmaydi va bunday huquqbuzarlik yuqorida ko'rsatilgan huquqbuzarlikning ikki guruhiga kirmaydi.

Bunday xalqaro huquqbuzarlikka chet davlatlardagi diplomatik vakillarning faoliyatiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlarga nisbatan davlat organlarining beparvoligi (harakatsizligi), savdo majbu-

¹ Словарь международного права. – М., 1986. – С. 308.

² Решетов Ю.А. Борьба с международными преступлениями против мира и безопасности. – М., 1983. – С. 54.

riyatlarini buzish va shu kabilar kiradi. Huquqbuzarlikda g'arazgo'ylik maqsadlari va huquqqa zid niyatlar bo'lmasa, bunday huquqbuzarlik xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Yuqorida nomi zikr qilingan dasturning yakunlovchi normalari moliyaviy masalalarni tartibga solib turadi. Moliyaviy ta'minlash BMTning doimiy byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Texnik yordam uchun mablag'lar ishtirokchi davlatlarning ko'pchiligi badallari va manfaatdor moliyaviy tashkilotlarning hisobidan ham bo'lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov bo'yicha BMT fondi tuziladi. Undan tashqari, davlatlarga dasturning operativ tadbirlarni amalga oshirish uchun, shuningdek kurslar, seminarlar tashkil etish uchun, xizmatlar uchun mablag'lar ajratish taklif qilinadi.

2. Xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari

Xalqaro jinoyatlar deb insoniyat uchun xavfli bo'lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlari, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi. Bunda davlatlarni xalqaro jinoyatlarni keltirib chiqaradigan, jinoyat siyosatini amalga tatbiq qiladigan mansabdor shaxslarning qilmishi katta xavf keltirib chiqaradi, xalqaro siyosiy moddiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi davlatlarning jinoyatlarini davlatlarning rahbarlari, oliy mansabdor shaxslar va jinoiy siyosatning boshqa ishtirokchilari ham javobgar bo'ladilar.¹

Birinchi marta xalqaro jinoyatlarning ro'yxati 1945-yilgi Nyurnberg xalqaro harbiy tribunali (XHT)ning Nizomiga va 1946-yilgi xuddi shunday tribunalning Uzoq Sharq bo'yicha tribunal Nizomida keltirilgan edi. XHT Nizomining 6-moddasi xalqaro jinoyatlarni uch guruhga bo'ladi:

- Tinchlikka qarshi jinoyatlar – bu agressiv urushlarni olib borish, keltirib chiqarish, tayyorlash, rejalashtirish yoki xalqaro shartnomalarni, bitimlarni, kelishuvlarni buzgan holda urush olib borish yoki umumiy rejada yoxud fitnada ishtirok etishdir. Ob'yektiv tomon-

¹ Егоров С.А. Вооруженный конфликт: право, политика, дипломатия. – М., 1989. – С. 78.

dan «rejalashtirish» «urushlarga tayyorlanish» tushunchasini qamrab olmaydi.

Bu o'z vaqtida qurollar va harbiy texnikani ishlab chiqarish va sotib olishda, fortifikasion inshootlar va boshqa shu kabilarni qurishda ishtirok etgan Germaniya va Yaponiyaning mansabdor shaxslarini javobgarlikka olib kelgan edi. Urushlarni «keltirib chiqarish» tushunchasiga urushgacha va urush paytidagi faoliyat kiradi, ya'ni davlat rahbarlarining provokasion protokollari, chegaralarga qo'shinlarni to'plash, qarshi tomonni qurolli to'qnashuv keltirib chiqarishga undash, qurolli kuch bilan to'satdan bostirib kirish va boshqa shu kabilar. «Umumiy rejada yoki fitnada ishtirok etish» tushunchasi davlatlarning jinoiy agressiv urushlarda turli shakldagi ishtirokini bildiradi. Shuning uchun ularning barchasi to'liq javobgarlikka tortilishi lozim.

Harbiy jinoyatlar urushlarning quyidagi qonunlari va odatlarini buzganda sodir bo'ladi: bosib olingan hududdagi aholini o'ldirish, qiynoqqa solish; garovga olinganlarni o'ldirish; umumiy yoki xususiy mulkni talash; harbiy zarurat bo'lmagan holda shahar va qishloqlarni hech qanday ma'nosiz vayron qilish va boshqa shu kabi jinoyatlar.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar – bu urushgacha yoki urush davrida tinch aholini o'ldirish, yo'q qilish, qul qilib sotish, surgun qilish va boshqa qat'iy choralarni qo'llash yoxud siyosiy, irqiy, diniy sabablarga ko'ra ularni ta'qib qilish yoki, qayerda amalga oshirilganidan yoki ular davlatlarning ichki huquqini buzish bo'lishidan qat'iy nazar, Tribunal yurisdiksiyasiga kiradigan jinoyatlarni amalga oshirishdir

Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarning ro'yxati 1949-yilgi urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi va 1977-yilgi I Protokolga qo'shimcha bilan to'ldirildi va ular «jiddiy huquqbuzarlik» deb tasniflandi.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar 1968-yilgi insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarga muddatni qo'llamaslik to'g'risidagi Konvensiyada birinchi marta xalqaro jinoyatlarning alohida guruhi sifatida ajratilgan edi. Insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga qurolli hujum va okkupatsiya natijasida aholini haydab chiqarish, aparteid, genotsid siyosatini olib borish oqibatida kelib chiqadigan noinsoniy harakatlar kiritilgan edi. 1973-yilgi aparteid jinoyatlarining oldini olish va jazolash to'g'risidagi Konvensiyada irqiy segregatsiya va irqiy kamsitish ham jinoyat deb baholanadi.

1976-yili BMTning xalqaro huquq komissiyasi davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi moddalar loyihagini ma'qulladi, bunga ko'ra ekotsid, qulchilik va mustamlaka hukmronligi ham insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritildi. Shu sababli xalqaro huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqiladigan jinoyatlar soni o'sib bordi. Bunga 1991-yili xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan qabul qilingan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasi misol bo'la oladi. Bu kodeksda jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar deb bo'linmaydi. Shuning uchun unda umum tan olingan qoidalarga asosan xalqaro jinoyatlar deb quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: agressiya, agressiya tahdidi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish, mustamlaka hukmronligi va chet el hukmronligining boshqa shakllari, genotsid, aparteid, inson huquqlarini doimiy va ommaviy ravishda buzish, alohida jiddiy harbiy jinoyatlar, atrof-muhitga qasddan va jiddiy zarar yetkazish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jinoyatlarga jazoning muqarrarligini ta'minlash uchun xalqaro jinoyat huquqi normalari qidiruv, qamoq va jinoyatchilarni berish qoidalarini tartibga solib turadi. 1946-yildayoq BMT Bosh Assambleyasi o'zining maxsus rezolutsiyasida davlatlarga «harbiy jinoyatchilarni qayerda jinoyat sodir etgan bo'lsa, o'sha davlatlarga ularni jo'natib, o'sha davlat qonunlari asosida ularni javobgarlikka tortish uchun barcha choralarni ko'rish kerakligi haqida» tavsiyalar bergan edi. Keyinchalik BMTning inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi o'zining 29-sessiyasida insoniyatga qarshi va harbiy jinoyatlarda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash, qamash va ularni ushlab jazoga tortish bo'yicha xalqaro hamkorlikning prinsiplari loyihagini ko'rib chiqdi va ma'qulladi. Bosh Assambleya o'z rezolutsiyasida ana shunday to'qqizta prinsipni e'lon qildi¹.

Ana shunday qiyosan yangi xalqaro jinoyatlar bo'lgan genotsid, aparteid, ekotsid va biosid kabilarga qanday javobgarliklar belgilanganligini ko'rib chiqamiz.

Genotsid (tarjimasi – urug', qabilalarni o'ldirish, qirg'in qilish) irqiy, milliy, etnik yoki diniy belgilariga asosan butun bir aholini jismonan yo'q qilishni bildiradi. Genotsidga misol qilib Germaniya, Chili, Janubiy Afrika, Kampuchiya va boshqa mamlakatlarda totalitar

¹ Резолюция 3074 Генеральной Ассамблеи ООН.

rejim hukm surgan paytdagi qirg'inbarotlarni keltirish mumkin. Bunday jinoyatning obyektiv tomoni 1948-yilgi genotsidning oldini olish va unga jazo tayinlash to'g'risidagi Konvensiyada quyidagicha ta'riflangan edi: «Har qanday milliy, irqiy, etnik yoki diniy guruhlarni qisman yoki to'liq yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlar genotsid deb tushuniladi». So'ng genotsid shakllari sanab o'tiladi: shunday guruh a'zolarini o'ldirish; ularga jiddiy yoki og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo'lish; qasddan shunday hayot sharoitlari yaratishni nazarda tutish, bunda kishilarni qisman yoki to'liq jismoniy yo'q qilishga olib kelish; shunday guruhlar orasida bola tug'ilmalik uchun choralar ko'rish va bolalarni zo'rlik bilan bir guruhdan ikkinchi bir guruhga o'tkazish. Bunda nafaqat genotsid, balki genotsidni amalga oshirish uchun fitna uyushtirish, to'g'ridan-to'g'ri va ochiq ravishda bunday jinoyatni amalga oshirishga da'vat qilish, shuningdek unda ishtirok etish ham jinoiy jazoga tortilishiga sabab bo'ladi.

Konvensiyada genotsidda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan universal yurisdiksiya o'rnatilgan.

Birinchiidan, ular qayerda genotsidni amalga oshirgan bo'lsa, o'sha davlat hududidagi va bunday jinoyatlarni sud qilish huquqiga ega sudlar tomonidan sudlanishi kerak.

Ikkinchiidan, aniq bir ishni ko'rib chiqish uchun ma'lum yurisdiksiyaga ega xalqaro jinoyat sudlari tuzilishi mumkin.

Aparteid (tarjimasi – alohida yashash) irqiy kamsitilishning keskin shakllaridan biri bo'lib, davlatlarning butun bir aholisining guruhi, irqiga ko'ra davlatdagi boshqa aholiga nisbatan huquqlari kamsitiladi, ular siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinadilar. Bir irqning ikkinchi bir irq ustidan hukmronligini o'rnatish va ushlab turish hamda ularga doimiy ravishda zulm o'tkazish uchun aholi maxsus ajratilgan joylarda saqlanadi.

1973-yili BMTning Bosh Assambleyasi aparteid jinoyatining oldini olish va uni jazolash to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi, unga ko'ra aparteid xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi, xalqaro huquqqa, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat deb ataldi. Janubiy Afrikadagi aparteidga qarshi qaratilgan bu Konvensiya yanada kengroq ma'noga ega, chunki boshqa mamlakatlarda ham tub aholiga va milliy jihatdan kam bo'lgan aholiga nisbatan irqiy kamsitishlarga yo'l qo'yilmoqda.

Bunday jinoyatning subyektlari bo'lib, qayerda sodir etilganidan va qanday sababga ko'ra sodir etilganidan qat'iy nazar, davlat vakillari, tashkilotlar, tashkilot a'zolari va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ijrochilardan tashqari, aparteid aktlarini amalga oshirishda hamkorlik qilgan yoki qo'llab quvvatlaganlar, bevosita yordam bergan shaxslar hamda tashkilotchilar ham jazoga tortiladi. Bunday jinoyatlarga nisbatan ham universal yurisdiksiya o'rnatilgan. Aybdorlar Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan biron-bir davlatning sudiga tortilishi mumkin. Zarur holda jinoyatchi biron-bir davlatga beriladi, chunki aparteid siyosiy jinoyat hisoblanmaydi. Shuning uchun jinoyatchilarni biron-bir davlatga ushlab berish – ekstraditsiya o'sha davlatning milliy qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.¹ Konvensiyada davlatlar rozilik bergan taqdirda xalqaro jinoyiy tribunal tashkil etish imkoniyati nazarda tutilgan.

Ekosid (tarjimasi – uy, turar joylarni yo'q qilish) xalqaro harbiy jinoyat bo'lib, atrof-muhitga, tabiatga sivilizatsiya uchun ijtimoiy xavfli tajovuz qilishni bildiradi. Uning tarkibiy qismi harbiy ekosid, ya'ni urushda dushmandan harbiy ustunlikka erishish va g'alabani ta'minlash uchun tabiiy shart-sharoitlardan majburiy foydalanish hisoblanadi. Bunda quyidagilarning farqini bilish kerak:

a) geofizik urushlar – vulqonlarni, zilzilalarni majburiy ravishda o'z foydasiga o'zgartirish, ozon qatlamini vayron qilish, abadiy muzliklarga ta'sir o'tkazish va boshqacha shaklda Yer shari tuzilishini yoki tarkibini sun'iy o'zgartirib, urushda g'alaba qilish;

b) meteorologik urushlar, texnik va boshqa vositalar yordamida bo'ron, dovul, sunami, momaqaldiroq, ko'chkilarni vujudga keltirish, qor, yomg'ir yog'dirish va shu maqsadlarda boshqa usullar bilan iqlimni o'zgartirish;

v) yadro quroli, radiatsion, bakteriologik, zaharli, yondiruvchi, infraovozli, radiochastotali va shu kabi ommaviy qirg'in qurollari (OQQ) va boshqa taqiqlangan qurollardan foydalanish.

Insoniyat xavfsizligi va tinchlikka qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasida bu jinoyatlar «oldindan o'ylab va atrof-muhitga jiddiy zarar» yetkazadigan jinoyat deb ataladi, bunda atrof-muhitga, tabiatga uzoq vaqt va jiddiy zarar yetkazishga qasd qilinganligi tushuniladi. Bu moddaga berilgan sharhda atrof-muhitni himoya qilish insoniyat

¹ Ст. 9 Конвенция о пресечении преступления апартеида и наказания за него 1973 г.

uchun katta ahamiyatga ega ekanligi, shuning uchun sivilizatsiyaning asosiy manfaatlariga jiddiy qasd qilgan ijrochilarni xalqaro jinoiy javobgarlikka tortish ko'rsatib o'tiladi.

Shunday qilib, ekosid insonni o'rab turgan tabiatni tuzatib bo'lmaz darajaga olib kelish bilan bog'liqdir. Ekotsidning xalqaro xavfi shundaki, uning oqibatlarini chegara bilmaydi, bir davlatning ekologik muvozanati buzilishi undan ancha uzoqda bo'lgan boshqa bir davlatning atrof-muhitiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Biotsid (tarjimasi – hayotni tugatish) xalqaro jinoyat sifatida ekotsiddan oxirgi o'n besh yil ichida ajralib chiqdi. Biosidning ekotsiddan farqi shundaki, u faqat insoniyatga qarshi qaratilgan bo'ladi va tabiatga ta'sir etmaydi. Uning manbayi agressiv urush va qurolli to'qnashuvlar hisoblanadi va shu jarayonda bu jinoyat amalga oshiriladi. Tinchlik davrida biotsid amalga oshirilmaydi.

Keng ma'noda biosid so'zi qurolli mojaralarda g'alaba qozonish va dushman ustidan harbiy ustunlikka erishish uchun ommaviy qirg'in qurollari yordamida biosferani tirik organizmlar, tirik tabiatni, kishilarni va boshqa tirik mavjudotlarni oldindan o'ylagan holda maqsadli ravishda amalga oshirishni anglatadi. Ular quyidagilar:

Xalqaro huquq bilan hozirgacha taqiqlanmagan, harbiy texnika va qurol, moddiy boyliklarni saqlab, faqat insonni yo'q qilishga qaratilgan neytron qurol;

1972-yilgi Konvensiyaga asosan taqiqlangan va o'rnatilgan tartibda yo'q qilingan bakteriologik, biologik va zaharli qurollar;

1925-yilgi Protokol bilan taqiqlangan, kishilarni yo'q qilishga mo'ljallangan bo'g'uvchi, zaharli va boshqa shu kabi gazlar;

Kimyoviy qurollar, ya'ni qurolli mojaralarda dushmanning tirik kuchini yo'q qilishga qaratilgan o'q-dori va kimyoviy qurilmalar. Bu qurollar kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqish, to'plash va qo'l-lashni taqiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risidagi Konvensiya bilan taqiqlangan. 1993-yili bu Konvensiyani Parijda 154 ta davlat imzoladi. Harbiy mutaxassislariga urush olib borishning yana shunday vositalari ma'lumki, bu brusella vaktsinasi bilan to'ldirilgan bombalar, snaryadlar va raketalar dushman hududida portlatilganda faqat tirik mavjudotga ta'sir etib, moddiy boyliklar va atrof-muhitga o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Ko'pgina davlatlarning harbiy idoralari psixotrop qurollar ishlab chiqishni faollashtirmoqda, bunday qurollarning

komponentlari kishilarning ruhiyatiga ta'sir etib, ruhiy kasalliklar keltirib chiqaradi.

3. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning alohida turlari

Qulchilik, qul savdosi va kishilar bilan savdo qilishning boshqa shakllari. Birinchi marta qulchilikni taqiqlash masalasi, aniqroq aytadigan bo'lsak, qullar bilan savdo qilish masalasi 1815-yili Vena kongressida ko'rib chiqilgan va bunda qullar bilan savdo qilishni bekor qilish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilingan edi. Bu deklaratsiya qulchilikni bekor qilmay, faqat qullar bilan savdo qilishni va mahkumlarni bir joydan ikkinchi joyga tashishni taqiqlagan edi.

Hozirgacha amalda bo'lgan 1926-yil 25-sentabrdagi Qulchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya ham qulchilikni butunlay taqiqlash to'g'risida moddaga ega bo'lmay, Konvensiya ishtirokchilariga «bosqichma-bosqich» va qisqa muddatda qulchilikni tugatishni taklif qiladi. 1926-yilgi Konvensiya qullar bilan savdo qilishni taqiqlaydi va ishtirokchi davlatlarga inson bilan savdo qilishning har qanday shaklining oldini olish majburiyatini yuklaydi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng BMTda qulchilik masalasi ko'rib chiqildi. EKOSOS (Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash) qoshida qulchilik masalalariga bag'ishlangan maxsus Komitet tuzilgan bo'lib, bu Komitet qulchilik muammolarini o'rganib chiqdi va bir qancha mamlakatlarda qulchilikning mavjudligini aniqladi, shuningdek qulchilikka o'xshash institutlar mavjudligini ko'rsatib o'tdi.

1956-yilning 7-sentabrida «Qulchilikni, qul savdosini va qulchilikka o'xshash institut va odatlarni tugatish to'g'risida» qo'shimcha Konvensiya qabul qildi. Bu konvensiya biror kishini qulga aylantirmoqchi bo'lgan shaxslar, qullar tashish bilan shug'ullanuvchi shaxslar, qulga aylantirish uchun kishilarni turli qiynoqlarga soluvchi kishilar, o'zlarini qul qilib sotishga majbur qiluvchilarning jazoga tortilishini nazarda tutadi¹. 1956-yilgi Konvensiyada ham 1926-yilgi Konvensiya singari, qulchilikni qisqa muddatda, tezlik bilan tugatish to'g'risida biron-bir ko'rsatma yo'q.

¹ Ст.ст. 5-6, 17 Дополнительной конвенции об упразднении рабства, работорговли и институтов, обычаев, сходных с рабством от 7 сентября 1956 г.

Giyohvandlik moddalari va psixotrop vositalarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish. Giyohvandlik vositalarini tarqatishga qarshi kurash bo'yicha o'ndan oshiq konvensiyalar, bitimlar va protokollar qabul qilingan. Giyohvandlik jamiyat rivojlanishining doimiy hamrohi bo'lib qoldi va unga qarshi bir qancha davlatlar va BMT organlari kurash olib borayotganiga qaramay, u o'sib bormoqda. Buning asosiy sababi, jamiyatdagi hayot tarzi va dunyodagi ko'pgina davlatlarda giyohvandlik vositalarini tarqatish bilan noqonuniy ravishda shug'ullanayotgan jinoiy tashkilotlar faoliyatining keng tarmoqlanib borishidir. (Masalan: giyohvandlik moddalarini sotish bo'yicha xalqaro kartel).

1961-yil 30-martdagi «Giyohvandlik vositalari to'g'risida»gi Konvensiya (ilgari amalda bo'lgan barcha konvensiyalarning o'rniga qabul qilingan)da giyohvandlik moddalarining ro'yxati tuzilgan bo'lib, ular o'rnatilgan nazorat rejimi, zarari darajasiga ko'ra to'rt guruhga ajratilgan. Taqiqlangan giyohvandlik moddalariga quyidagilar kiradi: opium, heroin, marixuana, nasha va boshqalar. Konvensiya davlatlarga o'z hududida giyohvandlik moddalarini tayyorlash va tarqatish ustidan nazoratni amalga oshirishni nazarda tutadi, giyohvandlik moddalarini ishlab chiqarish va tarqatish (sotish, sotib olish, tashish) bilan bog'liq jinoyatlar tarkibini kvalifikatsiya qilib beradi.

1961-yilgi Konvensiyaga asosan 1968-yili giyohvandlik moddalarini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Qo'mita tuzildi. Bu Qo'mitaning 13 a'zosi bo'lib, ular EKOSOS tomonidan individual tartibda besh yil muddatga saylanadi. Qo'mita giyohvandlik moddalari to'g'risidagi Konvensiyaga hukumatlar tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; davlatlardan giyohvandlik moddalarining yillik ishlab chiqarilishi, iste'mol qilinishi, chetga chiqarish va chetdan olib kelish, shuningdek qancha zaxiraga ega ekanligi to'g'risida ma'lumotlarni so'raydi; xalqaro savdo uchun giyohvandlik moddalarini sotishni aniqlaydi va giyohvandlik moddalari savdosi ustidan nazoratni amalga oshiradi; giyohvandlik moddalari savdosi, aylanishi, tarqalishi masalalari bo'yicha davlatlarga axborot beradi va ularni tinglaydi; zarur hollarda BMTga EKOSOS orqali giyohvandlik moddalarini eksport va import qilishga embargo qo'yish masalasini kiritadi.

Bundan tashqari, BMT doirasida 1946-yildan buyon giyohvandlik moddalari bo'yicha komissiya amal qilmoqda, bu komissiya

EKOSOS tomonidan 4 yilga saylanadi va g'iyohvandlik moddalarini ishlab chiqaruvchi hamda iste'mol qiluvchi 30 davlatning vakillaridan tuzilgan komissiya nazorat qilinadigan g'iyohvandlik moddalarining ro'yxatini belgilaydi, ro'yxatga o'zgartirishlar kiritadi, g'iyohvand moddalar bo'yicha xalqaro bitimlarni nazorat qilish va hayotga tatbiq etish bo'yicha kengashga yordam beradi, ilmiy-texnik axborot almashish bo'yicha tavsiyalar beradi, g'iyohvandlik moddalari ustidan nazorat qilish masalalari yuzasidan xulosalar tayyorlaydi, xalqaro konvensiya loyihalarini ishlab chiqadi. Komissiya shuningdek psixotrop vositalar ustidan xalqaro nazoratni o'rnatish masalasini ko'rib chiqdi va psixotrop vositalar to'g'risidagi Konvensiya loyihasini tayyorladi.

1971-yilning 21-fevralida psixotrop vositalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi qabul qilindi. Psixotrop vositalarga quyidagilar kiradi: trankvilizatorlar, amfetinlar, barbituratlar, LSD va boshqalar. Konvensiya, markaziy nerv sistemasiga, kishilarning fikriga, xatti-harakatiga, miya funksiyasining buzilishi, gallusinatsiyaga olib kelishga ta'sir etish darajasiga qarab psixotrop vositalar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish mezonlarini belgilab berdi¹.

1982-yilgi BMTning dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasi ishtirokchi davlatlarga ochiq dengizda kemalar tomonidan amalga oshiriladigan g'iyohvandlik moddalari va psixotrop vositalar bilan noqonuniy savdo qilishning oldini olishda hamkorlik qilish majburiyatini yuklaydi.

Dengizdagi qaroqchilik. Shaxsiy maqsadlarda xususiy kema yoki uchish apparati ekipaji yoki yo'lovchilari bor boshqa kema yoki uchish apparatiga qarshi yoxud bordagi shaxslarni yoki mol-mulkka nisbatan ochiq dengizda yoki biron-bir davlat yurisdiksiyasidan tashqarida sodir etilgan har qanday g'ayrihuquqiy akti, ushlab turish yoki har qanday bosqinchilik qaroqchilik deb hisoblanadi².

Qaroqchilikka qarshi kurash bo'yicha bir qancha bitimlar mavjud: 1922-yilgi Vashington deklaratsiyasi, 1958-yilgi «Ochiq dengiz haqidagi» Jeneva konvensiyasi, 1982-yilgi «Dengiz huquqi bo'yicha» BMT konvensiyasi.

¹ П. 4 ст. 2 Венской конвенции о психотропных веществах от 21 февраля 1971 г.

² Ст 15 Конвенция об открытом море 1958 г.

Hozirgi paytda qaroqchilik Tinch va Hind okeanlari o'rtasida joylashgan dengizlarda keng tarqalgan (Janubiy Xitoy, Yavan, Selegus va boshqa dengizlar). Qaroqchilik sindikatlari («Vong xonim imperiyasi») tuzilgan bo'lib, ular keyingi yillarda o'z faolligini sezilarli darajada oshirdi, shuning uchun savdo kemalarining bu joylarda suzishi xavfli bo'lib qoldi.

Havo kemalarini noqonuniy egallash va fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qaratilgan boshqa noqonuniy aktlar. Samolyotlarni qo'lga olish va olib qochish, shuningdek fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga boshqacha aralashish aktlari ekipaj va yo'lovchilarning hayotiga xavf tug'diradi, havo transportining faoliyat tartibi buziladi.

Hozirgi paytda davlatlarning havo transportidagi jinoyatlarga qarshi kurashi 1970-yil 16-dekabrda «Havo kemalarini noqonuniy egallashga qarshi kurash to'g'risida»gi Gaaga konvensiyasi va 1971-yil 23-sentabrda «Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida»gi Monreal konvensiyasi asosida olib borilmoqda.

Terrorizm va uning turli shakldagi ko'rinishlari. Xalqaro xarakterdagi terrorizm xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, u begunoh kishilarning o'limiga sabab bo'ladi, davlatlar va ularning vakillari diplomatik vakolatining buzilishiga olib keladi. Xalqaro uch-rashuv va aloqalarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi transport aloqalarini izdan chiqaradi.

Terrorizm asosan begona hududda amalga oshiriladi va chet el davlati yoki davlatlari, shuningdek, o'zining agressiv siyosiy maqsadlariga erishishi uchun terrorchilik aktlaridan manfaatdor bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan mablag'lar bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi terrorizmning siyosiy kurash shakli sifatida tan olinishini qat'iy qoralaydi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bir necha bor bayonot qilgan. O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida chet davlatlarning vakillariga qarshi qaratilgan terrorchilik aktlari – hokimiyatni qo'porish yoki kuchsizlantirish maqsadida odam o'ldirish yoki unga og'ir tan jarohati yetkazish – davlatga qarshi qaratilgan o'ta xavfli jinoyatlar deb tasniflanadi. 2000-yilning dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qildi.

1937-yili 24 davlat vakillari «Terrorizmning oldini olish va uni tugatish to'g'risida»gi konvensiya hamda terrorchilar va boshqa jinoyatchilarni sud qilish uchun «Xalqaro jinoyat palatasi to'g'risida»gi Konvensiyaga imzo qo'ydilar. Konvensiyada terrorchilik jinoyati deb hisoblanadigan harakatlarning ro'yxati to'la ko'rsatib berilgan va aybdor shaxslarni jazolash tartibi belgilangan. Konvensiya terrorchilik aktlarini amalga oshirishni maqsad qilib olganlarni jinoiy guruhlar deb tan oladi. 1937-yilgi konvensiya bir qancha davlatlarning aybi bilan kuchga kirmadi, lekin buning ahamiyati shundaki, bu konvensiya birinchi marta xalqaro siyosiy terrorizmni xalqaro xarakterdagi jinoyat deb kvalifikatsiya qildi.

Oxirgi o'n yillikda xalqaro konferensiyalarda va xalqaro tashkilotlarda diplomatlar va davlat vakillarining daxlsizligini buzish hol-lari ro'y berdi, bu o'z navbatida xalqaro hamkorlik va xalqaro xavf-sizlikni xavf ostiga qo'ydi. Bunday xavf 1973-yil 14-dekabrda xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, jumladan «Agentlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish va ularni jazolash to'g'ri-sidagi» Konvensiyaning davlatlar tomonidan qabul qilinishini tez-lashtirdi.

«Terrorizm» atamasi lotincha «terror» so'zidan olingan bo'lib, qo'rqinch tug'dirish, qo'rquv ma'nolarini anglatadi. Birinchi marta terror siyosiy harakat usuli sifatida Buyuk fransuz inqilobi davrida vujudga kelgan bo'lib, radikal inqilobchilar tomonidan siyosiy dushmanlarga qarshi repressiya maqsadlarida foydalanilgan. Hozirgi kunga kelib «terrorizm» va «terror» atamalari turli ma'noni anglatadi. Terror – bu davlat tomonidan olib boriladigan repressiya siyosati bo'lib, o'zining kuch institutlariga tayanadi. Terrorizm – muxolifatchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan zo'rlikdir. Terror quroli – repressiya bo'lsa, terrorizm quroli – bu terrorchilik aktlaridir.

Bugungi kunda «terrorizm» tushunchasiga umum qabul qilingan aniq ta'rif yo'q. Shuning uchun mualliflar, boshqa mualliflar bergan turli xil ta'riflar va xalqaro konvensiya va shartnomalar qoidalaridan, shuningdek, «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidan kelib chiqqan holda, o'zlarining shaxsiy ta'rifini taklif etadilar:

Terrorizm – bu siyosiy kurash taktikasi bo'lib, doimiy ravishda mafkuraviy asoslangan zo'rlikni ishlatish bilan xarakterlanadi, kishi-

larning hayoti va xavfsizligiga tahdid soluvchi, o'ldirish, diversiya, sabotaj, o'g'irlab ketish harakatlarida ifodalangani.

Bunday zo'rlikdan aniq bir qarshi tomonni yo'q qilish uchun ham, o'zining siyosiy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy maqsadiga erishish uchun hukumatni, partiyalarni, ijtimoiy-siyosiy va diniy harakatlarni, etnik guruhlarni, ijtimoiy qatlamlarni qo'rqitish uchun ham foydalaniladi.

Bunday qarash chet el ekspertlarining fikriga ham mos keladi. Masalan, Uolter Laker terrorizmga quyidagi ta'rifni beradi: «*Terrorizm – bu jamiyatni vahimaga solish maqsadida va shu asosda davlatni kuchsizlantirish, hatto, mansabdor shaxslarni o'ldirish, jamiyatda siyosiy o'zgartirishlar qilish uchun nodavlat tashkilotlar tomonidan zo'rlikni qo'llash yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishdir*»¹.

London Mojarolarni o'rganish instituti direktori B.Kroze terrorizmga – siyosiy maqsadlarga asoslangan zo'rlik deb ta'rif beradi².

Berilayotgan ta'riflar to'liq bo'lishi uchun «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonunida berilgan ta'rifni ham ko'rsatamiz: «*Terrorizm – jinoiy yoki yuridik shaxslarga nisbatan odamlar halokati, ancha miqdordagi mulkiy zarar yetkazish yoxud ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi xavfini tug'diradigan, jamoat xavfsizligiga putur yetkazib, aholisini qo'rqitish, yoki hokimiyat organlarining terrorchilarga foydali bo'lgan qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatish yoki ularning qonuniy mulkiy va (yoki) boshqa manfaatlarini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan zo'rlik yoki uni qo'llash tartibi, shuningdek mol-mulk va boshqa moddiy obyekt-larni yakson qilish (shikastlantirish) yoki shunday qilish tahdidi, davlat va jamiyat arbobining hayotiga uning davlat yoki boshqa siyosiy faoliyatini to'xtatish yoxud bunday faoliyat uchun o'ch olish maqsadida qilingan tajovuz; xalqaro himoya ostida bo'lgan chet el davlat vakiliga yoki xalqaro tashkilot xodimiga, shuningdek xalqaro himoya ostida bo'lgan shaxslarning xizmat xonalariga yoki transport vositalariga urush chiqarish uchun ig'vo qilish yoki xalqaro munosabatlarni chigallashtirish maqsadlarida hujum qilish*»³.

¹ Кажушко Е. Современный терроризм. Анализ основных направлений. – Минск., 2000. – С. 11.

² O'sha joyda. – 25-bet.

³ «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasi.

Terrorizm tabiatiga baho berishga uch xil qarash mavjud: terrorchilik faoliyatining jangovar ko'rinishdan kelib chiqishi, kriminal va ijtimoiy-siyosiy qarashlar.

Birinchi qarashga asosan terrorizmga qurolli harakatlarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri deb qaraladi va «past darajadagi qurolli mojaro» deb belgilanadi;

Ikkinchi qarash masalaning kriminal tomoniga ahamiyat berib, terrorizm jinoyatning bir turi deb hisoblanadi;

Uchinchi qarash ijtimoiy-siyosiy asosdan kelib chiqib, terrorizm siyosiy qurolli mojaro turlaridan biri deb qaraladi¹.

Terrorizm to'g'ridan-to'g'ri terrorchilik aktlarini o'zida namoyon etadi – terrorchilik harakatiga ega jinoyatlarni amalga oshirish terrorchilik operatsiyalarining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Terrorchilik operatsiyasi terrorchilik aktlari va ularni amalga oshirishni o'zida mujassam qilib, uzoq davom etadi. Operatsiya o'tkazishda jangovar guruh, razvedka guruhi, moddiy, tashviqot va xavfsizlikni ta'minlovchi guruhlar ishtirok etishi mumkin. Terrorchilik guruhi aktlarni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni o'ziga majburiyat deb bilgan terrorchilik tashkilotlarining bo'laklaridir.

Terrorchilik tashkilotlari terrorchilik faoliyatini olib borishda o'zining to'liq tarkibiga yoki o'zining bo'linma tuzilmalariga ega bo'ladi. Bu terrorchilik tashkilotlari ko'p sonli jamoaga nisbatan uzoq vaqt mavjud bo'lgan pog'onaviy rahbarlik turlariga ega bo'lgan boshqaruv funksiyasiga bo'ysunishni, terrorchilik operatsiyasini o'tkazishda razvedka, tashviqot va mablag'ga ega bo'lish bilan ajralib turadi, bir davlatning bir qancha mintaqalarida va bir nechta davlatlar hududida o'z filialiga ega bo'ladi. Tashkiliy harakatga ega terrorchilik faoliyati operatsiyaga uzoq tayyorlanishi va xavfsizlik harakati bilan ajralib turadi. Terrorchilik tashkiloti mafkuraviy jihatdan asoslangan dasturga ega va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi.

Sivilizatsiyaning rivojlanishi bilan birga terroristik ta'sir usullari ham rivojlanib boradi. Yo'lovchi samolyotlarni olib qochish bilan bog'liq terrorchilik harakatlari hozirgi paytga kelib terrorchilar tomonidan qo'llaniladigan an'anaviy usullarga nisbatan unchalik qo'rqinchli bo'lmay qoldi. Hozirgi paytda inson hayoti va sog'lig'iga

¹ Некесов М.М., Сапрынов В.Н. Современный терроризм: социальные истоки, цели, проявления. – М., 1984. – С. 43.

zarar yetkazadigan kompyuter terrorizmi ham urush harakatlari olib borish vositasi bo'lib qoldi va bu 1999-yili Yugoslaviya bombardimon qilinganda Amerikaga qarshi kayfiyatda bo'lgan xakkerlar tomonidan qo'llanildi. Shuningdek, terrorchilar tomonidan kimyoviy va biologik hamda yadro qurollaridan foydalanilishi ehtimoli bor.

Shunday qilib, hozirgi zamon terrorchilik faoliyatining an'anaviy shakllariga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Yadroviy terrorizm qurol sifatida radioaktiv moddalardan foydalanishni nazarda tutadi. Yadroviy terrorizm terrorchilarning yadro reaktoriga hujum uyushtirib, uni vayron qilib, o'sha joyni radioaktiv zaharlashni nazarda tutadi, ya'ni yadro qurolining o'zini portlatishdan, yadro qurolini ishdan chiqarib o'sha joyni radioaktiv zaharlashga olib kelish yadroviy terrorizmni tashkil etadi. Ko'pgina mamlakatlarda xalqaro va ichki terrorizm muammolari yadro energetikasini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Buni biz AQSHdagi Oklaxoma shahri (1995-yil) hukumat uyidagi portlashlar va Nyu-Yorkdagi umumjahon savdo markazi (1994-yil va 2001-yil)dagi portlashlar misolida ko'rishimiz mumkin. Fransiyada sanoatchilarga qarshi norozilik harakatlari (1995-yil dekabr) sabotajchilar Bley's AES uchinchi blokining ikkinchi sovituvchi konturiga tuz sepib chiqishgan edi (Fransiyadagi terrorizm tahdidi Parij yer osti metropolitenida terrorchilik aktlarini amalga oshirgan Jazoirlik emmigrantlarning harakati bilan belgilanadi). Tokio metrosida (1995-yil mart) Aum Sinrikyo diniy sektasi tomonidan zaharli moddalarning qo'llanilishi terrorchilar ommaviy qirg'in qurollaridan foydalanishi mumkinligi naqadar aniq fakt ekanligini ko'rsatadi.

Terrorchilar yadroviy moddalarni terrorizmni qo'llab-quvvatlovchi davlatlardan olishlari yoki «qora bozor»dan sotib olishlari mumkin. Yadroviy terrorizm shunisi bilan xavfliki, juda ko'p begunoh odamlar o'lim xavfiga duch keladilar. Terrorchilar tomonidan yadroviy moddalarga ega bo'lish va buni ishlatishda qiyinchiliklar tug'ildasa, bundan foydalanish mumkinligi ehtimoldan holi emas. Yadro obyektlari va yadroviy moddalarga nisbatan bo'ladigan terrorizm aktlari shartli ravishda quyidagicha tasniflanishi mumkin.

Yadro portlatgich qurilmasini qo'porish (yoki qo'porish bilan tahdid solish). Yadro portlatish terrorizmning qo'rqinchli ko'rinishlaridan biridir.

Shuning uchun strategik yadro moddalari (yuqori darajada to'yintirilgan uran va plutoniy) va yadroviy qurollarni asrab-avaylash milliy xavfsizlikning hayotiy masalasi bo'lib hisoblanadi va yadro kompleksi himoyasini tashkil etish ustuvor yo'nalish bo'lib qolishi kerak. Yadro moddalarini himoya va nazorat qilishda oldini olish (preventiv) choralarini, inqirozli vaziyatlarda yadro portlatgich qurilmalarini qidirib topish va shakllantirishni amalga oshirish texnik vositalarini yaratish va ishlab chiqish zarur. Baxtimizga terrorchilar tomonidan yadro qurollarini qo'llash tahdidi hozircha faqat faraz bo'lib qolmoqda.

Radioaktiv moddalar (seziy 137, plutoniy va shu kabilar) bilan zaharlashdan terrorchilik aktlarida foydalanish deganda, ularni aerazol shaklida purkash yoki suv manbalarida eritish tushuniladi. Bunday terrorchilik aktlari oqibatlarini to'xtatish juda katta kuch talab etadi. Ammo ko'pincha terrorchilik aktlari (plutoniyni katta suv manbalarida eritish yoki uni aerazol shaklida purkash, seziy 137 solingan konteynerni portlatish)da radioaktiv zaharlanish mahalliy xarakterga ega bo'ladi va u uncha katta zarar keltirmaydi. Yadro obyektlariga uyushtiriladigan diversiya ko'pgina hollarda tadqiqot markazlariga yoki portlatgich qurilma va yonilg'i sikllariga zarar mahalliy xarakterga ega bo'ladi (sanoat maydoni doirasida). Global kadastrida boshqa yadro qurilmalaridan o'zining ishtirok etish hajmiga ega radioaktiv moddalar va yuqori ichki energiyasiga egaligi bilan ajralib turadi. AES reaktoriga qarshi qo'poruvchiliklarda ko'zga tashlanishi mumkin¹.

Shuni ham esda tutish lozimki, muvaffaqiyatli yadroviy terrorizm aktining oqibatlarini tugatishning moliyaviy va ijtimoiy-siyosiy bahosi preventiv himoya choralarining bahosidan ancha oshadi.

Biologik terrorizm urush olib borishning biologik vositalaridan (bakteriyalar, viruslar va sh.k.) foydalanib aholini eng ko'p darajada yo'q qilishga qaratilgan. Terrorchi tashkilotlar biologik vositalarni o'zlari ishlab chiqarishi yoki «qora bozor»dan sotib olishi mumkin. Bakteriologik (biologik) qurollarni ishlab chiqarish yuqori darajada jihozlangan laboratoriyalar va katta xarajatlarni talab qiladi, shuning uchun terrorchi tashkilotlar ularni o'zlari ishlab chiqarishga qiyinaladilar. Uchinchi dunyo mamlakatlaridan sotib olish ular uchun qulayroqdir. Bunday moddalarni tashish va qo'llash ham qulay.

¹ Обзорение по проблемам оружия массового уничтожения в России и новых независимых государствах // Ядерный контроль. – М., 1998. – № 7. – С. 28-31.

Kimyoviy terrorizm. Kimyoviy qurollar – yadroviy va bakterio-
logik qurollarga nisbatan terrorchilik operatsiyalarini olib borish vosi-
tasi sifatida ancha oddiy va qulay hisoblanadi. Kimyoviy qurollardan
terrorchilik maqsadlarida foydalanishga misol qilib 1995-yili Aum
Sinrikyo tomonidan Tokio metropoliteni yo'lovchilariga kimyoviy hu-
jumni keltirish mumkin. Kimyoviy terrorizm ikki asosiy toifaga bo'-
linadi: birinchidan, mumkin qadar ko'proq qirib tashlash, buning
uchun zaharli moddalar odamlar ko'p to'plangan yopiq joylarga pur-
kaladi; ikkinchidan, terrorchilik aktlari iqtisodiy zarar keltirish niya-
tida oziq-ovqatlarni, suvlarni zaharlash orqali amalga oshiriladi. Kim-
yoviy qurollar yadroviy va biologik moddalarga nisbatan ixcham, ish-
lab chiqarish qulay va arzonidir. Shu sababdan terrorchilar nuqtayi
nazaridan kimyoviy qurollardan foydalanish istiqbollidir.

*Kiberterrorizm (kibernetik urush) kompyuter tarmoqlariga hu-
jum.* 90-yillar oxiriga kelib «kompyuter terrorizmi» vujudga keldi. Bu
o'z navbatida kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi hayotning barcha
sohalarida kompyuter rolining oshib borishi bilan bog'liqdir. Komp-
yuterlarga noqonuniy hujumlar ma'lum bir tashkilotlarning ishlarini
yo'q qilish maqsadida amalga oshiriladi. 1997-yilning avgustida Shri
Lanka hukumatining elektron pochtasiga «Tamil yo'lbarlar» (TOTT)
kiberguruhi hujum qilgan edi. 1998-yilning may, iyun oylarida Hin-
distondagi yadro sinovlariga qarshi bo'lgan xakkerlar Badxdagi Hin-
diston atom tadqiqot markazining elektron pochtasini yo'q qildilar.

Hozirgi kunga qadar kiberterrorizm hukumatlar tarmog'iga sezi-
larli zarar keltirmagan bo'lsa-da, ammo e'tibor berish lozim bo'lgan
omillardan bo'lib hisoblanadi.

Samoviy terrorizmni qo'llash deganda, birinchidan, yerning
sun'iy yo'ldoshini va boshqa kosmik apparatlarni yo'q qilish yoki
ularning to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qilish tushuniladi. Ikkinchidan,
kosmik apparatlarni terrorchilarni aloqa bilan ta'minlash uchun yoki
jangovar terrorchilik operatsiyalarida foydalanish uchun egallab olish
tushuniladi. Samoviy terrorizmni amalga oshirish juda ko'p intel-
lektual va moddiy resurslarni talab qiladigan vazifadir. Samoviy terro-
rizmning hozircha istiqboli bo'lmasa-da, sun'iy yo'ldoshlarning
ko'payib borishi uchun dunyo mamlakatlarining kosmik apparatlar
yaratishiga bo'lgan intilishlari samoviy terrorizm ham samolyotlarni

egallab olishdek oddiy bir holga aylanish imkoniyatini yaqinlashtirmoqda.

Xayjeking – bu transport vositalarini zoʻrlik bilan egallab olish, yaʼni samolyot, poyezd, avtomobil va kemalarni egallab olishdir.

Samolyotlarni tez-tez egallab olish hollari «skayjeking» deb ham yuritiladi. Birinchi aviaqaroqchilik hodisasi 1930-yili sodir boʻlgan edi. 1946-, 1960-, 1961-, 1967-yillari olti martadan samolyotlarga hujum boʻlgan, 60-yillar boshida AQSHda kubalik emmigrantlar va soʻl ekstremistlarning aviaterorizmi avj olgan edi, ular samolyotlarni tashviqot va tovon olish maqsadida olib qochar edilar. 1968-yildan Falastinliklar Yevropa va Yaqin Sharqda aviaqaroqchilik kampaniyasini boshlab yubordilar. Ular diqqat-eʼtiborni arablar olib borayotgan kurashga qaratib, qamoqdagi arab jangarilarini qoʻyib yuborish va tovon toʻlash kabi talablarni ilgari surdilar. 1969-yili 9 fuqaro samolyotini egallab olish amalga oshirildi (bunda 5 kishi qurbon boʻldi, 32 kishi jarohatlandi). 1972-yili 59 marta samolyotlarni olib qochishga urinish boʻldi, shundan 30 tasi muvaffaqiyatli boʻlib chiqdi, 141 kishi qurbon boʻldi, 99 kishi jarohat oldi). Aviaterrorizm oʻz choʻqqisiga 1971-yilning sentabrida yetdi, bunda 11 kun ichida 300 yoʻlovchi qoʻlga olinib, turli xildagi Gʻarb kompaniyalarining 4 ta samolyoti yoʻq qilindi¹.

Aviaterrorizmning keng yoyilishi hukumatlar va aviakompaniyalarning qaroqchilariga qarshi kurashi uchun choralar koʻrishga majbur qildi. Falastinliklarning hujumiga duchor boʻlgan Isroil va Yevropa aviakompaniyalari samolyotlarga terrorchilar bilan kurashga maxsus oʻrgatilgan agentlarni joylashtira boshladilar. 1973-yili Amerika va Yevropa avia xizmatchilari yoʻlovchilarning yuklarini doimiy ravishda tekshirishga kirishdilar. Bu oʻz navbatida terrorchilik faoliyatiga taʼsir etgan boʻlsa-da, lekin uning darajasi yuqoriligicha qolaverdi: 1976-yili 25 aerobus olib qochildi (218 kishi qurbon boʻldi va 215 tasi jarohat oldi). 80-90-yillari havoda qaroqchilik aktlari sodir etilib turgan boʻlsa-da, lekin ularning soni ancha kamaydi².

Shunday qilib, bugungi kunga kelib terrorizmning shunday yoʻnalishlari paydo boʻldiki, milliy hukumatlar jahon hamjamiyati va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ish yuritishi zarur va lozim boʻlib qoldi. Terrorizm va terrorchilik aktlaridan jismoniy himoya tizimi ta-

¹ Жаринов К.В. Терроризм и террористы. Справочник. – Минск., 1999. – С. 33.

² Жаринов К.В. Терроризм и террористы. Справочник. – Минск., 1999. – С. 36.

lablarini ishlab chiqish uchun terrorizm xavfining o'Ichamlarini belgilab olish kerak. Masalan, tahdidlar asosiy modeli mamlakatning ichki va tashqarisidagi jinoiy guruhlar faoliyatini tahlil qilish natijasida ishlab chiqiladi va ular terrorchi guruhlar soni, ular foydalanadigan qurol-yarog'lar va harakat tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Afsuslar bo'lsinkim, demokratik davlatlar birlashib, terrorizmga qat'iy zarba berishga ko'pincha astoydil yondashmayotirlar. Terrorizmga qarshi kurashning keng frontini yaratish, inqirozli vaziyatlarda barcha davlatlar uchun umumiy bo'lgan harakatlar strategiyasini ishlab chiqish va bunga qat'iy rioya qilish, turli davlatlarning politsiya va xavfsizlik xizmatlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish zarur. Umumiy harakatlar bilan terrorchilarni moliyaviy manbalardan uzib qo'yish, terrorchilik bazalarini yaratishga yo'l qo'ymaslik kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganidek: «Ishonchim komilki, biz terrorchilik va ekstremizmning ayrim ko'rinishlariga emas, balki eng avvalo terrorchilarni tashkil etayotgan va yo'naltirayotgan hamda ularni eng zamonaviy vositalar va qurollar bilan ta'minlayotgan yirik moliyaviy va boshqa imkoniyatlarga ega xalqaro markazlarga qarata birgalikda kurash olib borgan taqdirdagina unga qarshi turishimiz mumkin»¹.

Terrorchilarni butun dunyo bo'yicha qonundan tashqari deb e'lon qilish zarur. Buni uyushgan holda bajarish kerak. Dunyo tajribasi terrorchilar bilan yakka holda kurashib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Yadroviy moddalarni o'g'irlash. Yadro texnikasi va yadro ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan yadro moddalarini o'g'irlashga qarshi kurash muammolari ham vujudga keldi. 1980-yilning 3-martida «Yadroviy moddalarni jismoniy himoya qilish to'g'risida»gi maxsus konvensiya qabul qilindi, bu konvensiya yadroviy moddalarni g'arazli maqsadlarda o'g'irlash va tarqalishining xavfsizligini hisobga olib, himoya tartibini, jinoyatchilarni ushlab berish va javobgarlikka tortilish tartibini aniq belgilab bergan.

Konvensiya qoidalari tinchlik maqsadlarida ishlatilayotgan va xalqaro tashuvda bo'lgan yadro moddalariga nisbatan qo'llaniladi. Konvensiya vakolatli organlarning ruxsatisiz oldindan o'ylab amalga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqi // "Xalq so'zi". - T., 2001. - 12 sent.

oshirilgan quyidagi har qanday harakatlarni jazoga loyiq huquqbuzarliklar deb hisoblaydi: kishilarning o'limiga yoki mayib bo'lishiga sabab bo'ladigan yoki mulkchilikka jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yadroviy moddalarni purkash, yo'q qilish, o'zgartirish, birovga berish, foydalanish, egalik qilish yoki olish; yadroviy moddalarni o'g'irlash yoki uni talash; yadro moddalarini aldash orqali o'zlashtirish, olish yoki sotish; kuch ishlatish yo'li bilan yoki kuch ishlataman deb tahdid solish yoki qo'rqitishning boshqa shakllari bilan yadro moddalarini berishga majbur qilish¹.

4. Jinoiy ishlar bo'yicha davlatlararo huquqiy yordam

Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam jinoyatchilikka qarshi kurashdagi xalqaro hamkorlikning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Bu holda huquqiy yordam turli xil ko'rinishda bo'ladi. Shuning uchun uni ikki asosiy yo'nalishda ta'riflash mumkin, ya'ni bunday yordamning mazmuniga ko'ra va bunday yordam haqidagi xalqaro bitimning darajasiga ko'ra.

Mazmuniga ko'ra shakliy ravishda quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

a) huquqbuzarlarni tutib berish bo'yicha yordam;

b) guvoh ko'rsatmalarini olish maqsadida yoki jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda sud, tergov jarayonlariga taalluqli ashyoviy dalillar yoki boshqa hujjatlarni berish. Huquqiy yordamning birinchi turi asosiy hisoblanadi. Bu yordam maxsus xarakterga ega bo'lib, huquqbuzarlarni tutib berish to'g'risidagi turli darajadagi xalqaro bitimlar bilan tartibga solinib turiladi. Bu haqda keyingi paragrafda to'liq to'xtalib o'tamiz. Sud topshiriqlarini amalga oshirish bo'yicha yordam xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinib turiladi va o'zining quyidagi asosiga ega.

a) huquqiy yordam haqidagi ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar;

b) ma'lum jinoyatlar bilan kurash uchun davlatlar o'rtasida tuziladigan ko'p tomonlama shartnomalar;

v) ma'lum bir yordam to'g'risidagi hukumatlararo va idoralararo shartnomalar.

¹ Ст. 7 Конвенция о физической защите ядерного материала от 3 марта 1980 г.

Huquqiy yordam to'g'risida davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama shartnomaga 1959-yilgi «Jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risida»gi Yevropa Konvensiyasi¹ va 1978-yilgi qo'shimcha protokol, shuningdek 1993-yilgi «Jinoiy, ommaviy va fuqarolik ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar va huquqiy yordam to'g'risida»gi Konvensiya misol bo'ladi².

Yevropa Konvensiyasiga asosan uning ishtirokchilari – Yevropa Kengashiga a'zo davlatlar jinoyatchilarni jinoiy taqib qilish masalalari bo'yicha bir-birlariga keng huquqiy yordam ko'rsatish majburiyatini oladilar, bunday jazolash so'rovchi tomonning sud organlari yurisdiksiyasida bo'ladi.

Konvensiya qamoqlarga, hukmlarning majburiy ijro etilishiga, shuningdek harbiy huquq bo'yicha jinoiy ishlarni ta'qib qilishga qo'llanilmaydi, chunki ular umumiy jinoiy huquq, ya'ni harbiy bo'lmagan soha hisoblanmaydi.

Konvensiya, agar joriy jinoiy sudda predmetlar, materiallar, hujjatlar kerak bo'ladigan bo'lsa, uni so'rayotgan tomonga bu narsalarni berish muddatini keyinga surish imkoniyatlarini ham tartibga solib turadi. Shu bilan birga, sud topshiriqlarini bajarish uchun berilgan buyumlar so'rovchi tomonga juda qisqa muddat ichida qaytarilishi kerak. Konvensiya so'rovchi tomonlarning guvohlari, ekspertlari, agar ularning qonunchiligi bunga yo'l qo'ysa, o'z ko'rsatmalarini qasamyod orqali berish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Konvensiyaga asosan so'rovchi tomonga sud materiallaridan kerakli joylar yoki u haqda axborot berish mumkin, bunda uning hajmi sud organlari tomonidan belgilanadi.

Konvensiya o'zaro yordam to'g'risidagi iste'mollar mazmunini (atributlarini) to'liq tartibga solib turadi, bunday yordam bera olmasligi sabablarini tushuntirib beradi. Shuningdek, sud povestkalarini va aybdorlar, ekspertlar va guvohlarning sudga kelish to'g'risidagi qarorlarni berish tartibini ham ko'rsatib beradi.

1959-yilgi Yevropa konvensiyasi qoidalari, 1968-yilgi Chet el qonunchiligiga nisbatan axborotlar to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va 1978-yilgi unga Qo'shimcha protokol, 1970-yilgi Voyaga etma-

¹ Защита прав человека и борьба с преступностью. – М., 1992. – С. 269-281.

² Действующее международное право. В трех томах. Т.1. – М.: МНИИМП, 1996. – С. 108-132.

ganlarning repatriasiyasi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, 1972-yilgi Jinoyat ishlari bo'yicha hujjatlarni berish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, 1977-yilgi Huquqiy yordam haqidagi bayonotlarni berish to'g'risidagi Yevropa bitimi, 1970-yilgi Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarining xalqaro amal qilishi to'g'risidagi Yevropa konvensiyalarida yanada aniqlashtiriladi.

1993-yilgi (MDHga a'zo davlatlar uchun) Jinoyat ishlari, oila va fuqarolik bo'yicha huquqiy munosabatlar va huquqiy yordam to'g'risidagi Konvensiya 1959-yilgi Yevropa konvensiyasining asosiy talablarini hisobga oladi va jinoyatni ta'qib etishni amalga oshirishga taalluqli bo'lgach, uning bir necha qoidalarini yanada aniqlashtiradi.

Konvensiya jinoyatni ta'qib qilishni amalga oshirish to'g'risidagi topshiriqlar atributlarini (mazmunini), boshqa tomonga zarur buyumlarni berish qoidalarni to'liq tartibga solib turadi, shuningdek ularni natijalari haqida xabar berish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, jinoyat ishlari bo'yicha davlatlarga beriladigan huquqiy yordam ma'lum jinoyatlar bilan kurash uchun davlatlar o'rtasida tuziladigan ko'p tomonlama konvensiyalar bilan tartibga solinadi. Masalan, 1988-yilgi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risidagi BMT Konvensiyasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishida va shu sohadagi hamkorlikning boshqa shakllarida ifodalanadigan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni tergov qilishda davlatlarning o'zaro yuridik yordami to'g'risidagi maxsus ko'rsatma mavjud.

Konvensiyaga asosan, o'zaro yuridik yordam quyidagi maqsadlarda so'ralishi mumkin: dalillar va ko'rsatmalarni yig'ish uchun sudda ko'rilgan ishlar bilan sudda tanishish uchun, tintuv va qidiruvlar o'tkazish uchun; buyumlar va joylarni tekshirish uchun; ash-yoviy buyumlar va axborotlarni berish uchun; ma'lum hujjat va materiallarni, jumladan bank, moliya, firma yoki tijorat hujjatlarining tasdiqlangan nusxasini yoki aslini to'plab berish uchun; daromadlarni, mulkni, vositalarni yoki boshqa buyumlarni isbotlash uchun aniqlash yoki belgilab berish uchun.

Tomonlar bir-biriga so'rovchi tomonlar qonunchiligi ruxsat beradigan har qanday shakldagi o'zaro yuridik yordamni berishi mumkin. Tomonlar iltimosiga ularning qonunchiligi va amaliyoti doirasida

shaxslarni, jumladan, qamoqda saqlanayotganlarni ham sud ishlarida ishtirok etishi yoki tergovchi yordam ko'rsatishga rozi bo'lgan shaxslarning ishini yengillashtiradi yoki rag'batlantiradi. Tomonlar bank sirini bahona qilib, huquqiy yordam berishdan bosh tortishga haqli emas.

So'rovchi tomonlar jinoyat ishiga yoki sud jarayonlariga to'sqinlik qiladi deb vaqtinchalik o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishdan bosh tortish huquqiga ega. Bunday hollarda so'rovchi tomon va ikkinchi tomon o'zaro maslahatlashib, yordam ko'rsatish qanday sharoitlarda va qanday muddatlarga berilishi zarurligi to'g'risida kelishib oladi.

Konvensiya guvohlarning, ekspertlarning yoki boshqa shaxslarning jinoyat ishi yoki sudda ko'rsatma berayotgan vaqtda ularning shaxsiy xavfsizligi kafolatini, jinoyat ishi materiallarini o'zaro berish imkoniyatlarini, iltimoslarini amalga oshirish bo'yicha hosil bo'lgan xarajatlarni undirish tartibini va o'zaro yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar yoki shartnomalar tuzish imkoniyatini nazarda tutadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam alohida davlatlar o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomalar bilan ham tartibga solinadi, bular asosan jinoyat, fuqaroviy va oilaviy ishlarni huquqiy munosabatga solib turadigan va huquqbuzarni ushlab berish muammosiga maxsus bag'ishlanib tuziladigan huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalardir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi 1994-yilgi «jinoyat, oilaviy va fuqarolik bo'yicha huquqiy munosabatlar va huquqiy yordam to'g'risida»gi Shartnomada¹ huquqiy yordam to'g'risida maxsus bo'lim bo'lib, tomonlar hududida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan fuqarolarning jinoyat ishini amalga oshirish masalalarini tartibga solib turadi.

Va nihoyat, jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'p tomonlama va ikki tomonlama hukumatlararo va idoralararo bitimlar bilan ham tartibga solinadi.

1993-yili 24-sentabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida uyushgan jinoyatchilikka va jinoyatlarning xavfli turlari hamda

¹ Сборник международных договоров Российской Федерации по оказанию правовой помощи. – М., 1992. – С. 102-121.

korruptsiyaga qarshi kurash Byurosi tuzilib, bu haqda Nizom qabul qilindi¹. Nizomda Byuroning tuzilishi, shtatlari, moliyaviy asoslari, faoliyat yuritishdan asosiy maqsadi va ish yuritish tartibi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida, ularning ichki ishlar vazirliklari bilan quyidagi bitimlar tuzildi: axborot almashish sohasidagi o'zaro munosabatlar to'g'risidagi 1992-yilgi Keli-shuv, 1992-yilgi maxsus texnik buyumlar va moddiy texnik vositalar bilan ta'minlash sohasi bo'yicha hamkorlik to'g'risida, 1992-yilgi gi-yohvandlik moddalari va psixotrop vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risida, 1993-yilgi ope-rativ va xizmat faoliyatini kriminalistik va texnik ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida, 1993-yilgi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida hamkorlik to'g'risida, voyaga etmaganlarni yashash dav-latiga qaytarish masalalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida, 1994-yilgi Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorlik to'g'risida, 1994-yilgi qamoqqa olingan shaxslarni ushlab berish va uni ta-shish tartibi to'g'risida, 1995-yilgi Transportdagi jinoyatchilikka qar-shi kurash sohasida hamkorlik to'g'risidagi va boshqa bitimlar.

5. Xalqaro jinoyat Sudlari

Nyurnberg va Tokio xalqaro harbiy tribunallari. Nyurnberg tribunali. Birinchi jahon urushi tugagandan so'ng xalqaro hamjamiyat agressiv urushlarning keltirib chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng og'ir xalqaro jinoyatlarni amalga oshirgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqishga uringan edi. Masalan, Versal sulh bitimi og'ir jinoyatlari uchun Kayzer Germaniyasini xalqaro jinoiy sudga tortish haqida bandga ega edi, ammo bu amalga oshmadi. Ikkin-chi jahon urushi boshlangandan so'ng va ayniqsa, fashistlar Ger-maniyasining Sovet Ittifoqiga hujumidan so'ng bu urushlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lgan harbiy jinoyatchilarni jazolash g'oyasi ko'pgina xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topdi.

1942-yili 18-dekabrda 12 ta mamlakat hukumatlarining «Yev-ropa hududini gitlerchi hukumati tomonidan tozalash to'g'risida»gi

¹ Действующее международное право. В трех томах. Т.3. – М.: МНИМП, 1996. – С. 132-134.

qo'shma deklaratsiyasida Sovet Ittifoqi va boshqa mamlakatlar bu jinoyati uchun javobgar shaxslarni haqiqiy jazoga tortish uchun amaliy tadbirlarini tezlashtiradi va BMT hamkorligida o'zining tantanali majburiyatini beradi, deb yozilgan edi. Bu holat 1943-yil 30-oktabrdagi gitlerchilarning o'z bosqinchiliklari uchun javobgarligi to'g'risidagi Buyuk Britaniya, AQSH va SSRI hukumatlarining Deklaratsiyasida ham o'z tasdig'ini topdi va bu hujjatda jazoga tortiluvchi shaxslar, aholini yo'q qilish yoki ommaviy qirg'in qilishda aybdor fashistlar partiyasining a'zolari, shuningdek Germaniya soldat va ofitserlari deb belgilandi. 1945-yili uch buyuk davlat Qrim konferensiyasida chiqargan qarorlarda barcha nemis harbiy jinoyatchilarini tezlik bilan adolatli jazoga tortish zarurligi belgilab o'tildi.

1945-yilning iyul-avgust oylarida bo'lib o'tgan uch davlat (SSRI, AQSH, Buyuk Britaniya) Potsdam Konferensiyasida nemis harbiy jinoyatchilarining, shuningdek fashistlar yo'lboshchilari va dushmanlar tashkilotlarining rahbar kadrlari qamoqqa olinib, tezlik bilan adolatli ravishda sud qilinishi haqida kelishib oladilar.

Nihoyat, 1945-yilning 8-avgustida Sovet Ittifoqi, AQSH, Angliya va Fransiya vakillari o'rtasidagi muzokaralar natijasida Londonda Yevropa mamlakatlari Ittifoqi «Bosh harbiy jinoyatchilarning ishini sudda ko'rib chiqish va jazolash to'g'risida»gi (keyingi o'rinlarda – tribunal) bitim imzolandi va bu asosda mamlakatlar ittifoqi bosh harbiy jinoyatchilari ustidan sud o'tkazish uchun xalqaro harbiy tribunal ta'sis etildi va tribunal tashkil etish tartibini hamda uning ish prinsiplarini belgilab beradigan nizom qabul qilindi¹.

Tribunal nizomida uning yurisdiksiyasi ta'riflanib, umumiy prinsiplari belgilab berilgan edi. Tribunal quyida ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etgan nemis harbiy jinoyatchilarini sud qilish va jazolash huquqiga ega edi:

a) tinchlikka qarshi jinoyat, ya'ni: agressiv urushlarni rejalashtirish, tayyorlash, olib borish yoki xalqaro shartnomalarni, bitimlarni buzgan holda urush olib borish yoki yuqorida bayon qilinganlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada ishtirok etish;

b) harbiy jinoyatlar, ya'ni: urush odatlari yoki qonunlarini buzish. Bunday huquqbuzarliklarga okkupatsiya qilingan hududdagi

¹ Действующее международное право. В трех томах. Т.3. – М.: МНИМП, 1996. – С. 761-770.

aholini o'ldirish, jabr-zulm o'tkazish va qullikka solish, harbiy asirlarni yoki harbiy kuchlarga yordamchi bo'lgan shaxslarni o'ldirish yoki jabr-zulm qilish; garovga olinganlarni o'ldirish; umumiy va xususiy mulkni talash; shahar va qishloqlarni bekordan-bekorga vayron qilish; harbiy jihatdan zarur bo'lmagan hollarda kulfatlar keltirib chiqarish va boshqa jinoyatlar;

v) insoniyatga qarshi jinoyatlar, ya'ni urushgacha va urush davrida aholini o'ldirish va qirg'in qilish, qullikka solish, surgun qilish yoki boshqacha jabr-zulmlarni amalga oshirish yoki siyosiy, irqiy, diniy sabablarga ko'ra ta'qib qilish yoki tribunal yurisdiksiyasiga kiradigan har qanday jinoyatlar, ular qayerda amalga oshirilganidan qat'iy nazar.

Umumiy reja yoki fitnani amalga oshirishda ishtirok etganlar yoki uning rahbarlari, tashkilotchilari va yordamchilari barcha harakatlari uchun javobgarlikka loyiq deb topildi.

Tribunal nizomining umumiy prinsiplariga sudlanuvchining jinoyatdagi roli, aybdor shaxs harakatlarini, hukumat farmoyishlari yoki boshliq buyrug'i asosida amalga oshirganligining yuridik ahamiyati va shaxsning yakka tartibdagi javobgarligi bilan sudlanuvchi kirgan ma'lum guruh yoki tashkilotlarning javobgarligiga nisbatini kiritdi.

Tribunal u yoki bu guruh, yopiq tashkilotlarning ishini ko'rib chiqishda sudlanuvchi a'zo bo'lgan guruh yoki tashkilotni jinoiy tashkilot deb tan olishga haqli hisoblanadi. Agar tribunal u yoki bu guruh va tashkilotlarni jinoiy tashkilotlar deb tan olgan bo'lsa, tribunalni ta'sis etgan mamlakatlarning vakolatli milliy hokimiyat vakillari bu jinoiy guruh yoki tashkilotlarni sud qilish huquqiga ega bo'ldilar. Bunday hollarda bu guruh yoki tashkilotlarning jinoiy xarakterga ega ekanligi isbotlangan hisoblanib, ularni oqlashga hech kimning haqqi yo'q edi.

Nizom asosida bosh harbiy jinoyatchilarni ayblash va tergov ishlarini olib borish uchun komitet tuzildi. Ana shu maqsadda bitim va nizom bo'yicha tomonlar bosh qoralovchi tayinladilar. Qoralovchilar komitet a'zosi sifatida quyidagi maqsadlarga erishish uchun faoliyat olib bordilar:

a) har bir qoralovchining shaxsiy ish rejasi bilan tanishish va ularning shtatini belgilash;

- b) tribunal sudida ishi ko'rib chiqiladigan shaxsni aniqlash;
- v) tribunal ish tartibining loyihasi yuzasidan tavsiyalar tuzish.

Xalqaro harbiy tribunalning ish tartibi va nizomi turli xil huquqiy tizim protsessual normalarining qo'shilishi natijasida tuzildi: anglosakson (AQSH va Buyuk Britaniya), sotsialistik (Sovet Ittifoqi), kontinental (Fransiya). Masalan, tribunal sovetlar uchun xarakterli bo'lgan faol sud prinsipidan foydalandi. Shuningdek, anglo-sakson huquqiga mansub bo'lgan bir necha tomonlama so'roq qilish usuli ham qo'llanildi. Tribunal anglosakson huquqiga ma'lum bo'lgan jinoyat sodir etganligi uchun tashkilotlarning javobgarligi konsepsiyasini ham qo'lladi.

Sudda ishtirok etish 1945-yilning 20-noyabrida boshlandi. Sudda 24 ta bosh nemis harbiy jinoyatchilarining ishi ko'rib chiqildi.

Ayblor akti Gitler Germaniyasining quyidagi guruh va tashkilotlarini jinoiy guruh va tashkilotlar deb tan oldi:

1) imperiya ministrlar kabineti; 2) fashistlar partiyasining rahbar tarkibi; 3) fashistlar partiyasining muhofaza qiluvchi otryadlari (SS), xavfsizlik xizmati (SD); 4) davlat yashirin politsiyasi (gestapo); 5) fashistlar partiyasining shturmchi otryadlari; 6) Germaniya qurolli kuchlarining bosh shtabi va oliy bosh qo'mondonligi (OKB).

Hammasi bo'lib tribunalning 403 ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Tribunal 3 mingdan oshiq hujjatlar bilan ta'minlanib, 200 ga yaqin guvohlarni so'roq qildi. 1946-yilning 1-oktabrida hukm e'lon qilindi. 12 bosh harbiy jinoyatchi otib o'ldirishga, uchtasi umrbod qamoq jazosiga hukm etildi, to'rttasi 10 yildan 20 yil muddatgacha qamoq jazosiga tortildi. Tribunal quyidagilarni jinoiy tashkilotlar deb tan oldi: SS, gestapo, SD, fashistlar partiyasining rahbar tarkibi. Tribunal uch harbiy jinoyatchini aybi yo'q deb hisobladi va qoralovchilarning Germaniya qurolli kuchlari bosh shtabi va oliy qo'mondonligi, fashistlar partiyasining shturmchi otryadlarini (SA) jinoyatchi tashkilotlar deb tan olish yuzasidan bergan takliflarini rad qildi.

1946-yilning 16-oktabriga o'tar kechasi tribunal majlislari binosining yaqinida joylashgan qamoqxonada hukm ijro etildi. Qatl qilinganlarning jasadlari kuydirilib, ularning kuli samolyotdan to'zg'itib yuborildi. Ozodlikdan mahrum etilganlar G'arbiy Berlingdagi Shpandau qamoqxonasiga joylashtirilib, to'rt ittifoqchi davlatlarning

harbiy xizmatchilari muhofazasi ostida o'zlariga berilgan jazo muddatini o'tadilar.

BMT Bosh Assambleyasi 1946-yilning 11-dekabridagi qarori bilan Nyurnberg tribunali nizomi bilan tan olingan va uning hukmlarida o'z aksini topgan xalqaro huquq tribunallarini tasdiqladi. Bu prinsiplar xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi xalqaro huquq prinsiplari va normalarining rivojlanishiga muhim ta'sir o'tkazadi va doimiy ahamiyatga egadir.

Tokio xalqaro harbiy tribunali. Ma'lumki, 1945-yilning 3-sentabrda Ikkinchi jahon urushi militaristik Yaponiyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Yapon militaristlari xalqlarga qarshi eng og'ir jinoyatlarni sodir etdilar. Shu sababli Potsdam konferensiyasi qarorlari va yapon harbiy jinoyatchilarini jazolash masalasi ham ko'rib chiqildi. Yaponiya tor-mor qilingandan so'ng 1945-yilning dekabrda Moskva-da bo'lgan SSRI, AQSH, Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirlari kengashi yig'ilishida Uzoq Sharq komissiyasi va Yaponiya umumittifoq kengashini tashkil qilish va ularning huquq doirasini belgilash to'g'risidagi bitimga erishildi. Uzoq Sharq komissiyasining qarorlari bilan yapon harbiy jinoyatchilarini qamoqqa olish, sud qilish va jazolash masalalari belgilab chiqildi. 1946-yilning 19-yanvaridagi ittifoqchi davlatlarning bosh qo'mondonlari olib borgan muzokaralardan so'ng Uzoq Sharq uchun xalqaro tribunal nizomi tasdiqlandi.

Nizomga asosan tribunal «Uzoq Sharqdagi bosh harbiy jinoyatchilarni adolatli ravishda va tezlikda sud qilib jazoga tortish uchun» tuzilgan edi. Tokio tribunal sudiga 28 ta Yaponiya davlati rahbar arboblari topshirildi. Tribunal 25 ta sudlanuvchiga nisbatan ayblov hukmini e'lon qildi, ularning 7 tasini olib o'ldirishga, 16 tasini umrbod qamoqqa, 2 tasini 20 va 7 yil ozodlikdan mahrum etishga hukm qildi. 1948-yilning 22-dekabrda o'lim jazosi berilganlar ustidan hukm ijro etildi.

Nyurnberg sudi kabi, Tokio sudi ham xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi xalqaro huquq prinsiplari va normalarining rivojiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Sobiq Yugoslaviya va Ruanda uchun xalqaro jinoyat tribunallari. Ruanda va sobiq Yugoslaviya hududidagi mojarolar moybaynida xalqaro gumanitar huquq normalarining qo'pol ravishda buzilishi juda ko'p kishilarning o'limi BMT xavfsizlik kengashi tomo-

nidan 1993-1994-yillarda ikkita jinoiy xalqaro sudlarning ta'sis etilishiga olib keldi. Ular quyidagicha nomlandi: 1991-yildan sobiq Yugoslaviya hududida sodir etilgan xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishi uchun javobgar bo'lgan shaxslarni sud qilish xalqaro jinoiy tribunali, Ruanda hududida sodir etilgan genotsid va xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilganligi va 1994-yilning 1-yanvaridan 31-dekabrigacha Ruanda fuqarolari tomonidan sodir etilgan genotsid va boshqa shunga o'xshash jinoyatlar uchun xalqaro jinoiy tribunal.¹

Tribunallar nomlanishining o'zi bizga ularning yurisdiksiyasi haqida tasavvur qilish imkonini beradi – shaxslarga oid, hududiy, muvaqqat.

Tribunallar favqulodda tartibda ta'sis etildi, ya'ni BMT xavfsizlik kengashi qarori bilan. O'z qarorini asoslash uchun xavfsizlik kengashi BMT Ustavining 7-bobiga murojaat qildi. Bu bob agressiya aktlari, tinchlik buzilganda, tinchlikka tahdid solinganda kengashning vakolatlariga bag'ishlangan. Unda harbiy jinoyatchilarni jazolash tinchlikni tiklash va qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, deb ko'rsatib o'tiladi.

Kengash vakolatlarining yanada to'laroq asoslanishi BMT bosh kotibining ma'ruzasida ifoda etilgan.² Shartnomalar tuzish orqali tribunallarni tashkil etish ko'p yillarga cho'zilishi va oxir-oqibatda uning kuchga kirishi uchun zarur bo'ladigan ratifikatsiyalarni yig'ish mumkin bo'lmas edi.

Shuning uchun tribunallarni ta'sis etishning yagona imkoniyati BMT Ustavi VII bobi asosida xavfsizlik kengashining yuridik kuchga ega qarorlari edi.

Sobiq Yugoslaviya uchun tribunal yurisdiksiyasiga uning Nizomi «xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishini» kiritdi. Bu yerda gap umum tan olingan odat normalari, 1949-yilgi Jeneva Konvensiyasida o'z aksini topgan urush qurbonlarini himoya qilish haqidagi va 1907-yilgi VI Gaaga Konvensiyasida va unga qo'shimcha protokolda o'z aksini topgan urush olib borish qoidalari to'g'risidagi normalar ustida bormoqda. Tribunal yurisdiksiyasiga genotsid va insoniyatga qarshi jinoyatlar ham kiritildi.

¹ Трибунал Уставларини харанг: Московский журнал международного права. – М., 1996. – № 1.

² UN Documents S /25704. – 1993. – 4 May. – P. 7.

Ruanda uchun ta'sis etilgan Tribunal xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlarda sodir etilgan jinoyatlarni ko'rib chiqqanligi uchun, bu erda qo'llaniladigan gumanitar huquq Yugoslaviya uchun tuzilgan tribunaldagidan farq qiladi. Bu yerda birinchi o'rinda genotsid, keyin insoniyatga qarshi jinoyatlar, shuningdek xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlarga taalluqli bo'lgan normalarga ega 1949-yilgi Jeneva Konvensiyasining 23-moddasi va 1977-yilgi bu konvensiyaga qo'shimcha ikkinchi Protokoldagi urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi umum tomondan qabul qilingan normalar turadi.

Jeneva huquqiga qarshi, ya'ni urush qurbonlariga nisbatan jinoyatlarga Yugoslaviya uchun tuzilgan Tribunal Nizomida quyidagilarni ko'rsatib o'tdi: qasddan o'ldirish; qiynoqlar, biologik tajribalar; qasddan azobga solish yoki sog'liqqa jiddiy zarar yetkazish; harbiy zaruratsiz mulkni ommaviy ravishda vayron qilish va egallab olish, harbiy asirlar yoki fuqarolarni adolatli sudlov huquqidan ataylab mahrum qilish; fuqarolarni noqonuniy deportasiya qilish yoki qamash; garovga olish.

Ruanda uchun Tribunal Nizomi xalqaro xarakterga ega bo'lmagan to'qnashuvlarga taalluqli Jeneva huquqiga qarshi jinoyatlarning to'liq ro'yxatini qamrab olmasdan, quyidagilarga to'xtalib o'tadi: shaxsning hayotiga, sog'lig'iga, jismoniy va ruhiy holatiga nisbatan zo'rlik ishlatish, jumladan, o'ldirish, qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lish (qiynash, mayib qilish); kollektiv jazo; garovga olish; terrorchilik harakatlari; shaxs qadr-qimmatini yerga urish; jumladan, kamsitish, nomusga tegish, fohishalikka majbur qilish va hokazolar, talonchilik; sud qilmasdan hukm chiqarish va hukmni ijro etish; yuqorida sanab o'tilgan qilmishlarni sodir etish bilan tahdid qilish esa alohida jinoyat bo'lib hisoblanadi.

Urush qonunlari va odatlariga qarshi jinoyatlar qatoriga Yugoslaviya uchun tribunal Nizomi quyidagilarni kiritdi: qo'shimcha azob-uqubatlar solishga mo'ljallangan qurol yoki zaharli moddalarni qo'llash; harbiy zaruratsiz shahar va qishloqlarni vahshiyona tarzda vayron qilish; himoyasiz shahar va qishloqlarni yoki binolarni bombardimon qilish yoxud ularga hujum qilish; diniy, xayriya yoki ta'lim maskanlariga, shuningdek fan va san'at asarlariga qasddan zarar keltirish

yoki ularni vayron qilish; xususi yoki umumiy mulkni talash. Yuqorida sanab o'tilgan jinoyatlar soni to'liq emas. Ikkala Nizomda ham genotsid jinoyatiga ta'rif 1948-yilgi genotsid jinoyatining oldini olish va uni jazolash to'g'risidagi Konvensiyaga asosan berilgan.

Yugoslaviya tribunali ikkita sud va bitta appelatsiya kamerasidan, qoralovchi va kotibdan iborat. Jami 11 sudya bo'lib, har bir sud kamerasiga uchtdan sudya va Appelatsiya kamerasida beshta sudya mavjud. Kuch va vositalarni tejash maqsadida Yugoslaviya tribunalning Appelatsiya kamerasi Ruanda tribunalida ham ishtirok etadi.

Yugoslaviya tribunalining doimiy qarorgohi Gaaga shahri (Niderlandiya Qirolligi) hisoblanadi. Ruanda tribunalining qarorgohi esa Arusha shahri (Tanzaniya)dir. Tribunallar BMTning doimiy budjetidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Tribunallarning birinchi darajali ahamiyatga ega faoliyati davlatlar bilan hamkorlik qilish va ularga huquqiy yordam ko'rsatishdir. BMT Bosh kotibining fikricha, Xavfsizlik Kengashining qarorlari Nizomning VII bobiga asosan barcha davlatlarni qarorlarni amalga oshirish uchun butun choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi. Tribunallar Nizomiga asosan davlatlar sudda ish yuritish va tergov masalalarida Tribunal bilan hamkorlik qiladilar.

Davlatlar sud kameralarining yordam berish to'g'risidagi iltimosini yoki buyruqlarini hech bir kechiktirmay bajarishlari, jumladan, quyidagi harakatlarni: shaxsning kimligi va turar joyini aniqlash; guvohlarning ko'rsatmalarini olish va dalillar yig'ish; hujjatlarni berish; ushlab yoki qamoqqa olish; aybdorlarni tribunallarga topshirish kabilarni bajarishlari lozim.

Bu qoidalar bilan birga yuridik muammolar ham paydo bo'ldi. Ko'pgina davlatlarning qonunlariga ko'ra, huquqiy yordam ko'rsatish uchun, jumladan, jinoyatchini ushlab berish uchun ma'lum bir xalqaro shartnomalar ham zarur bo'ladi. Xavfsizlik Kengashining qarorlari davlatlarga yuridik majburiyat yuklasa-da, lekin ular o'z-o'zidan bajariladi, deb tan olmaydi. Bu davlatlar ularning qarorlarini bajarish uchun o'z davlatlarida ma'lum bir normativ aktlarini qabul qilishi kerak bo'ladi. Bir qancha Yevropa mamlakatlari Yugoslaviya tribunali bilan hamkorlikda ma'lum bir darajaga erishgan bo'lsa-da, Afrikada bu vazifa hal etilmadi, shuning uchun Ruanda uchun tribunal muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'ldi. Bularning barchasi sudyalarni va ular-

ning o'z majburiyatiga bo'lgan munosabatlariga ham ta'sir qilmay qolmadi. BMT ekspertlarining dokladida tribunalning ish faoliyati qoniqarsiz deb tan olindi. Dokladda, jumladan, tribunal rahbariyatining asosiy rahbar shaxslari va qoralovchilari byurosi o'z majburiyatlarini samarali bajarmayotibdilar deb qayd qilib o'tildi.

Tribunallar va milliy sudlar xalqaro gumanitar huquqni jiddiy buzgan shaxslarga nisbatan sudda ish yuritish bo'yicha bir xil yurisdiksiyaga egadirlar. Bu, nafaqat jinoyat sodir etilgan hududdagi davlatning, balki har qanday davlatning sudlari xalqaro gumanitar huquq normalarini buzgan shaxslarning ishini ko'rib chiqish huquqiga ega demakdir. Boshqacha aytganda, universal yurisdiksiya o'rnatilgan demakdir. Bu qoida jiddiy ahamiyatga ega, chunki tribunal barcha ishlarni qarab chiqishga ulgurmaydi.

Xalqaro jinoyat Sudi. Xalqaro jinoyat Sudi g'oyasi uzoq tarixga ega emas. Huquq tizimi mavjud ekan, uning harakati jinoiy-huquqiy vositalar bilan ta'minlanmog'i lozim. Nyurnberg harbiy tribunali chiqargan hukmlarda xalqaro jinoyatlarni davlatlar emas, balki kishilar sodir etadi, deb qayd etib o'tildi.

Bu qoidaning ma'nosi tushunarli bo'lsa-da, lekin u unchalik to'g'ri emas. Xalqaro huquq davlatlar tomonidan ham buzilishi mumkin. Masalan, agressiya – bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan jinoyatdir. Ammo bu yerda javobgarlikka davlatgina emas, uning ma'lum qarorlarini qabul qilgan rahbarlari ham tortiladi. Bunda javobgarlik turlichadir. Davlat xalqaro-huquqiy javobgarlikka, jismoniy shaxs esa – jinoiy-huquqiy javobgarlikka tortiladi.

1914-yili Yugoslaviya qiroli Aleksandr I Fransiyaga tashrifi chog'ida va Fransiya tashqi ishlar ministri L.Toaftu urush boshlanishidan oldin kollektiv xavfsizlik tizimini yaratishga erishadilar, ammo ular xorvat terrorchilari tomonidan o'ldiriladi. Jinoyat izlari Berlin va Rimga borib taqaladi.

Dunyo hamjamiyati xalqaro terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishni, xalqaro jinoiy Sudlarni tashkil qilishni talab etdi. Ana shunday sharoitda millatlar ligasi 1937-yili terrorizmning oldini olish va uni jazolash to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi. Konvensiya xalqaro jinoiy tribunal maqomini oldi. Ammo faqat birgina davlat (Hindiston) Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro harbiy tribunallarning tashkil etilishi ancha

muvaffaqiyatli bo'ldi, ammo ular ham bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatning rahbarlari ustidan sud o'tkazish uchungina tuzildi. Shuning uchun Nyurnberg va Tokiodagi sud jarayonlari g'oliblar mag'lublarni ustidan o'tkazgan sud deb nomlanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi ko'pgina konvensiyalardan faqat ikkitasigina (genotsid va aparteid to'g'risida)gi xalqaro jinoiy sudni tuzish imkoniyatini ko'rib chiqadi. Shunisi quvonarliki, 1948-yili BMT o'z faoliyatini boshlagan chog'ida, Bosh Assambleya xalqaro huquq Komissiyasiga xalqaro jinoiy Sudlarni yaratish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni taklif qildi. Komissiya 1994-yili xalqaro jinoiy Sud Nizomining loyihasi ustida ishni tamomlab, Bosh Assambleyaga Konvensiyani qabul qilish uchun konferensiya chaqirishni tavsiya qildi¹.

Xalqaro huquq Komissiyasining loyibasidan foydalangan holda BMTning Xavfsizlik Kengashi sobiq Yugoslaviya va Ruanda uchun xalqaro tribunallarni ta'sis etdi. Bu tribunallar ham bir davlatni yoki boshqa bir davlatlarning fuqarolarini sud qilish uchun tuzilgan deb xulosa qilishimizga imkon beradi.

Bu harakatlar barcha davlatlar uchun umumiy bo'lgan xalqaro jinoiy Sudni ta'sis etish uchun asos yaratmoqda. Bu g'oyani amalga oshirish uchun sezilarli darajada ahamiyatga ega bo'lgan holat shu bo'ldiki, bugun xalqaro hamjamiyat, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning rivojlanishi shunday darajaga yetdiki, bunda xalqaro jinoyat Sudini tashkil etish haqiqatga yaqin bo'lib qoldi².

1998-yilning 17-iyulida Rimda diplomatik konferensiyaning muxtor vakillari BMT homiyligida «Xalqaro jinoyat Sudining Rim Statuti»ni qabul qildi. Konferensiya ishida 160 davlatning delegatlari ishtirok etdi. Statutni qabul qilish uchun 120 ta davlat ovoz berdi, 21 davlat betaraf qoldi va 7 tasi qarshi ovoz berdi. Rim konferensiyasida sudning vakolatlarini kamaytirish tarafdori bo'lib bir qancha davlat vakillari faol qatnashdilar. Ular sudning yurisdiksiyasiga faqat genotsid jinoyatini sud qilish vakolatini qoldirishni yoqlab chiqdilar.

Ammo 2000-yilning 31-dekabrida, Statutning imzolanishi tugashiga ikki soat qolganda, AQSH Prezidenti Bill Klinton AQSH

¹ Xalqaro jinoyat Sudi Statutining loyihasi matbuotda e'lon qilingan. Qarang: Российский ежегодник международного права. 1995. – СПб. 1996.

² Deschenes J. Toward International Criminal justice / Criminal law forum. – London, 1994. – № 2-3. – P. 268.

hukumati nomidan Statutning imzolanishini e'lon qildi. Shundan so'ng Isroil bosh vaziri Benyamin Natanyaxu Statutning imzolanishi tugashiga yarim soat qolganda Isroil hukumati ham Statutni imzolashini e'lon qildi.

Sud xalqaro hamjamiyatga qarshi qaratilgan eng jiddiy jinoyatlarni amalga oshirgan shaxslarni sud qiladigan doimiy organ sifatida ta'sis etildi. Bu yerda Statutda keltirilgan jinoyatlar haqida so'z borishi mumkin. Xalqaro Sud davlatlarning jinoiy sudlarini yo'qqa chiqarmaydi. Xalqaro Sud davlatlarning jinoiy Sudlari yurisdiksiyasini to'ldiruvchi vosita bo'lib qoladi.

Sud o'z funksiyasini Statutda ishtirok etuvchi har qanday davlat hududida, agar maxsus bitimga erishilgan bo'lsa, Yer yuzidagi har qanday davlatning hududida amalga oshirishi mumkin.

Sud mustaqil xalqaro organdir. U xalqaro huquqning subyekti hisoblanadi. Sudning BMT bilan munosabati BMT bitimlari bilan tartibga solinib turiladi. Sud Gaaga shahrida qo'nim topadi. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, BMT Xalqaro huquq komissiyasining loyihasi da agressiya to'g'risida gap ketganda sudni Xavfsizlik Kengashiga bog'lagan qoida ham mavjud edi. Bir qancha davlatlar bunday bog'lanishga qarshi chiqdilar, chunki Kengash a'zolari bilan ularga a'zo bo'lmagan davlatlar o'rtasida tengsizlik bo'lgani uchun, ya'ni uning doimiy a'zolarida veto huquqi bor edi. Ana shundan so'ng bu qoida olib tashlanadi. Statut katta hajmga ega (126 moddadan iborat) murakkab hujjatdir. Buning bir qancha sabablari bor. Chunki Statutda jinoyat huquqiga, jinoyat protsessual huquqiga, sudda ish yuritishga oid, sud faoliyatini ta'minlovchi davlatlarning hamkorligiga bag'ishlangan qoidalar mavjud. Statutning murakkabligi unda ishtirok etuvchi davlatlar pozitsiyalarining qarama-qarshiligi bilan ham bog'liqdir. Sudning yurisdiksiyasi xalqaro hamjamiyat manfaatlariga daxldor bo'lgan eng jiddiy jinoyatlar bilan cheklanmagan.

Bu quyidagi jinoyatlar: genotsid jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va agressiya jinoyatlari, davlatlar sud yuridiksiyasiga taaluqli bo'lgan jinoyatlar doirasini qisqartirish yo'lidan bor-dilar.

Yana shuni eslash joizki, xalqaro huquq komissiyasi davlatlarning fikrlarini hisobga olib, loyihada «Xalqaro huquq bo'yicha jinoyatlar» degan umumiy iborani olib tashladi. Buning o'miga jinoyat-

lar alohida sanab o'tildi: genotsid, agressiya, urush qonunlari va odatlarini jiddiy buzish va insoniyatga qarshi jinoyatlar. Umuman olganda, jinoyatlar doirasi urushdan keyingi tuzilgan xalqaro tribunallar Nizomlarida belgilangan jinoyatlar doirasi bilan bir xil bo'lib chiqdi. Bu jinoyatlar ro'yxati sud uchun to'liq deb hisoblanadi.

Statutda sanab o'tilgan jinoyatlar tarkibi to'liq ko'rsatilgan. Bunda shu narsa qayd etib o'tiladiki, insoniyatga qarshi jinoyatlar «keng miqyosda yoki fuqarolarga doimiy ravishda bosqinchilik uyushtirib» turgan bo'lsagina sudning yurisdiksiyasiga o'tadi. Harbiy jinoyatlar «reja yoki siyosat asosida yoxud bunday jinoyatlar keng miqyosda sodir etilgan bo'lsa» sud yurisdiksiyasiga kiradi.

Xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli mojarolar davrida sodir etilgan harbiy jinoyatlar ham sud yurisdiksiyasiga kiritildi. Bunda shu narsa qayd etildiki, bu qoida hukumatlarning mamlakatdagi tartib-qoidani tiklash uchun mamlakatning birligi va hududiy yaxlitligini butun qonuniy vositalar bilan himoya qilganida javobgarlikka tortilishiga daxldor bo'lmaydi.

Statut jinoyat huquqining umumiy prinsiplariga bag'ishlangan maxsus bo'limga ega. «Bir jinoyat uchun ikki marta sud qilish mumkin emas» degan prinsip bu bo'limga kiritilgan emas. Sababi shundaki, juda ko'pchilik yuristlar bu prinsipni protsessual huquqqa kiritedilar.

Sud jinoyat sodir etgan vaqtda 18 yoshga to'lmaganlarni sud qilish yurisdiksiyasiga ega emas.

Milliy yoki xalqaro huquq bo'yicha daxlsizlikka ega mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilganida ularning daxlsizligi to'sqinlik qilmaydi degan qoidaning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Statut, shaxslarning rasmiy maqomidan, u hukumat yoki davlat boshlig'i bo'ladimi, hukumat yoki parlament a'zosi bo'ladimi, qat'iy nazar, bir xil qo'llanilishi lozim. Shaxsning rasmiy maqomi hukmni yengillashtirishga ham asos bo'la olmaydi. Statut komandir va boshqa boshliqlarning nazorati ostida bo'lgan shaxslarning jinoiy qilmishi uchun ham jinoiy javobgarlik o'rnatadi.

Hukumat yoki boshliqning buyrug'i bo'yicha sodir etilgan jinoyatlar shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi. Ammo bu umumiy qoidalarda istisnalar mavjud bo'lib, ular bu qoidalarning ahamiyatini pasaytiradi. Bu qoida quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:

agar shaxs yuridik jihatdan buyruqqa bo'ysunishga majbur bo'lsa; agar shaxs buyruqning noqonuniy ekanligini bilmagan bo'lsa; agar buyruq noqonuniy berilgan bo'lsa.

Sud tarkibiga quyidagi organlar kiradi: rayosat, appelatsiya bo'linmasi, sud bo'linmasi, sud ishini yuritish bo'linmasi, prokuror devoni va kotibiyat.

Sudda 18 ta sudya mavjud. Ular saylangani zahotiy oq, agar zarurat tug'lsa, o'z majburiyatlarini bajarishga tayyor bo'limoqlari kerak. Bundan farqli ravishda, Rayosatni tashkil etgan sudyalalar eng boshidanoq doimo o'z majburiyatlarini bajaradilar.

18 ta sudya BMT Xalqaro Sudining sudyalari singari 9 yil muddatga Statut ishtirokchi-davlatlari tomonidan saylanadilar. Ammo ulardan farqli ravishda yangi muddatga qayta saylana olmaydilar.

Sud tarkibida mustaqil organ bo'lib jinoyat ishini amalga oshirishga javobgar prokuror devoni hisoblanadi. Ularning mustaqilligi shundaki, prokuror va uning o'rinbosarlari sud tomonidan saylanilgach, Statut ishtirokchi davlatlari tomonidan 9 yil muddatga saylanadi. Qaytadan saylanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kotibiyat ma'muriy funksiyalarni amalga oshiradi. Kotib sudyalalar tomonidan 5 yil muddatga saylanadi.

Sudyalalar, prokuror va uning o'rinbosarlari, sud kotibi o'z majburiyatlarini bajarishda diplomatik immunitetdan foydalanadilar. Sudda ish ingliz va fransuz tilida olib boriladi, rasmiy ravishda esa ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillarida olib boriladi.

Muhim protsessual xarakterga ega aktlar bo'lib, sudning kun tartibi va ish olib borishda isbotlash qoidalari hisoblanadi. Qoidalarni Statut ishtirokchi davlatlarining Assambleyasi qabul qiladi. Kun tartibi (reglament) sud tomonidan belgilanadi. Sud Gaaga shahrida majlis qiladi, ammo qaror asosida boshqa joyda ham o'z majlisini o'tkazishi mumkin. Sud jarayoni aybdorning ishtirokida va ochiq holda o'tkaziladi.

Sud haqiqatni aniqlash uchun zarur deb hisoblaydigan barcha ashyoviy dalillarni qabul qilib olish huquqiga ega.

Sud dalillarni har tomonlama o'rganib chiqib, guvohlarning ko'rsatmalarini adolatli baholashga yoki sud jarayonini adolatli ravishda amalga oshirishga zarar keltiradigan dalillarni inkor etib, sud ishining

adolatli bo'lishiga yordam beradigan dalillarni esa to'g'rilash haqida qaror chiqarishi mumkin.

Statut sudning oliy sudlovga qarshi jinoyatlarga nisbatan ham yurisdiksiyasini belgilab beradi. Ular quyidagilar: a) yolg'on ko'rsatma berish; b) yolg'on yoki buzib ko'rsatilgan dallilarni taqdim etish; v) guvohlarni qo'rqitish yoki sotib olish, dalillarni yig'ib olishga to'sqinlik qilish; g) sud mansabdor shaxsini sotib olish yoki qo'rqitish. Ana shunday jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni aniqlasa, sud ularga jarima solish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosini qo'llashi mumkin. Har bir ishtirokchi davlat odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlarni o'z qonunlarida aks ettirishi lozim. Agar xalqaro jinoiy sudlarga nisbatan jinoyatlar biror-bir davlat hududida yoki fuqarosi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, sud talabiga ko'ra davlatlar bunday jinoyatlar haqidagi ishlarni o'zlarining sudi tomonidan ko'rib chiqishga majburdirlar.

Sud quyidagi jazolardan birini tayinlashi mumkin: a) o'ttiz yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etish; yoki b) ozodlikdan mahrum qilingan shaxs jinoyatining o'ta og'irligiga qarab umrbod qamoq jazosiga hukm qilish. Qo'shimcha ravishda jarima solish to'g'risida qaror qabul qilish mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish yoki oqlash to'g'risidagi sud palatasining qarori prokuror tomonidan quyidagi asoslar bo'yicha Appelatsiya palatasiga shikoyat qilishi mumkin: protsessual faktlardagi va huquqdagi xatolar uchun. Xuddi shunday asoslar uchun aybdor shaxs yoki uning nomidan prokuror shikoyat qilishi mumkin. Prokurorning shikoyati uchun asos bo'lib, sud jarayoni yoki qarorining adolatli yoki asosli bo'lishiga xalaqit beradigan har qanday holat xizmat qilishi mumkin.

Sodir etilgan jinoyat bilan berilgan jazo o'rtasidagi nomutanosiblik asosida ham aybdor shaxs yoki prokuror chiqargan hukm ustidan shikoyat qilishi mumkin. Shikoyatlar bo'yicha qaror chiqarishda appelatsiya palatasi sud palatasining barcha vakolatlaridan foydalanadi. Appelatsiya palatasi qaror yoki hukmni o'zi qaytadan ko'rib chiqishi yoki sud palatasidan boshqa sudlar ishtirokida ishni qaytadan ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Noqonuniy qamoqqa olingan yoki ushlangan shaxs kompensatsiya olish huquqiga egadir.

Statut ishtirokchi davlatlari sud yurisdiksiyasiga kiradigan jinoyatlarni tergov qilishda va aybdorlarni jazolashda sud bilan hamkorlik qilishga majburdirlar (86-modda). Davlatlar milliy huquqlarida Sud bilan ana shunday hamkorlikning normalari mavjud bo'lishini ta'minlaydilar.

Shaxsni sudga berishda ixtisoslashish prinsipiga rioya qilinadi. Uning mazmuni quyidagichadir. Sudga berilgan shaxs sudga berishgacha bo'lgan yurish-turishi uchun ta'qib etilmasdan, u nima sababdan sudga berilgan bo'lsa o'sha ish yuzasidan javob bermog'i lozim bo'ladi. Shuningdek, Sud shaxsni sudga berayotgan davlatning tartib-qoidasini ham rad etish huquqiga ega (101-modda).

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazoni shaxs sud tomonidan belgilangan davlatlarning birida o'taydi. Qaysi bir davlatda jazoni o'tashni belgilashda sud quyidagilarni hisobga oladi: a) davlatlar o'rtasidagi majburiyatni adolatli taqsimlash; b) davlatlarning mahkumlar bilan munosabatida standartlarga rioya qilish; v) mahkumning xohishi va fuqaroligi.

Xalqaro jinoyat Sudi mahkumning ahvoli xalqaro shartnoma standartlariga javob berishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Jazoni o'tash davrida shaxs hech bir jinoiy ta'qibga yoki jazoga uchramasligi, shuningdek, jazo o'tayotgan davlatdan boshqa bir davlatga berib yuborilmasligi kerak. Agar shaxs jazo o'tayotgan davlat sudiga so'rovnomaga yuborib, suddan jazolash yoki boshqa bir davlatga berib yuborish uchun ruxsat olgan bo'lsa, mumkin bo'ladi (107-modda)

Jazoni o'tab bo'lgandan keyin shaxs o'z davlatiga yoki bo'lmasa uni qabul qilishga rozi bo'lgan davlatga qaytarilishi kerak. Bunda shaxsning xohishi hisobga olinadi (108-modda). Ishtirokchi davlatlar milliy huquqlari bo'yicha, sud qaroriga asosan jarimalarni undirish va mol-mulkni musodara qilishni ta'minlashlari lozim.

Shunday qilib, Xalqaro jinoyat Sudining ta'sis etilishi xalqaro jinoyat huquqining rivojida yangi bir bosqich bo'ldi. Shu bilan birga kelajakda ham xalqaro jinoyat huquqini qo'llashda asosiy rol milliy adliyaga tegishli bo'ladi. Xalqaro jinoyat Sudning o'zi xalqaro jinoyatlarning barchasiga bas kela olmaydi. Buni sobiq Yugoslaviya uchun xalqaro Tribunal faoliyatining tajribasi ham tasdiqladi. Bundan

tashqari davlatlarning milliy sudlari adliyaning butun bir mexanizmini o'z ichiga oladi.

6. Jinoyatchilikka qarshi xalqaro institutsional kurash

Xalqaro xarakterdagi jinoyiy aktlarning sodir etilishining ko'payishi jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish faoliyati bilan shug'ullanuvchi ko'plab xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Har bir davlat jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishda o'z milliy manfaatini ko'zlagan holda o'z siyosatini olib boradi va hech qanday xalqaro tashkilot, jumladan, BMT va uning organlari ham davlatlarning ichki ishlariga aralashishlari mumkin emas. Shu bilan birga, amaliyot ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha davlatlarning hamkorligiga yordamlashish va uni muvofiqlashtirish BMTning ijtimoiy va gumanitar xarakterga ega xalqaro muammolarni hal etish bo'yicha faoliyatining muhim shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

BMT Ustavining uchinchi moddasiga asosan ijtimoiy va gumanitar xarakterdagi muammolarni, jumladan, jinoyatchilikka qarshi kurash muammolarini hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi. BMT bu faoliyatini o'z organlari orqali amalga oshiradi (Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, EKOSOS (Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash), Xalqaro sud, Kotibiyat). BMTning jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha kongresslari, jinoyatchilikni oldini olish komiteti, BMTning milliy tadqiqot institutlari va markazlari yordamchi organlar sifatida muhimdir. Jinoyatchilikka qarshi kurashda maxsus tashkilotlar ham ishtirok etadilar FAXT (IKAO), XMT (MOT), BSST (VOZ), YUNESKO, ATEXA (AEKXA), XDT (IMO) va boshq.

BMT Bosh Assambleyasi BMT Bosh kotibining jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning muhim muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalarini qarab chiqadi. Shuningdek, bu muammolar bilan BMT Bosh Assambleyasining bir qator qo'mitalari ham shug'ullanadilar: Bosh qo'mitalar (uchinchi va oltinchi), jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash qo'mitasi, maxsus qo'mita va komissiyalar: xalqaro terrorizm bo'yicha maxsus Qo'mita, garovga olishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro Konvensiyani ishlab

chiqish bo'yicha tuzilgan maxsus Qo'mita va boshqa bir qator ishchi guruhlar. 1950-yili BMT Bosh Assambleyasi BMTga sobiq xalqaro jinoyiy va penitensiar komissiya (MUPK) ishi funksiyasini bajarishni yukladi. Ana shundan buyon uning sessiyasida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlikning prinsipial masalalari ko'rib chiqildi.

BMT Xavfsizlik Kengashi davlatlarining tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, masalan, agressiya sodir etilganligi to'g'risidagi shikoyatlarni ko'rib chiqadi, shuningdek, eng xavfli terrorchilik harakatlarining sodir etilganligi masalalarini muhokama etadi.

BMT Kotibiyatida maxsus bo'lim – jinoyiy sudlov va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha BMT kotibi mavjud bo'lib, Kotibiyatga va BMT Bosh kotibiga o'z tavsiyalarini tayyorlaydi. Xalqaro huquq Komissiyasi jinoyat xavfsizligi va tinchlikka qarshi jinoyatlar to'g'risidagi Kodeks loyihasi va xalqaro jinoyiy Sud Statutlarini tayyorladi. Ular eng xavfli xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.

BMT Xalqaro Sudi BMT bosh organlaridan biri bo'lib, davlatlar ma'lum bir ish doirasida xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash masalalarini hal etadi va ko'rib chiqadi.

Davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashi bo'yicha hamkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish BMTning Iqti-sodiy va Ijtimoiy Kengashiga yuklatilgan. Bu kengash doirasida bir qancha yordamchi organlar, masalan, giyohvandlik moddalari bo'yicha Komissiya, xalqaro terrorizm bo'yicha Komissiya, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash Qo'mitalari faohiyat ko'rsatmoqda.

Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash Qo'mitasining muhim xizmati shundaki, u BMTning jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabati bo'yicha o'nta kongressini (1955-2000-yillar) o'tkazib, ularda davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligiga bag'ishlangan prinsipial masalalar ko'rib chiqildi va ular yuzasidan muhim tavsiyalar qabul qilindi. Kongresslar har besh yilda o'tkaziladi. Kongresslar o'tkazilishidan oldin tayyorlov masalalari bo'yicha mintaqaviy yig'ilishlar (anjumanlar) o'tkaziladi. Kongress ishida qatnashuvchi davlat, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha mutaxassisni delegat qilib jo'natadi. Undan

tashqari Kongress ishida BMTning maxsuslashtirilgan muassasalaridan va boshqa xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etadi.

Kongresslar davlatlarning xalqaro hamkorligi doirasida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha dasturlar va rahbariy prinsiplarini ishlab chiqadi va qabul qiladi, alohida jinoyat turlarini tugatish bo'yicha tavsiyalar beradi va bu sohada tajriba almashadi. Hozirgi davrgacha o'nta kongress o'tkazilib, ularning har birida jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim jihatlari bo'yicha masalalar muhokama etildi va qarorlar qabul qilindi.

Kongress vakolatiga quyidagilar kiradi: jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha hamkorlikning bosh yo'nalishini belgilash; bu muam-molarni hal etish bo'yicha dastur va tavsiyalar ishlab chiqish, jinoyat-chilikning tarqalishiga qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha BMTga a'zo davlatlar hamkorligini muvofiqlashtirish va tajriba alma-shishga yordam berish, bu sohadagi xalqaro hamkorlikning asosiy prinsiplarini belgilash. Davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kura-shidagi hamkorligini tashkil qilish va muvofiqlashtirish yuklatilgan yana bir organ BMTning jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash Qo'mitasidir. Qo'mita 27 ekspertdan iborat bo'lib, EKOSOS-ning ijtimoiy rivojlanish komissiyasiga hisobot beradi. Qo'mita ses-siyasi ikki yilda bir marta o'tkaziladi. Qo'mitaning sessiyasida jino-yatchilik masalalari bilan shug'ullanuvchi BMTning maxsus muas-sasalarining vakillari, idoralararo (Interpol, Evropol va boshq.) hamda xalqaro nodavlat tashkilotlarining (Xalqaro huquq assosiatsiyasi, Demokrat-yuristlarning xalqaro assosiatsiyasi va boshq.) vakillari ishti-rok etadi.

Qo'mitaning asosiy funksiyalari quyidagilar hisoblanadi: a) jino-yatchilikning oldini olish bo'yicha BMT kongressi sessiyasini tay-yorlash (sessiyani tashkil etish, kun tartibini ishlab chiqish, hujjatlarni tayyorlash, rezolutsiyalar, tavsiyanomalar va hokazolarni tayyorlash); b) jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha xalqaro hamkorlik dasturini tayyorlash va bu muammoni hal etish bilan shug'ullanuvchi BMT organlari va muassasalariga muhokama uchun taqdim etish; v) jino-yatchilik masalalari bilan shug'ullanuvchi BMT organlarining faoli-yatini muvofiqlashtirish bo'yicha BMT Bosh kotibiga va EKOSOSga yordam ko'rsatish va boshqalar.

Jinoyatchilik masalalari bilan BMTning Bosh kotibi ham shug'ullanadi. U BMTning Bosh Assambleyasi sessiyasida kongress va qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash choralarini to'g'risida ma'ruzalar qiladi.¹

BMT qoshida jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar bilan munosabatlar masalasi bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari yaratilgan bo'lib, ular quyidagilardir: Rimdagi BMT ijtimoiy himoya ilmiy-tadqiqot instituti (YUNSDRI); Tokiodagi jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan munosabatda bo'lish Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari uchun BMT instituti (YUNAFEN); jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan munosabatda bo'lish bo'yicha Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun BMT instituti (YUNLAN), Xelsinki va Milandagi Yevropaning markazi va shimolida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha BMT instituti (XEUNI); Qohiradagi BMTning ijtimoiy va kriminologik tadqiqotlar markazi. Bu institut va markazlar jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali choralarini ishlab chiqishda va o'z faoliyatini xalqaro darajada muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

BMTning jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari bilan shug'ullanuvchi organlari orasida «Milliy korrespondentlar instituti»ni nihoyatda katta o'rin egallaydi. Bu maxsus vakolatga ega organ bo'lib, 1950-yili tashkil topgan va milliy yurisdiksiya sohasida yuqori kvalifikatsiyaga ega shaxslarni davlatlar ushbu organga o'zlarining vakili qilib tayinlaydi.

Korrespondentlar BMT organlariga, BMT Bosh kotibiga ularning davlatlari jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashda qo'llayotgan usul va vositalar, amaliy choralar haqida xabarlar beradi, shuningdek o'z davlatlarining jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlariga xalqaro miqyosda jinoyatchilikka qarshi olib borilayotgan kurashning bosh yo'nalishlari haqida axborot beradi.

BMTning maxsuslashtirilgan muassasalari (YUNESKO, BSST, XMT va boshq.), jinoyatchilikka qarshi kurash va uni muvofiqlashtirish faoliyatida o'zlarining maxsus funksiyalaridan kelib chiqqan holda, ya'ni konkret xalqaro jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha xalqaro

¹ Международное право: Учебник / Под. ред. Н.Т. Блатовой. – М., 1987. – С. 334.

konvensiyalarni ishlab chiqish va qabul qilish orqali ishtirok etmoqdalar.

Jinoyatchilikka qarshi kurash ishiga, jumladan, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda turli xil nohukumat tashkilotlar: jinoyat huquqi xalqaro Assosiativiyasi va ijtimoiy himoya bo'yicha xalqaro Jamiyatlar o'zlarining ma'lum hissalarini qo'shmoqdalar. Ular xalqaro jinoyat huquqi va xalqaro jinoiy adliya bo'yicha konvensiyalar ishlab chiqadi va xalqaro konvensiya matnlarini tayyorlaydi; BMTga va uning organlariga maslahatlar beradi, jinoyatchilikka qarshi kurashda turli davlatlarning mutaxassislarini, kuchlarini birlashtirishga ko'maklashadi.

Jinoyat huquqi xalqaro Assosiativiyasi (JHXA, MAUP) xalqaro nohukumat tashkilot bo'lib, odil sudlovning samaradorligi va insonparvarligini ta'minlaydigan huquqiy institutlar va jinoyat protsessual va jinoiy jazoni ijro etish qonunchiligini takomillashtirishni o'z Nizomida vazifa qilib qo'ygan. BMTning EKOSOSda konsultativ maqomga ega. U o'z faoliyatini xalqaro kongresslarni (besh yilda bir marta) tayyorlash va o'tkazish shaklida olib boradi, Shuningdek BMT uchun tavsiyalar ishlab chiqadi. JHXA (MAUP) kongresslarida jinoyatchilarni tutib berish, narkotik moddalar bilan savdo qilish, tayyorlarni olib qochish, jinoyat huquqi doirasida atrof-muhitni himoya qilish, xalqaro terrorizm va boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

Ijtimoiy himoya xalqaro Jamiyati – xalqaro assosiativiyasi bo'lib, jamiyatni jinoyatchilardan, individlarni jinoyat sodir etish imkoniyatidan himoya qilish maqsadida, jinoyatlarni aksil ijtimoiy omillarini hisobga olgan holda, ijtimoiy muhit doirasida jinoyatchilikni o'rganish bilan shug'ullanadi. Jamiyatning yana bir vazifasi jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatida insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishdan iboratdir. Jamiyat 1949-yili Lejdagi (Belgiya) kongressda tuzilgan bo'lib, BMTda konsultativ maqomga ega, o'zining doimiy jurnalini nashr etadi, 50 dan ortiq davlatlardagi yuristlar, sotsiologlar va shifokorlarni o'zida birlashtiradi. Jamiyat besh yilda bir marta xalqaro kongress o'tkazadi.

Gumanitar (masalan, Xalqaro amnistiya – mahkumlarga yordam beruvchi Assosiativiyasi) va yuridik (Demokrat yuristlar xalqaro assosiativiyasi, Yurist ayollarning xalqaro federatsiyasi, Voyaga

yetmaganlar ishi bo'yicha sudyalarning xalqaro assosiatsiyasi va hokaz.) singari xalqaro nohukumat tashkilotlarning faoliyati ham *tahsinga sazovordir.*

Demokrat yuristlar xalqaro assosiatsiyasi (DYUXA) 1946-yili keng yuridik jamoatchilikni demokratiya, tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqaro qonunchilik uchun kurashga birlashtirish uchun tuzilgan edi. Uning Nizomida bu tashkilotning asosiy vazifa va prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan:

- butun dunyodagi yuristlar va yuridik birlashmalar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yishga va o'zaro fikr almashishga yordam berish va ular o'rtasida bir-birini tushunish ruhini va o'zaro yaxshi niyatni rivojlantirishga ko'maklashish;

- BMT Ustavida yozilgan vazifalarni amalga oshirishda hamkorlik qilish va yuristlarning birgalikdagi harakatini ta'minlash, buning uchun: 1) xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va tinchlikni qo'llab-quvvatlashga yordam beruvchi huquq sohasidagi demokratik prinsiplarni qo'llash va o'rganishga ko'maklashish; 2) qonunchilik sohasida va amaliyotda demokratik huquq va erkinliklarni tiklash, himoya qilish va rivojlantirish; 3) barcha xalqlarning mustaqilligini mustahkamlashga ko'maklashish va bu mustaqillikni qonuniy yo'l bilan yoki amaliy jihatdan cheklashga intilganlarga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatish. Assosiatsiya turli xil dunyoqarashga va nuqtayi nazarga, ya'ni falsafiy, siyosiy va huquqiy qarashga ega yuristlarni birlashtiradi. O'z faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishganligi uchun assosiatsiyaga YUNESKO va EKOSOSning konsultativ maqomi berildi.

DYUXA faoliyatining asosiy shakllari: xalqaro kongresslar, anjumanlar, mitinglar va demokratik huquq va erkinliklarning buzilishiga qarshi tadbirlar o'tkazish, konkret huquqiy masalalar bo'yicha doimiy komitet va komissiyalar tizimi, DYUXA vakillarining boshqa xalqaro demokratik tashkilotlar ishida yoki ularning tadbirlarida ishtirok etish; BMT, YUNESKO, EKOSOS, shuningdek turli xil xalqaro nohukumat tashkilotlar bilan o'zaro axborot almashish va o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish.

DYUXA faoliyatining yana bir shakli milliy va xalqaro huquq normalarining qo'pol buzilishiga yo'l qo'ygan mamlakatlarga tergov

komissiyalarini jo'natib, xalqaro hamjamiyatni ana shunday huquqbuzarlik faktlari bilan tanishtirishdir.

Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadigan birdan bir idoralararo xalqaro tashkilot jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti hisoblanadi. Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti jinoyatchilarni qidirishda va ushlashda turli mamlakatlarning jinoyat politsiyasi xizmatlarining harakatini muvofiqlashtirib turadi.

Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti. Xalqaro va boshqa jinoyatchilikka qarshi kurashda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadigan xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti (Interpol) 1923-yili Venada tashkil topgan. Ikkinchi jahon urushi davrida u o'z faoliyatini to'xtatadi. 1946-yili Interpol qaytadan tashkil etiladi, 1956-yili esa uning Nizomi kuchga kiradi. 1982-yili Interpol xalqaro hukumatlararo tashkilot maqomini oldi. Unga 170 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lib, son jihatidan BMTdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu tashkilotning maqsad va vazifalari, tuzilishi, boshqa davlatlarning politsiya tashkilotlari bilan hamkorlikning xarakteri Interpol Nizomida belgilab qo'yilgan.

Interpolning asosiy vazifasi – Interpolga a'zo davlatlar, ularning qonunlari va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi doirasida milliy politsiya organlarining keng hamkorligini ta'minlash va rivojlantirish, shu asosda umumiy jinoyatchilikka qarshi kurashda va uning oldini olishda muvaffaqiyatli ko'maklashish. Interpolga davlatlarning ichki ishlariga va ularning siyosiy, harbiy, diniy yoki irqiy xarakterga ega faoliyatlariga aralashish qat'ian taqiqlanadi.

Interpolning ichki tuzilishi quyidagicha: a) Bosh Assambleya; b) Ijroiya Qo'mitasi; v) Bosh Kotibiyat; g) Milliy markaziy byuro; d) maslahatchilar.

Interpolga a'zo mamlakatlarning politsiya xizmatida Milliy markaziy byuro (MMB) tashkil etilgan. Ular o'z mamlakatlarning turli tashkilotlari (birinchi navbatda sud, prokuratura, chegara va bojxona qo'mitalari), boshqa mamlakatlar MMB va Interpolning Bosh kotibi bilan o'zaro aloqalarni amalga oshiradilar.

MMB ham, Interpolning doimiy organi ham ma'lum bir davlatning politsiya organi hisoblanib, jinoyatchilikka qarshi kurashda

keng vakolatga ega. Aynan ular jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar xalqaro hamkorligining markazi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi MMB militsiya bo'linmasi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi IV markaziy apparati tarkibiga kiradi, Bosh boshqarma maqomiga ega va Interpolga a'zo davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi Interpol organlari va Interpolning Bosh kotibi bilan hamkorlik qiladigan organ hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro jinoyatlarning turlari. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning tushunchasi va ularning xalqaro-huquqiy tasnifini keltiring.*

2. *Xalqaro jinoiy javobgarlikni tartibga solish muammolari qanday?*

3. *Jinoiy ishlar bo'yicha xalqaro-huquqiy yordam berish. Davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishdagi huquqiy hamkorligi haqida so'zlab bering.*

4. *Terrorizmga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy mexanizmlari va yo'nalishlari, bu jarayonda O'zbekiston Respublikasining ishtiroki.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алимов К.З., Кахаров С.Р., Турекулов А.Б. Международно-правовые средства борьбы против международного терроризма: Учебное пособие для магистрантов юридических ВУЗов. – Т.: НУУ им. М. Улутбека, 2003.

2. Блищенко И.П., Жданов Н.В. Сотрудничество государств в борьбе с преступлениями международного характера: Учебное пособие. – М.: Прогресс, 1984.

3. Блищенко И.П., Фисенко И.В. Международный уголовный суд. – М.: Юнити, 1998.

4. Богатырев А.Г. Международное сотрудничество государств по борьбе с преступностью: Учебное пособие. – М.: Международные отношения, 1989.

5. Бородин С.В., Ляхов Е.Г. Международное сотрудничество в борьбе с уголовной преступностью. – М.: Междунар. Отношения, 1983.

6. Галимжанов Н.М., Кудайбергенов М.Б. Методы работы Интерпола: Учебник. – Алматы: Денекер, 2001.

7. Зябкий А.И. Проблема юридической квалификации терроризма как международного правонарушения. – СПб., 1997.

8. Еделев А.Л. Отдельные виды террористических преступлений в международном уголовном праве. – М.: МАКС Пресс, 2002.

9. Емельянов В.П. Терроризм и преступления с признаками терроризма. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2002.
10. Игнатенко Г.В. Международное сотрудничество в борьбе с преступностью: Учебн. пособие. – Свердловск, 1980.
11. Костенко Н.И. Международный уголовный суд. – М.: ПРИОР, 2002.
12. Костенко Н.И. Международное уголовное право: современные теоретические проблемы. – М.: Юрлитинформ, 2004.
13. Лукашук И.И., Наумов А.В. Выдача обвиняемых и осужденных в международном уголовном праве: Учебно-практ. пособие. – М., 1998.
14. Лукашук И.И., Наумов А.В. Международное уголовное право: Учебник для юридических факультетов вузов. – М.: Спарк, 1999.
15. Марусин И.С. Международные уголовные судебные учреждения: судостроительство и судопроизводство. – СПб.: Санкт-Петербургский Университет, 2004.
16. Международное сотрудничество в борьбе с преступностью: Сб. документов / Сост. П.Н. Бирюков, В.А. Панюшкин. – Воронеж, 1997.
17. Международное уголовное право: Учебн. пособие. / Под общей ред. акад. В.Н. Кудрявцева. – М.: Наука, 1999.
18. Панов В.П. Сотрудничество государств в борьбе с международными уголовными преступлениями. – М., 1993.
19. Панов В.П. Международное уголовное право: Учебн. Пособие. – М.: ИНФРА. М, 1997.
20. Пиджаков А.Ю. Международно-правовое регулирование борьбы с современным терроризмом. – СПб.: Нестор, 2001.
21. Рахимов Д.Ф. Современные конструкции определения терроризма: международно-правовые аспекты. – Т.: Қонун қимоясида, 2004.
22. Саттаров Д. Халқаро Суд. Халқаро Жиноят Суди: Ўқув қўланмаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2004.
23. Убайдуллаев У. Халқаро терроризм тарихи ва замонавий муаммолари. – Т.: Университет, 2002.
24. Bassiouni M.Ch. International Criminal Law. Vol. II: Procedure. – New York, 1985.
25. International Criminal Law: Cases and Materials / Ed. by J. Paust. – Durham, 1996.
26. International Criminal Law / Ed. by M.Ch. Bassiouni. Vol. I: Crimes; Vol. II: Procedure. – New York, 1985.
27. Paust J. International Criminal Law: Cases and Materials. – Durham, 1996.
28. Sunga L. The Emerging System of International Criminal Law. – The Hague, 1997.

29. **The International Criminal Court: Hearing.** – Wash., D.C.: GPO, 2000.

30. **The Law of the War Crimes / Ed by McCormack T.L.H., Simpson G.J.** – The Hague: Kluwer Law International, 1997.

20-bob. XALQARO YADRO HUQUQI

1. *Xalqaro yadro huquqi institutining shakllanishi.*
2. *Yadro qurollarini tarqatmaslikning umumiy tushunchasi.*
3. *Yadro qurollarini tarqatmaslikning xalqaro kafolatlari.*
4. *Yadro qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha xalqaro organlar.*
5. *Yadro qurollarini tarqatmaslikning xalqaro shartnomaviy asoslari.*
6. *Yadrosiz zonalar tushunchasi va turlari. Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona sifatida.*

1. Xalqaro yadro huquqi institutining shakllanishi

Har qanday voqea singari xalqaro yadroviy huquq instituti o'zining boshlanishiga ega hamda o'zining ma'lum bir rivojlanish bosqichidan o'tgan. Ushbu institutning vujudga kelishi urushdan keyingi yillarga to'g'ri keldi, bu vaqtda yadroviy texnologiyalar va quollar ishlab chiqarish bo'yicha peshqadam AQSH hisoblanar edi. Yadroviy qurollarni tarqatmaslik sohasidagi AQSHning urushdan keyingi siyosati bevosita ikki yo'nalishda bordi. 1946-yilgi atom energiyasi haqidagi qonun ko'rinishida (MakMagon qonuni) birinchi yondashuv, bunda AQSH yadro texnologiyalari, «nou-xau» materiallarini nazorat qilish maqsadida yadro sohasida maxfiylik shartlarini hukumat tomonidan to'liq ta'minlash nazarda tutilgan.

AQSH prezidenti Garri Trumen tomonidan 1946-yilning o'rtasida tarqatmaslik siyosatida umuman boshqa – Barux rejasi nomi bilan chiqdi. Ushbu reja davlat kotibi yordamchisi Diana Acheson va Tenesi daryosi vodiysi boshqarmasi boshlig'i David Lilental ma'ruzasining ko'rinishidan iborat edi. Mazmuniga ko'ra rejada barcha yadro ishlari ustidan xalqaro nazorat o'rnatishga o'tish nazarda tutilgan.

Barux rejasini qabul qilishning iloji bo'lmagan holda, AQSH va sobiq Sovet Ittifoqi yadro qurolini tarqatmaslik mustahkam tartibini (rejimini) barpo qilish imkoniyatini qo'ldan chiqardilar. Bu, ayniqsa, yadro qurollarini tarqatmaslik bo'yicha Barux rejasi markaziy elementlarining hozirgi kundagi rejim bilan taqqoslab ko'rganda

yaqqol namoyon bo'ladi. Agar Barux rejasida yadro sohasi bo'yicha xalqaro boshqarma barcha yadro qurilmalari ustidan nazorat qilish nazarda tutilgan bo'lsa, hozirgi kundagi Atom energiyasi kafolatlari Xalqaro agentligi (AEKXA) kafolatlangan majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan joylardagi texnologiyalar va davriy ravishdagi tashriflari bilan cheklanadi. Barux rejasida yadro qurolini batamom yo'q qilish ko'rsatilgan bo'lsa, hozirgi kundagi tartib (rejim)da muhim hisoblangan yadroviy texnologiyalar tarqatilishining xavfi haqida ogohlantirish imkoniyatini nazarda tutadi. Va nihoyat, Barux rejasida nazarda tutilgan tartibni buzganlar uchun qat'iy choralar o'rini hozirgi kunda AEKXA huquqi bilan ushbu tashkilotning a'zo davlatlariga o'zining sanksiyalarini qo'llash bilan o'zgartirilgan yoki BMT Xavfsizlik Kengashini yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni davlatlar tomonidan buzilishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi.

Yadroviy asr boshlandi. Faqat uch yil ichidagina, ya'ni 1954-yildan 1956-yilgacha Qo'shma Shtatlar 40 ta davlatlar bilan yadroviy hamkorlik qilish haqida kelishuv bitimlarini tuzdilar va ularning barchasi AQSH inspektorlariga AQSHdan keltiriladigan texnologiyalar ustidan kuzatib borishga ruxsat berishga rozilik bildirdilar. Bu ikki tomonlama kelishuvlar xalqaro yadroviy bitimlar tizimida hukmronlik qilish uchun AQSHga imkoniyat yaratdi. «Atom tinchlik uchun» dasturi 1956-yildan 1962-yilgacha bo'lgan davrda 26 mamlakatni tadqiqotchilik reaktorlari bilan ta'minlash imkoniyatini berdi.

Lekin, 50-yillarda dunyodagi barcha yadroviy bitimlar kafolatlandi va natijada yadro qurollarini tarqatmaslikka nisbatan hozirgi zamondagi bir qancha muammolarga urug' sochib qo'ydi. Yadroviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi boshqa davlatlar, jumladan, Kanada, Fransiya, Buyuk Britaniya va sobiq Sovet Ittifoqi tinchlik maqsadida ishlatishga tegishli kafolatni ta'minlagan holda, yadro texnologiyalarini sotish bo'yicha AQSH faoliyatiga qo'shildilar. 60-yillarning boshida bir qator dolzarb tashabbuslar qurollanish ustidan nazorat o'rnatish bitimlari imzolash uchun muvaffaqiyatli sharoit yaratdi.

Shu bilan bir vaqtda, yadroviy davlatlar hamjamiyati doimo o'sib bordi. 1960-yilda Fransiya o'zining birinchi sinovlarini o'tkazdi,

keyinchalik 1964-yilda Xitoy sinovlarni boshladi. Xitoy sinovlaridan keyin Hindiston «tinchlik maqsadlarida» yadroviy sinovlar o'tkazish huquqi borligi haqida jar soldi va kerakli infrastrukturani barpo qilishga kirishdi. Bundan tashqari, Germaniya va Yaponiya yadro qurollarini barpo qilish uchun yetarli bo'lgan o'z texnik darajasini sezilarli o'stirdi. Ikkinchi jahon urushidagi atom bombasining ayanchli tarixi hech qaysi davlat yodidan ko'tarilmagan.

60-yillarda vujudga kelgan sharoitlarda yadro qurollarini tarqatmaslik rejimini kuchaytirish yo'nalishida bir qator qadamlar qo'yildi. 1963-yilda erda va havoda yadro sinovlarini taqiqlash haqida Shartnoma tuzildi, ammo er osti sinovlarini o'tkazishga ruxsat berilgan edi. Lotin Amerikasi davlatlari yadro qurollarini tarqatmaslik rejimini mustahkamlaydigan yana bir muhim element barpo qilish tashabbusi bilan chiqdilar, bu Lotin Amerikasida yadro qurollarini taqiqlash haqidagi Shartnoma (odatda «Tlatelolko Shartnomasi» nomi bilan ma'lum). Tlatelolko Shartnomasini imzolash bo'yicha muzokaralar olib borilayotgan bir paytda Qo'shma Shtatlar, sobiq Sovet Ittifoqi va Buyuk Britaniya yadro qurollarini tarqatmaslik haqida Shartnomani tuzish masalasini muhokama qilishga kirishishgan, bu esa yadro qurollarini tarqatmaslikning asosiy rejimi (tartibi) bo'lishi mumkin edi.

Yadro qurollariga ega bo'lgan davlatlar o'z talablarini ko'tarib chiqdilar. Yadro qurollariga ega bo'lgan davlatlar o'z qurolsizlanish rejaları ustida ishlashlarini tasdiqlashni ayrim davlatlar talab qildilar. Boshqalari o'zlarining xavfsizligini kafolatlanishni xohladilar, ya'ni yadroviy davlatlar hech qachon yadrosiz davlatlarga hujum qilmaslik majburiyatini olsin, dedilar.

Har xil mamlakatlarning bir-biridan farqli pozitsiyalarini kelishtirish uchun ikkita shartnoma-kelishuvlar qabul qilindi. Birinchidan, shartnomada ko'rsatilganidek, har qanday mamlakat tinchlik maqsadlarida yadro energiyasini qo'llashni rivojlantirish va ushbu maqsadlar uchun texnik yordamlar ko'rsatish huquqiga egadir. Ikkinchidan, yadro qurollariga ega bo'lgan davlatlardan qurolsizlanishga erishish uchun aniq muddatlar o'rnatmasa-da, qurolsizlanish yo'lida aniq qadamlar qo'yilishini talab qiladi. Yadro qurollarini tarqatmaslik, qurolsizlanish va yadroviy material va texnologiyalarga ega bo'lishga nisbatan tug'ilgan savollarni hisobga olgan holda 1968-

yilda yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risida Shartnoma imzolandi va 1970-yilda u kuchga kirdi.

Yetmishinchi yillar tarqatmaslik rejimini mustahkamlash o'n yilligi bo'ldi, bunda bir qator xalqaro voqealarga javob tariqasida yangi qoidalar o'rnatildi.

Ushbu voqealardan eng ko'zga ko'ringani – bu Hindistonda o'tkazilgan «Tinchlik yo'nalishidagi yadro portlashi» deb nomlangan yadroviy sinov bo'ldi.

Ikkinchi muhim voqea 70-yillarda rejimga ta'sir ko'rsatdi, bu 1973-yilda neft narxining 4 barobar oshib ketishi bo'ldi. Bunday sharoitlarda yadro energetikasi neftga nisbatan muqobil bo'lib qoldi.

Uchinchidan, barcha rivojlanayotgan davlatlarning plutoniy olish va yonilg'ini qayta ishlashga qiziqishlari ortib bordi.

80-yillar davomida yangi yadroviy texnologiyalar paydo bo'la boshladi, ular yadro qurollarini tarqatmaslik rejimi uchun muhim vazifalarni qo'ydi. AQSHda yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi dalolatnoma tarqatmaslik siyosatining bosh yetakchisi bo'lib davom etdi, lekin Reygan ma'muriyati uni qo'llashda Karter ma'muriyatiga qaraganda tanlabroq foydalandi.

80-yillarda ushbu rejim uchun boshqa muammo 1981-yilda Isroil tomonidan Iroqda qurilayotgan yadroviy reaktorning bombardimon qilinishi bo'ldi. Bu bombardimon Iroqning atom bombasi sari harakatini to'xtatib qoldi, lekin shu bilan birga xalqaro yadroviy kafolatlarga ishonch yo'qligidan xabar berdi. 80-yillardagi barcha voqealar ham bunday xunuk emas edi. Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risida yangi (Rarotonga) shartnoma imzolandi, u Tinch okeanining janubiy qismini o'z ichiga olgan. 90-yillarning boshidagi voqealarning ba'zilar yadro qurollarini tarqatmaslik rejimini anchagina mustahkamlashga olib keldi. Rejimdagi normalar ma'qul bo'lganligi uchun, uzoq vaqt davomida rejimdan tashqarida bo'lgan davlatlar ham uni qabul qilishga qaror qildilar. Ikki jug'rofiy-siyosiy voqea – sovuq urushning tugashi va Fors ko'rfazidagi urush olovi rejimning shakllanishiga asos bo'ldi. Dunyo hamjamiyatining diqqat-e'tibori rejimda mavjud bo'lgan «tirqishlar»ga qaratildi va ularni bartaraf qilish tashabbusining ahamiyatini oshirdi.

Hozirgi kunda yadro qurollari muammosi bilan har qanday holda to'qnash keladigan davlatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Yadroviy quollariga ega bo'lgan davlatlar: AQSH, Rossiya, Xitoy, Fransiya va Buyuk Britaniya. 1967-yilga qadar yadroviy portlatish qurilmalarini tayyorlab va portlatib, ushbu davlatlar rasmiy ravishda «yadro quollariga ega davlatlar» deb yadro quollarini tarqatmaslik haqidagi Shartnomada belgilab qo'yilgan.

Yadro quoliga de-fakto ega bo'lgan davlatlar: Hindiston, Isroil, Pokiston va JAR. Bu kategoriyaga o'zining keng imkoniyatlariga ega bo'lgan mamlakatlar kiradi. Isroil yuzlab yadro quoliga ega, Pokiston o'zida yadro quollarining ko'pligini 1998-yilda amalga oshirgan yadroviy sinovlari bilan isbotlab berdi. Bu davlatlar yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnomada yadro quollariga ega bo'lgan davlatlar deb atalmagan.

Yadro quoliga ega bo'lishga yaqin mamlakatlar: Argentina, Braziliya, Janubiy Koreya va Tayvan. Bu davlatlar yadro quollarini ishlab chiqishga texnik jihatdan qodir va bunga qiziqishlarini bildirganlar, lekin hozircha atom bombasini tayyorlashga qaror qilmaganlar.

Yadro quoliga ega bo'lishga potensial yaqin mamlakatlar: Jazoir, Eron, Iroq, Liviya va Shimoliy Koreya. Bu davlatlar yadro quollarini tayyorlash imkoniyatlaridan hali uzoq, lekin ularning bunga qiziqishlari katta.

Hozirgi yadro quollarini tarqatmaslik rejimi bundan 50 yil oldingi o'zining tarixiga nisbatan mustahkamdir. Eksportni cheklash va qat'iy xalqaro kafolatlar siyosatini ma'qullash o'sib bormoqda.

Yadro quollarini tarqatmaslik rejimini mustahkamlash yo'lida juda ko'p mamlakatlar harakat qilmoqda. Ammo hukumatning uzoq kelajagi nuqtayi nazaridan, yadro quollarini tarqatmaslik rejimining ko'pgina elementlari vaqtdan yutish uchungina xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda bo'lishi lozim bo'lgan qat'iy eksport nazorati va mustahkam kafolatlar joylarda yadroviy harbiy potensialni barpo qilishning oldini olmaydi, balki faqat orqaga surishi mumkin. 1946-yilda Barux rejasida ilgari surilgan fikr – yadroviy materiallarni ishlab chiqish va to'plash sohasidagi yaqin xalqaro hamkorlikkina yadro quollarining tarqalishiga to'sqinlik qiladigan uzoq istiqbolli umid hisoblanadi.

2. Yadro quollarini tarqatmaslikning umumiy tushunchasi

Yadroviy quollarni tarqatmaslik muammosi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu muammoni hal qilish bitta davlatning xohish-irodasiga bog'liq emas, u butun jahon hamjamiyatining muammosi hisoblanadi. 80-yillardan keyin butun jahon maydonida yangi rivojlanayotgan davlatlar (Eron, Iroq, Pokiston, KXDR, Argentina, Braziliya va boshqalar)ning paydo bo'lishi bilan bu masala yangicha tus oldi. Ro'y berayotgan o'zgarishlarni fikrlash uchun ushbu institutning rivojlanishi va tiklanishini ko'rib chiqish kerak. Yadroviy quollarni tarqatmaslik muammosining dolzarbligiga shubha yo'q. U avvalambor yadroviy urush xavfiga qarshi kurashning muhimligi bilan ifodalanadi.

Xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan bu muammoning muhimligi tushunarli. Haqiqatan ham, hozirgi kunda yadro quollariga ega bo'lmagan davlatlar ushbu quollarni ishlab chiqarish va to'plash jarayonida ishtirok etishganida, unda yadroviy urush xavfi tobora ortib ketgan bo'lar edi.

Mojaroda bo'lgan tomonlarning qurol-aslahalari arsenalida yadroviy quollar ham mavjud bo'lsa, voqealarning rivojlanishi nimalarga olib kelishini ko'z oldimizga keltirishimiz qiyin emas. Yadroviy davlatlar sonining ko'payib ketishi ahvolni murakkablashtiradi. 90-yillarda dunyoning ko'p mamlakatlari faoliyatining kun tartibida yadroviy quollanish masalasi keskin turgan edi. Bularning barchasi tegishli xalqaro shartlarni barpo qilish hayotiy zaruratini keltirib chiqaradi. Ular kelgusida yadroviy quollar tarqalishining oldini olar edi.

Hozirgi kunda bu muammoning dolzarbligi va muhimligini oshirayotgan jarayonlar tobora rivojlanib bormoqda. Fan-texnika taraqqiyotining jadallashishi va yadroviy texnologiyalar bo'yicha xalqaro hamkorlikning kengayishi natijasida yadro quollarini ishlab chiqarishga moddiy imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar soni ortib bormoqda. Amerikalik mutaxassislarning hisoblashlaricha, 2000-yilga kelib yadro quollarining texnik imkoniyatlariga ega bo'lgan mamlakatlar soni 40 taga yetishi mumkinligini taxmin qilgan edilar. Bugungi kunga kelib bu taxmin o'z tasdig'ini topayotir.

90-yillar atom energetikasining intensiv rivojlanish davri hisoblanadi. Energiya iste'molining o'sishi, odatdagi yonilg'i

turlarining qiymatini oshirish, yuqori samarali va xavfsiz tipdagi atom energetik reaktorlarining barpo qilinishi kelgusida atom elektr stansiyalarining rivojlanishida iqtisodiy afzalliklarga erishish bilan o'ziga jalb qilmoqda.

Bir vaqtning o'zida, harbiy maqsadlarga qo'llashni kamaytirgan holda, atom energetikasini rivojlantirish sari ildamlashga qaysi yo'l bilan erishish mumkin? Bu savol hozirgi bosqichda muhim siyosiy ahamiyat kasb etmoqda.

3. Yadro quollarini tarqatmaslikning xalqaro kafolatlari

Kafolatlar yadro quollarini tarqatmaslik rejimiga ishonchni ta'minlab turadigan vosita hisoblanadi. Yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risida Shartnoma, Tlatelolko, Pelindaba va Raratonga shartnomalari, yadroviy ta'minlovchi guruhlar faoliyati – barcha ishtirok etuvchi tomonlar xalqaro kafolatlar tizimiga tayanadi.

Kafolatlar evolutsiyasi. Hozirgi kunda mavjud yadroviy kafolatlarning ko'pchiligi yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma mandati ostida turibdi. Y kuchga kirishidan 10 yil oldin, 1970-yilda tarqatmaslik borasida bir qator kafolatlar mavjud edi. 50-yillar davomida AQSH yadro materiallari va texnologiyalariga kafolatlar o'rnatdi hamda boshqa davlatlarga berdi. 1957-yilda Yevropa hamjamiyati mamlakatlaridagi barcha yadro qurilmalari ustidan nazorat qilish vazifasiga ega bo'lgan atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati tashkil topgan edi. Shu yilning o'zida Atom energiyasi kafolatlari xalqaro agentligi (AEKXA) tashkil etilgan. AEKXAGA a'zo mamlakatlarga o'zlarining shaxsiy loyihalari ustidan nazorat qilish va texnik yordam berishni kafolatli nazorat qilish vazifalari uning yurisdiksiyasi ostidadir. AEKXA kafolatlari qo'llanilishining birinchi holati 1958-yilda bo'lib, u Yaponiya yadro reaktori taraqqiyoti uchun uran etkazib berishga taalluqlidir.

1961-yilga kelib AEKXA kafolatlar to'g'risida o'z shaxsiy modelini ishlab chiqdi. Agentlik maqomiga kiritilgan kafolatlar mandatni qo'llash va interpretatsiyani standartlash maqsadida amalga oshirildi. 1965-yilgi INFCIRC-66 (qisqacha «Axborot sirkulari-66») deb nomlangan kelishuvlar modeli hozirgi kunda ham AEKXA amalga oshirayotgan ayrim kafolatlar uchun qo'llanilmoqda.

INFCIRC-66 asosan kafolatlash vazifasini bajarishi lozim bo'lgan inspeksiyalarga asoslanadi. Aniqroq aytganda, kafolatlash jarayonini boshqarish noaniq, yetarli bo'lmagan xarakterga ega. Ushbu kamchiliklarni qisman bartaraf etish uchun yangi kafolatli hujjat – INFCIRC-153 1970-yilda tayyorlandi. U yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma doirasida qo'llash uchun mo'ljallangan bo'lib, yaqinda kuchga kirdi. Shuningdek, u Tlatelolko shartnomasi doirasidagi kafolatlarni amalga oshirish uchun ham qo'llanildi. Hozirgi kunga kelib INFCIRC-153 yadroviy kafolatlar bo'yicha kelishuvlarning bosh modeli hisoblanadi.

Shunday qilib, 70-yillar boshiga kelib dunyoda yadroviy kafolatlar to'g'risida uchta asosiy bitim mavjud edi: Yevroatomni tashkil qilish to'g'risidagi bitim, AEKXAning INFCIRC-66 va INFCIRC-153 hujjatlari. Shundan buyon bir necha mintaqaviy shartnomalar imzolandi, lekin kafolatlar to'g'risida imzolangan shartnomalarning ko'pchiligi yuqoridagi model hujjatlariga o'xshash yoki asli edi. 1986-yilda imzolangan Rarotongo Shartnomasida INFCIRC-153 kelishuv modelidan foydalangan, Argentina-Braziliya agentligi yadroviy materiallarni hisobga olish va nazorat qilish uchun (AVASS) 1991-yilda AEKXA va Yevroatom tomonidan qo'llaniladigan kafolatlarning xuddi o'zidan foydalangan.

Kafolatlarning asosiy maqsadi. Kafolatlar to'g'risidagi umumiy arizalarni AEKXA va Yevropadagi Yevroatom tomonidan tayyorlangan kafolatlar to'g'risidagi hujjatlardan topish mumkin. AEKXA maqomiga asoslangan, INFCIRC-66 hujjatlari manbalaridagi kelishuvlarga agentlik uning yurisdiksiya-siga tushgan obyektlarni «har qanday harbiy maqsadlarda foydalanilmasligini» kafolatlashni o'z zimmasiga olgan. 1974-yilda Hindistondagi yadro portlashidan keyin, INFCIRC-66 hujjatlariga asoslanib tuzilgan kafolatlar to'g'risidagi barcha kelishuvlardagi talablarga ko'ra kafolat ostiga olingan obyektlar yadro qurollarini barpo qilish uchun, har qanday harbiy faoliyat uchun yoki har qanday yadroviy portlatish qurilmalarini barpo qilish uchun foydalanilmasligi kerak.

INFCIRC-153 sirkulari uchun chiqqan yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma hujjatlari kafolatlar maqsadlari bo'yicha cheklangan.

Shartnoma kafolatlari «yadro energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanishdan chetga chiqib, yadro quollarini yoki yadroviy portlash qurilmalarini barpo qilish kabilarning oldini olish maqsadida» Shartnoma faoliyatining mos kelishini tekshirish uchun mo'ljallangan. Portlatishlar bilan bog'liq bo'lmagan, masalan, suv osti kemalari uchun yadroviy dvigatellar barpo qilish kabilarda yadro energiyasining harbiy qo'llanilishi nazoratga olinmasligi Shartnomada qoldirib ketilgan.

Yevroatom kafolatlarining maqsadi birmuncha boshqacha. Yevroatom kafolatlari murojaat qilgan davlatlar yadro materiallarini o'z maqsadlarida foydalanayotganligini shunchaki tekshirish uchun mo'ljallangan. Ya'ni Yevroatomga a'zo davlat kafolatlar ostidagi yadro materiallaridan ochiq (legal) foydalanishi mumkin. Amalda Yevroatom kafolatlari yadroviy materiallar va texnologiyalardan tinchlik yo'lida foydalanishni nazorat qiladi. Bu xuddi AEKXA kafolatlarida nazarda tutilganidek. Chunki Yevroatomga a'zo mamlakatlarning barchasi yadro quollarini tarqatmaslik Shartnomasining ishtirokchisi hisoblanadi va ular AEKXAning nisbatan qat'iy cheklash va kafolatlariga rioya qilishga majbur.

Ta'kidlash joizki, yadroviy xalqaro kafolatlar quyidagilar uchun mo'ljallangan emas:

- bajarilayotgan materiallarga qurilma operatorining tegishli imkoniyati yoki undan taqiqlangan maqsadlarda foydalanishning jismoniy oldini olish;

- yashirin yadroviy faoliyatni izlash va milliy yadroviy dasturlarni tartibga solish;

- kafolatlar shartlarining buzilishlarini qidirish uchun mamlakatlar hududida nazoratchilar (inspektorlar)ning bo'lish imkoniyatlari;

- kafolat ostida bo'lgan materiallarning jismoniy xavfsizligini ta'minlash.

Kafolatlarning muhim maqsadlari. INFCIRC-66 sirkulari hal qiluvchi masalalar bo'yicha aniq ma'lumotlar bermaydi. Masalan, u o'zida kafolatlarning maxsus maqsadlarini mujassamlashtirmaydi. Bu kamchilik INFCIRC-152 sirkularida e'tiborga olingan, unda yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma ma'lum maqsadlarining soni interpretatsiyalanadi. Kafolatlarga asos bo'lib xizmat

qiladigan yadro qo'rollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma, Tlatelolko va Rarotong shartnomalari doirasida amalga oshiriladigan ushbu sirkular tasdiqlaydiki, kafolatlarning maqsadi bo'lib «katta miqdordagi yadroviy materiallardan foydalanishda tinchlik yo'lidan chetga chiqib, yadro qurollari va boshqa portlash qurollari yoki mumkin bo'lmagan hollarda qo'llash holatlarni o'z vaqtida aniqlash»¹ hisoblanadi.

Kafolatlar qanday amalga oshiriladi. INFCIRC-153 tipidagi kafolatlar to'g'risidagi kelishuvlar (bitimlar) uchta hujjatdan iborat bo'lib, ularda kafolatlash prosedurasi alohida (detallashtirib) ko'rsatilgan. INFCIRC-153 sirkulari orqali modellashtirilgan nisbatan kengroq kelishuvlar AEKXA dagidek davlatlar majburiyatlaridan iborat. «Yordamchi kelishuvlar (bitimlar)» kafolat ostiga qo'yilayotgan qurilmalarni sanab o'tadi, «qurilmalar to'g'risidagi qo'shimchalar»da esa har bir qurilmaga o'rnatilgan telekameraning aniq joylashgan joylari alohida ko'rsatib o'tiladi, AEKXA inspektorlariga ruxsat etilgan zonalar sanab o'tiladi.

Milliy suverenitet masalasini e'tiborga olgan millatlar AEKXA kafolatlarini amalga oshirish usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Har xil xo'jayinchilik usullari (sun'iy yo'ldosh razvedkasi, barcha yadroviy korxonalarda inspektorlarning doimo ishtirok etishi, yadro qurollarini xalqaro boshqarish yoki shaxsiy mulk huquqi) siyosiy jihatdan to'g'ri kelmaydi. Buning o'rniga AEKXA tekshirishning diskret shakllariga tayanadi. Bunday kafolatlar tizimi uchta bosh komponentlardan iborat: materiallarni hisobga olish, ushlab turish va nazorat qilish, inspeksiya.

Materiallarni hisobga olish yadroviy qurilmadan chiqayotgan va kirayotgan, hali tayyorlanayotgan materiallarni ro'yxatdan o'tkazishni nazarda tutadi, shuningdek uskuna ichidagi bir qator stretegik nuqtalarni ham.

Kafolatlash tizimida ushlab turish va nazorat qilish deganda real vaqt rejimida ishlaydigan signal qurilmalari, datchiklar, telekameralar majmuidan foydalanish tushuniladi. Ular oxirgi inspeksiyadan buyon yadroviy materiallar o'g'irlanmaganligiga ishonch hosil qilishga mo'ljallangan. Kafolatlash tizimidagi asosiy elementlardan biri bo'lgan inspeksiya minimal rejada ushlab turiladi.

¹ Циркуляр INFCIRC-153.

U agentlikning o'z missiyasini amalga oshirishi uchun zarur. Inspeksiyaning odatda murojaat qilingan yadroviy qurilmalarda va faqat davriy ravishda vaqti-vaqti bilan ma'lum oraliqda o'tkazilib turiladi. Gazli sentrifugasi bo'lgan uskunalardan ustidan e'lon qilinmagan inspeksiya o'tkazilishi mumkin, bu faqat kirish uchun viza talab qilinmaydigan davlatlarda amalga oshiriladi (aks holda inspektor kelishi haqida viza olish jarayoni bildirib qo'yadi).

AEKXA va Yevroatomning kafolat vakolatlari. Yadro qurollarini tarqatmaslik sohasida AEKXA va Yevroatom huquqiy kafolatlari ikki jihatdan farq qiladi. Birinchidan, Yevroatom AEKXAgaga nisbatan ko'proq bo'ysundirish va (yoki) uskunalariga sanksiya qo'yish huquqiga ega, shuningdek Yevroatom a'zo davlatini Yevropa sudiga jalb etishi mumkin. Ichki tartib choralardan tashqari, AEKXA faqatgina BMTning Xavfsizlik Kengashiga yadroviy materiallar o'g'irligi yo'qligini tekshira olmasligi haqida xabar berishi mumkin.

Ikkinchidan, AEKXA kafolatlariga qaraganda, Yevroatom kafolatlari boshlang'ich bosqich – yadroviy yonilg'i siklidan boshlanadi. Yevroatom kafolatlariga hattoki uran rudalari kiradi, AEKXA kafolatlariga esa qayta ishlov berilgan uran kiradi. Uranning importi yoki eksporti haqida Agentlikka xabar berilishi kerak.

AEKXAning to'liq kafolatlari uranni boyitish va undan yadroviy yonilg'i tayyorlashdan boshlanadi.

Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma ishtirokchisi bo'lmagan, yadro qurollariga ega bo'lmagan Yevroatomga a'zo mamlakatlar uchun Yevroatom va AEKXA vakolatlari yopiladi. Bu ikkala agentlik o'rtasida o'zaro kelishuv asosidagi ishni taqsimlash borasidagi muzokaralar 1973-yilda nihoyasiga yetdi. Agentliklar o'rtasidagi kelishuvlarga asosan, yadroviy materiallarni hisobga olish bo'yicha ma'lumotlarni, hisobotlarni tekshirish va yig'ish bo'yicha javobgarlikni Evratom o'z bo'yniga oldi va hisobotlarni Venaga, AEKXAgaga yuborib turadigan bo'ldi.

Ikkala Agentlik tomonidan doimiy ravishda inspeksiya o'tkazilib turiladi, lekin AEKXA Yevroatomga nisbatan kamroq o'tkazib turadi. Yuqori boyitilgan uran yoki plutoniy qo'llanilgan uskunalar nazorat qilishda ikkala agentlik birgalikda ishtirok etadi.

4. Yadro qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha xalqaro organlar

Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnomaning qabul qilinishi bilan kafolatlarni aniqlashtirish muammosi yuzaga keldi, chunki shartnomaning o'zi ushbu muammoga aniqlik kiritmaydi. Ushbu maqsadda Sanger Qo'mitasi (tashkiloti) va yadroviy ta'minotchilar guruhi (London klubi) barpo qilindi. Ushbu idoralar quyida ko'rib chiqiladi.

Sanger Qo'mitasi (tashkiloti) yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma tufayli tug'ilgan rejim elementlaridan biri hisoblanadi. Shartnoma kuchga kirgandan bir yil keyin, 1971-yilda tashkil etilgan Qo'mita shartnomaga a'zo davlatlar guruhlarini tomonidan yadro «uskunalari va materiallari»ni eksport qilish kafolatlari aniqlik kiritishni hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi, bu 3.2 moddada o'z aksini topgan. Ushbu masala bo'yicha Sanger Qo'mitasi ikkita muhim murojaat bilan chiqdi. Birinchidan, u shuni ta'kidladiki, 3.2 modda bilan to'la masshtabli kafolatlar talab qilinmaydi. Eksport qiluvchilar o'ta e'tiborga loyiq eksportlar uchun kafolatlarning qo'llanilishiga ehtiyoji bor. Bu davlatning yadro importining barcha dasturi uchun kerak emas edi. Ushbu nisbatan erkin bo'lgan kafolatli talablar interpretasiyasi yadroviy bozorni ushlab turish, yadroviy eksport qiluvchilar manfaatini himoya qilish borasidagi urinishlardan biri edi. Ikkinchidan, Qo'mita Sanger ro'yxati nomi bilan ma'lum bo'lgan, «taqiqlovchi ro'yxat»ni ishlab chiqdi, u yadroviy uskunalar va materiallar hamda ularni eksport qilish uchun zaruriy kafolatlarga taalluqli. Sanger qo'mitasining barcha a'zolari «taqiqlangan ro'yxatdagi» obyektlarni import qiluvchi xalqaro kafolat ostiga olmaguncha eksport qilmaslik majburiyatlarini o'z xohishlari bilan zimmasiga oldilar. Qo'mitaning norasmiy huquqiy maqomi Shartnomaning 3.2 moddasida berilgan, ya'ni Sanger Qo'mitasi Shartnoma a'zosi bo'lmagan ishtirokchilar uchun majburiy emas.

London klubi. 1974-yilda Hindistonda amalga oshirilgan yadroviy sinovlar G'arbni taajjublantirdi va asosiy bosh yadroviy ta'minotchilar oldiga yadroviy materiallar va texnologiyalar oqimini tartibga solish bo'yicha aniq shartnomalar zarurati masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Natijada yadroviy ta'minotchilar guruhi yoki London klubi

barpo qilindi. Ular tinchlikka qarshi yadroviy dasturlarni rivojlantirish uchun obyektlarni tayyorlab borishni yanada kamaytirishga kelishdilar. Ta'minlovchi guruhlar asos qilib Sangerning «taqiqlovchi ro'yxati»ni oldilar va unga og'ir suv ishlab chiqarish bo'yicha og'ir suv zavodlarini ham qo'shdilar. Bu Guruh yadro qurollarini tarqatmaslik Shartnomasidagi shartlarga nisbatan eksport shartlarini kuchaytirdilar. Guruh a'zosi bo'lgan davlatlardan yadroviy materiallarni import qiluvchi mamlakatlar endilikda quyidagilarga majbur bo'ldilar:

- barcha import qilinuvchi materiallar va texnologiyalarga va potensial xavfli materiallar va texnologiyalarni ko'paytirish va foydalanish uskunalariga xalqaro kafolatlar qabul qilish;

- yadroviy uskunalar va materiallarni jismoniy xavfsiz transportirovka qilishni ta'minlash;

- yadroviy materiallar va texnologiyalarni uchinchi davlatlarga eksport qiluvchilar bilan kelishmagan holda sotishni rad etish va uchinchi davlat roziligisiz ushbu qoidaga rioya qilish;

- olingan importni yadroviy portlatish qurilmalarini ishlab chiqarish uchun ishlatmaslik to'g'risida xat olish.

Ushbu qat'iy cheklashlarni qo'yishdan maqsad yadroviy portlatish qurilmalarini ishlab chiqishning oldini olish va bartaraf etish, yadosiz davlatlarning tinchligini saqlashdan iborat edi.

Yadroviy qurollarga va texnologiyalarga ega davlatlar, o'zlari tomonidan xavfli yadroviy texnologiyalarning eksporti bo'yicha cheklashlarning bajarilishini bildirdilar, plutoniyni qayta ishlash, uranni boyitish yoki og'ir suv ishlab chiqarish uchun uskunalar shular jumlasidandir.

Ma'nosiga ko'ra, 1977-yildan boshlab ushbu cheklashlar yuqorida zikr etilgan obyektlar eksportiga norasmiy ravishda qo'yilgan (hukumat darajasida). Eksport cheklashlaridan birining olib tashlanishiga Shveysariyaning bir firmasi tomonidan og'ir suv ishlab chiqarish bo'yicha uskunalarining Argentinaga sotilishini misol qilib olishimiz mumkin. Boshqa tomondan qaraganda, yadroviy ta'minotchilar hukumat bilan kelishmagan holda mamlakatdagi xususiy firmalar ko'pgina potensial xavfli texnologiyalarni sotganlar.

1992-yilning aprelida guruhning 28 a'zosi yadroviy eksport ustidan nazoratni yanada mustahkamladilar, buning natijasida Iroq tomonidan yadroviy texnologiyalarni xufyona import qilinishi fosh

etildi. Birinchidan, Guruh o'zining «taqiqlovchi ro'yxati»ni kengaytirdi, unga ikki yoqlama foydalaniladigan 65 obyekt kiritildi. Ikkinchidan, eksport sharti sifatida to'la masshtabli kafolatlar qabul qilindi.

Lekin baribir, kafolat ostida bo'lmagan, potensial xavfli yadroviy texnologiyalarga ega bo'lish imkoniyatining oldini to'la olishga erishilmadi. Ayrim mamlakatlar, Argentina, Braziliya, Xitoy, Hindiston, Isroil, Pokiston, JAR va sobiq Ittifoq respublikalari (Rossiyadan tashqari) yadroviy ta'minotchi guruhlar a'zosi bo'lmagan turib, yadro materiallari va texnologiyalarini eksport qilish imkoniyatiga egadirlar. Ularning ko'pchiligi potensial xavfli texnologiyalarni eksport qila olmasligi mumkin, lekin Xitoy va sobiq Ittifoq respublikalari bu munosabatda bir qator notinchlikni yuzaga keltirishlari mumkin.

5. Yadro quollarini tarqatmaslikning xalqaro shartnomaviy asoslari

Yadro quollarini tarqatmaslik sohasiga asosiy yo'llanmalardan biri ushbu shartnomani qo'llash va mustahkamlash hisoblanadi. Yadro quollarini tarqatmaslik rejimini takomillashtirish yo'llarini izlashda, yadroviy quollar solishi mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etish bo'yicha qo'shimcha tadbirlarga tayangan holda xulosa qilish mumkin, ushbu sohadagi har qanday siyosatda shartnoma asos bo'lib qolishi zarur. Shartnoma yadroviy davlatlar uchun ham, yadro quollariga ega bo'lmagan davlatlar uchun ham bir xil munosabatga ega, chunki hozir atom energiyasi tinchlik maqsadida keng qo'llanilmoqda.

Yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma mislsiz xalqaro kelishuvni o'zida namoyon etadi. Yadro quollariga ega bo'lmagan mamlakatlar, atom energiyasini tinchlik maqsadida qo'llashda tengma-teng hamkorlik qilish sharoitida yadro quollarini olmaslik va barpo qilmaslikka kelishdilar. Bunga ularni asosan quyidagi mulohazalar da'vat etdi:

Birinchidan, agar boshqa davlatlar yadro quollarini ishlab chiqarmaslik majburiyatlarini o'z zimmalariga olsalar, faqat tinchlik maqsadida foydalanilsa, har bir yadrosiz mamlakat xavfsizligini kuchaytirishi mumkin, bu quollarning kelgusida tarqalishini bartaraf etish ularning xavfsizlik manfaatlari uchundir. Ikkinchidan, atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish sohasida boshqa tomonlar

yordamida kelajakda foyda olish, shuningdek yadroviy davlatlar tomonidan o'zlarining shaxsiy tinchlik dasturlarini rivojlantirish.

Shartnomani imzolash yadrosiz mamlakatlarni favqulodda qiyin ahvolga soladigan siyosiy muhit paydo bo'lishiga olib keladi. Umumiy holda hozirgi bosqichda shartnoma xalqaro xavfsizlikning muhim quroli hisoblanadi.

Fikrimizcha, shartnomadagi asosiy holatlarga qisqacha tavsif berish maqsadga muvofiqdir. Shu muammo asosida uning muvaffaqiyatli amal qilishiga xalaqit berayotganlarni aniqlash lozim. Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma 12 ko'rsatma, 11 modda, shuningdek 1968-yil 19-iyundagi BMT Xavfsizlik Kengashining rezolutsiyasidan va noyadroviy ishtirokchilar uchun xavfsizlik kafolatlari to'g'risida davlatlarning arizalarini o'z ichiga olgan Muqaddimadan iborat.

Ishtirokchilarning asosiy majburiyatlarini o'z ichiga oluvchi I va II moddalar, shuningdek ularni amalga oshirishni nazorat qilish masalasiga taalluqli III modda nisbatan muhim hisoblanadi.

I modda yadroviy qurollarga ega bo'lgan davlatlarga tegishli bo'lib, qanday bo'lmasin hech kimga yadro qurollarini yoki portlatish qurilmalarini bermaslik majburiyati, shuningdek bunday qurollar va portlatish qurilmalari ustidan nazorat olib borish, noyadroviy mamlakatlarga yadro qurollarini ishlab chiqish va ega bo'lishiga hech qanday yordam ko'rsatmaslik majburiyatlari ularning zimmasiga yuklatilgan.

II moddada noyadroviy davlatlarning majburiyatlari ko'rsatilgan bo'lib, yadro qurollari yoki yadroviy portlatish qurilmalarni oldi-berdisiga ishtirok etmaslik, shuningdek yadro qurollari yoki portlatish qurilmalari ustidan nazorat o'rnatish, yadro qurollari yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqarmaslik va ularga ega bo'lmaslik, yadro qurollari va yadroviy portlatish qurilmalarini ishlab chiqish bo'yicha har qanday yordam berish ishlarida qatnashmaslik va unga harakat qilmaslik majburiyatlari bu davlatlar zimmasiga yuklatilgan.

III moddaning maqsadi atom energiyasidan tanchlik maqsadlarida foydalanish ustidan xalqaro nazorat o'rnatish to'g'risida bo'lib, bunday ko'rsatmani ta'minlash va kafolatlashga bag'ishlangan. Shartnoma yagona nazorat tizimi mavjud bo'lishini, bu borada amaliyotda o'zini oqlagan AEKXA kafolatlash tizimini qo'llashni nazarda tutadi.

Shartnomaning III moddasiga imzo qo'ygan davlatlar har qanday noyadroviy davlatlarga maxsus uskunalar va materiallarni bermaslik majburiyatini oladi. Agar bu uskunalar va materiallarga AEKXA kafolatlari berilmagan bo'lsa, shartnoma ishtirokchilari bo'lmagan davlatlarga ham maxsus uskuna va materiallar berilmaydi. Ushbu moddaning buzilishi bu davlat bilan hamkorlikning to'xtatilishiga olib keladi, ya'ni u a'zo bo'lgan vaqtda foydalangan imkoniyatlardan mahrum etiladi.

Hal qilinishi zarur bo'lgan boshqa muammo – bu yadroviy materiallarni jismoniy himoya qilish hisoblanadi. AEKXA kafolatlari asosan tinch maqsadlardagi yadroviy materiallarni harbiy maqsadlarga aylantirishning oldini olishga qaratilgan, lekin ular yadroviy materiallarning jismoniy xavfsizligini ta'minlamaydi. Bunday himoyalash borasida AEKXA javob choralari ko'rishni bo'yniga olmaydi.

Shu bilan birga, yadroviy materiallarning yo'qolishi yoki o'g'irlanish hollari ushbu muammoning yangi jihatini ochdi, ushbu sohada kun tartibiga AEKXA vakolatlarini oshirish masalasini qo'ydi. Katta talofat manbasining terroristlar qo'liga yoki xalqaro jinoiy guruhlar qo'liga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Xuddi shu maqsadda AEKXA qarori bo'yicha «Yadroviy materiallarni jismoniy himoyalash to'g'risidagi» xalqaro konvensiya ishlab chiqilgan, u 1980-yil martda bir vaqtda Vena va Hyu-Yorkda imzolash uchun ochilgan edi.

Shartnomaning IV moddasida davlatlar yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va ishlab chiqarishni rivojlantirish huquqiga ega ekanligi nazarda tutilgan.

Shartnomaning barcha ko'rsatmalari rivojlanayotgan mamlakatlarga uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular kerakli texnik zahirasi va resurslarga ega emas, shuning uchun atom energiyasini tinchlik maqsadida qo'llashning katta dasturini amalga oshirishda rivojlangan davlatlar yordamiga muhtojdirlar.

Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma yadroviy portlashlardan tinchlik maqsadlarida foydalanishdek muhim masalani ham ko'rib chiqqan (IV modda). Ma'lumki, bunday portlatishlardan foydali qazilmalarni olishda, radioaktiv chiqindilarni ko'mishda, kanallarni qurishda, yo'llar, to'g'onlarni va tunellarni qurishda foydalaniladi. Shartnoma noyadroviy davlatlarga ushbu maqsadlar uchun

yadroviy portlatish qurilmalarini barpo qilishni taqiqlaydi, chunki texnologiya rejasiga ko'ra yadro bombasi va tinchlik maqsadida portlatiladigan yadro qurilmalari o'rtasida deyarli farq yo'q. Shu bilan birga, shartnomaning V moddasi bunday portlatishlarni tinchlik maqsadlarida foydalanish bo'yicha xalqaro hamkorlik tizimini barpo qilishni nazarda tutadi. Unda shunday deyiladi: yadroviy portlatishlarni tinchlik yo'lida qo'llashdan olinadigan manfaatlarga erishish shartnoma ishtirokchisi bo'lgan har bir noyadroviy davlatlarga to'g'ri keladigan bo'lishi lozim, ya'ni bunday davlatlar uchun portlatish o'tkazib berish xizmati bahosi nisbatan past bo'lishi zarur.

Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnomani tuzish xalqaro miqyosda yadroviy portlatishlardan tinchlik maqsadlarida foydalanish muammolarini faol muhokama etishga turtki bo'ldi. So'nggi yillarda shartnomaning V moddasini amalga oshirish bo'yicha bir qator amaliy tadbirlar qabul qilindi. 1971-yildayoq BMT Bosh Assambleyasi ta'kidlagan ediki, AEKXA o'zining Hizomiga asosan tinchlik maqsadlarida yadroviy portlatishlardan foydalanish bo'yicha xalqaro xizmatlarni bajarishi zarur bo'lgan vakolatli idora ekanligini aytgan. Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma qurolsizlanish bo'yicha boshqa chora-tadbirlardan ayri holdagi kelishuv hisoblanmaydi. Bir qator olimlarning, Shartnoma faqatgina noyadroviy mamlakatlar yadro qurollarini o'zlariga olib qolmasligi uchun to'sqinlik qiladigan hujjat, degan fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. SIPRI direktori F. Barnabi ta'kidlashicha, Shartnoma yadro qurollarini tarqatmaslikka «vertikal» emas, balki «gorizontal» munosabatga egadir.

Shartnomaning eng muhim maqsadlaridan biri – bu qurolsizlanish sohasidagi o'sishga ko'maklashishdir. Buning uchun Shartnomaning IV moddasiga quyidagilar kiritilgan: shartnomaning har bir a'zosi yadro qurollari bilan qurollanish orqasidan quvishni to'xtatish bo'yicha samarali bitimlar olib borishga, shuningdek «umumiy qat'iy va samarali nazorat ostida to'liq qurolsizlanish to'g'risidagi shartnoma» majburiyatlarini zimmalariga olishlari lozim. Ushbu moddaning asosiy ma'nosi shundaki, ilk bor yadroviy davlatlar xalqaro kelishuv bo'yicha qurolsizlanish masalalarining keng doirasi bo'yicha muzokaralar olib borish majburiyatlarini o'z zimmalariga oldilar.

1972-yili amalda bo'lgan kelishuvlar qatoriga dengiz va okean tubiga yadro qurollarini joylashtirishni taqiqlash to'g'risidagi Shartno-

ma ham kiritildi. Bu bilan Dunyo okeanlari ostida yadroviy qurollanish musobaqasiga yakun yasaldi.

Strategik qurollanishni cheklash bo'yicha Sovet-Amerika keli-shuvlari juda katta ahamiyatga egadir.

Yadro qurollarini tarqatmaslik Shartnomasiga uning ishtirokchilari bo'lgan noyadroviy davlatlar xavfsizligini kafolatlash to'g'risidagi xalqaro hujjatlarni bevosita biriktiradi. 1968-yil iyunda sobiq Sovet Ittifoqi, AQSH va Angliya hukumatlari BMT Xavfsizlik Kengashiga maxsus murojaat bilan chiqdilar. Shartnoma ishtirokchilari bo'lgan, yadro qurollariga ega bo'lmagan davlatlarga yadro qurollarini qo'llagan holda agressiya uyushtirilsa, yuqoridagi davlatlar darhol BMT Ustaviga asosan Xavfsizlik Kengashi harakatlarini ta'minlaydigan bo'ldilar.

Har besh yilda a'zo bo'lgan davlatlar shartnomadagi ko'rsatma va maqsadlar qanday bajarilayotganini ko'rib chiqish uchun anjuman chaqirishi Shartnomaga kiritilgan.

6. Yadrosiz zonalar tushunchasi va turlari.

Markaziy Osiyo – yadro qurollidan xoli zona sifatida

Yadro qurollarini tarqatmaslik borasida yadrosiz zonalar muhim rol o'ynaydi. 90-yillarning boshiga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida mintaqaviy xavfsizlik g'oyasini hayotga tadbiq qilish bo'yicha harakatlar kuchaydi. BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida tegishli rezolyutsiyalar bir necha marta qabul qilindi.

1975-yilgi BMT Bosh Assambleyasining qurolsizlanish Qo'mitasi ekspert guruhining XXIX sessiyasidagi qarori bo'yicha yadrosiz zonalar masalasi har tomonlama o'rganib chiqildi va Bosh Assambleya dunyoning barcha mintaqalarida yadrosiz zonalarni barpo qilish imkoniyatlarini konstruktiv va iqtisodiy jihatdan ko'rib chiqishni davlatlarga tavsiya qildi.

Shuni ta'kidlash joizki, xalqaro amaliyotda yadro qurollarini joylashtirishni cheklashni huquqiy tartibga solish ilgari mavjud bo'lgan. Antarktida to'g'risida Shartnoma (1959-yil), Dengiz va okean tublarida yadro qurollarini joylashtirishni taqiqlash to'g'risidagi Shartnoma (1971-yil), Oy va boshqa fazoviy jismlarni hisobga olgan holda, koinotni o'rganish va undan foydalanish bo'yicha davlatlar

faoliyati prinsiplari to'g'risidagi Shartnoma (1967-yil) shular jumlasiga kiradi. Yshbu tadbirlarning ahamiyati, birinchidan, fazoviy jismlarda yadro quollaridan foydalanishni cheklash bilan belgilanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda yer sharining eng ko'p aholi joylashgan hududlarida yadrosiz zonalar yaratish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda yadro quoliga ega davlatlar o'rtasida yadro quollarini tarqatmaslik hal qili-nishi asosiy masaladir.

Yadrosiz zonalar haqidagi kelishuvlar yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnomaning o'rniga emas, balki unga bo'lgan muhim qo'shimcha hisoblanadi va shartnomadagi moddalar bilan belgilanadi. Shartnomaning VII moddasida shunday deyiladi: davlatlar o'z hududlarida yadro quollari batamom bo'lmasligini ta'minlash maqsadida mintaqaviy bitimlar tuzishlari mumkin. O'zaro munosabatlardagi kelishuvlar Shartnomaning ko'rsatmalarida beriladi. Boshqa davlatlar, zonaga a'zo bo'lgan davlatlarga nisbatan zonadan tashqarida turib yadro quollarini qo'llamaslik to'g'risida xususiy majburiyatlarni oldilar.

Yadrosiz zonalar – bu yadroviiy qurolga ega bo'lmagan davlatlarning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va mustahkamlash ishiga qo'shgan hissasi, mehnatlarining samarasidir.

Yadrosiz zona barpo qilish fikri jahonda termoyadro urushi xavfi kuchayishi oqibatida 50-yillarda paydo bo'ldi. 1956-yilda SSRI, GDR va GFR hududida joylashgan qurolli kuchlar tarkibida atom quoli bo'lmasligi haqidagi taklif bilan chiqdi. Bu fikr kelajakda yadrosiz zonalar to'g'risidagi tushunchaning kelib chiqishiga asos bo'ldi deyish mumkin. 1957-yildagi BMT Bosh Assambleyasining XII sessiyasida PXR delegatsiyasi rahbari tomonidan yadrosiz zonalarni barpo qilish taklifi qo'yildi.

1959-yilda sobiq Sovet hukumati Bolqon yarim orolida va Adriatika dengizi hududlarida yadrosiz zona barpo qilish taklifi bilan chiqdi. Bolqon yadrosiz zonasiga Albaniya, Bolgariya, Italiya, Ruminiya, Turkiya va Yugoslaviya kabi davlatlar kiritilishi nazarda tutildi. Hatijada bir qator davlatlar G'arbiy Yevropada, O'rta yer dengizi havzasida, Afrikada, Yaqin Sharqda va Janubiy Osiyoda yadrosiz zonalar barpo qilish taklifi bilan chiqdilar.

Ammo 70-yillarga kelib, yadrosiz zonalarni barpo qilish harakatlari, jahonda yadro quoli tarqalib ketish xavfidan tashvishlangan

davlatlar tomonidan yangidan impuls olib, rivojlantirila boshlandi. Hozirgi vaqtda birinchi navbatda Afrika, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va G'arbiy Yevropadagi yadrosiz davlatlar hududi va mintaqasida yadrosiz zonalar barpo etish loyihalari dunyo mamlakatlarining eng ko'p e'tiborini tortmoqda.

Afrikan yadrosiz zona deb e'lon qilish fikri, Sahroyi Kabirda Fransiya o'zining birinchi yadro qurollari sinovlarini o'tkazganidan so'ng, BMT Bosh Assambleyasining XV sessiyasida birinchi marta 1960-yilda taklif qilingan edi. Afrika davlatlari guruhi BMTga a'zo davlatlariga Afrika qit'asini yadrosiz zona sifatida ko'rib chiqish va tan olish rezolutsiyasi loyihagini qabul qilish tashabbusi bilan chiqqan edilar (bu loyiha ovozga qo'yilmagan).

Keyingi XVI sessiyada o'sha davlatlarning tashabbusi bilan BMTga a'zo bo'lgan davlatlar, Afrika hududida, suv havzalarida, havosida yadro qurollarini sinash, saqlash va tashishni to'xtatishga chaqiruvchi, hamda Afrika qit'asini yadrosiz zona sifatida tan olish to'g'risidagi Rezolutsiyani qabul qildilar.

Afrikan yadrosiz zona deb e'lon qilish uchun katta-katta forumlar, jumladan, Afrika mustaqil davlatlari va hukumatlari boshliqlarining Addis-Abeba anjumani (1963) va betaraf davlatlar hukumati va davlat boshliqlarining Qohira anjumanlari yorqin misol bo'la oladi.

Afrika Birligi Tashkiloti davlat va hukumat boshliqlarining Assambleyasi birinchi sessiyasida Afrikan yadrosiz zona deb e'lon qilish Deklaratsiyasini (1964) qabul qilinishi bu borada tashlangan muhim qadam bo'ldi.

1965-yilgi Bosh Assambleyaning XX sessiyasida ushbu fikr kelgusida o'zining rivojlanishi uchun qo'llab-quvvatlaydigan Deklaratsiya ko'rinishini oldi.

Afrikan yadrosiz zona deb e'lon qilish masalasi 1974-yilda BMT Bosh Assambleyasining XXIX sessiyasida juda faol muhokama qilindi, 1975-yili Bosh Assambleyaning XXX sessiyasida tegishli Rezolutsiya bir ovozdan qabul qilindi. 1974-yilgi Bosh Assambleyaning XXIX sessiyasida Eron va Misr taklifi bo'yicha Yaqin Sharqda yadrosiz zonani barpo qilish masalasi ham ko'rib chiqildi.

1978-yilgi Bosh Assambleyaning XXXIII sessiyasida yadro potentsialining o'sishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan Isroil davlati bilan har qanday hamkorlikni cheklovchi Rezolutsiya qabul qilin-

di. Bosh Assambleyaning 1979-yilgi XXXIV sessiyasida ushbu hududda yadrosiz zona barpo qilish masalasi ko'rib chiqildi.

Bosh Assambleyaning 1974-yilgi XXIX sessiyasi Janubiy Osiyoda yadrosiz zona barpo qilish fikrini ma'qulladi va ushbu masala yuzasidan manfaatdor davlatlarni maslahat berishga chorladi. Hindiston Rezolutsiyasi qo'llab-quvvatlandi, unda shunday deyilgan: yadrosiz zonani barpo qilish tashabbusi ushbu mintaqa davlatlarining o'ziga xos xususiyatlari va jug'rofiy o'rnidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim.

Janubiy Osiyoda yadrosiz zonani barpo qilish muammosi BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida bir necha marta ko'tarildi. 1979-yilda XXXIV sessiya ko'pchilik ovoz bilan tegishli Rezolutsiyani ma'qulladi. Shuni ta'kidlash lozimki, Yaqin Sharq hududidagidek, ushbu mintaqaning yadro «ostonasidagi» mamlakatlar o'zlariga e'tibor qaratilishini talab qildilar.

Janubiy Osiyoda yadrosiz zonaning barpo etilishi ushbu mintaqa davlatlarini yadro qurollarini tarqatmaslik borasida birlashtirdi va bu mintaqa davlatlariga yadro quroliga ega davlatlar tomonidan yadro qurollarini qo'llagan holda siyosiy tazyiq ko'rsatish imkoniyatlarini chekladi.

1964-yilda Finlyandiya prezidenti U.Kekkonen tashabbusi bilan Yevropa g'arbida yadrosiz zona barpo qilish taklifi qizg'in muhokama qilindi. Loyihada yadro qurollarini yadrosiz zonada sinash va ishlab chiqish, yadro quroliga ega davlatlarning qurollarini zonada joylash-tirish, zona orqali transportirovka qilish taqiqlanishi nazarda tutilgan.

Lotin Amerikasida yadro qurollarini taqiqlash to'g'risidagi Shartnoma aholi zich joylashgan yerlar (200 ming kishi) va dunyo-ning katta hajmli tumanlarini (7,5 mln.kv.km.) yadro qurollaridan xoli qilishni o'rnatuvchi xalqaro kelishuv hisoblanadi.

Yadrosiz zona barpo qilish fikri 1962-yilgi Karib krizisidan keyin tug'ildi. 1962-yili BMT Bosh Assambleyasining XVII sessiyasi ishida Lotin Amerikasini yadrosiz zona deb tan olish to'g'risida, Braziliya, Boliviya, Chili va Ekvador birgalikda Rezolutsiya loyihasini kiritdilar. 1963-yili Meksikaning tashabbusi bilan Boliviya, Braziliya, Meksika, Chili va Ekvador Lotin Amerikasini yadrosiz zona deb e'lon qilish to'g'risidagi Deklaratsiya bilan chiqdilar.

BMT Bosh Assambleyasining XXVIII sessiyasida bu davlatlar tegishli Rezolutsiya loyihasini kiritdilar, unda Lotin Amerikasini yadrosiz zona deb e'lon qilishga, Lotin Amerikasi mamlakatlari Deklaratsiyada ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun tadbirlarni o'rganib chiqishga tilaklar bildirilishi to'g'risidagi 5 davlat prezidentlarining Deklaratsiyasi e'tiborga olindi.

BMT Bosh Assambleyasi 1963-yilda Lotin Amerikasida yadrosiz zona barpo qilishni ma'qullovchi rezolutsiyani qabul qildi. Bu Rezolutsiyani bajarish uchun hujjat loyihasini ishlab chiqadigan tayyorlovchi komissiya tashkil etildi. 1969-yilda Shartnoma kuchga kirdi.

Shartnoma (Tlatelolko Shartnomasi) preambula, 31 modda, o'tish davriga tegishli bitta modda va ikkita qo'shimcha Protokollardan iborat murakkab hujjatdir. Shartnomaning asosiy maqsadi – Lotin Amerikasida, har qanday holatda shartnoma ishtirokchilarining hududlarida yadro qurollarining har qanday shakllarda bo'lishini taqiqlash hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, shartnomalashgan tomonlar majburiyati faqat yadro qurollaridan voz kechishdan iborat bo'lib qolmay, o'z hududini sinovlar uchun berish yoki yadro qurollarini joylashtirishni uchinchi mamlakatlar orqali bajarishni ham taqiqlaydi.

Ushbu Shartnoma uning ishtirokchilari hududida chet davlatlarning yadro qurollari joylashmasligi, harbiy bazalar, omborlar, sinov poligonlariga aylantirilmasligiga to'g'ridan-to'g'ri asos bo'ladi.

Shunday qilib, ishtirokchilarning majburiyatlari ro'yxati etarli darajada katta bo'lib, bu Lotin Amerikasida yadro qurollarini taqiqlash to'g'risidagi Shartnomaning ijobiy tomoni hisoblanadi. Lekin bu ro'yxatda muhim bir narsa, ya'ni yadrosiz zona ishtirokchilari hududlaridan uchinchi davlatlar tomonidan yadro qurollari tranziti taqiqlanmagan. Bu bilan «deatomizatsiya» prinsipini to'g'ridan-to'g'ri chetlab o'tishga imkon tug'diriladi.

Ishtirokchi davlatlar hududi orqali yadro qurollarini tashishni taqiqlovchi moddaning yo'qligi Shartnomaning juda katta kamchiligidir. Hattoki meksikalik mashhur yurist va diplomat, Lotin Amerikasida yadrosiz zonani barpo qilish bo'yicha tayyorlovchi hay'at raisi Alfon Garlsiya Roble: «Agar yadrovii qurollarni tashish to'liq taqiqlanganda, Shartnoma nisbatan takomillashgan bo'lar edi», deb tan olgan edi.

Shartnomaga ikkita qo‘shimcha Protokol biriktirilgan. I Protokol zonaga a‘zo bo‘lmagan davlatlar tomonidan yadrosiz zona maqomiga rioya etish majburiyatlaridan iborat. Bu AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Hiderlandiyaga taalluqlidir.

II qo‘shimcha Protokol yadrosiz zona maqomiga rioya qilish bo‘yicha yadroviy davlatlarga, xususan, Shartnoma ishtirokchisi bo‘lgan davlatlarga yadro qurollarini qo‘llab xavf tug‘dirmaslik majburiyatiga taalluqli bo‘lib, uni hech qanday shaklda buzmaslikka chorlaydi. Shartnoma Gayana va Kubadan tashqari barcha Lotin Amerikasi davlatlari tomonidan imzolangan.

Ma‘lumki, qator kamchiliklariga qaramay, Shartnoma yadro qurollarini tarqatmaslik bo‘yicha rejimni yanada mustahkamladi va dunyoning boshqa mamlakatlari uchun yadroviy qurolsizlanish sari harakatga namuna bo‘ldi.

Ko‘pgina olimlarning fikriga ko‘ra, yadrosiz zonalar ni barpo qilish masalasida yagona model bo‘lishi mumkin emas. Har bir hudud o‘zining xususiyatlariga ega bo‘lib, kelishuvlarni ishlab chiqishda ushbu mintaqaga tegishli bo‘lgan xususiyatlarni e‘tiborga olish lozim. Shu bilan birga yadrosiz zonalar oldida turgan umumiy bo‘lgan talablar mavjud.

Yadrosiz zonaning asosiy vazifasi – bu yadro qurollarini hududiy cheklashdir. Zonaning yadrosizlik maqomi bu mintaqadagi barcha yadroviy va yadro quroliga ega bo‘lmagan davlatlar bu maqomni hurmat qilish majburiyatlarini o‘z zimmalariga olgandagina ta‘minlanadi. Faqat Lotin Amerikasi zonasidagiga o‘xshash tranzit masalasida qilingan xatolar takrorlanmasligi kerak.

Yadroviy qurolga ega bo‘lishni rad etish degani, davlat tinchlik maqsadlarida yadro texnologiyalaridan sanoat va boshqa xalq xo‘jaligi uchun foydalana olmaydi degani emas. Yadrosiz zona to‘g‘risidagi kelishuvlarni tuzishda, uning xalqaro huquqning mavjud normalariga mos kelishi zarur shartlardan biridir.

Yadrosiz zonalar jo‘g‘rofiyasi qanday bo‘lishi mumkin? Bunday zonalar butun bir qit‘alar, shuningdek jug‘rofiy rayonlar, ya‘ni mintaqalar (Janubi-Sharqiy Osiyo) yoki submintaqalar (Markaziy Osiyo) yoxud alohida davlatlar hududida bo‘lishi mumkin. Tlatelolko, Pelindaba va Rarotonga Shartnomalari shuni ko‘rsatadiki, yadrosiz zonalar konsepsiyasini amaliy tatbiq qilish uchun bu mintaqada yoki

boshqasida joylashgan davlatlar boshidanoq unda ishtirok etishi lozim.

Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona sifatida. Markaziy Osiyoda yadro qurollaridan xoli bo'lgan, erkin zona barpo qilish tugallangan jarayon bo'lmasa-da, lekin o'zining qurilishida alohida bosqichlardan o'tdi. Bu jarayon uchta bosqichda o'tmoqda: normativ bazani yaratish, tashkiliy hujjatlashtirish va mexanizmi ishga tushirish.

Markaziy Osiyoda yadrosiz zona barpo qilish bo'yicha tashabbuskor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bo'ldi. BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida I.A.Karimov Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona barpo qilish taklifi bilan chiqdi. Bu tashabbus uning YEXHTning Lissabon sammitidagi nutqining asosiy punktlaridan biri bo'ldi, sammitning maqsadi XXI asrda Yevropa uchun xalqaro xavfsizlik tizimining umumiy modelini muhokama qilish bo'ldi. Xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash jarayonidagi hozirgi zamon muammolari ichida yadro qurolidan xoli zonalarni barpo qilish alohida o'rin egallaydi. Lekin yadro qurolidan xoli zona va yadrosiz zona o'rtasidagi farq nimada, degan savol tug'iladi.

Yadro qurolidan xoli zonalarda yadro qurollarini ishlab chiqarish, saqlash, olish, ega bo'lish, shuningdek yadro qurollarini ishlab chiqarishga qaratilgan tadqiqotlarga yordam berish taqiqlanadi.

Yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish faqat Atom energiyasi kafolatlari xalqaro agentligi (AEKXA) nazorati ostida amalga oshirilishiga ruxsat etiladi. Zonalarda yadro sinovlarini o'tkazish, radioaktiv qoldiqlarni dengizlarga tashlash yoki yerga ko'mish, shuningdek yadroviy moddalarni ishlab chiqish va yaratish taqiqlanadi.

Bitta yadrosiz zonadan tashqari barcha zonalar yadro qurolidan xoli zonalar (YAQXZ) deb tan olinadi. Bu zona Tinch okeanining Janubiy qismidagi YAQXZ bo'lib, u YAZlardan uncha farq qilmaydi. Hech qaysi bir zona yadro energiyasi yoki quvvatidan (reaktorlardan) foydalanishni taqiqlamaydi.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani barpo qilish bo'yicha keyingi bosqich Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining Olma-ota uchrashuvida bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi davlat boshliqlari tomonidan bir ovozda ma'

qullandi. Shuningdek, bu tashabbusni BMT, EXHT va AEKXAdek obro'li xalqaro tashkilotlar ma'qulladilar.

1997-yil 14-16-sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona barpo qilish bo'yicha xalqaro anjuman o'tkazildi. Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar Vaziri I.V.Ivanov anjumanda so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidladi: «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusiga xalqaro hamjamiyatning ijobiy munosabati dunyoda O'zbekiston obro'si o'sib borayotganligining yana bir dalili bo'ldi». O'z mustaqilligiga erishganiga hali ko'p bo'lmasdan, qisqa vaqt ichida Prezident I.A. Karimov rahbarligida O'zbekiston o'zining ishonchli pozitsiyalari bilan dunyo sahnasiga chiqdi. O'zbekiston bilan hisoblashadigan bo'lishdi. Xalqaro siyosatning dolzarb masalalari bo'yicha O'zbekiston fikrlari, Markaziy Osiyo mintaqasiga taalluqli muammolar bo'yicha barcha fikrlari salmoqqa egadir.

O'zbekiston Prezidenti bu yerda yadro qurolidan xoli zona barpo qilish to'g'risida qilgan taklifini, Rossiya yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi rejimni mustahkamlashga qaratilgan harakat sifatida ko'rib chiqmoqda, bu esa nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda barqarorlik va ishonch darajasini oshirishga ko'maklashadi.

Yadro qurollaridan xoli zona nima degani? 1975-yil 11-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi qabul qilgan rezolutsiyada YAQXZga quyidagi ta'rif beriladi: *BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tan olingan, har qanday mamlakatlar guruhlarini erkin tashkil qiladigan har qanday zona YAQXZ hisoblanadi.*

«Yadroviy nazorat» jurnali o'zining eksklyuziv intervyusida O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri A.Komilovga quyidagi savollarni berdi: «Mintagada YAQXZ ishtirokchilari beshta Markaziy Osiyo davlatlaridir. Ishtirokchilar YAQXZni barpo qilish bilan bog'liq moliyaviy qiyinchiliklarni qay tartibda hal qiladilar?», degan savolga A.Komilov shunday javob qildi: «Dunyo tajribasi va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda». Zonaning keyinchalik qay darajada kengayib borishi to'g'risida jurnalist bergan savolga Vazir quyidagicha javob berdi: «Bizning kun tartibimizda kengaytirish emas, balki mexanizmni barpo qilish masalasi qo'yilgan bo'lib, YAQXZni alohida ishtirokchilar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston bilan birgalikda qurish turibdi».

Ko'rib turibmizki, YAQXZ ishtirokchilari soni aniqlangan, BMT, EXHT va AEKXA buni qo'llab-quvvatladi, Xitoy va Rossiya kabi yadroviy davlatlar Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani barpo qilish tashabbusini ma'qulladilar.

Yadro qurolidan xoli zonani barpo qilish borasidagi konsepsiya o'zining realligini namoyon qilmoqda va yadro qurollarini tarqatmaslik bo'yicha xalqaro rejimni mustahkamlashda aniq amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Xitoy delegatsiyasi boshlig'i yuqorida qayd etib o'tilgan anjumanidagi o'z nutqida, zonani o'rnatishda yadro qurolidan xoli zonalariga tegishli bo'lgan quyidagi prinsiplar bajarilishi lozimligini ta'kidladi:

1. Yadro qurolidan xoli zona o'zaro maslahatlashuvlar asosida tegishli davlatlarning ixtiyoriy kelishuvi negizida barpo qilinishi lozim.

2. Yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi Shartnomalar BMT Ustavi prinsiplari va maqsadlariga mos kelishi kerak va zonadan tashqaridagi davlatlarning ichki ishlariga aralashish uchun qo'llanmasligi lozim.

3. Yadro qurolidan xoli zonaning yadrosiz zonasi xavfsizlik mexanizmi har qanday ta'sir qiladigan narsa bo'lishi kerak emas. Yadro qurolidan xoli zonadagi mamlakatlar har qanday bahonalar bilan o'zlarining majburiyatlarini bajarishdan bosh tortmasliklari kerak.

4. Yadro qurolidan xoli zona aniq jug'rofiy chegaralarga ega bo'lishi kerak. U o'zining tarkibiga kontinental shelf, erkin iqtisodiy zonalar, mojarolar yoki nizolar borayotgan hududlarni olmasligi kerak.

5. Ishonch mexanizmi samaradorligi ya'ni AEKXA kafolatlari so'zsiz ta'minlanishi kerak.

6. YAQXZ to'g'risidagi kelishuvlar xalqaro hamkorlik amaliyotiga mos ravishda o'tkazilishi kerak.

7. Yadroviy qurollarga ega davlatlar yadro qurolidan xoli zonalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari va ularga nisbatan yadro qurollaridan foydalanib xavf tug'dirmaslikni majburiyatlarini so'zsiz bajarishni o'z zimmasiga olishlari kerak.

Yadro qurollarini tarqatmaslik sohasidagi siyosat va konsepsiya tahlili shundan dalolat beradiki, bu muammo tashqi siyosat tizimida muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Bu dunyo bo'yicha yadro qurollari tarqalishi natijasidagi xavf bilan bog'liq, uning aniq yechimi tashqi siyosat kun tartibiga qo'yilgan. Yadro qurollarini tarqatmaslik masalasiga oid tadqiqotlar bu sohadagi siyosat belgilarini yaqin kelajak va uzoq kelajakda aniqlash imkoniyatini beradi.

Kelajakda atom energiyasini rivojlantirish va undan tinchlik yo'lida foydalanish bilan bog'liq muammolar ahamiyati ortib boradi. Moddiy imkoniyatlar o'sayotgan sharoitda yadro qurollarini tarqatmaslik strategiyasi texnik sohadan siyosiy sohaga almashmoqda. Hatijada uzoq muddatli rejalarda asosiy kuchlar yadro qurollarini kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Yadroviy qurolsizlanish va yadro qurolini tarqatmaslik o'rtasidagi bevosita bog'liqlik «milliy xavfsizlik» deb ataluvchi manfaatlarni ta'minlashga an'anaviy yondashuvni chuqur ko'rib chiqish vazifasini qo'yadi. Yadro qurollarini tarqatmaslik vazifasini muvaffaqiyatli hal etish dunyoning barcha davlatlarining o'zaro hamkorligi va kelishuvi natijasida ijobiy echilishi mumkin.

Shunday qilib, yadro qurollarini tarqatmaslik rejimi tushunchasini quyidagi ko'rinishda ta'riflash mumkin: *Yadro qurollarini tarqatmaslik rejimi bu xalqaro shartnomalar va kelishuvlar, milliy qonunchilik, ko'pgina milliy va xalqaro agentliklar tomonidan butun dunyoda yadroviy xavfsizlik masalasi bo'yicha tadbiq qilinadigan eksport qoidalari yig'indisidan iboratdir.*

Nazorat savollari va topshiriqlar:

- 1. Xalqaro yadroviy huquqni hozirgi zamon xalqaro huquqining yangi tarmog'i sifatida qanday ta'riflaysiz?*
- 2. Yadro qurollarini tarqatmaslik, cheklashga yo'naltirilgan asosiy xalqaro-huquqiy shartnomalar va konvensiyalar haqida so'zlab bering.*
- 3. Yadroviy tarqatmaslikni ta'minlash mexanizmlari nimadan iborat?*

4. *O'zbekiston Respublikasining yadroviy tarqatmaslikni amalga oshirish bo'yicha xalqaro-huquqiy tashabbuslari va sa'y-harakatlari to'g'risida gapirib bering.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воронков Л.С. Северной Европе – безъядерный статус. – М., 1984.
2. Давыдов В.Ф. Западная Европа и ядерное оружие. – М., 1988.
3. Джекшенкулов А. О безъядерной зоне в Центральной Азии // *Международная жизнь*. – М., 1999. – № 6. – С. 92-96.
4. Ефремов А.Е. Ядерное разоружение. – М., 1986.
5. Иойрыш А.И. Правовые проблемы мирного использования атомной энергии. – М.: Наука, 1979.
6. Иойрыш А.И. Атомная энергия: правовые проблемы. – М.: Наука, 1989.
7. Касымов А.М., Неклесса Г.Г. Международно-правовые аспекты создания зон, свободных от ядерного оружия. – Т.: *Ўзбекистон миллий энциклопедияси*, 1999.
8. Малинин С.А. Атомная проблема в международном праве. – Л., 1967.
9. Миншарин В.Н. Мирное использование атомной энергии. – М.: *Междунар. отношения*, 1986.
10. Неклесса Г.Г. Международно-правовые аспекты создания в Центральной Азии зоны, свободной от ядерного оружия. – Т., 2004.
11. Осипов Г.А. Международно-правовое регулирование нераспространения ядерного оружия. – М.: Наука, 1989.
12. Паламарчук П.П. Ядерный экспорт: международно-правовое регулирование. – М.: Наука, 1998.
13. Пархитыко В.П. Международное ядерное право. – М.: Знание, 1972.
14. Томилин Ю. Безъядерные зоны: условия эффективности. Втор. перераб. изд. – М., 1992.
15. Goldschmidt B. *The Atomic Complex: A Worldwide Political History of Nuclear Energy*. – La Grange Park: American Nuclear Society, 1980.
16. Murphy A. *Nuclear Power Controversy*. – Englewood Cliffs, 1986.
17. Potter W.C. *Nuclear Power and Nonproliferation: An Interdisciplinary Perspective*. – Cambridge, Mass: Oelgeschlager, Gunn & Hain Publishers, 1982.
18. Robles A.G. *The Latin American Nuclear – Weapon – Free Zone*. – Muscatine: The Stanley Foundation, 1989.

21-bob. XALQARO IQTISODIY HUQUQ

1. *Xalqaro iqtisodiy huquqning vujudga kelishi.*
2. *Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi va subyektlari.*
3. *Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari.*
4. *Xalqaro iqtisodiy huquq prinsiplari.*

1. Xalqaro iqtisodiy huquqning vujudga kelishi

Davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, eng avvalo savdo munosabatlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Savdo munosabatlari qadim davrdan boshlab xalqaro shartnomalarda asosiy o'rinni egallab kelgan. Bunda savdo munosabatlari-ning erkinligi axloqiy va huquqiy prinsiplardan biri deb tan olingan. Milodiy II asrda qadimgi Rim tarixchisi Flor shunday yozadi: «Agar savdo munosabatlari buzilsa, insoniyat o'rtasidagi ittifoq ham buziladi». Xyugo Grotsiy (XVII asr) «Har qanday xalq boshqa bir xalq bilan o'zaro savdo munosabatlariga to'sqinlik qilishga haqqi yo'q», deb ko'rsatib o'tadi. Aynan shu prinsip «Jus commercii» – savdo erkinligi huquqi (savdo keng ma'noda tushuniladi) – xalqaro iqtisodiy huquq uchun asosiy prinsip bo'lib qoladi.

XVII asrda birinchi marta maxsus xalqaro savdo shartnomalari vujudga keldi. XX asrga kelib davlatlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishga bag'ishlangan bir qancha xalqaro-huquqiy doktrinalar, institutlar va maxsus prinsiplar tarkib topdi: «teng imkoniyatlar», «kapitulatsiya», «ochiq eshiklar», «konsul yurisdiksiyasi», «orttirilgan huquq», «mumkin qadar qulaylik», «milliy tartib», «kamsitmaslik» va boshqalar. Bulara savdo erkinligi manfaatlari bilan tashqi savdoni monopolizatsiya qilishga intiluvchilar yoki o'z bozorlarini cheklashga intiluvchilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar o'z aksini topdi.

XIX-XX asrlarda xalqaro iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikning yangi shakllari vujudga kelishi shartnomalarning yangi shakllari hayotga tatbiq qilinishiga olib keldi (mahsulot aylanishi va to'lovlar to'g'risidagi kelishuvlar, kliring, transport masalasi, aloqa, sanoat mulki va boshqalar to'g'risidagi bitimlar), shuningdek ko'pdan-ko'p xalqaro iqtisodiy va ilmiy-texnik tashkilotlarning tuzilishiga sabab

bo'ldi. Bunday jarayon Ikkinchi jahon urushidan keyin yanada jadal rivojlandi. BMT Ustavida ham xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan maqsad iqtisodiy xarakterga ega xalqaro muammolarni hal etish deb ko'rsatib o'tilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida Yevropada iqtisodiy integratsion xalqaro tashkilotlar – Yevropa Ittifoqi va O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi tashkil topdi.

1947-yili tarixda birinchi marta ko'p tomonlama savdo shartnomasi – Tariflar va Savdo To'g'risidagi Bosh Bitim (TSBB-GATT) imzolandi, shu asosda yuzdan ortiq davlatlarni birlashtirgan o'ziga xos xalqaro shartnoma yuzaga keldi.

2. Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi va subyektlari

Xalqaro iqtisodiy huquq ta'rif. Xalqaro iqtisodiy huquqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin: *xalqaro iqtisodiy huquq xalqaro ommaviy huquqning tarmog'i bo'lib, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi norma va prinsiplar yig'indisidan iborat.*

Davlatlar va xalqaro ommaviy huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy munosabatlar xalqaro iqtisodiy huquqning predmeti bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarga savdo, tijorat munosabatlari, shuningdek ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, valuta-moliyaviy, transport, aloqa, energetika, intellektual mulk, turizm va shu kabi sohalarga doir munosabatlar kiradi.

G'arb mamlakatlarining hozirgi zamon huquqiy adabiyotlarida xalqaro iqtisodiy huquqning ikkita asosiy konsepsiyasi mavjud. Birinchi konsepsiyaga muvofiq xalqaro iqtisodiy huquq xalqaro ommaviy huquqning tarmog'i hisoblanib, xalqaro huquq subyektlarining iqtisodiy munosabatlari uning predmetidir (G.Shvarsenberger, Ya.Brodili – Buyuk Britaniya; P.Verlorenvan Temaam – Niderlandiya; V.Levi – AQSH; P.Veyl – Fransiya; P.Pinone – Italiya va boshq.). Hozirgi paytda G'arb adabiyotlarida hukmron konsepsiya xalqaro iqtisodiy huquq normalarining manba xalqaro huquq va davlatlarning ichki huquqlari deb hisoblaydi, xalqaro iqtisodiy huquq o'z ta'sirini davlat hududidan tashqarida bo'ladigan tijorat munosabatlarida ishtirok

etuvchi barcha huquq subyektlariga o'tkazadi (A.Levenfeld – AQSH; P.Finger, G.Erler, V.Fikintjer – GFR; V.Fridiki, E.Piterman – Buyuk Britaniya; P.Reyter – Fransiya va boshq.). Bu ikkinchi konsepsiya G'arbda ilgari surilgan transnatsional huquq nazariyasi bilan tutashib ketadi, chunki bu nazariya xalqaro huquq subyektlari qatoriga davlat bilan birgalikda transnatsional korporatsiyalarni ham kiritadi (V.Fridik va boshq.).

Rivojlanayotgan mamlakatlarning huquqiy adabiyotlarida «Xalqaro huquq rivoji» konsepsiyasi keng tarqalgan bo'lib, bu konsepsiya eng nochor davlatlarning rivojlanishining o'ziga xos huquqiga e'tiborni qaratadi.

Xalqaro iqtisodiy huquq subyektlari. Xalqaro iqtisodiy huquqni xalqaro ommaviy huquq tarmog'i sifatida tushunganimiz uchun, mantiqan xalqaro huquq subyektlarini xalqaro iqtisodiy huquq subyektlari hisoblanadi deymiz. Davlatlar fuqaroviy-huquqiy, tijorat faoliyatlarida, tashqi iqtisodiy aloqalarda to'g'ridan-to'g'ri qatnashadilar. «Savdo qilayotgan davlatlar xalqaro huquq subyektlari bo'la turib, boshqa bir davlat milliy huquqining subyekti bo'lib ham hisoblanadi. Masalan, ular chet el kontragentlari bilan bitim tuzib, chet el yurisdiksiyasiga ham bo'ysunadilar. Ammo bu davlatlarning immunitetiga daxldor bo'lmaydi. Davlatlarning o'z immunitetlarini rad etishi uchun (jumladan, sud yurisdiksiyasi, da'voni dastlabki ta'minlashdan yurisdiksiya va sudning majburiy qarorlarini ijro etishdan yurisdiksiya) davlatlarning o'z istak-xohishlari bo'lishi talab etiladi.

3. Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari

Xalqaro ommaviy huquqning manbalari xalqaro iqtisodiy huquq manbalari bo'lib hisoblanadi. Endigina rivojlanib kelayotgan xalqaro huquq tarmoqlarining biri bo'lgan xalqaro iqtisodiy huquq uchun manba bo'lib, xalqaro tashkilot va konferensiyalarning qarorlari, ya'ni ularning majburiy xarakterdagi normalari hisoblanadi. Bu normalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular imperativ normalardir. Bu normalar nafaqat «tavsiya etadi», balki tavsiya etuvchi normalar bo'lmaganda huquqqa zid deb hisoblangan harakat (harakatsizlik)ning huquqiy ekanligini bildiradi. Masalan, 1964-yili BMTning savdo va rivojlanish Konferensiyasi bizga ma'lum bo'lgan Jeneva prinsiplarini

qabul qildi va bu prinsiplarda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qulay bo'lgan bojxona imtiyozlari haqida tavsiyalar mavjudligini ko'rsatdi (bojxona tarifidan chegirma). Agar bu tavsiya etuvchi normalar bo'lmaganida, bunday imtiyozlar huquqqa zid deb hisoblanar edi.

Quyidagilar xalqaro iqtisodiy huquqning manbalari sifatida tan olinadi:

Xalqaro shartnomalar. Hozirgi dunyoda ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro iqtisodiy huquq normalarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ko'p tomonlama shartnomalarni imzolash o'ta muhim ahamiyatga egadir. Aynan ko'p tomonlama shartnomalar xalqaro iqtisodiy huquqning asosini tashkil etadi. Universal xalqaro iqtisodiy shartnomalarga misol qilib 1947-yilgi savdo va tariflar bo'yicha bosh Bitimni, shuningdek keng tarqalgan xomashyo mahsulotlari bo'yicha ko'p tomonlama Bitimni olishimiz mumkin.

Ammo ko'p tomonlama aloqalarning ahamiyatiga qaramay, iqtisodiy sohadagi asosiy hamkorlik ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda. Ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi xalqaro shartnomalar orasida umumiy shartnomalarni, siyosiy xarakterga ega shartnomalarni, jumladan, do'stlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bu shartnomalarda tomonlarning siyosiy majburiyatlari bilan birga, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, tijorat bitimlarini tuzish majburiyatlari ham mustahkamlanadi.

Eng abamiyatli xalqaro iqtisodiy huquq normalarini shakllantirishda bir qancha maxsus xalqaro normalar muhim rol o'ynaydi. Ularga savdo shartnomalari kiradi. Ular savdo, dengizda suzish va shu kabilar to'g'risidagi shartnomalar deb nomlanishi mumkin. Ularda, davlatlar va ularning yuridik shaxslari uchun o'zaro munosabatlarda muhim hisoblangan savdo-iqtisodiy rejimining ma'lum turlari mustahkamlangandir. Bular: o'zaro qulaylik rejimi, milliy rejim, preferensial rejim, kamsitmaslik va o'zaro foydali rejimlardir.

Iqtisodiy hamkorlikning savdo va boshqa turlari xalqaro valuta hisobi va kreditlar to'g'risidagi bitimlar asosida moliyaviy ta'minlash va valuta to'lovlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tovar ayriboshlash va to'lovlar to'g'risida deb nomlanadigan savdo va valuta-moliyaviy kelishuvlari yagona shartnoma asosida birlashtirilishi odat tusiga kirib

goldi. Ammo, ma'lum hollarda milliy erkin konvertatsiyada bo'lgan, cheklanmagan konvertatsiyada bo'lgan yoki cheklangan konvertatsiyada bo'lgan yoxud konvertatsiyaga ega bo'lmagan valutalarda hisob-kitob qilish shart qilib qo'yiladigan maxsus to'lov bitimlari ham tuzilishi mumkin. Kliring bitimlari iqtisodiy, savdo operatsiyalaridagi kirim va chiqimlarni o'zaro hisob-kitob qilishni nazarda tutadi. Kliring bitimlaridan konvertatsiyaga ega bo'lmagan valutalari bor davlatlar foydalanadilar. Kredit bitimlari toza ko'rinishda mavjud bo'lishi, ya'ni bir davlatni ikkinchi bir davlatga qarzni pul, tovar yoki aralash shaklda keyin qaytarish sharti bilan taqdim etishni nazarda tutadi.

Biror-bir davlatda eksport va import operatsiyalarini son jihatidan cheklash zarurati tug'ilganda tovar ayirboshlash deb nomlanadigan bitimlardan foydalaniladi. Bunday bitimlarda tomonlar ma'lum kontingentdagi (kvotadagi) eksport va import tovarlarini jismoniy yoki narx ko'rsatkichlarida yetkazib berishga kelishib oladilar.

Xalqaro odat. Tarixan odat – xalqaro huquqning asosiy manbai sifatida ham, xalqaro iqtisodiy huquqning manbai sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi tomondan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda odatning rolini cheklash fikriga qo'shilish ham mumkin, chunki davlatlar o'zaro munosabatlarda qo'llayotgan standartlarga odat huquqi orqali yondashish bilan muammolarning barchasini hal qilib bo'lmaydi.

Chunki hozirda xalqaro huquqning asosiy prinsiplari sifatida chuqur ildiz otgan davlatlarning suverenitetini hurmat qilish, davlatlarning tengligi, xalqaro shartnomalarga rioya etish kabi prinsiplar qadim zamonlardan mavjud bo'lsa-da, davlatlar hozirgacha bu prinsiplarni o'zlarining ikki va ko'p tomonlama shartoma, bitim va konvensiyalarida mustahkamlashga intilmoqdalar.

Xalqaro tashkilotlarning qarorlari (tavsiyalari, majburiy xarakterdagi qarorlari). Iqtisodiy hamkorlik masalalariga bag'ishlangan ko'p sonli tavsiyalar BMT bosh organlari, shuningdek BMT tizimiga kiruvchi yordamchi tashkilotlar (YUHKTAD, YUHIDO va boshq.) tomonidan qabul qilinadi. Bu organ va tashkilotlarning qarorlari yuridik majburiy xarakterga ega bo'lmay, tavsiya etuvchi kuchga egadir.

BMT Bosh Assambleyasi davlatlarning iqtisodiy huquq va majburiyatlarini Xartiyasi, yangi xalqaro iqtisodiy tartib to'g'risidagi Dek-

laratsiya va yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish bo'yicha harakat Dasturi (1974-yil) kabi asosiy aktlarni qabul qildi. Bu hujjatlarda bir-birini kamsitishga yo'l qo'yilmaydigan o'zaro foydali iqtisodiy hamkorlik asoslari e'lon qilindi.

BMT Bosh Assambleyasi qabul qilgan muhim hujjatlar qatoriga «Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishonchni mustahkamlash chorarlari to'g'risida»gi (1984-yil) va «Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik to'g'risida»gi (1985-yil) Rezolutsiyalar kirish mumkin.

Bir qator mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar, eng avvalo Yevropa Ittifoqi iqtisodiy qarorlari nafaqat tavsiya etuvchi, balki majburiy yuridik kuchga ham egadir.

Davlatlararo iqtisodiy konferensiyalarning qarorlari. Bu qarorlar, ayniqsa, konferensiyalarning yakunlovchi Aktlariga ko'p tomonlama shartnomalarning muhim turlari deb qaraladi va shunga asosan ular nafaqat tavsiya etuvchi, balki majburiy yuridik kuchga ega bo'lishi mumkin. Xalqaro konferensiyalarning hujjatlari ichida xalqaro iqtisodiy huquqning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega hujjatlar sifatida, BMTning 1964-yilgi savdo va rivojlanish bo'yicha Jeneva konferensiyasining yakunlovchi Aktidagi xalqaro savdo munosabatlari va savdo siyosatini belgilab beruvchi prinsiplari, 1975-yilgi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi Yakunlovchi aktining «Atrof-muhitni himoya qilish, fan-texnika va iqtisod sohasidagi hamkorlik» bo'limi, shuningdek 1990-yilgi EXHK doirasidagi oliy darajadagi uchrashuvda qabul qilingan yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasining «Iqtisodiy hamkorlik» bo'limlari hisoblanadi.

4. Xalqaro iqtisodiy huquq prinsiplari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xalqaro huquqning umum tan olingan prinsiplari asos sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro ommaviy huquqning asosiy prinsiplari bilan birgalikda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ma'lum bir savdo-siyosiy munosabatlarini tartibga solish uchun maxsus prinsiplardan foydalaniladi.

Bunda shuni qayd qilish kerakki, xalqaro iqtisodiy huquqning maxsus prinsiplari konvension xarakterga ega, ya'ni har bir holatda bu prinsiplarni xalqaro shartnomalarga kiritish maqsadga muvofiq

bo'ladi. Xalqaro iqtisodiy huquqning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Kamsitmaslik prinsipi. Bu prinsipning huquqiy ma'nosi shundaki, bir davlat ikkinchi bir davlatga bir qator huquqlar berishda (jumladan, ularning fuqarolariga va o'z milliy huquqining boshqa subyektlariga), shu davlatga berilayotgan huquqlar boshqa har qanday uchinchi davlatga berilgan huquqlardan kam bo'lmasligi lozim. Bunday huquq berish qulay sharoitlar yaratish, ya'ni imtiyozlar berishni nazarda tutmaydi. Boshqacha aytganda, kamsitmaslik rejimi boshqa bir davlat uchun, barcha davlatlar uchun umumiy bo'lgan shart-sharoitdan kam bo'lmagan shart-sharoit yaratish majburiyatini bildiradi.

Mumkin qadar qulaylik yaratish prinsipi (mumkin qadar qulaylik). Mumkin qadar qulaylik yaratish prinsipi (rejimi) bir davlat o'zining hamkor davlati uchun, uchinchi bir davlat uchun amalda bo'lgan yoki amalda bo'lishi mumkin bo'lgan imtiyozli (mumkin qadar qulay) sharoitlarni shu davlatga ham yaratib berish yuridik majburiyatini bildiradi. Mumkin qadar qulaylik rejimining qo'llanish sohasi u yoki bu xalqaro shartnomada mumkin qadar qulaylik to'g'risidagi band bilan belgilanadi. Bu band umumiy shaklda savdo yoki dengiz yo'lining butun bir sohasiga yoki munosabatlarning alohida bir turiga: bojxona to'lovlari (ularning imtiyozli tarifi)ga nisbatan; tranzitga son jihatidan cheklash yoki taqiqlashga; transport rejimiga; soliq, jismoniy va yuridik shaxslarning yuridik huquqlariga va boshqa shu kabi sohalarga taalluqli bo'lishi mumkin.

Milliy tartib (rejim). Milliy tartib bir qator savdo bitimlarida nazarda tutilib, chet davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslarini o'z huquq va majburiyatlarini milliy davlatning jismoniy va yuridik shaxslarining huquq va majburiyatlariga tenglashtirib qo'yishdir. Odatda bu rejim chet ellik shaxslarning sud ishi yuritishda, fuqarolik huquqiy layoqatga ega bo'lishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida chet elliklarga nisbatan milliy rejim tadbiiq etilgan.

O'zaro foyda prinsipi. O'zaro foyda prinsipi davlatlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro foydali bo'lmasa, majburlovni ishga solish, bunday munosabatlar adolatli ravishda teng taqsimlanishi nazarda tutiladi.

Murakkab davlatlararo munosabatlarda, jumladan, iqtisodiy munosabatlarda, o'zaro munosabatlarda foyda va majburiyatlarning

adolatli taqsimlanishi har bir aniq bitim uchun namuna bo'lib xizmat qila olmaydi, ammo bu prinsip umumiy xalqaro-huquqiy munosabatlarni muvozanatga solib turadi.

Preferensial tartib (rejim). Preferensial rejim – u yoki bu davlatlar o'rtasida yoki bir guruh davlatlar o'rtasida amalda bo'lgan, eng avvalo bojxona to'lovlariga tegishli bo'lgan savdo imtiyozlaridir. Misol qilib BMTning savdo va rivojlanish Konferensiyasining tavsiyasiga ko'ra rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan, shuningdek rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida qo'llanilayotgan preferensial tizimni keltirishimiz mumkin.

Taqdim etilgan perefrensiyalarga, mumkin qadar qulaylik yaratish prinsipini buzish deb qaralmaydi.

Ilgari rivojlangan davlatlar tomonidan, mustaqil va yarim mustaqil mamlakatlarga nisbatan shartnomalar tajribasida quyidagi huquqiy rejimlar – «teng imkoniyatlar», «ochiq eshiklar» va shu kabilardan foydalanish keng tarqalgan edi. Bunday shartnomada nazarda tutilgan shartlar hozirgi davrda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplariga zid bo'lib, huquqiy deb qaralishi mumkin emas.

Albatta, bir mavzu doirasida xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan iqtisodiy hamkorlikning barcha sohalarini qamrab olish oson emas. Chunki xalqaro iqtisodiy huquqning subyektlari, manbalari va prinsiplari to'g'risidagi umumiy tushunchalardan tashqari, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning alohida sohalarini xalqaro-huquqiy tartibga solib turuvchi juda ko'p sonli xalqaro normativ hujjatlari mavjuddir.

Xalqaro iqtisodiy huquqning alohida sohalarini ko'rib chiqishda, valuta-moliya sohasida davlatlararo hamkorlikning rivojlanishini va shu sohadagi umumbashariy masalalarni hal etishda Xalqaro valuta Fondi (XVF) va Tiklanish va taraqqiyot xalqaro Banki (ITXB)ning roli to'g'risida juda ko'p sonli misollar keltirishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan so'zlar BMT doirasida mintaqaviy darajada, avvalambor Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tomonidan tuzilgan iqtisodiy komissiyalar doirasida transport va iqtisodiy hamkorlik sohasidagi davlatlararo hamkorlikka ham tegishlidir.

Xalqaro huquq tarmog'i bo'lgan xalqaro iqtisodiy huquqni ko'rib chiqar ekanmiz, biz shu narsaga amin bo'ldikki, bu huquq tarmog'i butun bir xalqaro huquqning yaxlit tizimida alohida bir tizimcha

bo'lib, hozirgi davrda xalqaro huquqning eng gurkirab rivojlana-yotgan tarmog'i hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi, uning maqsadi va tamoyillari qanday?*

2. *Xalqaro iqtisodiy bitimlar va shartnomalar tushunchasi va ularning turlarini ta'riflang.*

3. *Xalqaro savdo va iqtisodiy tashkilotlar, ular faoliyatining huquqiy asoslari.*

4. *Xalqaro iqtisodiy huquq bo'yicha javobgarlik va shu sohadagi nizo-larni hal qilish mexanizmlari nimadan iborat?*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан: взгляд в будущее. – Т., 1992.

2. Богуславский М.М. Международное экономическое право. – М., 1986.

3. Вельяминов Г.М. Правовое урегулирование международной торговли. – М., 1972.

4. Вельяминов Г.М. Основы международного экономического права. – М., 1994.

5. Войтович С. А. Принципы международно-правового регули-рования межгосударственных экономических отношений. – Киев, 1988.

6. Ковалев А.А. Самоопределение и экономическая независимость народов. – М., 1988.

7. Коробова М. А. Международное право и экономические договоры. – М., 1987.

8. Международные экономические организации: Учебник. – Алматы: Данекер, 2001.

9. Рахимова М. Халқаро иқтисодий ҳуқуқ. – Т.: Академия, 2005.

10. Ушаков Я.А. Режим наибольшего благоприятствования в межго-сударственных отношениях. – М., 1995.

11. Чекурова М.В. Международные экономические организации. – М., 1987.

12. Шатров В.П. Международное экономическое право. – М., 1990.

13. Шрепpler X.A. Международные организации. Справочник. – М., 1998.

14. Шумилов В.М. Международное экономическое право. – М.: НИМПИ, 2001.
15. August R. International Business Law. Text, cases & readings. 2nd ed. – New Jersey: Prentice-Hall, 1998.
16. Seidl-Hohenveldern. International Economic Law. General course on Public International Law. – Boston, 1987.
17. The Perspective of a Restructuring of International Economic Order / Ed. by Van Hoof. K de Mestdagh. – Hague, 1984.

22-bob. ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH XALQARO HUQUQI

1. *Atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasi tushunchasi.*
2. *Atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasi prinsiplari.*
3. *Atrof-muhitning alohida obyektlarini xalqaro-huquqiy muhofazasi bo'yicha shartnomaviy normalar.*
4. *Atrof-muhit masalalari bo'yicha Xalqaro konferensiyalar.*
5. *Atrof-muhit bo'yicha BMT Dasturi.*
6. *Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda mintaqaviy hamkorlik.*
7. *Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari, bu muammolarni hal etishning xalqaro-huquqiy jihatlari.*

1. Atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasi tushunchasi

Atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasi – bu yangi, shakllanishi davom etayotgan xalqaro huquq sohasidir. Xalqaro huquqning bu sohasi tabiat resurslaridan ekologik asoslangan holda, ratsional foydalanish bo'yicha, hozirgi va kelajak avlodning manfaatlari yo'lida Yerda qulay hayot sharoitlarini saqlash uchun subyektlarning faoliyatini tartibga soluvchi norma va prinsiplar tizimidan iboratdir.

Atrof-muhitni xalqaro huquq bilan tartibga solishning predmeti bo'lib, undan ratsional foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha xalqaro munosabatlar hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasini to'rtta asosiy predmet sohasiga ajratishimiz mumkin: atrof-muhitga zararli ta'sirni cheklash, tabiat resurslaridan foydalanishning ekologik jihatdan ratsional rejimini o'rnatish; tabiat yodgorliklari va rezervatsiyalarini xalqaro muhofaza qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlatlarning ilmiy-texnik hamkorligini tartibga solish.

Atrof-muhit tushunchasiga insonning mavjud bo'lish sharoitlari bilan bog'liq etarli darajada keng doiradagi elementlar kiradi. Ular o'zlariga uch guruh obyektlarni birlashtiradi:

- tabiiy (tirik) muhit obyektlari- flora va fauna;

- tirik bo'lmagan muhit obyektlari – dengiz va chuchuk suv havzalari (gidrosfera), havo havzasi (atmosfera), tuproq (litosfera), koinot makonlari; va

- inson tomonidan yaratilgan suniy muhit obyektlari.

Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro huquqi xalqaro ommaviy huquqning eng faol rivojlanayotgan sohalaridan hisoblanib, o'tkir global ekologik muammolarni hal etish uchun xizmat qiladi.

Quyidagilar ekologik muammolarni keltirib chiqaradi:

Birinchiidan, yangi va eski tabiat resurslarining tamom bo'lishi;

Ikkinchiidan, tabiiy muhitni ifloslantirish, ya'ni unga o'zlashtira olmaydigan darajada modda va energiyalarni ishlab chiqish;

Uchinchiidan, ekotizimning tanazzulga yuz tutishi.

Tarixan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik XIX asrda vujudga kelgan bo'lib, u paytda u doimiy xarakterga ega bo'lmay, faqat alohida tabiat obyektlarning muhofazasiga taalluqli bo'lgan va ikki tomonlama bitimlarga asoslangan edi.

Keyinchalik tabiatni muhofaza qilish masalalarida BMTning bir qator organlari va maxsus tashkilotlarining, ya'ni IIK, YUNEP, YUNESKO, BSST, AEKXA va boshqalarning faoliyatlarida, dasturlarida o'z aksini topdi. 1968-yili YUNESKO biosferaning Xalqaro konferensiyasini tashkil etdi. Konferensiyada inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalari muhokama etilib, BMT va unga a'zo davlatlarga qaratilgan tavsiyalar qabul qilindi.

Ekologik tanglik va tabiat sifat darajasining yomonlashuvi xalqaro hamjamiyatni tabiatni muhofaza qilish muammosiga jiddiy kirishishga majbur qildi. 1972-yili Stokgolmda insonni o'rab turgan muhit bo'yicha BMT konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda atrof-muhit bo'yicha BMT Dasturini tuzish to'g'risida tavsiyalar, tashkiliy-moliyaviy qarorlar, tadbirlar rejasi, prinsiplar Deklaratsiyasi qabul qilindi.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro-huquqiy rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beruvchi voqea 1992 yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi hisoblanadi. Bu erda ikkita xalqaro bitim tuzildi, doimiy taraqqiyotga erishish uchun asosiy harakatlar rejasi va prinsiplar to'g'risida ikkita bayonot qabul qilindi: Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy Konvensiya va Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya, Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha Dekla-

ratsiya, XXI asr kun tartibi – hayotning barcha shakllarini saqlash va iqtisodiy rivojlanish – hamda boshqaruvga taalluqli prinsiplar to'g'ri-sidagi Bayonot.

2. Atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasi prinsiplari

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy munosabatlar BMT Ustavida va boshqa asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar-da mustahkamlangan, hozirgi zamon xalqaro huquqining umum tan olingan norma va prinsiplari bilan tartibga solinadi. Ularga quyidagi fundamental prinsiplar kiradi: davlat suverenitetini hurmat qilish, davlatlarning suveren teng huquqliligi, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, hududning daxlsizligi va butunligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, hamkorlik majburiyatlarini vijdonan bajarish.

Xalqaro huquqning umum tan olingan prinsiplaridan tashqari, atrof-muhit bo'yicha xalqaro huquqning rivojlanish jarayonida maxsus prinsiplar ham ishlab chiqildi.

Shuni qayd qilish kerakki, atrof-muhit bo'yicha xalqaro huquqning prinsiplar asoslari kompleks rivojida hali to'liq shakllangan emas va ko'p sonli tabiatni muhofaza qilish bo'yicha shartnomalar va boshqa norma yaratuvchi xarakterga ega hujjatlarni tahlil qilish orqali ularni aniqlab olish mumkin.

Hozirgi va kelajak avlodning farovonligini o'ylab atrof-muhitni muhofaza qilish prinsipi maxsus prinsiplarning eng asosiysi bo'lib hisoblanadi. Bu prinsipning elementlari 1972-yilgi Stokgolm prinsiplar Deklaratsiyasida, 1975-yilgi EXHTning Yakunlovchi aktida, 1982-yilgi dengiz hududi bo'yicha BMT Konvensiyasida; 1992-yilgi Rio-de-Janeyro prinsiplar deklaratsiyasida o'z aksini topgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish hozirgi va kelajak avlodning hayoti uchun zarur shart bo'lib hisoblanadi. Davlat va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tabiat resurslaridan oqilona fodalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish va sifatni yaxshilash bo'yicha mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rishga majburdirlar. Bu prinsipning ahamiyati shundaki, u atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro huquqning rivojlanishi asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Boshqa bir qator maxsus prinsiplar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha alohida xalqaro-huquqiy institutlarga tegishli bo'lgan asosiy xalqaro-

huquqiy konsepsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Yerning tabiiy resurslari, jumladan, havo, tuproq, flora va fauna hozirgi va kelajak avlodning farovonligi uchun aniq o'ylab chiqilgan reja va foydalanish asosida himoya qilinishi lozim. Bu prinsipning barqaror rivojlanishida markaziy o'rinni egallaydi va huquq bu rivojlanishda shunday amalga oshirilishi kerakki, bunda hozirgi va kelajak avlod kishilarining ehtiyojlari adolatli ravishda qoniqtirilishini ta'minlashi kerak, atrof-muhitning muhofazasi esa taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lmog'i lozim.

Xalqaro tabiatni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik prinsipi 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasida to'liq bayon qilib berilgan. Bu prinsip shuningdek, Gru Xarlen Brundlaydning rahbarligi ostidagi atrof-muhit va uning taraqqiyoti bo'yicha xalqaro komissiyaning ekspertlar guruhi tomonidan quyidagi shaklda taklif etilgan: «Davlatlar chegara hududida ekologik buzilishlarga olib keladigan favqulodda holatlar, hodisalar uchun rejalar ishlab chiqadi va manfaatdor davlatlarga ana shunday holatlar haqida axborotlar beradi hamda ana shunday vaziyatlar vujudga kelganda bu davlatlar bilan hamkorlik qiladi».

Atrof-muhitga chegara hududida ziyon keltirishning oldini olish prinsipi davlatlarning o'z yurisdiksiyasi va nazorati doirasida bunday harakatlarni tasdiqlaydi, chunki buning natijasida boshqa davlatlarning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha milliy tizimiga, shuningdek umum tomonidan foydalaniladigan atrof-muhit tizimiga ziyon etkazilishi mumkin. Bu prinsip 1972-yilgi Stokgolm prinsiplar deklaratsiyasida mustahkamlangan bo'lib, keyinchalik boshqa bir qator hujjatlarda, masalan, 1972-yilgi Dengizni chiqindi va boshqa materiallar bilan ifloslantirishning oldini olish Konvensiyasida va 1985-yilgi Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena Konvensiyasida o'z aksini topgan.

Atrof-muhitga chegara hududida ziyon keltirishning oldini olish prinsipi bilan atrof-muhitga ziyon keltirganligi uchun javobgarlik prinsipi bir-biri bilan yaqin aloqadadir. Bu yerda javobgarlikning asosi bo'lib xalqaro-huquqiy majburiyatning buzilishi hisoblanadi. Bu yerda paydo bo'ladigan muammo shundaki, yetkazilgan zarar uchun mavjud xalqaro-huquqiy qoidalar yordamida bojlar to'lab bo'lmaydi. Shuningdek etkazilgan zararning to'liq darajasini va uning kompensasiyasini ham to'liq belgilab bo'lmaydi. Shuning uchun shakllana-

yotgan javobgarlik instituti ogohlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi kerak. Bunday ziyonning oldini olishni ta'kidlovchi yoki uning salbiy oqibatlarini cheklashni ta'minlovchi huquqiy mexanizmlar atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy choralari tizimida ustunlikka ega bo'lishi kerak.

Hozirgi sharoitda huquqiy normalar bilan tartibga solingan inson faoliyatining yangi turlari paydo bo'lgani yoki oldini olib bo'lmas kuchlarning harakati tufayli ekologik zararining oldini to'liq olib bo'lmaganligidan, hozirda bir qator xalqaro bitimlarda mustahkamlangan ogohlantiruvchi xarakterga ega maxsus prinsiplarni ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Ular quyidagilar: atrof-muhitga ta'sir etishni avvaldan baholash prinsipi; axborot almashish prinsipi; boshqa davlatlarning atrof-muhitiga sezilarli darajada zarar keltirishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat haqida konsultasiyalar o'tkazish va oldindan xabar berish prinsipi.

Ogohlantiruvchi xarakterga ega butun choralar tizimi asosida atrof-muhitga ta'sirni oldindan baholash prinsipi yotishi kerak, ya'ni davlatlar qandaydir harakatni amalga oshirishdan oldin, o'tkaziladigan tadbir o'z milliy yurisdiksiyasidami yoki bu jihatdan xavfsizmi, ana shular haqida konsultasiyalar o'tkazishi kerak. Bu prinsip 1991-yilgi atrof-muhitga chegara hududida ta'sir etishni baholash to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida o'z aksini topgan.

Milliy va mintaqaviy darajadagi ekologik vaziyatlar to'g'risida axborotlar almashish prinsipi. Hozirgi paytda axborotlar almashish muammosiga katta e'tibor berilmoqda. Bu yerda 1979-yilgi Katta masofalarda havoni ifloslantirish to'g'risida operativ xabar berish to'g'risidagi Konvensiya va YUNEP tomonidan ishlab chiqilayotgan katta hududda kimyoyaviy avariya bo'lgan hollarda albatta axborot berish to'g'risida Konvensiya loyihasini eslatib o'tish joizdir.

Nazarda tutilayotgan faoliyatdan ekologik oqibatlarni hududiy baholash prinsipi asta-sekinlik bilan amaldagi xalqaro huquqqa kirib bormoqda. Ekologik ta'sirni baholash tartibi YUNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uzoq muddatli va qisqa muddatli oqibatlarni baholashga tegishlidir. Shuni qayd etish kerakki, bu yerda nafaqat davlat joylashgan obyektlar, balki xalqaro makonda umum

foydalanish uchun joylashgan tabiat obyektlarining barcha turlariga ta'siri hisobga olinadi.

Tabiat muhiti ta'sir etish vositalaridan harbiy yoki har qanday dushmanlik kayfiyatida foydalanishni taqiqlash prinsipi davlatlarga tabiiy muhitga ta'sir etish vositalaridan harbiy yoki har qanday boshqa dushmanlik kayfiyatida foydalanmaslik majburiyatini aks ettiradi, chunki bunday qilinganda har qanday boshqa davlatlarga biror-bir ziyon keltiruvchi keng, uzoq muddatli jiddiy oqibatlariga olib keluvchi ziyon yetkazishi mumkin. Bu prinsip Tabiiy muhitga nisbatan harbiy yoki har qanday boshqa turdagi vositalardan zararli foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi 1977-yilgi Konvensiyada va 1979-yilgi Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasiga 1977-yildagi Qo'shimcha protokolda mustahkamlab qo'yilgan.

3. Atrof-muhitning alohida obyektlarini xalqaro-huquqiy muhofazasi bo'yicha shartnomaviy normalar

YUNEPda qayd qilinishicha, atrof-muhit alohida obyektlarining muhofazasi bo'yicha mingdan ortiq shartnomalar mavjud. Shuningdek, tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga yo'naltirilgan uch mingdan ortiq ikki tomonlama shartnoma va bitimlar amal qilmoqda.

Ekologik kenglikning chuqurlashishi munosabati bilan atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasining bosh vositasi bo'lib, davlatlarning mumkin qadar ko'p sonli ishtirokini ta'minlaydigan, samarali va universal vosita bo'lgan ko'p tomonlama shartnomalar hisoblanadi. Xalqaro shartnomalarning ortib borishi dengiz akvatoriyasi, xalqaro chuchuk suv havzalari, flora va fauna, atmosfera, koinot makonlari kabi muhitlarning ahamiyati oshib borishi bilan bog'liqdir.

Atmosferaning xalqaro-huquqiy himoyasi. Yer atmosferasi global tabiiy resurs hisoblanadi va u butun insoniyatning boyligidir, shuning uchun shartnomalar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, masalan, havoni ifloslantirish, ishqorli yomg'irlar, ozon qatlamining kamayishi, iqlimning global isib borishi kabi antropogen faoliyatni cheklash uchun xizmat qilishi kerak.

Bu yerda asosiy hujjat 1979-yilgi Katta masofalarda havoni haddan tashqari ifloslantirish to'g'risidagi Konvensiya hisoblanadi. Konvensiya doirasida ishtirokchi davlatlar havoni haddan tashqari ifloslantirishni cheklash va kamaytirish, axborotlar almashish, havo sifati muammolari bo'yicha konsultatsiya o'tkazish majburiyatini oladilar. 1984-yili tomonlar qo'shma dasturlarni moliyalashtirish to'g'risida Jeneva protokolini (EMEH); 1985-yili – oltingugurt chiqindilarini chiqarishni 30% ga kamaytirish to'g'risidagi Xelsinki protokoli; 1988-yili Sofiyada – ozon oksidining uchar chiqindilari bilan kurash to'g'risidagi protokol, 1991-yili Jenevada – uchar organik qo'shimchalar to'g'risida Protokol; 1994-yili Osloda – oltingugurt chiqindilarini chiqarishni yanada kamaytirish to'g'risidagi Protokol qabul qilindi.

Yerning ozon qatlamini himoya qilishga 1985-yilgi ozon qatlamini himoyasi to'g'risidagi Ramkali Konvensiya bag'ishlangan. Konvensiya tomonlariga ozon qatlami holati to'g'risida doimiy ravishda tuzatuvlar, tadqiqotlar va axborotlar almashishni tashkil qilish majburiyatini yuklaydi. 1987-yili ozon qatlamiga putur yetkazadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoli qabul qilindi. Protokol xlorofloruglerodlarni ishlab chiqarish va foydalanishni sezilarli darajada chekladi. Protokolga 1990-yili Londonda va 1992-yili Kopengagenda ikkita tuzatish qabul qilindi. Monreal protokolida nazarda tutilmagan issiq xona gazlariga iqlimni o'zgarishi to'g'risidagi ramkali Konvensiya mos keladi.

Dengiz muhitini ifloslantirishdan himoya qilish va muhofaza etishga quyidagi universal shartnomalar bag'ishlangan: 1982-yilgi dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasi; 1972-yilgi dengizni har xil chiqindi va boshqa materiallardan ifloslanishining oldini olish to'g'risidagi London Konvensiyasi; 1973-1978-yillardagi dengizni kemalardan ifloslanishining oldini olish bo'yicha London Konvensiyasi (MARPOL). Bu Konvensiya dengizni kemalardan chiqadigan chiqindilar bilan ifloslantirishni taqiqlaydi. Bu Konvensiya dengiz kemalarining barcha turlariga, shuningdek statsionar va suzuvchi platformalar uchun ham amal qiladi.

Dengiz muhitini muhofaza qilish bo'yicha submintaqaviy Konvensiyalarga quyidagilar kiradi: 1976-yilgi O'rta yer dengizini ifloslanishdan himoya qilish to'g'risidagi Barselona Konvensiyasi va

unga qo'shimcha 1976-yilgi O'rta yer dengizini kema va samolyotlarning chiqindilaridan ifloslanishini oldini olish to'g'risidagi Barcelona protokoli, 1976-yilgi favqulodda vaziyatlarda ifloslanishga qarshi kurashda hamkorlik bo'yicha Barcelona protokoli, 1980-yilgi O'rta yer dengizini erdagi manbalardan ifloslanishdan himoya qilish to'g'risidagi Afina protokoli va 1982-yilgi O'rta yer dengizining muhim muhofaza qilinadigan rayonlari bo'yicha Jeneva protokoli; 1983-yilgi Shimoliy dengizni neft va boshqa zararli moddalar bilan ifloslanishiga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Bitim; Boltiq dengizi rayonidagi dengiz muhitini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya (1974-yilgi Konvensiyaning o'rniga 1992-yilda Xelsinki qabul qilingan); 1992-yilgi Atlantika okeanining shimoli-sharqiy qismidagi dengiz muhitini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi (bu mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi ikkita xalqaro shartnomaning o'rniga qabul qilingan); 1972-yilgi uchish apparatlari va kemalaridagi chiqindilar bilan dengiz muhitini ifloslantirishning oldini olish to'g'risidagi Konvensiya va 1974-yilgi quruqlikda joylashgan manbalar orqali dengiz muhitining ifloslantirishni oldini olish to'g'risidagi Konvensiya); 1992-yilda Buxarestda qabul qilingan Qora dengizni ifloslanishdan himoya qilish haqidagi Konvensiya va unga qo'shimcha protokol.

Xalqaro chuchuk suv havzalarining muhofazasiga bag'ishlangan Konvensiyalar quyidagilar: 1948-yilgi Dunayda kemalar qatnovini tartibga solish to'g'risidagi Konvensiya; 1958-yilgi Dunay suvlarida baliq ovlash to'g'risidagi Bitim; 1994-yilgi Dunay daryosidan barqaror foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Konvensiya. Reyn daryosini muhofaza qilish uchun bir qator bitimlar qabul qilingan. Ular quyidagilar: 1956-yilgi Mozel daryosini (Reynning irmog'i) muhofazasi va undan foydalanishni tartibga solish to'g'risidagi Bitim, 1960-yilgi Konstansa ko'li (Reyn daryosining boshlanishi) ifloslanishini oldini olish bo'yicha Konvensiya; 1960 boshqarishga bag'ishlangan Konvensiya; 1960-yilgi Reynni ifloslantirishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro komissiyani tuzish to'g'risidagi Bitim; 1976-yilgi Reyn daryosini kimyoviy moddalar bilan ifloslantirishdan himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya. Afrikada chuchuk suv havzalarining xalqaro muhofazasiga bag'ishlangan shartnoma. Bu 1963-yilgi Niger daryosi havzasida joylashgan davlatlar o'rtasida

iqtsodiy hamkorlik va navigatsiya to'g'risidagi shartnomadir. Amerikada – bu 1978-yilgi Amazonka daryosi havzasida hamkorlik to'g'risidagi Shartnoma. BMTning EIK doirasida 1992-yili Xelsinkida chegara hududidan tashqarida joylashgan suv manbalari va xalqaro ko'lardan foydalanish va himoyasi bo'yicha Konvensiya tuzildi. Bu Konvensiyaga ko'ra tomonlar har qanday chegara hududidan tashqari suvlarning salbiy ta'sirini yo'q qilish yoki maksimal darajada kamaytirish uchun butun choralar ko'rish majburiyatini oldilar.

Flora va fauna himoyasiga quyidagi konvensiyalar bag'ishlangan: xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvda suzuvchi qushlar joylashgan botqoq-suvlar to'g'risidagi 1971-yilgi Ramsar konvensiyasi; 1973-yilgi yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo to'g'risidagi Vashington konvensiyasi (SITES). Konvensiyaning maqsadi eksport-import ruxsatnomasi tizimi orqali bu turdagi savdolar ustidan nazorat o'rnatish yo'li bilan flora va faunani haddan tashqari ekspluatatsiya qilishning oldini olish hisoblanadi. Yana bunga 1979-yilgi Yevropada joylashgan tabiat resurslari va yovvoyi flora va fauna turlarining muhofazasi to'g'risidagi Bonn konvensiyasi; 1973-yilgi Yevropadagi qutb ayiqlarining muhofazasi to'g'risidagi Bitim; 1982-yilgi Antarktika dengizi tirik resurslarining muhofazasi to'g'risidagi Konvensiya; 1972-yilgi umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya, bu konvensiyaga ko'ra tabiat yodgorliklarini kollektiv muhofaza qilish tizimi yaratilgan; shuningdek 1985-yilgi tabiat va tabiiy resurslarning muhofazasi to'g'risidagi ASEAN mamlakatlari Bitimi va 1986 yilgi Tinch okeanining janubiy qismi tabiatini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya kiradi.

Atrof-muhitning radioaktiv zararlanishdan himoyasi bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib turadi. Ular quyidagilar: 1980-yilgi yadro materiallarining jismoniy himoyasi to'g'risidagi konvensiya; Chernobil avariyasidan bir necha oydan so'ng qabul qilingin 1986-yilgi yadroviy yoki radiatsion avariya bo'lgan vaziyat haqida operativ xabar berish to'g'risidagi Konvensiya, bu konvensiyada avariya bo'lgan holda radioaktiv moddalarni chegara hududidan tashqariga o'tish mumkin bo'lgan hollari haqida konsultatsiyalar o'tkazish, axborot almashish tartibi o'rnatilgan; 1986-yilgi yadroviy yoki radiatsion avariya vaziyatlari yuzaga kelgan hollarda yordam

berish to'g'risidagi Konvensiya, bu Konvensiya yadroviy avariya- lar vujudga kelganda uning oqibatlarini ishonarli darajada kamaytirish va kishilarni atrof-muhitni radioaktiv materiallar ta'siridan himoya qilishda davlatlar hamkorligini tartibga solib turadi.

Avariya hollarida keltirilgan zarar uchun javobgarlik masalalariga 1972-yilgi dengizni chiqindilar va boshqa materiallar bilan ifloslantirishning oldini olish bo'yicha Konvensiya bag'ishlangan. Bu konvensiya uch guruhga bo'lingan turli xil zararlangan ashyolarni dengizga ko'milishini tartibga solib turadi. Bunda eng xavfli zararli ashyolarni dengizga ko'mish taqiqlanadi. Masalan, kimyoviy va biologik urush olib borishga mo'ljallangan og'ir yonilg'i, moylash materiallarini, neft xomashyosi va neft yonilg'isini, barqaror plastmassalarni, simob va uning birikmalarini, yuqori darajadagi radioaktiv chiqindilarni dengizga ko'mish taqiqlangan. Avariya holatlarida keltirilgan zarar uchun javobgarlik masalalariga bag'ishlangan konvensiyalarga yana 1960-yilgi yadro energiyasi sohasida uchinchi tomon oldida javobgarlik to'g'risidagi Parij konvensiyasi (tuzatishlari bilan); va yadroviy zarar uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risidagi 1963-yilgi Vena konvensiyasi (protokoli bilan) kiradi.

Jug'rofiy urushning boshlanishi yoki oddiy qurol turlari, shuningdek ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash yoki sinash natijasida yetkazilgan zarardan atrof-muhitning himoyasi 1963-yilgi yadroviy qurollarni atmosferada, koinotdagi makonda va suv ostidagi sinovlarni man etish to'g'risidagi Moskva shartnomalari va 1977-yilgi tabiiy muhitga nisbatan harbiy yoki har qanday boshqa turdagi vositalardan zararli foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi konvensiyada nazarda tutiladi.

4. Atrof-muhit masalalari bo'yicha xalqaro konferensiyalar

Oxirgi vaqtlargacha atrof-muhitning yomonlashuvi omillarining ko'pchilik qismi lokal xarakterga ega bo'lganligi sababli, ularni mahalliy yoki milliy darajada tugatish imkoniyati bor edi. Hozirgi sharoitda ekologik tahdid o'ziga butunlay yangi munosabatda bo'lishni talab etadi. Bu makroifloslanish fenomeni bilan bog'liq bo'lib, u global xarakterga ega bo'lganligi sababli alohida davlatning kuchi bilan tugatib bo'lmaydi.

Antropogen faoliyat natijasida atrof-muhitga yetkaziladigan zarar nafaqat alohida bir davlat, balki butun bir mintaqqa hududidan ham tashqariga zarar keltiradi. Dunyo miqyosida ekologik tanglikka qarshi kurashda turli mamlakatlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish zarurati tug'iladi. Davlatlar nafaqat mintaqaviy, balki universal xalqaro-huquqiy normalarni ishlab chiqish va qabul qilishda ham hamkorlik qiladilar. Bu o'z navbatida, ularga barqaror taraqqiyot konsepsiyasiga asoslangan tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhit himoyasining umumbashariy strategiyasini joriy qilishga yordam beradi.

Atrof-muhit muhofazasiga doir birinchi tarixiy hodisa bu 1972-yilgi insonni o'rab turgan atrof-muhit bo'yicha BMTning Stokgolm konferensiyasi bo'ldi. Bu konferensiyada qabul qilingan Deklaratsiya prinsiplari majburiy yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, mazkur prinsiplarning ko'pchiligi nafaqat odat huquqining normalari bo'lib qoldi, balki atrof-muhit bo'yicha mintaqaviy va universal shartnomalarda ham o'z ifodasini topdi (masalan, dengiz muhitini ifloslanishdan himoya qilish, o'zaro ekologik zarar yetkazmaslik to'g'risidagi va boshqa shu kabi prinsiplar).

Atrof-muhitning muhofazasi sohasida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab bergan konferensiya – bu BMTning 1992-yili Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha Konferensiyasidir. Bu konferensiya atrof-muhit muhofazasi masalalarini barqaror iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqdi. Konferensiya iqtisodi endi rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyoji va o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda, ularga differensial yondashish zarurligi, turli xil ijtimoiy guruh va aholi qatlamlari bilan turli darajada hamkorlik qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Konvensiya «XXI asr kun tartibi» hujjatini qabul qildi. Bu hujjat barqaror taraqqiyotga erishish uchun atrof-muhit muhofazasi sohasidagi global hamkorlik strategiyasi bo'lib hisoblanadi. Bu hujjat aholini (jumladan, ayollar, yoshlar, tub xalqlarni) xalqaro tashkilotlar, davlatlarni atrof-muhit muhofazasi sohasidagi muammolarni hal etishda o'z hissalarini qo'shishdagi harakatlarini belgilab beradi. Bu hujjat to'rt bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim ijtimoiy-iqtisodiy jihatga bag'ishlangan (jumladan, qaror qabul qilish jarayonida atrof-muhit va

rivojlanish masalalarini ko'rib chiqadi); ikkinchi bo'lim taraqqiyot maqsadlarida resurslarni saqlash va ulardan ratsional foydalanish masalalariga bag'ishlangan (bunga atmosferani himoya qilish, o'rmonlarning yo'qolib ketishi oldini olish, qurg'oqchilikka qarshi kurash va boshqa shu kabilar kiradi); uchinchi bo'lim aholining asosiy guruhi rolini mustahkamlashga bag'ishlangan (ya'ni ayollar, yoshlar, turli toifadagi mehnatkashlar); to'rtinchi bo'lim bu harakatlarni amalga oshirishning turli vositalariga bag'ishlangan (jumladan, atrof-muhit muhofazasi muammolarini hal etishning tashkiliy-huquqiy vositalari, moliyaviy resurs va mexanizmlari).

Konferensiya shuningdek, Prinsiplar Deklaratsiyasini qabul qildi. Bu Deklaratsiyada barqaror taraqqiyotga erishishga yo'naltirilgan 27 prinsip mustahkamlangan. Umuman olganda, Deklaratsiya jamiyatning turli xil asosiy qatlamlari va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi darajasini shakllantirish yo'li bilan yangi va keng huquqli global hamkorlikni yaratishga xizmat qiladi. Deklaratsiya barqaror taraqqiyot muammolari markazida inson turishini, insonlar tabiat bilan uyg'un holda sog'lom hayot kechirish huquqiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Deklaratsiya taraqqiyot huquqini ham e'lon qiladi, unga ko'ra rivojlanish shunday amalga oshirilishi kerakki, bunga ko'ra hozirgi va kelajak avlodning ehtiyojlari baravar qondirilishi zarur.

Shuni qayd qilish kerakki, konferensiya bo'lib o'tganidan so'ngi besh yil ichida Deklaratsiyada mavjud bo'lgan bir qator prinsiplar ko'p sonli xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarda o'z aksini topdi. Jumladan, ular quyidagilar: umumiy va differensial javobgarlik prinsipi, bu prinsip xalqaro hamkorlik uchun asos yaratadi va o'zida muhim konsepsiyani mujassam etgan; ehtiyotkorlik prinsipi; «ifloslantiruvchi to'laydi» prinsipi va atrof-muhitga ta'sirni baholash prinsipi. Konferensiyada qabul qilingan hujjatlardan yana biri, barcha turdagi o'rmonlarni barqaror rivojlanishi va saqlanishi, ulardan ratsional foydalanish bo'yicha global konsensus prinsiplari uchun Bayonot hisoblanadi. Bu hujjat birinchi bor barcha turdagi o'rmonlarni, ularning jug'rofiy o'rnidan qat'iy nazar, saqlash va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha davlatlar konsensusini o'zida aks ettiradi. Ilgarilari asosiy e'tibor tropik o'rmon muammolariga qaratilgan bo'lsa, bu hujjatga o'rmonlar himoyasiga atrofni, madaniy muhitning

ehtiyotlarini hisobga olgan holda, shuningdek o'rmonlardan iqtisodiy rivojlanish maqsadlarida foydalanishni nazarda tutadi.

Barcha o'rmon turlaridan ratsional foydalanish, saqlash va uning barqaror o'zlashtirish sayyoramiz hayot tizimini bir maromda ushlab turishning, atrof-muhit muhofazasi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. O'rmonlar biologik xilma-xillikning asoschisi, uglerodning rezervuari, ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlardagi qayta tiklanadigan energiyaning muhim manbai, shuningdek barqaror rivojlanishning ajralmas elementi bo'lib hisoblanadi. Shuni qayd qilish zarurki, 80-yillarda dunyo o'rmon massivining maydoni ikki foizga qisqargan bo'lsa, rivojlangan mintaqalarda o'rmon bilan qoplangan uchastkalar amalda o'zgarishsiz qoldi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa o'rmon bilan qoplangan tabiiy maydonlar amalda 8 foizga kamaydi. Yevropada o'rmon bilan qoplangan rayonlarning degradatsiyatsining asosiy sababi havoning ifloslanishi (jumladan, ishqorli yomg'irlar), shuningdek o'rmon yomg'irlari hisoblanadi.

Shuningdek, Konferensiyada ikkita konvensiya qabul qilingan edi. Ularning birinchisi Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Ramkali konvensiya bo'lsa, ikkinchisi Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyadir. Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Ramkali konvensiyaning bosh vazifasi global resurs hisoblangan atmosferadan foydalanishni tartibga solish bo'ldi. Bunday tartibga solish antropogenli gazlarni global chiqarishni teng huquqli asosda nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa Konvensiya talabiga ziddir.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyada biologik xilma-xillikni saqlab qolish insoniyatning umumiy vazifasi ekanligi ta'kidlanadi, davlatlar esa biologik turlarga o'z suveren huquqiga ega ekanligi barqaror xarakterga ega bo'lishi va o'zining biologik xilma-xilligini saqlab qolish uchun javob beradi. Konvensiyadan maqsad biologik xilma-xillikni saqlab qolish, uning tarkibiy qismlaridan barqaror foydalanish va genetik resurslarni ekspluatatsiya qilish natijasida vujudga keladigan foydani adolatli va teng taqsimlash, jumladan, bu resurslar va texnologiyalarga bo'lgan barcha huquqni hisobga olgan holda texnologiyalar va ma'lum bir ruxsatni olish hisoblanadi.

2002-yilning sentabr oyining birinchi haftasida JARning Yoxanesburg shahrida barqaror taraqqiyot bo'yicha uchinchi konfe-

rensiya o'z ishini boshlaydi. Unda 110 davlat vakillari ishtirok etadilar.

5. Atrof-muhit bo'yicha BMT Dasturi

1972-yili Stokgolm konferensiyasida YUNEPni tuzish to'g'risida tavsiyanoma qabul qilindi va Bosh Assambleyaning XXVII sessiyasi 2997-rezolyutsiyasi Atrof-muhit bo'yicha BMT Dasturini ta'sis etdi.

YUNEPning bosh maqsadi insoniyatning hozirgi va kelajak avlodi farovonligi uchun atrof-muhitni yaxshilash va himoya qilishga qaratilgan *chora-tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish hisoblanadi.*

Dastur BMT tizimi doirasida yaratilgan bo'lib, jahon miqyosida tabiat muhofazasini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi.

YUNEPning asosiy vazifasi atrof-muhit sohasidagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish va shunga asosan tavsiyanomalar ishlab chiqish; BMT tizimi doirasida atrof-muhitning muhofazasi sohasidagi umumiy rahbarlikni amalga oshirish; ma'ruzalar tayyorlash va muhokama qilish; atrof-muhit bo'yicha xalqaro huquqning ilg'or rivojlanishiga ko'maklashish va boshqalar hisoblanadi.

Tashkiliy jihatdan YUNEP boshqaruv Kengashi, Kotibiyat, atrof-muhit sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish Kengashi va YUNEP ko'ngilli fondidan iborat.

Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMT Konferensiyasi bo'lib o'tgandan keyingi vaqt davomida, YUNEP atrof-muhitning barqaror rivojlanishi va undan foydalanishda ekologik xavfsiz boshqaruvni amalga oshirish bo'yicha yordam berish ishlarini davom ettirdi. Boshqaruvchilar Kengashi tomonidan atrof-muhit bo'yicha Dastur muhokama qilinganidan so'ng, uning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi, bu esa YUNEPga XXI asr kun Tartibini bajarish davomida turli xil mamlakatlar va tashkilotlarning ehtiyojini hisobga olish imkonini beradi. YUNEPdan ko'zlangan asosiy maqsad to'rtta asosiy ekologik vazifani hal etishdan iborat: tabiat resurslaridan foydalanishni va uning barqarorligini tartibga solib turish; iste'mol va ishlab chiqarishning barqarorligi; insonning sog'lig'i va farovonligi uchun yanada qulay atrof-muhit yaratish; atrof-muhit va globallashtirish.

Atrof-muhit bo'yicha siyosat olib borish va chora-tadbirlar ishlab chiqishda harakatlar o'rtasida konsensusni ta'minlovchi organ sifatida YUNEPning roli, tabiat resurslaridan foydalanish, unga ruxsat olish uchun raqobatning kuchayishi, shuningdek, hududdan tashqarida bo'ladigan ekologik hodisalarning kishilar hayoti sifatiga sezilarli darajada ta'sir etishi sharoitlarida yanada muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

YUNEPning ekologik baho berish va monitoring sohasidagi odatiy faoliyati ham umumiy siyosat va amaliy faoliyatga qaratish nuqtayi nazaridan yanada katta muammolarni keltirib chiqarmoqda, ta'sir etish va harakat kuchini ta'lim etishi bilan yanada jipsroq bog'liq bo'ladi.

1997-yilgi Nayrobi Deklaratsiyasi YUNEPning roli va mandati to'g'risida quyidagilarni ta'kidladi: YUNEP global tabiatni muhofaza qilish rolini bajarishi, global ekologik kuch tartibini belgilashi, global atrof-muhit manfaatlarining obro'li himoyachisi bo'lish va BMT tizimi doirasida barqaror rivojlanishning ekologik komponentlarini kelishilgan tartibda amalga oshirishga ko'maklashishi kerak.

YUNEP o'z salohiyatini yaratish sohasida asosiy e'tiborni ekologik axborot masalalari bo'yicha texnik va rahbarlik dasturi bilan ta'minlash, atrof-muhit holatini baholash, tabiatni muhofaza qilish sohasida tashkilotlarni, qonuniylikni, ma'lum bir ma'lumotlar olishni rivojlantirishga yo'naltirgan.

1997-yil Bosh Assambleyaning maxsus sessiyasida YUNEP «Global ekologik istiqbol» dokladini taqdim qildi. Bu dokladda dunyoda mavjud bo'lgan salbiy ekologik tendensiyalarni qisqartirish, kelajakda esa umuman yo'q qilish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan orqaga surib bo'lmaydigan va kelishilgan chora-tadbirlarni qo'llash zarurligi haqida so'z boradi. Ular quyidagilar:

- energiyaning samaradorligi va qayta tiklanadigan energetik resurslar;

- dunyo miqyosiga tegishli ekologik xavfsiz texnologiyalar;

- suv resurslarini baholash sohasida global harakatlar;

- standart ma'lumotlar va kompleks baholar.

6. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda mintaqaviy hamkorlik

Atrof-muhit muhofazasi masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlik yirik tabiiy kompleksni muhofaza qilish zarurligi va bir guruh davlatlar manfaatlarining bir xilligi bilan bog'liqdir. Mintaqaviy bitimlar universal shartnomalar va ikki tomonlama bitimlar o'rtasidagi oraliq zanjir bo'lib hisoblanganligi uchun bir qator mintaqaviy yoki submintaqaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Masalan, 1991-yili BMTning EIK rahbarligi ostida Espoda chegara hududi kontekstida atrof-muhitga ta'sir etish to'g'risidagi Konvensiya tuzilgan edi; 1992-yili Xelsinkida xalqaro ko'llar va chegaradan tashqari suv manbalaridan foydalanish va muhofazasi bo'yicha Konvensiya va sanoat avariylarini chegara hududidan tashqaridagi ta'siri to'g'risidagi Konvensiya tuziladi; 1993-yili Luganoda faoliyat natijasidan kelib chiqib, atrof-muhit uchun xavf soladigan zarar uchun fuqaroviy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya tuziladi.

Yevropada qabul qilingan eng oxirgi Konvensiyalardan biri, bu 1998-yil iyunida Orxusda (Daniya) qabul qilingan atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qarorlar qabul qilinayotganda jamoatchilikning ishtiroki va ekologik axborotlarga ega bo'lishni ta'minlash bo'yicha Konvensiyadir. Bu Konvensiya atrof-muhitning muhofazasi sohasida axborotlarni jamoat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan olish huquqini ta'minlashga va ekologik ahamiyatga molik qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida jamoatchilikni to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish huquqini har jihatdan amalga oshirilishini tartibga solish, shuningdek fuqaro va jamoat tashkilotlarining ekologik ahamiyatga molik qarorlarni qabul qilishda ekologik axborot olish huquqi kamsitilgan hollarda ularni odil sudlov bilan ta'minlashga qaratilgan.

Mintaqaviy hamkorlik sohasida yana shuni qayd qilish kerakki, YXHKning Yakunlovchi aktida, uning atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlangan bo'limida Yevropa davlatlarining atrof-muhit muhofazasiga eng umumiy siyosiy-huquqiy yondoshuvlari mustahkamlangan. Bu bo'lim Yevropada atrof-muhit muhofazasi bo'yicha hamkorlikning maqsadi, sohasi, shakli va usullarini belgilab beradi.

1992-yili «O'zgarishlar davriga chaqiriq» hujjati qabul qilinib, Xelsinki jarayoni doirasida atrof-muhitning muhofazasi bo'yicha keng miqyosli reja ishlab chiqish taklif etildi.

MDHga a'zo mamlakatlarning atrof-muhit muhofazasi sohasida davlatlararo hamkorlikning asosi 1992-yilgi «Atrof-muhit muhofazasi va ekologiya sohasida o'zaro hamkorlik to'g'risida» Bitim va Bitim ishtirokchilarining majburiyati, huquqi va javobgarligi to'g'risidagi protokol hisoblanadi. Bitim tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilinayotgan qo'shniçilik aktlarini, ekologik norma va standartlarni uyg'unlashtirishga; tabiatdan foydalanish sohasidagi loyiha va dasturlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish; atrof-muhit va unga antropogen ta'sirli holatlarni nazorat qilish va sifatini baholash usullariga umumiy yondashuv va mezonlarni qo'llash; davlatlararo va xalqaro hamkorlikda atrof-muhitning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni qiyoslashni ta'minlash; davlatlararo ekologik axborot tizimini yaratish va qo'llab-quvvatlash; atrof-muhitning muhofazasi sohasida kelishilgan ilmiy-texnik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

Hamkorlik quyidagi to'rt tomonlama mexanizm: Davlatlararo Ekologik Kengash (DEK) va Davlatlararo Ekologik fond orqali amalga oshiriladi.

Davlatlarning atrof-muhitni muhofazasi bo'yicha idora rahbarlari Davlatlararo ekologik kengash tarkibiga kiradilar. Kengash qarorni konsensus asosida qabul qiladi. Kengash atrof-muhit muhofazasi sohasidagi davlatlar hamkorligini muvofiqlashtirib turadi, normativ aktlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, manfaatdor tomonlarning vakillari ishtirokida dasturlarning ekologik ekspertizasini va ishlab chiqarish kuchlarining prognozini o'tkazadi; ekologik nizolarni hal etishda yordam beradi.

Davlatlararo ekologik fond orqali atrof-muhit sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga va favqulodda ekologik vaziyatlarni tugatishga yordam beradi, davlatlararo dasturlarni moslashtiradi.

Parlamentlararo Assambleya doirasida atrof-muhit muhofazasi Bo'limi tuzilgan, Assambleya faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri esa atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonun andozalarini tayyorlash hisoblanadi.

7. Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari, bu muammolarni hal etishning xalqaro-huquqiy jihatlari

Orol dengizi va unga tutash hududlar O'rta Osiyo mintaqaviy ekotizimining shimolida joylashgan. Umumiy maydoni 473 ming kv. km, aholisining soni 3 mln. kishidan ortadi. Orol dengizi yirik materikning ichida joylashgan, oqib chiqib ketmaydigan suv havzasi hisoblanib, dengiz va ko'l xususiyatlariga ega, Turon pasttekisligi Osiyo qismining janubi-g'arbiy Qozog'iston va O'zbekiston Respublikasining tropik bo'lmagan cho'l zonasida joylashgan. Dengizga suv Amudaryo va Sirdaryodan oqib keladigan suvning hajmi bilan belgilanadi, ularga o'z navbatida iqlimiy, geotektonik va antropogen omillar, shuningdek dengizning morfologik parametri va iqlimiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan hajmiga suv yuzining bug'lanishi ham ta'sir qiladi.

1960-yillargacha Orol dengizining sathi nisbatan barqaror bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryoning yillik oqib keladigan suvi (1960-yillarda 54 kub. km/yil) va atmosfera yog'inlari (1960-yillarda 9 kub. km/yil) dengiz yuzasini bug'lanishi natijasida yo'qotiladigan suvning o'rnini qoplar edi (1960-yillarda 65 kub. km/yil). Dengiz sathi o'rtacha ko'p yillik belgisi 53 m. atrofida, suv yuzasining maydoni 67 ming kv. km., hajmi 1064 kub. km., eng chuqur joyi – 69 m., tuzlik darajasi – 9,6-10,3 % bo'lgan. Orol dengizining shimoliy qirg'og'i ancha qiya, g'arbiy qirg'og'i baland (250 metr gacha) jarliklardan iborat. Janubiy va sharqiy qirg'oqlari pasttekislik, tubi nisbatan tekis, orol va suv osti balandlik va chuqurliklardan iborat. O'sha vaqtlarda 1100 orol mavjud bo'lgan, ulardan eng kattalari Borsakelmas va Uyg'onishdir¹.

Keyingi o'n yilliklarda sanoatning va sug'oriladigan yerlarning o'sishi hisobiga suvni is'temol qilish ortdi, undan tashqari bir qator yillarda qurg'oqchilik bo'lishi daryo suvlarining Orol dengiziga quyilishini asta-sekinlik bilan kamayishi, oxir-oqibatda uning quyilishini butunlay to'xtashiga olib keldi.

90-yillarning boshiga kelib, dengiz sathi 39 m. gacha pasaydi, suv hajmi 400 kub. km. gacha kamaydi, suvning yuza maydoni 40000 kv. km. gacha kamaydi, tuzlilik darajasi 21 % gacha ko'tarildi.

¹ Шади́метов Ю.Ш. Региональные проблемы социальной экологии. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – С. 75.

Atmosfera yog'inlari 1981-1986-yillarda 1-5 kub. km/yil atrofida bo'ldi¹.

Paxta maydonlarini sug'orish uchun suvlarni ishlatish keyingi yillarda Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo suvlarining oqib borishini to'xtatib qo'ydi. Uning sathi 14 m. dan ko'pga tushib ketdi, akvatoriya maydoni 60-yillarning boshiga qiyoslaganda 1/3 ga kamaydi, suv hajmi esa 60 % kamaydi.

Orol dengizining qurigan tubi bugungi kunga kelib 26 kv.km. dan ko'pga cho'zilib ketgan, bu maydonning 2/3 qismi sho'rxok yerlardir. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, bu maydondan Orol dengizining turli tomoniga har yili 75 mln. tonnagacha qum va chang tarqaladi. Orol dengizi tubidan har yili 65 mln. tonnadan ko'proq dispersion chang va tuzlar uchib ketadi. Buni O'zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi Tuproqshunoslik institutining oxirgi tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. Orolning qurigan tubi Yer atmosferasiga aerozol tuzlarning asosiy yetkazib beruvchilaridan biri hisoblanmoqda.

Orol tubidagi tuz va mayda qumlar Ustyurt platosidan o'tib, Kaspiy dengiziga ham borib tushmoqda va u yerda suvning tik bug'lanishining o'tkir nayzasiga duch kelib, iqlimshunos va meteorologlarga yaxshi tanish bo'lgan chang-tuzli bulutlarni hosil qilmoqda va juda katta balandlikka ko'tarilib, ulkan masofalarga tarqalmoqda.

Orol dengizining qurishi mintaqadagi iqlimning o'zgarishiga olib keldi. Ilgari Orol dengizi havoning kamligi va issiqligini tartibga soluvchi hisoblangan. Oxirgi yillarda iqlim sezilarli darajada yomonlashdi, temperaturaning yillik amplitudasi o'rtacha 1,5-2 baravar o'sdi: yoz issiqroq, qish esa sovuqroq keladigan bo'ldi. Chang-to'zonlar ko'paydi, bahorgi va kuzgi sovuqlar cho'ziladigan bo'lib qoldi, vegetatsiya davri 15-20 kunga qisqardi. Kasallikka chalinish, ayniqsa, bolalar va ayollarda ko'paydi, o'lim darajasi ham oshdi. Orolbo'yi aholisi sog'lig'ining yomonlashuviga ekologik omillardan tashqari, tibbiy muassasalar ishidagi kamchiliklar ham sabab bo'lmoqda. Ko'pgina aholi punktlarida markazlashgan suv bilan ta'minlash tizimi yo'qdir.

Mintaqadagi ekologik holat yomonlashuvining yana bir sababi Amudaryo va Sirdaryo suv manbalarining ifloslanishi, bu daryolarni

¹ Шадиметов Ю.Ш. Региональные проблемы социальной экологии. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – С. 76.

ayamay ekspluatatsiya qilishdir. Kollektor-drenaj suvlarining daryoga oqizilishi daryo suvining sho'rlanishiga olib kelmoqda. Bakteriyalarining umumiy soni yo'l qo'yiladigan darajadan 5-10 baravar oshiqdir.

Orol dengizi qurishining yana bir sababi mintaqadagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish strategiyasining noto'g'ri ta'minlangani, qishloq va suv xo'jaligi rivojlanishining samarali emasligi, sug'orish inshootlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish darajasi pastligi, eski, o'rta asrlardan qolgan texnologiyalardan foydalanishi, nou-xau qo'llashni rad qilish, texnologik istiqbolli rejalarning ishlab chiqilmaganligi, shuningdek qishloq va suv xo'jaligini o'ylamay-netmay ixtisoslashtirish va kimyolashtirish inqirozni yanada chuqurlashtirdi.

Orol dengizining suvi kamayishi natijasida paydo bo'lgan quruqlik chang-to'zon va tuzlarning shamol bilan uchib ketadigan joyiga aylandi. Chang-to'zon juda uzoq masofalarga tarqaladi, ba'zi bir hisob kitoblarga qaraganda har yili atmosferaga 15-75 mln. tonna chang-to'zon ko'tariladi. Orolbo'yi rayonlariga umuman olganda o'rtacha 520 kg. tuz tushadi, bu esa o'z navbatida tuproqning buzilishiga olib keldi.

Orol dengizi havzasi tabiiy muhiti rivojlanish dinamikasi va uning hozirgi ahvolini tahlil qilish bu mintaqada ekologik vaziyatning yanada keskinlashishini ko'rsatmoqda. Orol muammosi yanada kuchaymoqda va yildan-yilga mintaqada yangi-yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning yildan-yilga keskinlashuvi ularni tez hal qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bu muammoni hal etish uchun ko'pgina loyihalar ishlab chiqilgan, bu loyihalarning barchasini birlashtirib, o'z xarakteriga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh loyihalari Orol dengizini suv bilan to'ldirish uchun ichki suv resurslarini to'plab dengizga, oqizishni taklif qiladi;

Ikkinchi guruh loyihalari Orol dengizini suv bilan to'ldirish uchun tashqaridan suv olib kelib dengizga oqizishni taklif qiladi.

Orol dengizi sathini barqarorlashtirishni nazarda tutuvchi loyihalar dengizga quyidagi suvlarni yo'naltirishni taklif qiladi:

Kollektor-drenaj tizimi suvlarini;

Sariqamish, Dengizko'l, Sultondoq, Moxonko'l, Amasoy, Aydarko'l va Sudoche ko'llarining suvlarini;

Suv resurslarini hududiy taqsimlashni yaxshilash, sug'orish texnologiyasini yaxshilash, gidromeliorativ tizimning samaradorligini oshirish hisobiga tejab qolinadigan suvlarni Orolga yo'naltirish va shu kabilar.

Yana Orol muammosini hal etish uchun bir qancha loyihalar, konsepsiyalar, dasturlar borki, biz ularning barchasiga to'xtalib o'tir-masdan, faqat o'zimizni qiziqtiradigan bir nechtasiga to'xtalib o'ta-miz:

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda, Orol va Orolbo'yi muammolarini hal etish uchun V.A. Duxovniy guruhi tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya;

1991-yilgi SSRI davlat tabiat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Orol dengizini saqlab qolish va uni tiklash; Orolbo'yidagi ekologik, sanitar-gigienik, tibbiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni normal holatga keltirish Konsepsiyasi;

Orol muammosini hal etish bo'yicha prof. S.Sh.Mirzayevning Konsepsiyasi;

1990-yil 2-5-oktabrda Nukusda bo'lib o'tgan «Orol inqirozi: paydo bo'lish sabablari va uni hal etish yo'llari» Xalqaro simpoziumi Rezolutsiyasi;

O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar Uyushmasi qoshidagi Orolni qutqarish jamoatchilik komitetining Konsepsiyasi;

Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni hisobga olgan holda Orol va Orolbo'yi muammolarini hal etish bo'yicha O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston Konsepsiyasi.

Ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, dengizning qurish jara-yoni davom etmoqda, ekotizimning buzilishi salbiy oqibatlari nati-jasida Orolbo'yining cho'lga aylanish jarayoni davom etmoqda.

Agar bu holatning oldi olinmasa, hududi mintaqaning 650 000 km. km.ni tashkil etadigan Qizilqum va Qoraqum cho'llari tutashib ketadi va Orol dengizining qurishi hisobiga cho'l zonasi yana 10% ga ko'payadi.

Bizning fikrimizcha, Orol va Orolbo'yi muammolari faqatgina Orol dengizi havzasida joylashgan aholi va u yerdagi davlatlarning muammosi bo'lib qolmay, butun dunyo hamjamiyatining muammosi bo'lishi kerak, chunki Orol muammosi – bu hozirgi zamon global eko-logik muammolar ro'yxatida Lotin Amerikasidagi tropik o'rmonlar-

ning tugashi bilan bir qatorda turuvchi 1-darajali muammo bo'lib hisoblanadi.

Orol muammosi O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48, 50-sessiyalari va Ming yillik sammitida qilgan dokladlarida, YXHTning sessiyalarida, obro'li xalqaro tashkilot va konferensiyalarning minbarlarida turib so'zlagan nutqlarida dunyo hamjamiyatining butun insoniyatning halokati bo'lgan bu muammoni hal etishga chaqirdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Orol va Orolbo'yi muammosi Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligida hal etilishi lozim bo'lgan muammo bo'lib, bu o'z navbatida Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlarning o'zaro foydali hamkorligini rivojlantirish uchun tayanch nuqtasi hisoblanadi va keyinchalik bu jarayonga boshqa davlatlar va dunyo hamjamiyatini ham jalb etishga erishiladi.

Orol muammosini hal etish uchun Markaziy Osiyo davlatlarining davlat boshliqlari Nukus, Olmaota, Bishkek deklaratsiyalarini qabul qildilar. Bu deklaratsiyalar Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal etish bo'yicha mintaqadagi davlatlar hamkorligining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Yuqorida sanab o'tilgan deklaratsiyalarni hayotga tatbiq qilish uchun mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni hisobga olgan holda yaqin 3-5 yilda Orol dengizi havzasidagi ekologik holatni yanada yaxshilash uchun amaliy harakatlar Dasturi qabul qilindi. Bu Dastur Markaziy Osiyo davlatlarining davlat boshliqlari va Rossiya Federasiyasi hukumatining bu dastur bo'yicha qabul qilingan qarori ostida qabul qilindi.

Hozirgi paytga kelib Orol dengizi havzasi muammosi bo'yicha Davlatlararo Kengash tashkil etildi, bu Kengashning qarori asosida Davlatlararo Kengashning Ijroiya komiteti tuzildi.

Shuningdek Markaziy Osiyo davlatlari davlat boshliqlarining qarorlari asosida institutsional harakatlarga ega quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

* Markaziy Osiyoning Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi to'g'risidagi Nizom;

* Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi qoshidagi suv xo'jaligi muammolari bo'yicha Ilmiy axborot markazi to'g'risidagi Hizom (IAMDMSK);

* Orol dengizi havzasidagi davlatlarning Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi Komissiyasining (IAMDMSK) filiallari to'g'risidagi Nizom;

* «Amudaryo» suv xo'jaligi birlashmasi havzasining Ustavi;

* «Sirdaryo» suv xo'jaligi birlashmasi havzasining Ustavi.

Bu zanjirdagi Markaziy institutsional bo'g'in Orolni qutqarish bo'yicha Xalqaro Fondidir. Bu Fondning huquqiy holati Markaziy Osiyo davlatlarining davlat boshliqlari tomonidan qabul qilingan ko'pgina bitim va aktlarda mustahkamlangan.

Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari bo'yicha Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi bitimlarning ko'pchilik qismini tahlil qilib, ta'kidlash kerakki, bu hujjatlarda:

- birinchidan, mazkur bitimlarni joriy qilish mexanizmi ishlab chiqilmagan, eng asosiysi esa, Orol muammosini hal etishga qaratilgan barcha eng asosiy hujjatlar (masalan, Nukus, Olmaota va Bishkek Deklaratsiyalari) deklarativ bo'lib hisoblanadi;

- ikkinchidan, bu normalarni davlatning ichki qonunlariga implementatsiya qilish jarayoni juda sekinlik bilan bormoqda;

- uchinchidan, yuqorida sanab o'tilgan bitim va qarorlarda birgalikda suv resurslaridan foydalanish, shuningdek ekologik standartlarning unifikatsiyasi o'z aksini topmagan, shuning uchun, bizning fikrimizcha, muammolarni hal etishning samaradorligini kamaytirmoqda;

- to'rtinchidan, barcha uchun majburiy, yagona va universal bo'lgan hujjatning o'zi yo'q.

Shunday qilib, ekologik sog'lomlashtirish bo'yicha dastur, loyiha va konsepsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish, Orol dengizi va Orolbo'yi havzasi holatini yaxshilash, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga, shuningdek butun dunyo hamjamiyatiga ularni o'rab turgan tabiatga nisbatan o'z harakatini o'ylab ko'rishda katta yordam beradi. Undan tashqari, hozirgi holatdan kelib chiqqan holda tabiatdan foydalanishda oqilona yo'l tutilgan, Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi qoidalarini hisobga olgan, kelajak avlodning huquqlarini hurmat qilgan,

ekotizim evolutsiyasi jarayonlarini chuqur his etgan holda, ekologik fanni boyitib, ekologiyani yaxshilashga o'z hissalarini qo'shadilar.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish tushunchasi va tamoyillari.*
2. *Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning subyekt va obyektlari.*
3. *Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro tashkilotlar.*
4. *Markaziy Osiyo davlatlarining tog'lar va ular muhitini muhofaza qilish, Orol dengizi va Orolbo'yini asrab qolish, tiklash va muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorligi. O'zbekiston Respublikasining Orol dengizi va Orolbo'yini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro-huquqiy tashabbuslari va sa'y-harakatlari.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адилкариев Х.Т., Очилов Б.Э. Международное право охраны окружающей среды. – Т.: УМЭД, 2003.
2. Ананичев К.В. Проблемы окружающей среды, энергии и природных ресурсов. Международный аспект. – М.: Юридическая литература, 1974.
3. Глацц М. Устойчивое развитие и накапливающиеся проблемы Региона Аральского моря. – Нукус, 1995.
4. Даниленко Г.М. Международное право охраны окружающей среды. – Detroit (Michigan, USA): Wayne State University Law School, 1999.
5. Иванченко Н.С. Становление международно-правового принципа охраны окружающей человека среды. – Л., 1979.
6. Колбасов О.С. Международно-правовая охрана окружающей среды. – М.: ИМО, 1982.
7. Международное эколого-правовое сотрудничество. – Алматы: Данекер, 2001.
8. Неклесса Г.Г. Глобальные проблемы XXI века: Экологическая безопасность (курс лекций). – Т.: Фукаро мухофазаси, 2001.
9. Нигматов А.Н. Экология нима? – Т., 2002.
10. Нигматов А.Н. Ўзбекистон Республикасининг Экология ҳукуқи. – Т.: ТДЮИ, 2004.
11. Скрипников Н.К. Трансграничное водопользование в Центральной Азии (Правовой аспект). – Т., 2004.

12. Тимошенко А.С. Формирование и развитие международного права окружающей среды. – М., 1986.
13. Ушаков Н.А. Принципиальные основы сотрудничества государств в области охраны природной среды. – М., 1973.
14. Файзиев Ш.Х. Экологическая политика государства: проблемы правового обеспечения. – Т., 2004.
15. Чичварин В.А. Охрана природы и международные отношения. – М.: Международный. отношения, 1970.
16. Шадиметов Ю.Ш. Региональные проблемы социальной экологии. – Т.: Ўзбекистон, 1992
17. Шишко А.А. Предупреждение трансграничного загрязнения (международно-правовые проблемы). – Киев, 1990.
18. Экология ҳуқуқи: Олий ўқув юрталарининг ҳуқуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалари учун дарслик / Муаллифлар таркиби: Усмонов М.Б., Рустамбоев М.Х., Холмўминов Ж.Т. ва бошқ. / Масъул муҳаррир: М.Б. Усмонов. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси», 2001.
19. Boyle В. International Law and the Environmental. – Oxford, 1992.
20. International institutions and the environmental crisis / Ed. by D.A. Kay & E.B. Skolnikoff. – Boston, 1972.
21. Jonson В. International Environmental Law. – New York, 1983.
22. Pineschi L., Campiglio L., Siniscalco D. & Treves T. The Environment after Rio. International Law and Economics. – Great Britain, 1994.
23. Robinson N.A. Environmental Laws and Conventions: Toward Societal Compacts with Nature. – Cambridge, 1984.

23-bob. XALQARO HAVO HUQUQI

1. *Xalqaro havo huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi.*
2. *Xalqaro havo huquqi tushunchasi, manbalari va prinsiplari.*
3. *Xalqaro parvozlar va havo makoni rejimi. Xalqaro havo makonida parvoz etish qoidalari.*
4. *Havo kemasi va ekipajining huquqiy holati.*
5. *Xalqaro aviatsiya tashkilotlari.*
6. *Fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish aktlariga qarshi kurash.*

1. Xalqaro havo huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi

Birinchi marta havo huquqi asoslarini belgilab beruvchi havo votsitalari to'g'risidagi ko'p tomonlama Konvensiya 1919-yilning 13-oktabrida Parijda qabul qilingan. Ungacha davlatlar o'rtasidagi bitimlarda aerostat va havo sharlarining parvozi bilan bog'liq havoda uchish masalalari hal etilgan edi. Ular: chegaradan uchib o'tishda havo sharlariga bo'lgan mulkchilik huquqi to'g'risida, avariya uchragan hollarda havo shari va uning ekipajlarini qutqarish haqida, aeronavlarning va ular uchuvchi apparatida keltirgan zararlar uchun javobgarligi to'g'risida va boshqalar. Aviatsiyaning vujudga kelishi va jadal rivojlanishi ko'p tomonlama xalqaro bitimlar bilan havo makonining huquqiy maqomini belgilab olish zarurati tug'ildi. Konvensiya «har bir davlat o'z hududida joylashgan havo makoniga nisbatan to'liq va tanho suverenitetga ega» ekanligini tasdiqladi. Bu Konvensiyada davlatlarning havo makonidagi suverenitetini belgilashdagi «to'liq» va «tanho» ekanligi keyin qabul qilingan xalqaro va milliy qonun aktlarida o'z ifodasini topdi.

Havo makoniga nisbatan ishlatilgan «to'liq suverenitet» davlatning bu makonda to'liq hokimiyatga ega ekanligini bildiradi, «tanho suverenitet» esa bu makonga o'sha makon tegishli davlatdan boshqa davlatlarning hukmronligi tegishli bo'lmasligini bildiradi.

1919-yilgi Parij Konvensiyasi tuzilgunga qadar bir qator davlatlar (Angliya, Avstriya, Rossiya va boshqalar) havo makonlarida o'z huquqlarini tasdiqlashga qaratilgan bir qator qonunlarni qabul qilgan edi.

Shu bilan birga, quruqlik va suv hududidagi havo makonlarining yuridik maqomi masalasi davlatlar o'rtasida o'tkir munozaralarga sabab bo'ldi. Bu erda turli manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'ldi: havoda ustunlikka ega davlatlar parvoz erkinliklarini tan olishga intildilar, bunday ustunlikka ega bo'lmagan davlatlar esa teskari pozitsiyani egalladilar. Shunga asosan parvozlarning mutlaq erkinligi huquqi yoki, aksincha, makonlar ustidan davlat suvereniteti doktrinasiga asoslandi.

Hozirgi paytda xalqaro havo huquqi davlatlarning havo makonlari ustidan to'liq va tanho huquqini tan oladi. Bu suverenitet xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Chikago Konvensiyasida tasdiqlangan. Unda «har bir davlat o'z hududidagi havo makonlari ustidan to'liq va tanho suverenitetga ega», deb yozilgan (1-modda).

Bu havo makoni davlatlarning quruqlik hududida va uning hududiy suvlari ustida joylashgan bo'lib, davlat hududining bir qismi hisoblanadi, ya'ni davlat hududi tarkibiga kiradi. Havo makonini yoki tomon chegaralari davlatlarning quruqlik va suv hududi chegaralaridan o'tkazilgan vertikal chiziq bilan begilanadi.

2. Xalqaro havo huquqi tushunchasi

Xalqaro havo huquqi (XHH) – hozirgi zamon xalqaro huquqining sohasi bo'lib, u yoki bu milliy (davlat) yoki davlatlarga tegishli havo apparatlari (kemalari)ning xalqaro parvozlari tartibga solib turadi, yoki boshqacha ta'rif beradigan bo'lsak, xalqaro havo huquqi bu havo makonlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va havo makonlari huquqiy rejimini o'rnatuvchi normalar va prinsiplar tizimidir. Havo huquqi masalalariga bag'ishlangan bitimlarning ishtirokchilari davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, «xalqaro havo huquqi» tushunchasining ta'rif shunday bo'ladi. Xalqaro huquq sohaslarining ta'riflari ma'lum bir xalqaro-huquqiy ko'rsatmalarning tahliliga asoslanmog'i lozim. Bu haqda biz quyida to'xtalib o'tamiz.

Xalqaro havo huquqi havo makonlarida havo yostig'i bilan yoki reaktiv tortish kuchi hamda inersiya bilan harakat qiladigan raketa va boshqa uchuvchi apparatlarning parvozlarini tartibga solmaydi.

«Xalqaro havo huquqi» sohasining nomidan ko'rinib turibdiki, bu huquq faqat havo makoniga tegishli. Bu yerda yuridik maqomga ega havo makoni haqida gap ketmoqda. Shuni eslatmoq joizki, hali koinot va havo makonlari o'rtasida aniq bir chegara o'rnatilmagan. Bunday chegarani o'rnatishning qiyinligi shundaki, «Shatll» yoki «Buran» tipidagi uchish apparatlari koinotda ham, havo makonlarida ham parvoz qila oladi. Boshqacha aytganda, ular xalqaro havo huquqi va koinot huquqi bilan to'qnashadilar.

Undan tashqari, havo makonlari yuridik jihatdan bir xil tuzilishga ega emas. Davlatlar hududiy suvlarida, hududiy dengizida va quruqlikdagi hududida joylashgan havo makonlari o'sha davlatning hududi bo'lib hisoblanadi va o'sha davlatning to'liq suvereniteti ostida bo'ladi, ana shu sababdan bu havo makonidagi yuridik holatlar o'sha davlatning yurisdiksiyasi bilan, xalqaro majburiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ochiq dengizda, Dunyo okeani va Antarktika ustida joylashgan havo makonlari nodavlat havo makonlari, xalqaro hudud bo'lib hisoblanadi, ana shu sababli bu havo makonidagi yuridik holatlar boshqacha yuridik oqibatlariga olib keladi.

Shuning uchun xalqaro parvozlarni tartibga solishda ikkita asosiy prinsip yotadi: davlatlarning o'z hududidagi havo makonida to'liq va tanho suvereniteti prinsipi, xalqaro va aralash hududlar ustida joylashgan havo makonlari ustidan davlat suverenitetining amal qilmaslik prinsipi.

Shunga asosan, davlatlarning havo makoni ustidan huquqiy rejimi davlatlarning ko'p tomonlama va ikki tomonlama bitimlarida qatnashib olgan xalqaro majburiyatini hisobga olgan holda, o'zgarishi ichki huquqlari ba'zan ikkinchi bir davlat tan olgan va unga taalluqli bo'lgan davlatlarning bir tomonlama yuridik aktlari bilan o'rnatiladi.

Xalqaro havo makonlaridagi huquqiy rejim yolg'iz xalqaro huquq tomonidan o'rnatiladi. Uning asosida Parij Konvensiyasi, dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasi va boshqa xalqaro huquq normalarida o'z tasdig'ini topgan ana shunday muammolar ustidan parvozlarning erkinligi yotadi.

Xalqaro havo huquqi – xalqaro huquq sohasidir. U xalqaro huquqning umumiy prinsiplariga asoslanadi. Shu bilan birga, xalqaro havo huquqi havo kemalarining parvozi bilan bog‘liq davlatlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi o‘ziga xos prinsiplarga ega-dir.

1) davlatlarning o‘z havo makoni ustidan to‘liq va tanho suvereniteti;

2) barcha davlatlar havo kemalarining xalqaro havo makonlaridagi erkin parvozi (milliy huquq tarkibiga kirmaydigan barcha havo makonlari xalqaro havo bo‘lib hisoblanadi. ularga qirg‘oqbo‘yi davlatlarning hududiy suvlariga kirmaydigan dengizning havo makonlari kiradi);

3) xalqaro fuqaro aviatsiyasining xavfsizligini ta‘minlash.

Hozirgi zamon havo huquqining asosiy manbayi bo‘lgan 1944-yilgi xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risidagi Konvensiya (Chikago Konvensiyasi) «xalqaro havo yo‘li» terminini ta‘riflab beradi, bunga ko‘ra bir davlatdan ortiq davlatlarning havo makonlari ustidan uchish xalqaro havo yo‘lini bildiradi (96-modda).

Shunga ko‘ra «xalqaro parvoz» – bu bir davlatdan ortiq davlatlarning havo makoni ustidan parvoz qilishdir. Boshqacha aytganda, bu bir davlatning hududi ustidan ikkinchi bir davlat yoki davlatlarning hududiga parvoz qilishdir.

Xalqaro havo huquqi milliy havo apparatlari (kemalari)ning xalqaro parvozini amalga oshirish bilan bog‘liq davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solar ekan, bunda havo kemalarining milliylikini aniqlash sezilarli ahamiyat kasb etadi. Milliy havo kemalarini belgilashga Chikago Konvensiyasining III bobi (17-21 moddalar) bag‘ishlangan.

Xalqaro havo huquqining manbalari. Fuqaro aviatsiyasi xalqaro parvozlarini tartibga solib turuvchi umumiy prinsip va normalar 1944-yilgi Chikago Konvensiyasi bilan belgilab berilgan. Bu Konvensiya havo kemalarining milliylikini to‘g‘risidagi qoidani, havo kemalariga nisbatan rioya qilish kerak bo‘lgan aeronavigatsiyaga yordam berish choralarini (havo kemasida bo‘lishi kerak bo‘lgan hujjatlar, radioukunalar va boshqalar) va parvoz qoidalariga tegishli ko‘plab qoidalar to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi. Chikago Konvensiyasi asosida fuqaro aviatsiyasi Xalqaro tashkiloti-IKAO tashkil topdi

(Konvensiyaning II qismi). Chikago Konvensiyasi faqat fuqaro havo kemalariga qo'llaniladi. Davlat havo kemalariga qo'llanilmaydi. Konvensiya davlat havo kemalaridek harbiy bojxona va politsiya xizmatidan foydalaniladigan havo kemalarini kiritadi. Ammo davlatlarning havo makonlari ustidan suvereniteti prinsipini Konvensiya davlat havo kemalariga ham tegishli deb tasdiqlaydi. Konvensiya davlat havo kemalari biror-bir davlatning ruxsatisiz ularni havo makonlari ustidan parvozni amalga oshira olmaydi va ularning aeroportiga qo'nishga haqqi yo'q deb ta'kidlaydi. Chikago Konvensiyasiga bugungi kunga qadar bir qator qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan.

Chikago Konvensiyasidan tashqari havo yo'llari masalalarini tartibga solib turuvchi bir necha ko'p tomonlama shartnomalar amal qiladi. 1929-yilning 12-oktabrida Varshava xalqaro havoda tashishlarga tegishli bir qator qoidalarni unifikatsiya qilish uchun Konvensiya tuzildi. Konvensiya o'zida yo'lovchilarni, ularning yuklarini tashish, havoda yuk tashish hujjatlariga talablar va yuk tashuvchining javobgarligi to'g'risidagi qonunlarni o'zida mujassamlashtirgan. 1955-yili Gaagada 1929-yilgi Konvensiyaga tuzatishlar to'g'risidagi protokol imzolandi. Keyingi yillar Konvensiyaga yana tuzatishlar kiritildi. Ko'pchilik davlatlar fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashishga qarshi va boshqa bir qator havo huquqi masalalariga bag'ishlangan bitimlarning ishtirokchisi bo'lib hisoblanadi.

Ko'pgina xalqaro havo yo'llarini tartibga solishga bag'ishlangan masalalar davlatlarning ikki tomonlama bitimlari bilan hal etiladi. Bu bitimlarda chet el havo kemalarining parvoz marshruti belgilanadi (shartnomaviy liniyalar deb nomlanadi), Shartnoma liniyalarini ekspluatatsiya qilish shartlari kelishib olinadi, bu liniyalarni ekspluatatsiya qilish uchun davlatlarning aviakorxonalar tayinlash huquqi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, bitimlar tomonlarga shartnoma liniyalarida parvozlarning xavfsizligini ta'minlash majburiyatini yuklaydi (masalan, havo kemalariga zarur bo'lgan radio, yorug'lik texnikasi, meteorologik va boshqa xizmat vositalarini berish majburiyati, havo kemasi majburiy ravishda qo'nganda tez yordam berish choralari ko'rmog'i lozim).

Aviakorxonalaridan xalqaro bitimlar bo'yicha davlatlar foydalanish huquqiga ega va bu bitim bilan davlatga yuklatilgan majbu-

riyatlarni bajarishi kerak. Aviakorxonani yaratish, uning faoliyati va uni tugatish tartibi milliy qonunlar bilan tartibga solinadi.

Xalqaro havo huquqining asosiy prinsiplari. Davlatlarning o'zlarining havo makonlari ustidan to'liq va tanho suvereniteti prinsipi. Bu prinsip xalqaro bitimlarda (1944-yilgi Chikago Konvensiyasining 1-moddasi) va turli mamlakatlarning milliy qonunlarida mustahkamlangan.

Havo makonlari ustidan suverenitet prinsipining asosiy mazmuni shundaki, davlatlar o'z havo makonlaridan foydalanish huquqiy rejimini o'zlari mustaqil ravishda o'rnatadilar.

Davlatlarning havo makonlaridan chet el uchuvchi apparatlarining foydalanishi faqat ma'lum bir ruxsatnoma orqali amalga oshiriladi (havo yo'llari to'g'risidagi shartnoma asosida ruxsat berish yoki vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan bir marta parvoz qilishga ruxsat berish). Davlatlar xalqaro Shartnomalarga asosan boshqa davlatlarni o'z hududida parvozlarni amalga oshirishini ta'minlashga majburdirlar (xalqaro parvozlarni uchun marshrutlar va aeroportlar taqdim etishi, chet el aviakompaniyalariga berilgan tijorat huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish va hokazo). Davlatlar o'z havo makonlaridan shunday foydalanishlari kerakki, bunda boshqa davlatlarning haqiqiy manfaatlariga ziyon yetkazilmasligi kerak. Masalan, chegara zonalarida yuqori ovozda parvoz qilishga yo'l qo'yilmaydi (chunki bu qo'shni davlatlarning arxitektura yodgorliklariga zarar keltirishi mumkin).

Har bir havo kemasi boshqa davlatlarning hududida parvoz qilganda o'sha davlatning havo yo'llariga tegishli qonun-qoidalariga to'liq rioya qilishga majburdirlar.

Davlatlar o'z havo makonlari ustidan suverenitet prinsipiga asosan parvoz marshrutlari va trassalarini o'rnatadi, zarur bo'lgan hollarda parvozni taqiqlovchi zonalarini ko'rsatadi, shuningdek parvozlarning xavfsizligini ta'minlovchi va radio aloqa qoidalarini belgilab beradi. Chet el havo kemalari aeroportga kelib qo'nganda har bir davlatning vakolatli organlari havo kemalarini ko'zdan kechirish va hujjatlarni tekshirish huquqiga ega (qayd qilinganligi haqida guvohnoma, parvozlarga loyiqligi haqidagi hujjat, ekipaj a'zolarining malakasi kvalifikatsiyasi to'g'risidagi guvohnoma, yo'lovchilar ro'yxati va boshqalarni tekshirish mumkin).

Shunday qilib, xalqaro havo yo'llarida parvozni amalga oshirayotgan chet el havo kemalari boshqa davlatlarning hududiga kirib kelishda o'sha davlatning yurisdiksiyasiga bo'ysunadi.

Xalqaro bo'g'ozlar, arxipelaglar ustidan tranzit holda parvoz qilinganda, shuningdek bo'g'ozlar bo'yicha maxsus bitimlar bo'lganda (masalan, Qora dengiz bo'g'ozini bo'yicha) bu qoidalarga rioya etilmaydi. Bunday hollarda maxsus qoidalar amal qiladi.

Ochiq havo makonlarida erkin parvoz qilish prinsipi. Ochiq yoki xalqaro havo makonlariga qirg'oqbo'yi davlatlarining hududiy suvlaridan tashqarida bo'lgan havo makonlari kiradi.

Barcha havo kemalari xalqaro havo makonlarida «suzib» yurganlarida o'z davlatlarining yurisdiksiyasiga bo'ysunadi. Ammo xalqaro havo makonlarida erkin parvoz qilish, davlatlar va ularning havo kemalari xalqaro bitimlarda yoki IKAO tartiblarida mustahkamlab qo'yilgan ma'lum qoida va talablarga rioya qilishdan ozoddir degan ma'no kelib chiqmaydi.

1944-yilgi Chikago Konvensiyasiga asosan IKAO o'rnatgan parvoz qoidalari ochiq dengizda to'liq amal qiladi. Barcha davlatlar bu qoidaga bo'ysunishlari va ularning havo kemalari ochiq dengiz ustidan parvoz qilganda qoidaga rioya etishlari uchun butun choralarni ko'rmog'i lozim.

Ochiq havo makonlarining erkinligi tufayli havo kemalarining komandirlari va ekspluatantlari uchirgan organlar, rasmiy jihatdan ma'lum bir marshrutlar bilan harakat qilish majburiyatini olgan emaslar. Ammo parvozlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida (chunki bu yerda xavfsizlikni ta'minlash suveren havo makonidan murakkabroq) HHXK (havo harakatlariga xizmat ko'rsatish) xalqaro marshrutlar asosi bilan kelishilgan holda ochiq dengizlar ustidan xalqaro parvozlarni bajarishning amaliy huquqiy asoslari shakllangan. Ular IKAO doirasida chaqiriladigan mintaqaviy aeronavigatsiya yig'ilishlarida ko'rib chiqiladi va o'rnatiladi. Shu bilan birga juda ko'pchilik parvozlar HHXK marshrutlaridan tashqarida bo'lmoqda. Bunday hollarda parvoz rejasida aniq marshrut ko'rsatiladi va bu havo makonining konkret rayoniga xizmat ko'rsatayotgan organga xabar beriladi.

Ochiq dengiz makonlarida amal qilayotgan parvozlar qoidalari tizimi Chikago Konvensiyasining 2-Ilovasida, shuningdek «aerono-

vigatsiya xizmati Proseduralari – havo harakatlari xizmati va parvozlarning qoidalari» va «qo‘shimcha mintaqaviy Proseduralar»da o‘z aksini topgan.

Chikago Konvensiyasi va IKAO hujjatlari va uning ilovalarida mavjud qonun-qoidalar davlat uchish apparatlariga tegishli bo‘lmaydi. Chikago Konvensiyasida davlat o‘z havo kemalari uchun qoidalar o‘rnatayotganda xalqaro havo kemalarining navigatsion xavfsizligiga «diqqat-e’tiborini qaratish» orqali davlatlarga majburiyat yuklovchi norma mavjud (3 a modda). Bu qoidaga qo‘shimcha qilib va uni rivojlantirib, IKAO Assambleyasi o‘zining aeronavigatsiya sohasidagi IKAO doimiy siyosati to‘g‘risidagi yig‘ma bayonotida davlat havo kemalarining parvozi «amaliy imkoniyat darajasida» 2 Plovada ko‘rsatilgan qoidalarni hisobga olgan holda, bu masalalarni «shu rayondagi ochiq dengiz ustidan havo harakatlari xizmatini ta‘minlash uchun javobgar barcha davlatlar» bilan kelishilgan holda bajarishlarini tavsiya etadi.

Ko‘pgina hollarda bunday kelishuvlar va davlat havo kemalarining IKAO parvozlari qoidalari rioya qilishi oddiy huquqiy hol bo‘lib qoldi.

1982-yilgi dengiz huquqi bo‘yicha BMT Konvensiyasi ochiq dengiz ustidagi parvozlarning erkinligini tasdiqladi. 900 km.lik iqtisodiy zona to‘g‘risidagi Konvensiya ham bu erkinlikka o‘z ta‘sirini o‘tkazmadi. Zona ustidagi havo makonida ilgariqanday parvozlarning erkinligi amal qilmoqda.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta‘minlash prinsipi. Bu prinsipga asosan davlatlar quyidagilarni bajarishga majburdirlar:

a) aeroportlarning yordamchi xizmatlari, havo trassalari, aviatsion texnikaning texnik jihatdan ishonchlilikini ta‘minlash bo‘yicha choralar ko‘rishi;

b) fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish harakatlari qarshi kurashish.

1944-yilgi Chikago Konvensiyasining vazifasi va IKAO tizimining asosiy maqsadi: «Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tartibli va xavfsiz rivojlanishini yo‘lga qo‘yishdan» iborat (Muqaddima). Konvensiya va uning 18-ilovasidagi normalar aeronavigatsiyaning texnik xavfsizligini ta‘minlash talablariga qaratilgan edi. Bu talablar aviatsiya sohasidagi ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olib doimo

yangilanib borishni taqozo etadi. Bu vazifani bajarish esa IKAOga yuklatilgan. Ana shu maqsadda davlatlar IKAO doirasida vaqti-vaqti bilan, zarurat tug'ilgan hollarda quyidagilarga taalluqli xalqaro tartiblarni (qoidalar, standartlar, tavsiyalar va boshqa shu kabilar) ishlab chiqadi: havo kemalarining parvozga loyiqligi, uchish va texnik personalining malakasi; havo kemalarining ro'yxatga olinishi va bort hujjatlari; aeronavigatsiya kartalari va aloqa tizimi; aeroportlar va qo'nish maydonlarining xarakteristikasi; parvoz qoidalari va havo harakatlarini boshqarish amaliyoti, shuningdek aeronavigatsiyaning samaradorligi va xavfsizligiga taalluqli boshqa barcha masalalar.

Umuman olganda, IKAO qoidalari xalqaro fuqarolik aviat-siyasining samaradorligi va xavfsizligini oshirishga yordam beradi, chunki ular turli davlatlar tomonidan xalqaro aeronavigatsiya sohasidagi eng yangi yutuqlarga asoslangan fuqarolik samolyoti parvozi qoidalari va uchish texnik normalarini amaliyotga joriy qilishga ko'maklashadi.

Havo yo'llarining xavfsizligiga ziyon yetkazgan fuqarolik havo kemalarini olib qochish va egallash hollari bo'lganligi sababli, IKAO Chikago Konvensiyasiga maxsus 17-Ilovani – «Xavfsizlik. Fuqaro aviatsiyasini noqonuniy aralashish harakatlaridan himoya qilish»ni ishlab chiqdi. Ilovada xalqaro fuqaro aviatsiyasini noqonuniy aralashish aktlaridan himoya qilish bilan bog'liq barcha masalalarda yo'lovchilarning, ekipajning, yerdagi personalning va umuman jamiyatning xavfsizligi birinchi darajali ahamiyatga ega deb ta'kidlanadi.

IKAOning tashabbusi bilan va rahbarligida 70-yillarda fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashishga qarshi kurash bo'yicha davlatlar hamkorligini tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan xalqaro konvensiyalar ishlab chiqildi:

1970-yilgi havo kemalarini noqonuniy egallashga qarshi kurash to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasi va 1971-yilgi fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy aktlar bilan kurash to'g'risidagi Monreal Konvensiyasi. Bu Konvensiyalarda parvozda bo'lgan havo kemalarini kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan qo'rqitish yoxud qo'rqitishning boshqa shakllari bilan egallash eng og'ir jinoyat deb tan olinadi.

Monreal Konvensiyasi (Gaaga Konvensiyasiga nisbatan) fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga tahdid qiluvchi jinoiy aktlar ro'yxatini yanada kengaytirdi va aniqliklar kiritdi: parvozda havo kemasi bortida bo'lgan shaxslarga nisbatan zo'rlik; ekspluatatsiyada bo'lgan havo kemasini buzish yoki shikast yetkazish; havo kemalari parvozi xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on ma'lumotlar berish. Bu konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlar ana shunday jinoyatlarga nisbatan juda qattiq jazo choralarini qo'llashga majburdirlar. 1988-yili 1971-yilgi Monreal konvensiyasiga Protokol qabul qilinib, bu Protokolda xalqaro parvozlarga xizmat qiladigan aeroportlarda noqonuniy zo'rlikka qarshi qonun aktlari bilan kurashishga qaratilgan normalar mavjud.

Xavfsizlikni ta'minlash prinsipiga barcha davlatlar tomonidan og'ishmay amal qilinishi hozirgi paytda davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa aloqalarni mustahkamlashda sezilarli rol o'ynaydigan xalqaro havo yo'llarini yanada rivojlantirishning muhim shartidir.

3. Xalqaro parvozlarda va havo makoni rejimi. Xalqaro havo makonida parvoz etish qoidalari

Har bir davlat o'z makonlaridan chet el havo kemalarining o'tishi uchun ruxsat berish tartibini o'rnatadi va ma'lum talablarga rioya etish sharti bilan ularga o'z havo makonlaridan parvoz qilib o'tish huquqini beradi. Davlatlarning havo chegaralari daxlsizdir. Havo makonlari chegaralaridan havo kemalarining o'tishi o'sha davlatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Bu qoida davlatning havo makonlariga bo'lgan suvereniteti bilan bog'liq bo'lib, u doimiy parvozlarga (kelishilgan jadval bo'yicha) va doimiy bo'lmagan parvozlarga ham tegishlidir. 1944-yilgi Chikago konvensiyasiga ko'ra, «hech qanday doimiy xalqaro havo yo'llari Shartnomaga ega davlatlarning hududi ustida maxsus ruxsatga ega bo'lmasdan turib amalga oshirilishi mumkin emas» deyiladi (6-modda). Ruxsat berish xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan yoki davlatlarning ichki qonunlarida belgilangan bo'ladi. Har qanday nodoimiy parvozlarda ham shunday ruxsat bo'lishi kerakligini talab etadi. Ruxsat berishda havo kemasining aniq yo'nalishi belgilab olinadi.

Chet el havo kemalarining davlatlarning havo makonida bo'lishi davrida milliy qonunlarga bo'ysunadilar. Bu milliy qonunlar yo'lovchilar, ekipajning, pochta, bagaj va boshqa yuklarni tashishni huquqiy holatini belgilab beradi, pasport, bojxona, valuta va karantin nazorati tartibini belgilaydi. Bu qonun-qoidalar shartnomaga ega ikkinchi bir tomonning havo kemalariga ham tegishli bo'ladi.

Chet davlatning hududiga kirib kelgan har bir kema ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaga, parvozlarga loyiqligi to'g'risidagi guvohnomaga, bort jurnali va shunga o'xshash boshqa hujjatlarga ega bo'lishi lozim. Radioapparatradan havo kemasini ro'yxatdan o'tkazgan davlatlarning vakolatli hokimiyat organi tomonidan berilgan maxsus ruxsatnoma asosida faqat uchuvchi ekipaj a'zolari foydalanishlari lozim.

Radioappaturalardan foydalanayotganda parvoz amalga oshirilayotgan hududdagi davlatning qonun-qoidalariga rioya qilinishi shart (Chikago konvensiyasining 30-moddasi).

Xalqaro havo harakatiga xizmat ko'rsatish uchun davlatlar aeroportlar ajratadi. Ko'pincha bu aeroportlar xalqaro va ichki parvozlarga xizmatni qo'shib olib boradi. Chikago konvensiyasi aeroportlardan foydalanishda kamsitmaslik prinsipini qo'llashni taqozo etadi.

Aeroportlardan foydalanish shart-sharoitlari Konvensiyaning barcha ishtirokchi davlatlarining havo kemalari uchun bir xil bo'lishi kerak (15-modda).

Davlatlar o'ziga tegishli havo makonlarining xavfsizligi va samaradorligini oshirish maqsadida, havo yo'llariga xizmatni amalga oshiradi. Bunday xizmatlar ma'lum bir vazirlik va idoralarga tegishli organlarga yuklatiladi. Har bir xizmat turi ma'lum bir organlar orqali ta'minlanadi. Xizmatning har xil turlari mavjud. Ular: parvozlarning haqida axborotlar olish, konsultativ, dispetcher va avariya xizmatlari.

Xalqaro havo harakatlari va uning xavfsizligini ta'minlash uchun ma'lum bir standartlar, ya'ni bir xil qoida va talablarga amal qilinadi. Chikago konvensiyasi ishtirokchi davlatlari mazkur Konvensiyaga asosan vaqti-vaqti bilan o'rnatiladigan yoki tavsiya etiladigan ma'lum bir standartlar va tajribalarga asosan xalqaro aeronavigatsiyaga ko'maklashish uchun o'z hududlarida aeroportlar, radio va meteorologik xizmatlar va boshqa aeronavigatsiya vositalarini o'zlarining imkoniyatlari darajasida taqdim etish majburiyatlarini olganlar.

O'z hududlarida parvozga ruxsat bergan davlatlar, agar havo kemalari halokatga uchrasa, yordam berish uchun choralar ko'rishga majburlanadilar. Shuningdek bu davlatlar, aviatsiya halokatlari natijasida o'lim yoki jiddiy tan jarohatlari yetkazilgan bo'lsa yoki havo kemasining jiddiy texnik nosozliklari haqida guvohlik beruvchi holatlarini tergov qilishga majburlanadilar. Tergov qoidalari to'g'risidagi umumiy tartiblar Chikago konvensiyasida belgilab qo'yilgan (26-modda). Konvensiya bunday aviatsiya halokatlari tergov qilishda milliy qonunlardan foydalanishni ham nazarda tutadi.

Chegaralardan davlatning ruxsatisiz yoki parvoz qoidalariga rioya qilmasdan o'tgan havo kemasi buzg'unchi kema deb hisoblanadi. 1984-yilning mayida IKA Oga a'zo davlatlar Chikago konvensiyasiga tuzatishlarga imzo chekdilar, bunga ko'ra ular o'z havo kemalarida noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rish majburiyatini olganlar.

Xalqaro havo makonida parvoz etish qoidalari. Xalqaro havo makonlarida, ya'ni qirg'oqbo'yi davlatlarining hududiy suvlaridan tashqari va Antarktika ustidan havo makonlarida parvoz erkinligini tan olish xalqaro havo huquqining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Ochiq dengiz ustidagi havo makonlarida parvozlar erkinligi 1958-yilgi ochiq dengizlar to'g'risidagi Jeneva konvensiyasida (2-modda), keyinchalik 1982-yilgi dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasida (87-modda I«v» band) tasdiqlangan. Ochiq dengiz ustidan va iqtisodiy zonalarda havo kemalarining parvozi bo'yicha qoidalarda dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasi hech qanday farqni ko'rsatmaydi.

Ochiq dengiz ustida havo kemalari qaysi davlatda qayd qilingan bo'lsa, o'sha davlatning yurisdiksiyasiga bo'ysunadi. Ammo ochiq dengizlar ustidan parvozlar erkinligi, o'z havo kemalarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida parvozlarni tashkil qilish va ma'lum bir parvoz qoidalariga rioya qilishda davlatlar olgan majburiyatlarni istisno qilmaydi. Ochiq dengiz ustidagi havo makonlaridan foydalanilganda har bir davlatning huquqlarini hurmat qilishga majburlanadilar.

Dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasining ochiq dengizda parvozlar erkinligiga bag'ishlangan moddasida, davlatlar Konvensiyada nazarda tutilgan erkinliklarni amalga oshirayotganda, ochiq

dengiz erkinligidan foydalanayotgan boshqa davlatlarning manfaatlarini hisobga olish kerakligi haqida so'z boradi (87-modda 2-band). Ochiq dengiz ustidan havo makonlarida parvozni tashkil qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida, davlatlar va makonlarda boshqa davlatlarning havo kemalariga u yoki bu xizmat turlarini taqdim etish bo'yicha majburiyatlar olganligi to'g'risida bitimlar tuzadilar (parvozlarni to'g'risida axborotlar berish, dispetcher xizmati va shu kabilar bo'yicha).

IKAO tomonidan chaqiriladigan mintaqaviy konferensiyalarda davlatlar iqtisodiy jihatdan qulay bo'lgan xalqaro trassalarni, oraliqdagi qo'nish punktlarini belgilab oladilar, havo harakatlarini boshqarishni tashkil etish masalalarini va boshqa ochiq dengiz ustidagi havo makonlarida parvozlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan hamda ularning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etadilar. Bu makonlarda parvoz etishning qoidalariga rioya etishda davlatlarning majburiyatlari ikki tomonlama tuzilgan bitimlarda ham o'z aksini topadi.

Dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasi xalqaro kemalar qatnovi uchun foydalaniladigan bo'g'ozlar ustidan havo makonlarida barcha havo kemalari uchun tranzit parvozlarni erkinligi huquqini tasdiqlaydi. Havo kemalari bo'g'ozlar ustidan parvoz qilganda sustkashlikka yo'l qo'ymasliklari, qirg'oqbo'yi davlatlarining siyosiy mustaqilligi yoki hududiy daxlsizligi, suverenitetiga qarshi kuch ishlatish bilan qo'rqitishdan o'zlarini tiyishlari kerak. O'z navbatida qirg'oqbo'yi davlatlari ham tranzit parvozlarga xalaqit bermasliklari, uni buzmasligi yoki ularning huquqini kamsitmasliklari kerak. Qora dengiz bo'g'ozlari ustidagi havo makonlarida parvoz qilish 1936 yilgi Qora dengiz rejimi to'g'risidagi Konvensiya bilan tartibga solinadi.

1982-yilgi dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasi arxipelag davlatlariga barcha chet el uchuvchi apparatlarini arxipelag suvlari ustidan havo koridorlaridan hech qanday to'siqsiz parvoz qilishlarini ta'minlashni yuklaydi. Konvensiyaning bu qoidasi havo kemalariga bir ochiq dengiz yoki iqtisodiy zonalar havo makonlariga tez va to'xtovsiz parvozlarni amalga oshirishga ko'maklashadi.

Antarktika ustidagi havo makonlarining huquqiy rejimi 1959-yilgi Antarktika to'g'risidagi Shartnoma bilan tartibga solinadi. Shartnomada «ochiq dengizlarga nisbatan xalqaro huquq tomonidan

tan olingan har qanday davlatlarning huquqlarini va bu huquqlarni amalga oshirishni kamsita olmaydi», deb yozib qo'yilgan (VI-modda). Shuning uchun uning havo makonlari fuqarolik havo kemalari parvozi uchun ochiqdir. Harbiy havo kemalari Antarktika ustidan Shartnoma qoidalariga rioya qilayotganini havodan nazorat qilish uchun, stansiyalarga personalni olib kelish yoki olib ketish uchungina parvoz qilishi mumkin. Shartnoma ishtirokchilari tomonidan tayinlangan kuzatuvchilar harbiy samolyotlarda shartnoma qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun inspeksiya o'tkazishi mumkin (VII-modda).

4. Havo kemasi va ekipajining huquqiy holati

Havo kemasining huquqiy holati. Havo kemasi u yoki bu davlatlarda ro'yxatga olinganligi bilan belgilanadigan milliylik xususiyatiga ega havo kemasining milliylik prinsipi, qayddan o'tkazilgan davlat bilan havo kemasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri (ommaviy-huquqiy) aloqani keltirib chiqaradi va shu orqali o'sha qayddan o'tgan davlatning himoyasi ostida bo'ladi. Ro'yxatga olingan havo kemasi davlat reestriga kiritiladi.

Ko'rsatilgan prinsipdan havo kemasidan foydalanish, egalik qilish va mulkchilikning fuqaroviy-huquqiy masalalaridagi farqini ajratmoq kerak. Fuqarolik havo kemalari davlatning, kooperativ va ijtimoiy tashkilotlarning mulki hisoblanishi mumkin.

Xalqaro havo yo'llarida havo kemalarini fuqaro va davlat mulklariga bo'lish prinsipial ahamiyatga ega. Chikago konvensiyasining uchinchi moddasi harbiy, bojxona, politsiya xizmatlarida foydalaniladigan havo kemalarini davlat mulkiga kiritadi.

Ekipajlarning huquqiy holati. Havo kemasi ekipaji a'zolari o'z xizmat vakolatlari doirasida harakat qilar ekan, ularni harakati uchun javob beradigan kema ekspluatantining (egasining) vakillari bo'lib hisoblanadi.

Har bir ekipaj a'zosi qat'iy belgilab berilgan funksiyani bajaradi. Havo kemasi komandiri ma'lum belgilangan vaqt mobaynida havo kemasi, uning ekipaji a'zolari, yo'lovchi va yuklar uchun to'liq javobgar bo'ladi.

Xalqaro havo huquqida jinoyatning huquqiy holatini to'liq belgilab beruvchi hujjat mavjud emas. Parvoz davrida havo kemasi bortida jinoiy harakatlarning oldini olish va tugatish uchun choralar ko'rish bo'yicha komandir va ekipajning alohida huquqlari 1963-yilgi Tokio Konvensiyasining III bobida berilgan.

Ekipajning to'liq huquqiy holati havo kemasi qayd qilingan davlatning milliy qonunlari bilan belgilanadi.

Ko'pgina davlatlarning havo kemasi ekipaji tarkibida chet el fuqarolarining bo'lishi mumkin emas. Ammo bir qator davlatlar yetarli darajada aviatsiya kadrlariga ega bo'lmaganligi sababli chet el aviatsiya xodimlarining xizmatidan foydalanadilar.

5. Xalqaro aviatsiya tashkilotlari

Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO). Fuqaro aviatsiyasi sohasidagi ko'p tomonlama hamkorlik asosan IKAO doirasida va uning rahbarligida amalga oshiriladi. 1944-yilgi Chikago Konvensiyasi IKAOning tashkil etilishi va faoliyatining huquqiy asosi bo'lib hisoblanadi. Bu tashkilot BMTning maxsus tashkiloti maqomiga ega bo'lib, o'z faoliyatini 1947-yildan boshlagan. Uning maqsad va vazifalari Chikago Konvensiyasi bilan belgilab qo'yilgan (44-modd). IKAO butun dunyoda xalqaro fuqaro aviatsiyasining tartibli rivojlanishini va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi, havo kemalarining tinchlik maqsadlarda ekspluatatsiya qilinishi va ishlab chiqilishini taqdirlaydi, xalqaro fuqaro aviatsiyasi uchun aeronavigatsiya vositalari, aeroportlar va havo trassalarining qurilishini va rivojlanishini taqdirlaydi, dunyo xalqlarining xavfsiz, doimiy, samarali va tejimli havo transportlariga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlaydi. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tajribasini o'rganish asosida uchish texnik norma va qoidalarini ishlab chiqadi. Ular ikki – «IKAO tavsiyalari» shaklida mavjuddir. Chikago Konvensiyasining 38-moddasi, agar davlatlarning maxsus arizalari, ochiq dengiz yuzasidan arizalari bo'lgan taqdirda, ochiq dengiz ustidagi parvozlar qoidasiga taalluqli standartlardan tashqari IKAO standartlaridan chekinishga ruxsat beradi. IKAO Chikago Konvensiyasiga 18 ta ilova ishlab chiqqan. Ular fuqaro aviatsiyasi shaxsiy tarkibiga talablarni, parvoz qoidalari, meteorologik xizmatiga talablar, xalqaro aeronavigatsiya, havo

kemalarining uchishga loyiqligi va boshqa shu kabilarni belgilab beradi. IKAO aviatsiya halokatlarini tergov qilish tartiblari, xalqaro parvozlardagi avariya chog'ida qidiruv-qutqaruv xizmatini yaratish va ish prinsiplari bo'yicha tavsiyalar beradi. IKAO standartlari va tavsiyalari aerodromlarning fizik xarakteristikasiga, aeronavigasion axborotlarga bo'lgan talablarni ham belgilab beradi, fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish aktlarining oldini olish uchun zarur ma'muriy-tashkiliy choralarni ko'rsatib beradi. IKAO Chikago Konvensiyasi ilovalarida nazarda tutilgan parvoz qoidalarini ta-komillashtirish bo'yicha ham katta ishlar qilmoqda.

IKAO tashabbusi bilan xalqaro fuqaro aviatsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi muhim xalqaro konvensiyalar tuzilgan. Masalan, chet el havo kemasiga shaxs tomonidan yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi 1952-yilgi Konvensiya, havo kemalarini noqonuniy egal-lab olishlarga qarshi kurash bo'yicha 1970-yilgi Konvensiya, fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlar (aktlar)ga qarshi kurash to'g'risidagi 1971-yilgi Konvensiya va shu kabilar. IKAO havo kemalarini noqonuniy egallashga qarshi kurash bo'yicha va boshqa fuqarolik noqonuniy harakatlar (aktlar) bo'yicha choralarni kuchaytirish to'g'risida bir qator rezolutsiyalar qabul qildi.

IKAOning oliy organi bo'lib Assambleya hisoblanadi. Unda bu tashkilotga a'zo barcha davlatlarning vakili bor. 1954-yildan As-sambleya uch yilda bir marta yig'iladi. Bu tashkilot faoliyatida muhim rol o'ynaydigan ijro etuvchi organ Kengashdir. Kengash Assambleya tomonidan 33 davlat tarkibida saylanadi, uning sessiyasi bir yilda uch marta o'tkaziladi. Xalqaro standartlar va tavsiyalar ishlab chiqish va qabul qilish, ularni fuqaro aviatsiyasi rivojlanishi taraqqiyotini his-sobga olgan holda yangilash-Kengashning bosh vazifasidir.

IKAO organlariga yana quyidagilar kiradi: Aeronavigatsiya komissiyasi, Aviatransport komiteti, Yuridik komitet, Aeronavigasion ta'minotni birgalikda qo'llab-quvvatlash Komiteti, Moliyaviy komitet, fuqaro aviatsiyasi ishlariga noqonuniy aralashishlar bo'yicha Komitet. Yuridik komitet IKAO homiyligida chaqiriladigan diplomatik konferensiyalarda ko'rib chiqiladigan havo huquqi bo'yicha ko'p tomonlama shartnomalar loyihalarini ishlab chiqishda katta rol o'ynaydi.

IKAOning doimiy xizmat ko'rsatuvchi organi bosh kotib – bosh ijro etuvchi mansabdor shaxs boshchiligidagi kotibiyat hisoblanadi. IKAO Shtab-kvartirasi Monrealda (Kanada) joylashgan.

IKAO tuzilishida mintaqaviy byurolar nazarda tutilgan. Ular: Yevropa mintaqaviy byurosi (Parij), Afrika mintaqaviy byurosi (Dakar), Yaqin Sharq mintaqaviy byurosi (Kohira), Janubiy Amerika mintaqaviy byurosi (Lima), Osiyo-Tinch okeani mintaqaviy byurosi (Bangkok), Shimoliy Amerika va Karib havzasi mintaqaviy byurosi (Mexiko), Sharqiy Afrika mintaqaviy byurosi (Nayrobi).

IKAO fuqaro aviatsiyasi bo'yicha xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan yaqin muloqotda ish olib boradi¹.

Shuningdek IKAO nodavlat tashkilotlar bilan, jumladan, havo transporti Xalqaro assosiatseyasi (HATA) bilan ham yaqin muloqotda ish olib boradi.

Fuqaro aviatsiyasi Yevropa konferensiyasi (EKAK). 1954 yilda ta'sis etilgan. Maqsadi – Yevropa havo transporti muammolarini o'rganish, IKAO bilan o'zaro aloqasini mintaqada rivojlantirishga va muvofiqlashtirishga ko'maklashish. Uning funksiyasi konsultativ xarakterga ega.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek Turkiya EKAKga a'zo davlatlar hisoblanadi.

EKAKning oliy organi Plenar komissiyadir. Ijro etuvchi organi – Muvofiqlashtiruvchi komitet. EKAK IKAO va uning Mintaqaviy byuro shtab kvartirasi bilan yaqindan hamkorlik qiladi. EKAKning shtab-kvartirasi Parijda joylashgan. Bundan tashqari, EKAKning ko'p sonli ma'muriy va texnik xarakterga ega funksiyalarini IKAOning Mintaqaviy byurosi bajaradi. IKAO shuningdek EKAKga to'g'ridan-to'g'ri tegishli bo'lmagan xarajatlarni o'zi to'laydi.

Aeronavigatsiya xavfsizligini ta'minlash tashkiloti (Evrokontrol). Y 1960-yilda ta'sis etilgan. Maqsadi – harbiy va noharbiy havo kemalarning xavfsiz parvozini ta'minlashdir.

Oliy organi – aeronavigatsiya xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Doimiy komissiya. Ijro etuvchi organi – Aeronavigatsiya xavfsizligi

¹ Ular quyidagilar: Fuqaro aviatsiyasi Yevropa konferensiyasi (YKAK), Aeronavigatsiya xavfsizligini ta'minlash Yevropa tashkiloti (Yevrokontrol), Fuqaro aviatsiyasi Afrika komissiyasi (AFKAK), Afrika va Madagaskarda aeronavigatsiya xavfsizligini ta'minlash Agentligi (ASEKNA), Aeronavigatsiyaga xizmat ko'rsatuvchi Markaziy Amerika tashkiloti (KOKESNA), Fuqaro aviatsiyasi Lotin Amerikasi komissiyasi (LAKAP), 41 arab davlatlari fuqaro aviatsiyasi Kengashi (KAKAS).

agentlik. Tashkilotning shtab-kvartirasi Brusselda (Belgiya) joylashgan.

Fuqaro aviatsiyasi Afrika komissiyasi (AFKAK). 1969-yilda tashkil topgan bo'lib, EKAKning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Funksiyasi konsultativ xarakterga ega. Maqsadi: aeronavigatsiya xizmati ko'rsatishning mintaqaviy rejalarini ishlab chiqish, havo transporti sohasida a'zo davlatlar siyosatining integratsiyalashuviga ko'maklashish, aeronavigatsiya vositalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish, mintaqada standartlar va tavsiyalarning qo'llanilishiga ko'maklashish va boshqalar.

Oliy organi – Plenar sessiya. Ijro etuvchi organi – AFKAK Byurosi. Tashkilotning shtab-kvartirasi Addis-Abebada (Efiopiya) joylashgan. AFKAK IKAning Dakardagi (Senegal) Afrika byurosi xizmatlaridan faol foydalanadi.

Afrika va Madagaskarda xavfsizlikni ta'minlash Agentligi (ASEKHA). U 1959-yili ta'sis etilgan. Maqsadi – a'zo davlatlar (Fransiyadan tashqari) hududi ustidagi parvozlar xavfsizligi va doimiyligini ta'minlash. Agentlik parvoz, texnik va yuk tashish axborotlarini taqdim etadi, havo harakatini nazorat qiladi, parvozlarni boshqaradi va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi. Ana shu maqsadlarda ASEKHA uning xizmatidan foydalanishga rozi bo'lgan har qanday davlatlar bilan bitim tuzishi mumkin.

Oliy organi – majburiy qarorlar qabul qiladigan Ma'muriy kengash. Ijro etish mexanizmi to'rtta boshqarma, hisob byurosi va bosh direktordan iborat.

Shtab-kvartirasi Dakarda (Senegal) joylashgan.

Fuqaro aviatsiyasi Lotin Amerikasi komissiyasi (LAKAK). 1973-yili ta'sis etilgan. Asosiy maqsadi – a'zo davlatlarning havo transportlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Oliy organ – Assambleya. Ijro etuvchi organi – Ijroiya komiteti. Shtab-kvartirasi Mexikoda (Meksika) joylashgan.

Aeronavigatsiyaga xizmat ko'rsatish bo'yicha Markaziy Amerika korporatsiyasi (KOKESHA). 1960-yilda ta'sis etilgan. Tashkilotning maqsadi – havo harakatini boshqarib turishiga to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatish. Ana shu maqsadlarda tashkilot yuridik va jismoniy shaxslarga maxsus kontraktlar va xalqaro bitimlar asosida o'z xizmatlarini taqdim etadi.

Oliy organi – qarorlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bajariladigan Ma‘muriy kengash.

Aviatsiya va havo makonlaridan foydalanish bo‘yicha davlatlararo kengash. Bu kengash fuqaro aviatsiyasi va havo makonlaridan foydalanish to‘g‘risidagi Bitimga asosan, ilgari SSRI tarkibiga kirgan davlat hukumatlarining vakillari ishtirokida 1991-yil dekabrda ta‘sis etilgan.

Ana shu hujjatga asosan bu kengashga a‘zo davlatlarning birgalikdagi ish faoliyatiga quyidagilar kiradi: IKAO talablarini hisobga olgan holda davlatlararo normativ hujjatlar va standartlarni ishlab chiqish; uchuvchi va dispetcherlar tartibini, navigatsiya va aloqani, havo harakatlarini boshqarish tizimini, havo kemalarini, aerodromlarni, xalqaro havo trassalarini, havo kemalarining xalqaro ekspluatantlarini sertifikatsiyalash; aviahalokatlarni tergov qilish; davlatlararo ilmiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil qilish; xalqaro havo yo‘llari sohasida kelishilgan siyosatni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish, IKAO ishida ishtirok etish; yagona aeronavigatsiya yagona tizimini rivojlantirish, havo harakatlari oqimini tartibga solish; davlatlararo havo harakatlari jadvalini va yig‘ilishlari sohasidagi umumiy siyosatni muvofiqlashtirish.

Bitimga va 1991-yilning 30-dekabrda Minskda qabul qilingan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi hukumat boshliqlari Kengashining qaroriga ko‘ra, Davlatlararo kengashning ijro etuvchi organi Davlatlararo aviatsiya komiteti (DAK) hisoblanadi.

SSRI tarkibiga kirgan, ammo Bitimni imzolamagan davlatlar, Bitim ishtirokchilari Kengash va DAK bilan maxsus bitimlar asosida hamkorlik qilishi mumkin.

Bitimga barcha xohlovchi davlatlar qo‘shilishi mumkin.

Tashkilotning qarorgohi Moskva (Rossiya Federatsiyasi)da joylashgan.

6. Fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish aktlariga qarshi kurash

Fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish harakatlari (aktlari) tushunchasi, 1958-yil ochiq dengiz to‘g‘risidagi Jeneva Konvensiyasi shaxsiy maqsadlarda xususiy kema yoki uchish apparatlari

ekipaji yoki yo'lovchilari tomonidan boshqa kema yoki uchish apparatiga qarshi va bordagi shaxslarga yoki mol-mulkka nisbatan sodir etilgan har qanday noqonuniy zo'rlik, ushlab turish yoki bosqinchilik harakatlarini qaroqchilik deb baholaydi. Bu yerda qaroqchi dengiz va havo kemalari ekipajlari yoki yo'lovchilarining harakati to'g'risida so'z bormoqda. Jeneva Konvensiyasining fikricha, bunday harakatlar (aktlar) ochiq dengizda yoki ochiq dengiz ustidagi havo makonlarida sodir etilgan hollardagina «qaroqchilik» deb tan olinishi mumkin. Shuning uchun fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish harakatlari (aktlari)ni «havo qaroqchiligi» deb nomlash noto'g'ri bo'lar edi.

Birinchi marta to'g'ridan-to'g'ri havo kemasi bortida sodir etiladigan noqonuniy aralashish turlariga ta'rif (havo kemasini noqonuniy egallash) 1963-yilgi Tokio konvensiyasida berildi: «... agar havo kemasi bortida bo'lgan shaxs noqonuniy tarzda kuch ishlatish bilan yoki kuch ishlatish orqali qo'rqitish yo'li bilan aralashish harakatini (aktini) sodir etsa, havo kemasini egallab olsa, yoki boshqacha tarzda parvozdagi havo kemasi ustidan o'zining noqonuniy harakatini amalga oshirsa yoki shunday harakatni (aktini) sodir etishni niyat qilgan bo'lsa». Ammo Konvensiya bunday harakatni jinoyat deb kvalifikatsiya qilmasdan, havo kemasini noqonuniy egallash harakati (akti)ning o'ziga ta'rif berish bilan cheklanadi.

1970-yili Gaagada havo kemalarini noqonuniy egallashga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya imzolandi. 1970-yilgi Gaaga Konvensiyasi havo kemasini noqonuniy egallash harakatlariga (aktlariga) ta'rif berish bilan birga (bu ta'rif mohiyati jihatidan Tokio Konvensiyasi bergan ta'rif bilan bir xil) bunday harakatlarni jinoyat deb hisoblaydi (1-modda) va davlatlarga bularga nisbatan qattiq jazo choralarini ko'rish majburiyatini yuklaydi (2-modda).

1971-yilgi fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to'g'risidagi Monreal Konvensiyasining 1-moddasiga asosan «har qanday shaxs noqonuniy va ilgariidan niyat qilib quyidagilarni sodir etsa jinoyat sodir qilgan hisoblanadi:

a) havo kemasining bortida bo'lgan shaxsga nisbatan zo'rlik harakatini sodir etsa, bu zo'rlik harakati havo kemasining xavfsizligiga tahdid qilsa; yoki

b) foydalanishda bo'lgan havo kemasini buzsa yoki bu havo kemasini ishdan chiqaradigan shikast yetkazsa; yoki

v) havo kemasining parvozigga tahdid soladigan, uning xavfsizligiga tahdid soladigan, unga ishdan chiqadigan darajada shikast yetkazadigan yoki havo kemasini vayron qiladigan darajaga olib keladigan modda yoki qurilmalarni foydalanishda bo'lgan havo kemasi xonalariga qo'yish yoki ana shunday harakatni sodir etish; yoki

g) aeronovigasiya uskunalarini vayron qilish yoki shikast yetkazish yoxud ulardan foydalanilishiga aralashish, agar ana shunday harakatlar parvozdagi havo kemasining xavfsizligiga tahdid qilishi mumkin bo'lsa; yoki

d) parvozdagi havo kemasining xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on ma'lumotlar berish».

Noqonuniy aralashish harakatlariga (aktlariga) qarshi kurash bo'yicha xalqaro bitimlarni qo'llash shartlari. Agar havo kemasi, havo kemasini registratsiyadan o'tkazgan davlatning hududidan tashqari hududlarda parvoz qilayotgan holatlarning barchasida Tokio, Gaaga va Monreal Konvensiyalarining normalari qo'llaniladi.

Tokio Konvensiyasi o'z normalarini qo'llashda parvoz vaqtini belgilaydi – «uchish uchun dvigatelning ishga solinishidan boshlab, qo'nish payti tugaguncha bo'lgan vaqt» (1-modda, 3-band).

Gaaga va Monreal` Konvensiyasi parvoz vaqtini quyidagicha belgilaydi – «yuklar orilib tashqi eshiklarning barchasi yopilgan vaqtdan boshlab yuklarni tushirish uchun biron-bir eshikning ochilishigacha bo'lgan vaqt».

Majburiy qo'nish holati sodir bo'lganda, Gaaga va Monreal Konvensiyalariga asosan, o'sha qo'nilgan joyning vakolatli organlari havo kemasi va uning bortidagi shaxslar ustidan javobgarlikni o'z bo'yinlariga olmagunga qadar parvoz davom etayotgan deb hisoblaydi.

Tokio Konvensiyasiga asosan, havo kemasining komandiri, agar unda havo kemasi bortlaridagi shaxs havo kemasi xavfsizligiga tahdid soladigan huquqbuzarliklar sodir etgan bo'lsa, yoki sodir etishga tayyorgarlik ko'rayotganligi to'g'risida yetarli asoslar bo'lsa, «majburlov choralarini qo'llagan holda oqilona ish tutishi» mumkin. Undan tash-

qari, har bir ekipaj a'zosi yoki yo'lovchi havo kemasi komandiri bilan shartnomaga ko'ra yoki bunday iltimoslarsiz yoxud mulklarining xavfsizligini ta'minlash uchun tezlikda va mustaqil ravishda ehtiyot choralari ko'rishi mumkin (6-modda). Komandir huquqbuzarliklar sodir etgan shaxsni havo kemasidan tushirib yuborib, qo'nish sodir etilgan hududdagi Tokio Konvensiyasiga ishtirokchi davlatlarning vakolatli organlariga topshirish huquqiga ega.

1971-yilgi Monreal Konvensiyasi normalari ham havo kemasi «foydalanishda» bo'lgan vaqtlarda qo'llanilmoqda. «Foydalanish» vaqti havo kemasining parvozoldi tayyorgarligidan boshlanib, havo kemasi qo'nganidan so'ng 24 soatgacha davom etadi. Harbiy, bojxona va politsiya xizmatlari bilan shug'ullanadigan havo kemalariga nisbatan bu uchala konvensiya qo'llanilmaydi.

Jinoyatchilarni tutib berish va jazolash masalalari. Tokio konvensiyasi barcha holatlarda yurisdiksiyaning havo kemasi ro'yxatga olingan davlat tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi (4-modda). Ammo bu konvensiya har qanday davlatga, agar samolyot bortidagi jinoyat har qanday davlatning fuqaroligiga qaratilgan bo'lsa, agar jinoyat uning hududida xavfsizligiga tahdid soladigan bo'lsa, ma'lum oqibatlariga olib kelsa yoki agar davlatlarning parvoz ishlariga aralashuvi ko'p tomonlama xalqaro bitimlar majburiyatidan kelib chiqib bajarish zarur bo'lsa, parvoz ishlariga aralashishga ruxsat etadi.

Gaaga va Monreal Konvensiyasiga asosan jinoyatlarga nisbatan yurisdiksiyani quyidagilar o'rnatishi mumkin: havo kemasini qayddan o'tkazgan davlat, ekipajsiz ijaraga berilgan havo kemasini ijaraga olgan, doimiy yashab faoliyat ko'rsatadigan davlat; bortida jinoyat sodir etilgan va jinoyatchi bo'lgan havo kemasi qo'ngan hududdagi davlat, jinoyatchi bo'lgan yoki bo'lishi gumon qilinayotgan hududdagi davlat.

Bu yerda raqobatlashayotgan yurisdiksiya prinsipi o'rnatilgan. Konvensiyada manfaatdor davlatlar uchun «yurisdiksiyada ustunlik berish» to'g'risida qoida yo'q (bundaylar havo kemasi qayd qilingan davlatlar hisoblanadi).

Tokio Konvensiyasi qoidalarini XX asrning 60-yillari oxiri va 70-yillaridagi yerdagi aviatransportlarga qarshi diversiyalarga, havo kemalarini noqonuniy egallab olishga qarshi kurashlarda samarasiz bo'lib qoldi. Gaaga va Monreal Konvensiyalariga ko'ra, bunday jino-

yatlarni amalga oshirgan shaxslar ushlab berilishi yoki qattiq jazolanishi kerak edi.

Gaaga va Monreal Konvensiyalarida 7-modda asosiy o'rinni egallaydi. Bu moddaga asosan «shartnomalarda ishtirok etayotgan davlatlar, agar ularning hududida nazarda tutilgan jinoyatchi bo'lsa, agar bu jinoyatchini ushlab bermasa, unda uni jinoiy jazoga tortish uchun o'zining vakolatli organlariga topshirishi kerak. Bu organlar o'sha davlat qoidalariga ko'ra jiddiy xarakterdagi jinoyatlarda qanday qaror qabul qilsa, o'sha jinoyatchilikka nisbatan ham ana shunday qaror qabul qiladi». Oxirgi yillarda havo kemasini olib qochgan shaxslarni ushlab berish holatlari ko'p bo'lgan. Masalan, 1976-yili Eron, 1977-yili Finlyandiya SSRiga samolyotlarni olib qochgan shaxslarni tutib bergan. Agar tutib bermasa, ularning o'zi bu shaxslarni sud qilishi kerak (masalan, Pokistonda SSRIdan samolyotni olib qochgan bir guruh shaxslar jazoni o'tamoqdalar).

IKAO doirasida bir necha bor qayd etilgan davlatga «yurisdiksiyada ustunlik berish» prinsipini o'rnatish maqsadida Gaaga Konvensiyasiga qo'shimcha protokollar qabul qilish to'g'risida takliflar ilgari surildi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro havo huquqi tushunchasi va uning manbalari. Xalqaro havo huquqi masalalari bo'yicha asosiy bitimlar, ularning hozirgi kun talablariga javob bera olish qobiliyati.*

2. *Xalqaro parvozlar va davlat suvereniteti masalasi nimadan iborat?*

3. *Havo kemasi, ekipaj va aeroportlarning xalqaro-huquqiy maqomi haqida so'zlab bering.*

4. *O'zbekiston Respublikasining xalqaro parvozlarni xalqaro-huquqiy tartibga solishdagi ishtiroki.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Актуальные вопросы международного воздушного права. – М., 1973.

2. Бордунов В.Д. Правовой механизм деятельности международных авиационных организаций. – М., 1989.

3. Бордунов В.Д., Котов А.И., Малеев Ю.Н. Правовое регулирование международных полетов гражданских воздушных судов. – М., 1988.

4. Верецагин А.Н. Международное воздушное право. – М., 1966.
5. Малеев Ю.Н. Международное воздушное право. Вопросы теории и практики. – М., 1986.
6. Международное воздушное право / Отв. ред. Мовчан А.П. и Садиков О.Н. Кн. 1 – М., 1980; Кн. 2.– М., 1981.
7. Международное морское, воздушное и космическое право / Под ред. А.П. Мовчан и др. – М.: Инс-т. гос-ва и права РАН, 1992.
8. Словарь международного воздушного права. – М., 1998.
9. Тихонов В.М. Международные авиационные организации. – М., 1986.

24-bob. XALQARO KOINOT HUQUQI

1. *Xalqaro koinot huquqi tushunchasi va xususiyatlari.*
2. *Xalqaro koinot huquqi manbalari.*
3. *Xalqaro koinot huquqining obyektlari va subyektlari.*
4. *Koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlarning institusional hamkorligi.*
5. *Xalqaro koinot huquqida davlatlarning javobgarligi.*

1. Xalqaro koinot huquqi tushunchasi va xususiyatlari

Insoniyatning koinotdagi faoliyati boshlanganda ularning har qanday turlari bir yoki bir necha chet davlatlarning manfaatlariga bog'liq bo'lishi, koinotdagi faoliyatning ko'p turlari esa xalqaro hamjamiyatning manfaatlariga ta'sir etishi ma'lum bo'lib qoldi. Bu o'z navbatida «koinotdagi huquqiy faoliyat», «koinotdagi huquqiy holat» degan tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keldi, undan tashqari xalqaro hamjamiyat nuqtayi nazaridan koinotdagi faoliyatda ma'lum bir tartib o'rnatishni amalga oshirish zarurati tug'ildi. Koinotdagi faoliyat jarayonida xalqaro-huquqiy munosabatlar vujudga kelishi mumkinligi BMT Bosh Assambleyasining 1958-yil dekabrda rezolutsiyasida o'z ifodasini topdi. Bu rezolutsiyada «koinotdagi makonda insoniyatning umumiy manfaatlari bor ekanligi» va «koinotdagi makonda tadqiqot dasturlarini o'tkazishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolarni» BMT doirasida muhokama qilish zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Bu rezolutsiyaning «Koinotdagi makondan tinchlik maqsadlarida foydalanish masalasi» qismida koinotdagi makonning huquqiy holati to'g'risida va koinotdagi faoliyatning xarakteri to'g'risida (koinotdagi makondan faqat tinchlik maqsadida foydalanishga intilish, bu sohada xalqaro hamkorlikning zarurligi) so'z boradi.

Shuning uchun 1967-yilgi Koinot bo'yicha Shartnoma nafaqat koinotga oid munosabatlar tartibini belgilab berishdan, shu bilan birga samoviy jismlarni tadqiq qilish bilan bog'liq va ulardan foydalanish borasidagi faoliyat jarayonida davlatlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Shunday qilib, *Xalqaro koinot huquqi* – bu xalqaro huquqning alohida sohasi bo'lib, xalqaro hamjamiyatni koinotni

o'zlashtirish faoliyati jarayonida vujudga keladigan, shuningdek koinotni o'zlashtirish faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan muhitdagi barcha huquqiy munosabatlarni tartibga solib turadi.

Shubha yo'qki, huquq tashqi siyosat bilan uzviy bog'liqlikdadir. Ular koinotni o'zlashtirish bilan ham yaqin aloqadadir. Hozirgi kunda davlatlar tomonidan har qanday sohada tashqi siyosatni olib borishda umumiy xalqaro-huquqiy prinsiplar boshqaruv prinsipi bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro koinot huquqi endigina shakllanib kelayotganda koinotdagi faoliyat uchun bu prinsiplar muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Maxsus prinsiplarning yo'qligi umumiy prinsiplarning qo'llanilishi bilan ularning o'rini bosib ketishi kerak edi.

Xalqaro koinot huquqi fani endigina paydo bo'lganda ko'pchilik yuristlar xalqaro huquqning asosiy prinsip va normalari koinotdagi faoliyatga ham tegishli bo'ladi degan xulosaga kelgan edilar. Uning o'ziga xosligiga kelganda xalqaro huquqning yangi sohasini tashkil etish mumkin bo'lgan (ammo alohida huquqiy tizimni emas) maxsus normalarni hisobga olish kerak edi.

Xalqaro koinot huquqining «tug'ilgan kuni»ni koinot bo'yicha Shartnoma kuchga kirgan kun – 1967-yilning 10-oktabri deb hisoblashimiz mumkin. O'shanda xalqaro huquq prinsiplari xalqaro koinot huquqiga ham qo'llanilishi to'liq tan olingan edi.

Davlatlarning teng huquqliligi prinsipi eng asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Koinot faoliyatiga bu prinsipni qo'llaydigan bo'lsak, u barcha davlatlarning koinotdagi faoliyatni amalga oshirishda paydo bo'ladigan huquqiy va siyosiy xarakterdagi masalalarni hal etishda teng huquqliligini bildiradi. Teng huquqlilik prinsipi koinot bo'yicha shartnomada ham o'z aksini topgan. Bu shartnomaning muqaddimasida koinotdagi makondan foydalanish va uni tadqiq qilish xalqlarning iqtisodiy va ilmiy salohiyatidan qat'iy nazar, barcha xalqlarning farovonligini oshirishga xizmat qilishi kerakligi yozib qo'yilgan. Shartnomaga binoan, koinotdagi makon hech bir kamsitishlarsiz, tenglik asosida va xalqaro huquqqa asosan samoning har qanday yerida barcha davlatlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazish va ulardan foydalanish uchun ochiqdir.

Kuch ishlatish va kuch ishlatish bilan tahdid qilishni taqiqlash prinsipi xalqaro munosabatlarda davlatlarning koinotdagi faoliyatiga

va shu orqali ular o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarga ham tegishlidir. Bu shuni bildiradiki, koinotdagi faoliyat barcha davlatlar tomonidan amalga oshirilishi kerak, bunda xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solinishi kerak emas, koinotni o'zlashtirish masalalari bo'yicha nizolar kelib chiqqanda faqat tinch yo'l bilan hal etilishi kerak.

Shunday qilib, xalqaro koinot huquqi va xalqaro huquq prinsiplarining umumiyligi xalqaro koinot huquqi xalqaro huquqning tarkibiy qismi bo'lib, ikkalasi qo'shilganda bir butunni tashkil etadi, deb ta'kidlashga imkon beradi. Xalqaro koinot huquqi norma va prinsiplarining o'ziga xosligi xalqaro huquqning boshqa sohalari bilan uni bir deb qarashga imkon bermaydi. Shu orqali xalqaro koinot huquqining xalqaro huquq umumiy tizimida tutgan o'rni va roli belgilanadi.

Xalqaro koinot huquqining maqsadlari, tartibga solinish metodlari va manbalari umumiy xalqaro huquq bilan bir xildir. Xalqaro koinot huquqining maqsadi xalqaro tinchlik, xavfsizlikni va davlatlar hamkorligini ta'minlash, xalqaro huquqning koinot sohasidagi subyektlarining o'zaro munosabatlarini tartibga solish yo'li bilan butun insoniyat manfaatlarini va davlatlarning suveren huquqlarini himoya qilishdir.

Xalqaro koinot huquqi xalqaro huquqning alohida sohasi sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

* Koinotdagi makonda ommaviy jismlar mavjud bo'lib, ularning hududi hech kimga tegishli emas va koinotda insoniyat ulardan foydalanishi mumkin;

* Koinot deyarli cheksizdir;

* Quruqlikdagi, Dunyo okeani va havo makonlarining hududidan farqli ravishda koinotdagi makon ulardan foydalanish jara-yonida biron-bir zonalarga bo'linmaydi.

* Koinotdagi faoliyat u yerda inson faoliyati uchun o'zgacha xavf tug'diradi.

Koinotdagi faoliyatga tegishli bir qator xususiyatlar guruhiga quyidagilar kiradi:

* Koinotdan harbiy maqsadlarda foydalanish tengsiz xavf tug'diradi;

* Koinotdagi faoliyatdan barcha davlatlar manfaatdordir, ammo u erda faoliyat olib borishga faqat bir necha sanoati va ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarning imkoniyati mavjud;

* Ommaviy apparatlarni uchirish va ularni yerga qaytarish chet el davlatlarining havo makonlari va ochiq dengiz makonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin;

* Koinot tomon apparatlarni uchirish chet davlatlar va ularning fuqarolariga shikast yetkazishi mumkin.

Nihoyat, huquqiy normalarga tegishli xususiyatlarga to'xtalamiz. Normalar yaratish jarayoniga tegishli xususiyatlarga yuqorida to'xtalib o'tdik, undan tashqari xalqaro koinot huquqining barcha masalalarini tartibga solishda, o'zining har bir tartibga solish sohasi bo'lgan alohida konvensiya va bitimlarning roli o'sib bormoqda. Huquqiy masalalar asosan BMTning koinot bo'yicha Konvensiyasida hal etiladi. Koinot huquqi ekologiya bilan yaqin aloqada bo'lishiga qaramay, bu erda huquq ijodkorligi xalqaro huquqning boshqa sohalariga qaraganda sust rivojlanmoqda.

Koinot huquqi norma va prinsiplarining bunday o'ziga xos xususiyatlari koinotdagi makonda inson faoliyatining yangi bir sohasi ekanligi bilan, shuningdek har qanday sohadagi faoliyatdan tubdan farq qiladigan koinotdagi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

2. Xalqaro koinot huquqi manbalari

Huquqiy tartibga solish metodi xalqaro koinot huquqi va xalqaro huquq uchun yagonadir. Bu metod davlat irodasini ma'lum bir qoidalarga bo'ysundirish va uni yuridik jihatdan tan olishdir. Shuning uchun ham xalqaro huquq va xalqaro koinot huquqi manbalari bir xildir. Bu manbalar xalqaro shartnoma va xalqaro odatlardir.

Xalqaro koinot huquqida normalarni ishlab chiqish jarayoni ikkita xususiyatga ega. Birinchi xususiyat shundaki, normalar yaratilish jarayoni asosan BMT doirasida amalga oshiriladi. Ikkinchi xarakterli xususiyati shundaki, bu yerda normalarni qabul qilish amaliyotidan ilgari yoki amaliyot bilan birga sodir bo'ladi. Bizga ma'lumki, xalqaro huquqning boshqa sohalarida normalar qabul qilish amaliyotdan so'ng amalga oshiriladi.

Xalqaro koinot huquqida normalar yaratish jarayonida asosiy rol xalqaro shartnomalarga tegishlidir. 1967-yilgi koinot bo'yicha Shartnomada asosan xalqaro koinot huquqining asosiy prinsip va normalari ifodalangan va mustahkamlangan. Koinot fanining rivojlanishi bilan birga va koinot sariga yanada chuqurroq kirib borish orqali koinot huquqining alohida qoidalari maxsus bitimlarda, jumladan, koinot makoniga chiqarilgan obyektlar va kosmonavtlarning qaytishi, kosmonavtlarni qutqarish to'g'risidagi Bitim va koinotdagi obyektlar orqali zarar etkazilganda xalqaro javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya va boshqa bitim hamda kelishuvlarda yanada aniqlashtirildi.

Shuningdek xalqaro koinot huquqining shartnoma manbalariga koinotni o'zlashtirishda davlatlarning hamkorligi to'g'risidagi turli bitimlar kiradi. Maxsus xarakterga ega bo'lgan ushbu bitimlar koinot bo'yicha Shartnomalarda mustahkamlangan va ko'rsatilgan umumiy xarakteri bitimlarda ifodalangan xalqaro koinot huquqi uchun umumiy bo'lgan prinsip va normalarga asoslanadi.

Manbalarining ikkinchi turi odatdir. *Xalqaro odat – bu doimiy ravishda qo'llanilgani uchun xalqaro hamjamiyat subyektlari tomonidan majburiy yuridik kuchga ega deb tan olingan qoidalar yig'indisidir.*

Koinot huquqining shakllanganiga ko'p vaqt bo'lganiga qaramay, unda odat sifatida shakllangan huquqiy prinsiplar mavjuddir. Ular-koinot makonida va samoviy jismlardan foydalanishda va ularni tadqiq qilishda erkinlik prinsipidir. Bu prinsiplar koinot faoliyatidagi amaliyot asosida va xalqaro hamjamiyat tomonidan umumiy tan olinishi natijasida shakllanadi. Keyinchalik bu ikki prinsip koinot bo'yicha shartnomada shartnoma normalari sifatida mustahkamlanishi ishning mohiyatiga ta'sir qilmaydi, chunki ular xalqaro-huquqiy odat sifatida xalqaro munosabat ishtirokchilari uchun yuridik kuchga egadir.

BMT Bosh Assambleyasining rezolutsiyalari tavsiya xarakteriga ega bo'lsa-da, ammo bir ovozdan qabul qilingan rezolutsiyalar ma'lum harakatlarga nisbatan uning pozitsiyasini ifodalamaydi, shuning uchun xalqaro hamjamiyat uchun ularga to'la amal qilish ma'qul keladi.

BMT Xalqaro Sudining Statuti, sud qarorlari va eng yuqori kvalifikatsiyaga ega mutaxassislarning doktrinalari xalqaro huquqning yordamchi manbalariga kiradi. Shuni qayd etish kerakki, koinot makonlari va samoviy jismlarni tadqiq qilish va ulardan foydalanish bilan

bog'liq masalalar BMT Xalqaro Sudida ko'rib chiqilgan emas, chunki shu paytgacha davlatlar o'rtasida xalqaro koinot huquqi qoidalarini sharhlash yoki qo'llash yuzasidan nizolar paydo bo'lgan emas.

Ikkinchi yordamchi manba bo'lib, xalqaro ommaviy huquq, birinchi navbatda, xalqaro koinot huquqi sohasidagi mutaxassislarining, yuqori malakali yuristlarning asarlari hisoblanadi.

3. Xalqaro koinot huquqining obyektlari va subyektlari

Boshqa davlatlarning manfaatlariga tegishli har qanday faoliyatni amalga oshirish, muqarrar ravishda xalqaro-huquqiy munosabatlarining vujudga kelishiga va xalqaro huquq sub`ektlarining huquq va majburiyatlarga ega bo'lishiga olib keladi.

Shunday qilib, xalqaro koinot huquqi subyekti deb, koinot texnologiyasidan foydalanish yoki koinotdagi makonda faoliyat olib borish tufayli xalqaro-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lganlarga aytamiz. Xalqaro koinot huquqida suveren davlatlar asosiy subyektlar bo'lib hisoblanadi. Bunda davlatlar xalqaro huquq subyekti bo'lgani uchun biror-bir harakat yoki xalqaro munosabat ishtirokchilarining xohish-istaklari talab etilmaydi.

Subyektlarning ikkinchi turi birinchi turidan kelib chiqadigan, ya'ni davlatlar tomonidan tuzilgan va qonuniy amal qilayotgan xalqaro tashkilotlardir. Bunday tashkilotlarning huquq subyekti bo'lish hajmi cheklangan bo'lib, u a'zo davlatlarning arizasi bilan belgilanadi va shu tashkilot tashkil topgan xalqaro shartnomada qayd qilib qo'yiladi. Bunda bir qator xalqaro tashkilotlar o'zlarining huquq subyekti kuchiga qarab xalqaro koinot huquqiy munosabatlarining (INMARSAT, INTELSAT, EKA) subyektlari bo'lib hisoblanishi mumkin, boshqalari esa faqat xalqaro-huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lishi mumkin, ularning Nizomlarida ular maxsus vakolatga ega ekanligi yozib qo'yilgan.

Shunday qilib, subyektlar o'rtasidagi farq shundaki, suveren davlatlar ipso facto xalqaro koinot huquqining subyektlari bo'lsa, xalqaro tashkilotlar faqat xalqaro-huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro koinot huquqi sohasidagi asosiy Konvensiya va Bitimlar bo'yicha subyektlarga aylanish uchun hukumatlararo tashkilotlar quyidagi to'rtta shartga rioya etishlari kerak:

* tashkilot ma'lum bir bitim bo'yicha huquq va majburiyatlarni o'z bo'yniga olganligi to'g'risida rasmiy bayonot berishi kerak;

* tashkilotga a'zo ko'pchilik davlatlar ham o'sha bitim ishtirokchilari bo'lib hisoblanishi kerak;

* bu tashkilotga a'zo davlatlarning ko'pchiligi 1967 yilgi Koinot bo'yicha Shartnoma ishtirokchilari bo'lishi kerak;

* tashkilot albatta koinotda faoliyat olib bormog'i lozim. Ammo bular ham yetarli bo'lmasligi mumkin: chunki javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya bo'yicha va Oy to'g'risidagi Bitimda tashkilotlarning huquq va majburiyatlari cheklangandir.

Xalqaro koinot huquqining subyekti bo'lib jismoniy shaxslar hisoblanishi mumkin degan nuqtayi nazar mavjud. Masalan, Koinot bo'yicha Shartnomaning V moddasida «insoniyatning koinotdagi elchisi» degan ibora ishlatilgan, ammo bu ibora jismoniy shaxsni xalqaro koinot huquqining subyekti deb tan olishni bildirmaydi, chunki VIII modda bo'yicha koinot obyekt bo'lib qayd etilgan davlat bunday obyekt va uning ekipaji ustidan nazoratni va to'liq yurisdiksiyani saqlab qoladi.

Xalqaro koinot huquqi nodavlat tashkilotlarning koinotda faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini istisno qilmaydi (Koinot to'g'risidagi Shartnomaning VI moddasi), ammo bu nodavlat yuridik shaxslar xalqaro koinot huquqining subyektlari bo'la oladi degani emas. Yuqoridagi moddaga asosan «nodavlat yuridik shaxslarning koinotdagi, jumladan, Oy va boshqa samoviy jismlardagi faoliyati Shartnomadagi ishtirokchi davlatlarning ruxsati va ularning doimiy nazorati ostida amalga oshiriladi», davlatlar esa bunday shaxslarning faoliyati shartnomada nazarda tutilgan qoidalar asosida o'tishini ta'minlash uchun xalqaro javobgarlikni o'z bo'yinlariga oladilar. Xalqaro huquqda uning subyektlari ichki va tashqi ishlarda qandaydir bir boshqa hokimiyatdan mustaqil bo'lib, teng huquqqa ega ekanligi umum tomonidan tan olinganligi bois, yuridik shaxslar xalqaro huquqning subyekti bo'la oladi degan masalaning qo'yilishi mumkin emas.

Xalqaro koinot huquqining subyektni butun insoniyat tashkil qiladi degan qarash ham mavjud. Bunday pozisiyani hatto xayolan

ilmiy asoslangan deb tan ololmaymiz, chunki u hozirgi davrda xalqaro hamjamiyat va xalqaro munosabatlarning asosini tashkil etadigan turli xil siyosiy va iqtisodiy tizimdagi davlatlarning hayotini hisobga olmaydi.

Shunday qilib, xalqaro koinot huquqining subyektlari bo'lib faqat koinotda faoliyat olib boruvchi suveren davlatlar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar hisoblanadi.

Xalqaro koinot huquqi obyektlari – bu xalqaro koinot huquqi subyektida xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirisha oladigan barcha narsalar, ya'ni moddiy va nomoddiy boyliklar, davlatlarning ichki vakolatiga kirmaydigan harakat va harakatsizliklaridir:

- * koinot makoni;
- * samoviy jismlar;
- * kosmonavtlar;
- * sun'iy koinot obyektlari;
- * koinot tizimining yerdagi qismlari;
- * amaliy faoliyat natijalari; koinotdagi faoliyat.

«Koinot obyekti» shartnomaviy tushunchasi hali ishlab chiqilmagan. Ro'yxatga olish to'g'risidagi Konvensiyaga asosan sun'iy koinot obyektlarini ro'yxatga olish amaliyoti mavjud. Shuning uchun sun'iy obyekt qachon koinot obyektiga aylanadigan davrni belgilab olish kerak. Bu koinot obyektini uchirish payti hisoblanadi. Agar bu obyektini uchirish muvaffaqiyatsizlikka uchrasa ham bu obyekt koinot obyekti hisoblanadi. Koinotdan erga qaytib kelgan obyekt ham, u avariya uchragan bo'lsa-da, koinot obyekti bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek «koinotdagi faoliyat» tushunchasi ham shartnomada belgilab berilmagan. Bugungi kunga kelib bunday faoliyat insonning koinot makonidagi, jumladan, tabiiy samoviy jismlarni tadqiq qilish va ulardan foydalanishi koinotdagi faoliyat deb yuritiladi. Birinchi marta bu ibora 1961-yilning 20-dekabrida BMT Bosh Assambleya-sining rezolutsiyasida esga olingan edi. «Koinotdagi faoliyat» deganda davlatlarning koinotdagi faoliyati va uning koinot bilan bog'liq yerdagi faoliyati tushuniladi.

Xo'sh, xalqaro koinot huquqining norma va prinsiplari qaysi konkret faoliyatga tegishli bo'ladi? Hozirgi paytda koinotdagi faoliyat tushunchasini sharhlash u yoki bu davlatning faoliyatiga bog'liqdir. Ammo koinotdagi faoliyat deb insoniyat tomonidan yaratilgan pred-

metlarni orbitada, planetlararo makonda, Oy yuzida va boshqa samoviy jismlarda joylashtirish tushuniladi. Ba'zan koinotdagi faoliyat deb suborbital uchirishlar (ya'ni predmetlarni yuqori balandliklarga uchirib, uni orbitaga chiqmasdan yerga qaytib kelishi) ham nazarda tutiladi. Koinotdagi faoliyatga kishilarning (kosmonavtlarning) harakati va avtomatik apparatlar (avtonom va yerdan radio orqali boshqariladigan) va koinotdagi obyektlar (jumladan, kishilarning ochiq koinotga chiqishi yoki uskunalarni olib chiqishi)ning ishi ham kiradi.

Shunday qilib, koinotdagi faoliyat tushunchasi quyidagilar bilan bog'liqdir:

- * koinot obyektini uchirish bilan bog'liq Yerdagi amalga oshiriladigan operatsiyalar, koinotning o'zidagi faoliyat;

- * koinotdagi faoliyatni boshqarish;

- * koinotdan Yerga qaytish.

Birinchi kundanoq koinotdagi faoliyat bilan bog'liq barcha masalalar to'liq tartibga solingan emas. Masalan, koinotdagi makonga obyektlarni joylashtirish muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa, Yerdagi operatsiya koinotdagi faoliyat bo'lib hisoblanadimi yoki yo'qmi degan qoida aniqlangan emas. Shuning uchun hozirgi paytda koinotdagi faoliyat masalasini aniqlab olishda har bir konkret holatda ana shu huquqiy munosabat uchun qo'llaniladigan xalqaro shartnomalarning qoidasidan kelib chiqish kerak.

«Koinotdagi faoliyat» iborasi 1967-yilgi Koinot bo'yicha Shartnomaning o'zida 37 marta tilga olinadi. Ammo xalqaro koinot huquqida bu tushunchaga ta'rif berilmagan. Koinot makoni tushunchasini belgilab olish masalasi koinot bo'yicha BMT Komitetining kun tartibida turibdi. Ammo bu masala koinotdagi faoliyat bilan bog'liq holda muhokama qilinishi kerak. Chunki koinotdagi makon tushunchasi uning faoliyatidan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi.

4. Koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlarning institutsional hamkorligi

Koinotda tadqiqotlar o'tkazish sohasidagi va ularni amaliyotda qo'llashdagi xalqaro hamkorlikning alohida roli xalqaro koinot huquqi nuqtayi nazaridan davlatlararo hamkorlik prinsipining yuridik maz-

munini to'liq aniqlab olishni taqozo etadi. Xalqaro huquq tomonidan o'rnatilgan hamkorlikning umumiy prinsiplarini koinotdagi makonni tadqiq qilish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan davlatlararo munosabatlarga ham to'liq qo'llasa bo'ladi. Davlatlar koinotda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashishga intilishlari to'g'risida Koinot bo'yicha 1967-yilning Shartnomasida, shuningdek bu Shartnomaning ko'pgina mavzularida o'z bayonlarini berganlar, bu esa o'z navbatida koinotdagi makonni tadqiq qilish va foydalanishda davlatlarning hamkorligini xalqaro koinot huquqining asiy prinsiplari jumlasiga kiritishga imkon beradi.

Shunday qilib, 1967-yilgi Koinot bo'yicha Shartnoma davlatlarning hamkorlik prinsipini xalqaro koinot huquqining asiy prinsiplaridan biri deb mustahkamladi. Koinot bo'yicha Shartnomaning bir qator qoidalari hamkorlik prinsipidan kelib chiqadi va uni aniqlashtiradi. Masalan, koinotda faoliyatni amalga oshirishda davlatlar boshqa davlatlarning manfaatlarini e'tiborga olishga majburligi, boshqa davlatlarning faoliyati uchun zarar yetkazmaslik, boshqa davlatlarning kosmonavtiga imkoni boricha yordam ko'rsatish, koinotdagi makonda faoliyat olib borishning xarakteri, yo'nalishi, joyi va natijalari to'g'risida boshqa mamlakatlarga axborotlar berish va shu kabilar.

Shunday qilib, hamkorlik prinsipining asiy mazmunini koinotdagi makonni o'zlashtirishda davlatlarning bir-birlari bilan hamkorlik qilish majburiyati va koinotni o'rganish hamda undan foydalanishda birgalikda olib boriladigan ishlarda ko'maklashish va qulayliklar yaratish majburiyati tashkil etadi.

BMT doirasida koinotdagi makonni tadqiq qilish va undan foydalanishda davlatlar hamkorligini rivojlantirishda yetakchi rol BMT Bosh Assambleyasiga tegishlidir. BMT Bosh Assambleyasi ayrim koinotdagi faoliyatni hududiy tartibga solish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi, shuning uchun uni xalqaro koinot huquqi normalarini ishlab chiqish sohasida xalqaro hamkorlik markazi deb hisoblaymiz. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan quyidagi hujjatlar qabul qilingin:

- * Koinot faoliyatining huquqiy prinsiplari Deklaratsiyasi;
- * Koinot bo'yicha Shartnoma;
- * Qutqaruv to'g'risidagi Bitim;

- * Javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya;
- * Qayd qilish to'g'risidagi Konvensiya;
- * Oy to'g'risidagi Bitim.

BMT Bosh Assambleyasining xalqaro koinot huquqini shakllantirish va rivojlantirishdagi hal qiluvchi roli koinot makonidan tinchlik maqsadlarida foydalanish bo'yicha BMT Komitetini tuzishda o'z ifodasini topdi, u Koinot bo'yicha Komitet nomi bilan mashhur.

Bosh Assambleyaning koinot bo'yicha asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- * koinot makonlarini o'zlashtirishning huquqiy muammolarini o'rganish va ishlab chiqish vazifalarini shakllantirish;

- * davlatlarning koinotdagi faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalariga tegishli koinot bo'yicha BMT Komitetining tavsiyalarini ma'qullash, shuningdek

- * Koinot bo'yicha BMT Komiteti doirasida koinot bo'yicha bitimlar loyihalarini ma'qullash;

- * mutloq ko'pchilik davlatlarning ishtirokida Bosh Assambleya sessiyalarida bu bitimlarning alohida moddolari loyihalarini bevosita ishlab chiqish.

Koinot makonlaridan tinchlik maqsadlarida foydalanish komiteti. BMT rezolutsiyasiga asosan komitetga koinot makonlarini tadqiq qilishning ham huquqiy, ham ilmiy-texnikaviy masalalari bilan shug'ullanish topshirilgan; komitet koinotni o'zlashtirishdagi xalqaro hamkorlik sohasida markaziy muvofiqlashtiruvchi organ rolini bajaradi.

Koinot bo'yicha BMT Komiteti ikki kichik komitet – Yuridik va Ilmiy-texnik komitetdan tashkil topgan. Komitet o'zining asosiy huquq ijodkorligi faoliyatini Yuridik komitet orqali amalga oshiradi. Koinot bo'yicha BMT Komitetining Yuridik komiteti koinotdagi makonlarni tadqiq qilish va ulardan foydalanishdagi faoliyatni tartibga soluvchi ko'p tomonlama bitimlarning loyihalarini ishlab chiqish faoliyatini amalga oshiradi. Rasman olganda bu komitet xalqaro koinot huquqi prinsipi va normalarini ishlab chiqish bo'yicha markaziy ishchi organi bo'lib hisoblanadi. Komitet konsensus prinsipi bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Ulardan tashqari koinotni o'zlashtirishda BMTning ko'pgina maxsus tashkilotlari muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagilar:

XEAI (Xalqaro Elektr aloqa Ittifoqi) koinot aloqasi uchun radiochastota diapazonlarini taqsimlab beruvchi reglamentlarni ishlab chiqadi, koinot aloqasining iqtisodiy jihatlarini tadqiq qiladi, uzoq aloqa maqsadlarida yo'ldoshlardan foydalanish to'g'risida axborotlar almashishni amalga oshiradi;

YUNESKONing koinot sohasidagi asosiy vazifalari axborot tarqatish, ijtimoiy rivojlantirish, madaniy aloqalarni kengaytirish maqsadida koinot aloqalarini qo'llash muammolarini tadqiq qilishdan iboratdir;

Koinot makonlaridan tinchlik maqsadlarida foydalanish va uni tadqiq qilish bo'yicha BMTning 1968- va 1982-yillarda bo'lib o'tgan ikkita konferensiyasi koinotni o'zlashtirishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Hukumatlararo tashkilotlar doirasida koinot muammolari bilan shug'ullanadigan universal hukumatlararo tashkilotlar tuzilgan emas. Hozirgi paytda bu sohada xalqaro hamkorlikning amaliy masalalari bilan bir qator xalqaro tashkilotlar o'z vakolati doirasida shug'ullanmoqdalar, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

Dengiz yo'ldosh aloqasi Xalqaro tashkiloti (INMARSAT). Uning asosiy vazifasi yerning sun'iy yo'ldoshidan foydalanish yo'li bilan dengiz aloqasini yanada yaxshilashdir. INMARSATning ta'sis hujjatlari dengiz yo'ldosh aloqasi Xalqaro tashkiloti to'g'risidagi hukumatlararo Konvensiyadan tashkil topgan. Unda ekspluatatsion bitim va tashkilot tuzilishining muhim qoidalari belgilab berilgan bo'lib, texnik va moliyaviy masalalar tartibga solinadi. Ular hukumat tomonidan yoki ular tomonidan tayinlangan davlat yoki xususiy vakolatli tashkilotlar tomonidan imzolandi. Konvensiya bo'yicha huquq va majburiyatlarga faqat davlatlar ega bo'ladi. Ekspluatatsion bitimlarga ko'ra, ularning subyektlari bo'lib davlat yoxud davlatlarning hukumatlari tomonidan tayinlangan vakolatli milliy tashkilotlar hisoblanadi.

*Yerning sun'iy yo'ldoshlari orqali aloqalar Xalqaro tashkiloti (INTELSAT)*ning bosh vazifasi tijorat asosida «xalqaro maqsadlar uchun foydalaniladigan va hech qanday kamsitishsiz barcha davlatlar uchun mumkin bo'lgan» sun'iy yo'ldoshlar yordamida aloqaning global tizimlarini loyihalashtirishni, qurishni, ekspluatatsiya qil-

ish va texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib INTELSATga yuzdan ortiq davlatlar a'zodir.

Yevropa koinot agentligi (YKA). 60-yillarning boshida G'arbiy Yevropa mamlakatlari AQSHdan mustaqil ravishda koinot sohasida siyosat olib borish to'g'risida qaror qabul qildilar. Shu asosda bir qator xalqaro tashkilotlar tashkil topdi. 1968-yilning oxirida G'arbiy Yevropadagi barcha mavjud koinot tashkilotlarini birlashtirib, yagona tashkilot YKAni tuzish haqida qaror qabul qilindi. 1975-yilga kelib 11 mamlakat vakillari YKAni tuzish to'g'risidagi Konvensiyani imzoladilar. 3 davlat kuzatuvchi maqomiga ega. YKAning faoliyati koinotni o'zlashtirishda Yevropa davlatlari hamkorligini ta'minlash va rivojlantirish hamda kosmonavtika yutuqlarini tinchlik maqsadlarida qo'llashga yo'naltirilgan.

YKAning bosh vazifasi quyidagilar hisoblanadi:

- barcha a'zo-davlatlar va har bir alohida davlatning uzoq muddatli umum Yevropa koinot siyosatini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish;

- umum Yevropa koinot dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish;

- ma'lum bir sanoat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish. Agentlikning koinot dasturi barcha a'zo davlatlar tomonidan moliyaviy mablag' bilan ta'minlashda faqat manfaatdor davlatlar ishtirok etadigan fakultativ guruhlariga bo'linadi.

Boshqa hukumatlararo tashkilotga yana ARABSATni ko'rsatishimiz mumkin. Uning tarkibiga arab davlatlari ligasi a'zolari bo'lgan 21 davlat kiradi. ARABSATning bosh maqsadi Liganing barcha a'zolari uchun uzoq masofali aloqa tizimini yaratish va unga xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

Xalqaro nodavlat tashkilotlar doirasida bu xalqaro nodavlat tashkilotlar davlatlar hamkorligi shakli bo'lib hisoblanmaydi, chunki ularni tuzish va ularga a'zo bo'lib davlatlar emas, balki ilmiy jamoatchilik, korxonalar va alohida olimlar hisoblanadi. Ularning faoliyati axborotlarni keng almashishga, turli xil ilmiy muammolarni muhokama qilishga va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Koinot tadqiqotlari Qo'mitasi (KOSPAR) 1958-yilning oktabrida Xalqaro jug'rofiy yil tamom bo'lgandan so'ng koinotni o'zlashtirishda

hamkorlik tadbirlarini amalga oshirishni davom ettirish uchun tuzilgan edi. Bu qo'mitaning asosiy vazifasi «butun dunyo olimlariga koinot makonlarini ilmiy tadqiq qilish uchun koinot zondlari va yo'ldoshlaridan foydalanishda keng imkoniyatlar va o'zaro teng sharoitlar yaratishdan» iborat. Uning maqsadi koinotni tadqiq etish va o'rganish orqali taraqqiyotga ko'maklashishdir.

Xalqaro astronomika federatsiyasi (XAF). Xalqaro astronomika federatsiya (XAF) tashkiliy jihatdan 1952-yilda qabul qilingan, 1968-va 1978-yillarda o'zgartirishlar kiritilgan Nizomda belgilab qo'yilgan. XAFning faoliyati astronomikani tinchlik maqsadlarida rivojlantirishga ko'maklashishga, koinot tadqiqotlari to'g'risidagi axborotlarni tarqatishga yordamlashishga, shuningdek koinotni o'zlashtirishning bir qator ijtimoiy-huquqiy masalalarini hal etishga yo'naltirilgan.

XAFga a'zo bo'lishning uch kategoriyasi mavjud:

1). Milliy a'zolik (turli mamlakatlarning astronomik uyushmalari);

2). Astronavtika sohasida tadqiqotlar o'tkazish yoki ularga kadrlar tayyorlab berish bilan shug'ullanuvchi universitetlar, laboratoriyalar;

3). XAF vazifalariga mos keluvchi maqsadlarni nazarda tutadigan xalqaro tashkilotlar.

Koinot huquqi xalqaro instituti (KHXI). Ilgari mavjud bo'lgan XAFning Doimiy huquqiy komiteti o'rnida tuzilgan. Uning vazifasi quyidagilar:

1). Koinot faoliyatining huquqiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganish;

2). XAF kongresslari bilan bir vaqtda o'tkazilgan koinot huquqi bo'yicha yillik kollokviumlarni tashkil etish;

3). Koinot huquqi bo'yicha turli materiallarni nashr qilish.

Institut shuningdek koinot huquqini o'qitish masalalari bilan shug'ullanadi. U koinotni o'zlashtirishning huquqiy muammolarini muhokama etadigan yagona nodavlat tashkilot bo'lib hisoblanadi. KHXI yakka tartibda a'zolik asosida tashkil topgan. U koinot bo'yicha BMT Komiteti qoshidagi Yuridik komitetda XAFning vakili bo'lib hisoblanadi.

5. Xalqaro koinot huquqida davlatlarning javobgarligi

Qadim zamonlardan hozirgi davrlargacha xalqaro munosabatlarda tartibni ta'minlash usullaridan biri bo'lib javobgarlik institutini qo'llash hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarda markazlashgan davlatlararo majburlov apparati mavjud emas. Xalqaro huquq tartibotiga rioya qilishni kafolatlovchi xalqaro-huquqiy norma va prinsiplar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi *pacta sunt servanda* – shartnomalarga rioya qilinishi shartligi prinsipi hisoblanadi. Bu prinsipga rioya etilishining o'ziga xos kafolati esa yuqorida eslatib o'tilgan javobgarlik instituti – yetkazilgan zarar uchun yoki uni to'lashdan bosh tortganligi uchun javobgarlik bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, xalqaro javobgarlik xalqaro munosabatlarning o'ziga xos instituti bo'lib hisoblanadi, bunga ko'ra, agar jabr ko'rgan tomon aybdor bo'lmasa, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklaydi, shuningdek ma'lum hollarda sanksiyani qo'llash bilan zarar ko'rgan tomon o'zining buzilgan manfaatlarini zarar yetkazgan tomonning manfaatlari hisobidan qondirish huquqiga ega bo'ladi.

Xalqaro koinot huquqida javobgarlik tushunchasi quyidagilarni bildiradi:

- 1) Xalqaro huquqning norma va prinsiplarini buzganligi uchun davlatlarning xalqaro javobgarligi;
- 2) Koinotda faoliyatni amalga oshirish natijasida yetkazgan zarar uchun moddiy javobgarlik.

Xalqaro koinot huquqida javobgarlik to'g'risidagi normalarni ishlab chiqish ommaviy-huquqiy o'zaro munosabatlar sohasidan boshlandi. Koinotdagi faoliyatda xususiy huquq javobgarligi muammolari hozircha ko'rilmagan, chunki u barcha tomonidan amalga oshirilmogda yoxud davlatlar xususiy kompaniyalarning faoliyati uchun ham javobgarlikni o'z bo'yinlariga oladilar.

Koinotdagi faoliyati uchun davlatlarning normativ javobgarligi koinot bo'yicha 1967-yilgi Shartnomada nazarda tutilgan. Unga ko'ra «shartnomada ishtirok etuvchi davlatlar koinotdagi makonda, jumladan, Oy yoki boshqa samoviy jismlardagi xususiy shaxslar amalga oshiradimi yoki davlat tashkilotlarimi, bundan qat'iy nazar, xalqaro javobgarlikka tortiladi. Undan tashqari, koinotdagi faoliyatni xalqaro tashkilotlar amalga oshirayotgan bo'lsalar, shartnomadagi qoidalar-

ning bajarilishi uchun xalqaro tashkilotlar bilan birga shartnomada ishtirok etayotgan davlatlar ham javobgarlikka ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Koinot bo'yicha shartnomaga ko'ra koinotdagi obyektlar yoki ularning tarkibiy qismlari bilan yerda, havoda yoki koinotdagi makonda, jumladan, Oyda yoki boshqa samoviy jismlarda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik koinotdagi makonga uchirishni tashkil qilgan yoki amalga oshirgan davlat, uning jismoniy yoki yuridik shaxslariga zarar yetkazilgandagina vujudga keladi.

Zarar turlari. Ular quyidagilar: koinotdagi har qanday obyektning va ularning qismini yerga tushib odamlarning o'limiga yoki mayib bo'lishiga olib kelishi, havoda, ochiq dengizda, quruqlikdagi hududda davlatlarga yoki ularning jismoniy va yuridik shaxslariga tegishli buyumlarining yo'q qiliinshi yoki shikast yetkazilishi. Agar koinot obyektini orbitaga chiqarishda uning trayektoriyasidagi havo makonida havo kemasi turgan bo'lsa, unga ham zarar yetkazilishi mumkin. Zarar koinotdagi makonda ham yetkazilishi mumkin. Samoviy jismlarda ilmiy stansiyalar, yonilg'i quyish stansiyalari, uzoq koinotga parvoz uchun start maydonchalari bo'lsa, ularga ham zarar yetkazilishi mumkin: koinot resurslari orqali koinot radio aloqasiga, televideniesining ishiga xalaqit berish.

Agar zararlar qonuniy harakatlar doirasida yuridik normalarni oldindan o'ylab, biron-bir qasdsiz yetkazilgan bo'lsa, bunda zararni moddiy undirish to'g'risida gap ketishi mumkin. Ammo ilgari o'ylab turib xalqaro huquq buzilgan bo'lsa, unda bir davlatning ikkinchi bir davlat oldidagi yoki butun xalqaro hamjamiyat oldidagi siyosiy javobgarligi ustida so'z boradi. Bunday hollarda javobgarlik siyosiy va moddiy bo'lishi mumkin.

1971-yili koinotdagi obyektlar tomonidan zarar yetkazilganligi uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya loyihasining matni qabul qilindi. Mana, uning asosiy qoidalari. Unda zarar tushunchasiga ta'rif berilib, insonni hayotdan mahrum qilish, tan jarohati yetkazish yoki boshqacha yo'l bilan sog'lig'iga shikast yetkazish, davlatning, uning jismoniy va yuridik shaxslariga shikast yetkazish yoki xalqaro hukumatlararo tashkilotlarining buyumlarini yo'q qilish zarar keltirish deb tushuntiriladi.

Davlatlar koinotdagi obyektlar bilan yer ustiga yoki parvozdagi havo kemasiga yetkazgan zarar uchun davlatlarning javobgarligi ayb

bo'lgan vaqtda mavjud bo'ladi. Jabrlanuvchining qo'pol ehtiyotsizligi natijasida unga ziyon yetkazilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etish nazarda tutiladi.

Da'vo muddati etib bir yillik muddat o'rnatilgan. Tovon miqdori ziyon yetkazilgan buyumning ilgarigi holatini tiklashga yetadigan darajada belgilanadi.

Da'volashuv nizolari da'voni ko'rib chiqish bo'yicha tuziladigan komissiya tomonidan tartibga solinib turadi, ular uch a'zo-vakildan tashkil topadi:

- da'vogar davlat;
- koinotga obyektini uchirgan davlat;
- ular tomonidan saylanadigan rais.

Agar tomonlar bir to'xtamga kelgan bo'lsalar komissiya qarori majburiy hisoblanadi, aks holda tavsiya xarakteriga ega bo'ladi.

1971-yili BMT Bosh Assambleyasining 26-sessiyasi xalqaro javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyaning to'liq matnini tasdiqladi. 1972-yili Konvensiya imzolash uchun taqdim etildi va 1972-yilning 30-avgustidan u kuchga kirdi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. *Xalqaro koinot huquqining tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflang.*
2. *Xalqaro koinot huquqining obyektlari va subyektlari nimadan iborat?*
3. *Xalqaro koinot huquqida davlatlarning javobgarligi haqida so'zlab bering.*
4. *Xalqaro koinot huquqida Oyning huquqiy maqomi. Oyning uchastkalarini sotilishi muammolari.*

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бордунов В.Д., Марков В.Н. Космос. Земля. Право. – М., 1998.
2. Верещегин В. С. Международное сотрудничество в космосе: правовые вопросы. – М., 1977.
3. Жуков Г. П. Космос и мир. – М., 1985.
4. Клименко В.М. Общее наследие человечества. Международно-правовые вопросы. – М., 1989.
5. Ковалев Ф.Н., Чепров И.И. На пути к космическому праву. – М., 1982.

6. Колосов Ю.М., Жуков Г.П. Международное космическое право: Учебник. – М.: Междунар. отношения, 1999.
7. Котляров И. И. Международный контроль с использованием космических средств. – М., 1981.
8. Международно-правовые проблемы освоения космоса. – М., 1988.
9. Международное космическое право / Отв. ред. Пирадов А.С. – М., 1988.
10. Международное космическое право / Под ред. А.С. Пирадова. – М., 1997.
11. Международное морское, воздушное и космическое право / Под ред. А.П. Мовчан и др. – М.: Инс-т. гос-ва и права РАН, 1992.
12. Пирадов А.С., Блищенко И.П., Верещетин В.С, Колосов Ю.М. Международное космическое право. – М., 1985.
13. Постышев В.М. Освоение космоса и развивающиеся страны (международно-правовые проблемы). – М., 1990.
14. Рудев А. И. Международно-правовой статус космических станций. – М., 1989.
15. Словарь международного космического права. – М., 1992

XALQARO HUQUQ BO'YICHA IBORA VA TUSHUHCHALARNING TA'RIFI

Agreman (fr. agreeer – ma'qullamoq) – *biror davlatning aniq bir shaxsini boshqa davlatda diplomatik vakolatxonaning boshlig'i sifatida qabul qilishga rozilik.*

Agressiya (lot. aggressio, aggredior – xuruj, hujum qilmoq) – *xalqaro huquqda bir davlatning BMT Ustavini buzgan holda boshqa davlat yoki ma'lum bir davlatlarning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatilishi.*

Adaptatsiya – *davlatning amaldagi ichki huquqiy normalari va qonunlariga biror o'zgartirish kiritmay turib, ularni xalqaro shartnomalarga moslashtirish.*

Ad referendum (lot. Ad referendum) – *shartnomani shartli ravishda imzolash yoki hujjat matniga davlatning vakolatli organi yoki shaxsi tomonidan tasdiqlanishigacha rozilik bildirish.*

Adyudikatsiya – *xalqaro arbitraj yoki sud qarori vositasida hududni qo'lga kiritish. Hududiy nizoni tinch yo'l bilan hal etish vositalaridan biri.*

Ayb – *xalqaro huquqda huquqqa zid qilmish sodir etilishining aniqlangan fakti.*

Akklamatsiya – *ovoz berishsiz, muhokamada ishtirok etayotgan vakillarning qarsaklar, tovush chiqarish va shu kabilar orqali qaror qabul qilish usuli.*

Akkreditatsiya (lot. accredere – ishonmoq) – *xalqaro tashkilotda biror davlat vakolatxonasi boshlig'i yoki davlat vakilini tayinlash jarayoni.*

Akkretsia – *davlat hududining yangi paydo bo'lgan quruqlik hisobiga tabiiy ravishda kengayishi.*

Alternat prinsipi – *shunday qoida bo'lib, unga ko'ra xalqaro shartnomaning nusxasida mazkur shartlashayotgan tomon uchun ushbu tomon nomini, uning vakolatli shaxslarining imzosini, muhrini, shuningdek, mazkur tomon tilidagi shartnoma matnini tomonlarning umumiy ro'yxatida birinchi o'ringa qo'yish va bunda imzo uchun chap tomondan joy qoldirish.*

Angariya – urushayotgan tomonlardan birining hududida joylashgan betaraf (neytral) davlatlarning kemalari va boshqa transport, temir yo'l vositalaridan ushbu tomonning harbiy maqsadlarda foydalanishi.

Anklav (lot. inclavo – qulflayman) – bir davlat hududining boshqa bir davlat yoki davlatlar hududi bilan to'raligicha o'rab olingan qismi.

Anneksiya (lot. annexio – qo'shib olish) – bir davlat tomonidan boshqa bir davlat hududining butun qismi (yoxud bir qismi)ni zo'rlik ishlatib qo'shib yoki bosib olinishi.

Aparteid (Afrika burlari tilidan apartheid – alohida yashash) – davlat aholisini irqiy belgilari bo'yicha ajratishga yo'naltirilgan irqiy siyosat.

Apatrid (yunon. a – inkor + patris (patridos) – vatan) – fuqaroligi bo'lmagan shaxs, ya'ni biror davlat bilan doimiy va barqaror siyosiy-huquqiy aloqaga ega bo'lmagan shaxs.

Autentik matn (yunon. authentikos – haqiqiy, dastlabki manba asosida) – xalqaro shartnomaning asl, barcha rasmiyatgarchiliklarga amal qilib tuzilgan matni.

Bipatrid (lot. bi – ikki + yunon. patris (patridos) – vatan) – ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan shaxs. Xalqaro huquq tomonidan ma'qullanmaydi.

Boshpana – biror shaxsga siyosiy, diniy yoki boshqa qarashlari natijasida bo'layotgan ta'qiblardan yashirinish uchun muayyan davlat hududi yoki ushbu davlatning diplomatik yoxud konsullik muassasasidan joy berish. Xalqaro huquqda hududiy va diplomatik boshpana, shuningdek, vaqtincha yashirish farqlanadi.

Vassallik (lot. vassus – xizmatkor) – kolonial qaramlikning bir turi (tarixiy hodisa).

Gegemonlik (yunon. hegemonia – hukmronlik, boshchilik) – xalqaro munosabatlarda boshqalarga nisbatan ustunlik, etakchilik, hukmronlik qilish (tarixiy hodisa).

Genotsid (yunon. *genos* – nasl, urug' + lot. *caedere* – o'ldirish) – *biror milliy, irqiy yoki diniy guruhni to'la yoki qisman yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlar, siyosat.*

Davlat suvereniteti (fr. *souverain* – oliy, yuqori, *souverainete* – oliy hokimiyat) – *davlatning o'z ichki va tashqi huquq va majburiyatlarini to'laligicha, mustaqil ravishda amalga oshirishi.*

Dezavuiqlash – *o'z diplomatik vakilining harakatlari yoki bildirgan fikrini hukumat yoxud boshqa vakolatli davlat organi tomonidan rad etilishi.*

Deklaratsiya (lot. *Deklaratio* – e'lon qilish) – *ayrim xalqaro shartnomalarning nomlanishi bo'lib, shu sohaga oid asosiy prinsiplar va harakat dasturini belgilaydi.*

Dengizdagi qaroqchilik – *ochiq dengizda biror kema yoki uchish apparatiga yoxud ularning bortidagi shaxslar yoki mulkka qarshi sodir etiladigan huquqqa zid zo'ravonlik harakati.*

Delikt (lot. *delectum* – buzish, gunoh) – *xalqaro huquq subyekti tomondan xalqaro-huquqiy normalar va prinsiplarni qasddan buzish bo'lib, u xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.*

Demarsh (fr. *demarche* – chiqish, harakat) – *horijiy davlatning munosabatlariga nisbatan diplomatik chiqish qilish.*

Denonsatsiya (lot. *denuntiatio* – bildirish, xabar berish) – *shartnomaning amal qilishini tugatish yoki shartnomaning o'zida ko'rsatilgan tartib va muddatlarda undan chiqish usuli.*

Depozitariy (lot. *depositum* – saqlashga berilgan buyum) – *xalqaro shartnomaning asl nusxasi, ratifikatsiya yorlig'i, xalqaro shartnomaga qo'shilish va uni denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun topshiriladigan organ yoki xalqaro mansabdor shaxs (odatda xalqaro tashkilotning Bosh kotibi).*

Deponirlash – *xalqaro shartnomaning asl nusxasi, ratifikatsiya yorlig'i, xalqaro shartnomaga qo'shilish va uni denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarni depozitariyga saqlash uchun topshirish.*

Deportatsiya (lot. *deportatio* – quvg'in, surgun) – *shaxsni boshqa davlatga majburan chiqarib yuborish (odatda soqchi kuzatuv ostida amalga oshiriladi).*

Diskriminatsiya (lot. *discriminatio* – farqlash, ajratish) – aynan: cheklab qo'yish, kamsitish.

Dismisl – (ingl. *dismissal* – bo'shatish) – diplomatni xususiy shaxs deb e'lon qilish.

Duayen (dekan) – diplomatik korpusning protokol bo'yicha boshlig'i (kattasi, oqsoqoli). Odatda duayen etib diplomatik korpus ichida eng uzoq muddat lavozimda bo'lgan elchi yoki vakil tayinlanadi.

Jo'natish yorlig'i – elchi (vakil) akkreditatsiya qilinadigan davlat boshlig'iga ushbu elchi (vakil)ni tayinlagan davlat boshlig'i nomidan diplomatik kanallar orqali yuboriladigan rasmiy xati.

Zarar – xalqaro huquq subyektlari faoliyati natijasida boshqalarga yetkazilgan moddiy yoki nomoddiy ziyon.

Immigrant – biror mamlakatga dotmiy yoki uzoq muddatli yashash uchun ko'chib kelayotgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

Implementatsiya (ingl. *implementation* – aynan amalga oshirish, hayotga tatbiq etish) – xalqaro-huquqiy normalarni asl holida ichki huquqqa tatbiq qilish, kiritish, amalga oshirish.

Indigenat – «madaniylashgan» davlatlarning fuqarolari hisoblanib va shu bois imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar yig'indisi (tarixiy hodisa).

Indult – dushman tomonining savdo kemasini, u harbiy to'qnashuv kelib chiqqanligini bilmaganligi va musodara qilinishdan qochish uchun chora ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi asosida musodara qilishdan ozod etilishi.

Insurreksiya – diplomatning o'z funksiyalarini bajarishdan bosh tortishi.

Internirlash (qabul qilib olish) – betaraf (neytral) davlat tomonidan, urushayotgan tomonlarga tegishli bo'lgan shaxslarni qabul qilish.

Internunsiy – Shahar-davlat muqaddas taxt Vatikaning diplomatik vakili, favqulodda va muxtor vakil maqomiga tenglashtiriladi.

Kazus belli (lot. sasus belli) – *davlatlar o'rtasida urush boshlanishining formal, yuzaki sababi.*

Kazus federis (lot. sasus foederis) – *yuzaga kelishi xalqaro shartnomadagi tomonlarga ma'lum harakatlarni amalga oshirish huquqini beradigan sharoit yoki fakt.*

Kapitulatsiya – *dushman qurolli kuchlarining qarshilik ko'rsatishni butunlay va so'zsiz to'xtatishi.*

Kvorum (lot. quorum (praesentia sufficit) – *qatnashuvchilar (yetarli) – xalqaro tashkilotlar, konferensiyalar va organlarda ishni boshlash va qaror qabul qilish uchun ularning reglamentlarida belgilab qo'yilgan ko'pchilik.*

Klauzula (lot. clausula – xulosa) – *maxsus holatlarni belgilash uchun xalqaro shartnomalar yoki qonundagi alohida holat. Odatda xalqaro shartnomaning klauzula qismida tomonlar o'rtasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan prinsiplar (masalan, milliy rejim, eng ko'p qulaylik yaratish prinsipi, preferensial rejim va boshq.) o'z izohini topadi.*

Koalitsiya (lot. coalitio (coalitus) – birlashgan) – *ikki yoki undan ortiq davlatlarning erkin ravishda umumiy maqsadlarga erishish, umumiy dushmanga qarshi urush olib borish uchun tuzilgan birlashmasi, ittifoqi.*

Koloniya – *boshqa bir davlatga siyosiy yoki boshqa tomondan qaram bo'lgan davlat yoki hudud.*

Kombatant – *urushayotgan tomonning muntazam qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi va harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etayotgan shaxs.*

Kommunike (lot. sommunico, fr. communiquer – xabar qilaman) – *xalqaro shartnomalarning tuzilishi yoki natijalari, xalqaro konferensiyalar va muzokaralarning yoxud harbiy harakatlarning borishi to'g'risidagi rasmiy xabar.*

Konvensiya – *xalqaro shartnomalarni nomlanishidan biri. AQSHda konvensiyalar degan nomlanish ikki tomonlama shartnomalarni nomlash uchun, qolgan davlatlarda esa ko'p tomonlama shartnomalarni nomlash uchun qo'llanadi.*

Kondominium (lot. condominium < con – bilan, birga + dominium – egalik qilish) – ma'lum hududni ikki yoki undan ortiq davlatning birgalikda tasarruf etishi.

Konkordat – maxsus bitim, ma'lum bir davlat va Rim papasi o'rtasidagi shartnoma bo'lib, Rim katolik cherkovining ushbu davlatdagi huquqiy holatini va unga davlat hokimiyati organlarining munosabatini belgilab beradi.

Konsensus (lot. consensus – kelishuv, yakdillik) – xalqaro tashkilotlar (konferensiyalar, organlar)da qaror qabul qilish usuli bo'lib, ishtirokchi davlatlarning nuqtayi nazarlarini ovoz berishsiz, qaror qabul qilishda qarshiliklar bo'lmaganda qo'llaniladigan usul.

Kontributsiya – urush tugagandan so'ng yengilgan davlat yoki davlatlarning g'olib davlatga to'laydigan to'voni (tarixiy hodisa).

Ko'ngillilar – urushayotgan tomonlardan birining qurolli kuchlari tarkibiga erkin ravishda qo'shilgan shaxslar.

Legat – Rim katolik cherkovining boshqa davlatlardagi vakili.

Memorandum – bir yoki bir necha davlatlarning boshqa davlatga yozma murojaati. Unda xalqaro voqealikka oid holatlar o'z aksini topadi.

Maqom – xalqaro huquq subyektlari, alohida hududlar, shaxslar va mulk toifasining xalqaro huquq normalari bilan belgilab qo'yilgan holati.

Modus vivendi (lot. modus vivendi – vaqtinchalik bitim) – mavjud holatlarda doimiy kelishuvga erishishning iloji bo'lmaganda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar yuzasidan vaqtinchalik bitimga erishish.

Modus prosidendi (lot. modus prosidendi – harakat tarzi) – u yoki bu harakat, yoxud majburiyat qay tarzda va qanday tartibda bajarilishi kerakligini anglatadigan ibora.

Moratoriy – xalqaro huquq subyektlarining hudud va vaqt doirasida biror harakatdan o'zlarini tiyib turishlari yoki bu harakatlarni keyinga surish to'g'risida kelishib olishlari.

Naturallashish – manfaatdor shaxsning iltimosiga ko'ra biror davlat tomonidan uning fuqarolikka qabul qilinishi.

Nokombatant – qurolli kuchlar tarkibiga kiruvchi, qurolli kuchlarga yordam beruvchi, lekin o'zi bevosita harbiy harakatlarda ishtirok etmaydigan shaxs.

Nota (lot. note – belgi, mulohaza, nuqtayi nazar) – diplomatik yozishmaga oid hujjatlarning bir turi (verbal va shaxsiy).

Notifikatsiya – Tashqi ishlar vazirligi yoki diplomatik (konsullik) vakolatxona tomonidan nota yoki boshqa hujjat yuborish yo'li bilan biror xalqaro masala bo'yicha o'z davlatining nuqtayi nazarini bildirib, biror fakt yoki hodisa bo'yicha rasmiy xabar berish.

Nunsly – Shahar-davlat muqaddas taxt Vatikaning diplomatik vakili, favqulodda va muvotoq elchi maqomiga tenglashtiriladi.

Okkupatsiya (lot. occupatio, occupo – egallab olaman, qo'lga kiritaman) – 1) bir davlat qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlat hududining bir qismini yoki butunlay, asosan, hujum qilish orqali vaqtincha egallab olish; 2) qadimgi Rimda egasi yo'q narsalarni, jumladan yerni egallab olish usuli.

Optatsiya (lot. optatio – istak, tanlash, xohish, opto – tanlayman) – voyaga etgan shaxsning fuqarolikni ixtiyoriy ravishda tanlab olishi. Optatsiya huquqi bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o'tayotgan hududning aholisiga taalluqli bo'ladi.

Orol – suv bilan to'liq o'ralgan, tabiiy hosil bo'lgan quruqlik bo'lib, suv ko'tarilishida suv sathidan yuqorida bo'ladi.

Parlamentyor (fr. parper – gapirmoq) – harbiy qo'mondonlik tomonidan qarshi tomon bilan muzokara olib borishga vakil qilingan shaxs. Diplomatik daxlsizlik va imtiyozlardan foydalanadi.

Persona grata (lot. persona grata) – maqbul shaxs. Biror bir davlat oldida alohida xizmatlar ko'rsatganligi uchun chet el fuqarolari maqbul shaxs deb e'lon qilinishlari mumkin. Bu holat ularga, bir qancha, bojxona, soliq va boshqa erkinliklarni beradi.

Persona non grata (lot. persona non grata) – nomaqbul shaxs. Ayrim diplomatlar va razvedkachilar shunday shaxs deb e'lon qilinishlari mumkin. Bu holda, ular 24 soat ichida ushbu davlatni tark etishlari lozim.

Persona predilikta (lot. persona praedilecta) – eng maqbul shaxs. Xalqaro huquqda deyarli uchramaydigan holat.

Plebissit – u yoki bu masala yuzasidan aholining fikrini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan umumxalq so'rovi. Odatda, hududiy o'zgarish yuzasidan o'tkaziladi.

Preliminar tinchlik shartnomasi – dastlabki, birlamchi bitim, unda urushayotgan tomonlar kelgusidagi tinchlik shartnomasining asosiy shartlarini belgilab oladilar.

Preferensiyalar – bir davlat tomonidan boshqa davlat yoki davlatlar guruhiga o'zaro savdoda beriladigan bojxona va soliq imtiyozlari.

Protest – qat'iy inkor qilish, bir davlat yoki davlatlar guruhining noto'g'ri deb tasavvur qilinayotgan harakatlarga nisbatan qat'iy chiqishi.

Ratifikatsiya (lot. ratus – hal qilingan, tasdiqlangan + facere – qilmoq) – davlatning oliy (vakillik) organi tomonidan xalqaro shartnomani tasdiqlash. Odatda shundan keyin mazkur shartnoma ushbu davlat uchun yuridik kuchga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qiladi.

Ratifikatsiya yorlig'i – xalqaro shartnomani davlatning vakolatli organi tomonidan ratifikatsiya qilinganligini tasdiqlovchi hujjat.

Rezolutsiya – xalqaro tashkilot, konferensiya yoki organ tomonidan qabul qilinadigan hujjatning nomlanishi. Odatda rezolutsiyalar xalqaro huquqning manbasi sifatida tan olinmaydi.

Reintegratsiya – ilgari fuqarolikka ega bo'lgan va keyinchalik uni yo'qotgan shaxslarni o'sha davlat fuqaroligiga tiklanishi.

Rekvizitsiya (lot. requisitio – talab) – mulkni haqini to'llash yo'li bilan majburiy ravishda dushman davlatning mulkiga yoki vaqtinchalik tasarrufiga o'tkazish.

Reparatsiya – moddiy javobgarlikning bir turi bo'lib, etkazilgan moddiy zararni, ziyon etkazgan davlat tomonidan naturada yoki qat'iy summada qoplash.

Repatriatsiya (lot. repatriatio – yangidan, qaytadan + patris (patridos) vatan) – *boshqa davlat hududiga turli holat va sabablarga ko'ra kirib qolgan shaxslarni fuqaroligi, doimiy yashashi yoxud kelib chiqishi davlatlariga qaytarish.*

Repressaliylar (qurolli bo'lmagan) – *biror davlat tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarga javob tariqasidagi huquqqa mos majburiy harakatlar.*

Res kommunis (lot. res communis – umumiy mulk) – *Rim huquqi iborasi bo'lib, umumiy foydalanishdagi buyumni anglatadi.*

Res nullius (lot. res nullius – hech kimniki bo'lmagan mulk) – *Rim huquqi iborasi bo'lib, biror shaxsning mulki bo'lmagan, kim birinchi bo'lib qo'lga kiritsa, uning mulkiga aylanishi mumkin bo'lgan buyumni anglatadi.*

Restitutsiya – *urushayotgan davlat tomonidan noqonuniy ravishda olib qo'yilgan va olib chiqib ketilgan mol-mulkni naturada qaytarish.*

Retorsiya – *xalqaro huquq normalarin buzmaydigan, dushmanlik xatti-harakatlariga javoban amalga oshiriladigan huquqqa mos bo'lgan individual harakatlar.*

Resepsiya (lot. receptio) – *o'zlashtirish. Davlatning ichki normativ hujjatlarida xalqaro-huquqiy aktlarning aniq ifodasini berish.*

Satisfaksiya (ingl. satisfaction – qoniqish) – *davlatlar stiyosiy javobgarligining bir turi bo'lib, huquqbuzar-davlat tomonidan zarar ko'rgan davlatni qoniqtirishni anglatadi. Masalan, zarar ko'rgan davlatning bayrog'i, madhiyasiga mulozamatlar ko'rsatish, kechirim so'rash, ushbu davlat to'g'risida ko'rsatuv tayyorlash va efrida namoyish etish.*

Separat tinchlik – *koalitsiya yoki ittifoqdagi davlatlardan biri ushbu koalitsiya yoki ittifoqqa kirgan boshqa davlatlarga bildirmay dushman tomoni bilan tinchlik shartnomasi tuzishi yoki yarashishi.*

Settlementlar – *iqtisodiy goloq mamlakatlarning shaharlari va mahalliy joylarida, xalqaro shartnomalarga binoan xorijiy fuqarolarga yashash va savdo-sanoat faoliyati uchun ijaraga berilgan va eksterritoriallikdan foydalanadigan hududlar (tarixiy hodisa).*

Status-quo (lot. status quo – ilgari, birlamchi holat) – ayni vaqtdagi yoki biror muddat oldin davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda yoki xalqaro maydonda mavjud bo'lgan holat.

Statut (ingl. statute – qaror qilaman, hal etaman) – xalqaro organning faoliyatini tartibga soluvchi ko'p tomonlama xalqaro ta'sis hujjatining nomlanishi. Masalan, BMT Xalqaro Sudining Statuti, Xalqaro jinoyat sudining Statuti va boshq.

Sunt servanda pakti (lot. Pacta sunt servanda) – xalqaro majburiyatlarga qat'iy rioya qilinishi va ular vijdonan bajarilishi shartligi prinsipi.

Tabula rasa (lot. tabula rasa – toza, yozilmagan doska) – boshqa davlatlar oldida o'tmishdosh-davlatning biror bir majburiyatlarini olmagan, yangi paydo bo'lgan davlat.

Tegishlilik (tobelik, poddanni) – fuqarolikning o'zi, lekin monarxi boshqaruv shakliga ega davlatlarda qo'llaniladi. Tarixan, monarxga tegishli bo'lgan shaxslar fuqarolarga nisbatan huquq va erkinliklarning ko'pchiligidan foydalanishmagan. Hozirgi kunda tegishlilik ayrim monarxi boshqaruv shakliga ega davlatlarda qo'llaniladi, ayrim monarxi boshqaruv shakliga ega davlatlar esa (Ispaniya, Niderlandiya) fuqarolikni joriy etishgan.

Transfert (lot. transferre – ko'chirmoq, o'tkazmoq, jo'natmoq) – bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotgan hudud bilan birgalikda, unda yashovchi aholini, tegishli boshqa davlat fuqaroligiga berish.

Transformatsiya – xalqaro huquq normasini davlatning ichki huquq normasiga aylantirish.

Ultimatum (lot. ultimus – eng oxirgi) – biror davlatning, boshqa davlatga ultimatum yuborilgan muddat ichida talablarni bajarmasa, muayyan choralar qabul qilish mumkinligi bilan tahdid qilgan holda qo'yilgan, kelgusida hech qanday bahslarga o'rin qoldirmaydigan talabi.

Urush – davlatlar o'rtasidagi, shuningdek, davlatlar va milliy-ozodlik harakatlari, qo'zg'olonchilik harakatlari o'rtasidagi tinch aloqalarni buzgan holda olib boriladigan harbiy harakatlar. Hozirgi zamon xalqaro huquqi urush iborasining o'rniga mojaro iborasini qo'llaydi, chunki Brian-Kellog paktiga (Parij pakti, 1928 y.) asosan, urush o'zaro muammolarni hal etish vositasi sifatida taqiqlangan.

Urush teatri (sahnasi) – urushayotgan davlatlarning harbiy operatsiyalar olib bora oladigan barcha hududlar (xalqaro rejimli hududlar bundan mustasno).

Fuqarolik – jismoniy shaxsning davlat bilan o'zaro huquq va majburiyatlar yig'indisida namoyon bo'ladigan barqaror siyosiy-huquqiy aloqasi.

Xalqaro shartnomani prolongatsiya qilish (lot. prolongare – uzaytirish) – xalqaro shartnomaning amalda bo'lishini, uning muddati tugagunicha shartnoma muntazamligini ta'minlash maqsadida uzaytirish.

Xalqaro shartnomani promulgatsiya qilish – xalqaro shartnomani davlat ichida belgilangan tartibda e'lon qilish.

Xalqaro shartnomaga istisno (ogovorka, clause) – xalqaro ko'p tomonlama shartnoma qatnashchilaridan birining, shartnomaning biror qoidasini o'zi uchun majburiy emasligi haqida yoki shunday qoidani o'zgartirib qo'llash niyatida bir tomonlama rasmiy bayonoti.

Xalqaro shartnomani reviziya qilish – xalqaro shartnomaga tuzatishlar kiritish yoki uni o'zgartirish.

Xalqaro shartnomani novatsiya qilish – ishtirokchilarning kelishuviga binoan, xalqaro shartnomadagi majburiyatlarni zamon talabidan kelib chiqib yangilanish.

Xalqaro shartnomani parafirlash – vakolat berilgan shaxslarning ismi va otasining ismini qo'ygan holda xalqaro shartnomalarni umuman yoki bir qismini dastlabki imzolash.

Xalqaro shartnomani qayd etish, ro'yxatga kiritish – kuchga kirgan xalqaro shartnomani xalqaro tashkilotning maxsus registr (ro'yxat)iga kiritish. Bu holat, ushbu tashkilot organlarida, mazkur shartnomaga havolalar qilishga imkon beradi.

Xalqaro shartnomaning muddati – xalqaro shartnoma amalda bo'ladigan vaqt. Xalqaro shartnomalar muddatli va muddasiz bo'ladi. Muddatli shartnomalar o'z navdatida aniq muddatli (masalan, 20 yilga) va nomuayyan muddatli (tomonlar kelishishiga bog'liq holda) bo'ladi.

Xalqaro vaziyat – xalqaro kelishmovchiliklarning turlaridan biri bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasidagi keskinlik bilan tavsiflanadi.

Xalqaro nizo – fakt yoki huquq bo'yicha davlatlar o'rtasidagi bahs.

Harbiy asirlar – urushayotgan davlat qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi, urushayotgan ikkinchi davlat tomonidan qo'lga olingan va shu davlat hokimiyati ostida bo'lgan shaxslar. Harbiy asirlar Jeneva konvensiyalari tomonidan himoya qilinadi.

Hududiy nizo – ma'lum hududning kimga tegishliligi yuzasidan davlatlar o'rtasida vujudga keladigan nizo.

Hududni remilitarizatsiya qilish – ilgari demilitarizatsiya qilingan hududga qurolli kuchlarni kiritish, unda qurilmalar, bazalar va boshqa harbiy obyektlarni qurish, bu hududga, ilgari taqiqlangan qurollarni joylashtirish..

Qochoqlar – o'zlari doimiy yashab turgan davlatlarini, ta'qib qilish, harbiy harakatlar yoki tabiiy ofatlar yoxud favqulodda vaziyatlar tufayli tashlab chiqib ketgan shaxslar.

Qullik – o'ziga nisbatan mulk huquqiga xos bo'lgan ha'zi yoki barcha vakolatlar amalga oshirilayotgan shaxsning holati. Xalqaro huquqda qullik, qullikka olish, qullik siyosatini amalga oshirish konvensiyaviy tarzda taqiqlangan.

Sessiya – xalqaro shartnoma asosida davlat hududining bir qismini boshqa davlatga berish.

Chaqirib olish yorlig'i – davlat boshlig'ining rasmiy xati bo'lib, shu davlat vakili akkreditatsiya qilingan davlat boshlig'i nomiga, elchi (vakil)ni muddati tugaganligi yoki boshqa sababga ko'ra chaqirib olishi to'g'risida yuboriladi va tashqi ishlar vazirining imzosi bilan mustahkamlanadi.

Chegara – quruqlik va suv hududlari, havo kengligi va yer osti boyliklari ustidan davlat suverenitetini belgilaydigan, quruqlik, havo yoki suv sathi bo'ylab amalda yoxud tasavvuran o'tkazilgan chiziqlar.

Chegaralar delimitatsiyasi – chegaradosh-davlatlar birgalikda, shartnomaviy asosda quruqlikdagi va suvdagi davlat chegaralari o'tishining umumiy yo'nalishlarini jug'rofiy xaritaga tushirishni amalga oshirish jarayoni.

Chegaralar demarkatsiyasi (fr. demarkation – chegaralash) – delimitatsiya qilingan chegaralarni joylarda aniq belgilash. Delimitatsiya yo'nalishlaridan birmuncha farq qilishi mumkin.

Chegaralarni redemarkatsiya qilish – demarkatsiya va redemarkatsiya bo'yicha aralash komissiyalar tomonidan tuzilgan amaldagi shartnoma normalari asosida, joylarda davlat chegara chizig'ini tiklash va uni chegara belgilari bilan belgilab qo'yish.

Chegaralarni rektifikatsiya qilish – mahalliy joylarda chegaraning holatiga, chegara bo'yicha xalqaro shartnomada belgilangan holatga unchalik muhim bo'lmagan o'zgartirishlar va aniqliklar kiritish.

Chiqarib yuborish – chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni, u istiqomat qilib turgan davlat qonunlarini buzganligi yoki uning ichki ishlariga aralashganligi uchun mazkur davlatdan chiqarib yuborish.

Ekspatriatsiya – fuqarolikni yo'qotish.

Ekstraditsiya (lot. ex -dan + traditio – berish) – jinoyatchilarni berish, ya'ni bir davlatning boshqa davlat iltimosi asosida, jinoyat sodir etgan yoki sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni jinoiy ta'qib yoki hukmni ijro qilish uchun talab etgan davlatga berish.

Eksterritoriallik – o'z davlatining qonunlariga bo'ysunish va horijiy davlat yurisdiksiyasi hamda uning huquqlaridan daxlsizlik.

Embargo (eksportga va importga) (isp. embargo – xatlash, taqiqlash) – boshqa davlat yoki davlatlar guruhi bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni cheklash, to'xtatish yoki bekor qilish.

Emmigrant – o'z fuqaroligi davlatini yoki doimiy yashash joyini tashlab chiqqan va boshqa davlatga doimiy yashash uchun ko'chib ketayotgan shaxs.

Emissar – turli topshiriqlarni bajarish uchun boshqa davlatga jo'natilgan davlat, xalqaro tashkilot yoki organning maxsus vakili.

Estoppel – xalqaro shartnomaning to'xtatilganligi, bekor qilinganligi yoki haqiqiy emasligi oqibatida davlatning unga havola qilish huquqini yo'qotishi.

Yarashish – urushayotgan tomonlarning o'zaro kelishuvi yoki BMT Xavfsizlik Kengashining talabi bilan harbiy harakatlarni to'xtatish yoki bas qilish.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
Kirish	5

UMUMIY QISM

1-bob. Xalqaro huquq tushunchasi	9
1. Xalqaro huquq tushunchasi va mohiyati	9
2. Hozirgi zamon xalqaro huquqi va klassik xalqaro huquq	12
3. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq	14
4. Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqi	16
5. Xalqaro huquq, xalqaro munosabatlar, diplomatiya va tashqi siyosat	19
2-bob. Xalqaro huquq tarixi	23
1. Xalqaro huquqning kelib chiqishi va uning tarixini davrlash	23
2. Xalqaro huquq ilmi shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari	27
3. Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro huquqning rivojlanishi	28
3-bob. Xalqaro huquq normalari	31
1. Xalqaro huquq normasi tushunchasi	31
2. Xalqaro huquq normalarining tasnifi	34
3. Xalqaro huquq normalarini qo'llash	36
4. Xalqaro huquq normalarini sharhlash	37
4-bob. Xalqaro huquq manbalari	41
1. Xalqaro huquq manbalari tushunchasi	41
2. Xalqaro shartnoma – xalqaro huquqning asosiy manbayi sifatida	42
3. Odat – xalqaro huquqda dastlabki manba sifatida	43
4. Xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarning majburiy aktlari	44
5. BMT Xalqaro Sudining qarorlari	45
6. Xalqaro huquq doktrinasining roli	46
7. Davlatlarning bir tomonlama yuridik aktlari	47

5-bob. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari	51
1. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari tushunchasi	51
2. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari izohi	53
3. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi	67
6-bob. Xalqaro huquq subyektlari	71
1. Xalqaro huquq subyektlari tushunchasi va ularning turlari	71
2. Davlat xalqaro huquqning asosiy subyekti sifatida	74
3. Ozodlik uchun kurash olib borayotgan millatlar va xalqlarning xalqaro-huquqiy subyektligi	77
4. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning huquqiy subyektligi	79
5. Xalqaro huquqda davlatsifat tuzilmalar	80
7-bob. Xalqaro huquqda tan olish	83
1. Xalqaro huquqda tan olish tushunchasi	83
2. Tan olish nazariyalari	84
3. Tan olish shakllari	85
4. Tan olishning turlari va usullari	86
8-bob. Xalqaro huquqda huquqiy vorislik	90
1. Xalqaro huquqda huquqiy vorislik tushunchasi	90
2. Xalqaro shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi	92
3. Davlat mulkiga nisbatan huquqiy vorislik	94
4. Davlat arxivlariga nisbatan huquqiy vorislik	96
5. Davlat qarzlari borasida huquqiy vorislik	97
9-bob. Xalqaro huquqda hudud	101
1. Xalqaro huquqda hudud tushunchasi va rejimi	101
2. Davlat hududining tasnifi va yuridik tabiati	102
3. Davlatlar suv havzalarining xalqaro-huquqiy rejimi	104
4. Davlat chegarasi tushunchasi va uni o'rnatish tartibi	109
5. Aralash rejimli hududlarning xalqaro-huquqiy rejimi	113
6. Xalqaro rejimli hududlarning xalqaro-huquqiy rejimi	116
10-bob. Xalqaro huquqda aholi	140
1. «Aholi» atamasining umumiy tavsifi	140
2. Fuqarolikning xalqaro-huquqiy jihatlarini	141
3. Chet elliklarning huquqiy holati	152
4. Xalqaro huquqda qochoqlar huquqi	155
5. Xalqaro huquqda boshpana huquqi	157
11-bob. Xalqaro shartnomalar huquqi	162
1. Xalqaro shartnomalar huquqi tushunchasi, uning kodifikatsiyasi va manbalari	162
2. Xalqaro shartnoma tushunchasi, obyektini va maqsadlarini	164
3. Xalqaro shartnomaning tomonlari	165
4. Xalqaro shartnomalarning tasnifi	166

5. Xalqaro shartnomalarning shakli, tuzilishi va nomlanishi. Shartnomaning tili	167
6. Xalqaro shartnomani tuzish	168
12-bob. Xalqaro tashkilotlar huquqi	177
1. Xalqaro tashkilotlarning yaratilish tarixi	177
2. Xalqaro tashkilotlarning huquq subyektligi	179
3. Xalqaro tashkilotlar funksiyalari	181
4. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik	182
5. Xalqaro tashkilotlarning organlari	183
6. Xalqaro tashkilotlarning turlari va tasnifi	185
13-bob. BMT va O'zbekiston Respublikasi	190
1. BMT tashkil etilishi va shakllanishining qisqacha tarixi	190
2. BMTning bosh organlari va ularning vakolatlari	193
3. BMTning ixtisoslashgan muassasalari	200
4. O'zbekiston va BMTning o'zaro aloqalari	210
14-bob. Xalqaro konferensiyalar huquqi	215
1. Xalqaro konferensiya tushunchasi va tasnifi	215
2. Xalqaro konferensiyalarni tayyorlash va chaqirish tartibi	216
3. Xalqaro konferensiyalarning protsedura qoidalari	217
4. Davlat delegatsiyalari va konferensiya organlari	220
5. Xalqaro konferensiyalar aktlarining turlari va ularning yuridik kuchi	223
15-bob. Xalqaro huquqda javobgarlik	226
1. Xalqaro-huquqiy javobgarlik tushunchasi	226
2. Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi asoslari	228
3. Davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi turlari va shakllari	230
4. Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi	233
5. Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoiy javobgarligi	235

MAXSUS QISM

16-bob. Xalqaro xavfsizlik huquqi	238
1. Xalqaro xavfsizlik huquqi tushunchasi va vujudga kelishi.....	238
2. Xalqaro xavfsizlik huquqining maqsadi va prinsiplari	241
3. Yalpi xavfsizlik, tushunchasi va ta'minlanishi.....	242
4. Mintaqaviy xavfsizlik, tushunchasi va hozirgi kundagi holati	247
5. Qurollsizlanish va qurollanishni cheklash	252
17-bob. Xalqaro gumanitar huquq	259
1. Gumanitar huquq institutining vujudga kelishi va rivojlanishi.....	259
2. Xalqaro gumanitar huquqning manbalari	261
3. Qurolli mojarolar davrida qo'llaniladigan gumanitar huquqning asosiy normalari	265
4. Xalqaro qurolli mojarolar va xalqaro bo'lmagan (ichki) mojarolar	266
5. Betaraflikning xalqaro-huquqiy jihatlari.....	271
6. Urush olib borish qoidalariga rioya qilish	272
7. Urushni olib borishda umumiy xarakterdagi cheklashlar	274
8. Urush olib borish usullari va vositalarini tanlashdagi cheklashlar	277
9. Noharbiy obyektlar va aholini himoya qilish.....	281
18-bob. Xalqaro nizolarni tinch hal etish xalqaro huquqi	286
1. Xalqaro nizo tushunchasi	286
2. Xalqaro nizolarni tinch hal etish prinsipi.....	288
3. Xalqaro nizolarni tinch hal etish vositalari	291
4. Xalqaro tashkilotlar doirasida nizolarni tinch hal etish mexanizmi.....	307
19-bob. Xalqaro jinoyat huquqi	315
1. Xalqaro jinoyat va jinoiy aktlar tushunchasi va tasnifi.....	315
2. Xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari	317
3. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning alohida turlari.....	323
4. Jinoiy ishlar bo'yicha davlatlararo huquqiy yordam.....	335
5. Xalqaro jinoyat Sudlari	339
6. Jinoyatchilikka qarshi xalqaro institutsional kurash	354
20-bob. Xalqaro yadro huquqi	364
1. Xalqaro yadro huquqi institutining shakllanishi	364
2. Yadro qurollarini tarqatmaslikning umumiy tushunchasi	369
3. Yadro qurollarini tarqatmaslikning xalqaro kafolatlari	370
4. Yadro qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha xalqaro organlar	375
5. Yadro qurollarini tarqatmaslikning xalqaro shartnomaviy asoslari	377
6. Yadosiz zonalar tushunchasi va turlari	381
Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona sifatida	387
21-bob. Xalqaro iqtisodiy huquq	392
1. Xalqaro iqtisodiy huquqning vujudga kelishi	392
2. Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi va subyektlari	393

3. Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari.....	394
4. Xalqaro iqtisodiy huquq prinsiplari	397
22-bob. Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro huquqi	402
1. Atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasi tushunchasi	402
2. Atrof-muhitning xalqaro-huquqiy muhofazasi prinsiplari	404
3. Atrof-muhitning alohida obyektlarini xalqaro-huquqiy muhofazasi bo'yicha shartnomaviy normalar	407
4. Atrof-muhit masalalari bo'yicha xalqaro konferensiyalar	411
5. Atrof-muhit bo'yicha BMT Dasturi	415
6. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda mintaqaviy hamkorlik	417
7. Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari, bu muammolarni hal etishning xalqaro-huquqiy jihatlari	419
23-bob. Xalqaro havo huquqi	427
1. Xalqaro havo huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi	427
2. Xalqaro havo huquqi tushunchasi	428
3. Xalqaro parvozlar va havo makoni rejimi. Xalqaro havo makonida parvoz etish qoidalari	436
4. Havo kemasi va ekipajining huquqiy holati.....	440
5. Xalqaro aviatsiya tashkilotlari	441
6. Fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish aktlariga qarshi kurash	445
24-bob. Xalqaro koinot huquqi	451
1. Xalqaro koinot huquqi tushunchasi va xususiyatlari	451
2. Xalqaro koinot huquqi manbalari	454
3. Xalqaro koinot huquqining obyektlari va subyektlari.....	456
4. Koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlarning institutsional hamkorligi	459
5. Xalqaro koinot huquqida davlatlarning javobgarligi	465
Xalqaro huquq bo'yicha ibora va tushunchalarning ta'rifi	469

X. T. ODILQORIYEV
yuridik fanlar doktori, professor

B. E. OCHILOV
J.D. (Judicial Doctor)

XALQARO OMMAVIY HYQYQI

Darslik

Muharrir	R. Jomonov
Texnik muharrir	D. Isamuhamedova
Kompyuterda sahifalovchi	D. Xamidova

Bosishga 26.06.2007 yilda ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60 x 84 1/16.

Bosma tabog'i 30,4.

Adadi 500 nusxa.

1109 -sonli buyurtma. Narxi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi «Adolat» nashriyoti.
Toshkent shahri, 100083, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

TDYUI «TEZKOR NASHR MARKAZI»da bosildi.
Toshkent shahar, Sayilgoh 35.

ISBN 978-9943-332-35-5



9 789943 332355

9000c